**Для цитирования**: Аббосова.Н.Б., Кодирова Х.Н. Интеграция научно-дидактических возможностей профессионального лабораторного оборудования lex solar pv в дисциплину «электричество и магнетизм».(на примере занятия физпрактикум).// Inter education & global study.2025. №8. С.23-33.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

# INTEGRATION OF SCIENTIFIC AND DIDACTIC CAPABILITIES OF LEX SOLAR PV PROFESSIONAL LABORATORY EQUIPMENT INTO THE FIELD OF ELECTRICITY AND MAGNETISM (USING THE EXAMPLE OF PHYSICAL THERAPY CLASSES)

©Nozima.B. Abbosova[1]✉, Xamidaxon.N, Qodirova[2]✉
[1]Andijan State University, Andijan, Uzbekistan
[2]"Uzbek Center for Scientific Testing and Quality Control" (DM"Uztest"), Tashkent, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** the article analyzes the scientific and didactic potential of the Lexsolar-PV Professional innovative laboratory system and its integration into physics laboratory sessions on “Electricity and Magnetism.” The limitations of traditional approaches and the role of modern technologies in enhancing student learning are emphasized.

**AIM:** the main objective of the study is to improve the effectiveness of teaching laboratory sessions in electricity and magnetism by integrating Lexsolar-PV Professional, while also assessing its role in fostering student engagement and ecological thinking.

**MATERIALS AND METHODS:** the study was conducted at Andijan State University with 24 second-year students divided into control and experimental groups. Methods included observation, video analysis, student surveys, diagnostic tests, and reflective writing.

**DISCUSSION AND RESULTS:** diagnostic test results showed that the average score of the experimental group increased by 25.8%, compared to 11.6% in the control group. Students in the experimental group also demonstrated higher participation and motivation in practical tasks. Survey results indicated that 92% of students found the sessions engaging, and 96% reported that the experiments helped them consolidate theoretical knowledge through practice.

**CONCLUSION:** the findings confirm that integrating Lexsolar-PV Professional into physics laboratory practice significantly enhances the effectiveness of teaching, strengthens students’ understanding of fundamental physical laws, and contributes to the development of ecological and critical thinking skills. This integration represents a strategic tool for preparing future specialists in innovative and sustainable energy fields.

**Keywords:** leXsolar-PV Professional, physics laboratory, electricity and magnetism, innovative technologies, MPP tracker, STEM education, integration.

**For citation**: Nozima B. Abbosova., Xamidaxon.N, Qodirova (2025) ‘Integration of scientific and didactic capabilities of lex solar pv professional laboratory equipment into the field of electricity and magnetism. (using the example of physical therapy classes)’, Inter education & global study, (8), pp.23-33. (In Uzbek).

**B**ugungi kunda oliy ta'lim muassasalarining texnika, muqobil energiya manbalari, jumladan, fizika yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarga fizik praktikumdan o‘quv

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

mashg‘ulotlar tashkil etishda birmuncha qiyinchiliklarga duch kelinmoqda.[1] Olib borilgan pedagogik tadqiqotlar va kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, laboratoriya mashg‘ulotlari o‘tkazilayotgan guruhlarda fizika va matematika fanlaridan tayyorgarligi hamda boshlang‘ich eksperimental ko‘nikmalarining shakllanganlik darajalari turlicha bo‘lgan talabalarning tahsil olayotganliklarini ko‘rsatmoqda [2]. Bundan tashqari, guruhlarda eksperimental ishlarga layoqatli va aksincha, eksperimental ishlarga nisbatan moyilligi bo‘lmagan talabalar ham hamma vaqt topiladi. Shunga qaramasdan, oliy ta’lim muassasalari fizika va muqobil energiya manbalari ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilari, fizika fanidan eksperimentlarni o‘tkaza olish, o‘quv jarayoniga tadbiq etish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishlari zarur.[3] Uzoq yillik olib borilayotgan pedagogik tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, talabalarning bugungi kundagi talab va ehtiyojlarini qondirish, jahon andozalariga mos mutaxassislar tayyorlashda faqatgina klassik laboratoriya jixozlari bilan dars o’tib bo’lmaydi [4]. Fan texnologiyalarni jadal rivojlanishi axborotlarni qabul qilish va uni tahlil qilib, xulosalarga kelish orqali ma’lum bir malaka shakllantiriladi. Talabalarda individual yondashuv, kompleks yondashuvga nisbatan samarali natija berishi hech kimga sir emas [5]. Yuqorida keltirilgan fikrlar na’munaviy o`quv rejadagi laboratoriya mashg‘ulotlarini hozirgi kun talablari darajasiga ko`tarish muammosi fizika fanini o`qitishda dolzarb masalalardan hisoblaniladi. Agarda amaliy mashg`ulotlarda talabalarda ixtiro va kashfiyotga bo`lgan, malaka hamda ko`nikmani shakllantira olsak, tabiiyki, davlatimiz fan va texnikasi, texnologiyasi, shuningdek, iqtisodiyotining jadal rivojlanishiga munosib turtki bo`ladi, deb hisoblaymiz.[6] Shu sababli laboratoriya mashg`ulotlari strukturasini o`zgartirish yani zamonaviy laboratoriya jixozlarini hamda ta’lim texnologiyalari o`z ichiga fizpraktikum dars jarayonlarini tashkillashtirish zaruriyat paydo bo`lmoqda. Shu sababli biz talabalar uchun Andijon davlat universitetining “Res Lab” laboratoriyasiga xorijdan keltirilgan leXsolar-PV Professional zamonaviy, ixcham, innovatsion laboratoriya jihozlarinidan “Elektr va magnetizm” fanining, fizpraktikum laboratoriya mashg’ulotlariga integratsiyalash orqali natijalarni aniqlamoqdamiz.

LeXsolar-PV Professional — bu ilg‘or fotovoltaik (quyosh energiyasi) ta’limi va laboratoriya ishlari uchun mo‘ljallangan to‘liq o‘quv tizimidir. Keng ko‘lamdagi foydalanish imkoniyatlarini qamrab olgan ushbu tizim oddiy elektr muhandisligi asoslaridan tortib, to‘liq PV tizimlarni loyihalashgacha bo‘lgan amaliy tajribalarni o‘tkazish imkonini beradi [7]. Uning modulli tuzilmasi asosiy komponentlarni chuqur tahlil qilishga imkon beradi, masalan: shunt va ketma-ket stabilizatorlar, maksimal quvvat nuqtasini (MPP) kuzatuvchilar, hamda invertorlar. Qo‘shimcha aksessuarlar yordamida LED va inkandesan lampalar kabi turli iste’molchilarning samaradorligini taqqoslash tajribalari ham o‘tkazilishi mumkin. Barcha komponentlar bardoshli alyuminiy qutiga joylashtirilgan bo‘lib, bu tizimni professional o‘qituvlar, seminarlar yoki universitet dasturlari uchun ideal hisoblanadi (1-rasm).

Tarkibiy qismlar:

turli quyosh modullari, jumladan 5.33 v / 370 ma yuqori quvvatli modul;

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

asosiy baza qurilmasi, xavfsizlik rozetkali yoritish modullari;

ilg‘or modullar: mpp kuzatuvchi, invertor, pwm (impuls-kenglik modulyatsiyasi); regulyatori, chuqur zaryadsizlanishdan himoya;

diod, reostat (potensiometr), rezistor, kondensator va led modullari;

motor, lampochka, radio moduli, propeller, chiroq korpusi;

shtekerni ulanadigan to‘liq rezistorlar to‘plami;

powermodule va av modullari;

quyosh paneli stendlari, yopuvchi to‘plam, sinov simlari;

alyuminiy quti, yumshoq joylashtiruvchilar (foam inserts), sxemalar va axborot varag‘i.

O‘tkazilishi mumkin bo‘lgan tajribalar:

kuchlanish, tok va quvvat o‘lchovi; om qonuni;

ketma-ket va parallel rezistorlar tarmoqlari (bo‘luvchilar);

quyosh elementining ishlashi: yuzasi, burchagi va yoritilishi asosida;

i-v xarakteristikasi, to‘ldirish faktori va mpp tahlili;

harorat va soya tushishining quyosh modullari samaradorligiga ta’siri;

mustaqil (off-grid) pv tizimlaridagi ishlash va boshqaruv xatti-harakati;

shunt/ketma-ket regulyatorlar va mpp kuzatuvchilarning ishlash prinsiplari;

pwm va ketma-ket regulyatorlar orqali zaryadlash samaradorligi;

dc/ac invertor yordamida o‘zgarmas tokdan o‘zgaruvchan tok olish.

Tizimning modulli tuzilmasi talabalarga bosqichma-bosqich o‘rganish imkonini beradi, bu esa didaktik samaradorlikni oshiradi [8]. “Zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiyalash nafaqat bilimlarni mustahkamlashga, balki talabalarning faolligi va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi” [9].

1. Didaktik yondashuvga mosligi:

Modullilik prinsipi: Har bir tajriba alohida modul orqali bajarilishi ta’limni bosqichma-bosqich (step-by-step) o‘rganishga moslashtiradi.

Ko‘rgazmalilik: Quyosh panellari, LED, motor va lampalar kabi komponentlar yordamida vizual va tajriba asosidagi o‘rganish rag‘batlantiriladi.



1-rasm

Aktiv ishtirok: Talabalar real tajribalar orqali o‘zlari fizika qonunlarini mustaqil tekshirib, faol ishtirokchi bo‘lishadi.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

2. Ilmiy mazmuni va chuqurligi:

Fundamental tushunchalarni o‘z ichiga oladi: Om qonuni, kuchlanish-tok-quvvat bog‘liqligi, I-V xarakteristikasi, MPP kuzatuvchi va PWM regulyatorlar ishlash tamoyillari.

Ilg‘or texnologiyalar bilan tanishtiradi: Bugungi kundagi zamonaviy PV (photovoltaic) texnologiyalar, invertorlar, DC/AC konvertatsiya, energiya samaradorligi.

Ilmiy tadqiqotlar uchun mos: Harorat, soya, yorug‘lik, burchak va sirt o‘zgaruvchilari orqali samaradorlikni o‘rganish real ilmiy ishlar uchun asos bo‘ladi.

3. O‘quv samaradorligi:

Tajriba asosli o‘qitish (experiential learning): Talabalar nazariy bilimni darhol amaliyotda sinab ko‘radi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi: MPP kuzatuvchilarning natijalarini tahlil qilish, PWM regulyator samaradorligini solishtirish orqali.

STEM yondashuvini qo‘llab-quvvatlaydi: Fizika, muhandislik, matematika va texnologiyani integratsiyalash orqali kompleks ta’lim beradi.

4. Moslashtirish imkoniyati:

Turli darajadagi ta’lim uchun mos: Boshlang‘ich darajadagi elektr qonunlaridan tortib, mustaqil PV tizimlarni qurishgacha bo‘lgan tajribalar mavjud.

Qo‘shimcha aksessuarlar yordamida kengayadi: O‘qituvchi va talaba qo‘llanmalari, termometrlar, adapterlar yordamida o‘quv modellarini moslashtirish mumkin.

Tadqiqot usullari va materiallari:

Ushbu tadqiqotda elektr va magnetizm fanidagi fizpraktikum mashg‘ulotlariga leXsolar-PV Professional o‘quv laboratoriya tizimini integratsiyalash orqali uning ilmiy-didaktik imkoniyatlarini aniqlash va o‘quv samaradorligiga ta’sirini baholash maqsad qilingan. Tadqiqot eksperimental va amaliy yondashuv asosida tashkil etildi. Eksperimentlar fizik laboratoriya sharoitida amalga oshirildi, bunda quyosh panellari, tok va kuchlanish o‘lchovlari, hamda energiya samaradorligi kabi parametrlar asosida o‘quvchilarning faol ishtiroki kuzatildi. Tajriba Andijon davlat universitetining fizika fakulteti 2-bosqich talabalar bilan o‘tkazildi. Guruh 24 nafar talabalardan iborat bo‘lib, ular ikki guruhga bo‘lindi:

Tajriba guruhi — leXsolar-PV Professional uskunasidan foydalandi.

Nazorat guruhi — an’anaviy laboratoriya usullaridan foydalandi.

Tadqiqot davomida 3 ta laboratoriya mashg‘uloti qayta ishlanib, leXsolar modullari asosida integratsiyalandi. Mashg‘ulotlar quyidagi mavzularni qamrab oldi:

| Tajriba nomi | Elektr va magnetizm faniga doir mavzu nomi | Integratsiya imkoniyati |
|---|---|---|
| Kuchlanish, tok va quvvatni o‘lchash | Om qonuni, Kirxgof qonunlari | Quyosh elementlarida kuchlanish va tokni real vaqt o‘lchash orqali energiyaning qanday oqishini tushunish |

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

| | | |
|---|---|---|
| Om qonuni | R=U/I asosiy qonuni | Quyosh elementlarining I–V xarakteristikasi orqali Om qonunini amaliy ko‘rsatish |
| Ketma-ket va parallel ulanish | Zanjirlar analizasi | Quyosh elementlarining ketma-ket va parallel ulanishidagi tok/kuchlanish taqsimotini ko‘rsatish |

Tadqiqot davomida quyidagi usullar qo‘llanildi:

Kuzatuv va video-analiz: talabalar tajriba jarayonida qanday faoliyat yuritayotganini baholash

Anketalar: talabalar tomonidan tajribalardan keyingi fikr-mulohazalar

Diagnostik testlar: laboratoriyadan oldin va keyin bilim darajasini aniqlash


Refleksiya yozmalari: har bir laboratoriya mashg‘ulotidan keyingi talabalar fikrlari

Natijalar va ularning tahlili. Olingan diagnostik test natijalari va diagrammasi (1-jadval, 1-diagramma), amaliy topshiriqlardagi ishtirok faolligi (2- jadval, 2-diagramma), anketalar orqali talabalar tomonidan tajribalardan keyingi berilgan fikr-mulohazalar (3-rasm, 1-diagramma), natijalar statistik usulda (foizlar, o‘rtacha ball, o‘sish dinamikasi) tahlil qilindi. Tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi natijalar taqqoslanib, leXsolar tizimining didaktik samaradorligi aniqlandi. Tadqiqot davomida tajriba guruhi (leXsolar-PV Professional tizimi asosida o‘qitilgan) va nazorat guruhi (an’anaviy laboratoriya asosida) o‘rtasidagi o‘quv samaradorligi va faol ishtirok ko‘rsatkichlari solishtirildi.

1. Diagnostik test natijalari (laboratoriyadan oldin va keyin)

| Guruh | O‘rtacha ball (oldin) | O‘rtacha ball (keyin) | O‘sish foizi |
|---|---|---|---|
| Nazorat guruhi | 56.7 | 68.3 | +11.6 % |
| Tajriba guruhi | 55.4 | 81.2 | +25.8 % |

1-jadval. Talabalarning diagnostik test natijalari (dastlabki va yakuniy)





1- diagramma. Diagnostik testlar natijasi

2.Amaliy topshiriqlardagi ishtirok faolligi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

| Guruh | O‘rtacha faollik balli |
|---|---|
| Nazorat guruhi | 2.3 |
| Tajriba guruhi | 3.8 |

2-jadval. Talabalarning amaliy topshiriqlardagi ishtirok faolligi (ballarda)




2-diagramma. Amaliy topshiriqlardagi ishtirok faolligi.

Taqdim etilgan grafiklar talabalar o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari va ularning o‘quv jarayonidagi faollik darajasini vizual ifodalaydi.

Chap tomondagi grafik diagnostik test natijalarini aks ettiradi. Ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tajriba guruhi laboratoriya mashg‘ulotlarida ishtirok etganidan so‘ng o‘rtacha ballar sezilarli darajada oshgan.


O‘ng tomondagi grafik talabalar faolligi bo‘yicha ko‘rsatkichlarni ifodalaydi. Natijalarga ko‘ra, LEX Solar-PV Professional laboratoriya jihozlari bilan ishlagan guruhda o‘quv faoliyati ko‘rsatkichlari ancha yuqori bo‘lib, bu innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalar motivatsiyasini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi.

3. Anketalar orqali o‘quvchilarning fikrlari (foizlarda)

| Savollar / Ko‘rsatkichlar | Nazorat guruhi | Tajriba guruhi |
|---|---|---|
| Mashg‘ulot tushunarli va qiziqarli bo‘ldi | 58% | 92% |
| Laboratoriya qurilmasi qulay va zamonaviy | 44% | 100% |
| Tushunchalarni amaliyotda mustahkamlashga yordam berdi | 61% | 96% |
| Kelajakda energetika sohasiga qiziqish uyg‘otdi | 42% | 87% |

3-jadval. Anketalar orqali talabalar tomonidan tajribalardan keyingi berilgan fikr-mulohazalar (foizlarda).

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3




3-diagramma. Anketalar orqali talabalar tomonidan tajribalardan keyingi berilgan fikr-mulohazalar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, leXsolar-PV Professional texnologiyasi elektr va magnetizm fanidagi fizpraktikum mashg‘ulotlarini o‘qitishda nafaqat samarador, balki o‘quvchilar uchun didaktik jihatdan ham ancha qulay va tushunarli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tajriba guruhidagi talabalar diagnostik testlardan yuqori natijalar ko‘rsatibgina qolmay, mashg‘ulotlarga bo‘lgan faolligi, qiziqishi va tushunchalarni mustahkamlash ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham nazorat guruhidan ancha ustun bo‘lishdi.

Muhokama jarayonida quyidagi asosiy jihatlar aniqlandi:

1. Tajriba asosli yondashuv samaradorligi: leXsolar tizimi orqali o‘tkazilgan tajribalar talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga va real hayotdagi texnologik muammolarni tushunishga xizmat qildi.

2. Modullilik va ko‘rgazmalilik prinsipi: tajribalar oddiy elektr qonunlaridan tortib, maksimal quvvat nuqtasigacha bo‘lgan murakkab holatlarni tushunarli ko‘rinishda ifoda etdi.

3. STEM-komponentlarning uyg‘unligi: bu usul o‘quvchilarda fizikani ekologiya, muhandislik va texnologiya bilan bog‘lashga imkon yaratdi.

4. Motivatsiya va mustaqil fikrlash: talabalar ushbu uskunalar orqali bilimni o‘zlashtirish bilan birga, tanqidiy fikrlash, savol berish va muammoni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirishdi. Bu natijalar zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiyalash orqali fanlarni interaktiv, qiziqarli va maqsadli o‘rgatish mumkinligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, quyosh energiyasi bilan bog‘liq tajribalar ekologik va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, talabalarda barqaror rivojlanish va yashil energetika haqida ongli tushuncha shakllanishiga xizmat qildi.

Xulosa. Olib borilgan eksperimental-pedagogik tadqiqotlar shuni ilmiy asosda tasdiqladiki, Lexsolar-PV Professional innovatsion laboratoriya majmuasini «Elektr va magnetizm» fanidagi fizpraktikum mashg‘ulotlariga integratsiyalash o‘quv jarayonining didaktik samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu integratsiyalashgan yondashuv


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

nazariya va amaliyotni uzviy bog‘lab, talabalarning fundamental fizik qonunlarni chuqur anglashini, eksperimental ko‘nikmalarini rivojlantirishini hamda o‘zlashtirish sifatining barqaror o‘sishini ta’minladi. Tajriba guruhi ko‘rsatkichlari (test natijalari, amaliy faollik, motivatsiya) nazorat guruhiga nisbatan yuqori bo‘lib, bu metodikaning afzalligini statistik jihatdan tasdiqlaydi. Shuningdek, real vaqt rejimida quyosh elementlari ustida tajribalar o‘tkazish talabalarda ekologik tafakkur, yashil texnologiyalar va barqaror energetika konsepsiyalariga bo‘lgan ongli munosabatni shakllantirdi. Mazkur tadqiqot natijalari Lexsolar-PV Professional majmuasini oliy ta’limning texnika va tabiiy fanlari bo‘yicha laboratoriya amaliyotida keng tatbiq etish va lexsolar-PV modullarini “Elektr va magnetizm” fanidan fizpraktikum mashg’ulotlariga integratsiyalash orqali interfaol, innovatsion va zamonaviy o‘qitish uslubiga erishish mumkin. Va bu kelajak mutaxassislarining innovatsion hamda ekologik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun strategik ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. A.A. Axmedov.Fizika fanidan zamonaviy laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarishda innovatsion texnologiya . ilmiy axborotnoma, o‘qitish metodikasi 2016-yil, 1-son.168-170 b.
2. Kudryavtseva K.D. Analysis of the conditions for achieving the planned results of physics education for the humanities profile.Science, education, society. -2016. -No. 4.S-45-48 p.
3. Klopf, E., & Scher, A. Implementation of a Lab Section for Electricity and Magnetism with Transmission Lines.Paper presented at 2019 ASEE PNW Section Conference, Corvallis, Oregon. 10.18260/1-2—31881
4. Najimova, N., & Karimov, S. STEM yondashuvi asosida fizika laboratoriya mashg‘ulotlarini takomillashtirish. //O ‘zMU Ilmiy axboroti-(2020)., № 4(2), 45–50
5. Ахмедов А.А., Камолов И.Р., Избасаров Б.Ф. Инновационные подходы к проведению лабораторных работ по физике. //Новые технологии в образовании//. Материалы XVI международной научно-практической конференции. Чебоксары, 2014. С. 106-109 b.
6. A.A. Axmedov. Fizika fanidan zamonaviy laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarishda innovatsion texnologiya . ilmiy axborotnoma, o‘qitish metodikasi 2016-yil, 1-son.168-170 b.
7. leXsolar GmbH. leXsolar-PV Professional – Training System Documentation. Chemnitz, Germany -2022.volume-1, paper 48-51b.
8. M.Sh.Haydarova, O'.Q.Nazarov. Fizikadan laboratoriya ishlari. O'quv qo'llanma. Toshkent-O'qituvchi, 1989, 142-b.
9. D.Yusupov, D., D.Alijonov, D., N.Zokirova, N., & M.Imomov, M. fizikaning “Elektr va magnetizm” bo‘limini o‘qitishdagi innovatsion g‘oyalar. Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal, 1(12), 238–240 b.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Abbosova Nozima Baxtiyor qizi**, doktorant [**Аббосова Нозима Бахтиер кизи**,докторант], [**Abbosova Nozima Baxtiyor qizi** doctoral student]; manzil: 170100, O'zbekiston Respublikasi, Andijon shahar, Universitet ko'chasi 129-uy, [адрес: 170100, Республика Узбекистан, г. Андижан, Университетская улица, 129], [address: 129 Universitetskaya Street, Andijan, 170100, Republic of Uzbekistan].

✉**Qodirova Xamidaxon Nurmuxamadovna**, PhD [**Кодирова Хамидахон Нурмухамадовна**, PhD], [**Qodirova Xamidaxon Nurmuxamadovna** PhD]; manzil: 100049 Toshkent shahri, Farobiy ko'chasi 333 «A» uy; Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, Bog'ibo'ston ko'chasi, 210 uy., [адрес: 100049 г. Ташкент, ул. Фараби, дом 333 «а»; г. Ташкент, Яккасарайский район, ул. Багибустан, дом 210.], [address: 333 "a" Farabi St., Tashkent, 100049; 210 Bagibustan St., Yakkasaray district, Tashkent].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# MASOFAVIY TA'LIM VA RAQAMLI RESURSLAR: O'QITUVCHILARNING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

©Sh. Abduyev[1]✉

[1]Samarqand pedagogik mahorat markazi, Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: ushbu maqolada masofaviy ta'limning hozirgi davrdagi ahamiyati, raqamli resurslarning ta'lim jarayonida tutgan o'rni hamda o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini rivojlantirishdagi roli yoritiladi. Masofaviy ta'lim o'qituvchidan zamonaviy pedagogik va raqamli ko'nikmalarni talab etadi. Shu bois, raqamli resurslardan foydalanish orqali o'qituvchi dars samaradorligini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash hamda o'quvchilar bilan interaktiv muloqotni kuchaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Raqamli ta'lim muhiti o'qituvchilardan yangicha yondashuvni, texnologik savodxonlikni, ijodkorlikni va o'z ustida muntazam ishlashni talab qiladi. Shuningdek, maqolada masofaviy ta'limning afzalliklari va kamchiliklari, zamonaviy raqamli platformalar imkoniyatlari, o'qituvchilarning metodik faoliyatida innovatsion kompetentlikni rivojlantirish yo'llari tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli resurslardan foydalanish orqali ta'lim jarayonini samaradorligini oshirish hamda o'qituvchilar malakasini takomillashtirish imkoniyatlari haqida amaliy tavsiyalar berilgan.

**MAQSAD**: masofaviy ta'lim jarayonida raqamli resurslardan foydalanishning samarali yo'llarini aniqlash, o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini rivojlantirishda ularning ahamiyatini ilmiy asoslash va metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

**MATERIALLAR VA METODLAR**: tadqiqotda masofaviy ta'lim bo'yicha ilmiy adabiyotlar, zamonaviy raqamli platformalar (Zoom, Google Classroom, Moodle va boshqalar) tajribasi o'rganildi. Qiyosiy tahlil, kuzatish, pedagogik tajriba va suhbat metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirishga oid xalqaro tajribalar tahlil qilindi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, masofaviy ta'limda raqamli resurslardan oqilona foydalanish ta'lim jarayonini sezilarli darajada samarali qiladi. O'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi, motivatsiyasi va mustaqil ishlash ko'nikmalari oshadi. Shu bilan birga, o'qituvchilarning innovatsion kompetentligi rivojlanib, ular dars jarayonida yangicha yondashuvlarni qo'llashga o'rganadilar. Biroq, texnik infratuzilma, internet sifati va o'qituvchilarning texnologik savodxonligi masofaviy ta'lim samaradorligiga to'sqinlik qiluvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi.

**XULOSA:** masofaviy ta'lim jarayonida raqamli resurslardan foydalanish o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash va o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion kompetentlikni rivojlantirish orqali o'qituvchilar masofaviy ta'limni samarali tashkil etish,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ta’lim jarayonini interaktiv va ijodiy tarzda olib borish imkoniga ega bo‘ladilar. Shuningdek, raqamli resurslardan foydalanish ta’lim sifatini oshirish bilan birga, zamonaviy ta’lim talablariga javob beruvchi raqamli pedagoglarni shakllantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** masofaviy ta’lim, raqamli resurslar, innovatsion kompetentlik, pedagogik mahorat.

**Iqtibos uchun**: Abduyev Sh. Masofaviy ta’lim va raqamli resurslar: o‘qituvchilarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. B.34-40.

## ДИСТАНЦИОННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ЦИФРОВЫЕ РЕСУРСЫ: РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ

© Ш. Абдуев[1]✉
[1]Самаркандский центр педагогического мастерства, Самарканд, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: в данной статье освещается значение дистанционного образования в современный период, роль цифровых ресурсов в учебном процессе, а также развитие инновационной компетентности педагогов. Дистанционное обучение требует от учителя современных педагогических и цифровых навыков. Использование цифровых ресурсов позволяет повысить эффективность урока, улучшить качество образования и усилить интерактивное взаимодействие с учащимися. Цифровая образовательная среда требует от педагогов нового подхода, технологической грамотности, креативности и постоянной работы над собой. В статье также рассматриваются преимущества и недостатки дистанционного обучения, возможности современных цифровых платформ и пути развития инновационной компетентности педагогов в методической деятельности. В исследовании представлены практические рекомендации по повышению эффективности учебного процесса и совершенствованию квалификации педагогов за счет использования цифровых ресурсов.

**ЦЕЛЬ**: определить эффективные способы использования цифровых ресурсов в дистанционном обучении, обосновать их значение в развитии инновационной компетентности педагогов и выработать методические рекомендации.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в исследовании были изучены научные источники по дистанционному образованию, опыт применения современных цифровых платформ (Zoom, Google Classroom, Moodle и др.). Использованы методы сравнительного анализа, наблюдения, педагогического эксперимента и интервью. Также был проведён анализ международного опыта в области развития цифровой компетентности педагогов.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: результаты исследования показали, что рациональное использование цифровых ресурсов значительно повышает эффективность дистанционного образования. У учащихся повышается уровень

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

усвоения знаний, мотивация и навыки самостоятельной работы. В то же время у педагогов развивается инновационная компетентность, и они начинают применять новые подходы в учебном процессе. Однако техническая инфраструктура, качество интернета и уровень технологической грамотности учителей остаются факторами, ограничивающими эффективность дистанционного обучения.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: использование цифровых ресурсов в дистанционном обучении играет важную роль в повышении педагогического мастерства учителей, улучшении качества образования и расширении возможностей для учащихся. Развитие инновационной компетентности позволяет педагогам эффективно организовывать дистанционное обучение, делая образовательный процесс более интерактивным и творческим.

**Ключевые слова**: дистанционное образование, цифровые ресурсы, инновационная компетентность, педагогическое мастерство.

**Для цитирования**: Абдуев Ш. Дистанционное образование и цифровые ресурсы: развитие инновационной компетентности учителей. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. С.34-40.

## DISTANCE EDUCATION AND DIGITAL RESOURCES: DEVELOPING TEACHERS' INNOVATIVE COMPETENCE

© Sheroz Abduyev[1]✉
[1]Samarkand Center for Pedagogical Mastery, Samarkand, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: this article highlights the importance of distance education in the modern era, the role of digital resources in the learning process, and their contribution to the development of teachers' innovative competence. Distance learning requires teachers to possess modern pedagogical and digital skills. By using digital resources, teachers can increase lesson effectiveness, improve the quality of education, and enhance interactive communication with students. The digital learning environment demands new approaches, technological literacy, creativity, and continuous professional development from teachers. The article also discusses the advantages and disadvantages of distance education, the opportunities offered by modern digital platforms, and ways to develop teachers' innovative competence in methodological practice. The study provides practical recommendations on improving the efficiency of the learning process and enhancing teachers' qualifications through the use of digital resources.

**AIM:** to identify effective ways of using digital resources in distance education, scientifically substantiate their significance in developing teachers' innovative competence, and propose methodological recommendations.

**MATERIALS AND METHODS**: the study examined scientific literature on distance education and the experience of using modern digital platforms (Zoom, Google Classroom, Moodle, etc.). Comparative analysis, observation, pedagogical experiment, and interviews

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

were employed. International practices in the development of teachers' digital competence were also analyzed.

**DISCUSSION AND RESULTS**: the findings revealed that effective use of digital resources significantly increases the efficiency of distance learning. Students' knowledge acquisition, motivation, and independent learning skills improved, while teachers developed innovative competence and adopted new approaches in their teaching. However, challenges such as limited technical infrastructure, unstable internet quality, and insufficient digital literacy of teachers were identified as barriers to efficiency.

**CONCLUSION**: the use of digital resources in distance education plays a crucial role in enhancing teachers' pedagogical skills, improving education quality, and broadening students' learning opportunities. Developing innovative competence enables teachers to organize distance education effectively and make the learning process more interactive and creative.

**Keywords**: distance education, digital resources, innovative competence, pedagogical skills.

**For citation**: Sheroz Abduyev. (2025) 'Distance education and digital resources: developing teachers' innovative competence', Inter education & global study, vol.3 (8), pp.34-40. (In Uzbek).

**XXI** asrda ta'lim jarayoni tobora raqamlashtirilmoqda. Xususan, pandemiya davrida masofaviy ta'lim ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida shakllandi va uning imkoniyatlari hamda cheklovlari yaqqol ko'rindi. Bugungi kunda o'qituvchilar uchun masofaviy ta'lim vositalaridan foydalanish, elektron resurslar yaratish va ularni ta'lim jarayoniga joriy etish eng muhim pedagogik vazifalardan biridir. Masofaviy ta'lim — bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ta'lim jarayoni maxsus axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (internet, kompyuter, mobil aloqa vositalari, onlayn platformalar) orqali amalga oshiriladigan o'qitish shaklidir. Unda o'quvchi dars jarayonida bevosita auditoriyada bo'lishi shart emas, balki masofadan turib bilim olishi mumkin.Asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

-o'quvchi va o'qituvchining masofadan muloqoti;

-elektron platformalar orqali dars materiallari taqdimoti;

-interaktiv topshiriqlar va onlayn testlar;

-o'quv jarayonining moslashuvchanligi va individual yondashuv.

Masofaviy ta'limning imkoniyatlari moslashuvchanlik, shaxsiylashtirish, global integratsiya hisoblanadi. Moslashuvchanlik-o'quvchi vaqt va joydan qat'i nazar ta'lim olish imkoniga ega. Shaxsiylashtirish-individual yondashuv orqali o'quvchilarning qobiliyatiga mos topshiriqlar berish mumkin.

Raqamli resurslar — bu ta'lim jarayonida foydalaniladigan elektron shakldagi o'quv materiallari, dasturiy vositalar va texnologik imkoniyatlarning majmui. Ular bilimlarni uzatish, o'quvchilarni o'qitish va nazorat qilish jarayonini yengillashtiradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Raqamli resurslarga elektron darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar; videodarslar, podkastlar, animatsiyalar; virtual laboratoriyalar va simulyatorlar; onlayn test tizimlari va ta’lim platformalari (Moodle, Google Classroom, Coursera va boshqalar).

Global integratsiya-xalqaro platformalar orqali xorijiy tajribalarni o‘rganish imkoniyati kengayadi.Masofaviy ta’limda raqamli resurslarning ahamiyati qay darajada ekanligini ko’rib chiqsak.Elektron darsliklar, videodarslar va virtual laboratoriyalar ta’lim sifatini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.Onlayn platformalar (Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams va boshqalar) ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.Multimedia vositalari o‘quvchilarni darsga qiziqtirishda va mustaqil o‘qishga rag‘batlantirishda katta yordam beradi. Bu jarayonda o‘qituvchining innovatsion kompetentligini rivojlantirish dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Masofaviy talim orqali o‘qituvchilarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Innovatsion kompetentlik – bu shaxsning (o‘qituvchi yoki mutaxassisning) yangi g‘oyalar yaratish, ilg‘or tajribalarni qabul qilish, zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga joriy etish va yangicha yechimlarni qo‘llash qobiliyatidir. Boshqacha qilib aytganda, bu yangilikni qabul qilish va uni amalda samarali qo‘llash ko‘nikmasidir. Innovatsion kompetentlikning asosiy jihatlariga:

1. Ijodkorlik – yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish, muammolarga kreativ yechim topa olish.

2. Moslashuvchanlik – o‘zgarayotgan texnologiyalar, sharoit va talablarga tez moslasha olish.

3. Texnologik savodxonlik – yangi raqamli texnologiyalar va pedagogik usullarni bilish va qo‘llash.

4. Tahliliy fikrlash – mavjud muammolarni aniqlab, ularga innovatsion yechimlar taklif qilish.

5. Hamkorlik va kommunikativlik – jamoada ishlash, g‘oyalarni almashish va tatbiq qilish.

O‘qituvchilarda innovatsion kompetentlik bo‘lsa, ular:

-raqamli texnologiyalarni darslarda samarali qo‘llay oladi;

-yangi metod va pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqadi;

-masofaviy va an’anaviy ta’limni integratsiya qila oladi;

-o‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantiradi.

O‘qituvchining innovatsion kompetentligi — yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, raqamli resurslarni yaratish va ularni dars jarayonida samarali foydalanish qobiliyatidir. Buning uchun raqamli savodxonlikni oshirish bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etilishi, pedagogik innovatsiyalarni o‘rganish va ulardan amaliyotda foydalanish, hamkorlik va tajriba almashish orqali metodik ko‘nikmalarni rivojlantirish zarur. Innovatsion kompetentlikni rivojlantirish yo‘llari

1. Ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish

Muammoli vazifalar va “case-study” metodidan foydalanish.

“Brainstorming” (fikrlar bo‘roni) mashg‘ulotlari.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

O‘quvchilarga mustaqil loyiha va startaplar ustida ishlash imkoniyatini berish.

2. Raqamli va axborot texnologiyalaridan foydalanish

Onlayn platformalar (Moodle, Google Classroom, Coursera) orqali ta’limni olib borish.

Virtual laboratoriyalar va simulyatsiya dasturlari bilan ishlash.

Sun’iy intellekt va blokcheyn asosidagi ta’lim vositalaridan foydalanish.

3. Kasbiy rivojlanish va uzluksiz ta’lim

O‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari va seminarlar.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar bo‘yicha treninglar.

Xorijiy tajribalarni o‘rganish (vebinar, onlayn konferensiya, xalqaro almashinuv)

4. Hamkorlik va tajriba almashish

O‘qituvchilar klublari, jamoaviy loyiha guruhlari tashkil etish.

Innovatsion laboratoriyalar va ilmiy markazlarda faoliyat yuritish.

Mentorlik (tajribali ustozlar yangi boshlovchilarga yordam berishi).

5. Refleksiya va o‘zini tahlil qilish

O‘z faoliyatini tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarni aniqlash.

O‘quvchilardan va hamkasblardan fikr-mulohaza olish.

Innovatsion tajribalarni muntazam ravishda qayd etish va umumlashtirish.

Masofaviy ta’lim va raqamli resurslar o‘qituvchidan nafaqat texnologik bilimlarni, balki innovatsion yondashuvni ham talab etadi. Shu sababli:

1. O‘qituvchilar uchun raqamli texnologiyalar bo‘yicha doimiy malaka oshirish kurslari yo‘lga qo‘yilishi lozim.

2. Ta’lim muassasalari zamonaviy raqamli resurslar bilan ta’minlanishi zarur.

3. O‘qituvchilarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish milliy dastur asosida yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiq.

Masofaviy ta’lim bugungi kunda nafaqat zarurat, balki ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Raqamli resurslardan foydalanish esa o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini interaktiv va samarali tashkil etish imkonini beradi. O‘qituvchilarning innovatsion kompetentligi raqamli texnologiyalarni bilish, ularni metodik faoliyatda qo‘llash va o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish orqali shakllanadi. Masofaviy ta’limning afzalliklari ko‘p bo‘lsa-da, texnik infratuzilma, internet tezligi, pedagoglarning raqamli savodxonlik darajasi kabi muammolar ham mavjud. Innovatsion kompetentlikni rivojlantirish uzluksiz ta’lim, malaka oshirish, xorijiy tajribani o‘rganish va jamoaviy hamkorlik orqali amalga oshiriladi.

Maqola mavzusi bo’yicha quyidagicha takliflar keltiramiz:

1. O‘qituvchilar uchun maxsus raqamli resurslardan foydalanish bo‘yicha kurslar tashkil etish.

2. Masofaviy ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun yagona milliy elektron ta’lim platformasini rivojlantirish.

3. Har bir o‘quv muassasasida innovatsion metodik markazlar tashkil qilish va o‘qituvchilarni yangi texnologiyalarni o‘rganishga jalb etish.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

4. Pedagoglar orasida tajriba almashish va innovatsion loyihalar ustida ishlash uchun hamkorlik platformalari yaratish.

5. O‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirishni majburiy malaka oshirish dasturlariga kiritish.

6. Masofaviy ta’lim sifatini oshirish maqsadida internet infratuzilmasini yaxshilash va texnik ta’minotni kengaytirish.

7. Ilmiy tadqiqotlar va tajribalarni amaliyotga tatbiq qilish orqali innovatsion kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturi. – Toshkent, 2020.
3. Abduqodirov A.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. G‘ofurov U. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Noshir, 2021.
5. Alimov R. Masofaviy ta’lim metodlari va vositalari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
6. UNESCO. Distance Learning Strategies in Response to COVID-19 School Closures. – Paris, 2020.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Abduev Sheroz, mustaqil,** tadqiqotchi**,** Samarqand pedagogik mahorat markazi, Samarqand, O‘zbekiston; manzil: 140104, University Boulevard, 15, Samarqand, O‘zbekiston, **[Абдуев Шероз**, независимый исследователь, Самаркандский центр педагогического мастерства, Самарканд, Узбекистан; адрес: 140104, Университетский бульвар, 15, Самарканд, Узбекистан], [**Sheroz Abduev**, Independent Researcher, Samarkand Center for Pedagogical Mastery, Samarkand, Uzbekistan; address: 140104, University Boulevard, 15, Samarkand, Uzbekistan].

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# DEVELOPING METHODOLOGIES FOR IMPROVING MUSICAL CULTURE IN THE EDUCATIONAL SYSTEM

© Xurshida A. Asqarova[1]✉

[1]University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** the article analyzes the methodological foundations for developing and enhancing musical culture in the educational system, its role in students' spiritual, aesthetic, and creative development, and the importance of transmitting cultural heritage to future generations. The views of great scholars on music are highlighted, emphasizing its pedagogical and cultural significance.

**AIM:** the main objective of the study is to improve the methodology of developing musical culture in Uzbekistan's education system by introducing interactive and innovative approaches, while integrating national heritage and international pedagogical practices.

**MATERIALS AND METHODS:** analytical, comparative, and experimental methods were used, along with observation, interviews, and statistical-graphical analysis. Based on these, a new conceptual framework was developed that integrates modern pedagogical technologies with interactive and individualized approaches.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the results demonstrated that electronic resources, multimedia tools, musical games, dramatization, and simulations significantly enhance students' musical taste, rhythmic sensitivity, creative imagination, and performance skills. Moreover, integrating national musical heritage (maqom, folk songs, oral folklore) with global methodologies provides a sustainable methodological foundation for fostering musical culture.

**CONCLUSION:** the study confirmed that applying innovative teaching methodologies and technologies makes the educational process more effective, strengthens aesthetic education, and plays a crucial role in developing students' creative and musical abilities.

**Keywords:** musical culture, interactive methods, innovative technologies, aesthetic education, national heritage, musical games, creative abilities.

**For citation**: Xurshida A. Asqarova. (2025) 'Developing methodologies for improving musical culture in the educational system', Inter education & global study, vol.3 (8), pp.41–52. (In Eng).

## РАЗРАБОТКА МЕТОДИК ПОВЫШЕНИЯ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

© Х.А. Аскарова[1]✉
[1]Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в статье анализируются методологические основы формирования и развития музыкальной культуры в системе образования, ее роль в духовном, эстетическом и творческом развитии личности. Рассматриваются взгляды великих мыслителей на музыку и значимость передачи богатого культурного наследия будущим поколениям.

**ЦЕЛЬ:** основная цель исследования — усовершенствовать методологию развития музыкальной культуры в образовательной системе Узбекистана, выявить эффективность применения инновационных педагогических технологий и интеграцию национального и международного опыта.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** использованы аналитический, сравнительный, экспериментальный методы, а также наблюдение, интервью и статистико-графический анализ. На основе полученных данных разработана новая концепция с использованием интерактивных и индивидуализированных подходов.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты показали, что применение мультимедийных ресурсов, электронных учебников, музыкальных игр, драматизации и симуляций значительно повышает музыкальный вкус, ритмическую чувствительность, воображение и исполнительские навыки учащихся. При этом интеграция национального музыкального наследия (фольклор, макам, народные песни) с международными методами формирует устойчивую методологическую основу.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** исследование подтвердило, что использование инновационных методик и технологий делает образовательный процесс более эффективным, усиливает эстетическое воспитание и способствует развитию творческих и музыкальных способностей молодежи.

**Ключевые слова:** музыкальная культура, интерактивные методы, инновационные технологии, эстетическое воспитание, национальное наследие, музыкальные игры, творческие способности.

**Для цитирования**: Аскарова.Х.А. Разработка методик повышения музыкальной культуры в системе образования // Inter education & global study.2025. vol.3 №8. С.41–52.

## TA’LIM TIZIMIDA MUSIQA MADANIYATINI OSHIRISH USULLARINI ISHLAB CHIQISH

© X.A. Asqarova[1]✉
[1] O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Toshkent, O‘zbekiston


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Annotatsiya

**KIRISH:** maqolada ta’lim tizimida musiqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish metodologiyalari, uning shaxs ma’naviyati, estetik didi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Buyuk allomalarimizning musiqaga oid qarashlari yoritilib, milliy madaniy merosni keyingi avlodlarga yetkazishdagi ahamiyati asoslanadi.

**MAQSAD:** O‘zbekiston ta’lim tizimida musiqiy madaniyatni rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish, interaktiv va innovatsion yondashuvlar orqali o‘quvchilarning estetik didi va ijodiy faoliyatini oshirishdir.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda analitik, qiyosiy, eksperimental, kuzatish va suhbat, statistik-grafik tahlil metodlari qo‘llanildi. Shu asosda interaktiv, individual yondashuvlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar integratsiyalashgan yangi konseptual model ishlab chiqildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** natijalar shuni ko‘rsatdiki, musiqiy madaniyatni rivojlantirishda elektron metodik tizimlar, multimedia vositalari, musiqiy o‘yinlar, dramatizatsiya va simulyatsiyalar o‘quvchilarning musiqiy didini, ritmik sezgirligini, ijodiy tasavvurini va ijro mahoratini sezilarli oshiradi. Shu bilan birga, milliy meros (maqom, xalq qo‘shiqlari, folklor)ni xorijiy ilg‘or tajribalar bilan uyg‘unlashtirish samarali metodologik asos yaratadi.

**XULOSA:** tadqiqot musiqiy madaniyatni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ta’lim jarayonini yanada samarali qilishini, estetik tarbiyani kuchaytirishini hamda yosh avlodning ijodiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutishini tasdiqladi.

**Kalit so‘zlar:** musiqiy madaniyat, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, estetik tarbiya, milliy meros, musiqiy o‘yinlar, ijodiy qobiliyat.

**Iqtibos uchun**: Asqarova X.A. Ta'lim tizimida musiqa madaniyatini oshirish usullarini ishlab chiqish. // Inter education & global study. 2025. vol.3 №8. B.41–52.

It is well known that musical culture plays a crucial role in the spiritual, aesthetic, and intellectual development of the individual. The process of forming musical culture within the educational system serves not only as a means of learning art but also as a way of fostering creativity, enhancing aesthetic taste, and enriching the cultural life of society. At present, there is a strong social and pedagogical demand for organizing musical culture on the basis of innovative pedagogical technologies, and for increasing the effectiveness of the subject *“Musical Culture”* as one of the core activities in the educational process. Consequently, in recent years, the issue of effectively utilizing the potential of national culture and art as an important means of education has gained particular significance.

Psychologists emphasize that a person is not born with fully developed abilities, but rather with a capacity — a source for the emergence and development of certain abilities. Ability is regarded as an individual characteristic of a person that constitutes a

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

subjective condition for successfully performing a particular type of activity. Every ability manifests itself in the process of activity. However, aptitude does not develop on its own; a favorable environment is essential for its development. At times, a child may be born with a natural aptitude for music, but unless a supportive environment is provided for the formation of musical qualities, this aptitude may remain underdeveloped. One of the leading factors in the formation of an individual as a personality is the environment. By *environment*, we understand the totality of external conditions that influence a person, which in turn can be classified into natural environment, social environment, family environment, and others. Aristotle, in his reflections on musical modes that transform the psyche, provided the following explanation: *"Music in one mode makes a person gentle and kind, while another may lead to excitement and irritability."* In his view, the melodies of the Phrygian, Dorian, and Lydian modes have a positive effect on human health and spirit, whereas music in other modes should not be introduced to the ears of the younger generation.

Research Methods The following methods were employed in the course of the study:

Analytical method: analysis of existing literature, textbooks, and scientific articles;

Comparative method: comparison of international and Uzbek experiences;

Experimental method: identification of the effectiveness of new methodological approaches through pedagogical experimentation;

Observation and interview: collection of data through surveys and observations with students and teachers;

Statistical and graphical analysis: evaluation of experimental results and formulation of conclusions.

Conceptual Framework Based on the findings, a new concept was developed for improving the methodology of fostering musical culture in the educational system of Uzbekistan. This framework integrates interactive and individualized approaches while making extensive use of modern educational technologies.

The reviewed literature demonstrates that music occupies a central role in shaping human spirituality, morality, and aesthetic perception. Classical scholars such as al-Farabi and Ibn Sina regarded music not merely as entertainment, but as a profound pedagogical and therapeutic instrument. Their insights underscore the multidimensional value of music: as a means of moral education, as a tool for psychological well-being, and as an essential component of cultural heritage. These perspectives remain relevant in contemporary discourse, especially when addressing the challenges of educating the younger generation in an era of globalization and cultural transformation. However, the current situation reveals a growing gap between the philosophical ideals of music and the practical realities of modern musical consumption. The rise of "entertainment songs" — melodically appealing but shallow in content — reflects a shift toward commercialized cultural products that fail to contribute to moral or intellectual growth. This phenomenon suggests that while music has the potential to nurture social values, not all forms of


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Kalit so'zlar**: kompetensiyaviy yondashuv, mustaqil fikrlash, muloqot, ijodkorlik, axborot savodxonligi, ta’lim samaradorligi, shaxs identiti.

**Iqtibos uchun**: E.Y. Davletov. Milliy o‘quv dasturlarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishning o‘rni. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. B.60-70.

## РОЛЬ РАЗВИТИЯ БАЗОВЫХ ЖИЗНЕННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В НАЦИОНАЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ПРОГРАММАХ

© Э.Ю. Давлетов[1]✉
[1]Университет Мамун, Хива, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: в данной статье научно-теоретически проанализировано значение формирования и развития базовых жизненных компетенций в национальных учебных программах. Освещены вопросы интеграции знаний, умений и навыков с практической жизнью, а также направленность программ на развитие у учащихся самостоятельного мышления, умения решать проблемы, работать с информацией, вступать в коммуникацию и действовать в коллективе. Кроме того, в статье рассмотрены международный опыт и нормативно-правовые документы, принятые в системе образования Узбекистана, обоснованы пути реализации компетентностного подхода в национальных учебных планах и его роль во всестороннем развитии личности ученика.

**ЦЕЛЬ**: цель исследования – раскрыть теоретические и практические основы формирования базовых жизненных компетенций в национальных учебных программах, сопоставить их с международным опытом и разработать научные выводы по эффективному внедрению компетентностного подхода в системе образования Узбекистана.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в исследовании использованы государственные образовательные стандарты и национальные учебные программы, утвержденные Министерством народного образования Республики Узбекистан, рекомендации международных организаций (OECD, UNESCO и др.), а также зарубежный опыт в области компетентностного подхода. В качестве методов применялись сравнительный анализ, теоретическое обобщение, контент-анализ, педагогическое наблюдение и сравнительный метод.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: проведённые исследования показали, что формирование базовых жизненных компетенций в национальных учебных

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

программах способствует не только развитию знаний, умений и навыков учащихся, но и их подготовке к практической жизни. Особенно важными являются такие компетенции, как самостоятельное мышление, решение проблем, коммуникация, креативность и информационная грамотность. Анализ также выявил, что многие элементы международного опыта уже внедрены в систему образования Узбекистана. Вместе с тем существует необходимость в дальнейшем совершенствовании учебных программ, повышении уровня подготовки педагогов и более широком использовании интерактивных методов обучения.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: реализация компетентностного подхода в национальных учебных программах способствует повышению эффективности образования, развитию самостоятельного мышления и творческих способностей учащихся, а также формированию активной гражданской позиции. На основе проведённого исследования выработаны практические рекомендации: использование международного опыта при разработке учебных планов, регулярная подготовка педагогов по компетентностному подходу, а также внедрение современных педагогических технологий в образовательный процесс.

**Ключевые слова**: реализация компетентностного подхода в национальных учебных программах способствует повышению эффективности образования, развитию самостоятельного мышления и творческих способностей учащихся, а также формированию активной гражданской позиции. На основе проведённого исследования выработаны практические рекомендации: использование международного опыта при разработке учебных планов, регулярная подготовка педагогов по компетентностному подходу, а также внедрение современных педагогических технологий в образовательный процесс.

**Для цитирования**: Э.Ю. Давлетов. Роль развития базовых жизненных компетенций в национальных учебных программах. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. С.60-70.

## THE ROLE OF DEVELOPING BASIC LIFE COMPETENCIES IN NATIONAL CURRICULA

© Erkaboy Y. Davletov[1]✉
[1]Mamun University, Khiva, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: this article provides a scientific and theoretical analysis of the importance of developing and fostering core life competencies within national curricula. It highlights the integration of knowledge, skills, and abilities with practical life, as well as the orientation of curricula toward developing students' independent thinking, problem-solving, information literacy, communication, and teamwork skills. Furthermore, the article examines international experiences and regulatory documents adopted in the education

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

system of Uzbekistan, substantiating the implementation of a competency-based approach in national curricula and its role in the holistic development of students' personalities.

**AIM:** the aim of this study is to reveal the theoretical and practical foundations of developing core life competencies in national curricula, compare them with international practices, and develop scientific conclusions on the effective implementation of the competency-based approach in the education system of Uzbekistan.

**MATERIALS AND METHODS**: the study used the state educational standards and national curricula approved by the Ministry of Public Education of the Republic of Uzbekistan, recommendations of international organizations (OECD, UNESCO, etc.), as well as foreign experiences in implementing the competency-based approach. The applied methods included comparative analysis, theoretical generalization, content analysis, pedagogical observation, and comparative methodology.

**DISCUSSION AND RESULTS**: the conducted research demonstrated that the development of core life competencies in national curricula contributes not only to the enhancement of students' knowledge, skills, and abilities but also to their preparedness for real life. Particularly significant are competencies such as independent thinking, problem-solving, communication, creativity, and information literacy. The analysis showed that many elements of international experience have already been introduced into Uzbekistan's education system. However, there is still a need for further curriculum improvement, strengthening teacher training, and expanding the use of interactive teaching methods.

**CONCLUSION**: the implementation of a competency-based approach in national curricula increases the effectiveness of education, develops students' independent thinking and creativity, and fosters their active participation in society. Based on the research results, practical recommendations were developed: effective use of international experience in curriculum design, regular teacher training in competency-based approaches, and wider integration of modern pedagogical technologies into the educational process.

**Keywords**: competency-based approach, independent thinking, communication, creativity, information literacy, educational effectiveness, personal identity.

**For citation**: Erkaboy Y. Davletov. (2025) 'The role of developing basic life competencies in national curricula', Inter education & global study, vol.3 (8), pp. 60-70. (In Uzbek).

**XXI** asrda ta'limning muvaffaqiyati faqatgina bilimlar hajmi bilan o'lchanmaydi. Tez o'zgarayotgan iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, mehnat bozoridagi yangi kasblar va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi shaxsdan moslashuvchanlik, mustaqil fikrlash, hamkorlikda ishlash, axborotni tanlab qayta ishlash, o'z-o'zini boshqarish va mas'uliyat kabi tayanch hayotiy kompetensiyalarni talab etadi. Shu bois, milliy o'quv dasturlarining bugungi kun vazifasi — fanga oid fakt va formulalarni yodlashni emas, balki ularni real

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishni, kundalik hayotda uchraydigan muammolarni hal qilishni va turli kontekstlarda muloqotga kirishishni o‘rgatishga yo‘naltirilgan kompetensiyaviy yondashuvni barqaror amaliyotga aylantirishdir.

“Tayanch hayotiy kompetensiyalar” tushunchasining mazmuni keng: tanqidiy va ijodiy fikrlash, muloqot va hamkorlik, raqamli savodxonlik, fuqarolik va madaniy kompetensiya, ekologik ong, moliyaviy va mehnat madaniyati elementlari, shuningdek, shaxsiy farovonlikni boshqarish (o‘zini anglash, maqsad qo‘yish, vaqtni rejalash) kabi ko‘nikmalar o‘zaro integratsiyalashgan holda namoyon bo‘ladi. Ularning barchasi bir fan doirasida emas, balki fanlararo bog‘lanishlarda, real ijtimoiy-madaniy muhit bilan muloqotda shakllanadi. Demak, o‘quv dasturlarini kompetensiyaga yo‘naltirish — mazmunni yangilashdan ham ko‘ra kengroq vazifa: pedagogik maqsadlar, ta’lim metodlari, baholash mexanizmlari va maktab muhitining butun arxitekturasini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Milliy o‘quv dasturlarini isloh qilish jarayonida ikki qutb o‘rtasidagi ziddiyatlar ko‘rinadi: standartlashtirish zarurati va shaxsiylashtirilgan o‘qitish ehtiyoji; bilimlarni o‘zlashtirish va kompetensiyalarni amalda qo‘llash; nazariy tayyorgarlik va amaliy faoliyat; o‘quvchi natijasini “ball” bilan o‘lchash hamda portfel, loyiha va performans topshiriqlari orqali autentik baholash. Agar bu ziddiyatlar tizimli yondashuv bilan muvozanatlanmasa, o‘quv dasturida bayon etilgan ezgu maqsadlar sinf xonasining kundalik amaliyotida yetarlicha aks etmay qoladi. Shuning uchun ham kompetensiyaga yo‘naltirilgan islohotlar “faoliyatlar ro‘yxati”ni ko‘paytirish emas, balki o‘qituvchi mehnatini qayta loyihalash, dars vaziyatlarini hayotiy muammolar bilan bog‘lash, o‘quvchining subyekt sifatida ishtirokini kuchaytirish va natijani ko‘rinarli qilish jarayonidir.

Bugungi kunda ta’lim sifatini xalqaro baholash dasturlari (masalan, o‘qish savodxonligi, matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha funksional vazifalar) ham aynan hayotiy kompetensiyalarni sinovdan o‘tkazadi. Bu sinovlarda kontentdan ko‘ra kontekst, “to‘g‘ri javob”dan ko‘ra mantiqiy dalillash, “yagona yo‘l”dan ko‘ra bir nechta yechimni solishtirish qadrlanadi. Demak, milliy o‘quv dasturlarini kompetensiyaviy mezonlar bilan uyg‘unlashtirish — xalqaro reytinglar uchun emas, balki o‘quvchi hayotda mustaqil qaror qabul qila olishi, ijtimoiy masalalarda faol va mas’uliyatli fuqaroga aylanishi uchun zarur ichki ehtiyojdir.

Tayanch hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishning milliy o‘quv dasturlaridagi o‘rni haqida so‘z borganda, uchta strategik vektor alohida ahamiyat kasb etadi. Birinchisi — mazmun integratsiyasi: fanlar ichki mantiqini yo‘qotmagan holda umumiy hayotiy vazifalar atrofida bir-birini to‘ldirishi; masalan, “suv resurslari” mavzusi geografiya, biologiya, iqtisodiy savodxonlik va fuqarolik ta’limini bog‘lash uchun tabiiy platformadir. Ikkinchisi — metodik o‘zgarish: loyiha va tadqiqot faoliyati, amaliy laboratoriyalar, xizmatga yo‘naltirilgan o‘qish (service learning), “case”lar va rolli o‘yinlar orqali o‘quvchi tajribasini boyitish. Uchinchi vektor — baholash transformatsiyasi: yakuniy testlar bilan cheklanmay, kuzatuv jadvallari, analitik rubrikalar, e-portfolio, refleksiya kundaliklari, jamoaviy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

taqdimotlar orqali o‘sishni dinamikada qayd etish. Aynan baholash dizayni kompetensiyalarni “ko‘rinarli” va boshqariladigan qiladi.

Albatta, bu yondashuvning real hayotdagi to‘siqlari ham bor: o‘qituvchining ish yuklamasi, resurslar tanqisligi, darsliklarning mazmuni bilan metodik qo‘llanmalar o‘rtasidagi tafovut, baholash bo‘yicha yagona standartlar yo‘qligi yoki mavjud mezonlarning amaliyotga moslashmaganligi.

Yana bir muhim masala — maktabning ijtimoiy konteksti: oila, mahalla, mahalliy madaniy muhit va mehnat bozori bilan hamkorlik kuchaytirilmas ekan, kompetensiyalar “dars” hududidan tashqariga chiqmay qolishi mumkin. Shunday ekan, milliy o‘quv dasturlarini yangilash konsepsiyasi maktabni yolg‘iz qoldirmasligi, balki oila–maktab–jamiyat hamkorligini tizimli mexanizmlarga aylantirishi lozim. Tadqiqot ana shu muammolar kesishmasida quyidagi savollarga javob izlaydi: milliy o‘quv dasturlarida tayanch hayotiy kompetensiyalar qanday konseptual asoslarda talqin qilinmoqda? Ularning fanlar bo‘yicha progres-siya va yoshga mos darajalari qanday belgilanadi?

Darslik va metodik materiallar bu yondashuvni qanchalik qo‘llab-quvvatlaydi? Baholash tizimi kompetensiyalarni aniqlash, rivojlantirish va monitoring qilishga qay darajada xizmat qiladi? Va, nihoyat, o‘qituvchi malakasini oshirish, resurslar va boshqaruv mexanizmlarida qanday yechimlar talab etiladi?

Maqolaning metodologik pozitsiyasi kompetensiyani faoliyatga yo‘naltirilgan va ixtiyoriy emas, balki indikatorlar orqali o‘lchanadigan sifat sifatida talqin qiladi. Bu pozitsiya doirasida o‘quv natijalari “biladi” darajasidan “qila oladi” darajasiga, undan esa “qadriyatlar asosida ongli tanlov qiladi” darajasiga ko‘tarilishi kerak. Shuning uchun ham biz “kompetensiya xaritasi” va “progres-siya deskriptorlari” singari vositalarni muhim deb bilamiz: ular o‘quvchining erta bosqichlardan boshlab yuqori sinflargacha bo‘lgan o‘sishini izchil kuzatish, darslik va topshiriqlar bankini shu izchillikka mos holda tuzish imkonini beradi.

Natijada, milliy o‘quv dasturlarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirish — bu alohida bo‘lim yoki mavzu qo‘shish emas, balki ta’limning maqsad, mazmun, metod va baholashlarining yagona tizimda qayta kalibrlanishidir. Bu jarayonda o‘qituvchi — markaziy figura: u o‘quv dasturining “matn”ini sinfdagi “amaliyot”ga aylantiradi. Demak, kuchli metodik qo‘llab-quvvatlash, hamkasblik tarmoqlari, o‘qituvchining refleksiv madaniyati va raqamli vositalardan samarali foydalanish kompetensiyaviy islohotning hal qiluvchi shartlaridir.

Ushbu tadqiqotning materiallar bazasi milliy o‘quv dasturlarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni (THK) konseptual, mazmuniy va amaliy darajada tahlil qilishga xizmat qiladigan ko‘p qatlamli manbalardan tarkib topadi. Materiallarning bunday qatlamli tuzilishi kompetensiyani “matn” (normativ va dasturiy hujjatlar), “amaliyot” (darslik, topshiriqlar, sinfdagi faoliyat) va “dalil” (baholash artefaktlari, kuzatuv yozuvlari, portfellar) sifatida izchil ko‘rishga imkon yaratadi.

Birinchi qatlam — normativ-dasturiy korpus. Bu qatlamga milliy o‘quv dasturlarining amaldagi versiyalari, ularning fanlar bo‘yicha o‘quv natijalari, bosqichma-bosqich


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

(boshlang‘ich–o‘rta–yuqori sinflar) progres-siya deskriptorlari, shuningdek kompetensiyalar ta’riflari va ularni maktab ta’limi mazmuniga integratsiya qilishga doir yo‘riqnomalar kiradi. Normativ-dasturiy matnlar THKni qanday talqin etish (masalan, tanqidiy va ijodiy fikrlash, muloqot va hamkorlik, axborot-savodxonlik, fuqarolik va madaniy kompetensiya, ekologik ong, moliyaviy-mehnat madaniyati, o‘zini boshqarish va farovonlik) hamda ularning fanlararo bog‘lanishlar orqali qanday shakllanishini ko‘rsatuvchi kompetensiya xaritasi uchun asosiy manbadir. Mazkur qatlam tahlili fanlar kesimida hayotiy kompetensiyalarni “qachon–qanday–qanday darajada” qamrab olish kerakligini aniqlashga xizmat qiladi.

Ikkinchi qatlam — o‘quv-metodik materiallar. Bu qatlam darsliklar, o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar, mavzular bo‘yicha sinf va sinfdan tashqari faoliyat ssenariylari, integrativ loyihalar to‘plami, shuningdek case-lar, rolli o‘yinlar va xizmatga yo‘naltirilgan o‘qish (service learning) uchun tavsiya etilgan faoliyatlar bankidan iborat.

Ayniqsa, THKni “ko‘rinarli” qilish uchun ishlab chiqilgan amaliy topshiriqlar (masalan, “mahalliy suv resurslarini tejash bo‘yicha kichik tadqiqot va jamoaga taqdimot”, “uy xo‘jaligi byudjetini rejalash bo‘yicha ko‘rgazmali loyiha”, “raqamli xavfsizlik bo‘yicha maktab qo‘llanmasi”) mazkur qatlamning markazida turadi. Ushbu materiallar fanlararo integratsiyani tabiiy kontekstlarda amalga oshirishga, o‘quvchi tajribasini real hayotiy vaziyatlarga bog‘lashga va kompetensiyani “biladi–qila oladi–ongli tanlov qiladi” zanjiri bo‘yicha ochib berishga xizmat qiladi.

Uchinchi qatlam — baholash artefaktlari va ko‘rsatkichlar bazasi. Kompetensiyani o‘lchash mazmunni aniqlashtiradi; shu bois baholashga oid materiallar alohida to‘plam sifatida ajratildi. Bu to‘plamga analitik rubrikalar, indikatorlar matritsasi, performans topshiriqlari (real hayotiy vazifalarga yaqin, ko‘p bosqichli yechimlarni talab etuvchi ishlar), formatif baholash varaqalari (kuzatuv jadvallari, “chiqish chiptalari”, refleksiya jurnallari), o‘quvchi portfeli/e-portfolio namunalarining struktura va mezonlari kiradi.

Shuningdek, jamoaviy vazifalarda rollarni, muloqotni va mas’uliyatni baholash uchun mo‘ljallangan 360° fikr-mulohaza shakllari, taqdimot va munozara uchun baholash cheklistlari, ijodiy ishlarga mo‘ljallangan deskriptorlar ham mazkur qatlam tarkibida ko‘zda tutilgan. Baholash materiallari THKni “yakuniy test” bilan cheklamasdan, o‘sishni dinamikada qayd etish va shaxsiy taraqqiyot yo‘lini hujjatlashtirishga yo‘naltirilgan.

To‘rtinchi qatlam — raqamli va muhitiy resurslar. THKni rivojlantirish sinf devoridan tashqariga chiqishni talab etadi. Shu bois materiallar ichida maktabning o‘quv muhitini xaritalash (kutubxona, laboratoriya, STEAM burchaklari, media va madaniy muassasalar bilan hamkorlik imkonlari) bo‘yicha ma’lumotlar, mahalliy hamjamiyat va korxonalar bilan bog‘liq tajriba platformalari (ekskursiyalar, xizmat loyihalari, mentorlardan mahorat darslari) ham o‘rin oladi.

Raqamli qatlamda esa o‘qitish va baholashni qo‘llab-quvvatlovchi LMS dagi kurs sahifalari, topshiriqlar banki, learning analytics ko‘rsatkichlari (masalan, vazifa bajarish vaqti, takror urinishlar soni, rubrika bo‘yicha ko‘rsatkichlarning tarqalishi) hamda o‘quvchilarning raqamli portfeli uchun shablon va metama’lumotlar mavjud. Ushbu


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

resurslar THKni real kontekstlar bilan bog‘lash va raqamli izlar orqali o‘sishni dalillash imkonini beradi.

Beshinchi qatlam — empirik amaliyot artefaktlari. Kompetensiyaviy yondashuv sinfdagi o‘qitish amaliyoti bilan tekshiriladi; shu bois dars jarayonidan olingan kuzatuv protokollari, o‘qituvchi rejalari va konspektlari, o‘quvchi ishlaridan namunalar (loyiha hisobotlari, taqdimot slaydlari, refleksiya yozuvlari), shuningdek pedagogik intervyular va fokus-guruh yozuvlari material sifatida jamlangan.

Bu artefaktlar dasturiy niyat bilan amaliy natijaning mosligini, THKning sinfdagi “ko‘rinishi”ni va baholashning adolat, shaffoflik va talaba-agentlik tamoyillariga qanchalik mos kelishini tahlil qilishga imkon beradi. Turli kontekstdagi (shahar–qishloq, resursga boy–cheklangan, o‘qitish tili turlicha) maktablardan yig‘ilgan artefaktlar THKni joriy etishning moslashuv darajasini solishtirishga yordam beradi.

Oltinchi qatlam — IAMT (integrallashgan axborot-metodik tizim) uchun model materiallari. THKni tizimli boshqarish va monitoring qilish uchun kompetensiya xaritasi bilan bog‘langan modul spetsifikatsiyalari (axborot-modul: resurslar va kurs mazmuni; metodik-modul: topshiriqlar dizayni va faoliyatlar; tajriba-modul: loyiha va tashqi hamkorlik; monitoring-analitika moduli: ko‘rsatkichlar, rubrikalar, portfel va hisobotlar) ishlab chiqiladi. Har bir modul bo‘yicha artefakt to‘plamlari (shablon, namuna, ko‘rsatma, “tekshiruv ro‘yxati”) material sifatida qo‘llanadi. Bu materiallar sinf o‘qituvchisidan tortib maktab ma’muriyati va metodik birlashmagacha bo‘lgan darajalarda THKni “bir xil tilda” boshqarish va baholashga imkon beradi.

Yettinchi qatlam — etika va sifatni ta’minlash hujjatlari. O‘quvchi ma’lumotlarini yig‘ish va portfel artefaktlarini tahlil qilishda rozilik blankalari, ma’lumotni depersonifikatsiya qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar, maxfiylik protokollari ham material sifatida qo‘llanadi. Shuningdek, baholash vositalarining ishonchliligi va haqiqiyligi (reliability/validity)ni tekshirish uchun sinovdan o‘tgan rubrikalar, ekspert fikrlarini qayd etuvchi moderatsiya jurnallari, o‘qituvchilararo kalibrlash sessiyalari uchun yo‘riqnomalar ham materiallar paketiga kiritiladi. Bu qatlam tahlil natijalarining etik jihatdan toza va metodik jihatdan ishonchli bo‘lishini ta’minlaydi.

Materiallar bazasining mazkur tuzilishi ikki muhim imkoniyatni beradi. Birinchidan, THKni faqat nazariy ta’riflar darajasida emas, balki topshiriq–baholash–portfel uchligi orqali kuzatib borish mumkin bo‘ladi; bu esa kompetensiyani “o‘lchanadigan” va boshqariladigan obyektga aylantiradi. Ikkinchidan, fanlararo integratsiya real mavzu platformalari (suv resurslari, mahalliy madaniy meros, yashil iqtisodiyot, ijtimoiy tadbirkorlik, raqamli xavfsizlik) atrofida materiallar orqali “jonlantiriladi” va maktab–oila–hamjamiyat uchburchagida tabiiy hamkorlik maydoni vujudga keladi [3; 256].

Tadqiqot THKni o‘quv dasturlariga integratsiya qilish jarayonini tahlil etishda normativ matnlar, o‘quv-metodik paketlar, baholash artefaktlari, raqamli va muhitiy resurslar, empirik amaliyot hujjatlari, IAMT modullari uchun model materiallari hamda etika-sifat protokollaridan iborat keng qamrovli materiallar to‘plamiga tayandi. Ana shu materiallar to‘plami keyingi bo‘limlarda taqdim etiladigan tahlil va natijalar uchun mustahkam

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

faktografik asos vazifasini bajaradi hamda kompetensiyaviy yondashuvni konsepsiyadan amaliyotga ko‘chirishning instrumental yo‘llarini ochib beradi.

Milliy o‘quv dasturlarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi xalqaro ilmiy adabiyotlarda ham, O‘zbekiston ta’lim tizimiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlarda ham keng muhokama qilinmoqda. Adabiyotlar tahlili ushbu yo‘nalishda uchta asosiy oqimni ko‘rsatadi: xalqaro nazariy-metodik yondashuvlar, mintaqaviy va milliy tajribalar, hamda mahalliy ilmiy-tadqiqot ishlari.

Kompetensiyaviy ta’lim paradigmasi XX asr oxiri va XXI asr boshidan boshlab keng rivojlandi. YuNESKO [5], OECD [4], Jahon banki va Yevropa Ittifoqi kabi xalqaro tashkilotlar “21-asr ko‘nikmalari” (21st Century Skills), “asosiy hayotiy ko‘nikmalar” va “kompetensiyaviy ta’lim” (CBE) tushunchalarini ilmiy-nazariy asoslab berdilar. Masalan, OECD tomonidan ishlab chiqilgan DeSeCo loyihasi hayotiy kompetensiyalarni uchta yo‘nalishga ajratadi:

Interaktiv vositalardan foydalanish kompetensiyasi (axborot, til, texnologiya bilan ishlash),

Ijtimoiy guruhlarda faoliyat yuritish kompetensiyasi (muloqot, hamkorlik, mas’uliyat),

Avtonom shaxs sifatida o‘zini boshqarish kompetensiyasi (o‘zini rivojlantirish, tanlov qilish, qadriyatlarni asoslash).

Yevropa Ittifoqi 2006-yilda “Hayot davomida o‘qish uchun asosiy kompetensiyalar” [6; 16] hujjatini qabul qildi. Unda sakkizta asosiy kompetensiya belgilangan: ona tilida muloqot, chet tillarda muloqot, raqamli savodxonlik, matematik va ilmiy savodxonlik, ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyalari, tashabbuskorlik va tadbirkorlik, madaniy ong, hamda o‘zini o‘rganish kompetensiyasi. Ushbu model keyinchalik ko‘plab davlatlar tomonidan milliy o‘quv dasturlariga moslashtirildi.

Rossiya, Qozog‘iston, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlarda kompetensiyaviy yondashuv ta’lim islohotlarining markaziy g‘oyasiga aylandi. Masalan, Qozog‘iston Respublikasining 2016-yildan boshlab yangilangan o‘quv dasturlarida funksional savodxonlik va tayanch kompetensiyalar asosiy mezon sifatida belgilandi. Janubiy Koreyada esa “Key Competencies for Future Education” [6; 16] dasturi orqali o‘quvchilarni kreativlik, kommunikatsiya va hamkorlik, o‘zini o‘zi rivojlantirish kabi ko‘nikmalarga yo‘naltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan.

O‘zbekistonda ta’lim mazmunini yangilash jarayonida ham kompetensiyaviy yondashuv markaziy o‘rin tutmoqda. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va keyingi hujjatlar, xususan, “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” (2017–2021) hamda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’limning asosiy vazifalaridan biri sifatida o‘quvchilarda hayotiy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish ko‘rsatilgan [2; 48].

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti”da [1; 58] o‘quvchilar egallashi zarur bo‘lgan 7 ta tayanch kompetensiya aniq belgilangan:

1. Kommunikativ kompetensiya,


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

2. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi,
3. O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi,
4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi,
5. Umummadaniy kompetensiya,
6. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan foydalanish kompetensiyasi,
7. Mehnat va kasbiy faoliyat kompetensiyasi.

Mahalliy olimlar X. Yo‘ldoshev [9; 31], B. Qodirov [7; 52], N. Sattorova, G. Meliyeva [8; 180] va boshqalar o‘z tadqiqotlarida ushbu kompetensiyalarning mazmuni, yosh bosqichlari bo‘yicha rivojlanish dinamikasi va baholash mezonlarini asoslab berganlar. Masalan, B. Qodirov [7; 52] kompetensiyalarni “bilim–ko‘nikma–munosabat” uchligi orqali izohlagan bo‘lsa, G. Meliyeva [8; 180] o‘qituvchilar malakasini oshirishda kompetensiyaviy yondashuvning metodik asoslarini ishlab chiqqan. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kompetensiyaviy yondashuv universal g‘oya bo‘lsa-da, uning milliy ta’lim tizimiga tatbiqi turlicha: ayrim mamlakatlarda kompetensiyalar “asosiy ko‘nikmalar” sifatida normativ darajada mustahkamlangan, ayrimlarida esa sinf amaliyotiga integratsiya qilinishda qiyinchiliklar saqlanib qolmoqda.

O‘zbekiston tajribasida esa muammo ko‘proq baholash tizimi, resurslarning yetishmasligi va o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi bilan bog‘liq.

Milliy o‘quv dasturlarida tayanch hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirish ta’lim sifatini oshirish va shaxsni har tomonlama rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchilarni faqat bilim egallashga emas, balki uni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, mustaqil qaror qabul qilish, muloqotga kirishish va ijodiy faoliyat yuritishga yo‘naltiradi.

Xalqaro tajribalar va O‘zbekistonning davlat ta’lim standartlari tahlili shuni tasdiqlaydiki, tayanch kompetensiyalarni shakllantirish fanlararo integratsiya, faol metodlar (loyiha, tadqiqot, rolli o‘yinlar), hamda rubrika, portfolio va refleksiya kabi baholash vositalarini talab etadi.

Amaldagi milliy o‘quv dasturlarida 7 ta tayanch kompetensiya belgilangan bo‘lsa-da, ularni samarali joriy etishda resurslar yetishmasligi, baholashning yagona mexanizmlari va o‘qituvchilar metodik tayyorgarligi masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu bois, kompetensiyalarni rivojlantirishni ta’minlash uchun kompetensiya xaritalari va indikatorlar, integrallashgan axborot-metodik tizim, o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash va baholashni transformatsiya qilish zarur. Bu strategiyalar ta’limni shioriy darajadan amaliy bosqichga olib chiqadi hamda o‘quvchilarni zamonaviy jamiyatning faol va mas’uliyatli fuqarolari sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti. – Toshkent, 2017. – 58 b.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. – Toshkent, 2017. – 48 b.
3. Trilling B., Fadel Ch. 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. – San Francisco: Jossey-Bass, 2009. – 256 p.
4. OECD. The Future of Education and Skills: Education 2030. – Paris: OECD Publishing, 2018. – 45 p.
5. UNESCO. Global Citizenship Education: Topics and Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2015. – 96 p.
6. European Parliament and the Council. Key Competences for Lifelong Learning – A European Framework. – Luxembourg: Office for Official Publications of the European Communities, 2006. – 16 p.
7. Qodirov B. Sh. Kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari va ta’lim amaliyotidagi ahamiyati // O‘zbekistonda ta’lim islohotlari jurnali. – 2020. – №3. – B. 45–52.
8. Meliyeva G. Pedagog kadrlarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning metodik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 180 b.
9. Yo‘ldoshev H. Umumiy o‘rta ta’limda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari // Ta’lim va innovatsiya. – 2019. – №4. – B. 23–31.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Davletov Erkaboy Yusubovich**, Ma’mun universiteti dotsenti., Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(*PhD*), dotsent, [**Давлетов Эркабой Юсубович,** Доцент Университета Мамун, Доктор философии педагогических наук(PhD), доцент], [**Davletov Erkaboy Yusubovich**, Acting rector of Mamun University, Doctor of philosophy in pedagogical sciences, associate professor]; manzil: O‘zbekiston, Xiva sh., Bolxovuz ko'chasi, 2-uy [адрес: Узбекистан, Хива, ул. Болховуз , 2], [address: Uzbekistan, 2, Bolkhovuz st., Khiva city] Orcid: 0000-0003-4733-8204

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# ADABIYOT DARSLARIDA NEYROPEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING METODIK TAMOYILLARI

© N.S. Duschanova[1]✉

[1]Urganch Ranch texnologiya universiteti, Urganch, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** zamonaviy adabiy ta’limda o‘quvchilarning matnga hissiy va shaxsiy munosabati susayib bormoqda. Shuning uchun neyropedagogik yondashuvlar dars jarayonida kognitiv va affektiv omillarni uyg‘unlashtirib, badiiy tafakkurni shakllantirish zaruratini belgilaydi.

**MAQSAD:** tadqiqotning asosiy maqsadi – adabiyot darslarida neyropedagogik texnologiyalarni qo‘llash tamoyillarini asoslash va ularning adabiy savodxonlik hamda shaxsiy anglashni rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlash.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda neyropedagogika bo‘yicha ilmiy adabiyotlar (Gromova, Bogoslovskaya, Ilin va b.), zamonaviy adabiy ta’lim konsepsiyalari hamda tajribaviy kuzatuvlar tahlil qilindi. “Aqliy hujum”, “Beshinchi ortiqcha”, tafsir strategiyalari, esse metodlari va multisensor o‘qish kabi interfaol yondashuvlar asos qilib olindi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tahlillar shuni ko‘rsatdiki, individuallashtirish, shaxsga yo‘naltirilganlik, emosional idrok va refleksiya tamoyillari o‘quvchilarda matnni chuqurroq anglash va shaxsiy talqin qilishni ta’minlaydi. Multisensor o‘qish, neyroassotsiatsiya va vizual-kognitiv faollashtirish usullari o‘quvchilarda kreativ fikrlashni rag‘batlantirdi, tafsir va esse strategiyalari esa refleksiya va sub’yektiv talqin qobiliyatini rivojlantirdi.

**XULOSA.** neyropedagogik texnologiyalarni adabiyot darslariga integratsiyalash adabiy savodxonlikni rivojlantiradi, o‘quvchilarda shaxsiy ma’no yaratish va emosional anglash jarayonini chuqurlashtiradi. Bu metodik tamoyillar nafaqat bilim, balki shaxsiy va ma’naviy kamolot uchun ham muhim pedagogik mexanizm sifatida xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** adabiy matn, shaxsiy idrok, neyropedagogika, badiiy tafakkur, kognitiv faollik, affektiv anglash, refleksiya, emosional intellekt, metodik tamoyillar.

**Iqtibos uchun**: Duschanova N.S. Adabiyot darslarida neyropedagogik texnologiyalarni qo‘llashning metodik tamoyillari. // Inter education & global study. 2025. №8. B.71–81.

# МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРИМЕНЕНИЯ НЕЙРОПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ

© Н.С. Дусчанова[1]✉

[1]Ургенчский технологический университет «Ранч», Ургенч, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**ВВЕДЕНИЕ:** одной из проблем современного литературного образования является снижение личностной и эмоциональной вовлечённости учащихся в текст. Нейропедагогический подход позволяет интегрировать когнитивные и аффективные факторы для формирования литературной грамотности.

**ЦЕЛЬ:** цель исследования — обосновать методические принципы применения нейропедагогических технологий в литературном образовании и определить их влияние на формирование личностного восприятия и творческого мышления учащихся.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** использованы научные труды по нейропедагогике (Громова, Богословская, Ильин и др.), современные концепции литературного образования, а также экспериментальные методы. Рассматривались «мозговой штурм», метод «пятый лишний», стратегии интерпретации, эссе и мультисенсорное обучение.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** установлено, что индивидуализация, личностная направленность, эмоциональное восприятие и рефлексия формируют у учащихся способность к глубокому пониманию текста. Мультисенсорное обучение и визуально-когнитивная активация усилили познавательную активность, а стратегии интерпретации и эссе способствовали развитию рефлексивного и критического мышления.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** интеграция нейропедагогических технологий в литературное образование повышает эффективность обучения, развивает литературную грамотность и формирует у школьников личностное, эмоциональное и ценностное отношение к художественному тексту.

**Ключевые слова:** литературный текст, личное восприятие, нейропедагогика, художественное мышление, когнитивная активность, эмоциональное восприятие, рефлексия, эмоциональный интеллект, методические принципы.

**Для цитирования**: Дусчанова.Н.С. Методические основы применения нейропедагогических технологий на уроках литературы.// Inter education & global study.2025. №8. С.71–81.

## METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE USE OF NEUROPEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN LITERATURE LESSONS

© Nilufar S. Duschanova[1]✉
[1] Urgench Technological University "Ranch", Urgench, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** a key challenge of modern literary education is the declining personal and emotional engagement of students with texts. Neuropedagogical approaches integrate cognitive and affective factors, ensuring deeper comprehension and personal meaning-making in literary learning.

**AIM:** the study aims to substantiate the methodological principles of neuropedagogical technologies in literature teaching and to evaluate their role in fostering literary literacy, reflection, and creative interpretation among students.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**MATERIALS AND METHODS:** the study draws on neuroscientific and pedagogical literature (Gromova, Bogoslovskaya, Ilyin, etc.), modern educational practices, and experimental observation. Methods included brainstorming, “the fifth extra” activity, interpretation strategies, essay writing, multisensory learning, and visual-cognitive activation.

**DISCUSSION AND RESULTS:** findings show that the principles of individualization, learner-centeredness, emotional perception, and reflection significantly enhance literary comprehension. Multisensory reading and neuro-association techniques stimulated creativity, while interpretive and essay strategies fostered critical thinking and subjective interpretation.

**CONCLUSION:** integrating neuropedagogical technologies into literature lessons improves teaching effectiveness, strengthens literary literacy, and develops students’ emotional intelligence and personal engagement with texts. These principles contribute not only to knowledge acquisition but also to personal and moral development.

**Keywords:** literary text, personal perception, neuropedagogy, artistic thinking, cognitive activity, affective perception, reflection, emotional intelligence, methodological principles.

**For citation**: Nilufar S. Duschanova. (2025) ‘Methodological foundations of the use of neuropedagogical technologies in literature lessons’, Inter education & global study, (8), pp.71–81. (In Uzbek).

**Z**amonaviy adabiy ta’limdagi asosiy muammolardan biri — o‘quvchilarning badiiy matnga nisbatan ruhiy, hissiy va ma’naviy aloqasi susayib borayotganidir. Adabiyot fani faqat ma’lumot berish emas, balki inson qalbi va ongiga ta’sir etish, estetik did va tafakkurini shakllantirish vazifasini o‘taydi. Ana shunday jarayonni tabiiy va samarali tashkil etish uchun neyropedagogik yondashuvlar joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuvlar o‘quvchining miya faoliyati, bilish qobiliyati, hissiy holati va individual tafakkurini inobatga olgan holda dars mazmunini qayta shakllantirishni nazarda tutadi. Adabiyot darslarida neyropedagogik usullarning joriy etilishi o‘quvchilarni faol ishtirokchiga aylantirib, matnni shaxsan anglash, munosabat bildirish va ma’no yaratish imkoniyatlarini ochadi. Shu bois, adabiy ta’limda neyropedagogik yondashuvlardan foydalanish nafaqat metodik talab, balki ma’naviy-tarbiyaviy ehtiyoj sifatida ham muhim hisoblanadi.

Adabiy savodxonlikni rivojlantirishda qo‘llaniladigan neyropedagogik yondashuvlar o‘quvchi ongida bilimni chuqur va barqaror shaklda o‘zlashtirish, matnni shaxsiy ma’noda anglash, his etish va ijodiy talqin qilishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Bu maqsadga erishish uchun neyroilmlar asosida ishlab chiqilgan o‘qitish usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Zero, badiiy matn faqat kognitiv emas, balki affektiv va sensomotor darajalarda ham idrok etiladigan ta’lim ob’yektidir. Shuning uchun, neyro-o‘qitish usullari faqat ma’lumotni yetkazish emas, balki o‘quvchida shaxsiy anglash, hissiy rezonans va ma’naviy tafakkurni yuzaga keltirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Adabiy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

savodxonlik xususiyatidan kelib chiqib unga mos keladigan eng samarali neyro-o‘qitish usullarining turlari, mazmuni va ularni adabiy ta’limda amaliy qo‘llash imkoniyatlari tasnif asosida tahlil qilinadi. Bu usullar o‘quvchining badiiy matn bilan faol muloqotga kirishishini, shaxsiy tafsir, hissiy anglash va ijodiy munosabat orqali ma’no yaratishini ta’minlashga qaratilgan.

Ma’naviy anglash ta’lim jarayonida o‘quvchining inson va hayot haqidagi qarashlarini chuqurlashtirish, uning axloqiy pozisiyasi va ruhiy sezgirligini oshirishga xizmat qiladi. Ijodiy munosabat esa o‘quvchida badiiy tafakkurni, erkin fikrlashni, shaxsiy interpretatsiya qilish qobiliyatini yuzaga chiqaradi. Bu ikkala jarayonning uyg‘unligida adabiy savodxonlik faqat bilim emas, balki shaxsiy, ma’naviy va ijtimoiy kamolga yetaklovchi muhim vositaga aylanadi. Shu bois, ta’limda ana shu maqsadlarga xizmat qiluvchi metodlardan foydalanish — bugungi kunning zaruratidir.

Biz quyida O‘quvchilarda ma’naviy anglash va ijodiy munosabatni shakllantiruvchi metodlarning ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz.

“Aqliy hujum” usuli adabiy ta’limda o‘quvchilar fikrlash faolligini oshirish, ijodiy yondashuvni rag‘batlantirish va tanqidiy tahlil qobiliyatini shakllantirishda juda samarali metod hisoblanadi. Bu usul o‘quvchilarni erkin va cheksiz fikrlashga chorlaydi, ularga “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” degan chegaralarsiz o‘z munosabatlarini bildirish imkonini yaratadi. Aqliy hujum jarayonida o‘quvchilar berilgan savol yoki muammoga nisbatan erkin taklif va g‘oyalar bildiradilar, keyin esa ular umumiy muhokamaga qo‘yilib, saralab tahlil etiladi.

Adabiyot darsida bu usulni, ayniqsa, obrazlar xulq-atvori, asar voqealarini baholash va ularni hayot bilan bog‘lashda qo‘llash juda samaralidir. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini o‘rganishda “Otabekning harakatlari qanchalik oqlangan?” yoki “Otabek o‘rnida bo‘lsangiz, qanday qaror qabul qilgan bo‘lardingiz?” kabi savollar atrofida aqliy hujum uyushtirilishi mumkin. Bunday savollar o‘quvchini matnni faqat so‘zma-so‘z tushunish emas, balki uning ortidagi ma’no, g‘oya va shaxsiy munosabatga e’tibor qaratishga undaydi. Bu jarayonda o‘quvchilar turli nuqtai nazarlarni ifoda etishadi, bir-birining fikriga qo‘shiladilar yoki unga qarshi fikr bildiradilar — natijada jamoaviy mulohaza va ma’naviy-axloqiy baho berish madaniyati shakllanadi. Ushbu usulning muhim afzalliklaridan biri — uning har qanday yoshdagi o‘quvchilar uchun mos va qiziqarli bo‘lishidir. Unda o‘quvchilar matnni shaxsiy hayoti, tajribalari va tushunchalari bilan bog‘laydi, bu esa neyropedagogik nuqtai nazardan ma’no yaratish va uzoq muddatli xotira shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, aqliy hujum orqali olingan fikrlar ko‘p holatda o‘quvchilarni mulohazali esse yozish, qahramonlar yuzasidan shaxsiy kundalik yoki ijodiy tahlil ishlab chiqish kabi vazifalarga asos bo‘la oladi.

“Beshinchi ortiqcha” usuli adabiy ta’limda o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini, tahlil qilish qobiliyatini va badiiy detallarga e’tibor qaratish mahoratini rivojlantiradigan interfaol metodlardan biri hisoblanadi. Bu usulning mohiyati shundaki, o‘quvchiga beshta tushuncha, obraz, holat yoki g‘oya taqdim etiladi va ular orasida ma’no jihatdan farq qiluvchi, umumiy kontekstga mos kelmaydigan “ortiqcha” elementni aniqlash topshirig‘i beriladi. Bu jarayonda o‘quvchi har bir elementni tahlil qiladi, ular o‘rtasidagi o‘xshash va

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

farqli jihatlarni belgilaydi, asoslangan xulosa chiqaradi. Adabiyot darsida bu usulni obrazlar, badiiy vositalar, mavzular, muammolar va g‘oyalar bilan bog‘lab qo‘llash juda samarali. Bu usul faqat “ortiqcha”ni topish emas, balki nega aynan u ortiqcha ekanini izohlash, boshqa to‘rtta element o‘rtasidagi ma’noiy birlikni anglash va o‘z xulosasini asoslashni talab qiladi. Bu orqali o‘quvchining tanqidiy fikrlashi, individual munosabat bildirishi va badiiy anglashi faollashadi. Shuningdek, bu usul adabiy matndagi murakkab qarama-qarshiliklarni, masalan, “an’ana va islohot”, “erkinlik va taassub”, “muhabbat va burch” kabi mavzuiy qarama-qarshiliklarni ajratishda ham samarali qo‘llanilishi mumkin. “Beshinchi ortiqcha” usulining yana bir muhim afzalligi uning ta’lim jarayonida o‘quvchilar o‘rtasida muloqot, muhokama va fikrlar xilma-xilligini rag‘batlantirishidir. Turli o‘quvchilar turlicha “ortiqcha” deb hisoblashi mumkin va ularning har biri o‘z fikrini mantiqiy asoslashga harakat qiladi. Bu esa o‘quvchilar o‘rtasida konstruktiv bahs va ma’naviy mulohazalar muhitini yaratadi.

Umuman, “Beshinchi ortiqcha” usuli adabiy savodxonlikni rivojlantirishda ijodiy, ma’naviy va mantiqiy yondashuvni uyg‘unlashtiradigan samarali metod bo‘lib, o‘quvchida badiiy tahlil, shaxsiy fikr bildirish va tanqidiy anglash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Adabiyot fanining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u nafaqat bilish, balki his qilish, idrok etish va shaxsiy munosabat bildirish kabi kompleks jarayonlarni qamrab oladi. Shu sababli, adabiy ta’limni tashkil etishda neyropedagogik yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarda badiiy matnni chuqur anglash, ma’no yaratish va shaxsiy tafsir qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuvlar adabiyot darslarida inson miyasining kognitiv, affektiv va sensomotor faoliyatlarini uyg‘unlashtirgan holda bilimni uzatish va qabul qilish jarayonini samaraliroq tashkil etish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, adabiyot darslarining mazmuniga mos keladigan neyropedagogik yondashuvlar o‘quvchilarda faol anglash, ijodiy mulohaza, emosional idrok va shaxsiy munosabatni uyg‘otishni ta’minlovchi muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Neyropedagogik yondashuvlar matnni qabul qilishda ko‘rish, eshitish, his etish, harakat orqali anglash, shaxsiy mulohaza yuritish va ijodiy ifoda qilish kabi faoliyatlarni o‘zaro bog‘liq holda tashkil etishni nazarda tutadi. Bu esa o‘quvchining faqat bilish qobiliyatini emas, balki hissiy anglash, shaxsiy munosabat va ma’naviy xulosa chiqarish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Masalan, dramatik matnni sahnalashtirish, she’rni hissiy ifodalash, hikoyani shaxsiy kundalik asosida tahlil qilish kabi usullar badiiy matnga neyropedagogik yondashuv asosida munosib yondashish imkonini yaratadi. Bu borada taniqli tadqiqotchi M.V.Gromova shunday deydi: “Badiiy matnni o‘zlashtirish jarayonida inson miyasida kognitiv, emosional va idrokiy faoliyatlar o‘zaro bog‘liq holda ishlaydi, shuning uchun bu jarayon neyropedagogik yondashuvlarga muvofiq ravishda tashkil etilishi kerak”. [1; 114]

Matn tahlilida neyro-kognitiv va affektiv usullarni qo‘llash adabiy savodxonlikni chuqurlashtirish, shaxsiy anglashni rag‘batlantirish va miyadagi bilish-his qilish jarayonlarini uyg‘un holda faollashtirishga xizmat qiladi. Kognitiv yondashuvda o‘quvchining diqqati, eslab qolish qobiliyati, mantiqiy tahlil qilish, tugal xulosa chiqarish

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

kabi aqliy faoliyatlari asos qilinadi. Bunday tahlil jarayonida o‘quvchi matnning tuzilishi, syujet rivoji, qahramonlarning harakati va muallifning maqsadini izchil tarzda anglab boradi.

Affektiv usul esa matnga emosional munosabat bildirishni, qahramonlar bilan empatiya qilishni, asardagi hissiy holatlarni his qilishni talab etadi. Bu yondashuvda o‘quvchi badiiy voqelikni faqat anglamaydi, balki shaxsiy tajribasi va tuyg‘ulari bilan bog‘laydi. Masalan, dramatik holatda qahramonni tushunish, uning ichki kechinmalariga sherik bo‘lish, asarning kayfiyatini his etish affektiv anglashning asosiy yo‘nalishlaridir.

Neyrokognitiv va affektiv usullar uyg‘un ravishda qo‘llanilganda, matnni anglash nafaqat mantiqiy, balki hissiy darajada ham amalga oshadi. Bu esa neyropedagogikadagi “ma’no yaratish” mexanizmini ishga soladi va adabiy matn o‘quvchining shaxsiy tafakkuriga chuqurroq ta’sir o‘tkazadi. Bunday yondashuvda adabiy savodxonlik nafaqat ma’lumot bilish, balki shaxsiy fikr yuritish, ma’naviy anglash va ijodiy ifoda orqali shakllanadi. Bu haqda tadqiqotchi N.N.Bogoslovskaya shunday deb yozadi: “Adabiy matn tahlilida kognitiv va affektiv mexanizmlarni uyg‘un qo‘llash o‘quvchining shaxsiy ma’no yaratishiga xizmat qiladi va asar bilan ruhiy muloqotni ta’minlaydi”. [2; 72]

Adabiy ta’limni samarali tashkil etishda metodik tamoyillar tizimi muhim o‘rin tutadi. Bu tamoyillar ta’lim jarayonining mazmuni, maqsadi va shaklini belgilovchi metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy ta’limda, ayniqsa, neyropedagogik yondashuvlar asosida ish yuritishda ushbu tamoyillarning ilmiy jihatdan asoslangan, inson miyasi va ongi faoliyatiga moslashgan bo‘lishi talab etiladi. Chunki adabiy matnlar faqat bilim manbai emas, balki shaxsiy anglash, his etish va ijodiy munosabatni talab qiluvchi ma’naviy ob’yekt hisoblanadi. Shu bois, adabiy savodxonlikni rivojlantirishda neyropedagogika bilan uyg‘unlashgan metodik tamoyillar tizimini aniqlash va ularni amaliy jarayonga tatbiq etish bugungi kun ta’limining dolzarb vazifalaridan biridir. Quyida aynan shunday tamoyillar tizimi va ularning neyrobiologik hamda kognitiv asoslari yoritib beriladi.

Adabiy ta’limda neyropedagogik yondashuvga asoslangan metodik tamoyillar o‘quv jarayonini inson miyasi va psixologiyasining tabiiy xususiyatlariga mos ravishda tashkil etishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, individuallashtirish, shaxsga yo‘naltirilganlik, emosional idrok va refleksiya tamoyillari adabiy savodxonlikni rivojlantirishda markaziy o‘rin tutadi. Ushbu tamoyillar har bir o‘quvchining bilish jarayonini chuqurlashtirish, matnni faol anglash va shaxsiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan.

Individuallashtirish tamoyili. Individuallashtirish tamoyili har bir o‘quvchining bilish qobiliyati, intellektual salohiyati, ruhiy holati va shaxsiy tajribasini inobatga olgan holda ta’limni tashkil etishni nazarda tutadi. Neyropedagogikaga ko‘ra, har bir inson miyasidagi neyron tarmoqlar turlicha shakllangan bo‘lib, ularning bilish jarayonlari ham individual tusga ega. Adabiy ta’limda bu tamoyil o‘quvchilarning adabiy matnga munosabatini, talqin qilish uslubini va anglash darajasini hisobga olgan holda shaxsiy yondashuvni talab qiladi. Masalan, bir o‘quvchi qahramonlar orqali fikr yuritsa, boshqasi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

badiiy vositalar yoki muallif pozisiyasi orqali matnga yondashishi mumkin. Shuning uchun individuallashtirish adabiy savodxonlikning shaxsiy va ma'naviy pog'onalarda shakllanishini rag'batlantiradi.

Shaxsga yo'naltirilganlik tamoyili. Shaxsga yo'naltirilganlik tamoyili ta'lim markazida o'quvchi shaxsini qo'yadi va uning individual rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu tamoyilda adabiy bilim maqsad emas, balki shaxsiy anglash, ma'naviy kamol, ijtimoiy ong va estetik didni shakllantirish vositasi sifatida qaraladi. Neyropedagogik nuqtai nazardan, ta'lim shaxsning miyasida yangi neyron aloqalarni vujudga keltirishi, ya'ni shaxsda yangi ma'nolar, qarashlar, tuyg'ular paydo bo'lishi bilan samarali hisoblanadi. Adabiy matnlarni shaxsiy ong orqali talqin qilish, qahramonlarga munosabat bildirish, real hayot bilan bog'lash imkoniyati — aynan ushbu tamoyilning amaliyotdagi ifodasi hisoblanadi. Bu esa adabiy savodxonlikni formal bilim emas, balki shaxsiy madaniyat darajasiga ko'taradi.

Emosional idrok tamoyili. Emosional idrok tamoyili adabiy matnni faqat mantiqiy emas, balki hissiy asosda anglashni talab qiladi. Chunki adabiyot — bu hissiyot, obraz, sevgi, nafrat, xursandlik, alam va umidni ifoda etadigan badiiy voqelik. Neyropedagogik tahlillarga ko'ra, inson miyasidagi amigdala zonasi emosional ma'lumotlarni qayta ishlashga mas'ul bo'lib, hissiy idrok orqali berilgan ma'lumotlar miyada uzoqroq saqlanadi va chuqurroq anglanadi. Shunday ekan, adabiy ta'limda o'quvchining qahramonlarga hamdardlik bildirishi, voqealarga munosabat bildirishi va hissiy ta'sirlanishi adabiy savodxonlikni chuqur anglash bilan bog'liq. Bu tamoyil matn bilan shaxsiy muloqotni ta'minlaydi va ma'naviy tarbiyaning muhim mexanizmiga aylanadi.

Refleksiya tamoyili ta'lim jarayonida o'quvchining o'zi o'rganayotgan ma'lumotga, o'z faoliyatiga va anglash jarayoniga nisbatan fikr yuritishiga asoslanadi. Adabiy ta'limda bu tamoyil matndan so'ng shaxsiy munosabat bildirish, ma'naviy xulosa chiqarish, "men nima angladim?", "mening fikrim qanday?" kabi savollar orqali amalga oshiriladi. Neyropedagogik nuqtai nazardan refleksiya — bu neyron aloqalarning qayta mustahkamlanishi va yangi ma'nolarning shakllanishidir. Shuning uchun adabiyot darslarida refleksiv savollar, esse, tafsir kundaligi kabi faoliyatlar o'quvchining shaxsiy anglash jarayonini chuqurlashtiradi. Bu esa adabiy savodxonlikning ma'no yaratish va mulohazali fikrlash darajasida shakllanishiga turtki beradi.

Umuman, ushbu to'rt tamoyilning har biri adabiy savodxonlikni faqat texnik yoki nazariy emas, balki ma'naviy, shaxsiy va ijtimoiy jihatdan to'laqonli rivojlantirishga xizmat qiladi. Ular neyropedagogik asoslarga suyangan holda ta'lim jarayonini inson miyasi va ongi faoliyatiga mos holda tashkil etish imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, ushbu metodik tamoyillarni adabiyot darsida tizimli va maqsadli qo'llash o'quvchilarda nafaqat adabiy bilimni, balki shaxsiy anglash, his qilish, ijodiy munosabat va ma'naviy kamolni ham shakllantiradi. Neyropedagogik yondashuv asosida bu tamoyillar o'quvchini matn bilan muloqotga olib kirib, uni "bilim oluvchi" emas, balki "fikrlovchi, his qiluvchi va yaratuvchi" shaxs sifatida kamol toptiradi.

Zamonaviy adabiyot darsi faqat ma'lumot berish vositasi emas, balki o'quvchining bilish faoliyatini uyg'otuvchi, hissiy anglashni rag'batlantiruvchi va shaxsiy ma'no

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

yaratishni ta’minlovchi jarayonga aylanmog‘i zarur. Bu maqsadga erishishda darsni tashkil etishdagi metodik qadamlar neyropedagogik yondashuvlarga tayangan holda shakllantirilishi talab etiladi. Neyropedagogika inson miyasi faoliyati, xotira, diqqat, hissiyot va mulohazaviy jarayonlarni hisobga olgan holda ta’limni rejalashtirishni taklif etadi. Shu nuqtai nazardan, adabiyot darsini rejalashtirishda har bir bosqich — motivatsiya, anglash, idrok, tahlil, shaxsiy munosabat, refleksiya kabi jarayonlar miyadagi ma’lum neyron tizimlarni faollashtiradigan, hissiy va kognitiv mexanizmlarni uyg‘otadigan tarzda qurilishi kerak. Ushbu qismda ana shu talablarga javob beradigan, neyropedagogik asoslarga tayanadigan metodik qadamlar tizimi yoritiladi.

Adabiy ta’limda dars jarayonini samarali tashkil etish va uni natijador baholashda boshqaruv va baholash mexanizmlari markaziy o‘rin tutadi. Neyropedagogik yondashuv nuqtai nazaridan, ushbu mexanizmlar o‘quvchining bilish, his qilish va mulohaza yuritish jarayonlarini hisobga olgan holda shakllantirilishi lozim. Chunki ta’lim faoliyati miyada neyron tarmoqlarning faollashishi, ma’lumotlarni qayta ishlash, shaxsiy munosabatni shakllantirish va ma’no yaratish orqali yuz beradi. Shu bois, dars jarayonini boshqarish ham, uni baholash ham o‘quvchining faol ongli ishtirokini ta’minlovchi va miya faoliyatiga mos ravishda tashkil etilishi kerak.

Boshqaruv mexanizmlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘quvchining diqqati, hissiy holati, motivatsiyasi va tafakkur jarayonlarini boshqarishga yo‘naltirilgan. Ushbu jarayonda o‘qituvchi o‘quv muhitini hissiy qulay, ijodiy faol va shaxsiy anglashga mos ravishda shakllantiradi. Masalan, darsda ovoz, harakat, vizual materiallar, multimediaviy vositalar yoki shaxsiy savollar orqali miyada emosional va kognitiv uyg‘onish yuzaga keltiriladi. Bu boshqaruv ta’sirida o‘quvchi o‘z bilish jarayonini boshqaradi, his qiladi va anglash jarayonini faollashtiradi.

Baholash mexanizmlari esa o‘quvchining faqat bilimi emas, balki anglashi, fikrlash usuli, shaxsiy munosabati va ma’naviy-estetik reaksiyasini qamrab olishi kerak. Neyropedagogik yondashuvda baholash ko‘proq jarayonga yo‘naltiriladi: o‘quvchining qanday anglagani, qanday shaxsiy ma’no yaratgani, qanday mulohazalar bildirgani baholanadi. Buning uchun reyting, refleksiv esse, ijodiy ishlar, tafsir kundaliklari, o‘z-o‘zini baholash kabi usullar samarali hisoblanadi. Bu baholash shakllari miyadagi qayta ishlash, xotirada mustahkamlash va shaxsiy ma’no yaratishni kuchaytiradi. Taniqli olim Ye.P. Ilin ta’kidlaydi: “Ta’lim jarayonida miya faoliyati faqat ma’lumot qabul qilish emas, balki ma’lumotga shaxsiy munosabat bildirish va uni qayta ishlash jarayoniga asoslanadi, shuning uchun boshqaruv va baholash usullari miyaning bilish va emosional faolligiga mos tarzda qurilishi lozim”. [3; 211]

Adabiy ta’limda neyropedagogik yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan multisensor o‘qish, neyroassosiatsiya va vizual-kognitiv faollashtirish usullari o‘quvchida adabiy savodxonlikni shakllantirishda muhim metodik imkoniyatlar yaratadi. Ushbu usullar inson miyasidagi turli sensor, kognitiv va emosional markazlarni bir vaqtda faollashtirib, ma’lumotni to‘liq va samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Quyida ushbu usullar har tomonlama yoritib beriladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Multisensor o‘qish. Multisensor o‘qish adabiy matnni bir vaqtning o‘zida eshitish, ko‘rish, harakat, nutq va his qilish orqali o‘zlashtirishga asoslangan metod bo‘lib, u miyadagi bir nechta funksional zonalarni uyg‘otish orqali neyron aloqalarni mustahkamlaydi. Bu usulda o‘quvchi nafaqat ko‘z bilan o‘qiydi, balki matnni eshitadi, talaffuz qiladi, harakat bilan ifoda etadi yoki vizual materiallar orqali tasavvur qiladi.

Qo‘llanilishi:

matnni dramalashtirish, sahnalashtirish;

she’rni talaffuz bilan o‘qish;

matnga mos rasm, tasvir, musiqa yordamida tushunish.

Afzalliklari:

matn hissiy qabul qilinadi;

xotirada uzoq saqlanadi;

har bir o‘quvchi o‘z sensor imkoniyatiga ko‘ra faol bo‘ladi.

Neyroassosiatsiya. Neyroassosiatsiya — yangi ma’lumotni avvalgi bilim, shaxsiy tajriba yoki hissiy obrazlar bilan bog‘lashga asoslangan usul bo‘lib, miyada yangi neyron tarmoqlarni shakllantiradi. Adabiyotda bu metod qahramonlar, voqealar, g‘oyalar yoki badiiy vositalarni shaxsiy hayotdagi voqeliklar bilan bog‘lash, obrazlarga o‘xshash voqealarni yodga olish, simbolik assosiatsiyalar tuzish kabi faoliyatlar orqali amalga oshiriladi.

Qo‘llanilishi:

“Qahramon sizni kimga eslatadi?”

“Asardagi voqea hayotingizdagi qaysi holatga o‘xshaydi?”

Ma’no kartasi yoki metaforalar tuzish orqali assosiatsiya yaratish.

Afzalliklari:

matn shaxsiylashadi;

ongdagi ma’lumotlar tizimlashadi;

ijodiy fikrlash faollashadi.

Vizual-kognitiv faollashtirish. Bu usul adabiy matndagi ma’lumot, g‘oya va munosabatlarni vizual shakllar — sxema, jadval, diagramma, klaster, intellekt-karta ko‘rinishida tasvirlash orqali tahlil qilishni nazarda tutadi. Bu metod orqali miyadagi kognitiv jarayonlar — mantiqiy bog‘liqlik, tizimlash, taqqoslash va tahlil faollashadi. Ayni paytda vizual tasvirlash matnni anglashni osonlashtiradi va xotirada saqlanishini kuchaytiradi.

Qo‘llanilishi:

qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlar diagrammasi;

syujet rivoji bo‘yicha vaqt jadvali;

badiiy vositalar kartasi.

Afzalliklari:

aqliy tahlil quvvati rivojlanadi;

matnni tuzilmali anglash osonlashadi;

xotirada vizual obrazlar orqali mustahkamlanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Adabiyot darsida matn ustida ishlash jarayoni faqat ma’lumotni o‘zlashtirish emas, balki shaxsiy anglash, his qilish, fikr yuritish va ijodiy ifoda etishga qaratilgan faoliyat bo‘lishi lozim. Neyropedagogik yondashuvga asoslangan holda matn ustidagi ishni tashkil etishda o‘yinli elementlar, tafsir strategiyalari va esse yozish kabi faoliyatlar miyadagi kognitiv, emosional va neyroplastik jarayonlarni faollashtiradi. Bu jarayonda o‘quvchi badiiy matnni faol anglaydi, shaxsiy munosabat shakllantiradi va ma’no yaratish tajribasini boshdan kechiradi.

Neyropedagogik o‘yinlar. O`yin elementlari o‘quvchi diqqatini markazlashtiradi, matnni his qilish va anglash jarayonini faollashtiradi. Neyropedagogik nuqtai nazardan, o‘yin faoliyati miyada motivatsiya, ehtiyoj va qiziqish orqali ma’lumotni chuqurroq qayta ishlashga yordam beradi. Adabiyot darsida quyidagi o‘yinlar samarali hisoblanadi:

“Rolga kir” — qahramonlar orasidagi muloqotni sahnalashtirish;

“Beshinchi ortiqcha” — obrazlar yoki g‘oyalar orasida mos kelmaydiganini aniqlash;

“Harakatli diagramma” — syujetni tana harakatlari orqali ifoda etish;

“Kim gapiryapti?” — iqtiboslardan qahramonni aniqlash.

Bu turdagi o‘yinlar o‘quvchida emosional idrok, hissiy tahlil, eslab qolish va muloqot qobiliyatini rivojlantiradi.

Tafsir strategiyalari. Tafsir — bu matnni shaxsiy, ijtimoiy va ma’naviy kontekstda anglash va qayta ifoda etish jarayoni. Tafsir strategiyalari o‘quvchida tanqidiy fikrlash, badiiy vositalarni anglash va muallif maqsadini sharhlash qobiliyatini rivojlantiradi. Quyidagi strategiyalar samarali hisoblanadi:

“Matndagi mavqeim” — “Men bu voqea ichidaman” deb tasavvur qilib, munosabat bildirish;

“Davomini yoz” — matnni erkin davom ettirish orqali shaxsiy fikrni ifoda etish;

“Muallif nima demoqchi?” — g‘oya va pozisiyani tahlil qilish;

“Fikrlarga javob” — muallif yoki qahramon fikriga rad yoki qo‘shilish bilan munosabat bildirish.

Bu strategiyalar neyropedagogik nuqtai nazardan miyadagi tanqidiy markazlarni, kognitiv-refleksiv tarmoqlarni faollashtiradi.

Esse strategiyalari. Esse — shaxsiy fikr, hissiy anglash va ijodiy tafsirni yozma shaklda ifoda etish imkonidir. Adabiyot darsida esse yozish strategiyalari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

“Bir so‘z – bir fikr” — matndan tanlangan so‘z asosida shaxsiy munosabat yozish;

“Qahramonga maktub” — qahramonga murojaat qilib, asarga nisbatan munosabatni bildirish;

“Nima angladim?” — matn orqali shaxsiy ma’noni shakllantirish;

“Tafsir kundaligi” — har darsdan so‘ng asarning muayyan qismi yuzasidan mulohaza yozish.

Esse strategiyalari neyron faollikni uyg‘otish, shaxsiy ma’no yaratish, xotirada mustahkamlash va ijodkorlikni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ushbu paragrafda adabiyot darslarida neyropedagogik texnologiyalarni qo‘llashning metodik tamoyillari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Avvalo, neyropedagogik yondashuv ta’lim jarayonini inson miyasi faoliyatiga mos ravishda tashkil etish zaruratini belgilaydi. Metodik tamoyillar tizimi ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan, hissiy va ma’noyaratuvchi jarayonga aylantiradi. Multisensor o‘qish, vizual-kognitiv faollashtirish, neyroassosiatsiya, tafsir va esse strategiyalari kabi usullar o‘quvchining bilish, his qilish va ijodiy ifoda qobiliyatlarini faollashtiradi. Dars tuzilishidagi tayyorlov, anglash, shaxsiylashtirish, tafsir va fikrlash bosqichlari neyroasosli rejalashtirilganda, ta’lim jarayoni samarali va ma’noli tus oladi. Shuningdek, boshqaruv va baholash mexanizmlarining neyropedagogik asosda tashkil etilishi o‘quvchi faolligini rag‘batlantirish, xotirani mustahkamlash va shaxsiy anglashni chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuvlar adabiy savodxonlikni rivojlantirishda ta’sirchan va barqaror usullar sirasiga kiradi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Громова М.В. Нейропедагогика: теория и практика. — Москва: Проспект, 2020. — С. 114.
2. Богословская Н.Н. Психология литературного восприятия. — Санкт-Петербург: Речь, 2016. — С. 72.
3. Ильин Е.П. Психофизиология человека. — СПб.: Питер, 2003. — С. 211.
4. Дунин Е.Ф. Современная школьная филология: учебно-методическое пособие. – Москва: Академия, 2017, б. 45–46.
5. Luke A., Freebody P. Critical Literacy: The Hidden Curriculum of Language Teaching. – In: Muspratt S. et al. (eds). Constructing Critical Literacies. – Cresskill, NJ: Hampton Press, 1997, p. 220–241.; Freire P. Pedagogy of the Oppressed. – New York: Continuum, 2015, p. 80–83.
6. Соловьёва Е.В. Формирование литературной грамотности школьников. – Москва: Просвещение, 2016, б. 32–35.; Чередниченко Г.Ф. Теория и методика литературного образования. – Санкт-Петербург: Лань, 2020, б. 59–61.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Duschanova Nilufar Sabirbayevna**, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori [**Дусчанова Нилуфар Сабирбаевна**, доктор философии по педагогическим наукам], [**Duschanova Nilufar Sabirbayevna** Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences]; manzil: Urganch shahar, 26-uy, ko'chasi, Xonqa, Xorazm Viloyati, [адрес: Г. Ургенч, 26, ул. Ханка, Хорезмская область], [address: Urgench, 26, Khanka St., Khorezm region]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# O‘QISH SAVODXONLIGI FANINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING BADIIY-ESTETIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK IMKONIYATLARI

© G.S.Kaxarova[1]✉
[1]Namangan davlat universiteti, Namangan, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** maqolada O‘qish savodxonligi fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning badiiy-estetik qobiliyatlarini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari yoritilgan. Ushbu fan o‘quvchilarni nafaqat matnni o‘qish va tushunishga, balki estetik idrok, badiiy did va ijodiy tafakkurga yo‘naltiruvchi muhim vosita sifatida qaraladi.

**MAQSAD:** tadqiqotning asosiy maqsadi — xalq og‘zaki ijodi asosida tanlangan matnlar, o‘qituvchining estetik kompetensiyasi va interfaol metodlar orqali o‘quvchilarda badiiy-estetik qobiliyatlarni shakllantirish metodik imkoniyatlarini ilmiy asoslashdir.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda ertaklar, dostonlar, maqollar, qo‘shiqlar, topishmoqlar kabi folklor namunalari, shuningdek, dramatizatsiya, ifodali o‘qish, sahnalashtirish, ijodiy yozuv va xalq qo‘shiqlaridan foydalanish metodlari qo‘llandi. Tajriba va nazorat guruhlari bilan olib borilgan amaliy mashg‘ulotlar natijalari tahlil qilindi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** natijalar shuni ko‘rsatdiki, xalq og‘zaki ijodi asosida tashkil etilgan o‘qish savodxonligi darslari o‘quvchilarning estetik idroki, badiiy didi va ijodiy tafakkurini sezilarli darajada rivojlantiradi. Interfaol metodlar matn mazmunini chuqurroq anglash, shaxsiy his-tuyg‘ularni badiiy obrazlar bilan uyg‘unlashtirishga yordam berdi.

**XULOSA:** o‘qish savodxonligi fanida badiiy-estetik qobiliyatlarni rivojlantirish uchun maqsadli, mazmuniy, amaliy va baholash bloklarini o‘z ichiga olgan metodik model samarali natijalar beradi. Bu yondashuv o‘quvchilarda nafaqat savodxonlikni, balki madaniy va ma’naviy yetuklikni ham ta’minlaydi.

**Kalit so‘zlar:** o‘qish savodxonligi, badiiy-estetik qobiliyat, xalq og‘zaki ijodi, metodik imkoniyatlar, estetik tarbiya, interfaol metodlar, dramatizatsiya, ifodali o‘qish, ijodiy yozuv.

**Iqtibos uchun**: Kaxarova. G.S. O‘qish savodxonligi fanini o‘qitishda o‘quvchilarning badiiy-estetik qobiliyatlarini rivojlantirishning metodik imkoniyatlari. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №8. B.82–89.

# МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА “ЧИТАТЕЛЬСКАЯ ГРАМОТНОСТЬ”

© Г.С. Кахарова[1]✉
[1]Наманганский государственный университет, Наманган, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в статье раскрываются методические возможности развития художественно-эстетических способностей учащихся при преподавании предмета «Читательская грамотность». Подчёркивается роль данного предмета не только в формировании навыков чтения и понимания текста, но и в развитии эстетического восприятия, художественного вкуса и творческого мышления.

**ЦЕЛЬ:** основная цель исследования — научное обоснование методических путей развития художественно-эстетических способностей учащихся через использование устного народного творчества, эстетической компетентности педагога и интерактивных методов обучения.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в исследовании использовались образцы устного народного творчества (сказки, эпосы, пословицы, песни, загадки), а также такие методические приёмы, как драматизация, выразительное чтение, инсценировка, творческое письмо. Проведены опытно-экспериментальные занятия с контрольными и экспериментальными группами.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты показали, что уроки, основанные на устном народном творчестве, значительно способствуют развитию эстетического восприятия, художественного вкуса и творческих способностей учащихся. Интерактивные методы позволили учащимся глубже понимать текст и связывать его содержание с личным опытом.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** методическая модель, включающая целевой, содержательный, практический и оценочный блоки, является эффективным средством формирования у школьников не только читательской грамотности, но и общей культурной и духовной зрелости.

**Ключевые слова:** читательская грамотность, художественно-эстетические способности, устное народное творчество, методические возможности, эстетическое воспитание, интерактивные методы, драматизация, выразительное чтение, творческое письмо.

**Для цитирования**: Г.С. Кахарова. Методические возможности развития художественно-эстетических способностей учащихся при преподавании предмета “ читательская грамотность”.// Inter education & global study.2025. vol.3 №8. С.82–89.

## METHODICAL POSSIBILITIES FOR DEVELOPING STUDENTS’ ARTISTIC AND AESTHETIC ABILITIES IN TEACHING THE SUBJECT “READING LITERACY”

© G.S. Kaxarova[1]✉
[1]Namangan State University, Namangan, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** the article explores the methodological opportunities for developing students’ artistic and aesthetic abilities in the subject of Reading Literacy.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

This subject is viewed not only as a means to improve reading comprehension but also as an important tool for fostering aesthetic perception, artistic taste, and creative thinking.

**AIM:** the main aim of the study is to substantiate scientifically the methodological strategies for enhancing students' artistic and aesthetic abilities through the integration of oral folk literature, teachers' aesthetic competence, and interactive teaching methods.

**MATERIALS AND METHODS:** the research employed samples of oral folk art (fairy tales, epics, proverbs, songs, riddles) and teaching techniques such as dramatization, expressive reading, staging, and creative writing. Experimental classes were conducted with control and experimental groups to test the effectiveness of the proposed methods.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the findings demonstrated that reading literacy lessons based on oral folk art significantly improved students' aesthetic perception, artistic taste, and creative thinking. Interactive methods enabled learners to engage with texts more deeply and connect them to personal experiences.

**CONCLUSION:** a methodological model consisting of target, content, practice, and assessment blocks proved effective in fostering not only literacy but also cultural and spiritual development among primary school students.

**Keywords:** reading literacy, artistic and aesthetic abilities, oral folk art, methodological opportunities, aesthetic education, interactive methods, dramatization, expressive reading, creative writing.

**For citation**: Kaxarova G.S. (2025) 'methodical possibilities for developing students' artistic and aesthetic abilities in teaching the subject "reading literacy', Inter education & global study, vol.3 (8), pp.82–89. (In Uzbek).

**B**oshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning badiiy-estetik qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan PF-5847-sonli farmon va "Umumiy o'rta ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" kabi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ta'lim jarayonini insonparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tashkil etish, o'quvchilarda badiiy did, estetik qarashlar va ijodiy tafakkurni rivojlantirish zarurligi ta'kidlangan. O'qish savodxonligi fanida ertaklar, maqollar, topishmoqlar, dostonlardan namunalar, qo'shiqlar, rivoyatlar, afsonalar va boshqa badiiy matnlarning o'quv jarayoniga kiritilishi o'quvchilarning matnni obrazli idrok etish, estetik baho berish, ijodiy ifoda kabi ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat o'qish savodxonligini oshirish, balki madaniy va ma'naviy kompetensiyalarni shakllantirishning muhim omilidir.

O'qish savodxonligi fanida badiiy-estetik rivojlantirishning metodik imkoniyatlarini o'rganish jarayonida mahalliy va xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, samarali natijaga erishish uchun uch asosiy yo'nalishga e'tibor qaratish lozim. Birinchisi matn tanlash mezonlari bo'lib, bunda badiiy-estetik salohiyati yuqori bo'lgan, obrazlilik,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ifodaviylik, milliy qadriyatlar va axloqiy mazmun uyg‘un bo‘lgan matnlarni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchisi o‘qituvchining estetik kompetensiyasi bo‘lib, pedagogning xalq ijodiga oid bilimlari, badiiy tahlil ko‘nikmalari va dars jarayonida estetik-tarbiyaviy yondashuvni amalga oshirish mahorati alohida ahamiyatga ega. Uchinchisi metodik yondashuv va texnologiyalar bo‘lib, dramatizatsiya, ifodali o‘qish, interfaol metodlar hamda ijodiy yozuv kabi faoliyat turlaridan samarali foydalanish talab etiladi. Xalq og‘zaki ijodi asosida o‘qish savodxonligi darslarini tashkil etish o‘quvchilar tafakkurida tasviriy vositalar orqali hissiy ta`sirchanlik uyg`otib, ularda badiiy tafakkur va estetik idrokni mustahkamlaydi. Maqollarning qisqa va lo‘nda shakli fikrni ixcham ifodalashga o‘rgatsa, ertaklar voqealarning dramatik rivoji va obrazlarning jonliligi orqali tasavvur hamda ijodiy tafakkurni faollashtiradi. Badiiy-estetik qobiliyatlarni rivojlantirishning yana bir muhim jihati o‘quvchining o‘z shaxsiy hissiy tajribasini matn mazmuni bilan bog‘lashga undashidir va bu jarayonda o‘quvchi o‘z fikrini erkin bayon etadi, obrazlar orqali voqealarga baho beradi va ularni shaxsiy qadriyatlari bilan uyg‘unlashtiradi.

Badiiy-estetik qobiliyat masalasi falsafa, psixologiya va pedagogika fanlarida keng o‘rganilgan bo‘lib, u insonning san’at va go‘zallik hodisalarini idrok etish, hissiy jihatdan baholash va ijodiy ifoda etish qobiliyatlari birligini anglatadi. Gasanova estetik tarbiyani shaxsning obrazli badiiy tasvvur va estetik baholashni shakllantirish jarayoni sifatida izohlaydi. Bu yondashuvda estetik tarbiya o‘quvchining milliy va umuminsoniy qadriyatlarni his etishga undash bilan uyg‘unlashadi. Sparshott estetik strukturaning falsafiy talqinida estetik idrokni hissiy va ratsional komponentlar integratsiyasi sifatida ko‘rsatadi, bunda badiiy-estetik qobiliyat shaxsning ma’naviy barkamolligini ta’minlaydigan murakkab tizim sifatida tushuniladi. Pizzolantening tadqiqotida estetik tajribalar insonning ichki psixologik holatiga transformativ ta’sir ko‘rsatib, ularni ijobiy o‘zgarishga undashi ta’kidlanadi.

Xalq og‘zaki ijodi milliy estetik tajribaning asosiy manbai bo‘lib, ertaklar, dostonlar, maqollar, topishmoqlar va qo‘shiqlar o‘quvchilarda obrazli tafakkur, badiiy tasavvur va estetik baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. D.To‘xtasinova topishmoqlarning madaniyat va ta’limdagi o‘rnini tadqiq etib, ularni o‘quvchilarning tafakkurini faollashtirish va badiiy ifoda doirasini kengaytirish vositasi sifatida ko‘rsatgan bo`lsa, Sh.Nurboyev xalq dostonlarini o‘rganishning lingvistik asoslarini tahlil qilib, dostonlarning badiiy-estetik tarbiya jarayonidagi mazmuniy qiymatini ochib beradi. D.Xodiyeva va I.Nazarboyeva kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishda xalq og‘zaki ijodidan foydalanish samarali yo‘llarini ishlab chiqib, bu jarayonda o‘quvchining estetik idroki va tanqidiy tafakkurini uyg‘otish muhimligini ta’kidlaydilar. G.Eshbayeva xalq qo‘shiqlarining milliy tarbiyadagi ahamiyatini ko‘rsatib, ular orqali estetik qadriyatlarni singdirish mumkinligini ilmiy asoslaydi.

Xorijiy tajribalar o‘quvchilarning estetik rivojlanishida san’at turlari sintezi, interfaol o‘yin texnologiyalari va estetik baholash mezonlaridan samarali foydalanishni ta’minlasa,


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

mahalliy tajribalar esa milliy folklor janrlarining ma'naviy-estetik ta'siriga e'tibor qaratadi. Ushbu ikki yo'nalishni uyg'unlashtirish, ya'ni xalq og'zaki ijodi vositalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyalash, o'quvchilarda badiiy-estetik qobiliyatlarni rivojlantirishning eng samarali yo'li sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur tadqiqot douirasidagi tajriba sinov ishlari umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida xalq og'zaki ijodi asosida ishlab chiqilgan metodik materiallar asosida o'tkazildi. Tajriba va nazorat guruhlari tashkil etilib, tajriba guruhlarida metodik model asosida darslar olib borilgan bo`lsa, nazorat guruhlarida esa an'anaviy usullar qo'llandi. Ish jarayonida matn tanlash, o'qituvchining estetik kompetensiyasi, metodik vositalar va interfaol texnologiyalar yagona tizim sifatida sinovdan o'tkazildi. Darslar, mashg'ulotlar va o'quvchilarning ijodiy ishlari tahlil qilinib, metodik imkoniyatlar toifalarga ajratildi hamda estetik rivojlanishga ta'siri baholandi. Natijalar xalq og'zaki ijodi vositasida tashkil etilgan o'qish savodxonligi darslari o'quvchilarning estetik idroki, badiiy didi va ijodiy tafakkurini sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatdi.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning badiiy-estetik qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va bu jarayonni samarali tashkil etishda O'qish savodxonligi fani asosiy o'ringa ega. Bu fan o'quvchilarning faqatgina matnni o'qish va tushunish qobiliyatini emasgina emas, balki matnni idrok etish, uning mazmunini tahlil qilish, ifodalash, baholash va amaliy faoliyatga tatbiq etish ko'nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. O'qish savodxonligi jarayonida o'quvchi matn bilan ishlash davomida nutq boyligini kengaytiradi, grammatik tuzilmalarni amalda qo'llashni o'rganadi va eng asosiysi, badiiy matnlar orqali estetik zavq olishni boshlaydi.

O'qish savodxonligi fani o'z mohiyatiga ko'ra integrativ xususiyatga ega bo'lib, unda bir nechta fanlar ya`ni tilshunoslik, adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik va psixologiya elementlari uyg'unlashib ketgani sababli,bu fan doirasida o'quvchilarning badiiy-estetik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar paydo bo`ladi. Matn tanlash jarayonida xalq og'zaki ijodi namunalaridan ertaklar, dostonlar, maqollar, topishmoqlar, rivoyatlar va qo'shiqlardan foydalanish o'quvchilar tafakkurini boyitadi, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga yaqinlashtiradi. Xalq og'zaki ijodi namunalarining O'qish savodxonligi darslarida qo'llanishi o'quvchilarning hissiy-estetik tajribasini chuqurlashtiradi. Ertaklar voqealarning obrazli ifodasi orqali bolalarning tasavvur olamini kengaytiradi, maqollar fikrni ixcham va badiiy yetkazishga o'rgatadi, topishmoqlar esa mantiqiy va ijodiy tafakkurni faollashtiradi, dostonlar tarixiy voqealarni estetik shaklda yetkazib, o'quvchilarning tarixiy xotirasi va milliy g'ururini mustahkamlaydi. O'qish savodxonligi darsi jarayonida o'qituvchi nafaqat matn mazmunini tushuntiradi, balki o'quvchini estetik fikr yuritishga, obrazlarni his qilishga hamda voqealarga ijodiy yondashishga ham undaydi. Bu jarayonda dramatizatsiya, ifodali o'qish, matnni sahnalashtirish, interfaol metodlar va ijodiy yozuv mashqlari katta ahamiyatga ega bo'lib bu metodlar orqali o'quvchilarning matnni chuqur o'zlashtirishiga,


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

badiiy-estetik hissiyotlarni his qilishiga, ijodiy ifoda qobiliyatini rivojlantirishiga yordam beradi.

O‘qish savodxonligi darslarida badiiy-estetik qobiliyatlarni rivojlantirishda o‘qituvchining estetik kompetensiyasi hal qiluvchi omil sanalib, pedagog o‘quvchilarga faqat axborot yetkazish bilan cheklanmasdan, matn orqali estetik zavq uyg‘otadigan uslublardan foydalana olishi, badiiy tahlil, obraz yaratish va ruhiy emotsional ta`sir ko`rsatish malakasiga bo‘yicha ega bo‘lishi lozim. U milliy qadriyatlar bilan boyitilgan matnlarni tanlab, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida taqdim etishi estetik tarbiya samaradorligini oshiradi. Matn tanlash mezonlari bu jarayonda alohida ahamiyatga ega bo‘lib, O‘qish savodxonligi fanida qo‘llaniladigan badiiy matnlar obrazlarning ta`sirchanligi, mazmunning tarbiyaviy yo‘nalishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning aks etishi kabi xususiyatlarga ega bo‘lishi zarur. Bunday mezonlar asosida tanlangan matnlar o‘quvchilarning estetik idroki va badiiy tafakkurini samarali rivojlantiradi. O‘qish savodxonligi fanida badiiy-estetik qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonida interfaol metodlar keng imkoniyat yaratadi. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, kabi texnologiyalar o‘quvchilarning matnga faol kirishiga, obrazlarni jonlantirishga va ularni shaxsiy tajribasi bilan bog‘lashga yordam beradigan bo`lsa xalq qo‘shiqlari va she’riy matnlar ritm, intonatsiya va obrazlilik orqali estetik idrokni kuchaytirib, milliy o‘zlikni his qilishga undaydi.

O‘qish savodxonligi darslarida badiiy-estetik qobiliyatlarni rivojlantirish uchun metodik model tuzish samarali natija beradi. Bunday model maqsadli blok (estetik idrok, badiiy did, ijodiy ifoda va tanqidiy tafakkur kabi kompetensiyalarni shakllantirish), mazmuniy blok (xalq og‘zaki ijodi janrlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi), amaliy blok (dramatizatsiya, ifodali o‘qish, interfaol metodlar, ijodiy yozuv ishlari) va baholash blokidan (estetik rivojlanish darajalari, portfoliolar va ijodiy ishlanmalarni tahlil qilish) iborat bo‘lishi mumkin va bunday tizimli yondashuv o‘quvchilarning nafaqat o‘qish savodxonligini, balki estetik tafakkurini ham yuksaltiradi. Natijada ular matnlarni chuqurroq tushunadi, ulardan zavq oladi, voqealarni shaxsiy his-tuyg‘ulari bilan boyitadi va ijodiy tarzda ifodalay oladi. O‘qish savodxonligi fanida badiiy-estetik qobiliyatlarni rivojlantirish o‘quvchilarni nafaqat bilimli, balki estetik didli, milliy qadriyatlarni asrab-avaylaydigan, ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi va shu bilan birga boshlang‘ich ta’limning umumiy maqsadlariga to‘la mos keladi, ularning kelgusidagi ma’naviy-madaniy rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

Xulosa o‘rnida shni aytish mumkinki, boshlang‘ich ta’limda O‘qish savodxonligi fani o‘quvchilarni o‘qish, tushunish va matn ustida ishlash bilan birga, badiiy-estetik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Fan mazmuni tilshunoslik, adabiyotshunoslik, pedagogika va psixologiya elementlarini uyg‘unlashtirib, o‘quvchiga matndan estetik zavq olish, obrazlarni his qilish va ularni shaxsiy tajribasi bilan bog‘lash imkonini beradi. Xalq og‘zaki ijodi ertaklar, dostonlar, maqollar, topishmoqlar va qo‘shiqlar tasavvur olamini kengaytirib, estetik hissiyotlarni boyitadi va milliy qadriyatlarga hurmatni


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

mustahkamlaydi. Dramatizatsiya, ifodali o‘qish, sahnalashtirish, interfaol metodlar va ijodiy yozuv ishlari bu jarayonning samaradorligini oshiradi. Jarayon muvaffaqiyati o‘qituvchining estetik kompetensiyasiga bog‘liq bo‘lib, metodik model asosida maqsadli, mazmuniy, amaliy va baholash bloklari orqali amalga oshirilganda esa, o‘quvchilar madaniy, ma’naviy jihatdan yuksaladilar.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni. – URL: https://lex.uz/docs/5841063
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi “Yoshlarni ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish to‘g‘risida”gi ma’ruza. – URL: https://www.pv.uz/uz/news
3. Abdijamilova M. M. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning o‘qib tushunish malakalarini shakllantirish metodikasi: dis. PhD. – Namangan: Namangan davlat universiteti, 2025.
4. Eshbayeva, G. Xalq qo‘shiqlarining milliy tarbiyadagi ahamiyati // Ta’lim, fan va innovatsiya. - 2024. - №3. - B. 376-377.
5. Garrouste, P., Pénin, J., Savona, M. Art and Economics: The Aesthetic Mind in an Age of Cultural and Technological Change. - SSRN Electronic Journal. -2022. - DOI: 10.2139/ssrn.4175880
6. Гасанова, Ж.Т. Эстетическое воспитание школьников средствами фольклора: дисс. … канд. пед. наук. - Махачкала, 2013. -210 с.
7. Nurboyev, Sh. Xalq dostonlarini o‘rganishning lingvistik asoslari // Ta’lim, fan va innovatsiya. - 2024. - №2. - B. 484-486.
8. Kurbanova, D., Jurayeva, U. Kichik yoshdagi o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodi namunalari o‘rni // Ta’lim, fan va innovatsiya. - 2024. - №2. - B. 611-612.
9. Sparshott.F.E The Structure of Aesthetics. - Toronto: University of Toronto Press; London: Routledge & Kegan Paul, 1963. - 435 p.
10. To‘xtasinova, D. Topishmoqlarning madaniyat va ta’limga ta’siri // Ta’lim, fan va innovatsiya. - 2024. - №2. - B. 201-202.
11. Wang, X., Hao, N., Zhou, C., Zhang, X., Yan, C., Liu, S., Zhou, H., Song, H., Liu, J. Neural correlates of aesthetic experiences in naturalistic settings. – Scientific Reports. - 2024. - Vol. 14. - Article No. 3529. - DOI: 10.1038/s41598-024-53957-6.
12. Xodiyeva, D., Nazarboyeva, I. Xalq og‘zaki ijodidan foydalanib kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali yo‘llari // Ta’lim, fan va innovatsiya. - 2024. - №5.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

✉**G.S.Kaxarova**, doktorant [**Г.С.Кахарова**, докторант], [**G.S.Kaxarova** doctoral student]; manzil: 160107, Boburshox ko'chasi, 161-uy, [адрес: 160107, ул. Бабуршох, д. 161], [address: 161 Baburshokh St., 160107]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# MULTIMEDIA VOSITALARINING TARIX FANINI O‘QITISHDAGI DIDAKTIK AFZALLIKLARI

© Sh.R. G’aniyev[1]✉

[1]Namangan Davlat universiteti, Namangan, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** maqolada tarix fanini o‘qitishda multimedia vositalarining ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni va didaktik afzalliklari tahlil qilinadi. XXI asrda raqamli texnologiyalar o‘quv jarayonini o‘quvchi markazli yondashuv asosida tashkil etishga imkon bermoqda. Multimedia texnologiyalari tarixiy jarayonlarni vizual va interaktiv ko‘rinishda ifodalab, o‘quvchilarda tarixiy tafakkurni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**MAQSAD:** tadqiqotning asosiy maqsadi — tarix fanini o‘qitishda multimedia texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini aniqlash, ularning o‘quvchilarning bilim, motivatsiya va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga ta’sirini baholash hamda samarali qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishdir.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda nazariy manbalar tahlili, xalqaro tajribalarni qiyoslash, kuzatuv va so‘rovnomalar, intervyular hamda pedagogik eksperiment qo‘llanildi. Statistik tahlil yordamida multimedia vositalarining o‘quvchilar ishtiroki va bilim o‘zlashtirish darajasiga ta’siri miqdoriy baholandi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** natijalar multimedia vositalaridan foydalanilgan darslarda o‘quvchilar tarixiy mavzularni o‘zlashtirish darajasi an’anaviy darslarga qaraganda o‘rtacha 18–22% yuqori ekanini ko‘rsatdi. Shuningdek, interaktiv xaritalar, virtual ekskursiyalar va 3D modellar o‘quvchilarning tarixiy voqealarni yaxlit idrok etish va sabab-oqibat munosabatlarini tushunish qobiliyatini kuchaytirdi. O‘qituvchilarning fikricha, multimedia materiallari darslarni dinamik, qiziqarli va samarali qiladi, ammo ularni qo‘llash texnik infratuzilma va metodik tayyorgarlikka bog‘liq.

**XULOSA:** multimedia vositalarini metodik asosda qo‘llash tarix ta’limida nafaqat yordamchi, balki markaziy didaktik vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Ular o‘quvchilarning bilim olish motivatsiyasini oshiradi, tarixiy tafakkurni rivojlantiradi va tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** multimedia, tarix ta’limi, didaktik afzalliklar, vizualizatsiya, interaktiv ta’lim, raqamli pedagogika, o‘quvchi markazli yondashuv, ta’lim texnologiyalari.

**Iqtibos uchun**: G’aniyev.Sh.R. Multimedia vositalarining tarix fanini o‘qitishdagi didaktik afzalliklari. // Inter education & global study. vol.3 2025. №8. B.90-97.

## ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРЕИМУЩЕСТВА МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ В ПРЕПОДАВАНИИ ИСТОРИИ

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

© Ш.Р. Ганиев[1]✉
[1]Наманганский государственный университет, Наманган, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в статье анализируются роль и дидактические преимущества мультимедийных средств в преподавании истории. В условиях цифровой трансформации мультимедийные технологии позволяют визуализировать исторические процессы, сделать обучение интерактивным и организовать его на основе ученико-центрированного подхода.

**ЦЕЛЬ:** основная цель исследования — выявить дидактический потенциал мультимедийных технологий в обучении истории, оценить их влияние на уровень знаний, мотивацию и критическое мышление учащихся, а также разработать методические рекомендации по их эффективному применению.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в исследовании использовались анализ научной литературы, сопоставление международного опыта, наблюдения и анкетирование, интервью, а также педагогический эксперимент. С помощью статистического анализа была количественно оценена эффективность мультимедиа в учебном процессе.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** установлено, что применение мультимедийных средств повышает уровень усвоения исторического материала на 18–22% по сравнению с традиционными методами. Использование интерактивных карт, виртуальных экскурсий и 3D-моделей способствует более глубокому пониманию исторических событий и их причинно-следственных связей. По мнению учителей, мультимедиа делает уроки более динамичными и увлекательными, однако эффективность зависит от технической инфраструктуры и методической подготовки.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** мультимедийные технологии могут рассматриваться не только как вспомогательные, но и как ключевые дидактические средства в преподавании истории. Они повышают мотивацию, развивают историческое мышление и формируют навыки критического анализа.

**Ключевые слова:** мультимедиа, обучение истории, дидактические преимущества, визуализация, интерактивное обучение, цифровая педагогика, ученико-центрированный подход, образовательные технологии.

**Для цитирования**: Ганиев.Ш.Р. Дидактические преимущества мультимедийных средств в преподавании истории.// Inter education & global study.2025. vol.3 №8. С.90-97.

## DIDACTIC ADVANTAGES OF MULTIMEDIA TOOLS IN TEACHING HISTORY

© Shaxzod R. G'aniyev[1]✉
[1]Namangan State University, Namangan, Uzbekistan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**INTRODUCTION:** this article analyzes the role and didactic advantages of multimedia tools in history teaching. In the digital transformation era, multimedia technologies provide opportunities for visualizing historical processes, making lessons interactive, and implementing learner-centered approaches.

**AIM:** the main aim of the study is to identify the didactic potential of multimedia technologies in history education, evaluate their impact on students' knowledge, motivation, and critical thinking, and propose methodological recommendations for effective use.

**MATERIALS AND METHODS:** the study employed literature review, comparison of international practices, classroom observation, teacher and student surveys, interviews, and a pedagogical experiment. Statistical methods were used to quantitatively measure the effectiveness of multimedia in learning outcomes and engagement.

**DISCUSSION AND RESULTS:** findings revealed that the use of multimedia tools increased students' mastery of historical topics by 18–22% compared to traditional lessons. Interactive maps, virtual excursions, and 3D reconstructions enhanced learners' ability to perceive history holistically and understand causal relationships. Teachers reported that multimedia materials make lessons more dynamic and efficient, though their effectiveness depends on technical infrastructure and teachers' ICT competence.

**CONCLUSION:** multimedia technologies can serve not only as supplementary but also as central didactic tools in history teaching. They improve motivation, foster historical thinking, and help develop critical analysis skills.

**Keywords:** multimedia, history education, didactic advantages, visualization, interactive learning, digital pedagogy, learner-centered approach, educational technologies.

**For citation**: Shaxzod R. G'aniyev. (2025) 'Didactic advantages of multimedia tools in teaching history', Inter education & global study, vol.3 (8), pp.90-97. (In Uzbek).

**XXI** asr — bu raqamli transformatsiya davri bo'lib, insoniyatning barcha sohalarida, jumladan ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) taraqqiyoti, internet tarmog'ining global darajada kengayishi, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlarning ta'lim amaliyotiga kirib kelishi o'quv jarayonining mazmuni, shakli va metodikasiga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash, an'anaviy o'quv jarayonini raqamli muhit imkoniyatlari bilan uyg'unlashtirish bugungi kunda nafaqat zamonaviy talab, balki strategik zaruriyatga aylangan. Ayniqsa, tarix fanini o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatini oshirish, ularning darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish va tarixiy tafakkurini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tarix fani o'z tabiati jihatidan o'tmishdagi voqealarni, insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarini, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ilmiy jarayonlarni o'rganadi. Bu jarayonlarni talabalarga yoki o'quvchilarga yetkazish ko'pincha vaqt masofasi, murakkab

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

tushunchalar, ko‘p bosqichli sabab-oqibat munosabatlari va dalillarning ko‘pligi sababli qiyinchilik tug‘diradi. An’anaviy darslarda matnli izoh va statik tasvirlar bilan cheklanish, o‘quvchilarning to‘liq va chuqur tarixiy tasavvur hosil qilishiga yetarli bo‘lmaydi. Bu o‘rinda multimedia vositalari — video, audio, animatsiya, interaktiv xaritalar, 3D modellar, virtual muzey ekskursiyalari — murakkab tarixiy voqealarni jonli va qiziqarli shaklda ifodalash imkonini beradi. Masalan, Qadimgi Rimdagi hayot sahnalarini 3D rekonstruksiya orqali ko‘rsatish yoki Ikkinchi jahon urushi xaritalarini interaktiv tarzda tahlil qilish o‘quvchiga bevosita “hodisalar ichida” bo‘lgandek tasavvur uyg‘otadi. Pedagogik psixologiya sohasidagi ko‘plab tadqiqotlar, xususan, R. Mayerning multimedia o‘qitish nazariyasi va A. Paivioning dual coding theory (ikki kanalli kodlash nazariyasi) multimedia vositalarining o‘quvchilar bilimni yaxshiroq o‘zlashtirishiga bevosita ta’sirini isbotlagan [1]. Ushbu nazariyalar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, inson miyasi ma’lumotni vizual va verbal kanallar orqali birgalikda qabul qilganda, eslab qolish darajasi va tushunish chuqurligi ancha ortadi. Tarixiy ma’lumotlar ko‘pincha vaqt, joy, sabab-oqibat zanjiri va shaxslar o‘rtasidagi murakkab bog‘lanishlarni o‘z ichiga oladi. Multimedia vositalari ushbu murakkablikni yengillashtiradi va o‘quvchilar ongida aniq, mantiqiy va tizimli tarixiy tasavvur hosil qiladi. Global miqyosda olib qaralganda, rivojlangan mamlakatlarda tarix ta’limida multimedia texnologiyalaridan foydalanish allaqachon keng yoyilgan. AQShda National History Education Clearinghouse, Buyuk Britaniyada Historical Association kabi tashkilotlar o‘qituvchilar uchun interaktiv platformalar, raqamli arxivlar, virtual laboratoriyalar va didaktik video darsliklar ishlab chiqmoqda. Bu jarayon tarixiy bilimlarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llashning samaradorligini ko‘rsatmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida tarix darslarida VR (virtual reality) texnologiyalari yordamida o‘quvchilarni o‘rta asr shaharlariga “sayohat qildirish” yoki tarixiy jang maydonlarini virtual tarzda namoyish etish keng yo‘lga qo‘yilgan. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham so‘nggi yillarda multimedia vositalaridan foydalanish masalasi davlat siyosati darajasida e’tibor markazida turibdi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, Xalq ta’limi vazirligining “Raqamli ta’lim” konsepsiyasi va umumta’lim maktablarida interaktiv doskalar, elektron darsliklar, video-ma’ruzalar hamda onlayn platformalarning joriy etilishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi[2]. Tarix fani bo‘yicha maxsus raqamli kontent yaratish, elektron xaritalar bazasini shakllantirish, tarixiy hujjatlar va arxiv materiallarini onlayn ko‘rinishda taqdim etish ishlari ham bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, o‘qituvchilar uchun multimedia vositalaridan samarali foydalanish bo‘yicha malaka oshirish kurslari tashkil etilmoqda.

Adabiyotlar tahlili: Multimedia vositalarining ta’lim jarayonida qo‘llanishi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) tarix fanini o‘qitishda o‘quvchilarning bilim olish motivatsiyasini oshiradi, mavzularni chuqur anglashiga yordam beradi hamda dars jarayonini interaktiv va samarali tashkil etadi. J. Mayerning “Multimedia Learning” nazariyasi multimedia vositalari orqali axborot yetkazishda matn, rasm, audio va video materiallarning o‘zaro uyg‘unlashuvi bilimlarni samarali o‘zlashtirishga xizmat qilishini ilmiy asoslab beradi.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Mayerning kognitiv yuklama nazariyasiga ko‘ra, vizual va audial kanallarning birgalikda ishlashi o‘quvchilarda tarixiy voqealarni yaxlit idrok etish imkonini beradi. Mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda multimedia texnologiyalarining tarix darslaridagi afzalliklari keng yoritilgan. Masalan, A. Kozma va R. Anderson (2002) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda animatsiya va interaktiv xaritalardan foydalanish tarixiy jarayonlarni fazoviy va vaqt bo‘yicha to‘g‘ri tasavvur qilishga yordam berishi ta’kidlangan. Shuningdek, V. J. Mayer va S. Moreno (2003) ishlarida multimedia vositalari o‘quvchilarning diqqatini uzoq vaqt davomida ushlab turish, mavzuga jalb qilish va faol ishtirokini ta’minlashda muhim rol o‘ynashi qayd etilgan[3]. O‘zbek olimlari orasida Sh. T. Ergashev tarix fanini o‘qitishda elektron darsliklar, virtual muzeylar va tarixiy videolavhalardan foydalanishning samaradorligi bo‘yicha tadqiqot olib brogan[4]. Uning fikricha, multimedia vositalari yordamida tarixiy manbalarni vizuallashtirish nafaqat bilimni oshiradi, balki o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va manbalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, A. X. Raxmonov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda multimedia vositalari yordamida tarixiy sanalarni, voqealarni va shaxslarni yodlash samaradorligi an’anaviy metodlarga qaraganda yuqori ekani ko‘rsatib berilgan[5]. Xalqaro miqyosdagi tadqiqotlar ham shuni tasdiqlaydiki, tarix fanida multimedia vositalaridan foydalanish bilim berishning konstruktivistik yondashuviga mos keladi. Masalan, B. Jonassen konstruktivistik pedagogika nazariyasida o‘quvchilar bilimni faol ravishda qurishda ishtirok etishi lozimligini ta’kidlagan va multimedia texnologiyalari buning uchun mos muhit yaratishini qayd etgan[6]. Bu yondashuv tarix darslarida virtual ekskursiyalar, 3D rekonstruksiyalar va interaktiv taqdimotlardan foydalanish orqali o‘quvchilarni “tarixiy tadqiqotchi” roliga kiritadi. O‘qitish metodikasi bo‘yicha olib borilgan izlanishlar multimedia vositalarining didaktik afzalliklarini quyidagicha guruhlash imkonini beradi: 1) tarixiy materiallarni vizual va audial formatda yetkazish orqali tushunishni yengillashtirish; 2) interaktivlik orqali o‘quvchilarning faolligini oshirish; 3) mustaqil izlanish va bilim olish uchun keng imkoniyatlar yaratish; 4) tarixiy manbalar bilan ishlash malakasini rivojlantirish; 5) tarixiy voqealarni zamonaviy texnologiyalar orqali modellashtirish imkonini berish. Shu bois ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, multimedia vositalari tarix ta’limida nafaqat yordamchi, balki markaziy didaktik vosita sifatida qaralishi mumkin. Biroq, tadqiqotchilar hamma vaqt ham texnologiya o‘z-o‘zidan samarali bo‘lavermasligini, ularni o‘quv jarayoniga metodik jihatdan puxta integratsiya qilish zarurligini ta’kidlaydi.

Metotologik qism: Ushbu tadqiqot metodologik jihatdan zamonaviy pedagogik texnologiyalar nazariyasi, multimedia ta’lim konsepsiyalari va tarix ta’limi metodikasi bo‘yicha ilg‘or ilmiy ishlanmalarga asoslanadi. Ishda konstruktivistik ta’lim yondashuvi (J. Bruner, 1996; D. Jonassen, 1999) hamda R. Mayerning (2009) multimedia ta’lim nazariyasi tamoyillari markaziy o‘rin tutadi, chunki bu yondashuvlar multimedia vositalaridan foydalanishda o‘quvchini passiv tinglovchi emas, balki bilimni faol ravishda quruvchi subyekt sifatida ko‘radi va bilimlarni vizuallashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar uyg‘unlashtirildi: nazariy qismda pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar tahlil


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

qilinib, multimedia vositalarining didaktik imkoniyatlari tizimlashtirildi hamda tarix ta'limida ularni qo'llash bo'yicha ilg'or tajribalar umumlashtirildi; shuningdek, xorijiy mamlakatlarda multimedia asosida tashkil etilgan tarix darslari bo'yicha taqqoslash tahlillari o'tkazildi. Empirik bosqichda multimedia vositalari qo'llangan tarix darslari kuzatilib, ularning o'quvchi faolligi va o'zlashtirish darajasiga ta'siri baholandi, tarix o'qituvchilari va o'quvchilar bilan suhbatlar hamda so'rovnomalar tashkil etildi, ikki guruh o'quvchilar ishtirokida pedagogik eksperiment o'tkazildi, bunda tajriba guruhida darslar multimedia asosida, nazorat guruhida esa an'anaviy usullar asosida olib borildi, natijalar bilim darajasi, ishtirok va motivatsiya ko'rsatkichlari bo'yicha taqqoslandi. Olingan ma'lumotlar matematik-statistik usullar, jumladan foiz, o'rtacha ko'rsatkich va dispersiya tahlili yordamida qayta ishlanib, multimedia vositalarining ta'lim samaradorligiga ta'siri miqdoriy jihatdan baholandi. Tadqiqot davomida elektron darsliklar, interaktiv xaritalar, tarixiy animatsiyalar, virtual muzey ekskursiyalari, videodarslar va taqdimot dasturlaridan foydalanildi hamda ularning har biri o'quvchilarning tarixiy voqealarni idrok etish, vaqt va makon tushunchasini shakllantirish, sabab-oqibat bog'lanishlarini tahlil qilish kabi ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni alohida baholandi. Umuman olganda, tadqiqot aralash (mixed-method) dizayn asosida olib borilib, sifat va miqdoriy natijalarni uyg'unlashtirish orqali multimedia vositalarining tarix ta'limidagi didaktik afzalliklarini kompleks tarzda aniqlash imkonini berdi.

Natijalar: multimedia texnologiyalarini o'quv jarayoniga puxta metodik integratsiya qilish tarix darslarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Eksperimental sinovlar davomida tajriba guruhidagi o'quvchilar tarixiy mavzularni o'zlashtirish darajasida nazorat guruhiga nisbatan o'rtacha 18–22 foiz yuqori natija ko'rsatdi, bu esa multimedia vositalarining bilimlarni eslab qolish va tushunishda samarali ekanini isbotlaydi. Kuzatuv va so'rovnomalar natijalariga ko'ra, o'quvchilarning 87 foizi multimedia asosida tashkil etilgan darslarda mavzuga bo'lgan qiziqishlari oshganini, 82 foizi esa tarixiy voqealarni yaxshiroq tasavvur qila boshlaganini bildirdi. Darslarda interaktiv xaritalar, animatsiyalar va virtual ekskursiyalardan foydalanish o'quvchilarda vaqt-makon tushunchasini shakllantirish, voqealar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarini anglash hamda tarixiy manbalar bilan ishlash ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirdi. Statistik tahlillar multimedia vositalarining o'quvchilarning dars jarayonidagi ishtirok darajasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatganini tasdiqladi: tajriba guruhida faol ishtirok ko'rsatkichlari 35 foizga oshdi, savol-javob va munozaralarda qatnashish chastotasi esa ikki baravar ortdi. O'qituvchilar fikriga ko'ra, multimedia materiallari darslarni zamonaviy va dinamik qiladi, mavzuni tushuntirishga sarflanadigan vaqtni tejaydi hamda murakkab tarixiy tushunchalarni sodda va tushunarli shaklda yetkazish imkonini beradi. Shu bilan birga, tadqiqot multimedia vositalarini samarali qo'llashda texnik infratuzilma sifati, o'qituvchilarning AKT bo'yicha malakasi va resurslarning metodik jihatdan to'g'ri tanlanishi hal qiluvchi omil ekanini ko'rsatdi. Umuman olganda, olingan natijalar multimedia vositalarining tarix fanini o'qitishda nafaqat yordamchi, balki asosiy didaktik vosita sifatida qaralishi mumkinligini tasdiqlaydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Tadqiqot natijalarining muhokamasi multimedia texnologiyalarining tarix ta’limidagi o‘rni bo‘yicha olib borilgan xalqaro ilmiy polemikalar bilan uyg‘unlikda tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, multimedia vositalarini puxta metodik asosda qo‘llash tarix darslarining o‘zlashtirish darajasini sezilarli oshiradi, o‘quvchilarda tarixiy voqealarni idrok etish va mantiqiy tahlil qilish imkoniyatini kengaytiradi. Natijalar R. Mayerning multimedia o‘qitish nazariyasi bilan bog‘liq bo‘lib, u vizual va audial kanallarning birgalikda ishlashi bilimlarni mustahkamlashni tezlashtirishini ta’kidlaydi[7]. Mayerga ko‘ra, animatsiyalar, grafik xaritalar va ovozli izohlar tarixiy jarayonlarni yaxlit qabul qilishga yordam beradi, chunki o‘quvchi miyasida vaqt va makon haqidagi murakkab tasavvurlarni samarali tashkil etadi. Biroq bu yondashuv hamma olimlar tomonidan bir xil qabul qilinmagan. Masalan, britaniyalik tadqiqotchi D. Buckingham (2007) multimedia vositalarining o‘quv jarayonidagi ko‘pligi o‘quvchining asosiy diqqatini tarixiy mazmundan chalg‘itishi mumkinligini ta’kidlaydi. Buckinghamning fikricha, tarix ta’limida texnologiya yordamchi vosita bo‘lishi lozim, lekin u darsning mazmuniy va metodik yadrosini egallab olmasligi kerak. Mayer esa bunga javoban multimedia vositalarining diqqatni chalg‘itishi xavfi ularning noto‘g‘ri tanlanishi va metodik asoslanmagan qo‘llanilishi bilan bog‘liq ekanini aytadi va multimedia materiallarini “kognitiv yuklamani optimallashtiruvchi” tarzda ishlab chiqish muhimligini urg‘ulaydi[8]. Ushbu ikki olim o‘rtasidagi ilmiy munozara shuni ko‘rsatadiki, multimedia texnologiyalarining samaradorligi bevosita ularni qo‘llash strategiyasi va o‘qituvchi malakasiga bog‘liq. Tadqiqotimizda olingan empirik natijalar Mayerning pozitsiyasini qisman qo‘llab-quvvatlaydi, chunki tajriba guruhidagi o‘quvchilar multimedia asosidagi darslarda yuqori natijalar ko‘rsatgan[9]. Biroq Buckinghamning e’tirozi ham o‘z tasdig‘ini topdi — texnologiya haddan tashqari va tartibsiz qo‘llanganda o‘quvchilar chalg‘ishi, vizual ma’lumot ortiqcha yuklama keltirib chiqarishi mumkin. Natijalar shuni ham ko‘rsatdiki, multimedia vositalari o‘quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi, ularning tarixiy manbalar bilan ishlash, vaqt va makon bo‘yicha mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu konstruktivistik pedagogika yondashuvi bilan mos keladi, chunki o‘quvchi bilimni tayyor shaklda qabul qilmay, balki o‘zi faol izlanish va kashf etish jarayonida hosil qiladi[10]. Shu bilan birga, multimedia vositalarining ta’limdagi afzalliklarini maksimal ochish uchun texnik infratuzilma sifatining yuqoriligi, o‘qituvchilarning AKT bo‘yicha malakasi va darsning aniq didaktik maqsadlari muhim omillar sifatida qayd etildi. Xalqaro ilmiy munozaralar va o‘z tadqiqotimiz natijalari umumiy xulosaga olib keladi: multimedia vositalari tarix ta’limida kuchli didaktik potensialga ega, biroq ularni samarali ishlatish uchun metodik ehtiyotkorlik, mazmuniy maqsadga yo‘naltirilganlik va texnologik madaniyat zarur.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

1. Yusufovna Y. N. OLIY TA'LIMDA FANLARINI O 'QITISHDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH //World scientific research journal. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 566-573.
2. Atxamjonovna B. D., Shohbozbek E. RESPUBLIKAMIZDA MAKTABGACHA TA'LIMDA YOSHLARNING MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 221-228.
3. Ibragimovna Y. G., Muxtarovna Y. M. TA'LIM TIZIMIDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISHDA AKTNING ROLI //Международный журнал научных исследователей. – 2025. – T. 11. – №. 1. – C. 105-107.
4. Abdusattarovna O. X., Shohbozbek E. IJTIMOIY FALSAFADA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 175-182.
5. Abduraxmanova S. A. ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINI YARATISH TEXNOLOGIYALARI //Darslik, Nizomiy nomidagi TDPU, Toshkent. – 2022.
6. Ma'murjonovna G. S., Shohbozbek E. MAKTABGACHA TA'LIM VA BOSHLANGICH TALIM O'RTASIDA MANAVIY TARBIYANING UZVIYLIGI //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 190-197.
7. Azimova T. E. OLIY TA'LIMDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI //University Research Base. – 2024. – C. 406-408.
8. Diloram M., Shohbozbek E. O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING MA'NAVIY DUNYO QARASHINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 207-215.
9. Ilyasovna S. S. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INTERAKTIV ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINI FOYDALANIB TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH //SPAIN-SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION. – 2025. – T. 1. – №. 4. – C. 7-9.
10. Fayzullaevna N. Z., Shohbozbek E. IJTIMOIY FALSAFADA MAKTABGACHA TA'LIMDA UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 166-174.

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**G'aniyev Shaxzod Ravshanbekovich**, tadqiqotchi[**Ганиев Шахзод Равшанбекович**,исследователь,], [**G'aniyev Shaxzod Ravshanbekovich** researcher]; manzil: 160107, Bobushox ko'chasi, 161-uy, [адрес: 160107, улица Бобуршох, дом 161], [address: 161 Beaubushokh Street, 160107]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# OMMAVIY FUTBOL MUSOBAQALARIGA UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARINI TAYYORLASH VA ULARNING JISMONIY RIVOJLANISHINI TAHLIL QILISH

© M.Q. Saidova[1]✉

[1]Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi, Qarshi, O'zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: maqolada 12-15 yoshli umumta'lim maktablari o'quvchilarini ommaviy futbol musobaqalariga tayyorlash, ularning jismoniy rivojlanishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilingan. Maktab o'quvchilarini futbol bilan ommaviy tarzda shug'ullantirish orqali ularning jismoniy rivojlanishi futbol bilan shug'ullanmagan bolalarnikiga qaraganda qanday bo'lishi tahlil qilingan hamda ommaviy futbol bilan shug'ullanish samaradorligi ochib berilgan.

**MAQSAD**: umumta'lim maktablari o'quvchilarini ommaviy futbol musobaqalariga tayyorlashning pedagogik va amaliy jihatlarini aniqlash, futbol mashg'ulotlarining ularning jismoniy rivojlanishi hamda sog'lom turmush tarziga ta'sirini tahlil qilish.

**MATERIALLAR VA METODLAR**: tadqiqot jarayonida umumta'lim maktablarining 12–15 yoshli o'quvchilari ishtirok etdi. Antropometrik o'lchovlar, jismoniy tayyorgarlik testlari, kuzatish va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, futbol mashg'ulotlari asosida o'quvchilarning jismoniy rivojlanishi muntazam ravishda qayd etildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: tahlillar shuni ko'rsatdiki, futbol bilan muntazam shug'ullangan o'quvchilar antropometrik ko'rsatkichlar, jismoniy chidamlilik, tezkorlik va muvofiqlashtirish qobiliyatlari jihatidan futbol bilan shug'ullanmagan tengdoshlariga qaraganda ancha yuqori natijalarga erishdilar. Bundan tashqari, futbol mashg'ulotlari ularda jamoaviylik, intizom va sog'lom turmush tarziga bo'lgan qiziqishni ham rivojlantirdi.

**XULOSA:** umumta'lim maktablari o'quvchilarini ommaviy futbol musobaqalariga tayyorlash ularning jismoniy rivojlanishini samarali oshiradi, sog'lom turmush tarzini shakllantiradi va yoshlarni sportga keng jalb etishda muhim vosita hisoblanadi. Futbol orqali jismoniy rivojlanish nafaqat sportiy ko'rsatkichlarni yaxshilaydi, balki shaxsiy intizom, jamoada ishlash va ijobiy ijtimoiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi.

**Kalit so'zlar**: ommaviy sport, ommaviy futbol musobaqalari, jismoniy rivojlanish, antropometrik ko'rsatkichlar, jismoniy holatini yaxshilash, sog'lom turmush tarzi, namunali musobaqalar.

**Iqtibos uchun**: Saidova M.Q. Ommaviy futbol musobaqalariga umumta'lim maktablari o'quvchilarini tayyorlash va ularning jismoniy rivojlanishini tahlil qilish. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. B.98–105.

# ПОДГОТОВКА УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ К МАССОВЫМ ФУТБОЛЬНЫМ СОРЕВНОВАНИЯМ И АНАЛИЗ ИХ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

© М.К. Саидова[1]✉
[1]Спортное управление Кашкадарьинской области, Карши, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: в статье анализируется подготовка учащихся общеобразовательных школ 12–15 лет к массовым футбольным соревнованиям, а также исследования, проведённые по их физическому развитию. Изучено, как массовые занятия футболом влияют на физическое развитие школьников по сравнению с их сверстниками, не занимающимися футболом, и раскрыта эффективность массового футбола.

**ЦЕЛЬ**: определить педагогические и практические аспекты подготовки учащихся общеобразовательных школ к массовым футбольным соревнованиям, проанализировать влияние футбольных тренировок на их физическое развитие и формирование здорового образа жизни.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в исследовании приняли участие учащиеся 12–15 лет общеобразовательных школ. Использовались антропометрические измерения, тесты по физической подготовке, наблюдение и сравнительный анализ. Кроме того, физическое развитие школьников, занимающихся футболом, фиксировалось регулярно.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: анализ показал, что школьники, регулярно занимавшиеся футболом, достигли значительно более высоких результатов по антропометрическим показателям, физической выносливости, быстроте и координации движений по сравнению со сверстниками, не занимавшимися футболом. Кроме того, футбольные тренировки способствовали развитию у них коллективизма, дисциплины и интереса к здоровому образу жизни.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: подготовка учащихся общеобразовательных школ к массовым футбольным соревнованиям эффективно повышает их физическое развитие, формирует здоровый образ жизни и является важным средством широкого привлечения детей к спорту. Занятия футболом улучшают не только спортивные показатели, но и формируют личную дисциплину, умение работать в команде и позитивные социальные навыки.

**Ключевые слова**: массовый спорт, массовые футбольные соревнования, физическое развитие, антропометрические показатели, улучшение физического состояния, здоровый образ жизни, показательные соревнования.

**Для цитирования**: Саидова М.К. Подготовка учащихся общеобразовательных школ к массовым футбольным соревнованиям и анализ их физического развития. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. С.98–105.

## PREPARATION OF GENERAL EDUCATION SCHOOL STUDENTS FOR MASS FOOTBALL COMPETITIONS AND ANALYSIS OF THEIR PHYSICAL DEVELOPMENT

© Maftuna Q. Saidova[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

[1]Qashqadarya Regional Department of Sports, Karshi, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: the article analyzes the preparation of 12–15-year-old general school students for mass football competitions, as well as research conducted on their physical development. It examines how mass football training influences the physical growth of students compared to their peers not engaged in football, and highlights the effectiveness of mass football.

**AIM:** to identify the pedagogical and practical aspects of preparing school students for mass football competitions, and to analyze the impact of football training on their physical development and healthy lifestyle formation.

**MATERIALS AND METHODS**: the study involved 12–15-year-old students from general education schools. Anthropometric measurements, physical fitness tests, observation, and comparative analysis methods were applied. In addition, the physical development of students engaged in football was recorded on a regular basis.

**DISCUSSION AND RESULTS**: the analysis revealed that students who regularly played football achieved significantly better results in anthropometric indicators, physical endurance, speed, and coordination compared to their peers who did not practice football. Furthermore, football training promoted teamwork, discipline, and interest in maintaining a healthy lifestyle.

**CONCLUSION**: preparing school students for mass football competitions effectively enhances their physical development, fosters a healthy lifestyle, and serves as an important means of involving youth in sports. Football not only improves athletic performance but also cultivates personal discipline, teamwork skills, and positive social competencies.

**Keywords**: mass sport, mass football competitions, physical development, anthropometric indicators, physical fitness improvement, healthy lifestyle, exemplary competitions.

**For citation**: Maftuna Q. Saidova. (2025) ‘Preparation of general education school students for mass football competitions and analysis of their physical development, Inter education & global study, vol.3 (8), pp.98–105. (In Uzbek).

**M**amlakatimizda futbolni aholi o‘rtasida eng ommaviy sport turiga aylantirish, yuqori iqtidorra ega bo‘lgan yosh futbolchilarni tanlash, saralab olish va ularni professional sportchilar sifatida tayyorlash, yurtimiz futbolini futboli rivojlangan mamlakatlar bilan raqobat qila oladigan darajaga yetkazish, terma jamoalar uchun o‘quv-mashg‘ulot jarayonini samarali tashkil etish tizimlarini takomillashtirish, kabi dolzarb masalalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yil 4 dekabrdagi “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5887- sonli Farmonida belgilab berildi. Shuningdek, Rrezidentimizning 2023 yil 7 apreldagi “Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

PQ-115-son, 2025 yil 21 avgustdagi “O‘zbekistonda futbol sohasini raqamlashtirish va ommaviyligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-262-sonli qarorlari mamlakatimiz futbolini yanada katta marralar sari borishida dasturil-amal bo‘lib xizmat qilmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu qarorlarda havaskor futbolni yanada ommaviylashtirish, mahalla va tashkilotlar, ta’lim muassasalarida futbol bo‘yicha musobaqalarni muntazam ravishda tashkil etish (“Har bir mahallada futbol maydoni”, “Futbolimiz kelajagi sening qo‘lingda” va “Mahalla ligasi”), orqali futbolchilarni tayyorlash va saralab olishda ilg‘or tajribalarni joriy qilinishiga alohida e’tibor qaratilgan. [1,2,3].

Umumta’lim maktablarida ommaviy sport bilan shug‘ullantirish ko‘lamini kengaytirish va bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni yaxshilash, bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug‘ullanishga keng jalb qilish, bolalar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish kabi dolzarb masalalar bugungi kunda davlat siyosati darajasida qaralmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki ommaviy sportni rivojlantirish, aholining keng qatlamini jismoniy holatini yaxshilash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish kabi masalalar dolzarb hisoblanmoqda. Bu kabi vazifalarni hal etishda jamoaviy sport turlari, aynan futbolning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Futbol bugungi kunga kelib birinchi raqamli sport turiga aylanib ulgurgan. Statistika ma’lumotlarini ta’kidlashicha hozirgi kunga kelib rasman qayd etilgan futbol jamoalarining soni jaxonda 1,5 milliondan ortiq bo‘lib, umumiy shug‘ullanuvchilarning soni esa 300 milliondan oshadi. Futbol sport turi bilan shug‘ullanadigan havaskorlarning soni esa 3,5 milliard (dunyo aholisini deyarli yarmi) ni tashkil qiladi [4,5,8,9].

Futbolga oid chiqarilayotgan farmon va qarorlarda O‘zbekistonda futbol bilan muntazam tarzda shug‘ullanadiganlar soni 2030 yilgacha 5% gacha olib chiqish vazifasi belgilab berilgan. Rivojlangan davlatlardagi bu ko‘rsatkichlar esa 15-20% dan ortiqligi mamlakatimizda futbol bilan ommaviy shug‘ullantirish ortda qolayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa mamlakatimizda futbolда ommaviylikni ta’minlash masalalari kechiktirib bo‘lmas darajada dolzarb ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli futbol bilan ommaviy shug‘ullanishni yanada oshirish, bu bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarni tizimlashtirish, havaskor futbolchilarni professional darajada tayyorlashni samarali tashkil etish muhim omillardan biri bo‘lib hisoblanadi [6,7,10].

Tadqiqotning maqsadi. Umumta’lim maktablari o‘quvchilarini ommaviy futbol musobaqalari bilan shug‘ullantirish va ularni jismoniy rivojlanish masalalarni tadqiq etish.

Tadqiqot ishining vazifalari:

1. Umumta’lim maktablarida ommaviy futbol bilan shug‘ullantirish va o‘quvchilarni jismoniy rivojlanishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qilish;
2. 12-15 yoshli maktab o‘quvchilarini futbol bilan ommaviy shug‘ullantirishning o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash.
3. Ommaviy tarzda futbol bilan shug‘ullangan maktab o‘quvchilarini futbol bilan shug‘ullanmagan bolalarga nisbata jismoniy rivojlanishini tajribadan o‘tkazish va tahlil qilish.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi. O‘rganilayotgan muammo bo‘yicha oxirgi yillarda olib borilgan ishlarni tadqiq etish natijalariga ko‘ra futbol bilan shug‘ullanish aholi


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

salomatligini yaxshilash va jismoniy rivojlantirishda eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda. Tadqiqotlar ommaviy futbolni rivojlanishi yuqori natijalar, futbolga ijobiy ta’sir etishi isbotlangan. Shunday tadqiqotlarga tayanib aytishimiz mumkinki professional futbolni rivojlantirishda ommaviy futbol alohida ahamiyat kasb etadi.

Ommaviy futbolni rivojlantirish va unga yanada ko‘p sonli bolalarni jalb etish maqsadida turli festivallarni yoki namunali musobaqalarni muntazam va tizimli yo‘lga qo‘yish, ommaviyligini oshirish hamda bolalar va o‘smirlar futbolini rivojlantirishda esa umumta’lim maktablarida futbol bilan muntazam shug‘ullantirish, futbol maktablariga, jumladan futbol murabbiylari bilan alaoqalarni o‘rnatish, yosh iqtidorli futbolchilarni rivojlanish dinamikalarini tahlil etish, yosh futbolchilar ishtirokida o‘tkaziladigan sport tadbirlari, musobaqalar sonini ko‘paytirish amalga oshirilishi lozim bo‘lgan zaruriy chora-tadbirlardandir.

Bu kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish o‘ziga xos talablarni qo‘yadi. Ommaviy futbol uchun murabbiy-tashkilotchilarni tayyorlash, mutaxassislarni ommaviy futbol musobaqalarinini tashkil etish uchun yetarli bilim va ko‘nikmalarga o‘rgatish, o‘quv-mashg‘ulotlarni to‘g‘ri va samarali tashkil eta olish, ommaviy tadbirlarni tashkil eta olish va ularni o‘tkazish hamda hakamlik qila oladigan bo‘lishi kerak. Shuni ta’kidlash kerakki, dunyoda futbol bilan shug‘ullanadiganlarning 95% dan ortig‘i havaskor tarzda shug‘ullanuvchilar (ommaviy futbolga oid) hisoblanadilar.

Hozirgi kunga kelib Butunjahon futbol uyushmasi – FIFAning asosiy maqsadlaridan biri futbolni imkon qadar ommaviyligini oshirish va shu yo‘l bilan sport turini rivojlantirishga erishish hisoblanadi. Shunday ekan, hal etilishi kerak bo‘ladigan vazifalardan biri bu ommaviy futbolni rivojlantirish masalasidir. Ommaviy futbolni tashkil etishda o‘quv-mashg‘ulotlarni samarali va maqsadli tashkil etish o‘ta muhim masalalardan biridir. Chunki, bu borada asoslangan tegishli ilmiy izlanishlar kam olib borilganligi, ommaviylikdan professionallikgacha tashkiliy-usuliy muammolarning ko‘pligi shunday xulosaga kelishga asos bo‘ladi. Lekin, mavzuga doir kam sonli izlanishlarning natijalariga ko‘ra ommaviy futbolда o‘quv-mashg‘ulotlarni tashkil etish borasidagi ayrim uslubiy ko‘rsatmalarni keltirib o‘tish o‘rinlidir.

Yosh sportchilar mashg‘ulotlariga qo‘yiladigan asosiy vazifalar – bolalarning salomatligini mustahkamlashga qaratilgan va jismoniy tayyorgarligini har tomonlama rivojlantirish, tanlangan sport turiga maqsadli yo‘naltirilgan holda asta – sekin kirib borishni amalga oshirish, tanlangan sport turi texnikasini o‘rganish va jismoniy tayyorgarligini oshirish, tanlangan sport turi bo‘yicha istiqbolli yosh sportchilarni saralashdir. Sportchining jismoniy tayyorgarligi yoki uning harakat qilish imkoniyatlarini tezkorlik, kuch, koordinatsion qobiliyatlar, chidamkorlik va egiluvchanlik sifatlarini baholash orqali aniqlasa bo‘ladi. Asosiy jismoniy sifatlarni takomillashtirish asosida organizmning o‘z ishlash qobiliyati darajasidan qo‘shimcha, jismoniy yuklamaga bardosh bera olish qobiliyati yotadi. Yosh futbolchilar bilan ishlashdagi dastlabki tayyorgarlik bosqichida har tomonlama jismoniy tayyorgarlikni egallashga, sog‘liqni mustahkamlash va garmonik rivojlanishga, xilma-xil ko‘nikma va malakalarni egallab olishga, futbol o‘yini texnikasi va taktikasining

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

boshlang‘ich asoslariga o‘rgatishga qaratilgan vositalar majmuasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot obyekti sifatida Qarshi shahar 1 sonli maktabining 40 nafar (20 nafar tajriba guruhi va 20 nafar nazorat guruhi) o‘quvchilari tanlab olindi. 12-15 yoshli maktab o‘quvchilarning jismoniy rivojlanganlik darajasi ular antropometrik o‘lchamlarini o‘z ichiga olgan uslub asosida baholandi. Tadqiqotlar 2023 yilning oktyabr oyida va 2024 yilning oktyabr oyida amalga oshirildi.

Tadqiqot davomida shug‘ullanuvchilarning jismoniy rivojlanishini aniqlashdan asosiy maqsad ularni ommaviy futbol bilan shug‘ullantirish davomida ulra organizmiga berilayotgan yuklamalarning salbiy ta’siri bo‘lmaganligini aniqlashdir. Shu bilan bir qatorda futbol bilan shug‘ullanmagan maktab o‘quvchilarining yil davomida jismoniy rivojlanishi orasidagi farqni solishtirish va tahlil qilishni maqsad qilganmiz. Maktab o‘quvchilarni professional bo‘lmagan holda, ommaviy futbol musobaqalariga tayyorlash maqsadida amalga oshirilgan mashg‘ulotlarida berilgan jismoniy yuklamalar ko‘plab olimlar tomonidan aynan shu yoshdagi bolalar uchun tavsiya qilingan mashqlardan tashkil topgan bo‘lib, ularning bolalar organizmiga salbiy ta’sir qilmaganini aniqlash maqsadida jismoniy rivojlanishni baholovchi keng tarqalgan usuldan foydalandik, ya’ni bolalarning tana uzunligi (bo‘yi), tana og‘irligi va ko‘krak qafasi aylanasi (somotometrik belgilar) o‘lchandi. Natijalarning o‘zgarishini bilish maqsadida tadqiqotdan oldingi va keyingi natijalar solishtirildi. 1-jadvalda umumta’lim maktabining ommaviy futbolga muntazam ravishda qatnashadigan va futbol bilan mutlaqo shug‘ullanmaydigan o‘quvchilarini jismoniy rivojlanishi keltirilgan.

1-jadval

Nazorat va tajriba guruhlarii sinaluvchilarining jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari (n 20)

| T/r | Ko‘rsatkichlar | 12 yosh T/o | 12 yosh T/k | 13 yosh T/o | 13 yosh T/k | 14 yosh T/o | 14 yosh T/k | 15 yosh T/o | 15 yosh T/k | Nisbiy o‘sish |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Tana uzunligi (Tg) | 139,44 | 146,22 | 143,28 | 149,14 | 146,44 | 153,41 | 154,53 | 161,72 | 26,8 |
| | Tana uzunligi (Ng) | 138,78 | 142,51 | 144,12 | 147,63 | 146,54 | 150,74 | 155,14 | 158,74 | 15,0 |
| 2 | Tana og‘irligi (Tg) | 33,94 | 36,12 | 35,42 | 37,81 | 36,34 | 39,22 | 39,41 | 43,26 | 11,3 |
| | Tana og‘irligi (Ng) | 34,10 | 35,14 | 35,48 | 36,21 | 36,22 | 37,89 | 38,89 | 42,17 | 6,7 |
| 3 | Ko‘krak qafasi ayl. (Tg) | 64,76 | 67,45 | 66,68 | 68,27 | 67,79 | 70,54 | 70,42 | 75,33 | 12,0 |
| | Ko‘krak qafasi ayl. (Ng) | 64,89 | 66,24 | 67,12 | 68,09 | 67,28 | 69,23 | 70,56 | 73,45 | 7,2 |


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Izoh:** Tg – tajriba guruhi;
Ng – nazorat guruhi;
T/o – tajribadan oldin;
T/k – tajribadan keyin.

Biz tadqiqot olib borgan tajriba guruhida shug‘ullanuvchi bolalarning jismoniy rivojlanishi nazorat guruhinikira qaraganda salkam ikki baravarga (o‘rtacha 16,7% ga) yaxshilangani kuzatildi. Bu esa tadqiqot davomida shug‘ullanuvchilarga berilgan jismoniy yuklamalar ular organizmiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaganini, aksincha tajriba guruhi shug‘ullanuvchilari nazorat guruhida shug‘ullangan bolalarga nisbatan yaxshi jismoniy rivojlanganini ko‘rsatadi. Shuningdek, futbol bilan shug‘ullanmagan bolalarning jismoniy rivojlanishi bir yilda o‘rtacha 9,6% ga yaxshilangani bo‘lsada ommaviy futbol musobaqalarida ishtirok etgan va futbol bilan havaskor tarzda shug‘ullangan bolalarga nisbatan ortda qolganligi kuzatildi.

Futbolda ommaviylikni ta’minlash jarayoni samarali bo‘lishi ko‘pgina olimlar tomonidan ta’kidlanlag. Bunda futbol bilan shug‘ullanishda kerak bo‘ladigan vositalardan tortib, har bir yosh guruhidagi bolalarning yosh hususiyatlarini murabbiylar tomonidan aniq bilish muhimdir. Shuningdek ommaviy futbol mashg‘ulotlarini olib borishda professional futboldan farqli o‘laroq tayyorgarlik vosita va usullari to‘g‘ri tanlanishi, mashg‘ulotlar tashkil etiladigan maydonchalar va mashg‘ulotlarni tashkil etish shakllari, har bir shug‘ullanuvchiga nisbatan murabbiy tomonidan kerakli e’tiborни qaratilishi asosiy omillardan bo‘lib hisoblanadi.

Umumta’lim maktablari o‘quvchilarini ommaviy futbol musobaqalariga tayyorlash asosan seksiyalar orqali amalga oshiriladi. Bunda futbol mashg‘ulotlarida bajariladigan turli mashqlar ular organizmiga ijobiy ta’sir etib, futbol bilan shug‘ullanmagan bolalarga qaraganda deyarli ikki barobarga yaxshilanishi ma’lum bo‘ldi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. “Ўзбекистонда футболни ривожлантиришни мутлақо янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 декабрдаги ПФ-5887-сонли Фармони.
2. “Оммавий ва профессионал футболни ҳар томонлама ривожлантиришнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 7 апрелдаги ПҚ-115-сонли Қарори.
3. “Ўзбекистонда футбол соҳасини рақамлаштириш ва оммавийлигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 21 августдаги ПҚ-262-сонли Қарори.
4. Ахматов М.С. Ўқув муассасасида ёшларни оммавий спортга жалб қилиш ва уларни ҳаракатга келтириш механизмларини ташкилий ва бошқарув асослари. “Фан-спортга” 2013.- №4. Б-22-25

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

5. Achilov A.M. “Futbol nazariyasi va uslubiyati”. O‘quv qo‘llanma.T.,- 2021. 200 b.
6. Бальсевич В.К., Лубышева Л.И. Новые технологии формирования физической культуры школьников//Проблемы совершенствования физического воспитания учащихся общеобразовательных школ: Сб. работ участников междун. семинара/Под общ.ред. В.И.Ляха, Л.Б.Кофмана. - М., 1993. –С. 42-50.
7. Губа В.П., Лексаков А.В. Теория и методика футбола: учебник.-М.: Спорт, 2018. - 624 с.
8. Талипджанов А.А., Умаров А.А. Ўрта умумтаълим мактабларида футбол. Ўқув қўлланма. Тошкент. ЎзДЖТИ, 2005. -145 б.
9. Филин В.П. Теория и методика юношеского спорта: Учебное пособие для институтов и техникумов физической культуры. М.: ФиС, 1987. -128 с.
10. Факторы, влияющие на развитие массового футбола [Электронный ресурс] / Солнцев И.В., Сиромолот В.Ю., ВласовА.Е. // Вестник спортивной науки. — 2016. — №6. — С. 46-49.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Saidova Maftuna Qahramon qizi**, bosh mutaxassis, Qashqadaryo viloyati sport boshqarmasi, **[Саидова Мафтуна Кахрамон** кизи, главный специалист, Кашкадарьинское областное управление спорта], **[Maftuna Q. Saidova,** Chief Specialist, Kashkadarya Regional Department of Sports]; manzil: O‘zbekiston, Qashqadaryo viloyati [адрес: Узбекистан, Кашкадарьинская область], [address: Uzbekistan, Kashkadarya region].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# O‘QUVCHILARDA TAHLIL QILISH LAYOQATINI SHAKLLANTIRISHDA TAT TEXNOLOGIK YONDASHUVIDAN FOYDALANISH

© O.N. Shukurboyeva[1]✉

[1] Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent, O‘zbekiston.

Annotatsiya

**KIRISH**: ushbu maqolada o‘quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirish pedagogik muammo sifatida yoritilgan. Tahlil layoqatini shakllantirishning ahamiyati, uning shaxsni shakllantirishdagi o‘rni ochib berilgan. O‘quvchini badiiy asarlarni tahlil qilishga yo‘naltiruvchi topshiriqlar maktab darsliklarida berilgan asarlar misolida ko‘rsatilib, metodik tavsiyalar berilgan.

**MAQSAD**: O‘quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirish. Ularning estetik did, obrazli va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish.

**MATERIALLAR VA METODLAR**: darslik, badiiy tahlil layoqatini shakllantiruvchi vositalar, TAT texnologik yondashuvi, differensial topshiriqlar

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: Ushbu maqolada bugungi o‘quvchini qanday qilib badiiy asar mutolaasi va tahliliga qiziqtirish, ularda qaysi yo‘l bilan badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirish haqida fikr yuritildi hamda zamonaviy texnologiyalar, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan, tabaqalashtirilgan topshiriqlar hamda tahlilga bosqichma-bosqich olib boruvchi texnologik yondashuvdan foydalanish tahlil layoqatini shakllantirishi namunalar asosida isbotlandi.

**XULOSA:** o‘quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirish bugungi kun uchun juda muhim. Bunday layoqat shakllangan o‘quvchi kelajakda mustaqil dunyoqarashli, hayotiy muammolarga yechim topa oladigan, o‘zgalar qalbi va dardini anglay oladigan shaxs bo‘lib yetishadi. Bu jarayonning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi esa o‘quvchining mantiqiy va tanqidiy fikrlashi, estetik didi va obrazli tafakkurini, nutqi va mulohaza yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar**: tahlil, layoqat, darslik, obrazli fikrlash, badiiy asar mutolaasi, tasavvur, anglash

**Iqtibos uchun**: Shukurboyeva O.N. O‘quvchilarda tahlil qilish layoqatini shakllantirishda tat texnologik yondashuvidan foydalanish. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. B.106–115.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТАТ-ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ФОРМИРОВАНИИ У УЧАЩИХСЯ СПОСОБНОСТИ К АНАЛИЗУ

© О.Н. Шукурбоева[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

[1]Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы, Ташкент, Узбекистан.

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: в данной статье освещена проблема формирования у учащихся способности анализа художественных произведений как педагогическая задача. Раскрыта значимость формирования аналитических способностей и их роль в становлении личности. Задания, направляющие ученика к анализу художественных произведений, показаны на примере произведений, представленных в школьных учебниках, даны методические рекомендации.

**ЦЕЛЬ**: формирование у учащихся способности анализа художественных произведений. Развитие их эстетического вкуса, образного и логического мышления.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: учебник, средства формирования аналитических способностей, технологический подход ТАТ, дифференцированные задания.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: в данной статье рассмотрено, как заинтересовать современного ученика чтением и анализом художественного произведения, каким образом формировать у них способность анализа художественных произведений. Было показано, что использование современных технологий, возможностей искусственного интеллекта, дифференцированных заданий, а также технологического подхода, ведущего к анализу поэтапно, способствует формированию аналитических способностей учащихся, что подтверждено на основе примеров.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: формирование у учащихся способности анализа художественных произведений имеет большое значение в наше время. Ученик, обладающий такой способностью, в будущем станет личностью с самостоятельным мировоззрением, способной находить решения жизненных проблем, понимать сердце и боль других. Правильная организация этого процесса способствует развитию у учащегося логического и критического мышления, эстетического вкуса, образного мышления, речи и навыков рассуждения.

**Ключевые слова**: анализ, способность, учебник, образное мышление, чтение художественных произведений, воображение, понимание.

**Для цитирования**: Шукурбоева О.Н. Использование тат-технологического подхода в формировании у учащихся способности к анализу. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. С. 106–115.

## USING THE TAT TECHNOLOGICAL APPROACH IN DEVELOPING STUDENTS' ANALYTICAL ABILITY

© Ozoda N. Shukurboyeva[1]✉
[1]Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Tashkent, Uzbekistan.

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**INTRODUCTION**: this article highlights the issue of developing students' ability to analyze literary works as a pedagogical problem. The importance of forming analytical skills and their role in personal development is revealed. Tasks that guide students toward analyzing literary works are demonstrated through examples from school textbooks, with methodological recommendations provided.

**AIM:** to develop students' ability to analyze literary works. To foster their aesthetic taste, figurative and logical thinking.

**MATERIALS AND METHODS**: textbook, tools for developing analytical ability, TAT technological approach, differentiated tasks.

**DISCUSSION AND RESULTS**: this article discusses how to engage modern students in reading and analyzing literary works, and the ways to develop their analytical ability. It was demonstrated that the use of modern technologies, artificial intelligence capabilities, differentiated tasks, and a step-by-step technological approach to analysis helps to build students' analytical skills, which was proven through examples.

**CONCLUSION**: developing students' ability to analyze literary works is of great importance today. A student who has acquired this ability will grow into an independent-minded person, capable of solving life's problems and understanding the hearts and pain of others. Properly organizing this process contributes to the development of students' logical and critical thinking, aesthetic taste, figurative thinking, speech, and reasoning skills.

**Keywords**: analysis, ability, textbook, figurative thinking, reading literary works, imagination, understanding.

**For citation**: Ozoda N. Shukurboyeva. (2025) 'Using the tat technological approach in developing students' analytical ability', Inter education & global study, vol.3 (8), pp.106–115. (In Uzbek).

**A**xborot qabul qilish jarayoni raqamli muhit ta'sirida shakllanayotgan, badiiy asar o'qishdan ko'ra zamonaviy texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar ko'proq qiziqtirayotgan, ruhiyatida beqarorliklar, tafakkur va tasavvurida esa ixchamlashish vujudga kelayotgan bugungi o'quvchilarni qayta badiiy asar mutolaasiga jalb etish, ularda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar intilish va talabini inobatga olgan holda zamonaviy texnologiyalar, sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanib, tahlilga undovchi topshiriq va o'yinlar tizimini ishlab chiqish, adabiyotning ta'sir kuchini oshirish, badiiy asarlarni tahlil qilish metodikasini yanada takomillashtirish muhim sanaladi. Bu holat ularni hissiy cho'kish va beqarorlikdan saqlab qoladi. Zero, badiiy asarlarni tahlil qilish layoqati shakllangan o'quvchilarda mustaqil dunyoqarash, estetik did, obrazli tafakkur hamda tanqidiy fikrlash yaxshi rivojlanadi. Bunday layoqat shakllangan o'quvchigina duch kelgan har qanday muammolar qarshisida dovdirab qolmaydi, balki o'zi mustaqil yechim topa oladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Shu o‘rinda, badiiy asar mutolaasi o‘quvchiga faqatgina estetik zavq emas, balki hayotiy tajriba, saboq va mustaqil qaror qabul qilish imkonini ham beradi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning adabiy tahlil ko‘nikma-malakalarini shakllantirishda “badiiy matn ustida ishlash usullari adabiyot metodikasining azaliy muammolaridan sanalishi”, “adabiyot o‘qitishda badiiy asar tahlili alohida mavqega ega”ligi ko‘pgina olimlar tomonidan ta’kidlanadi. Davlat ta’lim standartiga badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasining kiritilgani, adabiyot o‘quv dasturida badiiy asarlarni tahlil qilishga layoqatini shakllantirishga e’tibor qaratilayotgani, yangilanib borayotgan adabiyot darsliklarida badiiy asar tahliliga oid ma’lumotlar berib borilayotgani ushbu tushunchaning pedagogik muammo sifatida ko‘tarilganini anglatadi.

Bu jarayon, aslida, o‘quvchining nafaqat bilimini, balki estetik dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va shaxsiy kamolotini ham rivojlantiradi. Badiiy asarlarni tahlil qilish deganda badiiy asarni chuqur o‘rganish, uning mazmunini, g‘oyasi hamda obrazlarini tahlil qilish, shuningdek, badiiy asarda qo‘llangan vositalar hamda ularning badiiylikni, estetik go‘zallikni yuzaga chiqarishdagi ahamiyatini idrok etish, yozuvchi mahoratini his etish, ularni tahlil qilish tushuniladi. Tahlildan ko‘zlangan asosiy maqsad esa badiiy asarni chuqur anglash, uning badiiy qiymatini baholash hamda o‘quvchi tasavvuri va hissiyotlarini uyg‘otishdir. Tahlilga kirishgan o‘quvchi badiiy asarni shunchaki o‘qib chiqmaydi, balki uning mavzusi, g‘oyasi nima haqida ekanligini anglaydi. Asardagi qahramonlar xarakteri va ruhiyatidagi o‘zgarishlarni, ularning voqealar rivojida ahamiyatini kuzatadi. Badiiy asarning tuzilishini, badiiy til va ifoda vositalarini o‘rganish bilan birga muallifning estetik maqsadi hamda ijod mahsulida aks etgan davr ruhini tushunib boradi. Shuningdek, badiiy asarda tasvirlangan qarama-qarshiliklar, ya’ni yaxshilik va yomonlik, oqibat va oqibatsizlik, adolat va zulm kabi turli tushunchalarni bir-biriga qarshi qo‘yish, his qilish orqali ham o‘zi tarbiyalanib boradi. O‘quv tahlili o‘zida pedagogik maqsad ko‘zlaydi, ta’lim oluvchilar bilan olib boriladi.

Shu sababli, badiiy tahlil jarayonida o‘quvchi nafaqat kitobni o‘rganadi, balki o‘zining hayotiy qarashlari va qadriyatlarini shakllantiradi. Badiiy asarlarni tahlil qilishda estetik, kognitiv, psixologik, struktural hamda tarixiy-biografik, sotsiologik va tarixiy yondashuvlardan keng foydalaniladi. Jumladan, estetik yondashuvda o‘quvchida estetik did va badiiy asarga munosabat shakllantiriladi, unda badiiy asarning go‘zalligi, til uslubi, tasvir vositalari, obrazlarning ifodaviyligi tahlil qilinadi, asarning jozibasini oshirgan unsurlarga e’tibor qaratiladi. Jumladan, 8-sinf adabiyot darsligida Lutfiy ijodidan berilgan “Ayoqingg‘a tushar har lahza gisu” g‘azalini irsoli masal sa’natining yoki Navoiyning “Bormog‘in” tuyug‘ida esa tajnislarning qo‘llanishi she’rning estetik jozibasini yuzaga keltirgan. Yoki ushbu darslikda berilgan Oybekning “Na’matak” she’rida qo‘llangan tashxis va tashbeh san’atlari o‘quvchiga his qilish va tasvirni ko‘z oldida butun boricha gavdalantirish imkonini beradi, ya’ni beixtiyor tasavvurda uning jonli manzarasi namoyon bo‘ladi.

Nafis chayqaladi bir tup na’matak
Yuksakda shamolning belanchagida


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Yoki:
Poyida yig‘laydi kumush qor yum-yum…
Nafis chayqaladi bir tup na’matak.
Yo:
Yuksakda raqs etar bir tup na’matak,
Quyoshga bir savat gul tutib xursand.

Ushbu badiiy san’atlar lirik asarning jozibasini, estetik ta’sirini yuzaga keltirgan unsurlar bo‘lib, ularni tushuntirishda estetik tahlil yondashuviga suyanish mumkin.

Ammo amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar adabiy matnni yod olishga, tayyor bayon asosida fikr yuritishga moyildirlar. Ularning ko‘pchiligi mustaqil ravishda asar mazmunini tahlil qilib, obrazlar orasidagi ziddiyatni anglay olmaydi yoki badiiy tafakkur elementlarini ifodalashda qiynaladi. Asarni anglash, tahlil qilish, uning hayotiy va estetik mazmunini chuqur tushunish uchun esa o‘quvchining tafakkur faoliyati faollashtirilishi zarur.

O‘quvchida badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirish uchun ularni bosqichma-bosqichga tahlilga olib kiruvchi uch bosqichli TAT yondashuvini tavsiya qilishimiz mumkin. Ushbu yondashuv tahlil, anglash va tasavvur qilish bosqichlari asosida tashkil qilinib, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan savollar, o‘yin- topshiriqlar hamda testlardan iborat bo‘ladi. Ushbu bosqichlar orqali o‘quvchi avval badiiy asarni qismlarga ajratib, undagi elementlarni tahlil qiladi, tahlil jarayoni va undan so‘ng badiiy asarning umumiy mazmun-mohiyatini anglaydi hamda yakuniy bosqichda obrazali fikrlash va badiiy asarni xayolda jonlantirish orqali tasavvurini kengaytiradi. Ya’ni bunda badiiy asar asosida o‘z tasavvurini ishga solgan holda rasm chizish, sahnalashtirish, alternativ davom yozish mumkin bo‘ladi. Ushbu yondashuvni 7-sinf adabiyot darsligi[1]dagi “Oqbo‘yin” asari misolida quyidagicha tushuntirish mumkin.
Tahlil bosqichida quyidagi savol va topshiriqlar o‘rin olib, ulardan badiiy asarning tuzilishi va elementlarini ajratib olish maqsadi ko‘zlanadi:

1. Daftaringizga “T” sxemasi yoki vertikal chizma chizgan holda “Oqbo‘yin” hikoyasining asosiy g‘oyasini va g‘oya atrofidagi qo‘shimcha fikrlarni ajratib yozing.
2. “Oqbo‘yin” asarida qatnashgan qahramonlar ro‘yxatini tuzing va har birining o‘ziga xos xususiyatini yozib chiqing.
3. Jadval yoki sxema chizgan holda “Oqbo‘yin” asaridagi voqealar ketma-ketligini qisqa holda yozib chiqing.
4. “Oqbo‘yin” asarida qanaqa muammo ko‘tarilgan, uning yechimi qanday bo‘ldi? O‘zingiz mustaqil alternativ(muqobil) yechim tavsiya qiling.

Anglash bosqichida asosiy e’tibor badiiy asarning mazmun-mohiyatini tushunishga va anglashga qaratiladi:

1. “Oqbo‘yin” asarining mazmunini qisqa holda 6-7 gap bilan tasvirlang.

[1] Mirzayeva Z, Djalilov K. 7-sinf adabiyot darsligi, –Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

2. Asar mazmunini ochib beruvchi, eng asosiy fikrni, ya'ni iqtibosni aniqlab, uning mazmunini izohlang.

3. "Nihoyat bu kech uning sabr kosasi to'lib toshdi. Ortiq bardosh berishga o'zida kuch topmadi. Supada uxlab yotgan bolani ko'zi qiyib-qiymay, devor oshib ko'chaga chiqdi. Ko'chadan dalaga…". Oqbo'yinning Mallanining oldiga borish qaroriga kelishiga nimalar sabab bo'ldi? Ushbu qarorga sabab bo'lgan omillarni yozing.

4. "Oqbo'yin" asaridan qanday xulosa kelib chiqadi? Muallif bu asari orqali nima demoqchiligini yozing?

Tasavvur bosqichi o'quvchilarda obrazli fikrlash va ijodiy tasavvurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Jumladan, ushbu bosqichda o'quvchilarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

1. "Oqbo'yin" asaridagi qahramonlaridan biriga, jumladan, Karim podachi, Oqbo'yin, Rasul, Yoldor, Malla yoki Olaparga xat yozing. Ularga nima degan bo'lar edingiz?
2. Ushbu hikoyaga alternativ yakun yozing.
3. Hikoya asosida rasm chizing yoki sahna ko'rinishining sujetini tayyorlang.
4. Agar hikoya davom etadigan bo'lsa, voqealar qanday tus olishini o'zingiz o'ylab yozing.

TAT texnologik yondashuvini 5-7-sinf adabiyot darsligidagi boshqa asarlar tahlilida ham qo'llash mumkin. Uni quyidagicha jadvalda kengaygan holda izohlaymiz:

| **Tahlil qilish bosqichlari** | **Bosqichlarga oid topshiriqlar** | **Baholash mezoni** |
|---|---|---|
| **Tahlil bosqichi** | Matndan asosiy va ikkinchi darajali g'oyalarni aniqlang. | Asosiy g'oyani aniq aytishi va qo'shimcha fikrlarni to'g'ri ajrata olishi kerak. |
| | Asarda qatnashgan qahramon va epizodlar ro'yxatini yozing. Ularga qisqagina baho bering. Ularning voqealar rivojidagi o'rnini ayting. | Har bir qahramonning ruhiy va ichki dunyosi bilan aks ettira olishi hamda sujetdagi rolini tahlillay olishi kerak. |
| | Voqealar ketma-ketligini jadval yoki sxemaga qisqa holda aks ettiring. | Bunda voqealar ketma-ketligi va mantiqiy bog'lanishini tahlil qila olishi lozim. |
| **Anglash bosqichi** | Asar mazmunini 5-6 gap bilan qisqagina aks ettiring. | Mazmun to'liq, qisqa bayon etilganligi |
| | Asardagi eng ta'sirli jumlalarni toping hamda ularning mazmuni va asar g'oyasini yuzaga chiqarishdagi o'rniga izoh bering. | Chuqur ma'noga ega iqtibos tanlay olganligi va uni izohlay olishi, uning asar g'oyasini ochishdagi o'rnini ayta olishi. |
| | Muallif g'oyasini, ushbu asari orqali nima demoqchi bo'lganini yozing | Aniq va mantiqan muallif g'oyasini izohlay olganligi. |


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

| | | |
|---|---|---|
| **Tasavvur bosqichi** | Asar qahramoniga yoki asardagi biror qahramonga maktub yozing. | O‘quvchining ijodkorligi, qahramonlarning ijobiy va salbiy tomonlariga baho bera olishi, ularning ruhiyatini tushunishi |
| | O‘qigan asaringiz asosida rasm chizing yoki she’r, hikoya yozing. Sahna ko‘rinishiga sujet tayyorlang. | Obrazli fikrlay olishi, ijodiylik darajasi. |
| | 1. Agar hikoya davom etadigan bo‘lsa, voqealar qanday tus olishini o‘zingiz o‘ylab yozing. 2. Hikoya voqealarini boshqa davr yoki joyga moslab qayta yozing yoki hikoyaga alternativ yakun yozing. | O‘quvchining tasavvur kengligi, fantaziya va mantiq uyg‘unligi baholanadi. |

Shuningdek, o‘quvchida badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishda differensial topshiriqlar tizimini ishlab chiqish muhimdir. Bunda adabiyot o‘qituvchisidan sinchkovlik, uddaburonlik talab etiladi. Chunki sinfdagi bilimli, tirishqoq, uyatchan dangasa hamda loqayd o‘quvchini aynan sinchkov, bilimli o‘qituvchigina ajrata oladi. Ularni badiiy asar mutolaasi hamda tahliliga birdek jalb qilish uchun esa differensial, ya’ni o‘quvchi o‘zlashtirishi, qiziqish va tahlil qilish layoqatiga qarab bitta mavzu asosida turli darajadagi topshiriqlar bera oladi. Bu usul orqali asar har bir o‘quvchi tomonidan tahlil qilinmay qolmaydi, balki o‘zlashtirish imkoniyatiga qarab turlicha tahlil qilinadi. Jumladan, buni 7-sinf adabiyot darsligida berilgan “Chol va dengiz” asari misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, quyidagi ko‘rinishdagi topshiriqlar berish mumkin:

1. Yuqori darajada biluvchi o‘quvchiga: “Santyagoning ichki kechinmalarini, uning o‘y-xayollarini, fe’l-atvorini tahlil qiling”;
2. O‘rta darajada o‘zlashtiruvchi o‘quvchi uchun: “Santyagoning kuchli va ojiz, ijobiy va salbiy tomonlariga baho bering”;
3. Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchiga esa: “Santyago kim? Butun sujet davomida u qanaqa harakatlarni amalga oshirdi?”

Yaxshi bilamizki, maktabdan uyga, uydan ko‘chaga shoshgan o‘quvchilar ham yo‘q emas. Bunday o‘quvchilar dars tayyorlash tugul, hatto dars jadvalini almashtirmagan holda ertasiga maktabga shoshishadi. Yoki bir o‘quv yili davomida maktabga kitob ko‘tarib kelib, uni bir bo‘lsa-da ochib o‘qimaydigan dangasa o‘quvchilar ham, afsuski, topiladi. Mana shunday o‘quvchilarga kerakli xulosa chiqarib, xatosini tuzatib olishida ayrim asarlarning to‘g‘ri tahlili yordam beradi. Jumladan, 5-sinf adabiyot darsligida Sa’diy Sheroziyning

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

“Ustiga kitob ortilgan eshak, Na olim va na donodir beshak” hikmati berilgan. Uning tahlili orqali o‘quvchida salbiy jihatlarni kamaytirib, ijobiy fazilatlarni shakllantirish mumkin. Darhaqiqat, kitob ko‘tarib yurib, ammo uni o‘qimaydigan insondan eshakning nima farqi bor?! O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilar to‘g‘ri tahlilga yo‘naltirilganda bu toifadagi o‘quvchilar o‘z qilmishlaridan uyalishadi, xatolarini esa tuzatishadi.

Sa’diy Sheroziyning asarlari ichida vaqtni qadrlashga o‘rgatuvchi hikmatlar ham ko‘p bo‘lib, ular o‘quvchini hozirdan ilm olishga, hunar o‘rganishga va vaqtdan unumli foydalanishga chaqiradi. “Erta kun arpaga zor bo‘lmay desang, Bukun ek, shoyadki, bug‘doy non yesang”, “Chumoli yoz bo‘yi yig‘ar yemak-don, Toki qishda uyi bo‘lsin farovon”. Yoki uning quyidagi hikmati ayni o‘smir bolalar o‘rtasida tengdoshlari bilan bo‘lib turadigan urishqoqlik, jizzakilik holatlariga barham berishga hissa qo‘shadi: “Fildek zo‘r bo‘lsang-u, sherdek urishqoq, Nazdimda, jangdan sulh ming bor afzalroq”. Bu zayldagi o‘quvchi tarbiyasi va ta’limida ulkan ahamiyatga ega asarlar ro‘yxatini ko‘plab davom ettirish mumkin. Ularning ko‘pi darsliklarda berilmagan. Shuning uchun o‘quvchini mustaqil o‘qishi uchun to‘g‘ri yo‘naltirish, asarlar ro‘yxatini shakllantirib berish yoki tavsiya qilish muhim. Ular bilan mustaqil o‘qigan asarlari bo‘yicha ham adabiy kechalar uyushtirish, tadbirlarda sahna ko‘rinishlari tayyorlash mumkin. Zero “Bolalarni ko‘rkam asar o‘qishga qiziqtirish, badiiy so‘zni tuyish, undan ta’sirlanish va zavq ola bilishga yo‘naltirish ularning ko‘ngillarini injalashtiradi, tabiatini tozalaydi”.

**O‘quvchilarda badiiy asarlarni tahlil qilish layoqatini shakllantirishga oid takliflar:**

1. **Bosqichma-bosqich yondashuvni joriy etish:** Bunda o‘quvchining yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda badiiy asar tahlilini TAT, ya’ni tahlil, anglash va tasavvur qilish kabi yondashuvni uch bosqichda tashkil etish tavsiya etildi. Ushbu tavsiyaga ko‘ra o‘quvchi avval matnni tahlil qiladi, so‘ng mazmun-mohiyatini anglaydi hamda yakuniy bosqichda obrazli fikrlash orqali tasavvurini kengaytiradi. Bu esa o‘quvchining fikrlash, tushunish hamda ijodiy yondashuvini rivojlantiradi.

2. **Differensial topshiriqlardan foydalanish:** Bir sinfdagi turli darajada o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun murakkabligi jihatidan tabaqalashtirilgan topshiriqlarni ishlab chiqish lozimligi, kuchli, o‘rtacha hamda sust o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar ehtiyojlariga moslangan tahliliy savol va topshiriqlardan foydalanish yaxshi natija beradi.

3. **Badiiy asar mohiyatiga chuqur kirib boruvchi savollarni ishlab chiqish:** Umumiy mazmun darajasidagi, yuzaki voqea va faktlarni so‘raydigan savollardan ko‘ra, mazmuniy, g‘oyaviy va tahlil qilishga yo‘naltiruvchi savollar tizimini ishlab chiqish zarur. Jumladan, “Qahramon ichki dunyosini qanday tushundingiz?”, “Muallif ushbu obraz orqali nima demoqchi?” kabi murojaatlar o‘quvchini o‘ylashga, fikrlashga olib keladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

4. **Tahlil layoqatini shakllantirishda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish:** Zamon talabi, o'quvchi qiziqishlarini inobatga olgan holda badiiy asarlar tahlil qilish layoqatini shakllantirishda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan bir vosita sifatida foydalanish zarur.

Bunday usullarni joriy qilish nafaqat o'quvchini bilim olishga undaydi, balki uni o'z fikrini asoslashga, muallif g'oyasini chuqur anglashga ham o'rgatadi. Har bir o'quvchi qiziqishi va darajasiga mos topshiriq olganida, u o'zining muvaffaqiyatini his qiladi va dars jarayonida faol ishtirokchi bo'lishga intiladi. Natijada darslar qiziqarli, bahs-munozarali o'tadi, ijodiy muhit yuzaga keladi. O'qituvchi ham o'quvchi hamkorligida olib borilgan bunday tahlillar samarali bo'lib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, adabiy estetik did, hayotiy xulosalar chiqarish layoqati shakllanadi. Shuningdek, o'quvchilar o'qigan asarlarini sahna ko'rinishlari, rolli o'yinlar orqali ifoda etish imkoniga ega bo'lishadi. Bu esa nafaqat kitob mazmunini chuqurroq o'zlashtirishga, balki nutq madaniyati, jamoada ishlash, o'z fikrini erkin ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Demak, badiiy asarlarni tahlil qilish jarayoni faqat bilim berish emas, balki tarbiyaviy, ijtimoiy va psixologik jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, zamonaviy adabiyot darslari metodikasida bunday yondashuvni keng joriy etish dolzarbdir.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Зуннунов А. Бадиий асар таҳлили методикаси. - Т.: Ўқитувчи, 1989. – 120 б.
2. Зуннунов А. Бадиий асарни ўқишни ўрганиш. Т.: Ўзбекистон нашриёти, 1983. – 37 б.
3. Мирқосимова М.М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари: Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1995. – 253 б.
4. Yo'ldoshev Q. Maktabda adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2023. – 628 b.
5. Matchonov S. Adabiyot darslarida tahlil va talqin uyg'unligi. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali 2020-yil. 7-son 8-bet.
6. Husanboyeva Q. va boshq. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. Toshkent: "Innovatsiya -Ziyo",2020, 198-bet
7. Husanboyeva Q, Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik, 2-kitob. – Toshkent: "Innovatsion - Ziyo", – 2022. 392 b.
8. Olimov S va boshq. 8-sinf adabiyot darsligi. – Toshkent: G'ofur G'ulom, 2019. – 352 b.
9. Ahmedov S va boshqalar, Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinf uchun darslik.– Toshkent: "Sharq", 2020. -272 b


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

10. Mirzayeva Z, Djalilov K. 6-sinf adabiyot darsligi –Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b.
11. Mirzayeva Z va boshq. 7-sinf adabiyot. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224b.

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Shukurboyeva Ozoda Nasriddin qizi,** tayanch doktorant, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyotiuniversiteti, **[Шукурбоева Озода Насриддин кизи,** докторант базовой докторантуры, Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы], **[Ozoda N. Shukurboyeva,** PhD researcher, Tashkent State University of Uzbek Languageand Literature]; manzil: O'zbekiston, Toshkentshahri [адрес: Узбекистан, г. Ташкент], [address: Uzbekistan, Tashkent city];

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# INGLIZ TILINI YO‘NALISHI TALABALARINING PRAGMATIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH HAMDA ILMIY NUTQGA YO‘NALTIRISH PRINSIPLARI

© N.U. Mustafayeva[1]✉

[1]Termiz davlat universiteti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: mazkur maqolada ingliz tilini o‘rganayotgan talabalar uchun pragmatik kompetensiyani rivojlantirish va ularni ilmiy nutqqa yo‘naltirishning dolzarbligi, uslubiy asoslari va samarali metodlari yoritilgan. Ilmiy nutqning o‘ziga xos xususiyatlari, talabalarni ilmiy-ijodiy fikrlashga undovchi metodik yondashuvlar, ta’limda kommunikativ va pragmatik kompetensiyalarni uyg‘un rivojlantirish zarurati tahlil qilinadi. Shu bilan birga, maqolada zamonaviy lingvodidaktik tendensiyalar va akademik til kompetensiyalarini integratsiyalash metodlari bo‘yicha empirik tahlillar ham keltiriladi.

**MAQSAD**: ingliz tili ta’limida talabalar pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish hamda ularni ilmiy nutqqa yo‘naltirish metodlarini tahlil qilish, samarali usullarni aniqlash va amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rsatib berish.

**MATERIALLAR VA METODLAR**: tadqiqotda ingliz tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy manbalar, EAP (English for Academic Purposes) adabiyotlari hamda lingvodidaktik tadqiqotlar asosiy material sifatida tanlandi. Qiyosiy-tahliliy usul, lingvistik va pragmatik tahlil, empirik kuzatish va didaktik tajriba metodlaridan foydalanildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pragmatik kompetensiya talabalarda nafaqat kommunikativ mahoratni, balki ilmiy diskursni samarali o‘zlashtirishni ham ta’minlaydi. Ilmiy nutqni shakllantirishda akademik yozuv va og‘zaki nutqni uyg‘un rivojlantirish, kontekstga mos kommunikativ strategiyalardan foydalanish, differensial topshiriqlar va interaktiv metodlar samarali ekani isbotlandi. Shuningdek, talabalarni ilmiy-ijodiy fikrlashga undashda zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlar hamda EAP dasturlarining afzalliklari aniqlab berildi.

**XULOSA:** ingliz tilini o‘rgatishda pragmatik kompetensiyani rivojlantirish va ilmiy nutqqa yo‘naltirish jarayoni talabalarning akademik muvaffaqiyati va ilmiy faoliyatga tayyorligini oshiradi. Bu jarayon ularning kommunikativ ko‘nikmalarini mustahkamlaydi, tanqidiy va ilmiy-ijodiy tafakkurni rivojlantiradi, shuningdek, xalqaro ta’lim maydonida raqobatbardosh bo‘lishlariga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar**: pragmatik kompetensiya, ilmiy nutq, kommunikativ kompetensiya, metodika, til o‘rgatish, diskurs, akademik ingliz tili, lingvodidaktika, EAP.

**Iqtibos uchun**: Mustafayeva N.U. Ingliz tilini yo‘nalishi talabalarining pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish hamda ilmiy nutqga yo‘naltirish prinsiplari. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. B.116–123.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

# ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ, ИЗУЧАЮЩИХ АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК, И ИХ ОРИЕНТАЦИИ НА НАУЧНЫЙ ДИСКУРС

© Н.У. Мустафаева[1]✉
[1]Термезский государственный университет, Термез, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: в данной статье рассматривается актуальность развития прагматической компетенции у студентов, изучающих английский язык, и их ориентация на научную речь, а также методические основы и эффективные методы этого процесса. Анализируются особенности научной речи, методические подходы, побуждающие студентов к научно-творческому мышлению, необходимость гармоничного развития коммуникативной и прагматической компетенций в обучении. Кроме того, приводятся эмпирические исследования по современным лингводидактическим тенденциям и методам интеграции академических языковых компетенций.

**ЦЕЛЬ**: анализировать методы развития прагматической компетенции студентов в процессе обучения английскому языку и ориентирования их на научную речь, выявить эффективные подходы и показать возможности их применения на практике.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в исследовании использованы научные источники по методике преподавания английского языка, литература по EAP (English for Academic Purposes), а также лингводидактические исследования. Применялись сравнительно-аналитический метод, лингвистический и прагматический анализ, эмпирическое наблюдение и дидактический эксперимент.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: результаты показали, что развитие прагматической компетенции у студентов обеспечивает не только коммуникативные навыки, но и успешное освоение научного дискурса. В формировании научной речи эффективными оказались интеграция академического письма и устной речи, использование соответствующих контекстуальных коммуникативных стратегий, дифференцированных заданий и интерактивных методов. Также установлено, что современные лингводидактические подходы и программы EAP способствуют развитию научно-творческого мышления студентов.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: развитие прагматической компетенции и ориентация на научную речь в процессе изучения английского языка повышает академическую успешность студентов и их готовность к научной деятельности. Это укрепляет их коммуникативные навыки, развивает критическое и научно-творческое мышление, а также способствует конкурентоспособности на международном образовательном пространстве.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Ключевые слова**: прагматическая компетенция, научная речь, коммуникативная компетенция, методика, обучение языку, дискурс, академический английский, лингводидактика, EAP

**Для цитирования**: Мустафаева Н.У. Принципы развития прагматической компетентности студентов, изучающих английский язык, и их ориентации на научный дискурс. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8.116–123.

# PRINCIPLES OF DEVELOPING PRAGMATIC COMPETENCE OF ENGLISH LANGUAGE STUDENTS AND DIRECTING THEM TO SCIENTIFIC DISCOURSE

© Nilufar U. Mustafayeva[1]✉
[1]Termez State University, Termez, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: this article highlights the importance of developing pragmatic competence in students learning English and directing them towards academic speech. It examines the methodological foundations and effective methods of this process. The specific features of academic discourse, methodological approaches encouraging students' scientific and creative thinking, and the need for integrated development of communicative and pragmatic competences are analyzed. In addition, the paper provides empirical analysis of modern linguodidactic trends and methods for integrating academic language competences.

**AIM:** to analyze the methods of developing students' pragmatic competence in English language learning and guiding them towards academic discourse, to identify effective approaches, and to demonstrate their applicability in practice.

**MATERIALS AND METHODS**: the research is based on scientific sources on English teaching methodology, EAP (English for Academic Purposes) literature, and linguodidactic studies. Comparative-analytical method, linguistic and pragmatic analysis, empirical observation, and didactic experiment methods were used.

**DISCUSSION AND RESULTS**: the findings indicate that pragmatic competence development ensures not only communicative proficiency but also effective acquisition of academic discourse. Integrating academic writing and speaking, applying context-appropriate communicative strategies, differentiated tasks, and interactive methods proved to be effective. Moreover, modern linguodidactic approaches and EAP programs were found to encourage students' scientific and creative thinking.

**CONCLUSION**: developing pragmatic competence and directing students towards academic speech in English learning enhances their academic performance and readiness for scientific activity. It strengthens their communicative skills, develops critical and scientific-creative thinking, and contributes to their competitiveness in the international educational arena.

**Keywords**: developing pragmatic competence and directing students towards academic speech in English learning enhances their academic performance and readiness

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

for scientific activity. It strengthens their communicative skills, develops critical and scientific-creative thinking, and contributes to their competitiveness in the international educational arena.

**For citation**: Nilufar U. Mustafayeva. (2025) 'Principles of developing pragmatic competence of english language students and directing them to scientific discourse', Inter education & global study, vol.3 (8), pp.116–123. (In Uzbek).

**Z**amonaviy ta'lim jarayonida xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini o'rgatishda faqatgina grammatika yoki fonetika asosida o'qitish yetarli emas. Bugungi kunda til o'rgatishning asosiy maqsadi – talabani real kommunikatsiya jarayonida erkin va moslashuvchan tarzda ishtirok eta oladigan mutaxassis sifatida shakllantirishdir. Ingliz tili esa xalqaro kommunikatsiya, ilmiy izlanishlar, texnologik hamkorlik va ta'lim sohalarida ustuvor vositaga aylangan.

Global informatsion jamiyatda yashayotgan talaba uchun ingliz tilida erkin muloqot qilish, ilmiy fikr bildirish, professional kontekstda o'zini aniq va to'g'ri ifodalash — bularning barchasi pragmatik kompetensiyani egallashni talab qiladi. Pragmatik kompetensiya esa nafaqat tildagi grammatik yoki leksik birliklarni, balki ijtimoiy-madaniy kontekstda ulardan to'g'ri foydalanish qobiliyatidir.

Ushbu kompetensiyani shakllantirish orqali talabalar turli kommunikativ vaziyatlarda o'zlarini erkin tuta olishadi, o'z fikrini aniq yetkazish, bahs yuritish, diplomatik muloqot olib borish, tanqidiy fikr bildirish, madaniyatlararo muloqotda yo'nalish olishga qodir bo'lishadi. Ayniqsa, akademik muhitda ingliz tilidan foydalanish talabalarni xalqaro anjumanlarda ishtirok etishga, ilmiy maqola yozishga, dissertatsiyalarni himoya qilishga tayyorlaydi. Shu nuqtayi nazardan, pragmatik kompetensiyaning rivoji nafaqat til o'rganishda, balki ijtimoiy va professional muvaffaqiyat uchun ham muhim mezondir.

Xususan, ingliz tilini yo'nalishi talabalarining til o'rganish maqsadi ko'pincha ilmiy faoliyat, tarjima, akademik yozuv yoki o'qituvchilik kabi sohaga yo'naltirilgan bo'lganligi sababli, ularni ilmiy nutqqa tayyorlash, akademik ingliz tilini puxta egallashlariga ko'maklashish — o'ta muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida til o'rganishda yangi yondashuvlarni, integratsiyalashgan metodlarni qo'llashni taqozo etadi. Xususan, EAP (English for Academic Purposes) doirasidagi faoliyatlar orqali talabalar mantiqiy fikrlash, dalil keltirish, diskursiv tuzilmani shakllantirish ko'nikmalarini mustahkamlashlari mumkin.

EAP komponentlari o'z ichiga akademik yozuv, akademik o'qish, og'zaki taqdimotlar, akademik tinglab tushunish va interaktiv muloqot elementlarini oladi. Bular orqali talaba nafaqat tilni o'rganadi, balki akademik muhitda faol ishtirok etish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Demak, pragmatik va akademik kompetensiyalarni uyg'un tarzda shakllantirish orqali biz nafaqat yaxshi til bilimdonini, balki zamonaviy ilm-fan maydonida raqobatbardosh mutaxassisni tarbiyalaymiz.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Mazkur maqolada ingliz tili yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun pragmatik kompetensiyani rivojlantirishning asosiy tamoyillari va uslublari, shuningdek, ularni ilmiy nutqqa yo‘naltirishda foydalaniladigan samarali strategiyalar atroflicha tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida xorijiy tajribalar, mahalliy o‘quv dasturlaridagi holatlar, shuningdek eksperimental o‘rganishlar asosida fikr yuritiladi. Keyingi bo‘limlarda ushbu muhim masalalar chuqur ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan ko‘rib chiqiladi.

Tilshunoslik va til o‘rgatish sohasidagi yirik olimlar tomonidan pragmatik kompetensiya tushunchasi kommunikativ kompetensiyaning ajralmas qismi sifatida ta’riflangan. Canale va Swain (1980) tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya modeli bu boradagi ilk nazariy asos bo‘lib, unga ko‘ra, til bilimdonligi grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalardan iborat. Keyinchalik bu model kengaytirilgan va Bachman va Palmer (1996) tomonidan til kompetensiyasi tarkibiga pragmatik kompetensiya mustaqil komponent sifatida kiritilgan.

Pragmatik kompetensiyaning mohiyatini chuqur yoritishda Leech (1983), Kasper (1997) va Thomas (1983) asarlari alohida e’tiborga loyiqdir. Ular pragmatikaning asosiy tushunchalari – nutq aktlari, presuppozitsiya, implikatura, dejis, madaniy farqlar va kommunikativ vaziyatlar o‘zgaruvchanligi kabi jihatlarni chuqur tahlil qilgan.

Ilmiy nutq va akademik ingliz tilini o‘rgatish borasida esa John Swales (1990) tomonidan taklif etilgan “genre-based” yondashuv, Ken Hyland (2004, 2006) tomonidan ishlab chiqilgan akademik yozuvda metadiskurs, muallif ovozi va auditoriya bilan aloqani hisobga olish prinsiplari muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonlik olimlar ichida Jo‘rayev (2020), Nurullaeva (2022), G‘. To‘rayev (2021) va B. Xudoyberdiyev (2021) tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar[1]da pragmatik yondashuv, kommunikativ til o‘rgatish, EAP kurslarini joriy etish tajribalari tahlil qilingan. Shuningdek, Toshkent davlat filologiya universiteti, Nizomiy nomidagi TDPU va boshqa oliy o‘quv yurtlarida olib borilgan metodik tajribalar ushbu masala bo‘yicha amaliy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pragmatik kompetensiya va ilmiy nutq kompetensiyasi bir-birini to‘ldiruvchi elementlar bo‘lib, ularni integratsiyalashgan tarzda o‘rgatish zamonaviy til ta’limining strategik yo‘nalishlaridan biridir.

Pragmatik kompetensiya — bu til egasining tilni real kommunikativ vaziyatda, ijtimoiy va madaniy kontekstda to‘g‘ri va samarali tarzda qo‘llay olish qobiliyatidir. Bu kompetensiya ko‘p komponentli tuzilishga ega bo‘lib, quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

Nutq aktlarini anglash va qo‘llash**:** so‘rash, rad etish, rozilik bildirish, maslahat berish, ogohlantirish, minnatdorchilik bildirish va h.k.

[1]Jo‘rayev, N. “Ilmiy nutq va uni o‘qitish masalalari.” *Til va Adabiyot*, no. 3, 2020, pp. 45–52.; Nurullaeva, G. “Akademik yozuv ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar.” *Philology Journal*, no. 2, 2022, pp. 90–98.; To‘rayev, G‘. “Tilshunoslikda pragmatik yondashuv asoslari.” *Filologiya fanlari*, no. 1, 2021, pp. 77–83.; Xudoyberdiyev, B. “Ingliz tili o‘qitish metodikasida kommunikativ va pragmatik kompetensiyalar uyg‘unligi.” *Pedagogika va psixologiya*, no. 4, 2021, pp. 55–62.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Madaniy moslik: turli millat va madaniyatlar doirasida mavjud bo‘lgan muloqot normalariga moslashuv.

Ijtimoiy vaziyatni tahlil qilish va mos strategiya tanlash**:** rasmiy va norasmiy muloqot, katta-kichiklik darajasi, ierarxiya.

Kontekstual signallarni sezish va ularga mos munosabat bildirish**:** kinoya, istehzo, ijobiy/ salbiy implikatsiyalar.

Pragmatik kompetensiyani rivojlantirish uchun mashg‘ulotlarda real hayotga yaqin ssenariylar asosida ishlash, madaniyatlararo kontekstda dialoglar tuzish, nutq aktlari ustida alohida mashqlar bajarish, til etiketi va ijtimoiy mezonlarga aloqador vazifalar bajarish muhimdir.

Talabalarni ilmiy nutq doirasida tayyorlash ularni mustaqil fikrlash, dalil asosida xulosa chiqarish, tahliliy yozuv va taqdimot qilish qobiliyatlarini shakllantiradi. Ilmiy nutqni o‘rgatish jarayonida quyidagi tamoyillarga amal qilish zarur:

Strukturalilik**:** har qanday ilmiy matn aniq tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi kerak — kirish, metodologiya, natijalar, tahlil, xulosa.

Aniqlik va obyektivlik: ilmiy ifodalar noaniq va mavhum bo‘lmasligi, dalillarga asoslangan bo‘lishi kerak.

Akademik uslub**:** passiv konstruktsiyalar, nomlashlar, akademik frazeologiya, referensiyalar.

Argumentatsiya: ilmiy maqolalarda fikrni isbotlash, boshqa tadqiqotchilar bilan muloqotda bo‘lish, dalillar keltirish orqali fikrni mustahkamlash lozim.

Bu ko‘nikmalarni shakllantirish uchun talabalar bilan ilmiy maqola yozish, bibliografik manbalarni tahlil qilish, akademik yozuv bo‘yicha dasturlar bilan ishlash, peer-review faoliyatlarini tashkil etish zarur.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalari talabalarni faqat bilim bilan emas, balki ularning kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Pragmatik va akademik til kompetensiyalarini birlashtirish integratsiyalashgan yondashuvni talab etadi. Bu yondashuv quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

Akademik rolli o‘yinlar**:** talabalar konferensiya qatnashchisi, moderator, savol beruvchi, bahs yurituvchi rollarida qatnashishadi.

Tahliliy esse va munozara insholari**:** talabalar mavzu asosida argumentatsion yozuvlar yaratadi.

Multimodal topshiriqlar**:** grafik, jadval, statistik materiallar asosida og‘zaki va yozma nutqni shakllantirish.

Korpus lingvistikasi asosida o‘rganish**:** real ilmiy matnlar ustida ishlash, diskursiv birliklarni tahlil qilish.

Bu metodlar orqali talabalar nafaqat tilni grammatik jihatdan to‘g‘ri ishlatishni, balki muloqotda kontekstga mos strategiyalarni tanlash, ilmiy muloqot olib borish, professional etiketka amal qilish kabi ko‘nikmalarni egallashadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Toshkentdagi ikki oliy ta’lim muassasasida olib borilgan tajribaviy darslar natijasida talabalar o‘rtasida pragmatik va akademik kompetensiyalar bo‘yicha sezilarli o‘sish kuzatildi. Tajriba guruhi va nazorat guruhi o‘rtasidagi farq quyidagi jadvalda keltirilgan:

| Ko‘rsatkichlar | Dastlabki test (%) | Yakuniy test (%) | O‘sish (%) |
|---|---|---|---|
| Tajriba guruhi | 58 | 86 | +28 |
| Nazorat guruhi | 60 | 67 | +7 |

Shuningdek, talabalar bilan o‘tkazilgan so‘rovnomalarda ularning 84 foizi EAP asosidagi topshiriqlar orqali ilmiy nutq va pragmatik muloqot ko‘nikmalari kuchayganini qayd etishgan. O‘qituvchilar ham bu yondashuv orqali auditoriya bilan til o‘rgatish samaradorligi sezilarli oshganini bildirishgan.

Yuqorida bayon etilgan tahlil va kuzatuvlar asosida xulosa qilish mumkinki, ingliz tilini yo‘nalishi talabalarining ta’lim jarayonida pragmatik kompetensiyani shakllantirish va ilmiy nutqqa yo‘naltirish zamonaviy til o‘rgatishning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bu ikki kompetensiyaning integratsiyasi orqali talabalar nafaqat til bilimdonligi darajasini oshiradi, balki global ilmiy va kasbiy maydonlarda faol va samarali muloqot qila oladigan mutaxassisga aylanishadi.

Pragmatik kompetensiya ularga real hayotiy muloqotda mos til vositalaridan foydalana olish, ijtimoiy-madaniy kontekstda kommunikatsiya yuritish, nutq aktlarini to‘g‘ri tushunish va qo‘llash, shuningdek, madaniyatlararo dialogga tayyor bo‘lish imkonini beradi. Ilmiy nutqqa yo‘naltirish esa ularni dalil asosida fikr bildirish, akademik janrlarda yozish, ma’lumotni tahlil qilish va ommaga taqdim eta olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishiga xizmat qiladi.

Tajribaviy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, EAP komponentlari, akademik diskursga asoslangan topshiriqlar, rolli o‘yinlar, peer-review va tahliliy yozuvlar orqali bu kompetensiyalarni samarali tarzda shakllantirish mumkin. Bunday integratsiyalashgan yondashuv nafaqat til o‘rgatishda sifatli natijalarga olib keladi, balki talabalarning ijtimoiy va professional jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllanishiga ham xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan, oliy ta’lim muassasalarida ingliz tili fani doirasida EAP kurslarini joriy etish, zamonaviy metodik vositalarni tatbiq etish, madaniyatlararo kommunikatsiyaga asoslangan didaktik materiallardan foydalanish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Hyland, Ken. *English for Academic Purposes: An Advanced Resource Book*. Routledge, 2006.
2. Leech, Geoffrey N. *Principles of Pragmatics*. Longman, 1983.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

3. Kasper, Gabriele, and Shoshana Blum-Kulka, editors. *Interlanguage Pragmatics*. Oxford UP, 1993.
4. Swales, John M. *Genre Analysis: English in Academic and Research Settings*. Cambridge UP, 1990.
5. Thomas, Jenny. "Cross-cultural pragmatic failure." *Applied Linguistics*, vol. 4, no. 2, 1983, pp. 91–112.
6. Jo‘rayev, N. “Ilmiy nutq va uni o‘qitish masalalari.” *Til va Adabiyot*, no. 3, 2020, pp. 45–52.
7. Nurullaeva, G. “Akademik yozuv ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar.” *Philology Journal*, no. 2, 2022, pp. 90–98.
8. To‘rayev, G‘. “Tilshunoslikda pragmatik yondashuv asoslari.” *Filologiya fanlari*, no. 1, 2021, pp. 77–83.
9. Xudoyberdiyev, B. “Ingliz tili o‘qitish metodikasida kommunikativ va pragmatik kompetensiyalar uyg‘unligi.” *Pedagogika va psixologiya*, no. 4, 2021, pp. 55–62.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Mustafayeva Nilufar Ulashovna, doktorant** (DSc), Termiz davlat universiteti, **[Мустафаева Нилуфар Улашевна**, докторант (DSc), Термезский государственный **университет], [Nilufar U. Mustafayeva,** Doctoral Candidate (DSc), Termez State University]; manzil: O‘zbekiston, Termiz shahri

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# “TEXNOLOGIYA” FANI ORQALI O‘QUVCHILARDA IXTIROCHILIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

© Q.Sh.Yangiboyeva[1]✉
[1]Termiz davlat pedagogika instituti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: mazkur maqolada “Texnologiya” fanini o‘qitish orqali o‘quvchilarda ixtirochilik ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali metodik yondashuvlari yoritilgan. Ixtirochilik faoliyati va kreativ fikrlash o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik asosida, ta’lim jarayonida TRIZ texnologiyasi, loyiha asosida o‘qitish, muammoli vaziyatlardan foydalanish hamda interaktiv topshiriqlarning o‘rni nazariy va amaliy jihatdan asoslab beriladi. Maqolada shuningdek, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, innovatsion yondashuvi va yangi texnologik yechimlar yaratishga bo‘lgan qobiliyatini shakllantirishda “Texnologiya” fanining imkoniyatlari tahlil qilinadi.

**MAQSAD**: tadqiqotning maqsadi — “Texnologiya” fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda ixtirochilik ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini ochib berish, samarali metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar berishdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR**: tadqiqot jarayonida O‘zbekiston ta’lim tizimida qo‘llanilayotgan davlat ta’lim standartlari, darslik va metodik qo‘llanmalar, shuningdek, xorijiy tajribaga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi. O‘quvchilarning ixtirochilik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan TRIZ metodikasi, loyiha asosida o‘qitish, muammoli vaziyatlar asosida topshiriqlar va interaktiv metodlar qo‘llanildi. Tadqiqot metodlari sifatida kuzatuv, suhbat, tajriba-sinov darslari va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: o‘tkazilgan tajriba-sinov darslari shuni ko‘rsatdiki, TRIZ texnologiyasi va loyiha asosida o‘qitish o‘quvchilarda kreativ fikrlash, muammoga noodatiy yondashish va yangi texnologik g‘oyalarni ilgari surish qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi. Muammoli topshiriqlar o‘quvchilarning mustaqil izlanishini rag‘batlantirdi, guruhli ishlash jarayoni esa hamkorlikda fikrlashni kuchaytirdi. O‘quvchilarda ixtirochilik ko‘nikmalari shakllanishining asosiy belgisi sifatida ular tomonidan yaratilgan yangi yechimlar, loyihalar va kichik texnologik ishlanmalar namoyon bo‘ldi.

**XULOSA:** “texnologiya” fanini o‘qitishda TRIZ texnologiyasi, loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim va interaktiv metodlardan kompleks foydalanish o‘quvchilarda ixtirochilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Bu esa o‘quvchilarni nafaqat nazariy bilimga, balki amaliy faoliyatga tayyorlash, ularni kelajakda innovatsion texnologiyalar yaratuvchisi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion metodik yondashuvlarni keng joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

**Kalit so'zlar**: ixtirochilik ko‘nikmalari, texnologiya fani, kreativ fikrlash, TRIZ, loyiha metodi, muammoli ta’lim, metodik tamoyillar, innovatsion yondashuv.

**Iqtibos uchun**: Yangiboyeva Q.Sh. “Texnologiya” fani orqali o‘quvchilarda ixtirochilik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. B.124–130.

## МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ИЗОБРЕТАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ ЧЕРЕЗ ПРЕПОДАВАНИЕ ПРЕДМЕТА «ТЕХНОЛОГИЯ»

© К.Ш. Янгибоева[1]✉
[1]Термезский государственный педагогический институт, Термез, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: в данной статье освещаются эффективные методические подходы к формированию изобретательских навыков у учащихся через преподавание предмета «Технология». На основе взаимосвязи между изобретательской деятельностью и креативным мышлением теоретически и практически обоснована роль технологий ТРИЗ, проектного обучения, проблемных ситуаций и интерактивных заданий в образовательном процессе. В статье также анализируются возможности предмета «Технология» в формировании у учащихся самостоятельного мышления, инновационного подхода и способности к созданию новых технологических решений.

**ЦЕЛЬ**: цель исследования — раскрыть теоретические основы развития изобретательских навыков у учащихся в процессе преподавания предмета «Технология», разработать эффективные методические подходы и дать научные рекомендации по их внедрению в практику.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в ходе исследования были проанализированы государственные образовательные стандарты, учебники и методические пособия, применяемые в системе образования Узбекистана, а также зарубежный опыт. Использовались методика ТРИЗ, проектное обучение, проблемные ситуации и интерактивные методы. В качестве методов исследования применялись наблюдение, беседа, опытно-экспериментальные занятия и сравнительный анализ.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: экспериментальные занятия показали, что технология ТРИЗ и проектное обучение значительно развивают у учащихся креативное мышление, нестандартный подход к проблемам и способность выдвигать новые технологические идеи. Проблемные задания стимулировали самостоятельный поиск решений, а групповая работа усилила коллективное мышление. Основным показателем формирования изобретательских навыков стали новые решения, проекты и небольшие технологические разработки, созданные учащимися.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: комплексное использование технологии ТРИЗ, проектного обучения, проблемного и интерактивного методов в преподавании предмета «Технология» обладает высокой эффективностью в развитии изобретательских навыков у учащихся. Это способствует подготовке школьников не только к теоретическим знаниям, но и к практической деятельности, формирует их как будущих создателей инновационных технологий. Поэтому внедрение инновационных методических подходов в преподавание технологии является актуальной задачей.

**Ключевые слова**: изобретательские навыки, предмет «Технология», креативное мышление, ТРИЗ, проектный метод, проблемное обучение, методические принципы, инновационный подход.

**Для цитирования**: Янгибоева К.Ш Методика развития изобретательских навыков у учащихся через преподавание предмета «технология». // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. С.124–130.

## METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' INVENTIVE SKILLS THROUGH THE SUBJECT OF "TECHNOLOGY"

© Qunduzoy Sh. Yangiboyeva[1]✉
[1]Termez State University, Termez, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: this article highlights effective methodological approaches to developing students' inventive skills through teaching the subject "Technology." Based on the close relationship between inventive activity and creative thinking, the theoretical and practical significance of TRIZ methodology, project-based learning, problem situations, and interactive tasks in the educational process is substantiated. The article also analyzes the potential of the "Technology" subject in fostering students' independent thinking, innovative approaches, and ability to create new technological solutions.

**AIM:** the purpose of the study is to reveal the theoretical foundations of developing students' inventive skills in the process of teaching "Technology," to design effective methodological approaches, and to provide scientific recommendations for their implementation in practice.

**MATERIALS AND METHODS**: the research analyzed state educational standards, textbooks, and methodological manuals used in Uzbekistan's education system, as well as foreign experiences. TRIZ methodology, project-based learning, problem-based tasks, and interactive methods were applied. Research methods included observation, interviews, experimental lessons, and comparative analysis.

**DISCUSSION AND RESULTS**: experimental lessons demonstrated that TRIZ methodology and project-based learning significantly enhance students' creative thinking, unconventional problem-solving, and ability to generate new technological ideas. Problem-based tasks encouraged independent exploration, while group activities strengthened

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

collaborative thinking. The main indicators of developing inventive skills were students' new solutions, projects, and small-scale technological developments.

**CONCLUSION**: the integrated use of TRIZ methodology, project-based learning, problem-based and interactive teaching methods in the subject "Technology" is highly effective in developing students' inventive skills. This contributes not only to preparing students with theoretical knowledge but also to equipping them with practical competencies, shaping them as future creators of innovative technologies. Therefore, introducing innovative methodological approaches in teaching technology is a pressing educational task.

**Keywords**: inventive skills, Technology subject, creative thinking, TRIZ, project method, problem-based learning, methodological principles, innovative approach.

**For citation**: Qunduzoy Sh. Yangiboyeva. (2025) 'Methodology for developing students' inventive skills through the subject of "technology", Inter education & global study, vol.3 (8), pp.124–130. (In Uzbek).

**B**ugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida o'quvchilarning ijodiy va ixtirochilik qobiliyatlarini shakllantirish masalasi eng muhim yo'nalishlardan biriga aylangan. Dunyo miqyosida xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS va boshqalar) natijalari ta'lim jarayonida nazariy bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini talab qilayotganini ko'rsatmoqda. Shu bois rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning kreativ fikrlashi va innovatsion yondashuvlarini oshiruvchi pedagogik texnologiyalar keng joriy etilmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham 2030-yilgacha xalq ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi va tegishli me'yoriy hujjatlar ijodiy-ta'limiy yondashuvlarni kuchaytirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa boshlang'ich va o'rta ta'lim bosqichlarida mustaqil va kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchilarni yangilikka intilish va ixtirochilikka o'rgatish zarurligi ta'kidlanmoqda.

O'quvchilarda ixtirochilik qobiliyatini rivojlantirish murakkab, ko'p qirrali jarayon bo'lib, unga pedagogik yondashuv kompleks tarzda qurilishi kerak. Shuning uchun, bu jarayonni samarali boshqarish maqsadida, biz tashkiliy-tuzilmaviy modeldan foydalanishni taklif qilmoqdamiz.

Ilmiy adabiyotlarda model tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: "Model – bu real jarayonning soddalashtirilgan, lekin mazmunan to'liq tasviri, uning muhim komponentlari va ular orasidagi aloqalarni ifodalovchi tizimdir" [1, 78]. Pedagogik jarayonni tadqiq etishda modellashtirish metodi keng qo'llaniladi.

Tashkiliy-tuzilmaviy model deganda esa muayyan pedagogik jarayonni boshqarish uchun uning tuzilmasi, bosqichlari va komponentlararo aloqalarni tizimli ravishda ifodalovchi sxemani tushunamiz [2, 35]. Bunda "tashkiliy" termini jarayonni amalga oshirish shakl va usullarini, "tuzilmaviy" termini esa jarayonning ichki tuzilishi (komponentlari)ni ta'kidlaydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Tadqiqot va ilg‘or tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ijodiy faoliyatni samarali shakllantirish uch bosqichda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bizning modelimizda ham jarayon shunday asosiy bosqichlarga bo‘lindi:

*1-bosqich: motivatsiya va tayyorgarlik bosqichi.* Bu boshlang‘ich bosqich bo‘lib, u o‘quvchilarda ijodiy faoliyatga qiziqish uyg‘otish va ularni keyingi bosqichlarga tayyorlash vazifasini bajaradi. Ushbu bosqichda amalga oshiriladigan ishlar:

-motivatsion mashg‘ulotlar: darsning kirish qismida ixtiro va kashfiyotlar haqida qisqa videolar ko‘rsatish, qiziqarli faktlar aytib berish, savol-javob orqali o‘quvchilarning e’tiborini jalb qilish va ularda “Men ham yangilik yarata olaman” degan ishonch va qiziqishni uyg‘otishga sabab bo‘ladi;

-nazariy tayyorgarlik: o‘quvchilarga ixtirochilikka oid kerakli tushunchalarni singdirish. Bu alohida nazariy dars tarzida emas, balki qisqa tushuntirish yoki muloqot shaklida bo‘ladi. Masalan, “Ixtiro nima? Kashfiyot nima? Patent nima? kabi savollar muhokama qilinadi, o‘quvchilarning bilimi faollashtirilib, to‘ldirib boriladi). TRIZ asoslari bilan tanishtirish ham shu bosqichda boshlanishi mumkin – masalan, bir oddiy hayotiy muammo misolida qarama-qarshilikni aniqlash va bartaraf etish usulini ko‘rsatish yaxshi samara beradi.

-Maqsad va vazifalarni anglash: o‘quvchilarga oldinda qanday loyiha yoki ijodiy ish turganini tushuntirish. Ya’ni, har bir dars, har bir chorak, har bir yil davomida ular qanday ijodiy topshiriqlarni bajarishi kerakligi haqida umumiy tasavvur berish. Bu ularni maqsad sari yo‘naltiradi va o‘zlarini loyiha ishtirokchilari sifatida his qilishlariga zamin yaratadi.

-Psixologik muhit yaratish: birinchi bosqichdayoq sinfda erkin va ijodiy muhit shakllantiriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning har qanday g‘oyasini ijobiy qabul qilishini, tanqid qilinmasligini ta’minlaydi. Jamoada ishonchli muhit bo‘lsa, keyingi bosqichlarda o‘quvchilar fikr bildirishdan tortinmaydi.

Ushbu bosqich yakunida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatga nisbatan motivatsiyasi oshadi, yetarli nazariy bilimlar zaxirasi shakllanadi va ular ijodiy topshiriqlarni bajarishga tayyor bo‘lishlari kutiladi.

Tahlillardan ayonlashadiki, yuqoridagi uch bosqich bir-biriga mantiqiy bog‘liq: tayyorgarlik → ijodiy faoliyat → tahlil shaklidagi ketma-ketlikni hosil qiladi. Bunday bosqichli yondashuv o‘quvchilarning qobiliyatini bosqichma-bosqich va izchil rivojlantirishga xizmat qiladi, ularni bir pog‘onadan ikkinchi pog‘onaga ko‘tarib boradi.

Modelning o‘ziga xosligi shundaki, unda yuqorida sanalgan komponentlar (maqsadli, motivatsion, mazmuniy, tashkiliy, diagnostik va h.k.) har bir bosqichda turli ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Boshqacha aytganda, har bir bosqichda model komponentlari o‘ziga xos vazifalarni bajaradi.

Kreativ yondashuvga asoslangan metodika mazmuni, avvalo, o‘quvchilarni turli fanlararo bilimlarni qo‘llagan holda muammolarni hal etishga, kashfiyot va ixtirolar qilishga yo‘naltiruvchi faoliyat turlarini qamrab oladi. Bu yerda nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash, g‘oyalarni generatsiya qilish, texnik ijodkorlik elementlarini sinf faoliyatiga integratsiya qilish kabi jihatlar muhimdir. Masalan, texnologiya darslarida o‘quvchilarga

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

beriladigan topshiriqlarni matematika, fizika, san'at singari boshqa fanlar bilan bog'lab loyiha va masalalar shaklida taqdim etish ularning kreativ tafakkurini rag'batlantiradi. Ilmiy manbalarda qayd etilganidek, "Metodikaning maqsadlari qatoriga har bir o'quvchini o'z qiziqishi va imkoniyatlari doirasida ijodiy faoliyatga jalb etish, ularda mavjud muammolarni yangicha yondashuv bilan ko'ra bilish va samarali yechim topa olish qobiliyatini rivojlantirish kiradi" [3, 35]. Ya'ni kreativ yondashuv nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarning ijodiy salohiyatini ochish va kichik ixtirochilarga xos tafakkurni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Ko'rinadiki, Texnologiya fanida kreativ yondashuvga asoslangan metodikaning bosh maqsadi amaldagi o'quv dasturiga mos holda o'quvchilarga nazariy bilim berish bilan birga, ularni ijodiy faoliyatga jalb etish va kashfiyotchilik ruhini tarbiyalashdir. Bunda har bir o'quvchi o'zini muayyan sohada kashfiyot qiluvchi, yaratuvchi shaxs sifatida sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda o'qituvchi tomonidan yaratiladigan ijodiy muhit muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijodiy muhit – bu o'quvchilarning erkin fikrlashi, qiziqish bilan tadqiq qilishi va yangilik yaratishga intilishi uchun zarur bo'lgan pedagogik muhitdir. Texnologiya darslarida bunday muhitni yaratish uchun avvalo sinfxona va ustaxonalarni tegishli jihozlash lozim: turli materiallar, asbob-uskunalar, konstruktorlar va hatto raqamli texnologiyalar (kompyuterlar, 3D-printer va h.k.)ning mavjudligi o'quvchilarga o'z g'oyalarini amalda sinab ko'rishga sharoit yaratadi. Maker-space tamoyillariga mos ravishda jihozlangan burchaklar (ya'ni o'quvchilarning birgalikda biror mahsulot yaratishi mumkin bo'lgan ijodiy ustaxona burchaklari) Texnologiya fanida juda qo'l keladi. Masalan, dars xonasining bir qismi "konstruktorlik markazi" tarzida tashkil etilib, unda yog'ochsozlik, elektronika yoki robototexnika bo'yicha kichik loyihalar ustida ishlash mumkin. Bunday jismoniy muhit bola tasavvurini boyitadi va ijodiy g'oyalarini moddiy mahsulotga aylantirishga undaydi.

Anglashiladiki, kreativ yondashuv asosidagi metodikani amalga oshirish bir butun tizimni hosil qiladi: puxta reja, faol ijodiy jarayon, tahlil va mustahkamlash.Bu sikl takror-takror qo'llanilib borilsa, o'quvchilarning ixtirochilik qobiliyatlari sezilarli ravishda rivojlanadi. Har bir bosqichda o'quvchi yangi tajriba orttiradi: rejalashni, ijodiy ishlashni, natijasini tahlil qilishni o'rganadi. Eng muhimi o'quvchilar kreativ faoliyatdan zavq olishni o'rganishadi – bu esa umrbod davom etadigan o'rganish istagi va innovatsion dunyoqarash uchun zamin yaratadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Кирсанова О. В. Структурно-организационная модель педагогического процесса: теория и методика // Вестник педагогических исследований. – 2022. – № 6. – С. 75–83.
2. Мурадов Ш. Д. Модели управления учебным процессом: структура и взаимосвязи компонентов // Образование и управление. – 2023. – № 1. – С. 32–40.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

3. Соловьёв В. П. Понятие методики в педагогике — совокупность методов, форм и средств обучения и воспитания // Педагогика фанларининг методикаси» монографияси. – 2021. – С. 1–45.
4. Торранс Э. П. Руководство по тестам креативного мышления (ТТСТ). – М.: Изд-во «Психология и Образование», 2019. – 104 с.

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Yangiboyeva Qunduzoy Shuxratovna,** mustaqil tadqiqotchi, Termiz davlat pedagogika instituti, [**Янгибоева** Кундузой Шухратовна, независимый исследователь, Термезский государственный педагогический институт], **[Qunduzoy Sh. Yangiboyeva,** Independent Researcher, Termez State Pedagogical Institute]; manzil: O'zbekiston, Termiz sh. [адрес: Узбекистан, г. Термез], [address: Uzbekistan, Termez city].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# JADID MAKTABLARI TAJRIBASIDA TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

© O.R. Ortikov[1]✉

[1]Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: mazkur maqolada Jadid maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Unda Turkistonda jadidchilik harakati vakillarining ma'rifatparvarlik yo'lidagi faoliyati, ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar, o'quv jarayonini tashkil etishning shakl, metod va vositalaridagi yangiliklar yoritiladi. Jadid maktablari an'anaviy ta'lim usullaridan farqli ravishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarga asoslangan bo'lib, o'quvchilarda bilim, ko'nikma va dunyoqarashni kengaytirishga xizmat qilgan. Maqolada shuningdek, jadid maktablarining didaktik jarayonni samarali tashkil etishdagi afzalliklari va o'z davrida ilg'or ta'lim tizimini yaratishdagi o'rni ochib beriladi.

**MAQSAD**: jadid maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ularning Turkiston ta'lim taraqqiyotidagi o'rnini ko'rsatib berish.

**MATERIALLAR VA METODLAR**: Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy tahlil, didaktik yondashuv, jadidchilik harakati vakillari asarlari va zamonaviy pedagogika tarixiga oid ilmiy tadqiqotlardan foydalanildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: jadid maktablari an'anaviy ta'limdan farqli ravishda yangi fanlarni kiritdi, yangilangan o'quv dasturlarini joriy etdi va ilg'or metodlardan foydalandi. O'quvchilarda tanqidiy tafakkur, amaliy ko'nikmalar va keng dunyoqarashni shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi. Tadqiqot natijalarida jadid maktablari yangi ta'lim muhiti shakllanishida, ta'limni ijtimoiy va madaniy taraqqiyot vositasi sifatida qarashda muhim o'rin tutgani isbotlandi.

**XULOSA:** jadid maktablari nafaqat an'anaviy ta'lim tizimini yangiladi, balki Turkistonda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning asoschisi sifatida ham tarixda o'z o'rniga ega bo'ldi. Ularning faoliyati ma'rifatparvarlikni rivojlantirish, shaxsni shakllantirish va yoshlarni tez o'zgarayotgan jamiyat sharoitlariga tayyorlashda muhim omil bo'ldi.

**Kalit so'zlar**: jadid maktablari, pedagogik imkoniyatlar, ta'lim islohotlari, zamonaviy pedagogika, didaktik jarayon, ma'rifatparvarlik, ta'lim metodlari, o'quv jarayonini tashkil etish.

**Iqtibos uchun**: Ortikov O.R. Jadid maktablari tajribasida ta'limni tashkil etishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. B.131-141.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

# СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ В ОРГАНИЗАЦИИ ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ ОПЫТА ДЖАДИДСКИХ ШКОЛ

© О.Р. Ортиков[1]✉
[1]Бухарский государственный университет, Бухара, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: в данной статье анализируются педагогические возможности организации учебного процесса в школах джадидов. Рассматривается просветительская деятельность представителей джадидского движения в Туркестане, проведённые реформы в системе образования, новшества в формах, методах и средствах обучения. Школы джадидов, в отличие от традиционных методов образования, основывались на современных педагогических подходах, способствующих расширению знаний, навыков и мировоззрения учащихся. Также в статье раскрываются преимущества школ джадидов в эффективной организации дидактического процесса и их роль в создании передовой системы образования своего времени.

**ЦЕЛЬ**: выявить и проанализировать педагогические особенности и возможности организации учебного процесса в школах джадидов, а также определить их значение для развития образования в Туркестане.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: В исследовании использованы историко-сравнительный метод, дидактический анализ, а также труды представителей джадидского движения и современные научные исследования по истории педагогики.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: Джадидские школы отличались от традиционной системы обучения тем, что вводили новые предметы, обновлённые учебные планы и современные методы преподавания. Особое внимание уделялось развитию у учащихся критического мышления, практических навыков и широты мировоззрения. В ходе анализа установлено, что джадидские школы сыграли важную роль в формировании новой образовательной среды, в которой обучение рассматривалось как средство социального и культурного прогресса.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: Школы джадидов не только модернизировали традиционную систему образования, но и заложили основы современного педагогического подхода в Туркестане. Их деятельность послужила важным фактором в развитии просветительства, формирования личности учащихся и подготовки их к жизни в условиях быстро меняющегося общества.

**Ключевые слова**: школы джадидов, педагогические возможности, образовательные реформы, современная педагогика, дидактический процесс, просветительство, методы обучения, организация учебного процесса школы джадидов, педагогические возможности, образовательные реформы, современная педагогика, дидактический процесс, просветительство, методы обучения, организация учебного процесса школы джадидов, педагогические возможности,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

образовательные реформы, современная педагогика, дидактический процесс, просветительство, методы обучения, организация учебного процесса школы джадидов, педагогические возможности, образовательные реформы, современная педагогика, дидактический процесс, просветительство, методы обучения, организация учебного процесса

**Для цитирования**: Ортиков О.Р. Современные педагогические подходы в организации обучения на основе опыта джадидских школ. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. С.131-141.

## MODERN PEDAGOGICAL APPROACHES TO ORGANIZING EDUCATION IN THE EXPERIENCE OF JADID SCHOOLS

© Oybek R. Ortikov[1]✉
[1]Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: this article analyzes the pedagogical possibilities of organizing the educational process in Jadid schools. It highlights the educational activities of the representatives of the Jadid movement in Turkestan, the reforms carried out in the education system, as well as the innovations in the forms, methods, and tools of teaching. Unlike traditional educational methods, Jadid schools were based on modern pedagogical approaches that contributed to expanding students' knowledge, skills, and worldview. The article also reveals the advantages of Jadid schools in effectively organizing the didactic process and their role in creating an advanced educational system of their time.

**AIM:** to identify and analyze the pedagogical features and opportunities of organizing the educational process in Jadid schools, and to determine their significance for the development of education in Turkestan.

**MATERIALS AND METHODS**: the study employed historical-comparative methods, didactic analysis, as well as the works of representatives of the Jadid movement and modern scholarly research in the history of pedagogy.

**DISCUSSION AND RESULTS**: jadid schools differed from the traditional system of education by introducing new subjects, updated curricula, and modern teaching methods. Particular emphasis was placed on developing students' critical thinking, practical skills, and broad worldview. The analysis showed that Jadid schools played a crucial role in shaping a new educational environment where learning was seen as a means of social and cultural progress.

**CONCLUSION**: jadid schools not only modernized the traditional educational system but also laid the foundation for a modern pedagogical approach in Turkestan. Their activities became an important factor in advancing enlightenment, shaping students' personalities, and preparing them for life in a rapidly changing society.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Keywords**: jadid schools, pedagogical opportunities, educational reforms, modern pedagogy, didactic process, enlightenment, teaching methods, organization of the educational process

**For citation**: Oybek R. Ortikov. (2025) 'Modern pedagogical approaches to organizing education in the experience of jadid schools', Inter education & global study, vol.3 (8), pp.131-141. (In Uzbek).

**B**ugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ta’lim tizimini modernizatsiyalash siyosati, raqamli pedagogika, kompetensiyaviy yondashuv, inklyuziv ta’lim, umrbod o‘qitish tamoyillari ham o‘z ildizlarini jadidlar asos solgan pedagogik merosdan oladi. Shuningdek, o‘qituvchining kasbiy-etika modeli, ta’lim mazmunining yangilanishi, shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan metodikalar – bularning barchasi o‘z vaqtida jadidlar ilgari surgan g‘oyalar va qadriyatlar bilan uzviy bog‘liqdir.

Jadidchilik harakatining asosiy xususiyati shundaki, u diniy islohot bilan birga, ijtimoiy, siyosiy va madaniy yangilanishni ham ko‘zlardi. Bu jihatlari bilan u butun musulmon sharqida, xususan, O‘rta Osiyoda modernizatsiya jarayonining birinchi bosqichi sifatida tarixda muhim iz qoldirdi. Jadidlar faoliyatida “milliy uyg‘onish” g‘oyasi markaziy o‘rin tutgan bo‘lib, ularning harakati keyinchalik Sovet davri, mustaqillik davri va hozirgi zamonaviy O‘zbekiston ta’lim islohotlariga kuchli ta’sir ko‘rsatib, “davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosiga tayanib” [1] ish ko‘rishimizga zamin yaratgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib O‘rta Osiyo xalqlari murakkab tarixiy burilish davriga yuz tutdilar. Bu davr O‘rta Osiyo hududlarining to‘liq tarzda Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, mustamlaka tuzumining qaror topishi, mahalliy boshqaruv tizimining izdan chiqishi va jamiyatda chuqur ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma’naviy inqirozlarning yuzaga kelgani bilan ajralib turadi.

Aynan ana shunday murakkab ijtimoiy-ma’naviy va siyosiy muhitda jadidchilik harakati vujudga keldi. Bu harakat vakillari – ziyoli, ma’rifatparvar, millatparast, ijtimoiy adolat tarafdori bo‘lgan mutafakkirlar – jamiyatni uyg‘otish, yangicha fikrlashni shakllantirish, milliy o‘zlikni anglash, ilm-fan, dunyoviy tafakkur, zamonaviy ta’lim orqali taraqqiyot sari yo‘l ochishni maqsad qilib oldilar.

Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida jadidlar ma’naviy merosining kuchini ta’kidlab, quyidagi fikrni bildiradi: “Behbudiy va Avloniy, Munavvarqori, Fitrat va Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy va Tavallo, Elbek va Botu kabi minglab jadid bobolarimizga yengilmas g‘ayrat-shijoat berdi. Ularning xalq erkinligi va saodati yo‘lidagi ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amallari uchun ulkan ma’naviy omil bo‘ldi” [3,17-b]. Darhaqiqat, jadid ziyolilari o‘zlarining adabiy merosi, pedagogik faoliyati, teatr san’ati, matbuot ishlari hamda yangi usul maktablari orqali xalq ongini yuksaltirishga intildilar. Ular maktab ta’limi mazmunini tubdan yangilab, o‘quv dasturlariga arifmetika, tarix, geografiya,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

tabiatshunoslik, jahon tillari kabi fanlarni joriy etdilar. Bu orqali o‘quvchilarda keng dunyoqarashni shakllantirish, mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va ijtimoiy mas’uliyat hissini tarbiyalashga erishmoqchi bo‘ldilar.

**.** Jadidchilik harakatining zamonaviy ta’siri bugungi kunda ham yaqqol sezilmoqda. Ularning ilmga, ta’limga, madaniyatga va yangilanishga bergan yuksak e’tibori O‘rta Osiyodagi milliy uyg‘onish jarayonlarining poydevorini tashkil etdi. Ular tomonidan tashkil etilgan yangi uslubdagi maktablar, diniy va dunyoviy ta’limning uyg‘unligi orqali joriy etilgan islohotlar jamiyatda intellektual yuksalishni tezlashtirdi, yangi tafakkur egalarini tarbiyaladi.

Bugungi kunda ham jadidlar tomonidan ilgari surilgan tamoyillar — islomiy ma’rifatparvarlik, diniy va dunyoviy bilimlarning uyg‘unligi, ilmga asoslangan taraqqiyot — zamonaviy musulmon jamiyatlarida ma’naviy va ma’rifiy yuksalishning asosiy mezonlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Xususan, XXI asrda bu qadriyatlarning ahamiyati yanada oshdi. Jadidchilik harakatining islomiy ma’rifatparvarlik bilan bog‘lanishi bugungi kunda milliy identifikatsiya, madaniy merosni asrab-avaylash va global dunyo bilan raqobatlasha olish masalalarida asosiy zaruratga aylangan.

Jadidlarning ilmiy-ta’limiy tamoyillari bugungi zamonaviy ta’lim tizimlari, milliy taraqqiyot dasturlari va ijtimoiy islohotlar uchun mustahkam nazariy poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Ularning ilgari surgan g‘oyalari — ilg‘or ta’lim modeli, tafakkur erkinligi, fan va din uyg‘unligi — hali-hanuz dolzarbligicha qolmoqda.

“Jadidchilik” ning asosida “jadid” so‘zi yotadi. “Jadid”ning ma’nosi “yangi” demakdir. U shunchaki “yangi” yo bo‘lmasa, “yangilik tarafdori” degani emas. Balki “yangi tafakkur”, “yangi avlod” singari keng ma’nolarni o‘zida mujassam etgan”[8,5-b].

Amerikalik olim A. Xolid fikricha, “O‘rta Osiyo jadidchiligi bevosita musulmon musulmon modernizimi doiralaridan tashqariga chimagan… Uning ritorik tuzilishi ildizlari O‘rta Osiyoning musulmoncha an’analariga borib taqaladi, shu bois jadidlar o‘z an’analarida islomga tayanganlar…Zamonaviylik islomning asl mazmuniga bog‘lamgan va faqat asrlar davomida paydo bo‘lgan illatlardan tozalangan islom islom musulmonlarning faravonligini ta’minlashi mumkin edi. Jadidlar olamga yangicha nazar bilanqarashga, islomni yangicha tushunishga, musulmon bo‘lishni mani anglatishini uqishga erishganlar”[1].

Shu tariqa, “jadidlar o‘z harakatini diniy ma’rifat bilan bog‘lash orqali Islomning zamonaviy taraqqiyot yo‘lidagi o‘rnini qayta talqin etdilar. Bu yondashuv esa O‘rta Osiyo jamiyati va ta’lim tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi” [4,79-b].

Islomiy ta’lim tizimi asrlar davomida musulmon jamiyatining ma’naviy, ilmiy va madaniy asoslarini shakllantirgan bo‘lsa-da, 19-asr oxiri va 20-asr boshlariga kelib, uning tanazzul jarayoni yaqqol ko‘zga tashlana boshladi. Bu tanazzulning asosiy sabablari — ta’lim mazmunining yangilanmasligi, uslub va metodlarning eskirishi, zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan uzilish va siyosiy bosqinlar bilan chambarchas bog‘liq edi.

[1] Khalid Adeeb. The politic sof Muslim Cultural Reform. Jadidis min Central Asia. Berkley-Los-Angeles-London, 1988.P.113.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Tarixchilar F. Qosimov, D. Alimova, S. A'zamxo'jayev, Q. Rajabov, D. Ziyoyeva, R. Tursunov, L. Muhammadjonova, S. Inoyatov, B. Hasanov, T. Qozoqov, O. Rashidov, I. Naimov va boshqalar tomonidan yozilgan ilmiy asarlarda jadidlarning siyosiy-ma'rifiy faoliyati, milliy ozodlik harakatlari, ta'lim tizimidagi yangiliklari atroflicha yoritildi.

Huquqshunoslar D. Tashkulov, M. Ergasheva, N. Azizov; faylasuflar B. Ergashev, Z. Ahmedova, S. Minavarov; adabiyotshunoslar B. Qosimov, O. Sharofiddinov, N. Karimov, Sirojiddin Ahmad, Sh. Rizayev kabi olimlarning izlanishlari jadidchilik harakatining ijtimoiy, falsafiy va badiiy mazmunini ochib berishga xizmat qilmoqda.

Jadidchilik o'zbek xalqi tarixidagi eng muhim uyg'onish davrlaridan biri bo'lib, u ijtimoiy-ma'rifiy yangilanish, milliy o'zlikni anglash va modernizm tamoyillarining islomiy qadriyatlar bilan uyg'unlashuvi orqali shakllangan. Bugungi kunda ham bu harakatning tamoyillari, ayniqsa, ta'lim, madaniyat va ijtimoiy ongni rivojlantirish borasida dolzarb ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Yangi usul maktablarda dars berish uchun ilg'or fikrli, zamonaviy bilimlarga ega muallimlar kerak bo'ldi. Shu sababli, bir qator jadid ma'rifatparvarlari o'z darsliklarini yozishga kirishdi. Ular orasida Saidrasul Saidazizov ("Us todi avval", 1902), Behbudiy ("Risolai asbobi savod", 1904; "Risolai jug'rofiya umroniy", 1905), Munavvarqori ("Adibi avval", "Adibi soniy", 1907), Abdulla Avloniy ("Birinchi muallim", 1910; "Ikkinchi muallim", 1912) kabi taniqli jadidlar bor edi. Bu darsliklar zamonaviy o'quv qo'llanmalari sifatida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Jadid maktablari, umuman olganda, o'sha davrda Turkiston xalqlarini jaholatdan xalos etish, zamonaviy ilm-fan yutuqlariga yo'naltirish, mustaqil fikrlovchi va ongli shaxslar tarbiyalash borasida muhim tarixiy bosqich bo'lib xizmat qilgan. Bu maktablar orqali o'quvchilar hayotiy muammolarni tushunadigan, mantiqiy fikrlay oladigan, faol fuqarolikka tayyor bo'lgan insonlar bo'lib shakllangan.

Jadidchilik harakati doirasida tashkil etilgan yangi usul maktablari musulmon an'anaviy maktablarining ta'lim tizimi va usullarini tubdan isloh qilishga intildi. Bu maktablar XIX asr oxiri – XX asr boshlarida boshlangan modernizatsiya jarayonining mahsuli bo'lib, o'quvchilarga diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoiy fanlarni ham o'rgatishga qaratilgan edi.

Jadid maktablarida ta'lim mazmuni quyidagi asosiy yo'nalishlarda shakllangan:

Ona tilida va usuli savtiya asosida savod o'rgatish. Yangi usul maktablarida bolalarga savod ona tilida va "usuli savtiya tadrijiya" — ya'ni tovush asosida o'qitish orqali berilgan. Bu usul Ismoilbek Gasprinskiy tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, o'quvchilarning harf va so'zlarni tushunib, tovush bo'yicha o'rganishiga asoslangan edi. Bu yondashuv an'anaviy yodlash va tushunmasdan o'rganish usullaridan mutlaqo farq qilardi.

Yangi fanlarning joriy etilishi. An'anaviy maktablarda faqatgina diniy bilimlar (Qur'on, fiqh, sarf, nahv) o'rgatilgan bo'lsa, jadid maktablarida:

a) Matematika (hisob)
b) Tabiatshunoslik
c) Geografiya (xaritalar va globuslar bilan)
d) Tarix

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

e) Ona tili va adabiyot kabi dunyoiy fanlar ham dasturga kiritilgan. Bu esa bolalarni hayotga, kasb-hunar va ijtimoiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qilgan.

Ko‘rgazmali qurollar va darsliklar. Jadid maktablarida o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash uchun ko‘rgazmali vositalar — xaritalar, globuslar, rasmlar va boshqa didaktik materiallar qo‘llangan. Bu ilgari maktab ta’limida mavjud bo‘lmagan innovatsion yondashuv edi.

Bosqichli ta’lim tizimi. Dastlabki yillarda jadid maktablari 1–4 sinflik boshlang‘ich maktablardan iborat bo‘lgan. 1913/14-o‘quv yilidan boshlab ba’zi hududlarda ikki bosqichli ta’lim tizimi joriy qilina boshlandi:

1-bosqich – tahziriy sinflar (boshlang‘ich daraja)

2-bosqich – rushdiy sinflar (yuqori daraja, 5–6 sinf)

Bu tizim M. Abdurashidxonov, A. Shukuriy, A. Ibodiyev kabi jadidlarning namuna maktablarida amaliyotga tatbiq etilgan.

Sinfda dars berish usulining joriy etilishi. Jadid maktablari an’anaviy yakka tartibdagi ta’limdan farqli ravishda, bir guruh (sinf) o‘quvchilarga bir vaqtda dars o‘tiladigan zamonaviy uslubga o‘tdi. Bu usul orqali o‘qituvchining vaqtini samarali ishlatish va o‘quvchilarda muloqot hamda jamoaviy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish imkoni tug‘ildi.

Yangi usul maktablarida ta’lim mazmuni faqat fanlarga cheklanmasdan, yosh avlodda vatanparvarlik, milliy o‘zlikni anglash, taraqqiyot va zamonaviy dunyo bilan hamnafas bo‘lish g‘oyalarini ham targ‘ib qilar edi. Bu g‘oyalar orqali mustamlakachilik zulmiga qarshi ma’naviy qarshilik ruhiy asosga ega bo‘ldi.

Jadid maktablarida ta’lim mazmuni o‘z davri uchun ilg‘or bo‘lib, yosh avlodni ilm-fan, texnika va ma’rifat asosida tarbiyalashga qaratilgan edi. Bu maktablar orqali Turkiston jamiyatida yangicha tafakkur, zamonaviy bilimlar va ma’naviy uyg‘onish tamoyillari shakllanib bordi.

Jadid maktablarida ta’lim mazmunining asosiy xususiyatlari:

1. Dunyoiy fanlarning joriy etilishi. Jadid maktablarida diniy ta’lim bilan bir qatorda arifmetika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik, grammatikaga oid bilimlar ham o‘rgatilgan. Bu o‘quv dasturi o‘quvchilarni faqat diniy emas, balki dunyoviy bilimlar bilan ham qurollantirishni maqsad qilgan.

2. Yozuv va savodxonlikni o‘rgatishga e’tibor. Eski usulda faqatgina Qur’onni yodlashga urg‘u berilgan bo‘lsa, jadid maktablarida o‘qish va yozishni o‘rgatish, imlo va grammatikani tushuntirish asosiy vazifa sifatida qaralgan.

3. O‘quv adabiyotlarining yangiligi. Jadidlar tomonidan o‘zbek tilida zamonaviy darsliklar yaratildi (masalan, Munavvarqori Abdurashidxonovning “Adibi soniy” darsligi). Bu darsliklar o‘quvchilarning yoshiga mos, tushunarli va hayotiy misollar bilan boyitilgan edi.

4. Ilmiy yondashuv va metodika. Jadid maktablarida ta’lim usullari yangicha, ya’ni tushuntirish, savol-javob, o‘qituvchi bilan muloqot asosida olib borilgan. Bu an’anaviy maktablardagi yod olish va kaltak bilan tarbiya berishga asoslangan metodikaga zid edi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

5. Vatanparvarlik va ma’rifatparvarlik ruhini shakllantirish. O‘quvchilar ongiga Vatan, xalq, taraqqiyot, birlik kabi g‘oyalar singdirilgan. Bu orqali yangi, zamonaviy fikrlaydigan, millatga foydali bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalash ko‘zlangan.

6. Milliy va diniy qadriyatlar uyg‘unligi. Ta’lim mazmuni diniy asoslardan butunlay voz kechmagan, aksincha, uni zamonaviy ilm bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilingan. Bu esa islomiy qadriyatlar va yangi dunyoqarash orasida muvozanatni saqlashga xizmat qilgan.

Yangi usul maktablari dastlab mustaqil tashabbuslar asosida tashkil topgan bo‘lib, ular uchun alohida binolar qurilmagan. Ko‘pchilik hollarda maktablar xususiy uylar, bo‘sh turgan xonadonlar yoki o‘qituvchilarning o‘z hovlilarida joylashtirilgan. Bu maktablarning mavjudligi hukumat tomonidan rasmiy qo‘llab-quvvatlanmagan, hatto ularning faoliyati ko‘plab to‘siqlarga duch kelgan.

Yangi usul maktablarining yagona markaziy o‘quv dasturi yoki rasmiy tasdiqlangan rejasi bo‘lmagan. Har bir maktabda darslar o‘sha ta’lim muassasasi rahbari va muallimlar tomonidan tuzilgan mahalliy dastur asosida olib borilgan. Masalan, Samarqanddagi maktabda Abduqodir Shukuriy o‘z maktabi uchun ikki bosqichli o‘quv rejasini Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan birgalikda tuzgan.

Bu maktablarda diniy ta’lim bilan birga dunyoviy fanlarga ham katta e’tibor qaratilgan. O‘quv dasturiga Qur’oni karim asoslari bilan birga:

alifbe va savod o‘rgatish (“Usuli savtiya” asosida),

fizika, kimyo, geometriya, arifmetika,

geografiya,

rus tili (ayrim 4-sinfdan boshlab) kiritilgan. Rus tili bo‘yicha imtihonlar Toshkentdagi rus-tuzem maktablarida topshirilgan va natijalar 5 ballik tizim asosida baholangan.

Yuqori sinflar uchun zarur bo‘lgan fanlar bo‘yicha o‘zbek tilida darsliklar mavjud bo‘lmaganligi sababli, o‘qituvchilar tatar yoki turk tillarida nashr etilgan qo‘llanmalardan foydalanishga majbur bo‘lgan. Shuningdek, ilg‘or muallimlar o‘zlari o‘quv qo‘llanmalari yaratib, ularni dars jarayonida qo‘llaganlar. Masalan:

1. Saidrasul Saidazizov – *“Us todi avval”* (1902),
2. Mahmudxo‘ja Behbudiy – *“Risolai asbobi savod”* (1904), *“Risolai jug‘rofiya umroniy”* (1905),
3. Munavvarqori Abdurashidxonov – *“Adibi avval”, “Adibi soniy”* (1907),
4. Abdulvohid Burhonov – *“Rahbari xat”* (1908),
5. Abdulla Avloniy – *“Birinchi muallim”* (1910), *“Ikkinchi muallim”* (1912),
6. Rustambek Yusufbek o‘g‘li – *“Ta’limi avval”*,
7. A. Ibodiyev – *“Tahsilul alifbo”* kabi darsliklarni yozgan.

Maktablar davlat tomonidan moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlanmagan. Ular bolalarning ota-onalaridan yig‘iladigan mablag‘lar hisobidan faoliyat yuritgan va muallimlarga maosh ham shu manba asosida to‘langan. O‘quv yili yakunida, odatda may oyida, imtihonlar o‘tkazilgan. Bu tadbirlarda ota-onalar va mehmonlar ishtirok etgan, o‘quvchilar Qur’on suralarini yod aytish, o‘qish, yozish, hisob-kitobdagi 4 amalni bajarish kabi bilim va ko‘nikmalarini namoyish qilgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Yangi usul maktablari zamonaviy o‘zbek milliy maktablarining ilk bosqichi bo‘lib, ularning ta’limiy tajribasi asosida “Turkcha qoida”, “Imlo” kabi ilk grammatik qo‘llanmalar ham yaratilgan. 1918-yilga kelib, O‘zbekiston hududida jami 104 ta yangi usul maktabi mavjud bo‘lib, ularda 10 343 nafar o‘quvchi tahsil olgan. 1918/19 o‘quv yilidan boshlab bu maktablar davlat ta’lim tizimiga birlashtirilib, xalq maktablari deb nomlana boshlagan.

Shahar maktablarida o‘quvchilar soni odatda 20–30 nafarga, qishloq maktablarida esa 10–15 nafarga yetar edi. Bolalar 6 yoshdan boshlab o‘qishga qabul qilinar, o‘quv davomiyligi esa ularning o‘zlashtirish darajasiga qarab, 17–18 yoshgacha cho‘zilardi.

Ta’lim bosqichlari an’anaviy tarzda amalga oshirilgan bo‘lib, dastlab o‘quvchilar "Haftiyak" deb ataluvchi savod o‘rgatuvchi darslik asosida o‘qishga kirishar, undan so‘ng Qur’on suralari yodlatilgan. Keyingi bosqichda esa “Chor kitob” deb ataluvchi diniy-ma’rifiy to‘plam asosida ta’lim berilgan.

“Chor kitob” quyidagi to‘rt bo‘limdan iborat edi:

1. Birinchi bo‘lim – Allohning ismlari, din asoslari, tahorat va namoz kabi ibodat amallarining bayoni;
2. Ikkinchi bo‘lim – iymon, e’tiqod va aqidaviy masalalarni tushuntirish;
3. Uchinchi bo‘lim – payg‘ambar hadis va rivoyatlari;
4. To‘rtinchi bo‘lim – o‘zbek va sharq adabiyotining mumtoz namunalari: mashhur shoirlarning she’rlari, g‘azallari o‘qitilgan.

Bu maktablarda asosan badavlat oilalar farzandlari tahsil olgan. Ular maktabni tamomlagach, o‘z bilimlarini amalda – savdo-sotiq, hunarmandchilik kabi sohalarda qo‘llaganlar. Ba'zilari esa yozuv san’atini egallab, xattotlik bilan shug‘ullangan, boshqalari madrasalarda tahsilni davom ettirgan.

Madrasalarda esa ta’lim chuqurroq diniy-ilmiy yo‘nalishda olib borilgan. Unda diniy falsafa, musulmon huquqi (fiqh), arab tili grammatikasi, mantiq, tafsir va hadis ilmlari o‘rgatilgan. Madrasaning o‘quv dasturlari vaqt, joy va ijtimoiy ehtiyojga qarab o‘zgarib turgan. “Madrasa uch bolimdan iborat bolgan: birinchi bo‘limda musulmon diniy aqidalari bayon qilingan kitob - arab tili va qonunchilik orgatilardi. Bu bolim talabasi 9-10 yil o‘qigan.

Ikkinchi bo‘limda qonunchilik, ilohiyot, mushkulot, mantiq, arab tih grammatikasi, notiqlik mahorati, kalom o‘qitilgan. Unda 7-8 yil o‘qishgan.

Uchinchi bo‘hmda ilohiyot, qonunchilik, kalom o‘qitilgan. Qonunchilik kursida geografiya va arifmetikadan ba’zi ma’lumotlar berilgan. Madrasani tamomlab chiqqanlar imomlik bilan shug4illanish va qozixonalarda ishlash huquqiga ega bo‘lar edi. Maktab va madrasalarda asosan o‘g‘il bolalar o‘qitilardi. Shaharlardagi diniy maktablarda ba’zi domlalaming xotinlari

- otinoyilar qizlarni o‘qitish bilan shug‘ullanardilar. Maktab va madrasalarda dars o‘zbek, arab va fors tillarida ohb borilardi.

Musulmon maktablarida ta’hm sistemasi 5 toifaga bo‘lingan edi.

Quyi maktab - bu maktablarda o‘g‘il bolalarga savod o‘rgatishgan(4 yil).

Halilxona maktabi - (namoz) yod oldirib o‘rgatilgan.

Qorixona - Qur’on yod olingan.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Madrasa.

Maktab-internat - o‘rta madrasa. Bu maktabda ham diniy, ham dunyoviy fanlar o‘qitihb, o‘rta ma’lumot berilgan”[6, 181-b].

Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, “mahalliy an’anaviy maktab va madrasalar asrlar davomida o‘z zimmasiga yuklatilgan muhim vazifani muvaffaqiyatli bajargan. Aynan shu maskanlarda inson aql-zakovati qanday buyuk iqtidor va mo‘’jizalarga qodir ekanini ko‘rsatgan allomalar yetishib chiqqan.

Darslar og‘zaki va yozma mashqlar, savol-javob, ifodali o‘qish asosida olib borilgan. O‘qituvchi erkin metodikani qo‘llagan, ya’ni zamonaviy psixologiya yoki pedagogikaga asoslangan yondashuvlar bilan ishlagan. Jadid maktablarida an’anaviy madrasaviy ta’limdan farqli o‘laroq, rejalashtirilgan, tizimli va amaliy bilimlarga asoslangan o‘quv dasturlari mavjud bo‘lgan, ammo ular markazlashmagan, har bir muallim yoki maktab asoschisi tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan. Darsliklar o‘quv rejalari vazifasini bajargan.

Jadid maktablari o‘z davrida an’anaviy maktablar (eski usul maktablar)dan tubdan farq qilgan bo‘lib, ular yangicha yondashuvlar, ilmiy asoslangan metodlar va ma’rifatparvarlik g‘oyalari asosida faoliyat yuritgan. Quyida ularning asosiy qoidalari va prinsiplari bayon etiladi. Yoshga mos va bosqichli ta’lim, o‘quvchilar yoshi va tayyorgarligi hisobga olingan. Boshlang‘ich, o‘rta va ba’zida yuqori bosqichli darslar ajratilgan. O‘quvchilar darajasi va yoshi bo‘yicha sinflarga ajratilgan. Bu metod eski usulda yo‘q edi.

Yozma va og‘zaki savodxonlikni rivojlantirishga e’tibor berilgan. Harflarni tanish, so‘z va gap tuzish, matn o‘qish va yozish mashqlari asosida savod o‘rgatish. Ilmiy asoslangan darslar tashkil etilib, hisob, tabiiyot, geografiya, tarix kabi darslar kiritilgan. Diniy bilimlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlarga e’tibor qaratilgan.

Darsliklar asosida ta’lim tashkil etilib, Maxsus yozilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalar asosida ta’lim berilgan. O‘quv intizomi va madaniyatiga amal qilinib, darsga o‘z vaqtida kelish, tartibda o‘tirish, o‘qituvchiga hurmat, darsga tayyor kelish kabi qoidalar joriy qilingan.

Jadid maktablarining shakllanishiga olib kelgan tarixiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ma’naviy va diniy-ma’rifiy shart-sharoitlar monografiyaning birinchi fasliga kiritilgan va tahlil qilindi. Xususan, bu davrda mavjud bo‘lgan qadimiy maktablar va madrasa tizimi yangilanmaganligi, ta’limning amaliy hayotdan uzilib qolganligi, darslik va metodikalar eskirganligi sababli ta’lim tizimida islohotlar o‘tkazish zarurati keskin sezildi. Jadidlar bu borada milliy g‘oya va dunyoviy bilimlarni uyg‘unlashtirishga intildilar.

Jadid maktablarining pedagogik asoslari, o‘ziga xos ta’lim mazmuni, metodlari va vositalari atroflicha yoritildi. Jadid pedagoglari ta’limda milliy ruh, madaniyat, axloqiy tarbiya, dunyoviy fanlar, chet tillari, tabiatshunoslik va texnika asoslarini joriy etishga alohida e’tibor qaratganlar. Darsliklar milliy ehtiyoj va zamonaviy pedagogik tamoyillar asosida ishlab chiqilgan. Shuningdek, jadid pedagoglari ta’limning interfaol metodlari, tahliliy fikrlashni rivojlantirishga asoslangan yondashuvlarni ilgari surganlar.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Jadidlar g‘oyalari Yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan hamohangdir. // Xalq so‘zi, 2023 yil 22 dekabr.
3. Mirziyoyev Sh.M. Jadidlar – milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari. // Xalqaro konferensiya nutqi, 11-dekabr 2023.
4. Alimova D. Jadidchilik fenomeni. – Toshkent: Akadem nashr, 2022.
5. Dolimov U. Jadid maktablari: Ularda ona tili va adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslari. (DSc dissertatsiyasi). – Toshkent, 2008.
6. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi: Darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005
7. Jamolova D.M. Buxoro amirligida jadidlar va qadimchilar faoliyati. (PhD dissertatsiyasi avtoreferati). – Toshkent, 2019.
8. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: Jasorat, ma’rifat, fidoiylik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
9. Zunnunov H. O‘zbek maktablarining shakllanish tarixidan. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Ortikov Oybek Rustamovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), “Pedagogika” kafedrasi, Buxoro davlat universiteti, **[Ортиков Ойбек Рустамович,** доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, кафедра «Педагогика», Бухарский государственный университет], **[Oybek R. Ortikov,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Department of Pedagogy, Bukhara State University ]; manzil: O‘zbekiston, Buxoro shahri [адрес: Узбекистан, г.Бухара ], [address: Uzbekistan, Bukhara city];

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# JALOLIDDIN RUMIYNING “MASNAVIYI MA’NAVIY” ASARIDA AQLIY TARBIYAGA OID QARASHLARNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

© O.Sh Usmonova[1]✉

[1]Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: maqolada mutasavvuf alloma Jaloliddin Rumiyning nodir asari “Masnaviyi ma’naviy”da aqliy tarbiyaga oid g’oyalar, mulohazalar keltirilgan bo’lib, didaktik jihatdan tahlil qilingan. Aqliy tarbiyani yosh avlodning barkamol shaxs bo’lib voyaga yetishi uchun nechog’lik ahamiyatli ekanligi xususida mushohada qilingan. Rumiy tomonidan ilgari surilgan aqliy tarbiyaga oid qarashlarning o’ziga xos xususiyatlari keltirib o’tilgan.

**MAQSAD**: Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” asarida aks etgan aqliy tarbiyaga oid qarashlarni tahlil qilish, ularning zamonaviy pedagogika va shaxs kamolotidagi ahamiyatini ko‘rsatib berish.

**MATERIALLAR VA METODLAR**: tadqiqotda Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” asari asosiy manba sifatida olingan. Qiyosiy-tahliliy usul, tarixiy yondashuv, didaktik tahlil va tafsir metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, tasavvufshunos olimlarning asarlari ham qo‘llanildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: Rumiy o‘z asarlarida aqliy tarbiyani nafaqat bilim olish, balki inson qalbini nuroniylashtirish vositasi sifatida ko‘rsatadi. Uningcha, aql insonni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi ichki nurdir. “Masnaviyi ma’naviy”da aql orqali insonning tanqidiy fikrlashi, o‘zini anglash, hayotiy muammolarga mustaqil yechim topa olish qobiliyati ta’kidlanadi. Shu bilan birga, Rumiy aqliy tarbiyani ruhiy va axloqiy tarbiya bilan uyg‘unlikda ko‘radi. Tadqiqot natijalarida Rumiy qarashlarining bugungi ta’lim-tarbiya jarayonida ham dolzarbligi isbotlandi.

**XULOSA:** Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” asarida ilgari surilgan aqliy tarbiya haqidagi qarashlari yoshlarni barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishda muhim manba hisoblanadi. Bu qarashlar o‘quvchilarda tanqidiy va mantiqiy tafakkurni shakllantirish, mustaqil qaror qabul qilish, ruhiy va axloqiy barkamollikka erishishda katta ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar**: aqliy tarbiya, masnaviy, barkamol shaxs g’oyasi, tanqidiy fikrlash, ko’nikma, tasavvufiy timsollar

**Iqtibos uchun**: Usmonova O.Sh. jaloliddin rumiyning “masnaviyi ma’naviy” asarida aqliy tarbiyaga oid qarashlarning o’ziga xos xususiyatlari. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. B.142–148.

## ОСОБЕННОСТИ ВЗГЛЯДОВ НА УМСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ДЖАЛОЛИДДИНА РУМИ “МАСНАВИЙИ МАЪНАВИЙ”

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

© О.Ш. Усмонова[1]✉
[1]Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: в статье рассмотрены идеи и размышления, связанные с умственным воспитанием, изложенные в уникальном труде великого суфийского мыслителя Джалолиддина Руми «Маснавийи маънавий». Они подвергнуты дидактическому анализу. Освещено значение умственного воспитания в формировании гармоничной личности молодого поколения. Отмечены специфические особенности взглядов Руми на умственное воспитание.

**ЦЕЛЬ**: в статье рассмотрены идеи и размышления, связанные с умственным воспитанием, изложенные в уникальном труде великого суфийского мыслителя Джалолиддина Руми «Маснавийи маънавий». Они подвергнуты дидактическому анализу. Освещено значение умственного воспитания в формировании гармоничной личности молодого поколения. Отмечены специфические особенности взглядов Руми на умственное воспитание.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: основным источником исследования послужило произведение Джалолиддина Руми «Маснавийи маънавий». Использовались сравнительно-аналитический метод, исторический подход, дидактический анализ и метод толкования. Дополнительно применялись труды учёных-суфиев.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: в своих произведениях Руми показывает умственное воспитание не только как процесс приобретения знаний, но и как средство просветления человеческой души. По его мнению, разум — это внутренний свет, указывающий человеку правильный путь. В «Маснавийи маънавий» подчёркивается, что разум помогает формировать критическое мышление, самосознание и способность самостоятельно находить решения жизненных проблем. Кроме того, Руми рассматривает умственное воспитание в единстве с духовным и нравственным воспитанием. Результаты исследования подтверждают актуальность взглядов Руми для современного образовательного процесса.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: взгляды Джалолиддина Руми на умственное воспитание, отражённые в «Маснавийи маънавий», являются важным источником для формирования гармоничной личности. Эти идеи способствуют развитию у учащихся критического и логического мышления, навыков самостоятельного принятия решений, а также достижению духовной и нравственной зрелости.

**Ключевые слова**: умственное воспитание, маснави, идея гармоничной личности, критическое мышление, навык, суфийские символы

**Для цитирования**: Усмонова О.Ш. Особенности взглядов на умственное воспитание в произведении Джалолиддина Руми “Маснавийи маънавий”. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. С.142–148.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

# ENGLISH: DISTINCTIVE FEATURES OF VIEWS ON INTELLECTUAL EDUCATION IN JALALUDDIN RUMI'S WORK "MASNAVI-YI MA'NAVI"

© Oydin Sh. Usmonova[1]✉
[1]Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: this article examines the ideas and reflections on intellectual education presented in the unique work of the great Sufi scholar Jalaluddin Rumi, *Masnavi-ye Ma'navi*, with a didactic analysis. The importance of intellectual education in shaping a well-rounded personality of the younger generation is discussed. The distinctive features of Rumi's views on intellectual upbringing are highlighted.

**AIM:** to analyze the concepts of intellectual education reflected in Jalaluddin Rumi's *Masnavi-ye Ma'navi* and to demonstrate their significance in modern pedagogy and personality development.

**MATERIALS AND METHODS**: the main source of the study was Jalaluddin Rumi's *Masnavi-ye Ma'navi*. Comparative-analytical methods, historical approach, didactic analysis, and interpretative methodology were employed. Additionally, works of Sufi scholars were used.

**DISCUSSION AND RESULTS**: in his works, Rumi presents intellectual education not only as the acquisition of knowledge but also as a means of enlightening the human soul. According to him, reason is an inner light that guides a person toward the right path. In Masnavi-ye Ma'navi, it is emphasized that through intellect, individuals develop critical thinking, self-awareness, and the ability to independently solve life's problems. Moreover, Rumi views intellectual education in harmony with spiritual and moral upbringing. The study results confirm that Rumi's views remain highly relevant in today's educational process.

**CONCLUSION**: Jalaluddin Rumi's perspectives on intellectual education, as presented in Masnavi-ye Ma'navi, serve as an important source for nurturing a well-rounded individual. These ideas foster the development of critical and logical thinking, independent decision-making skills, and contribute to achieving spiritual and moral maturity.

**Keywords**: intellectual education, Masnavi, idea of a well-rounded personality, critical thinking, skill, Sufi symbols

**For citation**: Oydin Sh. Usmonova. (2025) 'Distinctive Features of Views on Intellectual Education in Jalaluddin Rumi's Work "Masnavi-yi Ma'navi"', Inter education & global study, vol.3 (8), pp.142–148. (In Uzbek).

Inson kamolotining asosiy tayanchlaridan biri bo'lgan aqliy tarbiya qadimdan Sharq mutafakkirlarining ilmiy, falsafiy va axloqiy qarashlarida muhim o'rin tutib kelgan. Ayniqsa, tasavvuf va axloqiy-ma'naviy ta'limotlar asosida shakllangan yondashuvlar orqali aql,


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

tafakkur va qalb uyg‘unligi masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Bu borada buyuk fors mutasavvufi Jaloliddin Rumiy (1207–1273)ning boy ilmiy-ma’naviy merosi, xususan, uning olti jildlik masnaviy tarzida yozilgan – Masnaviyi ma’naviy asari alohida ahamiyatga ega. *Masnaviy* nafaqat diniy, axloqiy va tasavvufiy g‘oyalarni mujassam etgan manba, balki inson aqlini ravshanlashtirish, tafakkurni tozalash, idrokni yuksaltirish orqali ma’naviy yetuklik sari yo‘l ko‘rsatuvchi badiiy-falsafiy asardir. Rumiy aqlni nafaqat ilm olish vositasi, balki qalbni tarbiyalash, haqiqatga yetishish, ichki poklanish va Allohga yaqinlashishning muhim omili sifatida talqin etadi. Ayniqsa, asarda keltirilgan hikoyatlar, ramziy obrazlar va didaktik yo‘sindagi baytlar orqali aqliy tarbiya masalalariga chuqur yondashuv ko‘zga tashlanadi. Mazkur maqolada Jaloliddin Rumiy asarlarida, xususan, Masnaviyi ma’naviy dostonida ilgari surilgan aqliy tarbiyaga oid qarashlar, ularning pedagogik va axloqiy jihatlari, shuningdek, zamonaviy tarbiya jarayonidagi dolzarbligi tahlil qilinadi. Bu orqali Rumiy merosining hozirgi zamon ma’naviy-ma’rifiy hayotidagi o‘rni va ahamiyatini chuqurroq anglashga harakat qilinadi.

Jaloliddin Rumiy ijodi, xususan, Masnaviy asari ustida olib borilgan ilmiy izlanishlar ko‘plab yurtlarda, jumladan O‘zbekiston, Eron, Turkiya, Rossiya va G‘arb mamlakatlarida ham faol davom ettirilmoqda. Bu tadqiqotlar Rumiy tafakkurining tasavvufiy, falsafiy va axloqiy jihatlarini yoritishga qaratilgan bo‘lib, aqliy tarbiya masalasi ham ushbu yo‘nalishlar doirasida tahlil etiladi. Jaloliddin Rumiyning *Masnaviyi ma’naviy* asari ko‘p asrlar davomida turli xalqlarning adabiy, falsafiy, diniy va pedagogik tafakkurida chuqur iz qoldirgan. Asar Sharq va G‘arb olimlari tomonidan keng o‘rganilgan bo‘lib, ularning har biri Rumiyda aql va qalb, tafakkur va taslim bo‘lish, anglash va kamolga erishish o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni o‘z tadqiqot mezonlari orqali talqin qilgan. G‘arb olimlar ichida Rumiy ijodining eng nufuzli tadqiqotchilaridan biri bu – angliyalik olim Reynold Alleyne Nicholson**.** U *Masnaviy* asarini ingliz tiliga to‘liq tarjima qilib, har bir baytga izoh va sharhlar bergan. Nicholson uchun Rumiy tafakkuri ruhiy kamolot yo‘li sifatida qiziq bo‘lgan. Unga ko‘ra, Rumiyda “aql” bu – ruhiy yo‘lning yo‘lboshchisi, ammo faqatgina “sof aql” emas, balki “ilohiy nurlangan aql” (divine intellect) muhim ahamiyat kasb etadi. Nicholsonning ilmiy yondashuvi Rumiydagi aqliy tarbiya g‘oyalarining G‘arb psixologiyasi va ma’naviyati bilan uyg‘unligini ko’rsatgan. Chikagolik olim Franklin Lewis o‘zining *“Rumi: Past and Present, East and West”*[1] (2000) asarida Masnaviydagi hikmatli hikoyalar orqali aqlni tarbiyalash va fikrni chuqurlashtirish mexanizmini ko‘rsatadi. U Masnaviyda aql bilan emas, ruh bilan anglanadigan haqiqat borligini tushuntiradi. Sebastian Günther esa o‘z maqolalarida Rumiyning fikrlash madaniyatiga bo‘lgan yondashuvini islom falsafiy tafakkurining rivojlanishida muhim omil sifatida baholaydi[2]. Unga ko‘ra, Rumiy aqlni faqat ilmiy idrok emas, balki ijtimoiy, axloqiy va ilohiy muvozanatga erishish vositasi sifatida ko‘radi. Adabiy manbalarda Rumiy qarashlarining o‘ziga xosligi shundaki, u aqlni rasionallik bilan

[1] Lewis, F. D. (2000). Rumi: Past and present, East and West: The life, teaching and poetry of Jalâl al-Din Rumi. Oxford: Oneworld Publications.

[2] Günther, S. (2005). Knowledge and Education in Classical Islam: Religious Learning between Continuity and Change. In: G. Endress & R. Gutas (Eds.), Rationality in Islamic Philosophy and Theology (pp. 213–247). Leiden: Brill.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

cheklamaydi, balki uni yurak, ruh va ilohiy idrok bilan uyg‘unlikda talqin qiladi. Bu esa “Masnaviyi ma’naviy”ni nafaqat diniy yoki badiiy asar, balki chuqur tarbiyaviy-falsafiy risola sifatida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

“Juz’iy aql (ya’ni, dunyoviy aql) haqiqiy aqlni badnom qildi,
Dunyo zavqi esa insonni rozi qilmay qo‘ydi”.

Ma’nosi: Bu baytda Rumiy “juz’iy aql” - ya’ni faqat dunyo manfaatlariga xizmat qiladigan aqlni tanqid qiladi. Uning fikricha, haqiqiy aql bu ilohiy maqsadga eltuvchi, ruhiy kamolot sari yetaklovchi aqldir. Aqlni tarbiyalash degani — uni qalb bilan uyg‘unlashtirish, nafsdan tozalashdir. Aql tarbiyasida ham avvalo shu xususiyatga katta e’tibor qarartish kerak.

Aql aytadi: “Bu yomon, bu yaxshi, shuni ko‘r!”
Ishq aytadi: “Men har ikki yo‘lga qurbonman!”

Ma’nosi: Bu yerda Rumiy aql va ishqni qarama-qarshi qo‘yadi. Aql odamni ehtiyotlikka, farqlashga undasa, ishq butunlay fidoyilikka chaqiradi. Biroq bu qarama-qarshilik emas - balki aql tarbiyasi ishq bilan uyg‘unlashganda komillikka yetadi, degan ruhiy-axloqiy g‘oya yotadi.

“Ilm egasining har bir so‘zi tortilgan, har bir fikri yo‘l ko‘rsatgichdir”.

Fikr egasi bo‘lish, tafakkur bilan yashash kishini boshqalarga yo‘l ko‘rsatuvchi yetakchiga aylantiradi. Ilmli insonda aql tarbiyasi yuqori darajada bo’ladi. Qachonki aql bilan axloq tarbiyalangan bo’lsa, kishi olim bo’ladi. Aql tarbiyasida ham axloqiy, ma’naviy tarbiya bilan uyg’un bo’lsagina shaxs komillikka erishadi.

“Aqlni haqiqiy aql deb o‘ylama, uni haqiqatga eltuvchi vosita deb bil”.

Mutafakkirning fikricha, haqiqatni ko’radigan ko’z, his etadigan qalb bo’lsagina kishi oqil bo’ladi. Aql haqiqatga erishish uchun bir vosita deyilishining ham asl mohiyati shundan iborat.

“Aqlim meni qutqardi deb o‘ylama, aksincha, u meni ko‘p yo‘ldan ozdirdi.”

Asardagi ayni shu g’oya juda ko’plab muhokamalarga sabab bo’lgan. Mohiyatan olib qaraydigan bo’lsak, aqldan to’g’ri foydalanmaslik, g’araz va befoyda ishlar uchun qo’llash, insonlarga nafi tegmaydigan, jamiyatni rivojlanishi uchun o’z hissasini qo’shmaydigan, ezgulikka xizmat qilmaydigan aql chinakam tarbiyaga muhtojdir. Shu sababli ham aqliy tarbiyaning asosiy tamoyillaridan biri barcha tarbiya turlari bilan integrativ holda amalga oshirishdir.

“Aqlni band qilib, ko‘r-ko‘rona ergashma,
Band bo‘lgan aqldan paydo bo‘lmas izzat.”

Ushbu misra zimdan tanqidiy fikrlashga ishora qilmoqda. Ya’ni mustaqil fikrga ega bo’lmay, boshqalarning g’oyalariga ko’r-ko’rona ergashish- aqlni band qilish demakdir. Tanqidiy fikrlashning muhim komponentlaridan biri- mustaqil va erkin fikrlashga ega bo’lmoqlikdir. Rumiyning fikri pedagogikada erkin fikrlovchi shaxs**ni** shakllantirish tamoyiliga mos tushadi.

“Tafakkur bo‘lmasa, tan qalbga yuk,
Aql – harakatda, fikr – sahroga yugurgan tuya.”

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ushbu misralardan ko'rinib turibdiki, aql- deduktiv tushuncha bo'lsa, fikr-induktiv tushuncha hisoblanib, agar inson fikrlamasa, jism ruhga yuk bo'ladi. Aql go'yoki harakatga muqoyasa qilinsa, sog'lom fikr- sahroga yugurgan tuyaga qiyoslanadi. So'z o'yini va o'xshatishlar sababli misralar kitobxonga tushunarli bo'ladi.

"Kitob o'qib donishmand bo'lgan ko'p,
Lekin ko'pining aqli ishda yo'q."

Aynan shu bayt hazrat Sa'diy Sheroziyning "

Ustiga kitob ortilgan eshak
Na olim, va na donodir beshak

bayti bilan hamohanglikda keladi. Ikki buyuk olim ham kitob o'qish- donishmandlikka olib kelmaydi, juda ko'plab kitobsevarlar bor, lekin, ularning aksariyati ilmiga amal qilmaydi yoxud aql bilan ish tutmaydi qabilida tushuntirgan.

"Aql ko'zi bilan ko'r, nafs ko'zi yo'ldan urar,
Zohirni tanib, botinga yet."

Aql ko'zi bu yerda tasavvufiy timsol tarzida keltirilgan bo'lib, aql bilan ish ko'rmoqlik, voqea va hodisotlarga, muammo va masalalarga aql bilan yondashishni afzal ko'radi. Allomaning asosiy maqsadi ham aql ko'zi ila haqiqatni ko'rmoqlikdir. Inson qachongina aqliga tayanib mulohaza qilsa, qarorlari to'g'ri, tanlovlari aniq, fikrlashi erkin bo'ladi. Ushbu baytda olim aynan shu fikrni keltirib o'tgandir. Nafs ko'zi deyilganda olim tomonidan ortiqcha xoy-u havaslarga berilish, haqiqatni ko'rishdan to'sib qo'yadi degan chuqur tasavvufiy g'oya izohlanadi

Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asari insonning ichki dunyosi, tafakkuri va axloqiy barkamolligini yuksaltirishga qaratilgan nodir ma'naviy manba sifatida e'tirof etiladi. Asarda bayon etilgan g'oyalar orasida aqliy tarbiyaga oid qarashlar alohida o'rin egallaydi. Rumiy aqlni shunchaki bilim vositasi emas, balki haqiqatni anglashga yetaklovchi ruhiy kuch sifatida talqin etadi. Tahlil natijalariga ko'ra, "Masnaviy"dagi aqliy tarbiya tamoyillari- fikr mustaqilligi, tanqidiy fikrlash, haqiqatga intilish, ijodiy yondashuv, axloqiy asosda tafakkur yuritish, dialogga ochiqlik va amaliylik- zamonaviy pedagogika talablariga to'la mos keladi. Bu esa Rumiy merosining hozirgi ta'lim jarayonida, ayniqsa, shaxsiy rivojlanish, tanqidiy fikrlashni shakllantirish, axloqiy tarbiyani yo'lga qo'yishda katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Shu jihatdan, "Masnaviy" asaridagi aqliy tarbiya konsepsiyasi hozirgi zamon o'quvchisining tafakkurini yuksaltirish, ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Mazkur asarning pedagogik jihatdan o'rganilishi bugungi ta'lim tizimining ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Rumiyning qarashlariga ko'ra, inson kamoloti fikr bilan bog'liq. Aql tarbiyasi orqali inson o'z "men"ini anglaydi, ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topadi. Bu esa bugungi kunda ta'limda ko'p urg'u berilayotgan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyiliga mos tushadi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Rumiy Jaloliddin. Masnaviyi ma`naviy. – T. 2010.
2. Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadir. -T.: Kamolat, 2018
3. Pedagogika nazariyasi va tarixi. darslik/ G. V. Izbullayeva – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona, 2023.-2024b
4. “Masnaviyi ma`naviy”dan hikoyalar, masallar, hikmatlar/ G. V. Izbullayeva – Toshkent. “Navro`z” nashriyoti, 2015
5. Jaloliddin Rumiy. Ma’naviy masnaviy. 1-jild, 1-kitob & Najmiddin Komilov. Rumiyni anglash ishtiyoq.
6. Jaloliddin Rumiy. Hikoyathoi xalqi “Masnavy” Dushanbe, 1963.- B.12-13.
7. Orif Usmon. Jaloliddin Rumiy. Muloqot //1997. № 6.-B.39.
8. Sattoriy H. Rumiy o‘tgan yo‘l.-Jahon adabiyoti // 2007. №10.-B.145.
9. “Masnaviy” bog’chasidan bir ko’za suv.- Москва//2010. Usmon Nuriy To’pbosh

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Usmonova Oydin Sherali qizi,** tayanch doktorant, Buxoro davlat pedagogika instituti, **[Усмонова Айдин Шерали кизи,** докторант базовой докторантуры, Бухарский государственный педагогический институт], **[Aydin Sh. Usmonova,** PhD researcher, Bukhara State Pedagogical Institute]; manzil: O‘zbekiston, Buxoro shahri [адрес: Узбекистан, г.Бухара],[address: Uzbekistan, Bukhara city];

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# MATERIALSHUNOSLIK TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA TALABALARNING IJODIY VA INNOVATSION TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

© M.M. Qambarova [1]✉

[1]Andijon davlat pedagogika instituti, Andijon, O'zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash yoshlarning kreativ tafakkurini rivojlantirishning muhim omiliga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va oliy ta'limni modernizatsiya qilish konsepsiyasi bu jarayonning huquqiy asosini yaratmoqda.

**MAQSAD:** tadqiqotning asosiy maqsadi — materialshunoslik fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali talabalar ijodiy va innovatsion tafakkurini rivojlantirish hamda o'quv samaradorligini oshirish metodikasini ishlab chiqish.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda tizimli, kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asos qilib olindi. Eksperiment Andijon davlat pedagogika institutida nazorat va tajriba guruhlari ishtirokida o'tkazilib, virtual laboratoriyalar, 3D-modellashtirish, AR/VR texnologiyalari hamda loyiha asosidagi ta'lim metodlari joriy qilindi. Natijalar t-test va ANOVA orqali statistik tahlil qilindi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** eksperimental guruh nazorat guruhiga nisbatan ijodiy tafakkur testlarida 25–30% yuqori natija ko'rsatdi. Talabalarda muammoli vaziyatlarni hal etish, prototip yaratish va innovatsion loyihalarda ishtirok etish ko'nikmalari sezilarli rivojlandi. Raqamli texnologiyalardan foydalangan talabalar materiallarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini chuqurroq o'zlashtirib, o'quv motivatsiyasi 40% ga oshdi.

**XULOSA:** materialshunoslik ta'limida raqamli texnologiyalarni qo'llash ta'lim jarayonini interaktiv va samarali qilish, talabalarni kreativ tafakkur va ilmiy izlanishga jalb etishda muhim metodika ekanligi tasdiqlandi.

**Kalit so'zlar:** materialshunoslik, raqamli texnologiyalar, innovatsion metodika, ijodiy tafakkur, tadqiqotchilik, virtual laboratoriya, AR/VR, pedagogik texnologiyalar.

**Iqtibos uchun**: Qambarova.M.M. Materialshunoslik ta'limida raqamli texnologiyalar integratsiyasi asosida talabalarning ijodiy va innovatsion tafakkurini rivojlantirish metodikasi. // Inter education & global study. 2025. vol.3 №8. B.149–155.

# МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО И ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В МАТЕРИАЛОВЕДЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

© М.М. Камбарова[1]✉

[1] Андижанский государственный педагогический институт, Андижан, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в современном образовании цифровые технологии становятся ключевым фактором развития креативного и исследовательского потенциала молодежи. В Узбекистане этому процессу правовую основу создают стратегия «Цифровой Узбекистан – 2030» и концепция модернизации высшего образования.

**ЦЕЛЬ:** основная цель исследования — разработать методику повышения эффективности обучения материаловедению через интеграцию цифровых технологий и развитие у студентов творческого и инновационного мышления.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** методологическую основу составили системный, компетентностный и личностно-ориентированный подходы. Эксперимент проведён в Андижанском государственном педагогическом институте с участием контрольной и экспериментальной групп. Использовались виртуальные лаборатории, 3D-моделирование, AR/VR-технологии, обучение на основе проектов. Для анализа применялись t-тест и ANOVA.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** студенты экспериментальной группы показали на 25–30% более высокие результаты по тестам креативного мышления. У них значительно улучшились навыки решения проблемных ситуаций, проектирования и участия в инновационных исследованиях. Учебная мотивация возросла на 40%.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** интеграция цифровых технологий в преподавание материаловедения доказала свою эффективность в формировании у студентов креативного мышления, исследовательских умений и повышении качества образования.

**Ключевые слова:** материаловедение, цифровые технологии, инновационная методика, творческое мышление, исследовательская деятельность, виртуальная лаборатория, AR/VR, педагогические технологии.

**Для цитирования**: Камбарова.М.М. Методика развития творческого и инновационного мышления учащихся на основе интеграции цифровых технологий в материаловедческом образовании.// Inter education & global study.2025. vol.3 №8. С.149–155.

## A METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE AND INNOVATIVE THINKING BASED ON THE INTEGRATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN MATERIALS SCIENCE EDUCATION

© Manzura.M. Qambarova[1]✉
[1] Andijan State Pedagogical Institute, Andijan, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** in modern education, digital technologies are a key driver of creativity and research competence. In Uzbekistan, the “Digital Uzbekistan – 2030” strategy and the higher education modernization concept provide the legal and institutional framework for this integration.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**AIM:** the main aim of the study is to develop a methodology for enhancing materials science teaching by integrating digital technologies and fostering students' creative and innovative thinking.

**MATERIALS AND METHODS:** the study was based on systemic, competence-based, and learner-centered approaches. The experiment was conducted at Andijan State Pedagogical Institute with control and experimental groups. Virtual labs, 3D modeling, AR/VR tools, and project-based learning were applied. Statistical analysis was carried out using t-tests and ANOVA.

**DISCUSSION AND RESULTS:** students in the experimental group outperformed the control group by 25–30% in creativity tests. They demonstrated stronger problem-solving abilities, project design skills, and engagement in innovative tasks. Their motivation and interest in learning increased by 40%.

**CONCLUSION:** the findings confirm that integrating digital technologies into materials science education significantly improves educational effectiveness, enhances students' creative thinking, and fosters research skills necessary for modern industries.

**Keywords:** materials science, digital technologies, innovative methodology, creative thinking, research activity, virtual laboratory, AR/VR, pedagogical technologies.

**For citation**: Manzura M. Qambarova. (2025) 'A methodology for developing students' creative and innovative thinking based on the integration of digital technologies in materials science education', Inter education & global study, vol.3 (8), pp.149–155. (In Uzbek).

**S**o'nggi yillarda dunyo ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish, innovatsion metodlarni ta'lim jarayoniga joriy etish va shu orqali yoshlarning ijodiy hamda tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi ham bu jarayondan chetda qolmay, sohada tub islohotlarni amalga oshirmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ–6079-son qarori mamlakatimizda barcha sohalarda, jumladan ta'limda ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etishning huquqiy asoslarini yaratdi[1]. Mazkur strategiyada raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirish, o'quv jarayonini zamonaviy interfaol vositalar bilan boyitish, yoshlarning ijodiy salohiyatini ochib berish asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Shuningdek, 2019-yil 8-oktabrdagi PQ–5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risidagi qarorda oliy ta'limni modernizatsiya qilish, unda raqamli ta'lim texnologiyalarini keng qo'llash, ilm-fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyani kuchaytirish orqali talabalarning mustaqil, ijodiy va tadqiqotchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash vazifasi belgilab berilgan[2].

Bundan tashqari, 2020-yil 24-iyuldagi PF–6079-son Farmon va boshqa me'yoriy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

hujjatlarda ham ta’lim tizimini innovatsion rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini raqamlashtirish, zamonaviy virtual laboratoriyalarni joriy qilish masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rsatib o‘tilgan[3].

Bugungi kunda materialshunoslik fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, tadqiqotchilik faoliyatiga jalb qilish imkonini beradi. Shu bois, ushbu tadqiqotning dolzarbligi — materialshunoslik fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsion metodlarni qo‘llash orqali talabalarning ijodiy va tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash, innovatsion metodlardan foydalanish va u orqali talabalarning ijodiy hamda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish masalasi jahon miqyosida keng o‘rganilgan. Xorijiy, MDH hamda O‘zbekiston olimlarining ilmiy izlanishlari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy raqamli vositalar nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki talabalarni mustaqil fikrlash, yangicha g‘oyalarni yaratish va ilmiy izlanishga jalb etishda muhim omil hisoblanadi.

So‘nggi yillarda rivojlangan davlatlar ta’limida raqamli texnologiyalarni joriy etish keng miqyosda amalga oshirilmoqda. Jumladan, J. Dewey, R. Mayer, M[4,5]. Fullan kabi pedagog va psixologlarning tadqiqotlarida raqamli ta’lim muhiti talabalarning kreativ tafakkurini shakllantirishda samarali ekanligi ta’kidlanadi. S. Papert tomonidan ilgari surilgan “konstruktivistik yondashuv” nazariyasida virtual laboratoriyalar va simulyatsiya dasturlari orqali o‘quvchilar bilimni o‘z tajribasi asosida o‘zlashtirishi mumkinligi ilmiy asoslab berilgan[7]. Shuningdek, P. Mishra va M. Koehler tomonidan ishlab chiqilgan TPACK modeli (Technological Pedagogical Content Knowledge) da fan mazmuni, pedagogik metodlar va texnologiyalarni integratsiya qilish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida ko‘rsatiladi [8,9].

Rossiya va boshqa MDH mamlakatlari olimlari ham ushbu masalaga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Masalan, V.A. Slastenin, E.S. Polat, A.A. Verbitskiy, N.F. Talizina kabi olimlarning ishlarida innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘quv jarayonida qo‘llanishi, talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishdagi roli yoritilgan[9,10,11]. E.S. Polat tomonidan ilgari surilgan masofaviy ta’lim metodikasi raqamli platformalar yordamida o‘qitishda samarali natija berishi isbotlangan.MDH olimlari fikriga ko‘ra, raqamli texnologiyalar orqali ta’lim jarayonini individuallashtirish, interfaollikni ta’minlash va ijodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash mumkin. Ayniqsa, muammoli ta’lim, loyihaviy ishlar, tadqiqotga yo‘naltirilgan topshiriqlar talabalarni ilmiy-ijodiy faoliyatga keng jalb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida ham raqamli texnologiyalarni joriy etish masalasi so‘nggi yillarda keng tadqiq qilinmoqda. Jumladan, A. Abduqodirov, O. Toshboyev, Sh. Yuldashev, N. Jo‘rayev, M. Inomova va boshqa olimlarning ilmiy ishlari raqamli ta’lim resurslari, interfaol metodlar va masofaviy ta’lim imkoniyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan [12.13.14.15]. Masalan, professor A. Abduqodirov o‘z tadqiqotlarida


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

raqamli ta’lim resurslari va elektron platformalardan foydalanish orqali talabalarda mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirish mumkinligini asoslagan. O. Toshboyev va hamkorlari esa virtual laboratoriya va simulyatsion dasturlarning tabiiy fanlarni, jumladan materialshunoslikni o‘qitishda ahamiyatini tadqiq qilgan. Milliy tadqiqotlarda ta’limni raqamlashtirish, “Elektron universitet” tizimini joriy etish, masofaviy o‘qitish va multimedia vositalaridan foydalanish orqali talabalarning ijodiy hamda tadqiqotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy, MDH va O‘zbekiston olimlarining ilmiy qarashlari bir nuqtada — raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlar ta’lim samaradorligini oshirish bilan birga, talabalarni ijodiy va ilmiy faoliyatga keng jalb etadi — degan fikrda yakdildir. Shu bois mazkur tadqiqot materialshunoslik fanini o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llashning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqishga qaratiladi.

Metodologiya.Ushbu tadqiqotning metodologik asoslari ta’lim jarayonini raqamlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda talabalarda ijodiy va tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or nazariy yondashuvlar va davlat hujjatlariga tayangan holda shakllantirildi. Tadqiqot sistemali, kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida olib borildi.

Sistemali yondashuv — ta’lim jarayonini yagona tizim sifatida ko‘rib chiqish, unda fan mazmuni, pedagogik texnologiya va raqamli vositalarning uzviy integratsiyasini ta’minlash.

Kompetensiyaviy yondashuv — talabalarda ijodiy tafakkur, analitik fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirishni asosiy maqsad qilib qo‘yish.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv — talabaning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va intellektual salohiyatiga mos holda ta’lim jarayonini tashkil etish.

Ushbu tadqiqotda materialshunoslik ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish orqali talabalarning ijodiy va innovatsion tafakkurini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqildi. Metodologik asos sifatida konstruktivistik ta’lim yondashuvi, STEM va STEAM konsepsiyalari, hamda raqamli pedagogika tamoyillari qo‘llanildi. Tadqiqot quyidagi bosqichlarda olib borildi:

Diagnostika bosqichi – talabalarning dastlabki ijodiy tafakkur darajasi, raqamli kompetensiyalari va materialshunoslik faniga oid bilimlari aniqlash uchun anketalar, test topshiriqlari va psixologik metodikalar (Torrens testi, Guilford ijodiy tafakkur usullari)dan foydalanildi.

Eksperimental bosqich – materialshunoslik darslariga 3D-modellashtirish, virtual laboratoriyalar, AR/VR texnologiyalari, interaktiv simulyatsiyalar hamda raqamli kvest va loyiha asosida ta’lim usullari integratsiya qilindi.

Nazorat va tahlil bosqichi – eksperimental guruh (raqamli texnologiyalar asosida ta’lim olgan talabalar) va nazorat guruhi (an’anaviy ta’lim olgan talabalar) natijalari taqqoslandi. Statistika tahlilida t-test, dispersiya tahlili (ANOVA) usullaridan foydalanildi.

Metodikaning samaradorligi quyidagi indikatorlar asosida baholandi:


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Talabalarning ijodiy tafakkur ko‘rsatkichlari (originallik, moslashuvchanlik, oqimlilik).

Innovatsion fikrlash va muammoli vaziyatlarni yechish ko‘nikmalari.

Raqamli texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha mustaqil ishlash darajasi.

O‘quv motivatsiyasi va qiziqishlarining o‘sishi.

Natijalar.O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari quyidagi natijalarni ko‘rsatdi:

Eksperimental guruh talabalari ijodiy tafakkur testlarida nazorat guruhiga nisbatan 25–30% yuqori natija ko‘rsatdilar.

Innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini baholashda talabalar muammoli vaziyatlarda alternativ yechimlarni ishlab chiqish, loyiha taklif qilish va prototip yaratishda faolroq ishtirok etdilar.

Virtual laboratoriya va 3D-modellashtirish texnologiyalaridan foydalangan talabalar materiallarning fizik va kimyoviy xususiyatlarini chuqurroq o‘zlashtirib, amaliy topshiriqlarni ijodkorona hal qildilar.

Talabalar o‘quv jarayonida teamwork (jamoada ishlash), critical thinking (tanqidiy fikrlash) va design thinking (loyiha asosida tafakkur) ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirdilar.

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishi natijasida talabalar o‘rtasida o‘quv motivatsiyasi va fanlarga qiziqish 40% ga oshgani kuzatildi.

Xulosa.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, materialshunoslik ta’limida raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish orqali talabalarning ijodiy va innovatsion tafakkurini rivojlantirish samarali metodika sifatida o‘zini oqladi. Bu metodika:

Talabalarni nazariy bilimlarni amaliy tajribalar bilan uyg‘unlashtirishga yo‘naltiradi.

O‘quv jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi, natijada talabalarda mustaqil o‘rganishga intilish ortadi.

Innovatsion va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy ishlab chiqarish, sanoat va ilmiy tadqiqotlar uchun raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga zamin yaratadi. Shu asosda, raqamli texnologiyalarni materialshunoslik ta’limiga kengroq joriy etish, pedagogik jarayonda ularni qo‘llash bo‘yicha o‘qituvchilar malakasini oshirish va didaktik resurslar bazasini boyitish zarur.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ–6079-son qarori. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PQ–5847-son qarori. – Toshkent, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagi PF–6079-son Farmoni. – Toshkent, 2020.
4. Dewey, J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

5. Mayer, R. E. Multimedia Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009.
6. Fullan, M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2016.
7. Papert, S. Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas. – New York: Basic Books, 1980.
8. Mishra, P., & Koehler, M. J. Technological Pedagogical Content Knowledge (TPACK): A Framework for Teacher Knowledge. – Teachers College Record, 2006.
9. Сластенин, В. А. Педагогика. – Москва: Академия, 2002.
10. Полат, Е. С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. – Москва: Академия, 2007.
11. Вербицкий, А. А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. – Москва: Высшая школа, 1991.
12. Тализина, Н. Ф. Педагогическая психология. – Москва: Академия, 2000.
13. Abduqodirov, A. Raqamli ta’lim resurslari va elektron ta’lim platformalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
14. Toshboyev, O., Yuldashev, Sh., Jo‘rayev, N. Virtual laboratoriyalar va simulyatsion dasturlar yordamida tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
15. Inomova, M. Masofaviy ta’lim texnologiyalari va ularning samaradorligi. – Toshkent: Universitet, 2022.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Qambarova Manzura Maripjanovna**, o‘qituvchi [**Камбарова Манзура Марипжановна**, преподаватель], [**Qambarova Manzura Maripjanovna** teacher]; manzil: Andijon shahar, Do'stlik ko'chasi, 4-uy, [адрес: Город Андижан, улица Дружбы, дом 4], [address: 4 Druzhby Street, Andijan city.]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# YANGI O‘ZGARUVCHI KIRITIB YECHISHGA OID TURLI TIPDAGI IRRATSIONAL TENGLAMALAR VA ULARNI YECHISH USULLARINING TAHLILLARI.

© M.N.Solayeva[1]✉

[1]Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: ushbu maqolada, matematika fanining bitta bo’limi bo’lgan “Irratsional tenglama va tengsizliklar” bobining, “Irratsional tenglamalar” mavzusining yangi o’zgaruvchi kiritib yechish (yoki belgilash kiritib yechishga) oid bir nechta misollar tahlili ko’rib chiqiladi. Bundan tashqari umumiy o’rta ta’lim o’quvchilariga mavzuni tushuntirish davomida, ularning fandan va mavzudan zerikishlarini oldini olish maqsadida mavzuga oid turlicha misollarning o’rgatilishi tartiblab chiqilgan.

**MAQSAD**: ushbu mavzuning tahlilidan maqsad, umumiy o’rta ta’lim o’quvchilariga, irratsional tenglamalarni yechishda, yangi o’zgaruvchi kiritish orqali berilgan tenglamani oddiyroq ko’rinishga keltirib olish hamda tenglamaning yechimiga oddiyroq erishishdir. Shu bilan birga umumiy o’rta ta’lim o’qituvchilariga mavzuni o’rgatishda, birhillilikdan qochish, mavzuga oid misollarning ko’lamini kengaytirish va o’quvchilarni fanga qiziqishlarini oshirishlarida yo’riqnoma ko’rsatish.

**MATERIALLAR VA METODLAR**: maqolada mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili, tajriba asosida olingan natijalar va ilg‘or xorijiy metodik manbalarga tayangan holda taqqosloviy metod qo‘llanildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, odatda umumiy o’rta ta’lim o’quvchilari har doim ham tenglama yoki tengsizliklarni yechimini topishda (asosan irratsional tenglama va tengsizliklarda) odatda berilgan tenglamadagi tenglikning har ikki tomonini darajaga oshirish yo’li bilan ishlab, har doim ham belgilash usulidan foydalanishga katta e’tibor qaratishmaydi. Ushbu maqolada shu holatga e’tibor qaratish lozimligi ta’kidlab o’tilgan va o’quvchilarning yechim topishga bo’lgan yondashuvini o’zgartiradi.

**XULOSA:** ushbu maqolada ko’rib chiqilgan tahliliy metodlar, o’quvchilarda irratsional tenglamalarni yechishga bo’lgan yondashuvini o’zgartirib, misol va masalalarning yechimini topishda hatoliklarga yo’l qo’yilishini oldini oladi. Hamda umumiy o’rta ta’lim o’qituvchilari fanni o’rgatishlarida qo’shimcha misollardan foydalanish ko’nikmasiga ega bo’lishadi.

**Kalit so'zlar**: irratsional tenglamalar, aniqlanish soxa, yangi o’zgaruvchi kiritish, ifodani belgilab olish.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Iqtibos uchun**: Solayeva M.N. Yangi o‘zgaruvchi kiritib yechishga oid turli tipdagi irratsional tenglamalar va ularni yechish usullarining tahlillari. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. B.156–161.

# ВВЕДЕНИЕ НОВОЙ ПЕРЕМЕННОЙ ПРИ РЕШЕНИИ ИРРАЦИОНАЛЬНЫХ УРАВНЕНИЙ РАЗЛИЧНЫХ ТИПОВ И АНАЛИЗ МЕТОДОВ ИХ РЕШЕНИЯ

© М.Н. Солаева[1]✉
[1]Университет мировой экономики и дипломатии, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: в данной статье рассматривается тема «Иррациональные уравнения» из раздела «Иррациональные уравнения и неравенства» курса математики. Анализируются несколько примеров, связанных с решением иррациональных уравнений путём введения новой переменной (или замены выражений). Кроме того, для предотвращения утомления и потери интереса учащихся общеобразовательных школ к предмету, предлагается использование разнообразных примеров в процессе объяснения темы.

**ЦЕЛЬ**: целью анализа данной темы является помощь учащимся общеобразовательных школ в упрощении иррациональных уравнений путём введения новой переменной и тем самым — более лёгком нахождении решения. Также статья служит методическим ориентиром для школьных учителей, предлагая избежать однообразия в преподавании и использовать разнообразные задачи, что способствует росту интереса учащихся к предмету.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в статье использован сравнительный метод, основанный на анализе существующих научных источников, результатах практического опыта, а также на применении современных зарубежных методических подходов.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: результаты исследования показывают, что учащиеся общеобразовательных школ не всегда уделяют достаточное внимание использованию метода замены переменной при решении иррациональных уравнений и неравенств. В основном, они ограничиваются возведением обеих частей уравнения в степень. В статье подчёркивается необходимость более активного применения метода замены, что изменяет подход учащихся к поиску решений.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: анализируемые в статье методики способствуют изменению подхода учащихся к решению иррациональных уравнений, помогают предотвратить ошибки в решениях и предоставляют учителям дополнительные практические примеры для использования на уроках. Это, в свою очередь, повышает эффективность преподавания и интерес к математике.

**Ключевые слова**: иррациональные уравнения, область определения, введение новой переменной, обозначение выражения.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Для цитирования**: Солаева М.Н. Введение новой переменной при решении иррациональных уравнений различных типов и анализ методов их решения. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. С.156–161.

# INTRODUCTION OF A NEW VARIABLE IN SOLVING VARIOUS TYPES OF IRRATIONAL EQUATIONS AND ANALYSIS OF THEIR SOLUTION METHODS

© Mehribon N. Solayeva[1]✉
[1]University of World Economy and Diplomacy, Tashkent,Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: this article discusses the topic "Irrational Equations" within the broader section of "Irrational Equations and Inequalities" in mathematics. Several examples are analyzed where irrational equations are solved by introducing a new variable (or by substituting expressions). In addition, in order to prevent students in general secondary education from losing interest or becoming disengaged from the subject, a structured approach to teaching the topic through various types of examples is proposed.

**AIM: OBJECTIVE:** the objective of this analysis is to assist students in general secondary education in simplifying irrational equations by introducing a new variable, making it easier to solve them. At the same time, the article aims to serve as a methodological guide for teachers, helping them avoid monotonous teaching methods, expand the range of examples they use, and increase student interest in the subject.

**MATERIALS AND METHODS**: **:** the article applies a comparative method based on the analysis of existing scientific literature, practical experience, and modern foreign methodological sources.

**DISCUSSION AND RESULTS**: the results of the study show that students in general secondary education often do not give sufficient attention to the method of substitution when solving irrational equations and inequalities. Typically, they rely on raising both sides of the equation to a power. The article emphasizes the importance of using substitution methods, which help shift students' approaches to finding solutions.

**CONCLUSION**: The analytical methods discussed in this article encourage students to adopt more effective strategies for solving irrational equations, help prevent common mistakes, and provide teachers with additional examples to use in the classroom. As a result, this contributes to more effective teaching and enhances students' interest in mathematics.

**Keywords**: irrational equations, domain of definition, introduction of a new variable, substitution of expressions.

**For citation**: Mehribon N. Solayeva. (2025) 'Introduction of a new variable in solving various types of irrational equations and analysis of their solution methods', Inter education & global study, vol.3 (8), pp.156–161. (In Uzbek).

**B**ugungi kunga kelib maktab matematika kursining rivojlanishiga bo'lgan talabning oshishi bilan bir qatorda umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilari oldiga maktab


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

matematika kursi darslarini sifatli, samarali va o‘quvchilarni fandan zerikishlarni oldini olib darslarni tashkil qilish masalalari dolzarb muammo sifatida turibdi.

Shu o‘rinda Abu Rayhon Beruniy (973–1048) ta’lim va ilm olish usullari haqida:

Beruniyning fikricha, ilmiy bilimlarni egallashda o‘quvchining tabiiy qiziqishi, ruhiy holati va tafakkuri muhim rol o‘ynaydi. Uning asarlarida quyidagi metodik yondashuvlar ilgari surilgan:

***Ta’lim oluvchini zeriktirmaslik:*** *Beruniyga ko‘ra, ta’lim jarayoni o‘quvchini charchatmasligi va bir maromda davom etmasligi kerak. Agar dars bir xil uslubda, qiziqarsiz o‘tsa, o‘quvchining tafakkuri to‘xtaydi va o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoq so‘na*

Shularni inobatga olgan holda ushbu maqola umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilari uchun matematika fanining “Irrotsional tenglamalar” mavzusida “Tenglamalarni yangi o‘zgaruvchi kiritib yechishga oid misollar” ning turli ko’rinishlari va uni o‘qitishda bir qator qulayliklar va kamchiliklar tahlilini ko‘rib o‘tamiz.

Tenglamalarni yangi o‘zgaruvchi kiritib yechishga oid misollar:

**Misol 1:** $x^2-4x+6=\sqrt{2x^2-8x+12}$ tenglamani yeching.[2,3]

Yechish**:** $x^2-4x+6=\sqrt{2x^2-8x+12}$ tenglamaning yechish uchun yangi o’zgaruvchi kiritib olamiz. Ya’ni

$$\sqrt{2x^2-8x+12}=t$$

kabi belgilash kiritib olamiz. Bundan

$$\sqrt{2x^2-8x+12}=t \Rightarrow 2x^2-8x+12=t^2 \Rightarrow x^2-4x+6=\frac{t^2}{2}$$

bo’lishi kelib chiqadi va tenglama quyidagi ko’rinishga keladi.

$$\frac{t^2}{2}=t \;\Rightarrow\; t^2=2t \;\Rightarrow\; t^2-2t=0 \;\Rightarrow\; t_1=0,\; t_2=2$$

yechimlar hosil bo’ladi. Endi topilgan yechimlarni belgilangan ifodaga qo’yib, qayta tenglama tuzamiz va yechim topamiz.

$$\sqrt{2x^2-8x+12}=0 \;\Rightarrow\; 2x^2-8x+12=0 \;\Rightarrow\; x^2-4x+6=0$$

Tenglama hosil bo’ladi, ammo bu tenglama haqiqiy yechimga ega emas.

$$\sqrt{2x^2-8x+12}=2 \;\Rightarrow\; 2x^2-8x+12=4 \;\Rightarrow$$

$$x^2-4x+6=2 \;\Rightarrow\; x^2-4x+4=0 \;\Rightarrow (x-2)^2=0 \;\Rightarrow\; x=2$$

Bo’lishi kelib chiqadi. Bu esa tenglama yagona haqiqiy $x=2$ yechimga ega ekanligini ko’rsatadi.

**Misol 2:** $\sqrt{x^3+8}+\sqrt[4]{x^3+8}=6$ tenglamani yeching. [2,4]

Yechish**:** $\sqrt{x^3+8}+\sqrt[4]{x^3+8}=6$ tenglamaning yechimini toppish uchun huddi yuqoridagi misoldagi kabi belgilash kiritib olamiz. Ya’ni ushbu misolda eng katta darajali ildizdagi ifodani belgilab olamiz.

$$\sqrt[4]{x^3+8}=t \;\Rightarrow\; \sqrt{x^3+8}=t^2$$

bo’lib, tenglama quyidagi ko’rinishga ega bo’ladi.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

$$t^2+t=6 \Rightarrow t^2+t-6=0,$$

kvadrat tenglama hosil bo'ladi va bu tenglamani yechib, $t_1=-3,\ t_2=2$ javoblarni hosil qilamiz. Yuqoridagi belgilashlarga ko'ra, biz juft darajali ildizni $\sqrt[4]{x^3+8}=t$ belgilab olgan edik, oldingi maqolada ta'kidlab o'tganimizdek [1] irratsional ifodalarning aniqlanish sohasiga ko'ra juft darajali ildizdagi ifoda manfiy songa teng bo'la olmaydi. Shuning uchun $t_1=-3$ yechimni olmaymiz va $t_2=2$ yechimni belgilangan ifoda o'rniga qo'yib qayta tenglama tuzamiz.

$$\sqrt[4]{x^3+8}=2 \Rightarrow x^3+8=16 \Rightarrow x^3=8 \Rightarrow x=2$$

yechimga ega bo'lamiz. Ko'rinib turibdiki ushbu tenglama ham huddi yuqoridagi kabi yagona $x=2$ yechimga ega bo'ladi.

**Misol 3**: $\sqrt{x^2+x+4}+\sqrt{x^2+x+1}=\sqrt{2x^2+2x+9}$ tenglamani yeching.[2,3]

Yechish**:** Ushbu tenglamani yechish uchun yuqoridagi misollar kabi belgilash kiritib olamiz, ammo yuqoridagi misollardan farqli o'laroq ildiz ostidagi ifodani belgilaymiz, ya'ni $x^2+x+1=t$ kabi belgilash kiritib olamiz. Endi tenglama

$$\sqrt{t+3}+\sqrt{t}=\sqrt{2t+7}$$

ko'rinishga keladi va bu tenglamani yechimini topish uchun tenglikning har ikki tomonini kvadratga oshiramiz.

$$\sqrt{t+3}+\sqrt{t}=\sqrt{2t+7} \Rightarrow t+3+2\sqrt{t(t+3)}+t=2t+7 \Rightarrow$$
$$2\sqrt{t(t+3)}=4 \Rightarrow \sqrt{t(t+3)}=2 \Rightarrow t^2+3t=4 \Rightarrow$$
$$t^2+3t-4=0 \Rightarrow (t+4)(t-1)=0$$

bo'lib, tenglamaning yechimi $t_1=-4,\ t_2=1$ bo'lishi kelib chiqadi. Huddi yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek [1] irratsional ifodalarning aniqlanish sohasiga ko'ra, juft darajali ildiz ostida manfiy son bo'lmaganligi uchun $t_1=-4$ ni yechim sifatida qabul qila olmaymiz. Endi $t_2=1$ yechimni olib belgilangan ifoda o'rniga qo'yib qayta tenglama tuzamiz va

$$x^2+x+1=1 \Rightarrow x^2+x=0 \Rightarrow x(x+1)=0 \Rightarrow x_1=0,\ x_2=-1$$

bo'lishi kelib chiqadi. Bundan ko'rinadiki yuqoridagi tenglamaning yechimi $x_1=0,\ x_2=-1$ ga teng ekan.

**Misol 4:** $\sqrt{x-1}+\sqrt{x+3}+2\sqrt{(x-1)(x+3)}=4-2x$ tenglamani yeching.[2,3]

Yechish**:** Ushbu tenglamani yechish uchun eng avval bir nechta soddalashtirish bajarib olamiz, ya'ni

$$\sqrt{x-1}+\sqrt{x+3}+2\sqrt{(x-1)(x+3)}+2x=4 \Rightarrow$$
$$\sqrt{x-1}+\sqrt{x+3}+2\sqrt{(x-1)(x+3)}+2x+2=6 \Rightarrow$$
$$\sqrt{x-1}+\sqrt{x+3}+2\sqrt{(x-1)(x+3)}+x-1+x+3=6 \Rightarrow$$
$$\sqrt{x-1}+\sqrt{x+3}+\left((x-1)+2\sqrt{(x-1)(x+3)}+(x+3)\right)=6 \Rightarrow$$
$$\sqrt{x-1}+\sqrt{x+3}+\left(\sqrt{x-1}+\sqrt{x+3}\right)^2=6$$

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

kabi soddalashtirish bajarib, keyin belgilash kiritamiz.
Endi ushbu soddalashgan ifodada $\sqrt{x-1}+\sqrt{x+3}=t$ kabi belgilash kiritamiz. Keyin yuqoridagi tenglama quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

$$t^2+t=6 \Rightarrow t^2+t-6=0 \Rightarrow (t+3)(t-2)=0 \Rightarrow t_1=-3,\ t_2=2$$

bo'lib, tenglamaning yechimi $t_1=-3,\ t_2=2$ ekanligi kelib chiqadi. Endi topilgan yechimlarni kiritilgan belgilashlar o'rniga qo'yib yangi tenglama tuzamiz. Faqat oldingi maqolada ta'kidlaganimizdek, [1] irratsional ifodalarning aniqlanishiga ko'ra ikkita juft darajali ildiz ostidagi ifodalarning yig'indisi manfiy son bo'la olmaydi. Shuning uchun $t_1=-3$ ni yechim sifatida qabul qila olmaymiz. Endi

$$\sqrt{x-1}+\sqrt{x+3}=2 \Rightarrow \sqrt{x+3}=2-\sqrt{x-1}$$

deb olib, avval tenglamaning aniqlanish sohasini topamiz va keyin tenglikning har ikki tomonini kvadratga oshirib, tenglamaning yechimini topamiz. Tenglamaning aniqlanish sohasi \

## ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1.Solayeva M.N. Irratsional tenglamalar mavzusiga kirishga oid bir nechta misollar tahlili. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №7. B.344–349.
2.M.I. Skanaviy. Matematikadan masalalar to'plami. "Bilim va intellectual salohiyat" Toshkent-2018 nashri.
3.U. Abduhamidov, H.A. Nasimov, U.M. Nosirov, J. H. Husanov. Algebra va matematik analiz asoslari: Akad. litseylar uchun darslik, – T.: «O'qituvchi» NMIU, 2008. Q.I. – 400 b.
4.M.A. Mirzaaxmedov, Sh.N.Ismoilov, A.Q.Amanov. "Matematika 10-sinf darslik" I qism Toshkent 2017.

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Solayeva Mehribon Norimonovna,** "Tizimli tahlil va matematik modellashtirish" kafedrasi o'qituvchisi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, [**Солаева Мехрибон Норимоновна**, преподаватель кафедры «Системный анализ и математическое моделирование», Университет мировой экономики и дипломатии], [**Mehribon N. Solayeva**, Lecturer, Department of System Analysis and Mathematical Modelling, University of World Economy and Diplomacy]; manzil: O'zbekiston, Toshkent sh. [адрес: Узбекистан, г. Ташкент], [address: Uzbekistan, Tashkent city].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# “TIBBIY RADIOLOGIYA” FANINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK MULOQOT ORQALI TANQIDIY-OPERATIV MULOQOTNI O‘STIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

© S.I. Shukurova[1]✉

[1]Buxoro davlat tibbiyot instituti, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** mazkur maqolada tibbiy radiologiya fanini o‘qitish jarayonida tanqidiy-operativ muloqotni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik va psixologik shart-sharoitlar tahlil qilinadi. Muallif pedagogik muloqotni talabalarning kasbiy nutqi, klinik fikrlash va intellektual tezkorligi shakllanishida markaziy o‘rin tutadigan omil sifatida ko‘radi. Maqolada pedagogik muloqotning tarkibiy tuzilishi, talabalarda tanqidiy-operativ mulohaza yuritishni rag‘batlantiruvchi psixologik mexanizmlar (motivasiya, kognitiv yuklama, ijtimoiy taassurot va refleksiya) ilmiy asosda sharhlanadi. Ta'lim jarayonida simulyativ muloqot, keys-ssenariylar va debatlarga asoslangan o‘qitish texnologiyalari orqali tanqidiy-operativ muloqotni shakllantirish imkoniyatlari aniqlanadi.

**MAQSAD:** tadqiqot jarayonida pedagogik muloqot orqali tanqidiy-operativ muloqotni rivojlantiruvchi pedagogik-psixologik omillar va ularning samaradorligi aniqlashga qaratilgan empirik tadqiqot olib borildi.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** ushbu tadqiqotning metodologik asosi pedagogik muloqot nazariyasi, muloqot psixologiyasi, kognitiv pedagogika va kasbiy nutq rivojlanishiga oid ilmiy qarashlarga tayanadi. Asosiy maqsad — tibbiy radiologiya fanini o‘qitish jarayonida talabalarda tanqidiy-operativ muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni aniqlash va metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pedagogik muloqot orqali tanqidiy-operativ muloqotni o‘stirish — tibbiy ta'limning zamonaviy talablariga mos ravishda muloqotga asoslangan, interfaol va shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishning ajralmas qismi hisoblanadi.

**XULOSA:** olib borilgan nazariy tahlil va empirik tadqiqot natijalariga asosan, tibbiy radiologiya fanini o‘qitishda tanqidiy-operativ muloqotni rivojlantirishning samarasi pedagogik muloqotning tuzilishi va uning psixologik xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik muloqot, tanqidiy-operativ muloqot, tibbiy ta'lim, klinik fikrlash, pedagogik-psixologik xususiyatlar, motivasiya, kognitiv yuklama, simulyativ mashg‘ulot, keys-ssenariy, interfaol ta'lim, kasbiy nutq.

**Iqtibos uchun**: Shukurova S.I. “Tibbiy radiologiya” fanini o‘qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy-operativ muloqotni o‘stirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. B.162–169.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

# ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ КРИТИКО-ОПЕРАТИВНОЙ КОММУНИКАЦИИ ЧЕРЕЗ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ДИАЛОГ ПРИ ОБУЧЕНИИ ДИСЦИПЛИНЕ «МЕДИЦИНСКАЯ РАДИОЛОГИЯ»

© С.И. Шукурова[1]✉
[1] Бухарский государственный медицинский институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

**ВВИДЕНИЕ:** в данной статье анализируются педагогические и психологические условия, способствующие развитию критико-оперативной коммуникации в процессе преподавания дисциплины «Медицинская радиология». Автор рассматривает педагогический диалог как ключевой фактор формирования профессиональной речи студентов, клинического мышления и интеллектуальной оперативности. В статье научно обосновывается структура педагогического взаимодействия и психологические механизмы, стимулирующие критико-оперативное рассуждение у студентов (мотивация, когнитивная нагрузка, социальные впечатления и рефлексия). Также рассматриваются возможности формирования критико-оперативной коммуникации через технологии симулятивного диалога, кейс-сценариев и учебных дебатов.

**ЦЕЛЬ:** в процессе исследования было проведено эмпирическое исследование с целью выявления педагогических и психологических факторов, развивающих критико-оперативную коммуникацию посредством педагогического диалога, и их эффективности.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫВ:** методологическую основу данного исследования составляют научные представления по теории педагогического общения, психологии общения, когнитивной педагогике и развитию профессиональной речи. Основная цель – выявление педагогических и психологических условий развития критических и операциональных коммуникативных навыков у студентов в процессе обучения медицинской радиологии и разработка методических рекомендаций.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты исследования показали, что развитие критико-оперативного общения посредством педагогического диалога является неотъемлемой частью коммуникативно-ориентированного, интерактивного и личностно-ориентированного обучения в соответствии с современными требованиями медицинского образования.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** на основании результатов теоретического анализа и эмпирического исследования установлено, что эффективность развития критико-оперативного общения в процессе обучения медицинской радиологии напрямую связана со структурой педагогического общения и его психологическими особенностями.

**Ключевые слова:** педагогический диалог, критико-оперативная коммуникация, медицинское образование, клиническое мышление, психолого-педагогические

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

особенности, мотивация, когнитивная нагрузка, симулятивные занятия, кейс-сценарий, интерактивное обучение, профессиональная речь.

**Для цитирования**: Шукурова С.И. Педагогико-психологические особенности развития критико-оперативной коммуникации через педагогический диалог при обучении дисциплине «медицинская радиология». // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. С.162–169.

## PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF DEVELOPING CRITICAL-OPERATIONAL COMMUNICATION THROUGH PEDAGOGICAL DIALOGUE IN TEACHING THE DISCIPLINE "MEDICAL RADIOLOGY"

© Sevara I. Shukurova[1]✉
[1]Bukhara State Medical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCNION:** this article analyzes the pedagogical and psychological conditions that contribute to the development of critical-operational communication in the process of teaching the discipline "Medical Radiology." The author views pedagogical dialogue as a key factor in shaping students' professional speech, clinical thinking, and intellectual responsiveness. The article provides a scientific rationale for the structure of pedagogical interaction and the psychological mechanisms that stimulate critical-operational reasoning in students (motivation, cognitive load, social impression, and reflection). It also explores the potential for developing critical-operational communication through technologies such as simulated dialogue, case scenarios, and instructional debates.

**AIM:** during the research, an empirical study was conducted to identify pedagogical and psychological factors that develop critical-operational communication through pedagogical dialogue and their effectiveness.

**MATERIALS AND METHODS:** the methodological basis of this study is formed by scientific concepts on the theory of pedagogical communication, psychology of communication, cognitive pedagogy and development of professional speech. The main goal is to identify pedagogical and psychological conditions for the development of critical and operational communication skills in students in the process of training in medical radiology and to develop methodological recommendations.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the results of the study showed that the development of critical-operational communication through pedagogical dialogue is an integral part of communication-oriented, interactive and personally-oriented learning in accordance with modern requirements of medical education.

**CONCLUSION:** based on the results of theoretical analysis and empirical research, it was established that the effectiveness of the development of critical-operational communication in the process of teaching medical radiology is directly related to the structure of pedagogical communication and its psychological characteristics.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Keywords:** pedagogical dialogue, critical-operational communication, medical education, clinical thinking, pedagogical and psychological features, motivation, cognitive load, simulated learning, case scenario, interactive learning, professional speech.

**For citation**: Sevara I. Shukurova (2025) 'Pedagogical and psychological features of developing critical-operational communication through pedagogical dialogue in teaching the discipline "medical radiology"', Inter education & global study, vol.3 (8), pp.162–169. (In Uzbek).

**Z**amonaviy tibbiy ta'limning asosiy vazifalaridan biri talabalarda kasbiy faoliyatga oid muloqot ko‘nikmalari, tanqidiy fikrlash qobiliyati va tezkor qaror qabul qilish salohiyatini rivojlantirishdan iboratdir. Ayniqsa, vizual axborotni talqin qilish, murakkab klinik holatlarda dalillar asosida mulohaza yuritish va o‘z fikrini aniq, qisqa va professional tarzda ifoda etish qobiliyati tibbiy radiologiya fanini o‘zlashtirish jarayonida juda muhim o‘rin tutadi.

Bunday ko‘nikmalarni shakllantirishda pedagogik muloqot — ya'ni o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi maqsadli, faol va mazmunli axborot almashuv jarayoni — markaziy o‘rin egallaydi. U orqali nafaqat bilim uzatiladi, balki shaxslararo aloqalar, tanqidiy-operativ fikrlash, kasbiy nutq va klinik yondashuv usullari rivojlanadi. Bu jarayonning samaradorligi esa pedagogik muloqotning tuzilishi va mazmunini belgilaydigan psixologik omillarga, jumladan, talabalarning kognitiv tayyorgarligi, motivasiya darajasi, ijtimoiy-emosional muhitga moslashuvi va refleksiv faolligiga bog‘liqdir.

Afsuski, an'anaviy o‘qitish usullarida ushbu jihatlarga etarli e'tibor berilmaydi — dars jarayoni ko‘proq axborotni yodlash va tekshirishga qaratilgan bo‘lib, tanqidiy mulohaza, guruhda fikr almashish va muloqot orqali ma'no yaratish kabi faol jarayonlar kamyob holga kelib qoladi. Shu boisdan, tibbiy radiologiya ta'limida tanqidiy-operativ muloqotni rivojlantirish uchun nafaqat metodik, balki pedagogik-psixologik yondashuv ham zarurdir.

Pedagogik muloqot – bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ma'no yaratishga qaratilgan, shaxslararo hamkorlik jarayoni bo‘lib, u ta'limda sub'ekt-sub'ektli yondashuvni talab etadi. Slastyonin V.A. [1] va Amonashvili Sh.A. [2] ta'kidlaganidek, muloqot ta'lim mazmunini uzatish vositasi emas, balki shaxsiy o‘sish va interiorizasiya jarayonining asosiy mexanizmi hisoblanadi.

Tanqidiy-operativ muloqot bilimni tanqidiy qayta ishlash, vizual va klinik ma'lumotni tahlil qilish va tezkor mustahkam dalillar asosida fikr bildirishni o‘z ichiga oladi. Bunday muloqotni o‘stirish uchun o‘quv muhitida muammoli vaziyatlar, ko‘palternativ echimlar va guruhiy tahlil elementlari bo‘lishi lozim. P. Freyre [3] va M. Buber [4] pedagogik muloqotni shaxslar o‘rtasida ma'naviy aloqa va ma'no yaratish makoni sifatida ko‘rsatgan.

Psixologik omillar: motivasiya, kognitiv yuklama va refleksiya

Talabalarning tanqidiy-operativ muloqotda faol ishtirok etishi ko‘p jihatdan ularning ichki motivasiyasi, kognitiv tayyorgarligi va ijtimoiy taassurotlarga munosabati bilan bog‘liq. Leontev A.N. [5] va Vigotskiy L.S. [6] faoliyat va nutq o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yoritar ekan, muloqotning shaxs ongida bilim yaratishdagi markaziy rolini asoslab berishgan.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Xalqaro tadqiqotlar (Schön D., Harden R.M., Ten Cate O.) [7-9] shifokor tayyorgarligida klinik muhitdagi murakkab, noaniq vaziyatlar va vizual ma'lumotni interpretasiya qilishda talabalarning nutqiy faolligi va kasbiy muloqot qobiliyatini shakllantirish uchun simulyasiya, keys-ssenariylar va debatlarning ahamiyatini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda Xasanova N.A. [10], Xaydarov A.Sh. [11] kabi tadqiqotchilar tibbiy ta'limda talabalarning muloqotga kirishishi, kasbiy nutqni rivojlantirish va interfaol mashg‘ulotlarni tashkil etishning samaradorligini pedagogik-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilganlar.

Tahlildan ko‘rinadiki, tanqidiy-operativ muloqotni rivojlantirishda pedagogik muloqotning empirik tashkil etilishi, motivasiyani kuchaytiruvchi psixologik sharoitlar, vizual tahlilga yo‘naltirilgan interfaol usullar va talabaning shaxsiy fikrlash uslubini rivojlantiruvchi muhit hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. Ushbu muammoni hal etish nafaqat metodik, balki chuqur pedagogik-psixologik yondashuvni talab qiladi.

ushbu tadqiqotning metodologik asosi pedagogik muloqot nazariyasi, muloqot psixologiyasi, kognitiv pedagogika va kasbiy nutq rivojlanishiga oid ilmiy qarashlarga tayanadi. Asosiy maqsad — tibbiy radiologiya fanini o‘qitish jarayonida talabalarda tanqidiy-operativ muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni aniqlash va metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotda qo‘llanilgan asosiy metodlar:

1. Ta'limiy kuzatuv va kontent-tahlil – talabalarning darsdagi muloqot faolligi, vizual tahlil va tezkor fikr bildirish qobiliyati kuzatilib, tahlil qilindi;
2. Psixodiagnostik usullar – talabalarning nutqiy tayyorgarligi, ichki motivasiyasi va kasbiy fikrlash darajasini aniqlash uchun so‘rovnoma, intervyu va esse tahlili qo‘llanildi;
3. Pedagogik modellashtirish – tanqidiy-operativ muloqotni rivojlantirish uchun dars tuzilmasi, keys-ssenariy va simulyativ vaziyatlar loyihalashtirildi;
4. Tajriba-sinov ishlari – interfaol metodlar joriy etilgan va an'anaviy usulda o‘qitilgan guruhlar o‘rtasida qiyosiy tahlil olib borildi;
5. Refleksiv tahlil – talabalarning shaxsiy fikrlari, nutqiy himoyasi va muammoli holatlarga munosabatlarini o‘rganish orqali ularda shakllangan tanqidiy-operativ muloqot darajasi baholandi.

Metodologik yondashuv va turli tadqiqot metodlarining kompleks qo‘llanilishi orqali tibbiy ta'limda pedagogik muloqotning shaxs rivojiga ta'siri, xususan tanqidiy va operativ fikrlash ko‘nikmalari qanday shakllanishini aniqlash imkoni yaratildi.

Tadqiqot jarayonida pedagogik muloqot orqali tanqidiy-operativ muloqotni rivojlantiruvchi pedagogik-psixologik omillar va ularning samaradorligi aniqlashga qaratilgan empirik tadqiqot olib borildi. U Buxoro davlat tibbiyot institutining 3-bosqich tibbiy-profilaktika yo‘nalishi talabalari ishtirokida tashkil etildi. Tadqiqot 2024–2025 o‘quv yili davomida amalga oshirildi.

Talabalar ikkita guruhga bo‘lindi: tajriba guruhi (n = 32) va nazorat guruhi (n = 30);

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Tajriba guruhida ta'lim interfaol pedagogik muloqot asosida tashkil etildi (keyc-ssenariylar, vizual tahlil, debatlar, refleksiv esseler);
Nazorat guruhida an'anaviy o‘qitish usullari (leksiya, konspektlash, o‘qituvchi tashabbusida savol-javob) qo‘llanildi.

Baholash mezonlari:

1. Tanqidiy fikrlash darajasi (test va esse orqali);
2. Tezkor mulohaza bildirish qobiliyati (simulyativ topshiriqlar asosida);
3. Kasbiy muloqotda ishtirok etish faolligi (gruppaviy bahs jarayonida);
4. Refleksiya va nutqiy mustaqillik darajasi.

Asosiy natijalar:

| **Ko‘rsatkichlar** | **Tajriba guruhi** | **Nazorat guruhi** |
|---|---|---|
| Tanqidiy fikrlash o‘sish % | 38% → 72% | 36% → 45% |
| Tezkor nutqiy munosabat (5 ball) | 2.6 → 4.2 | 2.5 → 2.9 |
| Muloqotda faol ishtirok % | 42% → 81% | 40% → 53% |
| Refleksiv esseda fikr uzluksizligi | 3.1 → 4.5 | 3.0 → 3.4 |

Statistik ahamiyat: t-kriteriy natijalari ko‘rsatdiki, tajriba guruhidagi o‘sish ko‘rsatkichlari $p < 0.01$ darajasida ahamiyatli hisoblanadi.

Ushbu natijalar talabalarda tanqidiy-operativ muloqotni shakllantirishda pedagogik muloqotning faol, intersub'ektiv va vizual tahlilga yo‘naltirilgan shakllari samarali ekanini tasdiqlaydi. Psixologik jihatdan motivasiyaning o‘sishi, o‘zaro ishonch muhitining shakllanishi va faol refleksiyaning mavjudligi ushbu o‘sishning psixologik asoslaridir.

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, pedagogik muloqot orqali tanqidiy-operativ muloqotni o‘stirish — tibbiy ta'limning zamonaviy talablariga mos ravishda muloqotga asoslangan, interfaol va shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishning ajralmas qismi hisoblanadi. Xususan, keys-ssenariylar, vizual tahlil, debatlar va simulyativ vazifalar kabi faol ta'lim shakllaridan foydalanish talabalarning tanqidiy fikr yuritish qobiliyati, tezkor mulohaza va kasbiy nutqda ishtirok etish faolligini ancha yuqori darajaga olib chiqdi.

Tajriba davomida pedagogik muloqot faqat axborot uzatish vositasi emas, balki bilim, tafakkur va nutqiy faollikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixologik-pedagogik muhit ekanligi tasdiqlandi. O‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi tenghuquqli, o‘zaro hurmatga asoslangan muloqot formati talabalarning shaxsiy faolligini, kasbiy o‘zini anglashini va nutqiy mustaqilligini kuchaytirdi.

Muhokama jarayonida psixolingvistik va kognitiv jihatlar ham muhim o‘rin egalladi. Leontev va Vigotskiyning faoliyat va nutq bog‘liqligiga oid nazariyalari tasdiqladiki, murakkab kasbiy fikrlash faqat muloqotda namoyon bo‘ladi. Demak, muloqot — bu faqat ma'lumot almashinuvi emas, balki tafakkur shakllanishining metodi hisoblanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Shuningdek, natijalar talabalarning ichki motivasiyasi, empatiya, ijtimoiy ta'sirlarga munosabati va refleksiya qobiliyati kabi psixologik omillar tanqidiy-operativ muloqotni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Bu jihatda, interfaol muloqot muhiti ijtimoiy-psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi, xatoga ruhiy javob bera oladigan va shaxslararo ishonchga asoslangan tarzda tashkil etilganda yuqori natija berishi ma'lum bo‘ldi.

Muhim tomonlardan yana biri — an'anaviy va innovasion yondashuvlarning ta'siriga oid qiyosiy tahlil natijalari. An'anaviy ma'ruzaga asoslangan ta'limda talabalar passiv rolda qoladi, tanqidiy va tezkor mulohaza uchun sharoit yaratilmaydi. Interfaol muloqot vositalari esa shaxsiy pozisiyani ifoda etish, jamoaviy fikr yuritish va vizual axborotni mustaqil talqin qilish imkonini yaratadi.

Olib borilgan nazariy tahlil va empirik tadqiqot natijalariga asosan, tibbiy radiologiya fanini o‘qitishda tanqidiy-operativ muloqotni rivojlantirishning samarasi pedagogik muloqotning tuzilishi va uning psixologik xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi. Talabalarda tanqidiy fikrlash, klinik holatlarga tezkor munosabat bildirish va kasbiy nutqda erkin muloqot olib borish qobiliyatini shakllantirishda pedagogik muloqotning interfaol va sub'ektga yo‘naltirilgan shakllari muhim o‘rin tutadi.

Shu bilan birga, tanqidiy-operativ muloqotni rivojlantirish talabaning ichki motivasiyasi, intellektual faolligi, ijtimoiy adaptasiyasi va refleksiv qobiliyati kabi psixologik omillar bilan ham belgilanadi. Faqatgina axborot berishga emas, balki ma'no yaratish, bahslashish, himoya qilish va mulohaza yuritishga qaratilgan ta'lim strategiyalari ushbu ko‘nikmalarni samarali shakllantiradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, keys-ssenariylar, vizual tahlil, simulyativ topshiriqlar, debatlar va refleksiv yozma ish shaklidagi faol ta'lim usullari talabalarning tanqidiy-operativ muloqot faolligini oshirishda katta ta'sir ko‘rsatadi. Shu bois, tibbiy ta'lim jarayonida pedagogik muloqot faollashtirilgan, psixologiya jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi va shaxsiy ifodalanish imkoniyatini beruvchi didaktik muhitda tashkil etilishi zarur.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI |СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ |REFERENCES

1. Slastyonin V.A., Isaev I.F., Shiyanov E.N. Pedagogika: ucheb. posobie dlya stud. vissh. ucheb. zavedeniy. — M.: Akademiya, 2002. — 512 s.
2. Amonashvili Sh.A. Lichnostno-gumannaya osnova pedagogicheskogo prosessa. — M.: Prosveshenie, 1990. — 336 s.
3. Buber M. Ya i Ti. — M.: Respublika, 1993. — 190 s.
4. Freyre P. Pedagogika ugnetyonnix. — M.: Kanon+, 2003. — 256 s.
5. Leontev A.N. Deyatelnost. Soznanie. Lichnost. — M.: Politizdat, 1975. — 304 s.
6. Vigotskiy L.S. Mishlenie i rech. — M.: Labirint, 2000. — 352 s.
7. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. — New York: Basic Books, 1983. — 374 p.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

8. Harden R.M., Stevenson M., Downie W.W., Wilson G.M. AMEE Guide No. 20: The use of simulated patients in medical education // Medical Teacher. — 1999. — Vol. 21, No. 5. — P. 465–486.
9. Ten Cate O. Entrustability of professional activities and competency-based training // Medical Education. — 2005. — Vol. 39, No. 12. — P. 1176–1177.
10. Xasanova N.A. Pedagogicheskie usloviya formirovaniya klinicheskogo mishleniya studentov medisinskix vuzov: avtoref. dis. … kand. ped. nauk. — Tashkent, 2021. — 26 s.
11. Xaydarov A.Sh. Formirovanie professionalnoy kompetentnosti studentov medisinskix vuzov v usloviyax sifrovogo obrazovaniya: monografiya. — Tashkent: VUZSOFT, 2020. — 124 s.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Shukurova Sevara Ilhomovna**, Buxoro innovatsion ta’lim va tibbiyot universiteti o o‘qituvchisi, **[Шукурова Севара Илхомовна**, преподаватель Бухарского инновационного образовательного и медицинского университета], **[Shukurova Sevara Ilhomovna** Lecturer at Bukhara Innovative Educational and Medical University, manzil: O‘zbekiston, Buxoro v., Buxoro, ko’cha M. Iqbol 35-uy, [адрес: Узбекистан, Бухарская область, город Бухара, улица М. Икбал 35- дом.,] [Address: Uzbekistan, Bukhara region, Bukhara city, M. Iqbol streethouse-35].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# BO‘LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARIDA IJODIY KOMPETENSIYALARNI USTOZ-SHOGIRD TIZIMI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

© M.F. Utkirova✉
[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** ta’lim jarayonida ijodiy kompetensiya - yangi g‘oyalar yaratish va innovatsion yondoshuvlarni o‘z ichiga olgan salohiyat sifatida ta’riflanadi. Mazkur maqolada bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini tayyorlashda ustoz–shogird tizimining o‘rni va samaradorligi ko‘rib chiqilgan. Adabiyotlar tahlili va amaliy misollar asosida, ushbu tizim ijodiy salohiyatni faollashtirish va mustahkamlashda muhim ekanligi ta’kidlangan. Muloqot natijalarida talabalar ijodiy ko‘nikmalari yaxshilanganini ko‘rsatadi, shu jumladan san’at loyihalarida faol ishtirok, ijodiy ishlar ko‘rgazmalarda namoyishi va xalqaro nashrlarga maqola chop etish kabi yutuqlar kuzatilgan. Xulosa va tavsiyalarda ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishda ustoz-shogird modelidan foydalanishning amaliy yo‘llari hamda pedagogik innovatsiyalarni keng joriy etish bo‘yicha takliflar keltiriladi.

**MAQSAD:** mazkur tadqiqotning maqsadi bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida ustoz-shogird tizimining nazariy va amaliy imkoniyatlarini tahlil qilish hamda uni zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiyalash yo‘llarini asoslashdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqot jarayonida pedagogik, psixologik va san’atshunoslikka oid ilmiy manbalar, jumladan, xorijiy va o‘zbek olimlarining ishlari tahlil qilindi. Shuningdek, tasviriy san’at yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar va ularning ustozlari bilan olib borilgan kuzatishlar, suhbatlar va taqqoslash metodlari qo‘llandi. Analitik, qiyosiy hamda tizimli yondashuvlar asosiy metod sifatida tanlandi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ustoz-shogird tizimi ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali mexanizm bo‘lib, talabaning ijodiy tafakkurini kengaytiradi, san’at asarlariga individual yondashuvni shakllantiradi va amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlaydi. Zamonaviy ta’lim sharoitida bu tizimni qo‘llash orqali nazariya va amaliyot o‘rtasida uyg‘unlikka erishish mumkin.

**XULOSA:** bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida ustoz–shogird tizimi ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim vositasidir. Mazkur tizimning an’anaviy afzalliklarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Shu bois, uni san’at ta’limi jarayonida qayta joriy etish va ilmiy-metodik asosda rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi.

**KALIT SO‘ZLAR:** ustoz-shogird tizimi, ijodiy kompetensiya, tasviriy san’at, innovatsion yondashuvlar, integratsiya, klaster, ta’lim, metod.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Iqtibos uchun**: Utkirova M.F. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida ijodiy kompetensiyalarni ustoz-shogird tizimi asosida shakllantirish. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. B.170–177.

# ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА НА ОСНОВЕ СИСТЕМЫ «МАСТЕР-УЧЕНИК»

© М.Ф. Уткирова[1]✉
[1]Чирчикский государственный педагогический университет, Чирчик, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** творческая компетентность в образовательном процессе определяется как способность генерировать новые идеи и внедрять инновационные подходы. В данной статье рассматриваются роль и эффективность системы «мастер-ученик» в подготовке будущих учителей изобразительного искусства. На основе обзора литературы и практических примеров подчеркивается важность данной системы в активизации и укреплении творческого потенциала. Результаты взаимодействия показывают повышение творческого мастерства студентов, включая активное участие в художественных проектах, представление творческих работ на выставках и публикацию статей в международных изданиях. В выводах и рекомендациях представлены практические пути использования модели «мастер-ученик» в формировании творческих компетенций и предложения по широкому внедрению педагогических инноваций.

**ЦЕЛЬ:** целью данного исследования является анализ теоретических и практических возможностей системы «мастер-ученик» в процессе формирования творческих компетенций будущих учителей изобразительного искусства и обоснование путей её интеграции в современный образовательный процесс.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в ходе исследования были проанализированы научные источники по педагогике, психологии и искусствоведению, в том числе труды зарубежных и отечественных учёных. Также использовались наблюдения, интервью и сравнительные методы со студентами, обучающимися по направлению «Изобразительное искусство», и их преподавателями. В качестве основных методов были выбраны аналитический, сравнительный и системный подходы.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** анализ показал, что система «мастер-ученик» является эффективным механизмом развития творческих компетенций, расширения творческого мышления учащихся, формирования индивидуального подхода к произведениям искусства и закрепления практических навыков. В современных условиях образования использование данной системы позволяет достичь гармонии теории и практики.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** Система «мастер-ученик» является важным инструментом развития творческих компетенций в профессиональной подготовке будущих

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

учителей изобразительного искусства. Высокая эффективность достигается за счет сочетания традиционных преимуществ этой системы с современными педагогическими технологиями. Поэтому ее повторное внедрение в процесс художественного образования и развитие на научно-методической основе является актуальной задачей.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** система «мастер-ученик», творческие компетенции, изобразительное искусство, инновационные подходы, интеграция, кластер, образование, метод.

**Для цитирования**: Уткирова М.Ф. Формирование творческих компетенций будущих учителей изобразительного искусства на основе системы «мастер-ученик». // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. С.170–177.

## FORMING CREATIVE COMPETENCIES OF FUTURE FINE ARTS TEACHERS THROUGH THE MASTER–APPRENTICE SYSTEM

© Ma'mura F. Utkirova[1]✉
[1]Chirchik State Pedagogical University, Chirchik, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** In the educational process, creative competence is defined as the capacity that includes generating new ideas and applying innovative approaches. This article examines the role and effectiveness of the master-apprentice system in the training of future fine arts teachers. Based on a literature review and practical examples, it is emphasized that this system is important in activating and strengthening creative potential. The findings demonstrate that students' creative skills have improved, which is reflected in their active participation in art projects, presentation of artworks at exhibitions, and publication of articles in international journals. The conclusions and recommendations present practical ways of applying the master-apprentice model in developing creative competencies, as well as proposals for the broader implementation of pedagogical innovations.

**AIM:** the purpose of this study is to analyze the theoretical and practical possibilities of the master-apprentice system in forming creative competencies among future fine arts teachers and to substantiate ways of integrating it into the modern educational process.

**MATERIALS AND METHODS:** during the research process, pedagogical, psychological, and art studies literature - including works of both foreign and Uzbek scholars - was analyzed. In addition, observations, interviews, and comparative methods were conducted with students majoring in fine arts and their mentors. Analytical, comparative, and systematic approaches were chosen as the main methods.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the analysis shows that the master-apprentice system is an effective mechanism for developing creative competencies: it expands students' creative thinking, fosters an individualized approach to artworks, and strengthens

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

practical skills. In the context of modern education, applying this system makes it possible to achieve harmony between theory and practice.

**CONCLUSION:** the master-apprentice system is an important tool in developing creative competencies within the professional training of future fine arts teachers. High efficiency can be achieved by integrating the traditional advantages of this system with modern pedagogical technologies. Therefore, its reintroduction and further development on a scientific and methodological basis in art education is considered a pressing issue.

**Keywords:** master-apprentice system, creative competence, fine arts, innovative approaches, integration, cluster, education, method.

**For citation**: Ma'mura F. Utkirova. (2025) 'Forming creative competencies of future fine arts teachers through the master–apprentice system, Inter education & global study, vol.3 (8), pp.170–177. (In Uzbek).

**B**ugungi ta'lim tizimida ijodiy kompetensiya ta'limning ajralmas qismi bo'lib, har bir yangi avlodni tanqidiy fikrlaydigan va ijodkor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Pedagogika fanida ijodiy kompetensiya «yangi g'oyalar yaratish, innovatsion yechimlar ishlab chiqish va mavjud bilimlarni yangi tarzda qo'llash qobiliyati» sifatida tushuntiriladi. O'qituvchilarning ijodiy salohiyati o'quvchilarning ijodkorligini rag'batlantiradi va ta'lim sifatini oshiradi. Shu bois, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor vazifa sanaladi.

An'anaviy ustoz-shogird modeli ta'limda muhim o'rin tutib, pedagoglarni o'z ishiga bag'ishlangan rahbar sifatida belgilaydi. Patrik Shumaherning ta'kidlashicha, «ustoz–shogird modelida o'qituvchi rahbar sifatida harakat qilib, talabalarni o'z loyihasiga kichik sheriklar sifatida jalb etadi». Bu model ixtisoslashgan amaliy mashg'ulotlar va mentorlik tizimi orqali o'rganuvchilarga alohida e'tibor berish imkonini yaratadi. Ta'limda shunday usullar qo'llanganda talabalarning ijodiy fikrlashi, mustaqil ish olib borish ko'nikmalari va san'atkorlik ijrosi rivojlanadi. Kiruvchi bosqichda o'quvchi (talaba)ning ijodiy salohiyatiga asoslangan ustoz–shogird hamkorligi ham kelajakda mustaqil ijodiy kadrlar tayyorlashda kalit ahamiyatga ega bo'ladi. Xitoy tasviriy san'ati tarixi davomida ustoz-shogird tizimining ko'plab rassomlarni yetishtirishda va milliy san'at mahoratini meros qilib uzatishda markaziy rol o'ynagani ta'kidlanadi. Cai (2024) fikricha, Xitoydagi an'anaviy ustoz-shogird modeli milliy san'at an'analarini uzluksiz uzatishda hal qiluvchi rol o'ynagan, biroq hozirgi ta'lim tizimining samaradorligi talablariga javob bermay qolgan. An'anaviy modelni saqlagan holda, uni modern ta'lim modeliga integratsiyalash yo'llarini izlash zarur. Ustoz-shogird tizimi bir qadar nostandart, ammo betakror yo'l bo'lishi mumkin, deb taxmin qiladi. Bu nafaqat san'atda, balki umuman pedagogik amaliyotda yangicha nafas bo'ladi. Mazkur yondashuvning samaradorligi ijodiy kompetensiyaning ta'limdagi o'rnini o'rganish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Adabiyotlarda ijodiy kompetensiyaning ta'limdagi roli keng izlangan. Masalan, Saitova M.U. (2023) tadqiqoti ijodkorlik va yaratuvchanlikni o'qitish usullarini o'rganish

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda mazkur salohiyatni shakllantirish yo‘llarini tahlil qiladi. Tadqiqochining fikriga ko‘ra, bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun o‘qituvchilarning ta’lim dasturlari ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradigan pedagogik strategiyalarni o‘z ichiga olishi kerak. [1] Ustoz dars o‘tish metodikasida albatta ijodiy fikrlash asosiy o‘rin tutadi. Kenjayeva (2024) izlanishlarida esa o‘quvchilarning kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar ahamiyati o‘rganilgan. Muallifning fikricha, «kasbiy kompetensiya texnik bilim va ko‘nikmalarni, ijodiy kompetensiya esa yangi g‘oyalar yaratish va innovatsion yondashuvlarni o‘z ichiga oladi». Shuningdek, o‘qitishda integrativ metodlar qo‘llanganda ijodiy fikrlash yanada samarali faollashadi. Kasbiy va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishda zamonaviy o‘qitish metodlari muhim rol o‘ynaydi. Innovatsion ta’lim metodlari va amaliy o‘qitish shakllari yordamida talabalarda kasbiy kompetensiya va ijodiy fikrlashni shakllantirish mumkin. [2]

Tadqiqotchi Sodagar (2023) san’at darslarini o‘qitishda ZPD nazariyasini asos qilib, pedagogik vositalar orqali ijodiy salohiyatni ko‘tarishga urg‘u beradi. Bu fikr ustoz–shogird modelini nafaqat an’anaviy metodika, balki psixologik asoslari orqali ham boyitadi.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori Sultanov X.E. fikricha “ustoz–shogird” an’analari asosida individual ta’limni tashkil etish orqali talabalarning kasbiy-ijodiy bilimlarini faollashtirishddan iborat. Bu yondashuv orqali talabaga shaxsiy e’tibor qaratilib, uning ijodiy qobiliyatlari yanada rivojlantiriladi.

Tadqiqotchi Berdiyev D.A. (2024) ta’lim sohasidagi tadqiqotlarida ham kelajak avlod o‘qituvchilarini tayyorlash muammosini integratsiya nuqtai nazaridan o‘rgangan. Uning yozishicha, san’at ta’limi kasbiy faoliyatida «maktab o‘quvchilarida hayoliy fikrlashni rivojlantirish, ularning ijodiy muammoni turli fanlardan bilimlarni qo‘llash orqali hal etish qobiliyati» muhim ahamiyatga ega. [3] Ya’ni, bir nechta fan bo‘yicha olingan bilimlarni qo‘llaydigan loyihalar ijodiy yondoshuvni mustahkamlaydi.

Tekshirish jarayonida aniqlanishicha, ustoz–shogird tizimi talabalarning ijodiy faoliyatini mustahkamlash uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Masalan, Chirchiq davlat pedagogika universitetida o‘qiyotgan talabalarning bir guruhida ustoz (ilmiy-ijodiy rahbar) rahbarligida ijodiy loyihalar amalga oshirildi. Ushbu talabalar amaliy mashg‘ulot va loyihalarda faol ishtirok etib, ijodiy fikrlash salohiyati, o‘qishdagi faolligi, jamoaviy ishlarda tashabbuskorligi sezilarli darajada o‘sdi. Nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etish, talabalarning ijodiy intilishlari bilan bog‘liq bo‘lib, buni tajriba orqali ko‘rish mumkin bo‘ldi. Bu jarayon natijasida talabalar bir qancha salohiyatli ijodiy ishlarini tayyorladi, ular turli ko‘rgazmalarda namoyish etildi, [4] yana ba’zilari xalqaro nashrlarga maqola sifatida joylandi. Ushbu ko‘rsatkichlar talabalar o‘rtasidagi ijodiy kashfiyotlar ortganini anglatadi.

Kuzatuv natijasida shuni ham aniqlash mumkinki, ustoz–shogird munosabatlari talabalarni o‘z-o‘ziga ishonch, mustaqil hamda mas’uliyat bilan ishlashga undaydi. SHS Web of Conferences’ maqolasida qayd etilishicha, o‘qituvchining ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish talabalarning ijodiy faolligiga turtki beradi. Bu fikr bizning tajribamizda ham tasdiqlandi, ustoz rahbarligidagi ishlarda talabalarning g‘oyaviy ijodi mustahkamlandi,


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

yangi pedagogik strategiyalarni qo‘llash natijasida ular ijodiy muammolarni hal qilishga intildi.

“San’atshunoslik fakultetida “Ustoz-shogird” yondashuvi asosida tashkil etilgan amaliy mashg‘ulotlar, jumladan «Akvarel maktabi» loyihasi ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishda yuqori samara berdi. Masalan, talabalarga loyihaviy topshiriqlar berilganda va ustozi tomonidan nazoratida ularning ijodiy qobiliyatlari rivojlana boshladi. Shu bilan birga, muhandislik-dizayn ta’limida fanlararo integratsiya ta’limi ijodiy ko‘nikmalarni kengaytirishga yordam beradi. Biz amalga oshirgan integrativ ta’lim misollarida ham talabalarning san’at, texnologiya va boshqa fanlardan kelgan bilimlarni ijodiy vazifada qo‘llash ko‘nikmasi yaxshilandi.

Olimlarning fikricha ijodkorlikni rivojlantirish uchun faqat nazariy darslar yetarli emas. Shu munosabat bilan, amaliy mashg‘ulotlar va loyihalarga alohida urg‘u berish lozim. Talabalarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun klasterni qo‘llash ulargalarga o‘z bilimlarini mustahkamlash, ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish va ijodiy yondashuvlarni ko‘paytirish uchun samarali vosita bo‘lib hisoblanadi. [5] Biz kuzatgan tajribada ham bu yondashuv ish berdi: amaliy mashg‘ulotlar jarayonida “o‘rgatib-o‘rganamiz” tamoyili asosida talabalar doimo yangi ijodiy vazifalar bilan shug‘ullanishdi va izchil bilimlarni mustahkamlashdi.

Ustoz-shogird modelining boshqa usullardan ustun tomonlaridan biri – individual yondashuvdir. Ustoz har bir shogirdning qobiliyati va ehtiyojini hisobga olib, unga maxsus vazifalar beradi. Bu talabalar ijodiga katta motivatsiya qo‘shadi, chunki ular o‘qituvchi yordamisiz o‘z ijodida o‘sishni davom ettirishni ko‘ra boshlaydi.

Pedagogik innovatsiyalar va muammoli ta’lim usullari o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini kuchaytirib, ta’lim samaradorligini oshiradi. Ijodiy kompetensiyani shakllantirishda samarali metodlar - muammoli darslar, kreativ masalalar va guruh loyiha ishlari hisoblanadi. Tadbirlarimiz doirasida shu kabi elementlar qo‘llanilib, talabalarning ijodiy fikrlashi va pedagogik tashabbuslari sezilarli darajada kuchaydi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ustoz-shogird tizimi asosida olib borilgan pedagogik yondashuv bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida ijodiy kompetensiyalarni muvaffaqiyatli shakllantiradi. Bu model o‘quv jarayonida nazariy bilimlarni amaliy san’at loyihalariga tadbiq etishga imkon yaratib, o‘quvchilar ijodkorlik salohiyatini rag‘batlantiradi. Yuqorida keltirilgan misollarda, xususan, «Akvarel maktabi» orqali talabalarga amaliy ko‘nikmalar mustahkamlandi, ular raqobatli ijodiy ishlar yaratishdi. Bu natija milliy ta’lim strategiyasiga ham mos keladi, chunki prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilgan O‘zbekiston ta’limini isloh qilish va inovatsion yondashuvlarni keng joriy etish siyosatlari ijodiy salohiyatni rivojlantirishni talab qiladi.

Tavsiya etiladiki, san’at yo‘nalishidagi ta’lim muassasalarida ustoz–shogird modelini tizimli ravishda kengaytirilsin. Jumladan, amaliy mashg‘ulotlarda malakali pedagog-ustozlar o‘rnak ko‘rsatishi, talabalarga tez-tez maslahat berib turishi lozim. Ustozlik mashg‘ulotlari rejalari ijodiy vazifalarni o‘z ichiga olishi, tanqidiy fikrlash va multidisipliner yondoshuvlarni rivojlantiruvchi topshiriqlarga asoslangan bo‘lishi tavsiya qilinadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Shuningdek, o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlarida pedagogik mahoratni oshirishga qaratilgan maxsus modul joriy qilinishi kerak. Bunda, ustoz–shogird tamoyiliga asoslangan innovatsion treninglar va seminarlar tashkil etilib, tajribali ustozlar o‘z ilmiy-pedagogik yondashuvlarini yangilanayotgan o‘qituvchilar bilan bo‘lishadi. Xalqaro tajribada qo‘llanilayotgan «teaching artist» va «pedagogik mentorlik» kabi konsepsiyalarni ham o‘rganish samara beradi.

Bundan tashqari, ijodkorlikni baholash va monitoring qilish tizimini takomillashtirish lozim. Talabalar ijodiy ishlari uchun ochiq ko‘rgazmalar, tanlovlar va amaliy loyihalar doimiy ravishda tashkil qilinib, ularning natijalari tizimli ravishda tahlil etilsin. Bu jarayonlarda O‘zbekistondagi va xorijdagi ilg‘or amaliyotlar, masalan STEAM ta’limi, mashinalar yordamida loyihalash va raqamli san’at texnologiyalari bilan tanishtirish samarali bo‘ladi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqotdan ko‘rinib turibdiki, ustoz-shogird an’anasi va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uyg‘unlashtirish bo‘lajak san’at o‘qituvchilarining ijodiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil bo‘ladi. Xulosa sifatida, mazkur yondashuv talabalarga ijodiy fikrlashning asoslari va amaliy tajribani birlashgan holda egallash imkonini berishini ta’kidlash joiz. Shu sababli, yangi pedagogik kontseptsiyalar va dasturlar ishlab chiqishda san’at ta’limini hamda u bilan bog‘liq “ustoz-shogird” modeli kabi an’anaviy metodlarni hisobga olish lozim.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Saitova M.U. (2023). Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish usullari. “XXI asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta’lim taraqqiyotidagi dolzarb muammolar” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 126–128.
2. Kenjayeva Z.S. (2024). Qiziquvchanlikda kasbiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish. Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 4(11), 63–67.
3. Berdiyev D.A. (2024). The role of integrative education in student activation. (2024). Web of Teachers: Inderscience Research(11), 151-155.
4. Fayzullayeva D.J. (2025). “Ustoz–shogird” an’anasi asosida tasviriy san’at yo‘nalishida ijodiy va kasbiy faoliyatni rivojlantirishning samarali yo‘llari. Modern Education and Development, №24 (2), 78–82.
5. Sultanov, X. E. Klaster yondashuvi vositasida talabalarning ijodkorlik ko‘nikmalarini tarbiyalash // Kasb-hunar ta’limi. – 2022. – № 4. – B. 85–89.
6. Utkirova, M. F. Klaster yondashuvi asosida o‘quvchilardagi ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi // Diversity Research: Journal of Analysis and Trends. – 2024. – T. 2, № 04. – B. 5–8. – ISSN 2810-6393.
7. Patrik Schumacher (2015). Pedagogy and Paradigm: The Master-Apprentice model in Architectural Education.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

8. Sodagar, M. R. (2023). Teaching Painting to Children Using Vygotsky's Sociocultural Theory of “Zone of Proximal Development.” Paykareh Journal, Shahid Chamran University of Ahvaz.
9. Cai, X. (2024). An exploration of the application of the traditional “master-apprentice system” in the inheritance of Chinese painting. Journal of Art Education Studies, 15(2), 45–56.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Utkirova Ma’mura Faxridin qizi**, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Tasviriy san’at va amaliy bezak yo‘nalishi magistranti [Уткирова Маъмура Фахридин кизи, Чирчикский государственный педагогический университет, магистрант по направлению «Изобразительное искусство и декоративно-прикладное искусство»], [Utkirova F. Ma’mura, Chirchik State Pedagogical University, Master’s student in the field of Fine arts and applied decorative arts]; manzil: O‘zbekiston, Toshkent viloyati, Chirchiq sh. [Адрес: Узбекистан, Ташкентская область, г. Чирчик], [Address: Uzbekistan, Tashkent region, Chirchik city].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# PEDAGOGIK KLASTER MUHITIDA USTOZ-SHOGIRD USULI VA FAOL O‘QITISH STRATEGIYALARINING O‘ZARO INTEGRATSIYASI

© X.E. Sultanov[1]✉

[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: maqolada zamonaviy ta’lim sharoitida ustoz-shogird an’anasini talaba markazda bo‘lgan innovatsion metodlar bilan uyg‘unlashtirilish tajribasi o‘rganiladi. Asosiy e’tibor ijodiy integratsiyalashgan o‘quv muhitida ustoz-shogird modeli orqali talabalarni faollashtirish jarayoniga qaratiladi. Shuningdek, Chirchiq davlat pedagogika universitetida yo‘lga qo‘yilgan “talaba - talabaga shogird, talaba - talabaga ustoz” tamoyiliga asoslangan “O‘rgatib-o‘rganamiz” tengdoshlar ta’limi loyihasi tajribasi tahlil qilinadi. Tadqiqot ishida milliy ta’limda ustoz-shogird usulini innovatsion usullar bilan sinergik tarzda joriy etish – bugungi pedagogikaning ustuvor yo‘nalishi sifatida talqin qilinadi.

**MAQSAD**: ushbu tadqiqotning maqsadi - an’anaviy ustoz-shogird tizimini zamonaviy pedagogik klaster muhitida innovatsion ta’lim usullari, xususan faol o‘qitish strategiyalari bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini ochib berish hamda “O‘rgatib-o‘rganamiz” loyihasi tajribasi asosida uning samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR**: tadqiqotda Chirchiq davlat pedagogika universiteti tajribasi, xususan, “Talaba-talabaga ustoz, talaba-talabaga shogird” tamoyili asosidagi “O‘rgatib-o‘rganamiz” loyihasi amaliy maydon sifatida olindi. Uslubiy jihatdan qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish, tajriba-sinov faoliyati, interfaol mashg‘ulotlar va tengdoshlar ta’limi (peer teaching) modellari qo‘llanildi. Shuningdek, xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar tahlili, nazariy asoslarni umumlashtirish va xulosalash usullari ishlatildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, ustoz-shogird usulining zamonaviy interpretatsiyasi talablarning ijodiy faolligini kuchaytiradi, mustaqil fikrlash va pedagogik kompetensiyalarini shakllantiradi. Tengdoshlarga o‘qitish jarayonida talaba o‘z bilimlarini chuqurroq o‘zlashtiradi, pedagogik tajribasini oshiradi va murabbiylik ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. “O‘rgatib-o‘rganamiz” loyihasi tajribasi shuni ko‘rsatdiki, talabalarida kasbiy tayyorgarlik jarayoni tezlashadi, ijodiy muhitda ularning mas’uliyati va yetakchilik qobiliyatlari rivojlanadi. Shu bilan birga, pedagogik klaster doirasidagi hamkorlik ta’lim jarayonida integratsiyalangan ijodiy muhitni ta’minlaydi.

**XULOSA:** tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, ustoz-shogird usulining zamonaviy interpretatsiyasi talablarning ijodiy faolligini kuchaytiradi, mustaqil fikrlash va pedagogik kompetensiyalarini shakllantiradi. Tengdoshlarga o‘qitish jarayonida talaba o‘z bilimlarini chuqurroq o‘zlashtiradi, pedagogik tajribasini oshiradi va murabbiylik ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. “O‘rgatib-o‘rganamiz” loyihasi tajribasi shuni ko‘rsatdiki, talabalarida kasbiy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

tayyorgarlik jarayoni tezlashadi, ijodiy muhitda ularning mas'uliyati va yetakchilik qobiliyatlari rivojlanadi. Shu bilan birga, pedagogik klaster doirasidagi hamkorlik ta'lim jarayonida integratsiyalangan ijodiy muhitni ta'minlaydi.

**Kalit so'zlar**: tasviriy san'at, ustoz-shogird tizimi, pedagogik klaster, ijodiy kompetensiyalar, talabalarning hamkorligi, "O'qit-O'rgan" loyihasi va pedagogik innovatsiyalar.

**Iqtibos uchun**: Sultanov X.E. Pedagogik klaster muhitida ustoz-shogird usuli va faol o'qitish strategiyalarining o'zaro integratsiyasi. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. B.178–189.

## ВЗАИМНАЯ ИНТЕГРАЦИЯ МЕТОДА "МАСТЕР-УЧЕНИК" И СТРАТЕГИЙ АКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ В СРЕДЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО КЛАСТЕРА

© Х.Э. Султанов[1]✉
[1]Чирчикский государственный педагогический университет, Чирчик, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: в статье рассматривается опыт сочетания традиции учитель-ученик с инновационными методами, ориентированными на студента, в современных образовательных условиях. Основное внимание уделяется процессу активизации студентов через модель учитель-ученик в творческой интегрированной среде обучения.

Также анализируется опыт проекта взаимного обучения "Учим и учимся", основанного на принципе "студент - ученик к студенту, студент - учитель к студенту", созданного в Чирчикском государственном педагогическом университете. В исследовательской работе интерпретируется синергетическое внедрение метода учитель-ученик с инновационными методами в отечественное образование как приоритетное направление сегодняшней педагогики.

**ЦЕЛЬ**: цель данного исследования - выявить возможности сочетания традиционной системы наставник-ученик с инновационными методами обучения в современной педагогической кластерной среде, в частности, с активными стратегиями обучения, а также проанализировать ее эффективность на основе опыта проекта "Обучаем-учимся".

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в исследовании в качестве практической площадки был взят опыт Чирчикского государственного педагогического университета, в частности, проект "Обучаем и учимся", основанный на принципе "Студент-студенту - наставник, студент-студенту - ученик". Методологически использовались модели сравнительного анализа, педагогического наблюдения, экспериментальной деятельности, интерактивных занятий и обучения сверстников (peer teaching). Также использовались методы анализа зарубежной и отечественной научной литературы, обобщения и вывода теоретических основ.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: в процессе исследования выявлено, что современная интерпретация метода наставник-ученик усиливает творческую активность студентов, формирует самостоятельное мышление и педагогические компетенции. В процессе обучения сверстников студент глубже усваивает свои знания, повышает педагогический опыт и приобретает наставнические навыки. Опыт проекта “Обучаем-учимся” показал, что у студентов ускоряется процесс профессиональной подготовки, развиваются их ответственность и лидерские качества в творческой среде. В то же время сотрудничество в рамках педагогического кластера обеспечивает интегрированную творческую среду в образовательном процессе.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: в системе образования Узбекистана гармонизация традиции наставник-ученик с современными стратегиями активного обучения и обучения сверстников является важным направлением национальной педагогики. Опыт Чирчикского государственного педагогического университета показывает, что интегрированная творческая учебная среда формирует каждого студента как активного субъекта, развивает его профессиональный, творческий и научный потенциал. Следовательно, синергетическое внедрение моделей “мастер-ученик” и “peer teaching” является эффективным способом повышения качества образования и подготовки всесторонне развитого специалиста.

**Ключевые слова**: изобразительное искусство, система наставник-ученик, педагогический кластер, творческие компетенции, сотрудничество студентов, проект “Обучаем-учимся”, педагогические инновации.

**Для цитирования**: Султанов Х.Э. Взаимная интеграция метода “мастер-ученик” и стратегий активного обучения в среде педагогического кластера. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. С.178–189.

## INTER-INTEGRATION OF TEACHER-STUDENT METHOD AND ACTIVE TEACHING STRATEGIES IN PEDAGOGICAL CLUSTER ENVIRONMENT

© Khaytboy E. Sultanov[1]✉
[1]Chirchik State Pedagogical University, Chirchik, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: the article studies the experience of combining the teacher-student tradition with innovative student-centered methods in modern educational conditions. The main attention is paid to the process of activating students through the teacher-student model in a creative integrated learning environment.

Also, the experience of the peer education project “We teach and learn” based on the principle of “student - student to student, student - student to teacher” established at Chirchik State Pedagogical University is analyzed. The research work interprets the synergistic introduction of the teacher-student method with innovative methods in national education as a priority direction of today’s pedagogy.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**AIM:** the purpose of this study is to reveal the possibilities of combining the traditional teacher-student system with innovative educational methods, in particular active learning strategies, in a modern pedagogical cluster environment, and to analyze its effectiveness based on the experience of the “Teach-Learn” project.

**MATERIALS AND METHODS**: the experience of the Chirchik State Pedagogical University, in particular, the “Teach-Learn” project based on the principle of “Student-to-student teacher, student-to-student student disciple”, was taken as a practical field in the study. Methodologically, comparative analysis, pedagogical observation, experimental activities, interactive exercises and peer teaching models were used. Also, methods of analysis of foreign and domestic scientific literature, generalization of theoretical foundations and conclusions were used.

**DISCUSSION AND RESULTS**: as revealed in the research, the modern interpretation of the teacher-student method enhances the creative activity of students, forms independent thinking and pedagogical competencies. In the process of teaching peers, the student deepens his knowledge, increases his pedagogical experience and acquires mentoring skills. The experience of the “Teach-Learn” project has shown that the process of professional training of students is accelerated, their responsibility and leadership skills are developed in a creative environment. At the same time, cooperation within the pedagogical cluster provides an integrated creative environment in the educational process.

**CONCLUSION**: in the Uzbek education system, the combination of the teacher-student tradition with modern active teaching strategies and peer education is an important direction of national pedagogy. The experience of Chirchik State Pedagogical University shows that an integrated creative learning environment forms each student as an active subject, develops his professional, creative and scientific potential. Therefore, the synergistic introduction of the “teacher-student” and “peer teaching” models is an effective way to improve the quality of education and train a well-rounded specialist.

**Keywords**: fine arts, teacher-student system, pedagogical cluster, creative competencies, student collaboration, “Teach-Learn” project, pedagogical innovations.

**For citation**: Khaytboy E. Sultanov. (2025) ‘Inter-integration of teacher-student method and active teaching strategies in pedagogical cluster environment’, Inter education & global study, vol.3 (8), pp.178–189. (In Uzbek).

**O**‘zbekiston ta’lim tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichida ta’lim ishtirokchilarining o‘zaro faol muloqotiga asoslangan shaklda ustoz-shogird an’anasi hamda innovatsion ta’lim metodlarini integratsiyalash muhim xususiyatga aylanib bormoqda. Xususan, badiiy ta’limda ustozning shaxsiy boshqaruvi va turli loyihalar bilan ta’lim-tarbiya jarayonidagi talabalar faoliyatini uyg‘unlashtirish zaruriyati sezilyapti. Ijodiy integratsiyalashgan o‘quv muhitini yaratish uchun “o‘qituvchi-talaba”, “talaba-talaba” tizimida nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan uyg‘unlashtirish muhim masala hisoblanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Chirchiq davlat pedagogika universitetida “Talaba-talabaga ustoz, talaba-talabaga shogird” tamoyiliga asoslangan “O‘rgatib-o‘rganamiz” tengdoshlar ta’limi loyihasi kabi tashabbuslar ana shu maqsadni ko‘zlaydi. Maqolada ushbu pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi, aniq misollar asosida milliy ta’lim sharoitida ustoz-shogird tizimini modernizatsiya qilish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Zamonaviy ustoz-shogird modeli pedagogik jihatlari.

An’anaviy ustoz-shogird usuli xususiyati shundaki, ustoz bitta yoki bir nechta shogirdga individual yondashuv bilan chuqur bilim beradi, shaxsiy tajribasini o‘rgatadi. Bu jarayonda shogird ustozning ish uslubini to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuzatadi, ijodiy mahoratini rivojlantiradi. Ta’lim-tarbiyaga asoslangan ustoz-shogird munosabatida hissiy bog‘lanish va hurmat muhiti shakllanadi. Biroq, qat’iy ierarxiyali tarzidagi bu tizim shogirdning mustaqil fikrlashini va yangilikka intilishini cheklashi mumkin. Zamonaviy pedagogikada murabbiy faqat buyruq beruvchi emas, balki ta’lim jarayonida talaba bilan hamroh, yo‘l-o‘rgatuvchi ekanligi ta’kidlanmoqda. Ustoz endi birdamlikda faoliyat olib borishiga sharoit yaratadi – talaba ijrochi, ijodkor va yo‘naltiruvchi sifatida rivojlanadi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, asrlar davomida sinovdan o‘tgan ustoz-shogird modeli hozirgacha ham AQSH, Rossiya [1], Turkiya [2] va Yaponiya [3] kabi ko‘pgina mamlakatlarda asosiy qiymatini saqlab qoladi, lekin uni talaba markazli yondashuvlar bilan boyitish talab etiladi. Misol uchun, estetik ta’lim bo‘yicha tadqiqotlar o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ham ijodiy sheriklikka asoslangan yangi munosabatlar modelini taklif etadi. Bunda ustoz faol boshqaruv orqali emas, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, o‘rgatuvchi va qo‘llab-quvvatlovchi murabbiy sifatida ishtirok etadi.

Boshqa tahlilchilarning fikricha, asrlar davomida tajribadan o‘tgan an’anaviy ustoz-shogird modelini saqlagan holda uni zamonaviy “asosiy e’tibor ta’lim oluvchiga” tamoyillari bilan boyitish mumkin va bu kechiktirib bo‘lmas vazifa hisoblanadi. Xususan, T. Rothlein o‘z blogida zamonaviy *Aesthetic Education* (Estetik ta’lim) konsepsiyasini an’anaviy ustoz-shogird modeliga qarama-qarshi qo‘yib, ularning integratsiyasini o‘ylab ko‘rishni taklif qiladi. Uning ta’kidlashicha, estetik ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchi “ustoz-shogird” tizimidagidek qat’iy yuqori-quyi munosabatda bo‘lmay, aksincha, teng sherik sifatida birgalikda ijodiy izlanadi; o‘qituvchi o‘rganish jarayonida talabaning sherigiga aylanadi, bilim va tajriba almashinuvi o‘zaro hurmatga asoslanadi [4]. Albatta, bu yondashuvda ham o‘qituvchining rahbarlik roli saqlanib qoladi, biroq bu rol buyruqbizlik yoki mutlaq nazorat tarzida emas, balki yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi murabbiy sifatida namoyon bo‘ladi.

Natijada auditoriyada ijodiy muloqot muhiti shakllanadi, har bir talaba o‘z shaxsiy tajribasi va fikrini erkin bildirishga rag‘batlantiriladi. O‘zbekistonda ham professor-murabbiylar talabalarni mustaqil ijodiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlaydi, ularning fikrini eshitib, birgalikda muhokamalar o‘tkazadi. Bu esa ham ustozga hurmatni, ham talabani mustaqil fikrlashini oshiradi.

Qayd etish kerakki, murabbiyning o‘rni pedagogik jarayonda o‘zgarib bormoqda. U endi faqat bilim manbai emas, balki jarayonni boshqaruvchi fasilitatorga aylanadi.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Hamkorlikda o‘qitish uslubiga xos interaktiv mashg‘ulotlarda pedagog va talabalar o‘rtasida bevosita muloqot, teng ishtirok hamda erkin fikr almashinuvi jarayoni kechadi. Natijada, o‘quv muhitida har bir talaba shaxsiy fikrini bildirish, o‘zini qiziqtirgan savollarni berib, jamoa bilan tahlil qilgan holda kerakli javoblarni topishi mumkin.

O‘zaro ta’lim (*peer teaching*) konsepsiyasi esa so‘nggi yillarda butun dunyo ta’lim tizimida katta qiziqish uyg‘otmoqda. Bu ta’lim jarayonida talabalar o‘rtasida ijobiy munosabat muhiti yaratish, ulardagi ijtimoiy o‘zaro ta’sir va hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash hamda zamonaviy yoshlardagi noto‘g‘ri tushunchalar va tafakkurdagi nomuvofiqliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

J.F. Nestojko va boshqa mualliflar “… o‘rgatishi kerakligini his qilgan talabalar matnning muhim ma’lumotlarini ko‘proq yodda saqlab, o‘z bilimlarini yaxshiroq tizimlashtirgan [5] ligini ta’kidlashadi. Yuqoridagi tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, inson o‘qigan mavzusini boshqalarga o‘rgatish orqali o‘z bilimini yaxshiroq mustahkamlashi mumkinligini isbotlab turibdi. O‘qituvchi bu yerda asosan talabalarining bir-biridan o‘rganishlarini qo‘llab-quvvatlaydigan ijodiy muhit yaratishga harakat qilishi lozim. Ijodiy-amaliy mashqlar orasidagi mana shunday jamoaviy hamkorlik muhiti talabalarni faollashtirib, mashg‘ulotlarga qiziqishini oshiradi, ularning ijodiy tafakkurini kengaytiradi va ijtimoiy ko‘nikmalarini rag‘batlantiradi.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tasviriy san’at yo‘nalishida “O‘rgatib-o‘rganamiz” loyihasi asosida amaliyotga tatbiq etilgan “Talaba-talabaga ustoz, talaba-talabaga shogird” tengdoshlar ta’limi tamoyili aynan shu g‘oyani ifodalaydi. Ya’ni talaba o‘z tajribasini o‘rgatish uchun tengdoshiga ustozlik qiladi hamda ushbu jarayon orqali o‘z bilimlarini ham mustahkamlaydi. Oliy ta’lim tizimida tengdoshlarga o‘qitish g‘oyasini tizimli ravishda sinovdan o‘tkazish maqsadida muallif tomonidan amaliyotga tatbiq etilgan “O‘rgatib-o‘rganamiz” loyihasi – talabalarining o‘zaro bilim almashish orqali o‘rganishlarini (*peer teaching*) ifoda etadi. Loyiha asosiy g‘oyasi – “O‘zing o‘rganganingni boshqalarga o‘rgat, shunda o‘zing yanada ko‘proq o‘rganasan” tamoyiliga asoslanadi.

Ushbu loyiha aslida mashhur “Learn by Teaching” tamoyilining milliy ta’lim sharoitiga moslashtirilgan ko‘rinishi bo‘lib, unda talabalar ma’lum bir muddat davomida o‘zlarini o‘qituvchi rolida sinab ko‘rishadi. O‘qitish orqali o‘rganish (*Learn by Teaching*) usuli Ayxstett universiteti professori Jan-Pol Martin tomonidan ishlab chiqilgan va ilk bor amaliyotga tatbiq etilgan o‘qitish metodidir [6]. Bu jarayonda o‘qituvchi yetakchilik rolini talabaga topshiradi, biroq darsning borishini kuzatishda ularning faoliyatini tuzatish va boshqarish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Uning mohiyati – talabalar va maktab o‘quvchilarini bilim olishga o‘rgatish hamda o‘z bilimlarini tengdoshlariga yetkazishdan iborat.

“O‘rgatib-o‘rganamiz” loyihasi – talabalar ta’lim tizimidagi muammolarni bartaraf etishda bevosita ishtirok etishi orqali ularni ta’lim klasteri hamkorligidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga keng jalb qilish, mustaqil harakat qilishga o‘rgatish, ijodiy tafakkurni tarbiyalash, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash kompetensiyalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, pedagogik kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini tezlashtirishga oid

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

texnologiyalarni takomillashtirish, uzluksiz ta'lim muassasalarining hamkorlikdagi faoliyatini tubdan yangilash va o'zaro ta'sir orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

"O'rgatib-o'rganamiz" amaliy loyihasining maqsadi: talabalarni mustaqil bilim olishga asoslangan holda pedagogik faoliyatga tayyorlikni kuchaytirish, "o'qituvchi-talaba-o'quvchi" tizimida o'zaro ta'sirni ta'minlash hamda nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasini rivojlantirishdan iborat.

Vazifalari:

talabalardagi tanlagan kasbiy faoliyati va uning ma'suliyati haqida tasavvurini shakllantinrish, mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish;

Tasviriy san'at ta'limida mavjud muammolarni aniqlash, tahlil qilish va tasniflashni o'rganish, talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish;

Talabalar rahbarlik qiladigan to'garak va mini-to'garaklar tashkil etish; klaster hamkorligi doirasida maktabda talabalar, universitetda o'quvchilarning ijodiy ko'rgazmalarini tashkil etish, ijodiy tanlovlar o'tkazish;

Kutiladigan natijalar:

Talabaning ijodiy ko'nikmalarini shakllantiradi, kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini tezlashtiradi; ijodiy fikrlashga o'rgatadi;

"Ustoz-shogird" tizimini yaratish orqali o'qituvchi-talaba-o'quvchi o'rtasida "teskari aloqa"ni o'rnatilib, turli vaziyatlarga tez moslashuvchan, hayotiy va kasbiy faoliyat uchun zarur ko'nikma va malakalar shakllanadi;

nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish kompetensiyalari rivojlantiriladi; Talabalarning pedagogik ko'nikmasi, xulq-atvorida ijobiy fazilatlar shakllanib borishi ta'minlanadi.

"O'rgatib-o'rganamiz" loyihasini amalga oshirish mexanizmlari

Mexanizmlar

Amalga oshirish yo'nalishlari mazmuni

Individual yondashuv

Talabaning iqtidoriga asosan faoliyatga yo'naltirish, baholash indikatorlarini ishlab chiqish

Integratsiyalashgan hamkorlik

Tadqiqotlarni OTM va XT o'rtasida hamkorlik, ta'lim-tarbiya integratsiyasi, fanlararo , ta'lim-san'at-fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga yo'naltirish

Ijodiy muhit yaratish

To'garaklar, klublar, ko'rgazmalar orqali ijodiy muhit shakllantirish

Innovatsiya va tajriba-sinov

Innovatsion loyihalarni tajriba-sinov asosida joriy etish

Tashkiliy va yetakchilikni shakllantirish

Talabalarni iqtidori bo'yicha mini to'garaklar ochishga, tashkiliy va yetakchilik faoliyatiga yo'naltirish

"O'rgatib-o'rganamiz" loyihasi doirasida ushbu mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Individuál yondashuv:

- talabalarning shaxsiy kasbiy-ijodiy qobiliyatiga asoslanib ularga individual ta'lim yo'nalishi tanlanadi;

- bakalavr ta'lim bosqichidan boshlab talabaning layoqatini baholash indikatorlari ishlab chiqiladi hamda amaliyotga tatbiq etiladi;

- ustoz-shogird tizimida shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

2. Integratsiyalashgan hamkorlik:

- kafedraning boshqa mahalliy va xorijiy OTMlar, badiiy akademiya, muzeylar, umumta'lim va maxsus san'at maktablari, mahalla va ishlab chiqarish korxonalari bilan manfaatli hamkorlik aloqalari shakllantiriladi;

- ilmiy - tadqiqot ishlari va innovatsion loyihalar ta'lim-san'at-fan va ishlab chiqarishga integratsiya qilinadi.

3. Ijodiy muhit yaratish:

- Talabalar ijodiyoti klubi, mini to'garaklar, "Ijodiy ustaxona"lar faoliyati orqali talabalarning kasbiy-ijodiy faolligi kuchaytiriladi;

- ijodiy izlanishlar va g'oyalarni amaliy jihatdan ro'yobga chiqarishga sharoit yaratiladi;

- ko'rgazmalar tashkil etilib, talabalar ijodiy ishlari bilan ishtirok etib, amaliy tajriba orttiradi;

- talabalar ko'rgazmali qurollar, elektron darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar yaratish jarayoniga jalb etiladi.

4. Innovatsiya va tajriba-sinov:

ilmiy asoslangan innovatsion loyihalar tajriba-sinov shaklida yo'lga qo'yiladi;

sohaviy yutuqlar o'quv jarayoniga joriy etiladi.

5. Tashkiliy va yetakchilikni shakllantirish:

- iqtidorigaqarab talabalarga o'z imkoniyatlarini namoyish etish uchun sharoit yaratish orqali ularda mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish kabi kasbiy ko'nikmalari shakllantiriladi;

- Ijodiy, kasbiy va ilmiy faoliyatlar orqali ularda ko'p jihatdan barkamol shaxs sifatida shakllanishga yordam beriladi;

- Talabalarda jamoani boshqarish, yetakchilik va ustozlik qobiliyati shakllantiriladi.

"O'rgatib-o'rganamiz" loyihasini amalga oshirishdan kutiladigan umumiy natijalar:

Talabada:

yangi sharoitlarda muammolarni ko'rish, tahlil qilish, yechimini izlash va uni mustaqil hal etishga o'rganadi;

yangiliklarni qabul qilish, jarayonni tashkillashtirish, uni amaliyotga tatbiq etish, boshqarishda o'ziga ishonch hissi paydo bo'ladi;

o'z layoqatiga ko'ra ilmiy va ijodiy ehtiyojlarini qondiradi, boshqalarga o'rgatish orqali pedagogik tajribasini oshiradi;

o'zini "Ustoz" sifatida sinab ko'radi, pedagogik faoliyatga ko'nikib boradi;

aniq maqsad sari harakat qilish, yangi g'oyalar ustida ishlash, hech kimnikiga o'xshamagan o'zining "men"ini ko'rsatishga bo'lgan ishtiyoq paydo bo'ladi;


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

o‘z faoliyatida qanday ko‘rgazmali qurollar kerakligini anglab yetadi, uni bajarish tajribasini boshqalarga o‘rgatadi;

nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llaydi, pedagoglik kasbiga tayyorlanadi, “bilim bilimga ishlasin” tamoyili ostida murabbiylik ko‘nikmalarini shakllantiriladi;

o‘quvchilarda:

pedagoglik kasbi va tasviriy san’atga nisbatan qiziqish paydo bo‘ladi;

ham tasviriy va amaliy san’atdan bilim oladi, ham yaratuvchanlik xislatlari, shogirdlik madaniyati tarbiyalanadi;

kelgusida o‘qishga kirish uchun kerakli bilimni egallaydi;

oliy ta’lim va talabalik hayoti haqida tasavvur paydo bo‘ladi;

ma’naviy dunyosi shakllanib boradi;

uzluksiz ta’lim tizimida:

o‘zaro ta’sir orqali orqali ta’lim olish sifati oshiriladi;

mavjud muammolar aniqlashadi, hamkorlikda uning yechimini topish imkoniyati paydo bo‘ladi, ilmiy tadqiqot olib borish layoqatiga ega maktab o‘qituvchilari amaliyotchi rassomlar, amaliy san’at ustalari o‘quv jarayoni va ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilinadi, tajriba-sinov ishlari takomillashadi;

tarbiyaning zamonaviy usullari, uslublari, tajriba maydonchalari yaratiladi;

iqtidorli talabalarning innovatsion xarakterdagi shaxsiy tashabbuslari qo‘llab-quvvatlanadi, kreativ qobiliyatlari rivojlantiriladi;

mutaxassis kadrlarning raqobatbardoshligi oshiriladi, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashuvchanligini ta’minlanadi;

o‘zaro hamkorlik aloqalari kuchayadi, universitet o‘qituvchilari maktabdagi fanni o‘qitish muhitiga kirib boradi;

maktab o‘qituvchilarida o‘z sohalari bo‘yicha kerakli yordam ola bilishiga ishonch hosil bo‘ladi;

ma’lum darajada o‘quvchilarni fanga qiziqtirishdagi yuklamalari yengillashadi. Mana shunday ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishda “O‘rgatib-o‘rganamiz” loyihasi orqali iqtidorli talabalarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish mumkin.

Talaba talabaga shogird, talaba talabaga ustoz tamoyili asosida o‘rgangan texnikasi haqida tengdoshlari bilan o‘rtoqlashadi va “ustoz” sifatida tajribasini ular bilan baham ko‘radi. O‘qituvchining bevosita aralashuvisiz yakka tartibda yoki guruhda bir-biriga o‘rgatish orqali bir-biridan o‘rganish uchun talabalar - o‘qituvchi rolini o‘z zimmalariga oladilar [7]. Bu yondashuv an’anaviy ustoz-shogird modelini to‘ldiradi, chunki unda har bir talaba o‘z bilim va ko‘nikmasini boshqalarga o‘rgatish jarayonida bilimni yanada chuqurroq egallash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu tarzda o‘quv jarayonidagi vazifalarni bajarish bilan birga reproduktiv (o‘rganish va tahlil qilish), kreativ (ijodiy faoliyatida qo‘llash) va kommunikativ (o‘rgatish) kabi ketma-ket uchta bosqich integratsiyalashadi. Ushbu tizimda tashkil etilgan bosqichli vazifalar bir-birini mustahkamlab boradi. Demak, integratsiyalashgan yondashuv yordamida talaba bir vaqtning o‘zida tadqiqotchi, ijodkor va

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

o‘qituvchi sifatida rivojlanadi - bu esa uning rangtasvir mahoratini ham, tafakkurini ham, pedagogik layoqatini ham birdek oshiradi.

Masalan, “Biz eshitganimizning 10 foizini, o‘qiganimizning 20 foizini, qilganimizning 50 foizini, muhokama qilganimizning 75 foizini va o‘rgatganimizning 90 foizini eslab qolamiz. Albatta, bu raqamlar shartli bo‘lsa-da, mazmun mohiyatan to‘g‘ri: birovga tushuntirish uchun odam avvalo o‘zi puxta tushunib olishi kerak. Xitoylik faylasufi Konfutsiyning «Eshitdim - unutdim.

Ko‘rdim - eslab koldim. Bajardim - tushundim» degan ta’limotiga monand Chirchiq modelida ham “Eshitdim, ko‘rdim, bajardim” tamoyili asosida klaster orqali uzluksiz pedagogik ta’limni rivojlantirishga katta e’tibor qaratiladi [8, 15 b.]. Demak, talaba agar mashg‘ulotlarda o‘rgangan narsasini guruhdoshlariga o‘rgatishni hoxlasa, u bu bilimni jiddiyroq egallash kerakligini anglab yetadi va bunga intiladi. Natijada, tengdoshlararo o‘qitish talabalarning o‘quv jarayoniga jalb qilinishi va mas’uliyatini oshiradi.

Muhokamalar ko‘rsatganidek, O‘zbekistonda an’anaviy ustoz-shogird tarbiyasi zamonaviy pedagogik yondoshuvlar bilan uyg‘unlashtirilishi zarur. Integratsiyalashgan ijodiy o‘quv muhiti - ustoz-shogird an’anasini interaktiv va tengdoshlarga ta’limi uslublari bilan uyg‘unlashtirish – har bir talabani faol subyektga aylantirishni ta’minlaydi.

O‘rgatib-o‘rganamiz loyihasi tajribasida ko‘rilganidek, tengdoshlariga murabbiylik qilishi orqali talabaning bilimga bo‘lgan qiziqishi va mas’uliyati oshiradi, o‘z bilimini yanada mustahkamlaydi. Bunday o‘zaro ta’sir asosidagi o‘qitish bilan an’anaviy dars usullari birlashganda ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarish mumkin. Xulosa qilib aytganda, milliy ta’limda ustoz-shogird usulini innovatsion usullar bilan sinergik tarzda joriy etish – bugungi pedagogikaning ustuvor yo‘nalishi sanaladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Шайгозова, Ж. Н. (2005). Художественная педагогика и поликультурное образование. Вестник Нижневартовского государственного университета.
2. Kabaçam, B. (2024). El sanatı geleneğinde usta-çırak ilişkisi: Yaşayan insan hazineleri örneği [The master-apprentice relationship in the handicraft tradition: The case of living human treasures]. Milli Folklor. 100-111 б. 110 б., 2. https://doi.org/10.58242/millifolklor.1372122.
3. Kogei Japan – Living National Treasure. – en.kogei-japonica.com (япон аний анъанавий ҳунармандчилик бўйича веб-сайт, мурожаат санаси: 05.05.2025).
4. Rothlein, T. (2014, mart). Contemplating the Master and Apprentice Model. (Онлайн блог мақоласи tobinrothlein.com 7).
5. Нестожко Ж.Ф., Буй Д.Ч., Корнелл Н., Бьорк Э.Л. Expecting to teach enhances learning and organization of knowledge in free recall of text passages // Хотира ва когнитсия. - 2014. - Т. 42. - № 7. - С. 1038-1048. DOI:10.3758/s13421-014-0416-zpubmed.ncbi.nlm.nih.gov.
6. https://ru.wikipedia.org/wiki/Учение_через_обучение.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

7. https://www.togetherplatform.com/blog/peer-teaching-overview-benefits-models
8. Амануллаев, А. (2023). *Академик рангтасвир*. Дарслик. Наманган: НамДУ нашри, 298 б.
9. Шаляпин, О. В., & Султанов, Х. Э. (2024). Становление и развитие практики копирования станковой живописи в художественном образовании: Учебное пособие (1-часть). Москва.
10. Шаляпин, О. В., Султанов, Х. Э., & Зубрилин, К. М. (2025). Формирование живописного мастерства в процессе копирования художественных произведений: Монография. Москва: Перспектива.
11. Сенько, Д. С. (2019). Метод копирования и его дидактические возможности. Илмий мақола, 62–66 б.
12. Trowbridge, C. (2009). *Going for the 90%*. TeachKidsArt (блог).
13. Rothlein, T. (2014). Contemplating the Master and Apprentice Model. (Онлайн блог-маколаси, tobinrothlein.com).
14. Денисенко, В. И., Беломыцева, А. Д. (2015). Развитие художественно-творческих способностей студентов художественно-графических факультетов в процессе самостоятельной учебно-творческой работы по живописи. Теория и практика общественного развития, №11, 262–266 б.
15. *Peer Teaching overview, benefits and models*. togetherplatform.com/blog (https://www.togetherplatform.com/blog/peer-teaching-overview-benefits-models).
16. Кох, А. В. Л., Ли, С. Ч., Лим, С. В. Ҳ. (2018). *The learning benefits of teaching: A retrieval practice hypothesis*. Applied Cognitive Psychology, 32(3), 401–410. DOI:10.1002/acp.3410.
17. Нестожко, Ж. Ф., Буй, Д. Ч., Корнелл, Н., Бьорк, Э. Л. (2014). Expecting to teach enhances learning and organization of knowledge in free recall of text passages. *Память и познание*, 42(7), 1038–1048. DOI:10.3758/s13421-014-0416-z.
18. Мирзаева, Н. А. (2022). Табиий фанларни ўқитишда педагогик таълим инновацион кластери (Чирчиқ модели) “ЭШИТДИМ–КЎРДИМ–БАЖАРДИМ” тамойили методологияси. *Research Focus*, 1(1), 15–22.
19. Teach-Kids-Art.Net. Расм чизишни ёшларга ўргатиш портали. URL: https://www.teachkidsart.net.
20. Википедия. Учение через обучение. URL: https://ru.wikipedia.org/wiki/Учение_через_обучение.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Султанов Хайтбой Эралиевич,** Чирчиқ давлат педагогика университети, Тасвирий санъат ва дизайн кафедраси профессори, p.f.f.d. (PhD) [**Султанов Хайтбой Эралиевич**, профессор кафедры “Изобразительного искусства и дизайна” Чирчикского государственного педагогического университета, доктор философии по

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

педагогическим наукам (PhD)], [**Sultanov Khaytboy Eraliyevich**, Professor of the Department of Fine Arts and Design, Chirchik State Pedagogical University, Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD)]; manzil: O‘zbekiston, Toshkent viloyati, Chirchiq sh. [Адрес: Узбекистан, Ташкентская область, г. Чирчик], [Address: Uzbekistan, Tashkent region, Chirchik city].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# FIZIKA FANIDAN MASALALAR YECHISHNING KLASSIK VA ZAMONAVIY STRATEGIYALARI VA ULARNING OLIMPIADAGA TAYYORGARLIKDAGI O‘RNI

© X.SH. Aslonov[1]✉

[1]Andijon davlat pedagogika instiruti,Andijon,O‘zbekiston.

Annotatsiya

**KIRISH:** bugungi kunda fizika fanining rivojida masalalar yechish o‘quv jarayonining ajralmas qismidir. O‘quvchilar masalalar yechish orqali nafaqat nazariy bilimlar, balki ularni amalyotda qo‘llash kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Olimpiada bahslarida esa ushbu ko‘nikmalar eng yuqori darajada sinovdan o‘tadi. Fizikada olimpiada masalalari oddiy masalalardan farq qiladi. Chunki ular ijodiy yondashuvni talab qiladi. Mazkur tadqiqot ishida fizika fanidan masalalar yechishning klassik va zamonaviy metodlari tahlil qilinadi. Ushbu metodlarning olimpiada tayyorlovidagi o‘rni ilmiy asosda yoritiladi. Ularning maktab ta’lim tizimiga mosligi va murakkkab va olimpiada masalalariga mosligi taqqoslanadi.

**MAQSAD:** tadqiqotning asosiy madsadi – klassik va zamonaviy masalalar yechish strategiyalarini tahlil qilish orqali, ularning o‘quvchilarni olimpiadaga tayyorlashdagi ahamiyatini aniqlash .

**MATERIALLAR VA METODLAR:** ushbu tadqiqotda zamonaviy masala yechish metodlaridan biri CPS (Cooperative Problem Solving), rus olimlarining va Polyaning strategiyasi tahlil qilindi. Olimpiada bahslarining ahamiyati haqida Towards better cultivating tomorrow`s STEM workforce tadqiqot ishi ko‘rib chiqildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** maktab o‘quvchilarini fizika fanidan masalalar yechish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun mavjud metodikalarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalalar yechish olimpiada jarayonlarining asosidir. O‘zbek , rus va chet el olimlaring masalalar yechish strategiyalarini tahlil qilish va taqqoslash orqali, ularning afzalligi, kamchiliklari ko‘rib chiqildi. Buning natijasida yangi zamonaviy umumta’lim maktablarida olimpiada va murakkab masalalar yechishga moslashgan strategiya ishlab chiqish muallif tomonidan belgilab olindi.

**XULOSA:** bugungi kundagi va klassik strategiyalarning farqi o‘rganildi. Fizika fanidan masalalar yechish strategiyalarining olimpiada jarayonlaridagi o‘rni ulkan darajada ekanligi ko‘rib chiqildi. Tahlil qilingan yondashuvlarning kamchiliklarini hisobga olgan holda umumiy masalalar yechishga va olimpiadaga tayyorgarlik ko‘rishga moslashgan yangi strategiyaga ehtiyoj bor degan xulosaga kelindi. Yangi zamonaviy umumta’lim maktablarida olimpiada va murakkab masalalar yechishga moslashgan strategiya ishlab chiqish muallif tomonidan belgilab olindi. Chunki STEM sohasidagi kadrlarni yetishtirishda fizika fanidan olimpiadaning o‘rni beqiyosdir. Olimpiadaning asosi esa bu masalalar yechishdan iboratdir.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Kalit so‘zlar:** CPS metodi, metodika, STEM, olimpiada, masalalar yechish, Polya strategiyasi

**Iqtibos uchun**: X.SH.Aslonov. Fizika fanidan masalalar yechishning klassik va zamonaviy strategiyalari va ularning olimpiadaga tayyorgarlikdagi o‘rni..// Inter education & global study. 2025. №8. B.190–200.

# КЛАССИЧЕСКИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ СТРАТЕГИИ РЕШЕНИЯ ЗАДАЧ ПО ФИЗИКЕ И ИХ РОЛЬ В ПОДГОТОВКЕ К ОЛИМПИАДАМ.

© Х.Ш. Аслонов[1]✉

[1]Андижанский государственный педагогический институт, Андижан, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** сегодня в развитии физики решение задач является неотъемлемой частью учебного процесса. Решая задачи, учащиеся развивают не только теоретические знания, но и навыки их применения на практике. В олимпийских соревнованиях эти навыки проверяются на самом высоком уровне. В физике задачи олимпиады отличаются от простых задач. Потому что они требуют творческого подхода. В данной исследовательской работе анализируются классические и современные методы решения задач по физике. Роль этих методов в подготовке к олимпиадам освещается на научной основе. Сравнивается их совместимость со школьной системой образования и совместимость со сложными и олимпийскими задачами.

**ЦЕЛЬ:** основная цель исследования – определить значение классических и современных стратегий решения задач в подготовке учащихся к олимпиадам через их анализ.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в данном исследовании проанализированы современные методы решения задач, в частности CPS (Cooperative Problem Solving), стратегии российских учёных и Поля. Рассмотрена работа Towards better cultivating tomorrow\`s STEM workforce, посвящённая значению олимпиадных соревнований.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** анализ существующих методик имеет важное значение для развития у школьников навыков решения задач по физике. Решение задач является основой олимпиадного процесса. Путём анализа и сравнения стратегий решения задач узбекских, российских и зарубежных учёных были рассмотрены их преимущества и недостатки. В результате автором была определена разработка новой стратегии, адаптированной к решению олимпиадных и сложных задач в современных общеобразовательных школах.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** было изучено различие между современными и классическими стратегиями. Рассмотрено, что роль стратегий решения задач по физике в олимпиадном процессе является чрезвычайно значимой. С учётом выявленных недостатков проанализированных подходов сделан вывод о

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

необходимости новой стратегии, адаптированной как к общему решению задач, так и к подготовке к олимпиадам. Автором была определена разработка стратегии, приспособленной к решению олимпиадных и сложных задач в современных общеобразовательных школах. Это связано с тем, что роль олимпиад по физике в подготовке кадров для сферы STEM является бесценной. А основой олимпиады, в свою очередь, является именно решение задач.

**Ключевые слова:** CPS метод, методика, STEM, олимпиада, решение задач, стратегия Поля.

**Для цитирования**: Х.Ш.Аслонов. Классические и современные стратегии решения задач по физике и их роль в подготовке к олимпиадам..// Inter education & global study. 2025. №8. С.190–200.

## CLASSICAL AND MODERN PROBLEM-SOLVING STRATEGIES IN PHYSICS AND THEIR ROLE IN OLYMPIAD PREPARATION

© Xayrullo Sh. Aslonov[1]✉
[1] Andijan State Pedagogical Institute, Andijan, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** today, in the development of physics, problem solving is an integral part of the learning process. Through solving problems, students not only gain theoretical knowledge but also develop skills in applying it to practice. In olympiad competitions, these skills are tested at the highest level. Physics olympiad problems differ from ordinary problems because they require a creative approach. This research analyzes both classical and modern methods of problem solving in physics. The role of these methods in olympiad preparation is highlighted on a scientific basis. Their compatibility with the school education system, as well as their applicability to complex and olympiad problems, is compared.

**AIM:** the main purpose of the study is to determine the significance of classical and modern problem-solving strategies in preparing students for olympiads through their analysis.

**MATERIALS AND METHODS:** in this study, one of the modern problem-solving methods, CPS (Cooperative Problem Solving), as well as the strategies of Russian scholars and Polya, were analyzed. The research work Towards Better Cultivating Tomorrow's STEM Workforce was reviewed regarding the importance of olympiad competitions.

**DISCUSSION AND RESULTS:** analyzing the existing methodologies is of great importance for developing school students' problem-solving skills in physics. Problem solving is the foundation of the olympiad process. By analyzing and comparing the problem-solving strategies of Uzbek, Russian, and foreign scholars, their advantages and disadvantages were identified. As a result, the author determined the need to develop a new strategy adapted to solving olympiad and complex problems in modern general education schools.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**CONCLUSION:** the difference between modern and classical strategies was examined. It was found that problem-solving strategies in physics play an extremely significant role in the olympiad process. Taking into account the shortcomings of the analyzed approaches, it was concluded that there is a need for a new strategy adapted to general problem solving and olympiad preparation. The author identified the development of a strategy tailored to solving olympiad and complex problems in modern general education schools. This is because the role of physics olympiads in training specialists in the STEM field is invaluable. And the foundation of olympiads, in turn, lies in problem solving.

**Keywords:** CPS method, methodology, STEM, olympiad, problem solving, Polya's strategy.

**For citation**: Xayrullo Sh. Aslonov. (2025) 'Classical and modern problem-solving strategies in physics and their role in olympiad preparation.', Inter education & global study, (8), pp.190–200. (In Uzbek).

**B**ugungi kunda fizika fanining rivojida masalalar yechish o'quv jarayonining ajralmas qismidir. O'quvchilar masalalar yechish orqali nafaqat nazariy bilimlar, balki ularni amalyotda qo'llash kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Olimpiada bahslarida esa ushbu ko'nikmalar eng yuqori darajada sinovdan o'tadi. Fizikada olimpiada masalalari oddiy masalalardan farq qiladi. Chunki ular ijodiy yondashuvni talab qiladi. Mazkur tadqiqot ishida fizika fanidan masalalar yechishning klassik va zamonaviy metodlari tahlil qilinadi. Ushbu metodlarning olimpiada tayyorlovidagi o'rni ilmiy asosda yoritiladi. Ularning maktab ta'lim tizimiga mosligi va murakkab va olimpiada masalalariga mosligi taqqoslanadi.

Tadqiqotning asosiy madsadi – klassik va zamonaviy masalalar yechish strategiyalarini tahlil qilish orqali, ularning o'quvchilarni olimpiadaga tayyorlashdagi ahamiyatini aniqlash .

Darhaqiqat, umumiy holda masalalar yechish bo'yicha klassik nazariyalarning eng asosiylaridan biri Polya strategiyasidir va u ozining universalligi bilan ajralib turadi. Bu model asosiy matematika faniga mo'ljallangan bo'lishiga qaramastan dars jarayonida o'quvchilarga mustaql fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va eng asosiysi bosqichma-bosqich qaror qabul qilishga yordam beradigan klassik yondashuv hisoblanadi. Polyaning yondashuvi fizika fani o'qitilishida 10-sinf o'quvchilari uchun qo'llanildi. Polya metodikasi o'quvchilarda masala yechish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini to'rt bosqichga bo'ladi.

1. Muammoni tushunish. Bu bosqichning maqsadi o'quvchilarning ongida masalalarda berilgan ma'lumotlarni mazmunan shakllantirishdan iborat. Ko'p o'quvchilar masalaning asl mazmunini tushunishda qiyinchilikka duch keladilar. Shunday ekan bu bosqichda masalaning umumiy konteksti tushuniladi.

2. Reja tuzish. Bu bosqichning asosiy maqsadi yechim yo'nalishini aniqlashdan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

iborat. O‘quvchi eng zarur ma’lumotlarni saralaydi va ularni tartibga solgan holda ilgari olgan bilimlar bilan bog‘laydi va umumlashtiradi. Bunda quyidagilar bajariladi.

Mos matematik formulalar tanlash, diagrammalar chizish, mantiqiy fikrlash, Noan’anaviy yondashuvlarni qo‘llash, muammoni grafik va jadval shaklda ifodalash kabi jarayonlar bajariladi. Reja tuzish yechimga olib boruvchi asosiy yo‘ldir.

3. Rejani amalga oshirish. Agar o‘quvchida yetarli bilim bo‘lsa bu bosqich reja tuzishdan oson hisoblanadi. Bu bosqichning maqsadi tanlangan yo‘lni anniq amalga oshirish yoki rejaninig bajarilishiga e’tiborli yondashish. Rejani bajarish jarayoni vazifalar taqsimlanishini ham o‘z ichiga oladi.

4. Tahlil va qayta ko‘rib chiqish. Bu bosqichda yechilgan yechim yoki natija baholanadi. Bu quyidegilarni o‘z ichiga oladi. Bosqichlardagi maqsadlar tekshiriladi va yechimni turli hil usullar bilan tekshiriladi. Yakuniy natijalar baholanadi.

Bu bosqichda o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga yordam bo‘lishi zarur. Faqat eng muhimi beriladigon yordam ko‘p bo‘lmasligi va kam ham bo‘lmasligi lozim. Chunki bu o‘quvchining rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Ya’ni o‘qituvchi shunday yordam berish kerakki o‘quvchi mustaql shug‘ullanishi va masalani baholashda o‘z hissasini qoshishi zarur.

Natija shuni ko‘rsatdiki ushbu to‘rt bosqichli modelni fizikada qo‘llash orqali o‘quvchilarning masalalar yechish ko‘nikmalari rivojlandi. Ushbu yondashuvning yutuqlaridan biri uning universalligidadir chunki turli fanlar uchun qo‘llasa bo‘ladi. Dunyo bo‘ylab ushbu model rivojlangan mamlakatlarda matematika ta’limida keng miqyosda qo‘llaniladi. Ammo fizika fanini o‘qitishda bu strategiyaning amaliy tadbig‘i bo‘yicha tadqiqot ishlari juda kamdir. Shuning uchun bu sohada ko‘proq ilmiy ishlar qilish maqsadga muvofiq [1].

Ushbu Polya strategiyasi fizikadan masalalar yechishda juda foydali bo‘lishiga qaramastan, olimpiada va murakkab turdagi masalalar yechishda umumiy strategiyani o‘z ichiga oladi, ya’ni boshlang‘ich va o‘rta darajadagi bilimlarni o‘rgatish uchun qulaydir. Bu model o‘quvchiga muammoni yechish jarayonini tushuntiradi, lekin fizik tushunchalarni yetarli darajada tushuntira olmaydi. Olimpiada va murakkab masalalarni yechishga moslashmagan.

O‘zbekiston ta’limi kundan kunga rivojlanib bormoqda. Yurtimizda ham olimpiada jarayoniga bo‘lgan e’tibor kun sayin ortib bormoqda. Fizika fanidan masalalar yechish metodikasi rivojiga hissa qo‘shgan juda ko‘p olimlarni ta’kidlasak bo‘ladi. Bular qatoriga X.Xamzayev kiradi uning qo‘llanmasida fizika fanidan masala yechish bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar berilgan. X.Xamzayev o‘zining ishlarida fizika fanidan masalalar yechish metodikasi bo‘yicha zamonaviy yondashuvlarni taklif etgan. Uning ta’kidlashicha fizika masalalarini yechishda tizimli metodologiyaning ahamiyati juda katta. Bunda asosiy muammolar quyidagilardan iborat.

Turli hil startegiyalar ishlab chiqish kerak. Masalan o‘quvchilarining fikrlashini takomillashtirish uchun va buni o‘rgatish uchun o‘qituvchilarga qancha vaqt zarurligini ifodalab beruvchi zamonaviy strategiyalarni ishlab chiqish zarur. Bunga qo‘shimcha

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ravishda fizikaning ajralmas qismi bo‘lgan matematika fanini va o‘quvchilarda matematik qobiliyatni o‘stirish uchun yetarli manbalar ishlab chiqish zarur. Ya’ni fizikani matematikaga integratsiya qiladigon kerakli darslik va adabiyotlar yozilishi kerak. Bunday yondashuv fizikani o‘qitishni va o‘rganishni rivojlantiradi. Uning masalalar yechish bo‘yicha Polya stategisiga asoslangan holda quyidagi olti bosqichli zamonaviy strategiyani taklif etdi. Bular

1. Muammoni tushunish. Ushbu bosqichda muammoni asl mazmunini aniqlanadi. Masala sharti tahlil qilinadi. Bu jarayonda quyidagi savollar muhim ro‘l o‘ynaydi. Masala qanday holatda tasvirlanyapti? Berilgan ma’lumotlar yetarlimi? Asosiysi masala boshqa so‘zlar bilan ifodalanishi kerak. Chizma va grafiklar chizish ham bu bosqichda foydali hisoblanadi. Bu bosqich juda muhim bo‘lib to‘g‘ri yo‘l tanlanishi kerak.

2. Muammoga sifatli tavsif berish. Bu bosqichda masalani yechish uchun kerak bo‘lgan fizik qonunlar aniqlanadi va formulalar yoziladi. Aniqrog‘i holatni qanday fizik asosida tushuntirish mumkinligini aniqlanadi. Bunga qo‘shimcha ravishda muammoni tasvirlashga yordam bera oladigon barcha tahlillar qilinadi.

3. Yechimni rejalashtirish. Bu bosqichda avval duch kelingan yoki unga o‘hshash masalalarni esga olib, analogik fikrlashga tayanadiladi. Shu orqali yechishga harakat qilinadi. Oldin shunga o‘hshash savollar ko‘rganmisiz? kabi savollar beriladi. Bu bosqichda umumiy foemulani chiqarishga harakat qilinadi va mavjud ma’lumotlar masalani yechish uchun yetarlimi? yoki algebraik formulalar to‘plami yetarlimi? degan savollar beriladi. Bitta yechimusuli tanlanadi va matematik ifodalar yoziladi.

4. Rejani amalga oshirish. Oldingi tanlangan usulga asosan masalaning atematik yechimi topiladi. Asosiy tenglamalar tuziladi, noma’lum kattaliklar aniqlanadi. Agar masala yechimida muammoga duch kelinsa yoki osonroq formulalar topilsa, avvalgi bosqichlarga qaytib boshqa usullar ko‘riladi.

5. Amaldagi tenglamalarni ichki izchilligini tekshirish. Bu bosqichda matematik ifodalarni qollanilganda ularning fizik ma’nosi tekshiriladi. Ya’ni o‘quvchilar matematik yechim topishda tenglamalar ular ifodalagan amallarga mosligini ko‘rib chiqishadi. Har bir tenglama uchun qanday hodisalar aks etayotganini, fizik kattaliklar birliklarini mosligi tekshiriladi va baholash uchun tayyorlanadi.

6. Olingan yechimni tekshirish va baholash. Natijaga erishilgach uni nafaqat matematik nuqtai nazardan balki fizik konteksda ham baholanadi. Yechim real fizik hodisalar bilan uyg‘unlashganmi? Boshqa usullar qo‘llanilishi mumkinmi? Yechimmantiqiymi? degan savollar beriladi.

Bu olti bosqichli strategiya zamonaviy fikrlarni ozida jalb qilgan. Bu strategiyaning boshqalaridan farqi shundaki 1-dan 3- bosqichgacha sifat va qolgan bosqichlarda miqdoriy fikrlashni o‘zida mujassamlashtirgan. Tizimli startegiya hisoblanishiga qaramastan ko‘proq talabalar uchun mos, nazariy strategiya hisoblanadi va hali amaliyotda sinovdan o‘tkazilmagan. Olimpiada va murakkab masalalar uchun moslashmagan. Bu strategiyani rivojlantirish maqsadga muvofiq o‘quv qo‘llanma va amalda masalalar yechish bo‘yicha qo‘llanmalar ishlab chiqish talab etiladi [2].

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Rus olimlarining fizika fanidan masalalar yechish metodikasining rivojida juda katta hissa qo‘shganlar. Misol tariqasida Y. Gerasimova va M. Krotov kabi olimlarni ta’kidlash mumkin. Ularn tomonidan yozilgan,, Методика обучения решению задач по физике’’ asarida fizika fanidan masala yechish metodlari juda keng yoritilgan va bu metodik yondashuvlar murabbiylar va maktab o‘qituvchilari uchun moslashtirilganligi bilan ajralib turadi. Ushbu asarga tayangan holda Y. Gerasimova va M. Krotovlarning strategiyalaridan kelib chiqqan yondashuvini keltirish mumkin.

Bu strategiya ham masalalar yechishga moslashgan bo‘lib, juda mukammal hisoblanadi. Farqli jihati shundaki, bu yondashuv murakkab masalalarni yechishga ham moslashgan.

1. Vaziyatni idrok ettish. Demak bu bosqichda vaziyat idrok etiladi va bu asosiy vazifa sanaladi. Idrok etish murakkab jarayon va uning boshlang‘ich darajasi bu masalani qisqa shaklda yozishdir. Bu jarayonda obyektlarni ajratib olish va masalaning shart va talablarini yozishga katta e’tibor beriladi.

2. Masaladagi muammoli vaziyatni tahlil qilish. Bu bosqichda asosiy e’tibor beriladigon jihatlar bular, masalaning nimaga oidligi, ko‘rib chiqilayotgan obyekt haqida nimalar ma’lumligi, nima topilishi kerakligi, obyekt bilan nima sodir bo‘layotgani haqidagi ma’lumotlar tahlil qilinadi.

3. Masala sharti va talablarini yozish. Ushbu bosqichda o‘quvchi masala shartini fizikaga hos qilib ifodalashi va bu ifoda masala mazmunini to‘liq aks ettirishi lozim. Yozishda samarali bo‘lgan usul ya’ni dastlab masalada berilgan barcha ma’lumotlar ketma-ket yoziladi so‘ng izlanayotgan kattalik qayd etiladi.

4. Yechim rejasini tuzish. Reja tuzish eng asosiy bosqichlardan biri bo‘lib unda fizik kattaliklarning o‘zgarish qonunlari aniqlash muhim ahamiyatga ega. Masala shartida berilgan qonunni qo‘llash uchun kalit so‘zlar topiladi. Qo‘shimcha ravishda rejani grafik ko‘rinishda ham ifodalash mumkin bo‘ladi. Bajarilishi kerak bo‘lgan ketma-ketlik belgilanadi.

5. Yechim rejasini amalga oshirish. Bu bosqich amaliy bosqich hisoblanib tenglamalar yechib natijaga erishiladi. Masala yechish jarayoni qisqa va aniq izohlar bilan yoziladi. Hisoblash ishlari olib boriladi.

6. Natijani tahlil qilish va tekshirish. Yechim tekshiriladi va tahlil qilinib kerakli xulosalar olinadi. Kamchiliklarni oldini olish uchun natijani oldindan taxmniy ishlab ko‘rish qo‘llaniladi.

Bu yondashuv ko‘proq 9-10-11-sinflarga juda mos o‘quvchilarga fizik til bilish qobiliyatini o‘rgatadi. Murakkab va olimpiada hos masalalar uchun ham o‘rta darajada mos, chunki chuqur tahlil joriy etilgan. Juda ko‘p afzalliklarga qaramastan bu yondashuvning eng katta kamchiligi bu strategiyaga asosan masalalar yechish na’munalari ishlab chiqilmagan ya’ni nazariy. Bundan tashqari strategiyada bosqichlar juda ko‘p, chunki oltita mukammal bosqichdan iborat, juda ko‘p vaqt talab qiladi. O‘quvchida masala yechish uchun vaqt yetmaydi, ayniqsa olimpiada jarayonlarida. Uni soddalashtirish va zamonaviy vositalar bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq [3].

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Gerasimova va Krotovning strategiyasi eng chuqur va murakkab, o‘qituvchi uchun juda qulay olimpiada masalalariga o‘rta darajada mos keladi. Ushbu strategiya boshqa strategiyalardan farqi shundaki o‘quvchi faqatgina javobni topib qolmay, balki fikrlashni tahlil qilishni ham o‘rganadi. Bu olimpiada bahslari uchun juda muhim hisoblanadi.

Bugungi kundagi zamonaviy ishlar qatoriga Kenneth Heller va Patricia Hellerlarning ,,Cooperative Problem Solving in Physics” nomli tadqiqot ishini keltirish mumkin. Hellerlarning ushbu tadqiqot ishida ham 5 bosqichli strategiya mavjud bo‘lib u fizika masalalarini guruh bo‘lib yechishga mo‘ljallangan. Ushbu yondashuv fizika fanini o‘rganishda masalalar yechishning konseptual yondashuv asosidagi strategiya ya’ni faqat formulalarga asoslanmaydi. Albatta bu modelning asosiy maqsadi fizika faninini juda chuqur o‘rgatishdan iboratdir. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat.

Bu strategik model asosan guruhlar bilan ishlashga moslashgan. Strategiya o‘quvchilarda masalalar yechishdan oldin fizik mazmunni tushunib keyin matematik amallarga o‘tishni o‘rgatadi. U quyidagi qadamlarni o‘z ichiga oladi.

1-qadam. Muammoni aniqlash.

O‘quvchilar bunda masalaning asosiy ma’nosini tushunadilar. Bundan tashqari masalalarda berilgan jismlar va obyektlarning rasmi chiziladi. Bunda jismlarning fazodagi holati va harakati hisobga olinadi. Ma’lumotlar ajratib yoziladi. Ya’ni anniq bo‘lgan va noma’lum kattaliklarni yoziladi, ular belgilanadi va ular rasmda aks ettiriladi. Anniq savol qo‘yiladi, qanday muammoni topish bo‘yicha. Eng asosiy fizik qonunlar tanlanadi, soddalashtiriladi va qo‘llaniladi. Fizik yondashuvlar aniqlanadi. Cheklovlar adashmaslik uchun yozip qo‘yiladi.

2-qadam. Fizik mazmunda tavsiflash.

Umumiy holatda fizik qonunlarni aniqlash va unga mos bo‘lgan fizik modelni tanlash. Yondashuvga asosan diagramma va kordinatalar chiziladi va fizik kattaliklar bilan belgilanadi. Fizik qonunlar asosida tenglamar aniqlanadi. Ya’ni fizik qonunlarni matematik ifodalanadi. Eng kerakli fizik qonunlar aniqlanib formula orqali ifodalanadi.

3-qadam. Yechim rejasini tuzish.

Bu bosqichda yechimning boshlang ‘ich nuqtasi hisoblanadi. Noma’lum kattalikni aniqlash uchun shu kattalik ishtirok etadigon asosiy tenglama yoziladi. Agar tanlangan tenglamada noma’lum kattaliklar bo‘lsa, boshqa tenglamalar orqali ifodalanadi va barcha noma’lum kattaliklar topilmaguncha davom etiladi. Ya’ni formuladan formula keltirip chiqariladi ohirgi topilishi kerek kattalikni topmaguncha. Fizik kattalikni toppish uchun qanday bosqichda qanday tenglamadan foydalanish tahlil qilinadi va harakatlar ketma-ketligi aniq belgilanadi.

4-qadam. Rejani bajarish.

Bu bosqichda reja qilingan qadamlar amalga oshiriladi. Noma’lum kattalik uchun algebraik tenglama yoziladi. Birliklar birma bir tekshiriladi va berilgan son qiymatlar ohirgi tenglamaga qo‘yib hisoblanadi.

5-qadam. Yechimni baholash va tahlil qilish.

Bu bosqichda eng avval chiqqan javob berilgan savolga javob bera oladimi


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

tekshiriladi. Javob mantiqiymi, real holatlarga to‘g‘ri keladimi. Javob to‘liq holatdami va bosqichlarning barchasi bajarilganmi tekshiriladi. Buning natijasida yechim to‘liq tekshiriladi va baholanadi [4].

Xulosa qilib Hellerlarning strategiyasi juda zamonaviy va masalalar yechishni rivojlantiradi. Bu strategiyaning boshqalaridan ajratib turadigon eng muhim jihati shuki, u bo‘yicha masalalar ishlab chiqilgan va samaradorligi isbotlangan va butun fizikani qamrab oladi. Juda ko‘p metodikalarni kamchiliklari hisobga olingan va uyg‘unlashgan strategiyadir. Ammo ko‘proq talabalarga moslangan va guruhda ishlash uchun. Olimpiadaga moslashmagan lekin olimpiadaga kerak bo‘ladigon ko‘nikmalarni o‘rgatuvchi mukammal strategiya.

Yuqoridagi turli xil masala yechish metodlarining olimpiada jarayonlaridagi o‘rni beqiyosdir. Chunki olimpiada jarayonida test yoki yozma ish bahslarida vaqt chegasi mavjud. Bu chegara o‘quvchini tez va samarali yechimga olib keluvchi turli xil metodikalarga zaruriyatini belgilaydi. Olimpiadada masalalar yechish ahamiyati oldindan ma’lum ammo nima uchun olimpiada kerak degan savol tug‘iladi. Bunga javob tariqasida Paul Leon Tschisgalening, Towards better cultivating tomorrow`s STEM workforce” nomli ilmiy tadqiqot ishini keltirish mumkin. Ushbu tadqiqot ertangi STEM kadrlarni yaxshiroq shakllantirishga bag‘ishlangan bo‘lib unda masalalar yechish va olimpiadaning o‘rnini alohida ko‘rsatib beradi. Uning tadqiqotiga asosan fizika fanidan o‘tkaziladigon olimpiadalarning maqsadi quyidagicha ifodalanadi.

Eng asosiy maqsadlardan biri, bu fizika faniga uzoq muddatli qiziqishni joriy qilishdan iborat.

Bu maqsad fizika olimpiadasining STEM sohalarida iste’dodli kadrlarni bazasini shakllantirishga hizmat qiladi. Olimpiada va shunga o‘hshash musobaqalar natijasida o‘quvchilarda fizikaga nisbatan qiziqish paydo bo‘ladi va buning natijasida maktabdan keyin STEM yo‘nalishlarida o‘qishi va bu sohalarga hissa qo‘shishiga olip keladi.

Fizika fanidan olimpiadalarning markaziy qismida har doim murakkab masalalarni yechish turadi. Bu masalalar ko‘pincha nazariy yoki eksperimental bo‘ladi. Olimpiadada qo‘llaniladigon masalalar ko‘p hollarda aniq ifodalanga vaziyat, maqsad va unga yetib borish uchun kerak bo‘lgan bosqichlarning belgilanganligi bilan tavsiflanadi. Yana shuni ta’kidlash kerakki olimpiadada qo‘llaniladigon masalalar o‘quvchilarning fizik bilimlari va ularni amalda qo‘llash qobiliyatini tekshirishga qaratilgan bo‘ladi. Bunday masalalarning murakkablik darajasi maktab darsliklaridagi masalalardan tubdan farq qiladi. Shuning uchun ularni yechishda masalani chuqur va to‘g‘ri modellashtirishni bilish zarur. Xalqaro dasturga ko‘ra masalalarni matematik mahoratga emas balki, asosiy e’tibor fizik tafakkur va muammoni yechishga qaratilgan bo‘ladi. Umumiy holda aytish mumkinki, fizika olimpiadasi bosqichlari o‘sib boruvchi murakkablikda tuziladi. Dastlabki bosqichlar o‘quvchilarni jalb qilish uchun, keying bosqichlar fizik tafakkurni, murakkab masalalar yechish qobiliyatini aniqlashga qaratilgan bo‘ladi [5].

Yuqorida fizikadan masalalar yechishning bugungi kundagi hamda klassik strategiya va metodlari tahlil qilindi va ularning olimpiadadagi ahamiyati tahlil qilindi.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Umumiy holda eng asosiy o‘zbek, rus va chet el olimlarining masala yechish metodikalari tanlab olininib quyidagi jadvalda taqqoslandi. Ushbu taqqoslash olimpiadaga moslik, 9-10-11-sinflarga mos kelishi va har bir strategiyaning afzalliklari va kamchiliklari mezonlari asosida olib borildi.

1-jadval

O‘zbek, rus va chet el olimlari masala yechish strategiyalarining taqqoslash jadvali.

| Mezonlar/ Muallif | G. Polya | P.Heller va K.Heller | Y.Gerasimova va M. Krotov | X.Xamzayev |
|---|---|---|---|---|
| Olimpiada va murakkab masalalar yechishga mosligi | Yetarli emas. Sodda masalalar uchun. | O‘rta darajada mos. Masalalarni umumiy yechishga moslashgan | Murakkab masalalarga juda mos, olimpiadaga o‘rta darajada | Mos o‘rta darajada |
| 9-10-11-sinflarga mosligi | 9-sinfdan o‘rgatishga mos. | Ko‘proq talabar uchun. Guruhda muammolarni hal qilishni rivojlantirsh uchun. | 9-10-11-sinflar uchun juda mos. | Yuqori sinflar uchun mos boshlang‘ich bilim talab etiladi. |
| Afzalliklari | Universal matematika, fizikada qo‘llasa bo‘ladi. | Amalda masalalar ishlab chiqilgan va samaradorligi isbotlangan. zamonaviy | Murakkab masalalar yechishga moslashgan. | Puxta nazariy asoslangan |
| Kamchiliklari | Murakkab va olimpiada masalalarida o‘rta darajada. Ko‘proq nazariy muammolar uchun | Olimpiadaga moslashtirilmagan. Yuqori darajada mantiqiy fikrlashni talab etadi. | Noan’anaviy strategiyalarni qo‘llash chegaralangan. Amalda masalalar ishlab chiqilmagan va samaradorlik isbotlanmagan. | Hali amaliy asoslanmagan, amalyotda sinovdan o‘tmagan. Ko‘p vaqt talab qiladi. |

1- jadvalni izohlagan holda barcha olimlarning yondashuvlari juda ajoyib va har biridan o‘quvchi nimanidir o‘rgansa bo‘ladi. Maqsadimiz masalalar yechish orqali olimpiadaga tayyorgarlik metodikasini rivojlantirish bo‘lganligi sababli quyidagicha tahlil qilindi. Klassik metodika hisoblangan Polya strategiyasi universal bo‘lib boshqa fanlarda ham qo‘llasa bo‘ladi, kirish qismida masala yechishni o‘rganishda juda qo‘l keladi. Ammo olimpiada bosqichlari uchun soddaroq. Xamzayev taklif etgan yondashuv ham juda mukammal, puxta nazariy asoslanganligiga qaramastan amalda sinovdan o‘tmagan uni zamonaviy ko‘nikmalar bilan boyitish lozim. Gerasimova va Krotov strategiyasi ham juda mukammal va murakkab masalalar yechish uchun mo‘ljallangan. Maktabda 9-10-11-sinf uchun juda mos. Ammo unda vaqt chegarasi hisobga olinmagan va ko‘proq maslalar ishlash va zamonaviy ko‘nikmalar bilan, masalan refleksiya bilan boyitish zarur. Hellerlarning 5 bosqichli metodikasi juda mukammal va zamonaviy kompetensiyalarni o‘z ichiga olgan. Asosiy kamchiligi shundaki olimpiadaga chuqur moslashmagan kirish

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

bosqichiga mos keladi. Ko‘proq talabalar uchun va guruhda ishlashga moslashgan. Bu strategiyaning boshqa strategiyalardan asosiy farqi shundaki, amalda masalalar yechish bo‘yicha qo‘llanma ishlab chiqilgan va eng asosiysi samaradorligi isbotlangan.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kundagi va klassik strategiyalarning farqi tushunilib yetildi. Fizika fanidan masalalar yechish strategiyalarining olimpiada jarayonlaridagi o‘rni ulkan darajada ekanligi ko‘rib chiqildi. Tahlil qilingan yondashuvlarning kamchiliklarini hisobga olgan holda umumiy masalalar yechishga va olimpiadaga tayyorgarlik ko‘rishga moslashgan yangi strategiyaga ehtiyoj bor degan xulosaga kelindi. Yangi zamonaviy umumta’lim maktablarida olimpiada va murakkab masalalar yechishga moslashgan strategiya ishlab chiqish muallif tomonidan belgilab olindi. Chunki yuqorida ta’kidlanganidek STEM sohasidagi kadrlarni yetishtirishda fizika fanidan olimpiadaning o‘rni beqiyosdir. Olimpiadaning asosi esa bu masalalar yechishdan iboratdir.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Thuan H. T. et al. (2023). A application of g. polya’s problem-solving process in teaching high-school physics //Journal La Sociale. 4(1). 26-33.
2. Xamzayev X. (2024). Uzluksiz ta’lim tizimida fizikadan masalalar yechish fani bo‘yicha // O'quv-uslubiy qo'llanma. 33
3. Герасимова Т. Ю., Кротов В. М. (2009). Методика обучения решению задач по физике // метод, пособие. Могилев: УО «МГУ им. А.А. Кулешова. 160
4. Kenneth H., Heller P. (2010). Cooperative Problem Solving in Physics A User’s Manual. 305.
5. Tschisgale P. (2024). Towards Better Cultivating Tomorrow’s STEM Workforce // An Investigation into Participants’ Needs, Predictors of Success, and Physics Problem-Solving Abilities in the Physics Olympiad (Doctoral dissertation). 205.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Aslonov Xayrullo Shukrullo o‘g‘li**, tayanch doktorant, [**Аслонов Хайрулло Шукрулло огли**, докторант базовой докторантуры], [**Aslonov Sh.Khayrullo**, doctoral Student ]; manzil: Andijon viloyati, Xo‘jaobod tumani, Beshqovoq MFY, Bahor ko‘chasi 120-uy, [адрес: г. Андижанская область, Ходжаабадский район, МФЙ Бешковок, улица Бахор, дом 120.], [address: Andijan region, Khojaobod district, Beshqovoq neighborhood, Bahor street, house 120], xayrulloaslonov8@gmail.com.

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# ONA TILI DARSLARIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARNING NUTQIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI

© N.B.Xaitova[1]✉

[1]Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** butunjahon ta‘lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil fikr yurita olishi va uni erkin bayon etishi ta‘limning yetakchi o‘rinlarini egallab turibdi. Xususan O‘zbekiston ta‘lim tizimida ham ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar, dasturlar ishlab chiqilmoqda. Boshlang‘ich ta‘limdanoq o‘quvchilarning nutqiga alohida e‘tibor bu keyingi ta‘lim jarayonlarida faol qatnashish uchun mustahkam poydevor vazifasini o‘taydi. Hozirgi kunda o‘qituvchi-pedagoglarimiz boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy savodxonligini oshirish va uni yanada takomillashtirishga oid yangi innovatsion usullarni qo‘llashmoqdalar. Natijada, ta‘lim tizimi samaradorligi oshiriladi, o‘quvchilarning so‘z boyligi hamda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanib boradi.

**MAQSAD:** ona tili darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning nutqiy savodxonligini oshirishda qo‘llaniladigan innovatsion usul va metodlardan namunalar keltirish va ularning afzalliklarini tushuntirishdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning nutqiy savodxonligini oshirishda qo‘llaniladigan innovatsion usullarni amalda joriy etish maqsadida pedagogik tajribalar hamda statistik tahlillardan foydalanildi. Maqola uchun asosiy vositalar sifatida dissertatsiya avtoreferatlari, ziyonet.uz veb sayti hamda ilmiy maqolalardan foydalanildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, nutqiy savodxonlikni innovatsion usullar bilan oshirish hamda uni yanada takomillashtirish nihoyatda alohida ahamiyat kasb etishi tajriba va tahlil jarayonlarida o‘z ifodasini topdi. Zamonaviy pedagogikada ham ushbu tadqiqot ishlari dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning nutqiy savodxonligini oshirishda qo‘llaniladigan innovatsion usullar ona tili darslari uchun samarali usul hisoblanadi va sezilarli darajada ko‘nikma va malakani oshiradi. Innovatsion usul va metodlar, turli didaktik o‘yinlar, mustaqil ishlash imkoniyatlari nutqiy savodxonlikni oshirishda birlamchi rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, innovatsion usullarning afzalliklari, ta‘lim jarayonini faollashtiradi, o‘quvchilarning diqqat va e‘tiborini kuchaytiradi, mavzu darajasini yengillashtirib oson o‘zlashtirish imkoniyatini beradi, ta‘lim jarayonini esa yanada samaraliroq qiladi.

**XULOSA:** olib borilgan tadqiqot va tahlillar natijasidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, nutqiy savodxonlikni oshirishda qo‘llaniladigan innovatsion usullar zamonaviy

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ta‘lim tizimining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, ular nafaqat o‘quv-biluv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmasini ham sezilarli darajada oshiradi. Innovatsion usullar nutqiy savodxonlikni oshirishda o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan ichki qiziqishini uyg‘otadi, o‘zlashtirish darajasini yaxshilaydi hamda mustaqil o‘rganishga undaydi. Kelgusida innovatsion usullarni ta‘lim jarayoniga samarali integratsiya qilish va pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish ta‘lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** tadqiqot, innovatsion usullar, nutqiy kompetensiya, pedagogik texnologiyalar, interaktiv o‘quv vositalari, metodlar, didaktik o‘yinlar.

**Iqtibos uchun**: Xaitova N.B. Ona tili darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning nutqiy savodxonligini oshirishning innovatsion usullari. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. B.201–210.

# ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ РЕЧЕВОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА

© Н.Б.Хаитова[1]✉
[1]Бухарский государственный педагогический институт, Бухара, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в мировых образовательных системах умение учеников самостоятельно мыслить и свободно излагать свои мысли занимает одно из ведущих мест. В частности, в системе образования Узбекистана также разрабатываются различные меры и программы, направленные на повышение речевой грамотности учеников на уроках родного языка. Уже в начальной школе внимание уделяется речи учащихся, что создает прочный фундамент для активного участия в дальнейших учебных процессах. В настоящее время наши учителя-педагоги применяют новые инновационные методы для повышения и совершенствования речевой грамотности учащихся начальных классов. В результате эффективность образовательной системы повышается, у учащихся развивается словарный запас, а также способность к самостоятельному мышлению.

**ЦЕЛЬ:** привести примеры инновационных методов и приемов, используемых для повышения речевой грамотности учащихся начальных классов на уроках родного языка, а также объяснить их преимущества.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** для внедрения инновационных методов, направленных на повышение речевой грамотности учащихся начальных классов, использовался педагогический опыт, а также статистический анализ. В качестве основных источников использовались авторефераты диссертаций, сайт ziyonet.uz и научные статьи.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** исследования показали, что повышение речевой грамотности с помощью инновационных методов и дальнейшее ее совершенствование имеют особое значение и нашли свое отражение в процессе

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

опыта и анализа. В современной педагогике эти исследования рассматриваются как актуальная проблема. Инновационные методы, используемые на уроках родного языка для повышения речевой грамотности, являются эффективными и значительно увеличивают уровень навыков и компетенций. Инновационные методы и подходы, различные дидактические игры, возможности для самостоятельной работы играют ключевую роль в повышении речевой грамотности. Кроме того, преимущества инновационных методов заключаются в том, что они активизируют учебный процесс, усиливают внимание и концентрацию учащихся, облегчают восприятие материала и делают процесс обучения более эффективным.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** из результатов проведенных исследований и анализов можно сделать вывод, что инновационные методы, используемые для повышения речевой грамотности, стали неотъемлемой частью современной образовательной системы. Они не только повышают эффективность образовательного процесса, но и значительно развивают речевые навыки учеников. Инновационные методы стимулируют внутреннюю заинтересованность учеников в обучении, улучшают уровень усвоения материала и побуждают к самостоятельному обучению. В будущем эффективная интеграция инновационных методов в образовательный процесс и их сочетание с педагогическими подходами будет способствовать выведению качества образования на новый уровень.

**Ключевые слова:** исследование, инновационные методы, речевая компетенция, педагогические технологии, интерактивные учебные средства, методы, дидактические игры.

**Для цитирования**: Хаитова Н.Б. Инновационные методы повышения речевой грамотности учащихся начальных классов на уроках родного языка. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №7. С.201–210.

## INNOVATIVE METHODS FOR IMPROVING SPEECH LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN MOTHER LANGUAGE LESSONS

© Nodira B. Xaitova[1]✉
[1] Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** In the global education system, students‘ ability to think independently and express themselves freely occupies a leading position in education. In particular, in the Uzbek education system, a number of measures and programs are being developed to improve students‘ speech literacy in native language lessons. Special attention to students‘ speech from primary education serves as a solid foundation for their active participation in subsequent educational processes. Currently, our teachers and s are educators using new innovative methods to increase and further improve the speech literacy of primary school students. As a result, the efficiency of the education system is increasing, and students‘ vocabulary and independent thinking skills are being formed.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**AIM:** it aims to provide examples of innovative methods and techniques used to improve the speech literacy of primary school students in native language classes and to explain their advantages.

**MATERIALS AND METHODS:** pedagogical experiments and statistical analysis were used to implement innovative methods used to improve the oral literacy of primary school students. The main tools for the article were dissertation abstracts, the ziyonet.uz website, and scientific articles.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the conducted research has shown that the importance of increasing and further improving speech literacy through innovative methods has been reflected in the processes of experimentation and analysis. This research work is also considered an urgent issue in modern pedagogy. Innovative methods used to improve speech literacy of primary school students are an effective method for native language lessons and significantly increase skills and qualifications. Innovative methods and techniques, various didactic games, and opportunities for independent work play a primary role in improving speech literacy. In addition, the advantages of innovative methods are that they activate the educational process, increase the attention and focus of students, make it easier to master the subject, and make the educational process more effective.

**CONCLUSION:** based on the results of the research and analysis, it can be said that innovative methods used to improve verbal literacy have become an integral part of the modern education system, which not only increase the efficiency of the learning process, but also significantly improve the speech skills of students. Innovative methods in improving verbal literacy arouse students‘ internal interest in learning, improve the level of mastery, and encourage independent learning. In the future, the effective integration of innovative methods into the educational process and their combination with pedagogical approaches will serve to bring the quality of education to a new level.

**Key words:** research, innovative methods, speech competence, pedagogical technologies, interactive teaching tools, methods, didactic games.

**For citation**: Nodira B. Xaitova (2025) ‘Innovative methods for improving speech literacy of primary school students in mother language lessons’, Inter education & global study, vol.3 (7), pp.201–210. (In Uzbek).

“**N**utqiy savodxonlikni oshirish” — bu o‘quvchilarning to‘g‘ri, aniq va mazmunli fikr bildirish, og‘zaki va yozma nutqda o‘zini erkin ifoda eta olish, tinglash, tushunish va javob berish ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonidir. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda bu ko‘nikmalarni shakllantirish muhim, chunki bu bosqich o‘quvchining keyingi ta‘limi va ijtimoiy hayotiga asos yaratadi. Bu atama ayniqsa maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar tarbiyasi va ta‘limida muhim o‘rin tutadi. Nutqiy savodxonlikni oshirish asosan, ona tili va o‘qish darslarida ko‘proq foydalaniladi, tafakkuri va dunyoqarashini, fantaziyasini

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

boyitish maqsadida “art” fanlaridan foydalaniladi. O‘quvchilarning dunyoqarashining xilma-xil bo‘lishi hamda so‘z boyliginining oshishi o‘qituvchini roli alohida ahamiyat kasb etadi.

**Nutqiy savodxonlik tarkibiga quyidagilar kiradi:**

**So‘z boyligi** – turli so‘zlarni bilish va ularni o‘rinli ishlata olish.

**Talaffuz aniqligi** – tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish.

**Matn tuzish qobiliyati** – fikrni izchil ravishda gap va matn shaklida bayon qila olish.

**Eshitish va tushunish** – boshqalarning nutqini to‘g‘ri tushunish va unga munosib javob bera olish.

**Grammatik me‘yorlarga amal qilish** – gap qurilishida so‘z turkumlari, fe‘l zamonlari, otlar soni va boshqalar bilan to‘g‘ri ishlay olish.

Nutqiy savodxonlikni shakllantirish avvalo, maktabgacha ta‘lim muassasalaridan boshlanadi, keyin esa maktab ta‘lim tizimida ko‘nikma va malaka oshib boriladi va u keyinchalik hayot davomida nutqiy kompetensiyani shakllantiradi. Eng avvalo, o‘quvchida so‘z boyligi oshishi uchun uning tasavvur dunyosi keng bo‘lishi, so‘zlarning leksik (atash) ma‘nosini bilishiga bog‘liq bo‘ladi. Misol uchun bir o‘quvchi hayoti davomida biror mevani, masalan, golubika (ko‘k meva) yemagan bo‘lsa uning ta‘mini hattoki nomini ham bilmaydi. Agar u har doim kundalikda ko‘rib, eshitib, yegan narsalar nomini ko‘rsa yo eshitsa darrov uning atash ma‘nosi haqida o‘ylaydi, masalan, “supurgi” deganda ko‘z oldiga uyni tozalovchi vosita gavdalanadi.

Demakki, so‘z boyligining oshishi bevosita so‘zning atash ma‘nosini bilishiga bog‘liq ekan. Shuning uchun ham maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida mevalar, hayvonlar, sabzavot nomlarini o‘rgatishda bevosita uning rasmlaridan yoki shaklli o‘yinchoq ko‘rinishidan foydalanishadi. Ikkinchi o‘rinda so‘zlarni aniq talaffuz qila olishga bog‘liq. Ba‘zan o‘quvchilar orasida tili chuchuk, qaysidir harflarni ayta olmasligi, so‘zlarni notog‘ri tallaffuz qilishi, duduqlanishi kabi holatlar uchraydi.

Bunday hollarda logoped-defektolog bilan hamkorlikda bolaning nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish mumkin. Albatta bunday holatlar nutqiy savodxonlikni oshirishda to‘sqinlik qilishi, keyinchalik tendoshlari orasida uyalishiga olib kelishi mumkin. Ko‘p hollarda hattoki kattalar ham ba‘zi so‘zlarni o‘qishda yoki aytishda qiynalishadi bunga eng asosiy sabablardan biri bu kabi so‘zlarni kundalikhayotda deyarli ishlatmaslik va eshitmaslikdir. Bunday holda ko‘proq tez aytish va aytilishi qiyin so‘zlardan foydalanish orqali yechim topsa bo‘ladi. Uchinchi o‘rinda matn tuza olish qobiliyatining shakllanganligi. Ba‘zi o‘quvchilarda so‘z boyligi ko‘p bo‘lsa-da, gap tuzishga qiynalish holatlari ham uchrab turadi. Buning asosiy yechimlaridan biri ko‘proq kitob mutolaa qilishdir.

O‘quvchilar bu orqali nafaqat matn tuzish, balki mantiqiy ketma ketlikni ham o‘rganishadi. Nutqiy savodxonlik tarkibiga tushunish va eshitish ham kiradi. Eshitish qobiliyati zaif yoki umuman rivojlanmagan bolada nutq deyarli rivojlanmaydi. Nutq bevosita eshitish orqali shakllanadi. Ular bir biri bilan uzviy bog‘liq jarayon hisoblanadi. Xulosa, bola eshitmasa, gapira olmaydi. Eng asosiysi Grammatik me‘yorlarni bilishda. Agarda o‘quvchida yuqorida sanab o‘tilgan tarkibiy qismlar mavjud bo‘lsa-yu, ammo grammatik

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

qoidalarni bilmasa nutqi chiroyli chiqmaydi va so‘zlarni to‘g‘ri ulay olmaydi. Bu xuddiki, ingliz tilida test topshirayotgan o‘quvchining speakingda tez va ravon gapirib, ammo grammatik xatolarga to‘la gapirishidaydir, va bu nutqning sifati va dekoratsiyasini buzadi.

**Nutqiy savodxonlikni rivojlantirish usullari:**

Bolaga ertak, she‘r, hikoya o‘qib berish;

Suhbatlar tashkil etish (savol-javob, hikoya tuzish, tasvir asosida gapirish);

Lug‘at boyligini oshirish bo‘yicha o‘yinlar (masalan, “Nimani ko‘ryapsan?”, “Bu nima?”);

Rasm asosida hikoya tuzish;

Dramatizatsiya (ertak yoki hikoyani rollarga bo‘lib aytish);

Audio yoki video materiallar eshittirib, so‘ng fikrini so‘rash.

Yuqorida sanab o‘tilgan usullar nutqiy savodxonlikni oshirishning an‘anaviy va noan‘anaviy usullari hisoblanib, doimiy dars jarayonlarida qo‘llanilib keladi.

Zamonaviy ta‘limda innovatsion yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi, chunki ular ta‘lim jarayonini samarali, interaktiv va zamon talablari darajasida olib borishga imkon beradi. Innovatsion yondashuvlar orqali o‘quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, tanqidiy tafakkuri rivojlanadi.

**Innovatsion yondashuvlarning asosiy roli va afzalliklari:**

1. Ta‘lim jarayonining samaradorligini oshiradi:

An‘anaviy metodlardan farqli o‘laroq, innovatsion usullar darslarni interaktiv va qiziqarli qiladi.

O‘quvchi markazida bo‘lgan ta‘limni shakllantiradi.

2. Ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi:

O‘quvchilar muammoni tahlil qilish, yangicha qarorlar qabul qilishni o‘rganadi.

Yechim topishga yo‘naltirilgan topshiriqlar orqali mustaqil fikrlash kuchayadi.

3. Axborot texnologiyalaridan foydalanish imkonini beradi:

Interaktiv doskalar, onlayn platformalar, raqamli o‘quv resurslari yordamida ta‘lim zamonaviylashadi.

Masofaviy ta‘lim va gibrid (aralash) o‘qitish imkoniyatlari kengayadi.

4. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limni rivojlantiradi:

Har bir o‘quvchining qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojlariga qarab individual yondashuvni shakllantirishga yordam beradi.

5. Hamkorlikda ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi:

Jamoaviy loyihalar, guruhli ishlar, muhokamalar orqali ijtimoiy faollik va muloqot madaniyati shakllanadi.

Innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan dars jarayonlari, odatdagi dars tizimidan tubdan farq qiladi va o‘quvchiga qisqa vaqt davomida chuqurlashtirilgan va zamonaviy ma‘lumotga boy bilimlarni, qolaversa, yaxshi kayfiyatni ham beradi. Finlandiya ta‘lim tizimida o‘quvchilarga bilim berishdan oldin ularning kayfiyati inobatga olinar ekan. Sababi shundagi, yaxshi kayfiyatda boshlangan dars o‘quvchining esida uzoq vat saqlanadi va

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

dars jarayonini ham faollashtiradi. Shuning uchun finlik pedagoglar darsni turli ko‘ngilochar o‘yinlar, qiziqarli latifalar bilan boshlashadi.

**Zamonaviy innovatsion yondashuvlarga misollar:**

| Yondashuv turi | Ta‘rif | Misollar |
|---|---|---|
| **STEM yondashuvi** | Fan, texnologiya, muhandislik va matematikani birlashtirgan yondashuv | Robototexnika, 3D modellashtirish |
| **CLIL** (Content and Language Integrated Learning) | Fan va tilni birgalikda o‘rgatish | Biologiyani ingliz tilida o‘qitish |
| **Flipped Classroom (Aks sinf)** | Uyda nazariyani, darsda esa amaliyotni bajarish | Video darslarni uyda ko‘rish, sinfda muhokama qilish |
| **Problemga asoslangan o‘qitish (PBL)** | Muammolar asosida ta‘limni tashkil etish | Hayotiy muammolarga yechim izlash topshiriqlari |
| **O‘yin orqali o‘qitish (Gamification)** | O‘yin elementlarini ta‘limga joriy qilish | Testlar o‘rniga viktorinalar, reytinglar |

Nutqiy savodxonlikni oshirish uchun asosan o‘qish darslarida turlicha interactive metodlardan, innovatsion usul va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Masalan:

**Step by step reading (**qadamba qadam o‘qish**)-**bu metod asosan o‘qish darslarida qo‘llaniladi. Bu orqali darsning samaradorligi oshadi, darsda o‘quvchilarning faolligi oshadi va qiziqishi yanada ortadi. Metod quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:


1. O‘quvchilar sonidan kelib raqamli kartochkalar tayyorlanadi, masalan sinfda 25 nafar o‘quvchi bo‘lsa, 25 ta kartochkaga raqamlar yozib aralashtiriladi.
2. O‘quvchilar ixtiyoriy bittadan kartochka tanlashadi.
3. Tanlangan kartochkalarni o‘quvchilar ovoz chiqarib aytishadi, ya‘ni o‘quvchilar kimdan keyin kelishlarini bilish uchun.
4. Kitobdan biror bir hikoya tanlanadi va har bir raqam egasi bir yoki ikki gapdan jumla o‘qishadi. Avval 1 raqami keyin 2 raqami xuddi shu tartibda davom etishadi.

**Eslatma!** Bunda o‘quvchilarga erkinlik berib kimdir partada o‘tirib, kimdir sinf burchagiga, sinf doskasi yoki deraza oldida turishadi, lekin tartib bilan o‘tirish mumkin emas! Bundan tashqari o‘qish jarayonida uzilish bo‘lmasligi, ya‘ni ketma-ket zanjirsimon o‘qish kerak!

Bu usul nafaqat o‘qish tezligini oshirida balki diqqatni jamlashga yordam beradi. O‘quvchilar navbatini kutib hikoyani jim kuzatishadi eng muhimi sinfda shovqin bo‘lmaydi, har kim o‘z navbati kelganda o‘qiydi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Zamonaviy metodning metodologik-didaktik asoslarini yoritish maqsadida boshlang‘ich sinf ya‘ni, 3-sinf o‘quvchilari bilan pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi. Jami 97 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qamrab olindi. Umumiy holat bo‘yicha 4 ta 3-sinflardan ya‘ni, “A”, “B”, “C”, hamda “D” guruhlarida bu metodni qo‘llab ko‘rdik va quyidagi diagramma asosida natijalarni foizlarda chiqardik. (1-diagramma)




3.1-diagramma. O‘quvchilarning umumiy o‘qish sur‘ati

Bunda, 3-“A” sinf- 56%, 3-“B”sinf- 71%, 3-“C” sinf-58 % hamda 3-“D” sinf-70% natijalarni qayd etdi. Biz o‘rtacha ko‘rsatkichlarni hisobga olgan holda tajriba sinf sifatida 3-“A” sinf hamda 3-“B”sinfni nazorat sinf sifatida 3-“C” sinf hamda 3-“D” sinflarni belgilab oldik. Tajriba-sinov ishlariga jalb qilingan o‘quvchilarning fanga va metodga bo‘lgan qiziqishi “qoniqarli” deb topildi. Bu tadqiqotda o‘quvchilarning jamoada tartib bilan o‘qiy olishi, berilgan topshiriqlarni bajara olishi, tushunish darajasining kengayishi, zamonaviy ta‘lim texnologiyalari mazmunidagi topshiriqlarga nisbatan qiziqishi mavjudligini inobatga olib, tajriba-sinov ishlari uchun qamrab olingan sinflarning jamoalari eksperimental ta‘limni tashkil etish va o‘tkazishga yaroqli ekanligi qayd etildi. Tajriba va nazorat sinf o‘quvchilarning bu metodni o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun nazorat ishlarini tayyorlashda quyidagi tamoyillarni asos qilib olindi:

nazorat ishlari mazmuniga o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyati shakllanganligining turli darajasini talab etuvchi masalalarni kiritish;


murakkablik darajasi o‘quvchilarning, rivojlanish, o‘quv-biluv faoliyatiga mos keluvchi topshiriqlarni tanlash;

o‘quvchilar tomonidan murakkabligi u yoki bu darajada bo‘lgan masalalarni tanlashda tasodifiy holdan xoli bo‘lishligi.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**3-“ A” sinf doirasida**





2-diagramma. Umumiy baholar foiz hisobida

III chorakda 55% -bunda an‘anaviy o‘qitish usulida

IV chorakda 71%-bunda esa yangi metodni qo‘llash orqali.

Demak, bizning pedagogik tajriba-sinov ishimizning samaradorligi avvalgi sifat ko‘rsatkichidan ko‘ra 15% ga o‘sdi.

**3-“B” sinf doirasida**




3-diagramma. Umumiy baholar foiz hisobida.

III chorakda 74%- bunda an‘anaviy o‘qitish usulida

IV chorakda 88%- bunda esa yangi metodni qo‘llash orqali.

Demak, bizning pedagogik tajriba-sinov ishimizning samaradorligi avvalgi sifat ko‘rsatkichidan ko‘ra 14% ga o‘sdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, tajriba sinfida sifat ko‘rsatkichlari sezilarli darajada o‘zgargan. Demak, biz qo‘llagan metod o‘zining samarasini berdi.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Innovatsion yondashuv asosida nutqiy savodxonlikni oshirish o'quvchining barcha imkoniyatlarini ochib beradi, yashirin qobiliyatlarini yuzaga chiqaradi va eng asosiysi yuqorida ta'kidlab aytilganidek, o'quvchiga yaxshi kayfiyat baxsh etadi. O'quv jarayonini bu kabi yondashuvlar asosida tashkil etish ta'lim sifat ko'rsatkichlarini sezilarli darajadi ko'taradi va boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish sur'atini, anglash tezligini, diqqat ko'lamini kengaytiradi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI |СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ |REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonuni – Toshkent, 2020.
2. Davlat boshlang'ich ta'lim standarti – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.
3. T. Teshaboyeva, N. Yo'ldosheva – Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi, 2021.
4. N. Karimova – Innovatsion pedagogik texnologiyalar asoslari, Toshkent, 2020.
5. A. Qodirova – Nutqiy faoliyatni rivojlantirish metodikasi, 2019.
6. R. G'ulomov – Ona tili o'qitish metodikasi (amaliy qo'llanma), 2022.
7. Jurnal: Boshlang'ich ta'lim, Xalq ta'limi jurnallarida chiqqan maqolalar (2020–2024 yillar).
8. Xalq ta'limi vazirligi metodik qo'llanmalari, elektron platformalar: milliykurikulum.uz, edu.uz.
9. V. A. Slastyonin, I. F. Isaev – Pedagogika va innovatsion ta'lim texnologiyalari, Moskva, 2018.
10. R. B. Raximova – Boshlang'ich ta'limda zamonaviy yondashuvlar, Toshkent, 2023.
11. T. Teshaboyeva – Ona tili darslarida nutqiy faoliyatni rivojlantirish, Toshkent, 2022.
12. N. Karimova – Innovatsion pedagogika, 2021.
13. R. G'ulomov – Boshlang'ich ta'limda dars ishlanmalar, 2023.
14. "Xalq ta'limi" jurnali maqolalari (qidir: nutqiy savodxonlik, ona tili).
15. milliykurikulum.uz – ona tili darslari uchun metodik materiallar.

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Xaitova Nodira Bafoyevna**, Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti], [**Хаитова Нодира Бафоевна**, PhD студент Бухарского государственного педагогического института], [**Xaitova Nodira**, PhD student of Bukhara State Pedagogical Institute E-mail: nodiraxaitova21@gmail.com

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# 6-SINF O‘QUVCHILARIGA TASVIRIY MATN YOZISHNI O‘RGATISH METODIKASI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YONDASHUVLAR

© D.J. Xamroyeva [1]✉
[1]Jizzax shahridagi Prezident maktabi, Jizzax, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** maqolada 6-sinf o‘quvchilariga tasviriy matn yozishni o‘rgatishning psixologik-pedagogik asoslari va metodik yondashuvlari tahlil qilingan. Tasviriy matn o‘quvchilarda lug‘at boyligini kengaytirish, obrazli fikrlash va yozma nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**MAQSAD:** tadqiqotning asosiy maqsadi — o‘quvchilarda tasviriy matn yozish ko‘nikmasini shakllantirish, uning nazariy asoslarini belgilash va amaliy metodlarini ishlab chiqishdir.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** Vygotskiy, Leontyev va Gardnerning ilmiy qarashlari asosida kuzatuv mashqlari, “5 sezgi” texnikasi, model matn tahlili, ijodiy yozuv bosqichlari va qayta ishlash metodlari qo‘llanildi. Amaliy mashg‘ulotlarda vizual va audial manbalardan foydalanildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bosqichma-bosqich yondashuv o‘quvchilarning kuzatuvchanligi, lug‘at boyligi va obrazli ifodalash qobiliyatini sezilarli oshiradi. O‘zaro baholash va qayta yozish metodlari tanqidiy fikrlash va yozuv madaniyatini rivojlantirishda samarali bo‘ldi.

**XULOSA:** tasviriy matn yozishga o‘rgatish jarayonida integrativ metodlardan foydalanish o‘quvchilarning umumiy ijodiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi va yozma nutq madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** tasviriy matn, 6-sinf, metodika, Vygotskiy, Leontyev, Gardner, kuzatuv mashqlari, ijodiy yozuv, matn tuzilishi.

**Iqtibos uchun**: Xamroyeva.D.J. 6-sinf o‘quvchilariga tasviriy matn yozishni o‘rgatish metodikasi: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar. // Inter education & global study. 2025. №8. B.211–218.

# МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ТЕКСТОВОМУ ПИСЬМУ УЧАЩИХСЯ 6 КЛАССА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

© Д.Ж. Хамроева[1]✉
[1]Президентская школа в Джизаке, Джизак, Узбекистан

Аннотация

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**ВВЕДЕНИЕ:** в статье анализируются психолого-педагогические основы и методические подходы к обучению шестиклассников написанию описательных текстов. Описательный текст способствует расширению словарного запаса учащихся, развитию образного мышления и культуры письменной речи.

**ЦЕЛЬ:** основная цель исследования — обосновать теоретические основы и разработать эффективные методы обучения написанию описательного текста в средней школе.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** теоретическую базу составляют взгляды Л.С. Выготского, А.Н. Леонтьева и Г. Гарднера. В качестве методических приёмов использовались упражнения на наблюдение, техника «5 чувств», анализ образцового текста, этапы творческого письма и методы редактирования.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты исследования показали, что поэтапное обучение повышает наблюдательность, обогащает словарный запас учащихся и формирует умение образно выражать мысли. Взаимная оценка и повторное написание способствуют развитию критического мышления и письменной культуры.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** интегративное использование методик при обучении написанию описательного текста развивает у школьников креативность, самостоятельное мышление и культуру речи.

**Ключевые слова:** описательный текст, 6-й класс, методика, Выготский, Леонтьев, Гарднер, упражнения на наблюдение, творческое письмо, структура текста.

**Для цитирования**: Хамроева.Д.Ж. Методика обучения изобразительному текстовому письму учащихся 6 класса: теоретические основы и практические подходы.// Inter education & global study.2025. №8. С.211–218.

## METHODS OF TEACHING VISUAL TEXT WRITING TO 6TH GRADE STUDENTS: THEORETICAL FOUNDATIONS AND PRACTICAL APPROACHES

© Dilnoza.J. Xamroyeva[1]✉
[1]Presidential School in Jizzakh, Jizzakh, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** the article analyzes the psychological and pedagogical foundations and methodological approaches to teaching 6th-grade students how to write descriptive texts. Descriptive writing enriches students' vocabulary, develops figurative thinking, and enhances written speech culture.

**AIM:** the main purpose of the study is to identify the theoretical foundations and design effective methods for teaching descriptive writing in middle school.

**MATERIALS AND METHODS:** the study builds on the theories of L.S. Vygotsky, A.N. Leontiev, and Howard Gardner. The methodological tools included observation exercises, the "Five Senses" technique, model text analysis, stages of creative writing, and editing methods. Visual and auditory sources were applied in practice.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**DISCUSSION AND RESULTS:** findings show that a step-by-step approach significantly improves students' observation skills, vocabulary richness, and ability to use figurative expressions. Peer assessment and rewriting foster critical thinking and writing culture.

**CONCLUSION:** an integrative methodology in teaching descriptive writing not only strengthens students' text-writing skills but also develops creativity, independent thinking, and written speech culture.

**Keywords:** descriptive text, 6th grade, methodology, Vygotsky, Leontiev, Gardner, observation exercises, creative writing, text structure.

**For citation**: Dilnoza D. Xamroyeva. (2025) 'Methods of teaching visual text writing to 6th grade students: theoretical foundations and practical approaches', Inter education & global study, (8), pp.211–218. (In Uzbek).

**B**ugungi kunda umumta'lim maktablarida ona tili va adabiyot darslarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda izchil va obrazli yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirishdir. Bu jarayonda matn turlaridan tasviriy matn alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki u nafaqat o'quvchilarning til boyligini kengaytiradi, balki ularning estetik didi, kuzatuvchanligi, hissiy idroki va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. 6-sinf davri bolalarning kognitiv va ijodiy rivojlanishida muhim bosqich bo'lib, ular atrof-muhitdagi obyekt va hodisalarni yanada aniqroq, badiiy ifodalar orqali tasvirlashga intila boshlaydilar. Shu sababli tasviriy matn yozish texnikasini o'rgatish nafaqat yozma nutqni boyitadi, balki ularning umumiy tafakkurini ham rivojlantiradi. O'zbek tilshunosligida va metodikasida tasviriy matn masalasi ko'plab ilmiy hamda amaliy tadqiqotlarda yoritilgan bo'lsa-da, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida uni o'qitish jarayonini tizimli tashkil etish zaruriyati dolzarbligicha qolmoqda. Bu esa ta'lim jarayonida didaktik va lingvistik komponentlarning uyg'unlashgan holda qo'llanilishini talab etadi.

Adabiyotlar sharhi. Tasviriy matn masalasi tilshunoslik va metodik tadqiqotlarda keng yoritilgan bo'lib, u asosan matn turlari tasnifi, tuzilishi hamda ta'lim jarayonidagi o'rni nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Warbleton ensiklopediyasida keltirilishicha, tasviriy matn — bu obyektni tashqi dunyo kontekstida obrazli ifodalar orqali tasvirlashga qaratilgan matn turi bo'lib, uning asosiy komponentlari mavzu, obyektning tashqi ko'rinish va xususiyatlarining tavsifi, shuningdek, obyektning atrof-muhit bilan aloqasini ifodalovchi ramkadan iboratdir [1]. Ushbu manbada tasviriy matnning semantik qurilishi sanash, taqqoslash, metafora, giperbola kabi badiiy vositalar yordamida boyitilishi qayd etilgan. Tilshunoslikdagi an'anaviy yondashuvlarga ko'ra, matnlar ifoda maqsadiga binoan hikoya (nasriy), tasviriy va mulohaza (reflektiv) turlariga bo'linadi [2;3]. Bu tasnif tasviriy matnning boshqa matn turlaridan farqlanishini aniqlash, uning lingvistik va funksional xususiyatlarini belgilashga yordam beradi.

Metodik tadqiqotlarda esa tasviriy matn yozishni o'rgatish masalasi alohida yondashuvlarni talab qilishi ta'kidlanadi. "Til va adabiyot.uz" portalida e'lon qilingan


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

maqolada o‘quvchilarning tasviriy matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishda ikki bosqichli metod qo‘llash tavsiya etiladi: birinchi bosqichda matnni mazmuniy qismlarga ajratish va tuzilish elementlarini o‘rgatish, ikkinchi bosqichda esa o‘quvchilarning passiv lug‘atini faol so‘zlar bilan boyitish orqali matn yaratishga undash [3]. Bunday yondashuv o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, bog‘lanishli nutqni rivojlantirish hamda obrazli fikrlash qobiliyatini shakllantirishda samarali vosita sifatida e’tirof etiladi.

Shunday qilib, mavjud manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tasviriy matn nazariy jihatdan matn tipologiyasi doirasida o‘rganilib kelgan bo‘lsa-da, amaliy metodik yondashuvlar ham shakllangan bo‘lib, ular tasviriy matn yozishni o‘rgatishda didaktik va lingvistik komponentlarning uyg‘unlashuvini ta’minlaydi.

Asosiy qism. 6-sinf o‘quvchilari til va tafakkur rivojining faol bosqichida bo‘lib, bu davrda obrazli fikrlash, hissiy idrok va ijodiy tasavvur tez sur’atlarda shakllanadi. Shu sababli tasviriy matn yozish texnikasini o‘rgatish:

Lug‘at boyligini kengaytiradi – o‘quvchilar yangi sifatlar, taqqoslashlar, badiiy iboralarni o‘zlashtiradilar.

Tafsilotlarni ko‘ra bilish ko‘nikmasini rivojlantiradi – kuzatuvchanlik va mantiqiy fikrlash mustahkamlanadi.

Estetik didni shakllantiradi – o‘quvchilar atrof-muhitni badiiy nuqtai nazardan baholashga o‘rganadilar.

Yozma nutq madaniyatini oshiradi – gaplarni mantiqan bog‘lash, matn tuzilishini saqlash, til me’yorlariga rioya qilish malakasi shakllanadi.

Tasviriy matn yozishga o‘rgatish bu bosqichda shunchaki yozish mashqi emas, balki o‘quvchilarning ijodiy va mantiqiy tafakkurini uyg‘otuvchi muhim vosita hisoblanadi.

| Bosqich | Metod | Ta’rif | Topshiriqlar tizimi | Ilmiy-metodik izoh |
|---|---|---|---|---|
| 1. Tayyorlov bosqichi | Kuzatuv mashqlari | O‘quvchi obyektni (manzara, shaxs, predmet) maqsadli kuzatadi va belgilarini qayd etadi. | “Sinfdan tashqariga chiqib, daraxtning 5 belgisini yozing.” | Kuzatuvchanlik va tafsilotlarni farqlash ko‘nikmasini rivojlantiradi; tasviriy nutqning asosiy manbai sifatida diqqatni o‘tkirlashtiradi. |
| | “5 sezgi” texnikasi | Ko‘rish, eshitish, hidlash, ta’m bilish va sezish orqali tafsilotlarni yig‘ish. | “Uch xil gullarni kuzating va rang, hid, shaklini yozing.” | Sensor kanallar orqali obrazni boyitadi; shaxsiy hissiyotlarni matnga singdirishga yordam beradi (Gardnerning ko‘p intellektlar |


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | nazariyasi). |
| | Lug‘at boyitish mashqlari | Obyektga oid sifatlar, sinonimlar va badiiy iboralarni to‘plash. | “Ochiq osmonni ifodalovchi 10 ta sifat yozing.” | Leksik boylikni kengaytirib, matn obrazliligini ta’minlaydi; sinonim qatlamlari bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi. |
| 2. Matn tuzilishi bilan tanishtirish | Reja tuzish | Matn qismlarini oldindan belgilash orqali mantiqiy ketma-ketlik yaratish. | “Qishki manzara mavzusida kirish–asosiy qism–xulosa rejasini tuzing.” | Fikrni izchil ifodalashga o‘rgatadi; yozuvning kognitiv jarayonini optimallashtiradi (psixolingvistika). |
| | Tushuncha xaritasi | Asosiy tushunchalarni grafik shaklda joylashtirish va bog‘lash. | “Bahor fasliga oid tushuncha xaritasi tuzing.” | Semantik bog‘lanishlarni vizual ifodalash orqali assotsiativ fikrlashni kuchaytiradi (Buzan metodikasi). |
| | Model matn tahlili | Namuna matn asosida tasviriy vositalar va tuzilish elementlarini aniqlash. | “Berilgan matndan 5 ta sifat va 3 ta taqqoslash toping.” | O‘qish orqali yozishni o‘rganish tamoyiliga asoslanadi; tahliliy fikrlashni rivojlantiradi. |
| 3. Ijodiy yozuv bosqichi | Rasm/video asosida yozish | Vizual materialdan ilhomlanib tasviriy matn yaratish. | “Quyidagi rasm asosida 6–8 gapdan iborat matn yozing.” | Vizual obrazlardan matnga o‘tish ko‘nikmasini rivojlantiradi; obrazli tafakkurni faollashtiradi. |
| | Musiqadan ilhomlanish | Musiqa tinglab, hissiy fonni matnga o‘tkazish. | “Sokin musiqa tinglab, o‘zingizni dengiz bo‘yida tasvirlang.” | Emotsional fonni kuchaytiradi, matn ichki ohangini boyitadi (Vygotskiy “emotsional ton” nazariyasi). |
| | Aksincha | Oddiy narsani | “Yomg‘irli kunni | Divergent fikrlashni |

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | tasvir | noodatiy tarzda ifodalash. | quvonchli ohangda tasvirlang.” | rivojlantiradi; ijodiy qarashni kengaytiradi (Guilford). |
| 4. Tahlil va qayta ishlash | O‘z-o‘zini tahrir qilish | Matndagi ortiqcha yoki mantiqsiz jumlalarni tuzatish. | “Matningizdagi 3 ta ortiqcha jumlani olib tashlang.” | Metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantiradi; tanqidiy fikrlashni shakllantiradi. |
| | O‘zaro baholash | O‘quvchilar bir-birining ishlarini tahlil qilib, tavsiyalar beradi. | “Sherigingizning matniga ikki tavsiya yozing.” | Hamkorlikda o‘rganish metodini qo‘llaydi; konstruktiv tanqid madaniyatini o‘rgatadi. |
| | Uch bosqichli yozuv | Xom nusxadan yakuniy variantgacha bo‘lgan yozuv jarayoni. | “Matningizni qayta yozing: birinchi versiya – tahrirlangan – yakuniy.” | Qayta-qayta ishlash (recursive writing) jarayonini mustahkamlaydi; matn sifatini oshiradi. |

Natija va muhokama. O‘tkazilgan metodik tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 6-sinf o‘quvchilarida tasviriy matn yozish ko‘nikmasini shakllantirish jarayonida bosqichma-bosqich va tizimli yondashuv samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Jadvalda keltirilgan metodlar — kuzatuv mashqlari, “5 sezgi” texnikasi, lug‘at boyitish, reja tuzish, tushuncha xaritasi, model matn tahlili, vizual va audial ilhom manbalari asosida yozish, aksincha tasvir, hamda tahlil va qayta ishlash texnikalari — bir-birini to‘ldiruvchi didaktik komponentlar sifatida o‘zini oqladi. Metodik jarayonning ilmiy asoslanishi bir nechta nazariy konsepsiyalarga tayanadi:

Psixolingvistika (A.A. Leontyev, L.S. Vygotskiy) [6] — yozma nutq jarayoni mantiqiy rejalashtirish, semantik bog‘lanishlarni shakllantirish va emotsional komponentlarni integratsiyalash orqali amalga oshishini ta’kidlaydi.

Ko‘p intellektlar nazariyasi (H. Gardner) [7] — “5 sezgi” texnikasi orqali multimodal idrokni faollashtirish o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini ishga solishga imkon beradi.

Kreativ tafakkur nazariyalari (J. Guilford) [9]— aksincha tasvir va noodatiy badiiy vositalardan foydalanish divergent fikrlashni rag‘batlantiradi.

Tasviriy matn yozishga o‘rgatishda uch asosiy omil muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Kuzatuvchanlik va tafsilotlarni ajratish qobiliyati — dastlabki bosqichdagi kuzatuv mashqlari o‘quvchilarning atrof-muhitdagi obyektlarni aniq va tizimli idrok etishiga zamin yaratadi.

2. Leksik boylik va badiiy vositalar — sifatlar, sinonimlar, metafora va


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

taqqoslashlarni faol ishlatish matn obrazliligini ta’minlaydi.

3. Tahliliy va metakognitiv ko‘nikmalar — matnni qayta ishlash va o‘zaro baholash jarayonlari yozma nutq sifatini oshiradi, o‘quvchida tanqidiy yondashuv shakllantiradi.

Integrativ metodlar (vizual + audial + analitik mashqlar) o‘quvchilarning nafaqat tasviriy matn yozish malakasini, balki umumiy til madaniyati va ijodiy tafakkurini ham rivojlantiradi. Bundan tashqari, yozuv jarayonini uch bosqichli model asosida (tayyorlov – ijodiy yozuv – tahlil) tashkil etish samaradorlikni oshiradi va o‘quvchilarning motivatsiyasini mustahkamlaydi.

Umuman olganda, tasviriy matn yozishni o‘rgatish jarayoni oddiy yozma mashq sifatida emas, balki kognitiv, lingvistik va estetik komponentlar uyg‘unlashgan murakkab ijodiy faoliyat sifatida ko‘rilishi lozim. Shu yondashuv asosida tuzilgan metodik tizim maktab amaliyotida qo‘llanishi mumkin va o‘quvchilarning yozma nutq madaniyatini yangi sifat bosqichiga ko‘taradi.

Xulosa. Tadqiqot jarayonida tasviriy matn yozish texnikasini 6-sinf o‘quvchilariga o‘rgatish jarayonida bosqichma-bosqich metodik yondashuv samarali natijalar berishi aniqlandi. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi, Leontyevning faoliyat yondashuvi va Gardnerning ko‘p intellektlar nazariyasi asosida ishlab chiqilgan metodlar o‘quvchilarning kuzatuvchanlik, tasviriy ifoda, mantiqiy rejalashtirish va ijodiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, tayyorlov bosqichida sezgi asosida kuzatish va lug‘at boyitish mashqlari o‘quvchining til boyligini oshiradi; matn tuzilishi bilan tanishtirish bosqichi esa mantiqiy fikrlashni mustahkamlaydi. Ijodiy yozuv jarayonida turli sezgi kanallari (vizual, audial) orqali ma’lumot olish o‘quvchining tasviriy matn yaratish qobiliyatini kengaytiradi. Tahlil va qayta ishlash bosqichi esa yozuv jarayonida refleksiya qilish, tahrir va takomillashtirish madaniyatini shakllantiradi.

Shunday qilib, integrativ yondashuv o‘quvchilarda nafaqat tasviriy matn yozish ko‘nikmalarini, balki umumiy nutq madaniyatini, ijodkorlik va mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirishda ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Warbleton Council. Descriptive Text: Definition, Structure and Examples. — Warbleton Encyclopedia, 2023.
2. Studmate.ru. Типы текста в русском языке: повествование, описание, рассуждение. — 2022.
3. Fayllar.org. Matn turlari va ularning xususiyatlari. — 2022.
4. Tsuull.uz. Tasviriy matn yozish ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi. — Til va adabiyot.uz portali, 2021.
5. Выготский, Л.С. Мышление и речь. — М.: Педагогика, 1982.
6. Леонтьев, А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. — М.: Смысл, 2005.
7. Gardner, H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. — New York: Basic Books, 1983.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

8. Buzan, T. The Mind Map Book. — London: BBC Active, 2010.
9. Guilford, J.P. The Nature of Human Intelligence. — New York: McGraw-Hill, 1967.

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi,** o'qituvchi [**Хамроева Дилноза Жахонгир қизи**,преподаватель], [**Xamroyeva J. Dilnoza** teacher]; manzil: Jizzax shahri, Istiqlol ko'chasi 13-uy, Jizzakh 103100., [адрес: Город Джизак, улица Истикляль 13, Джизак 103100.], [address: The city of Jizzakh, Istiklal street 13, Jizzakh 103100.]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# CHUQURLASHTIRILGAN IXTISOSLASHUV BOSQICHIDAGI FUTBOLCHILARNI JISMONIY RIVOJLANISHINI JISMONIY TAYYORGARLIGI BILAN BOG‘LIQLIGI

© A.S. Rasulov[1]✉

[1]O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: maqolada 14-15 yoshli futbolchilarni jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi bilan bog‘liqligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar, chuqurlashtirilgan ixtisoslashuv bosqichidagi futbolchilarni aynan tezlik va tezkor-kuch tayyorgarligini oshirish masalalari o‘rganilgan. 14-15 yoshli futbolchilarni faoliyat samaradorligini oshirishda ularning tezkorligi, kuchi va tezkor-kuch tayyorgarligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadigan morfologik ko‘rsatkichlarning bog‘liqligi ochib berilgan.

**MAQSAD**: tadqiqotning maqsadi — 14–15 yoshli futbolchilarning morfologik rivojlanishi bilan ularning tezkorlik, kuch va tezkor-kuch tayyorgarligi darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash, shuningdek, tezkor-kuch sifatlarini oshirishga qaratilgan samarali mashg‘ulot metodlarini ishlab chiqish.

**MATERIALLAR VA METODLAR**: tadqiqot jarayonida 14–15 yoshli futbolchilardan iborat 40 nafar sportchi ishtirok etdi. Futbolchilarning antropometrik ko‘rsatkichlari (bo‘y uzunligi, tana vazni, ko‘krak qafasi hajmi, oyoq mushaklari perimetri) o‘lchandi. Jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash uchun maxsus testlar qo‘llanildi: 30 metrga yugurish (tezlik), joyidan balandlikka sakrash (tezkor-kuch), o‘tirib-turish va turnikda tortilish (umumiy kuch). Statistik tahlil usullari yordamida morfologik ko‘rsatkichlar bilan test natijalari o‘rtasidagi korrelyatsiya hisoblab chiqildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, futbolchilarning antropometrik ko‘rsatkichlari, xususan oyoq mushaklari perimetri va tana vazni ularning tezkor-kuch tayyorgarligi bilan bevosita bog‘liqdir. Tezlik ko‘rsatkichlari esa asosan oyoq mushaklarining kuchi va koordinatsion imkoniyatlari bilan uzviy aloqador bo‘lib chiqdi. Shuningdek, maxsus mashg‘ulotlarda tezkor-kuch mashqlari (sakrash mashqlari, qisqa masofaga takroriy yugurishlar, qarshilik bilan mashqlar) muntazam qo‘llanilganda futbolchilarning natijalari 12–15% ga yaxshilangan. Bu esa tezlik va kuch sifatlarini kompleks rivojlantirish mashg‘ulot samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil ekanini ko‘rsatdi.

**XULOSA:** tadqiqot natijalariga ko‘ra, 14–15 yoshli futbolchilarda tezkorlik va tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishda morfologik xususiyatlarning o‘rni muhimdir. Antropometrik ko‘rsatkichlar bilan jismoniy tayyorgarlik darajasi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik aniqlanib, ularni hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni individuallashtirish yuqori samaradorlik beradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Futbolchilarning tezkor-kuch sifatlarini oshirishga qaratilgan maxsus mashqlarni muntazam qo‘llash ularning sport natijalarini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi.

**Kalit so‘zlar**: **:** maqolada 14-15 yoshli futbolchilarni jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi bilan bog‘liqligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar, chuqurlashtirilgan ixtisoslashuv bosqichidagi futbolchilarni aynan tezlik va tezkor-kuch tayyorgarligini oshirish masalalari o‘rganilgan. 14-15 yoshli futbolchilarni faoliyat samaradorligini oshirishda ularning tezkorligi, kuchi va tezkor-kuch tayyorgarligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadigan morfologik ko‘rsatkichlarning bog‘liqligi ochib berilgan.

**Iqtibos uchun**: Rasulov A.S. Chuqurlashtirilgan ixtisoslashuv bosqichidagi futbolchilarni jismoniy rivojlanishini jismoniy tayyorgarligi bilan bog‘liqligi. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. B.219–228.

# ВЗАИМОСВЯЗЬ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ И ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ФУТБОЛИСТОВ НА ЭТАПЕ УГЛУБЛЕННОЙ СПЕЦИАЛИЗАЦИИ

© А.С. Расулов[1]✉
[1]Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, Чирчик, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: в статье рассматриваются исследования, посвящённые физическому развитию и физической подготовке футболистов 14–15 лет. Особое внимание уделено вопросам повышения скоростной и скоростно-силовой подготовки на этапе углублённой специализации. Раскрыта взаимосвязь морфологических показателей, имеющих важное значение в развитии быстроты, силы и скоростно-силовых качеств, с эффективностью деятельности футболистов данного возраста.

**ЦЕЛЬ**: цель исследования – выявить взаимосвязь между морфологическим развитием и уровнем скоростной, силовой и скоростно-силовой подготовки у футболистов 14–15 лет, а также разработать эффективные методические подходы к совершенствованию их физических качеств.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в исследовании приняли участие 40 футболистов в возрасте 14–15 лет. Измерялись антропометрические показатели (длина тела, масса тела, окружность грудной клетки, периметр мышц ног). Для оценки физической подготовки использовались тесты: бег на 30 м (скорость), прыжок в высоту с места (скоростно-силовые качества), приседания и подтягивания (сила). Статистическая обработка позволила установить корреляцию между морфологическими показателями и результатами тестов.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: результаты показали, что такие антропометрические показатели, как периметр мышц ног и масса тела, напрямую связаны с уровнем скоростно-силовой подготовки. Показатели скорости были в

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

большей степени обусловлены силой и координационными возможностями мышц ног. Введение в тренировочный процесс специальных упражнений (прыжковые упражнения, повторные короткие спринты, упражнения с сопротивлением) способствовало улучшению показателей футболистов на 12–15%. Это подтверждает эффективность комплексного развития скорости и силы.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: установлено, что морфологические особенности играют важную роль в развитии скоростных и скоростно-силовых качеств футболистов 14–15 лет. Индивидуализация тренировочного процесса с учётом антропометрических данных повышает эффективность подготовки. Регулярное использование специальных упражнений для развития скоростно-силовых качеств способствует значительному росту спортивных результатов.

**Ключевые слова**: физическое развитие, физическая подготовка, специальная физическая подготовка, скорость, сила, скоростно-силовая подготовка, антропометрические показатели, мышечная сила, работа мышц.

**Для цитирования**: Расулов А.С. Взаимосвязь физического развития и физической подготовленности футболистов на этапе углубленной специализации. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. С. 219–228.

## THE RELATIONSHIP BETWEEN PHYSICAL DEVELOPMENT AND PHYSICAL FITNESS OF FOOTBALL PLAYERS AT THE STAGE OF ADVANCED SPECIALIZATION

© Anvar S. Rasulov[1]✉
[1]Uzbek State University of Physical Education and Sport, Chirchik, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: this article analyzes research on the physical development and fitness of 14–15-year-old football players, with a particular focus on improving speed and speed-strength training during the stage of advanced specialization. The relationship between morphological indicators, which play a crucial role in the development of speed, strength, and speed-strength performance, and the effectiveness of young football players' activity is revealed.

**AIM:** the aim of the study is to identify the relationship between morphological development and the level of speed, strength, and speed-strength training of 14–15-year-old football players, as well as to develop effective methodological approaches to improving their physical qualities.

**MATERIALS AND METHODS**: the study involved 40 football players aged 14–15. Anthropometric indicators were measured (body height, body weight, chest circumference, leg muscle perimeter). Physical fitness was assessed using the following tests: 30-meter sprint (speed), standing vertical jump (speed-strength), squats and pull-ups (strength). Statistical analysis was conducted to determine the correlation between morphological indicators and test performance.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**DISCUSSION AND RESULTS**: the results showed that anthropometric indicators such as leg muscle perimeter and body weight are directly related to the level of speed-strength training. Speed indicators were mostly associated with the strength and coordination abilities of the leg muscles. The inclusion of specific exercises (jump training, repeated short sprints, resistance exercises) in the training process improved the players' performance by 12–15%. This confirms the effectiveness of integrated development of speed and strength.

**CONCLUSION**: it was found that morphological features play an important role in developing the speed and speed-strength qualities of 14–15-year-old football players. Individualization of the training process based on anthropometric data increases the effectiveness of preparation. Regular use of special exercises aimed at developing speed-strength qualities significantly improves sports performance.

**Keywords**: physical development, physical fitness, special physical training, speed, strength, speed-strength training, anthropometric indicators, muscle strength, muscle performance.

**For citation**: Anvar S. Rasulov. (2025) 'The relationship between physical development and physical fitness of football players at the stage of advanced specialization', Inter education & global study, vol.3 (8), pp.219–228. (In Uzbek).

**M**amlakatimizda professional futbolchilarni shakllantirish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, buning uchun futbol-ta'lim muassasalari sonini ko'paytirish, xalqaro standartlarga mos keladigan futbol infratuzilmasini yanada rivojlantirish, futboli rivojlangan davlatlar bilan raqobat qila oladigan trener, hakam va boshqa mutaxassislarni tayyorlash, bolalar va o'smirlarni futbol bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish va ularda futbolga bo'lgan barqaror qiziqishni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. 2023-yilning 3-noyabrida mamlakatimiz prezidenti tomonidan qabul qilingan "Futbol-ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda xalqaro standartlarga mos keladigan futbol infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-355 sonli qarorda mamlakatimiz futbolini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Ilg'or xorij tajribasini o'zlashtirish hamda futbolchilarni zamonaviy, innovasion metodikalar, ilmiy-tahliliy yondashuv asosida tayyorlash, futbolchilar tayyorlash bosqichlarini raqamlashtirish orqali shaffof saralashni tashkil etish, saralab olingan eng iqtidorli va yuqori mahoratga ega futbolchilarni terma jamoalarga yetkazish, yoshlarni zamonaviy futbolga mos usul va falsafa asosida professional tayyorlash va futbol bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish orqali sohani yanada yuqoriga ko'tarish kabi masalalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shunday ekan, chuqurlashtirilgan ixtisoslashuv bosqichi futbolchilarini tezkor-kuch tayyorgarligini oshirishning asosiy omillarini aniqlash, futbolchilarni tayyorlashni yangi tizimlarini yaratish va tayyorgarlik turlarini ahamiyatini o'rganish bugunning dolzarb masalalaridandir [1].

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Xalqaro maydondagi raqobatning o‘sishi, tijorat musobaqalari tufayli so‘nggi yillarda sport taqvimining keskin kengayishi, sportchining tanasiga yuklamalarni sezilarli darajada oshiradi, bu esa undan mashg‘ulot va raqobatbardosh faoliyat sharoitida funksional zahiralarni maksimal darajada safarbar etishni va psixologik barqarorlikni talab qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, Yevropa mamlakatlarida iqtidorli futbolchilarni tayyorlashning uyg‘un tizimi ishlab chiqilgan. “Ayaks”, “Manchester Yunayted”, “Atletiko”, “Bavariya” va boshqa futbol klublari tarkibida o‘z futbol akademiyalari bitiruvchilari professional faoliyatini davom ettiradi. Shundan kelib chiqadiki, Yevropa mamlakatlarida ko‘plab malakali bolalar murabbiylari bilan ta’minlangan akademiyalarda yosh futbolchilarni tayyorlashning aniq tashkil etilgan tizimi mavjud. Ko‘plab mutaxassislar uzoq muddatli sport mashg‘ulotlari qurilishi quyidagi omillarni hisobiga amalga oshishi ko‘rsatilgan: optimal yosh guruhlari, sportchining individual xususiyatlarini uzoq muddatli tayyorlashning har bir bosqichida mashg‘ulotlarning ustunligi va uning mahoratini rivojlantirishga qaratilganligi [3,6,10].

Mutaxassislar 14-15 yoshdagi futbolchilarda yurak urish tezligi o‘zgaruvchanligi xususiyatlarini o‘rganishdi. Tadqiqot natijasi shuni ko‘rsatadiki, kengaytirilgan vosita rejimi ta’sirida yurak ritmining tuzilishi o‘zgaradi, yangi, yanada qulay munosabatlar o‘rnatiladi, simptomatik birikma va yurakka parametrik ta’sir kuchayadi. Mualliflar o‘zlarining ishlarida o‘spirinlik davrida antropometrik ko‘rsatkichlarning katta qismi rivojlanishi inson somatotipini shakllantirganligini ta’kidlashadi. Ushbu davr norma va patologiya diagnostikasining o‘ziga xos morfologik mezonlarini o‘rganishda eng muhim hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda bugungi kunda futbolchilarni tayyorlash turli usul va yo‘nalishlarda olib borilmoqda. 14-15 yoshli futbolchilar haftasiga 5 marotaba mashg‘ulot o‘tkazadilar. Qolgan bir kuni musobaqa o‘yini va yana bir kuni dam olish uchun foydalaniladi. Katta yoshdagi guruhlarda o‘quv-mashg‘ulot yeg‘inlari ko‘proq maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi [2,4,5,7].

Futbolda jismoniy sifatlardan – kuch sifati turli harakatlarda namoyon etiladi. Kuch – harakatni o‘zgarishiga sabab bo‘lib, muskulni qisqarish kuchi bilan bog‘liq va bunga kuch impulsi deyiladi. Turli harakatlarni samarali bajarilishi kuch impulsiga bog‘liq. Kuch sifatini samarali rivojlantirish maxsus kuch tayyorloviga bog‘liq bo‘lib, bunda jismoniy tayyorlovning yo‘nalishi – tanlagan sport turida kinematik va dinamik qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Ko‘pchilik mualiflarning fikriga binoan o‘yinchining harakat potensiali kuchli chidamlilikga bog‘liq. Aynan shu sifatni rivojlantirish har bir sport turida murakkab muammodir. Afsuski ko‘pchilik mutaxassislar umumiy chidamlilikni maxsus kuchli chidamlilik bilan adashtiradi. Ko‘pincha chidamlilikni baholashda bajarilgan ishning natijasi - puls qiymati bilan o‘lchanadi. Lekin tahlil qilayotgan harakatlarga sarf etiladigan kuchlanishni hisobga olmaydilar. Harakatni dinamik va statik ko‘rsatkichlarisiz tahlil qilish hyech qanday natija bermaydi [4,8,9].

Muskullar bajaradigan ishining negizida qisqarish xususiyati yotadi. Muskul qisqarganda uning bir uchiga ikkinchi uchi yaqinlashadi. Turli harakatlarni bajarish jarayonida muskulning harakat qiluvchi va qimirlamay turuvchi uchlari almashib turishi mumkin. Qisqarish natijasida muskullar tomonidan ma’lum tortishuv kuchlar paydo bo‘ladi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

va turli jismlarni bir joydan ikkinchi joyga surilishi natijasida mexanik ish bajariladi. Bu ish kilogrammometrlar bilan o‘lchanib, muskul kuchi bilan jismni surilgan masofa orasidagi ko‘paytmasiga teng. Demak, muskullarni qisqarishi natijasida mexanik ish bajariladi. Muskulning qisqarish jarayoni bo‘shashish va taranglashish holatlaridan tashkil topgan. Muskulning bo‘shashishi muskulning cho‘zilishi bilan ta’riflanadi. Masalan, pastga tushirilgan qo‘lni muskullari cho‘zilgan, lekin taranglashmagan bo‘ladi. Muskulning taranglashish holatida muskulning uzunligi ikki xilda o‘zgaradi: ba’zi vaziyatda cho‘zilishi, boshqa bir holatlarda kaltalashishi mumkin. Masalan, gavda orqaga tashlanganda qorin muskullari taranglashadi va cho‘ziladi. Qo‘l panjasini qattiq qisib, yelka oldi yelka tomon bukilganda, ikki boshli muskul taranglashadi va kaltalashadi. Demak, qisqarish jarayonining holatlarida muskulning uzunligi o‘zgaradi va muskullar har xil rejimda ishlashi mumkin [5, 6, 10].

Jismoniy sifatlardan yana biri bu – portlovchi kuchdir. Qisqa vaqt ichida ma’lum bir massaga ega bo‘lgan jismni tezkorlik bilan harakatlanishi bunga misol bo‘ladi. Portlovchi kuchni ko‘rsatkichlariga – zo‘riqishni qiymati, zo‘riqishni namoyon etish vaqti, tezlanishni qiymati, va harakatlanuvchi jismni massasi kiradi. Portlovchi kuchni ko‘pincha yengil atletikada - uloqtirishda, yakka kurash sport turlarida – raqibni tashlashda, eshkak eshishda va futbolda musobaqa jarayonida uchraydi. Portlovchi kuch- bu irsiy ifodalangan belgi va uning namoyon etishi sportchining irsiyatiga bog‘liq. Futbolda alohida o‘rinni tezkor-kuch sifati egallaydi. Jismoniy sifatlardan bu sifat ham ko‘proq irsiyatga bo‘y sinadi. Futbolchilarning start holatida qo‘yidagi ko‘rsatkichlarga ahamiyat beriladi:

- birinchidan, tanani tayanch sathidan joylashuviga, turg‘unlik burchagini ko‘rsatkichiga, umumiy og‘irlik markazining tayanch sathga nisbatan balandligiga;
- ikkinchidan, maxsus kuch yo‘nalishli tayyorlovni samarasini oshishi uchun qo‘yilgan vazifalarni hal etuvchi muskul guruhlarni rivojlanishiga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

Kuchli yo‘nalishli tayyorlov jarayoni muskul massasini oshirish orqali nafaqat kuch sifatlarini rivojlantirish, balki tayanch-harakat apparati tarkibiga kiruvchi biriktiruvchi to‘qima, suyaklarni mustahkamlash, tana qaddi-qomatini shakllantirish, tezkorlik va muraqqab muvozanatlashish sifatlarini va qobiliyatlarini rivojlanishini ta’minlaydi [4,7,8].

Tadqiqot maqsadi 14-15 yoshli futbolchilarni tezkorligi, kuchi va tezkor-kuch tayyorgarligini oshirishda ularning jismoniy rivojlanganligi (antropometrik ko‘rsatkichlari) bilan bog‘liqligini o‘rganish.

Tadqiqot vazifalari.

1. Chuqurlashtirilgan ixtisoslashuv bosqichidagi futbolchilarni jismoniy tayyorgarligi va jismoniy rivojlanishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish.
2. 14-15 yoshli futbolchilarni antropometrik ko‘rsatkichlarini baholash va tahlil qilish.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

3. 14-15 yoshli futbolchilarni tezkorligi, kuchi va tezkor-kuch tayyorgarligini oshirishda ularning antropometrik ko‘rsatkichlari va morfologik xususiyatlarini ahamiyatini aniqlash.

Futbol sohasida sport tayyorgarligining mukammallashib borishi tufayli yutuqlar darajasining va rivojlanishning jadal ravishda o‘sib borishi sportchilar bilan ish olib borishning yangidan-yangi samarali uslublarini izlash va yaratishni talab etayotganligi V.P.Filin, V.K. Balsevich, M.A. Godik, A.A.Shamardin va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan ishlarda keltirilgan. Ma’lumki, sportdagi ko‘rsatkich integral ko‘rsatkich qatoriga kirib, unda turlicha omillarning maxsus ta’siri namoyon bo‘ladi va har bir omil o‘zining ulushini qo‘shadi. V.K.Balsevich, R.N.Doroxov, E.G.Martirosov va A.V.Smolenskiylar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra sportchining jismoniy ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi omillar qatoriga tezkorlik va kuchlilik sifat ko‘rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli sport mutaxassislari sportchining individual, ko‘pincha, yoshiga bog‘liq xususiyatlari, va tanlangan sport turiga bog‘liq holda sportchini rasional (maqsadga muvofiq holda) tayyorlanishiga ahamiyat beradilar. Yuqorida qayd qilinganlar asosida xulosa qilish mumkinki, futbolchilarni tezkor kuchini rivojlantirishda yangidan-yangi tadqiqotlar o‘tkazilishini taqozo etadi, yangi tadqiqotlar bolalar va o‘spirinlarning tanlagan sport turida yuqori ko‘rsatkichlarga erishishini ta’minlaydigan kompleks baholash uslublarini yaratib borishni talab qiladi.

Tadqiqotimizda biz malakali 14-15 yoshli futbolchilarning jismoniy rivojlanganligini va umumiy jismoniy tayyorligini tahlil qildik. Tadqiqot ob’yekti sifatida Toshkent viloyati ixtisoslashtirilgan sport maktabining 24 nafar futbolchilar tanlab olindi. Futbolchilarning jismoniy rivojlanganlik darajasi ular tanasining total va parsial o‘lchamlarini o‘z ichiga olgan antropometrik uslub asosida baholandi. Tadqiqotlar 2024 yilning iyul oyida amalga oshirildi (1-jadval).

**1-jadval**

**14-15 yoshli futbolchilarning antropometrik belgilarning yoshga qarab rivojlanish ko‘rsatkichlari ( n=24)**

| T/r | Antropometrik ko‘rsatkichlar | 14 yosh | 15 yosh | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Vazn/bo‘yi indeksi (sm/kg) | 336,69±32,11 | 360,34±38,26 | 5,96 |
| 2 | Ko‘krak qafasi aylanasi (sm) | 78,9±5,73 | 82,8±3,18 | 3,92 |
| 3 | Qo‘l uzunligi (sm) | 73,4±4,53 | 75,6±4,21 | 2,03 |
| 4 | Oyoq uzunligi (sm) | 91,2±5,42 | 93,6±6,43 | 2,41 |
| 5 | Son uzunligi (sm) | 43,10±1,54 | 47,6±3,26 | 4,54 |
| 6 | Boldir uzunligi (sm) | 39,8±3,06 | 40,0±4,11 | 0,28 |
| 7 | Yelka kengligi (sm) | 35,2±2,79 | 37,3±2,19 | 2,14 |
| 8 | Tos kengligi (sm) | 25,3±2,17 | 25,9±2,14 | 0,41 |
| 9 | Son aylanasi (sm) | 47,4±2,23 | 51,12±4,1 | 3,72 |

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 10 | Boldir aylanasi (sm) | 31,2±1,59 | 34,8±3,12 | 3,62 |

14 yoshga kelib vazn bo‘y indeksi 336,69±32,11 ko‘rsatkichga teng bo‘lsa, 15 yoshda 360,34±38,26 ni tashkil qilar ekan. Jadvalda individual rivojlanish jarayonida ko‘rsatkichlarning o‘sish darajasi keltirilgan. Tana ko‘rsatkichlari orasida tanlangan sport mutaxassisligа xos ravishda oyoqlar segmentlarining uzunlik o‘lchovlari ahamiyatlidir, chunki futbolda aksentlashgan yuklamalar aynan shu segmentlariga tushadi. 14 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan davrda oyoqlarning uzunligi 2,41% ga ortishini ko‘rishimiz mumkin. Qo‘llarning uzunligi 14 yoshdan va 15 yoshgacha davrda aylana belgilarda yuqori darajali o‘sish kuzatildi. Masalan, boldir aylanasi 3,62% ni tashkil etdi. Sonlarning aylanma o‘lchovlari ham shunga o‘xshash: 15 yoshga kelib 3,72% ni tashkil qildi. Ko‘krak qafasi aylanasi 15 yoshga kelib 3,92% ga ortganini ko‘rishimiz mumkin. Umuman aytganda 14 yosh bilan 15 yosh orasida son uzunligi eng katta o‘sishga erishib, 4,54% ni tashkil qilgani aniqlandi. Jismoniy rivojlanish dinamikasini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, futbol bilan shug‘ullanuvchi 14-15 yoshli o‘spirin sportchilarning antropometrik ko‘rsatkichlari ular bilan bir xil sharoitda bo‘lgan va sportchi bo‘lmagan tengdoshlarnikidan sezilarli yuqori ekan. Yosh kattalashgan sari bu farq ham yuqoriroq bo‘lib boradi. Izlanishlar natijalariga ko‘ra futbolchilarning tana og‘irligi va tana uzunligi kabi antropometrik ko‘rsatkichlari mashg‘ulotlar ta’siri ostida o‘zgaruvchan bo‘lib, har bir sportchining maxsuslashgan xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Maktab bolalarinikidan farqli yosh futbolchilarda antropometrik ko‘rsatkichlarning jadal o‘sish jarayoni ancha oldin boshlanar ekan. Tadqiqotlarga ko‘ra yosh futbolchilarda tana massasining eng ko‘p oshishi 13 va 17 yoshlarga to‘g‘ri keladi, bu esa o‘g‘il bolalar vaznining ikkinchi keskin o‘sishiga mos keladi.

Futbolchilarda 14 yoshdan 15 yoshgacha tana uzunligining ortish ko‘rsatkichi yiliga turg‘un holda 3-4 sm ni tashkil qiladi. Agar 14 yoshli maktab o‘quvchilarining tana uzunligi 161 sm ni tashkil qilsa, bu yoshli yosh futbolchilarda bu ko‘rsatkich 165,4±3,58 sm ni, 15 yoshda esa 169,3±7,44 sm ni tashkil qiladi. Bu davridagi tana uzunligining keskin o‘sishi tana massasining keskin o‘sishiga hamohang bo‘ladi: bu borada ham keskin o‘sish kuzatiladi - 14 yoshda tana massasi 55,4±6,42 kg ni, 15 yoshda – 61,7+6,48 kg ga yetadi. Izlanishlar natijasida aniqlanishicha antropometrik ko‘rsatkichlar ko‘proq mashqlar ta’sirida o‘zgaruvchanlikka ega va har bir sportchining spesifik xususiyatlarini belgilaydi. Yosh futbolchilarda asosiy antropometrik ko‘rsatkichlar intensiv o‘sish davriga kirishib, shu bilan maktab o‘quvchilaridan farqlanadilar. Biz o‘tkazgan izlanishlarda aniqlanishicha futbolchilar vaznining ortishi 14 va 15 yoshli davrda turg‘un bo‘ladi.

Shunday qilib, sportchilarning morfologik ko‘rsatkichlari sportchilar tayyorlash tizimini bashqarishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi, sportchilarning umumiy morfologik belgilarini aniqlashda quyidagi belgilardan foydalanilsa bo‘ladi: tananing vazni va uzunligi, vazn-bo‘yi indeksi - bular birgalikda o‘smirlar va yosh sportchilarning tana tuzilishini baholashga asos bo‘ladi. 14-15 yoshli sportchilarda muhim morfofunksional tizimlarning shakllanish jarayoni asosan tugallanadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Hozirgi zamon futbolining talablariga binoan mashg‘ulotlar jarayonida nafaqat qo‘llaniladigan uslublar va vositalarni o‘zgartirish, balki har bir futbolchini qobiliyatlarini va imkoniyatlarini individual yondoshuv tamoyilini qo‘llash orqali tashkil qilish lozim. Lekin ixtisoslashgan futbol maktablarida mashg‘ulotlar jarayoni oqim usuli bo‘yicha o‘tkazilib yosh sportchilarning xususiyatlari hisobga olinmaydi. Hozirgi zamon sharoitida ayniqsa musobaqa yuklamalarining intensivligi oshishi bilan murabbiylar yutuqlarni oshirish uchun futbolchining zahiralarini topish va ularni tejamli qo‘llashga harakat qiladilar. Ma’lumki ushbu tajribada tekshirilayotgan futbolchilar kontingentini har tomonlama tekshirish lozim. Futbolchilarni nazorat va tajriba guruhlarga ajratish uchun ularning tana tuzilishini yoki somatotipini tashkil etuvchi bir qancha parametrlari tekshiriladi. Bularga jismoniy rivojlanishi, funksional ko‘rsatkichlar, tana massasini tashkil etuvchi komponentlar va albatta futbolchining jismoniy tayyorgarlik darajasini ham baholash lozim. Ma’lumki ikkala ajratilayotgan guruhlarni morfologik, funksional va jismoniy tayyorgarlik darajasi bir holatda bo‘lishi zarur.

Tadqiqot bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilish natijasida shu aniqlandiki, xarakat tezligi hamda mushaklar kuchi, tashkil qiluvchilari va mezonlari, organizmning murakkab texnik xarakatlarga reaksiyasidan kelib chiqib o‘quv-mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish, sport natijalarini oshirish va mashg‘ulot yuklamalariga moslashishda jismoniy tayyorgarlik va organizmning funksional xolati bo‘yicha yosh ko‘rsatkichlarining jismoniy, funksional, taktik tayyorgarlikni oshirish bo‘yicha muayyan tizimli tavsiyalar yetarlicha o‘rganilmagan. Tajribadan olingan taqqoslash natijalari futbol faktablarida shug‘ullanayotgan 14-15 yoshli futbolchilarning qayd etgan natijalari xalqaro me’yoriy ko‘rsatkilardan past ekanligini ko‘rsatdi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 7-apreldagi “Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-115-sonli qarori.
2. Антипов А.В., Диагностика и тренировка двигательных способностей в детско-юношеском футболе: научно-методическое пособие / А.В. Антипов, В.П. Губа, С.Ю. Тюленков - Советский спорт, 2008. -152 с.
3. Achilov A.M. “Futbol nazariyasi va uslubiyati”. O‘quv qo‘llanma.T.,- 2021. 200 b.
4. Бернштейн Н.А. Биомеханика и физиология движений. М., 1997. - С. 13-14.
5. Bozorov S.R. O‘quv mashg‘ulot guruhi futbolchilarini tezkorlik, tezkorlik aniqlik darajalarini aniqlash. // Fan-sportga ilmiy nazariy jurnal №3/2023: -46-49. (13.00.04.№16).
6. Губа В.П., Лексаков А.В. Теория и методика футбола: учебник.-М.: Спорт, 2018. - 624 с.
7. Игамбердиев О.Р. Умумтаълим мактабларидаги 11-12 ёшли ўқувчиларни футбол билан шуғуллантириш орқали жисмоний тайёргарлигини ошириш. Автореф. дисс.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

п.ф.б.ф.д (PhD) -Чирчиқ. 2022.–58 б;
8. Nurimov R.I. Futbol nazariyasi va uslubiyati. Darslik. R.I. Nurimovning umumiy tahriri ostida T.: «Ilmiy texnika axboroti – press nashriyoti". 2015. - 364 b.
9. Сафарова Д.Д, Спорт морфологияси, Тошкент, "Инвест Ижод" 2015. - 199 б.
10. Шамардин А.И. Функциональная подготовка футболистов. М., 2000. - 152 с.

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Rasulov Anvar Saidmurod o'g'li,** "Menejment va sport tadbirlarini tashkil etish" kafedrasi katta o'qituvchisi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, **[Расулов Анвар Саидмуродович,** старший преподаватель кафедры «Менеджмент и организация спортивных мероприятий», Узбекский государственный университет физическойкультурыиспорта], **[Anvar S. Rasulov**, Senior Lecturer, Department of Management and Organization of Sports Events, Uzbekistan State University of Physical EducationandSport];manzil:O'zbekiston,Chirchiqshahri[адрес: Узбекистан, г. Чирчик], [address: Uzbekistan, Chirchiq city].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# PEDAGOGIK TA’LIMDA ILMIY TADQIQOTNING AHAMIYATI

© D.A. Berdiyev[1]✉

[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: maqolada pedagogik ta’limda ilmiy tadqiqot faoliyatining strategik ahamiyati va uning ta’lim mazmuni, shakli hamda sifatiga ko‘rsatayotgan ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, badiiy ta’limda ilmiy tadqiqotning estetik tarbiya, kreativ tafakkur va madaniy merosni asrashga qo‘shadigan hissasi ko‘rsatilgan. Maqolada oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqotni rag‘batlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ham berilgan.

**MAQSAD**: tadqiqotning maqsadi — pedagogik ta’lim jarayonida ilmiy tadqiqot faoliyatining o‘rni va ahamiyatini ochib berish, uning o‘qituvchi va talabalar salohiyatini rivojlantirishga, ta’lim mazmuni va sifatini takomillashtirishga qo‘shadigan hissasini ilmiy asosda tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR**: tadqiqot jarayonida pedagogik ta’lim va badiiy ta’lim sohalaridagi ilmiy-nazariy manbalar, O‘zbekiston va xorijiy davlatlarda chop etilgan ilmiy maqolalar, UNESCO rasmiy ma’lumotlari hamda amaliyotda qo‘llanilayotgan pedagogik innovatsiyalar tahlil qilindi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, kontent tahlil, pedagogik kuzatuv, intervyu va suhbat usullari, shuningdek, “amaliy tadqiqot” (action research) metodi qo‘llanildi. Ma’lumotlar turli oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayonlaridan olingan misollar asosida umumlashtirildi. Ilmiy xulosalar tizimli tahlil va fanlararo yondashuv asosida shakllantirildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: tadqiqot natijalari pedagogik ta’limda ilmiy izlanishlar o‘qituvchi va talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, ijodiy va amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashda hal qiluvchi omil ekanini ko‘rsatdi. “Amaliy tadqiqot” usuli, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalar ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishda yuqori natija berdi. Badiiy ta’lim sohasida ilmiy tadqiqotlar talabalarning estetik didi, kreativ tafakkuri va madaniy merosga ongli munosabatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, ilmiy faoliyat natijasida yaratilgan innovatsion pedagogik usullar ta’lim mazmunini boyitishga va milliy ta’lim modelini takomillashtirishga xizmat qiladi.

**XULOSA:** ilmiy tadqiqot faoliyati pedagogik ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, u ta’lim mazmunini yangilash, sifatini oshirish va talabalarining intellektual hamda kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida nazariya va amaliyot uyg‘unligi ta’minlanib, tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va mustaqil izlanish ko‘nikmalari shakllanadi.

**Kalit so'zlar**: pedagogik ta’lim, ilmiy tadqiqot, tasviriy san’at, amaliy tadqiqot, badiiy ta’lim, tanqidiy fikrlash, innovatsion pedagogik texnologiyalar.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Iqtibos uchun**: D.A. Berdiyev. Pedagogik ta'limda ilmiy tadqiqotning ahamiyati. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. B.229–235.

# ЗНАЧЕНИЕ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

© Д.А. Бердиев[1]✉
[1]Чирчикский государственный педагогический университет, Чирчик, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: в статье анализируется стратегическое значение научно-исследовательской деятельности в педагогическом образовании и ее влияние на содержание, форму и качество образования. Также показано вклад научных исследований в художественное образование в эстетическое воспитание, креативное мышление и сохранение культурного наследия. В статье также даны практические рекомендации по стимулированию научных исследований в высших учебных заведениях.

**ЦЕЛЬ**: раскрыть роль и значение научно-исследовательской деятельности в процессе педагогического образования, научно проанализировать ее вклад в развитие потенциала преподавателей и студентов, совершенствование содержания и качества образования, а также разработать практические рекомендации.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в исследовании использованы научно-теоретические источники по педагогическому и художественному образованию, научные статьи, опубликованные в Узбекистане и за рубежом, а также официальные данные UNESCO. В качестве методологической основы применялись сравнительный анализ, контент-анализ, педагогическое наблюдение, интервью и беседа. Кроме того, был использован метод «практического исследования» (*action research*), позволяющий выявлять и решать актуальные педагогические проблемы в процессе обучения. Эмпирические материалы исследования были собраны на основе анализа образовательного процесса в различных вузах, что обеспечило системность и достоверность полученных результатов.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: результаты исследования показали, что научные исследования в педагогическом образовании являются решающим фактором в развитии критического мышления преподавателей и студентов, укреплении их творческих и практических навыков. Метод "практического исследования", интерактивные методы и цифровые технологии дали высокие результаты в повышении эффективности образовательного процесса. Научные исследования в области художественного образования играют важную роль в формировании эстетического вкуса, креативного мышления и сознательного отношения студентов к культурному наследию. Также инновационные педагогические методы, созданные в результате научной деятельности, служат обогащению содержания образования и совершенствованию национальной модели образования.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: научно-исследовательская деятельность является неотъемлемой частью педагогического образования, она служит обновлению содержания образования, повышению его качества и интеллектуальному и профессиональному развитию студентов. В процессе исследования обеспечивается гармония теории и практики, формируются навыки критического мышления, творческого подхода и самостоятельного исследования.

**Ключевые слова**: педагогическое образование, научное исследование, изобразительное искусство, прикладное исследование, художественное образование, критическое мышление, инновационные педагогические технологии.

**Для цитирования**: Аюбова Ш.Ш. Значение научных исследований в педагогическом образовании. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. С.229–235.

## THE IMPORTANCE OF SCIENTIFIC RESEARCH IN PEDAGOGICAL EDUCATION

© Berdiyev A. Doston[1]✉
[1]Chirchik State Pedagogical University, Chirchik, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: this article analyzes the strategic importance of scientific research activities in pedagogical education and their impact on the content, form, and quality of education. Additionally, it highlights the contribution of scientific research in art education to aesthetic education, creative thinking, and the preservation of cultural heritage. The article also provides practical recommendations for promoting scientific research in higher educational institutions.

**AIM:** the purpose of this research is to reveal the role and significance of scientific research activity in the process of pedagogical education, to scientifically analyze its contribution to developing the potential of teachers and students and improving the content and quality of education, and to develop practical recommendations.

**MATERIALS AND METHODS**: in the research process, scientific and theoretical sources in the field of pedagogical education and art education, scientific articles published in Uzbekistan and foreign countries, official UNESCO data, as well as pedagogical innovations used in practice were analyzed. The study used methods of comparative analysis, content analysis, pedagogical observation, interviews and conversations, as well as the “action research” method. The data were summarized based on examples from the educational process in various higher educational institutions. Scientific conclusions were formed on the basis of system analysis and an interdisciplinary approach.

**DISCUSSION AND RESULTS**: the research results showed that scientific research in pedagogical education is a decisive factor in the development of critical thinking, strengthening the creative and practical skills of teachers and students. The “practical research” method, interactive methods, and digital technologies have yielded high results in increasing the effectiveness of the educational process. Scientific research in the field


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

of art education plays an important role in the formation of students' aesthetic taste, creative thinking, and a conscious attitude towards cultural heritage. Also, innovative pedagogical methods created as a result of scientific activity serve to ənrich the content of education and improve the national educational model.

**CONCLUSION**: research activity is an integral part of pedagogical education, which serves to update the content of education, improve its quality, and the intellectual and professional development of students. In the research process, the harmony of theory and practice is ənsured, critical thinking, a creative approach, and independent research skills are formed.

**Keywords**: pedagogical education, scientific research, fine arts, applied research, art education, critical thinking, innovative pedagogical technologies.

**For citation**: Berdiyev A. Doston. (2025) 'The importance of scientific research in pedagogical education', Inter education & global study, vol.3 (8), pp.229–235. (In Uzbek).

**J**ahon arenasi hamda zamonaviy ta'lim tizimida global o'zgarishlar va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ta'lim jarayoniga bo'lgan talablarni tubdan o'zgartirmoqda. Bu jarayonda fanlararo yondashuvlar ham ta'lim mazmunini boyitib, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga o'qitish jarayoni orqali yechim topish imkoniyatini kengaytiradi. Bugungi kunda ushbu omillar natijasida oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Xususan, pedagogik ta'lim sohasida o'qituvchi va talabalar doimiy ravishda ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanib, o'z ilmiy salohiyatini muntazam oshirib turishi kerak. Olimlarning ta'kidlashicha, pedagoglar o'qitishda ilmiy asoslangan qoidalar va usullarni o'rganib, uni amaliyotda qo'llash ko'nikmasini shakllantirsa, ta'lim beruvchi sifatida mehnat samaradorligi sezilarli darajada oshadi [1].

Ilmiy izlanishlar nafaqat nazariy bilimlarni chuqurlashtiradi, amaliyotdagi ishonchli usullar va malakalarni shakllantirish uchun qimmatli manba hisoblanadi. Masalan, ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda qo'llaniladigan «amaliy tadqiqot» (action research) metodi o'qituvchilarga o'z pedagogik faoliyatini tanqidiy tahlil qilish va ularning muammolariga tizimli yondashuvlarni rivojlantirish imkonini beradi [2]. Bu esa bo'lajak pedagog va talabalarga muammo holatini to'liq o'rganib, uni hal etishga yordam beruvchi yechimlarni ilmiy asosda izlashni o'rgatadi. Shunday qilib, ilmiy tadqiqot jarayoni talabada tanqidiy va tahliliy fikrlash qobiliyatini kuchaytirib, muammolarga ilmiy yechimlar asosida yondashishni mustahkamlaydi.

Pedagogik tadqiqotlar ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or metod va innovatsion yondashuvlarni aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Pedagogik tadqiqot — bu pedagogik jarayonda yangilikni izlash va topishdir. Bunday ijodning birinchi bosqichi — o'zi uchun yangilikni kashf etish, pedagogik vazifalarni hal etishning nostandart vositalarini bilib olishdan iborat [3]. Tadqiqotlar orqali sinalgan yangi ta'lim-usullari va texnologiyalari amaliyotga kiritiladi, natijada o'quv jarayonining samaradorligi yuksaladi. Ilmiy-izlanishlar

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

asosida shakllantirilgan pedagogik yondashuvlar ta’lim jarayonining har tomonlama takomillashishiga xizmat qilmoqda: yangi metodika va dasturlar ishlab chiqiladi, tarbiyaviy ta’sirni kuchaytiruvchi pedagogik vositalar aniqlanadi. Ilmiy tadqiqotlar pedagogika uchun kerakli salohiyatli xodimlar hamda ta’lim muassasalariga yangi yechimlar taqdim etadi. Ilmiy asoslangan va bahsli amaliy o‘qish usullari ta’lim jarayonlarining sifatini va samaradorligini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy muammoni to‘g‘ri belgilash va rejani aniqlash juda muhimdir. Jumladan, masalaning dolzarbligini asoslash, ilmiy muammoni aniqlash, tadqiqot obyekti va predmetini belgilash hamda maqsad va vazifalarni aniq ifodalash tadqiqotning poydevorini tashkil qiladi. Mazkur bosqichlar asosida tuzilgan tadqiqot rejasi orqali ilmiy jarayon tartibli, tizimli va mantiqiy rivojlanadi hamda izlanish natijalari maqsadga muvofiq aniqlanadi. Binobarin, ko‘rsatilgan har bir bosqich tadqiqotdan ko‘zlangan aniq manzilga olib boradi va natijada har qanday pedagogik muammoni ilmiy asosda tahlil qilish va yechish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, pedagogik tadqiqotlar natijalari san’at va madaniyat sohalaridagi ta’lim jarayonlariga ham qo‘llaniladi. Badiiy ta’limning mazmuni shaxsiy ijodiy faoliklik va estetik tarbiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u talabalarning ijodiy fikrlashi, madaniy saviyasi va o‘ziga xosligini rivojlantiradi. UNESCO rasmiy saytida berilgan ma’lumotlarda, madaniyat va san’at ta’limi insonning o‘z madaniy merosi va an’analarini qadrlash va saqlash jarayonida muhim rol o‘ynashi ta’kidlab o‘tilgan. Bu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalarida badiiy ta’lim sohasida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar ta’lim mazmunini boyitish, yangi innovatsion pedagogik usullar yaratish hamda madaniy merosni jamiyat oldiga samarali yetkazishda muhim hissa qo‘shadi.

Pedagogik ta’lim tizimida ilmiy tadqiqotlarning ahamiyatini chuqur anglash, avvalo, ta’limning mazmuni va maqsadlarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Ilmiy tadqiqot orqali pedagogika yo‘nalishidagi badiiy ta’lim faqat nazariy asoslarda emas, amaliyotda ham mukammal samara ko‘rsatadigan yondashuvlarni shakllantirish imkoniga ega bo‘ladi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar, ayniqsa, talabalar faolligini oshirish va mustaqil izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirish, interfaol metodlar, raqamli ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish bilan ajralib turibdi.

Bunday izlanishlar oliy ta’lim muassasalarida ta’lim mazmunini yangilash, o‘qitish va tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan tadqiqotlarda “Amaliy tadqiqot” (Action research) usuli, “O‘rgatib-o‘rganamiz” va “Ijodiy tafakkur” kabi zamonaviy ilmiy metodlar faol qo‘llanilmoqda. Ushbu usullar ta’limdagi muammolarni hal etishda nazariy bilimlar bilan amaliyotni bog‘lovchi muhim vositalar hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqot ta’limda quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

Pedagogik jarayonda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi;

Ta’limning mazmuni va shakllarini takomillashtiradi;

Ilmiy-metodik innovatsiyalar yaratishga xizmat qiladi;

Talabalarda mustaqil fikrlash va izlanish qobiliyatini shakllantiradi;


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish uchun ilmiy yechimlar taklif etadi.

Badiiy ta’limda, ilmiy tadqiqotlar talabalarning dunyoqarashi, tasviriy san’atga bo‘lgan ongli munosabati, estetik hissiyot va badiiy qadriyatlarni anglash qobiliyatini shakllantirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Ilmiy izlanishlar jarayonida talabalar nafaqat amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar, balki san’at asarlarini tahlil qilish, ular orqali ijtimoiy, tarixiy va madaniy mazmunni anglash, uni ta’lim mazmuni bilan uyg‘unlashtirish salohiyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ulardagi obrazli tafakkur, kreativ yondashuv va badiiy idrokini rivojlantirib, tasviriy san’atga nisbatan shaxsiy va ilmiy munosabatni mustahkamlaydi. Pedagogik tadqiqot natijalari asosida yuzaga kelgan innovatsion yondashuvlar, ijodiy muhit va klaster tizimlari ta’lim samaradorligini oshirmoqda. Bu jarayonda tasviriy san’at ta’limi uchun xos bo‘lgan to‘garaklar, amaliy mashg‘ulotlar va amaliy yondashuvlar ilmiy asoslangan shaklda tashkil etiladi.

Ta’limdagi fanlararo integratsiya jarayonlarida ilmiy izlanishlar asosiy rol o‘ynab, murakkab masalalarga kompleks yondashishni ta’minlaydi. Xususan, ilmiy tadqiqot faoliyatining ta’limga ta’siri quyidagicha baholanadi:

Ta’lim sifatiga ta’siri: ilmiy asoslangan pedagogik yondashuvlar ta’lim mazmunini boyitadi, talabalarining individual rivojlanishiga xizmat qiladi;

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni yaratish: tadqiqot orqali yangi metodlar, strategiyalar, elektron ta’lim vositalari rivojlanadi;

Kasbiy yetuklik va mutaxassis tayyorlash: ilmiy faoliyat orqali talabalarda kasbiy-metodik ko‘nikmalar shakllanadi;

Milliy ta’lim modelini takomillashtirish: milliy va milliy-madaniy qadriyatlarga asoslangan pedagogik modellari yaratiladi.

Ilmiy tadqiqot faoliyati pedagogik ta’limning ajralmas va strategik jihatdan muhim qismi sifatida o‘qituvchi hamda talaba salohiyatini har tomonlama rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta’limda ilmiy faollikni kengaytirish, ayniqsa talabalarni izlanish, tadqiqot olib borish va natijalarni tahlil qilish jarayonlariga jalb etish orqali ta’limning mazmuni, shakli va sifati sezilarli darajada mustahkamlanadi. Bunday yondashuv nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish, innovatsion metodlarni joriy etish imkonini yaratadi. Ta’limda ilmiy tadqiqotning tizimli tashkil etilishi pedagogik jarayonni har tomonlama takomillashtirib, talabalarning intellektual va kasbiy o‘sishida muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Tavsiyalar:

Ilmiy tadqiqotni rag‘batlantiruvchi akademik muhit yaratish; Bakalavr va magistrlar uchun ilmiy izlanish loyihalarini joriy etish; “O‘rgatib-o‘rganamiz” loyihasi va klaster asosida tadqiqot guruhlarini shakllantirish; Ilmiy seminar, forum va konferensiyalarda ishtirokni rag‘batlantirish pedagogik ta’limda ilmiy tadqiqotning rivojlanishi va ta’lim sifatining oshishini ta’minlaydi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

1. Stanovich, P.J. (2003). Using Research and Reason in Education: How Teachers Can Use Scientifically Based Research to Make Curricular & Instructional Decisions. – Washington, DC: National Institute of Child Health and Human Development (NICHD), U.S. Department of Education,
2. Center for Advanced Research on Language Acquisition (CARLA) (2022). Module 4: What is Action Research? – University of Minnesota.
3. Usmanov N.N. (2023). Ilmiy tadqiqot metologiyasi fanidan ma'ruzalar.
4. UNESCO. (2025). *What you need to know about culture and arts education*. UNESCO Articles. Accessible from UNESCO website.
5. Нода, Ж. (2018). Методология педагогического исследования: пособие для магистрантов. – Москва: Изд-во РАО, 176 с.
6. Berdiyev D.A. (2024). "The role of integrative education in student activation". Web of Teachers: Inderscience Research, 2(11), pp. 151–155.

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Berdiyev Doston Abduvoitovich,** Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Tasviriy san'at va dizayn kafedrasi, o'qituvchi [**Бердиев Достон Абдувоитович**, преподаватель кафедры изобразительного искусства и дизайна Чирчикского государственного педагогического университета], [**Berdiev A. Doston**, Department of Fine Arts and Design, Chirchik State Pedagogical University, teacher]; manzil: O'zbekiston, Toshkent viloyati, Olmaliq sh., Toshkent ko'chasi 10-uy [Адрес: Узбекистан, Ташкентская область, г. Алмалык, ул. Ташкентская, 10], [Address: Uzbekistan, Tashkent region, Almalyk city, Tashkent street 10]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# OLIY TA'LIMDA TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYALARI VA ULARNING TALABALARGA TA'SIRI

© U.M. Imomatova[1]✉

[1]Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O'zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va ularning talabalarga ta'siri masalalari yoritilgan. Kasbiy kompetensiya tushunchasi pedagogik va san'atshunoslik nuqtai nazardan tahlil qilinib, o'qituvchi-talaba o'zaro hamkorligi asosida kompetensiyani rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari o'qituvchining kasbiy va metodik salohiyati talabalarning ijodiy faoliyati, motivatsiyasi va ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Yakunda oliy ta'lim muassasalarida tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirishga qaratilgan tavsiyalar berildi.

**MAQSAD**: tadqiqotning maqsadi — oliy ta'lim tizimida tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini aniqlash, ularning tarkibiy qismlarini tahlil qilish va ushbu kompetensiyalarning talabalarning ijodiy rivojlanishi hamda ta'lim samaradorligiga ta'sirini aniqlashdir.

**MATERIALLAR VA METODLAR**: tadqiqotda mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlili, kuzatuv, so'rovnoma va tajriba-sinov ishlari metodlari qo'llanildi. Ma'lumot manbalariga Sultanov X.E., Berdiyev D., Abdullaev S., Zikrillayeva V. kabi olimlarning ilmiy ishlari, shuningdek, Xalqaro pedagogika va san'atshunoslik bo'yicha tadqiqotlar kiritildi. O'qituvchi-talaba tizimidagi kasbiy kompetensiya shakllanishi va talabalarning ijodiy faolligi o'rtasidagi bog'liqlik amaliy misollar asosida o'rganildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: **:** olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari — chuqur nazariy bilim, ijodiy va texnik mahorat, metodik salohiyat hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmasidan iborat. Yuqori kompetensiyaga ega o'qituvchilar talabalarning estetik didi, ijodiy tafakkuri va motivatsiyasini oshiradi. Tadqiqotda interfaol metodlar, loyihaviy yondashuv, milliy san'at elementlarini dars jarayoniga integratsiya qilish talabalarning ta'limdagi faolligini oshirishi aniqlangan.

**XULOSA:** oliy ta'limda tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omilidir. Muntazam malaka oshirish, san'atshunoslik asosida integratsion metodlarni joriy etish va ijodiy baholash mezonlarini ishlab chiqish o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi samarali hamkorlikni ta'minlaydi hamda talabalarni ijodiy va estetik jihatdan yetuk mutaxassislar sifatida shakllantiradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Kalit so'zlar**: kasbiy kompetensiya, tasviriy san'at, oliy ta'lim, talaba, san'atshunoslik, ijodkorlik, pedagogik mahorat, estetik did, texnik ko'nikma, innovatsion texnologiya.

**Iqtibos uchun**: U.M. Imomatova. Oliy ta'limda tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari va ularning talabalarga ta'siri. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. B.236–245.

# ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ КОМПЕТЕНЦИИ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СТУДЕНТОВ

© У.М. Имоматова[1]✉
[1]Чирчикский государственный педагогический университет, Чирчик, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: в статье рассматриваются вопросы формирования профессиональных компетенций преподавателя изобразительного искусства в системе высшего образования и их влияние на студентов. Анализируется понятие профессиональной компетентности с педагогической и искусствоведческой точки зрения, обосновываются теоретические и практические аспекты развития компетентности на основе взаимодействия преподавателя и студентов. Результаты исследования показали, что профессионально-методический потенциал преподавателя напрямую влияет на творческую активность, мотивацию и эффективность образовательной деятельности студентов. В заключение даны рекомендации по повышению профессиональной компетентности преподавателей изобразительного искусства в высших учебных заведениях.

**ЦЕЛЬ**: целью исследования является выявление профессиональных компетенций учителя изобразительного искусства в системе высшего образования, анализ их компонентов и определение влияния этих компетенций на творческое развитие студентов и эффективность обучения.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в исследовании использовались методы анализа отечественной и зарубежной литературы, наблюдения, анкетирования и экспериментальной работы. Источниками информации послужили научные труды таких учёных, как Султанов Х.Э., Бердиев Д., Абдуллаев С., Зикриллаева В., а также исследования по зарубежной педагогике и искусствоведению. На основе практических примеров исследовалась взаимосвязь формирования профессиональных компетенций в системе «учитель-ученик» и творческой деятельности студентов.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: полученные результаты показали, что профессиональные компетенции учителя изобразительного искусства складываются из глубоких теоретических знаний, творческих и технических навыков, методического потенциала и умения использовать современные педагогические технологии. Высококомпетентные преподаватели повышают у студентов

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

эстетический вкус, творческое мышление и мотивацию. В ходе исследования установлено, что интерактивные методы, проектный подход и интеграция элементов национального искусства в учебный процесс повышают образовательную активность студентов.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: развитие профессиональных компетенций преподавателя изобразительного искусства в высшей школе является важным фактором повышения качества образования. Регулярное повышение квалификации, внедрение комплексных методов, основанных на искусствоведении, и разработка критериев творческой оценки обеспечивают эффективное взаимодействие преподавателя и студентов, формируют студентов как творческих и эстетически зрелых специалистов.

**Ключевые слова**: профессиональная компетентность, изобразительное искусство, высшее образование, студент, искусствоведение, креативность, педагогическое мастерство, эстетический вкус, технические навыки, инновационные технологии.

**Для цитирования**: У.М. Имоматова. Профессиональные компетенции преподавателя изобразительного искусства в высшей школе и их влияние на студентов. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. С.236–245.

## PROFESSIONAL COMPETENCES OF A TEACHER OF FINE ARTS IN HIGHER EDUCATION AND THEIR IMPACT ON STUDENTS

© Umida M. Imomatova [1]✉
[1]Chirchik State Pedagogical University, Chirchik, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: this article discusses the issues of forming professional competencies of a teacher of fine arts in the higher education system and their impact on students. The concept of professional competence is analyzed from a pedagogical and art history perspective, and the theoretical and practical aspects of developing competence based on teacher-student cooperation are substantiated. The results of the study showed that the professional and methodological potential of the teacher directly affects the creative activity, motivation and educational effectiveness of students. Finally, recommendations are given to improve the professional competence of teachers of fine arts in higher education institutions.

**AIM:** the purpose of the study is to identify the professional competencies of a fine arts teacher in the higher education system, analyze their components and determine the impact of these competencies on the creative development of students and educational effectiveness.

**MATERIALS AND METHODS**: the study used methods of analysis of local and foreign literature, observation, questionnaire and experimental work. The sources of information included scientific works of such scientists as Sultanov Kh.E., Berdiev D.,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Abdullaev S., Zikrillayeva V., as well as research on international pedagogy and art history. The relationship between the formation of professional competencies in the teacher-student system and the creative activity of students was studied on the basis of practical examples.

**DISCUSSION AND RESULTS**: the results obtained showed that the professional competencies of a fine arts teacher consist of deep theoretical knowledge, creative and technical skills, methodological potential and the ability to use modern pedagogical technologies. Highly competent teachers increase students' aesthetic taste, creative thinking and motivation. The study found that interactive methods, a project approach, and the integration of elements of national art into the teaching process increase students' activity in education.

**CONCLUSION**: the development of professional competencies of a visual arts teacher in higher education is an important factor in improving the quality of education. Regular professional development, the introduction of integrated methods based on art history, and the development of creative assessment criteria ensure effective cooperation between teachers and students and form students as creative and aesthetically mature specialists.

**Keywords**: professional competence, visual arts, higher education, student, art history, creativity, pedagogical skills, aesthetic taste, technical skills, innovative technology.

**For citation** Umida M. Imomatova. (2025) 'Professional competences of a teacher of fine arts in higher education and their impact on students', Inter education & global study, vol.3 (8), pp.236–245. (In Uzbek).

Hozirgi zamonda oliy ta'lim tizimida kasbga yo'naltirilgan tayyorgarlik jarayonlari kompetensiya yondashuviga asoslanmoqda. Bu yondashuv, avvalo, talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirish, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil qaror qabul qila olish, ijodiy va tanqidiy fikrlash kabi yuqori darajadagi malakalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Kasbiy kompetensiya tushunchasi pedagogika adabiyotlarida keng talqin qilinadi va uni turli mualliflar turlicha izohlaydilar.

Pedagogik lug'atda "kompetentlik" ma'lum bir faoliyat sohasida tayyor bo'lishlik, natijaviy qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish darajasi sifatida izohlanadi. Bu ta'rifda nafaqat nazariy bilimlar, balki ularni amaliy vaziyatlarda samarali qo'llash qobiliyati ham asosiy o'rin egallaydi. Shuningdek, UNESCO (2017) materiallarida kompetensiya shaxsning ma'lum kasbiy vazifalarni samarali bajarishga imkon beruvchi bilim, ko'nikma, qadriyat va motivatsiyalar tizimi sifatida tavsiflanadi.

Kasbiy kompetensiya - bu faqatgina kasbiy faoliyatni bajarishga texnik jihatdan tayyorlik emas, balki shaxsning ijtimoiy, madaniy va kommunikativ jihatdan ham moslashgan bo'lishini talab qiladigan kompleks tushuncha. U nafaqat professional

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

vazifalarni bajarishda, balki o‘quvchi va talabalar bilan samarali muloqot o‘rnatishda, ularni motivatsiyalashda va ijodiy fikrlashga yo‘naltirishda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Demak, kasbiy kompetensiya muayyan kasbiy faoliyatni to‘la-to‘kis bajarish uchun shaxsga xos bo‘lgan bilimlar, malakalar, ijodiy salohiyat va shaxsiy sifatlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Bunda motivatsiya, refleksiya va doimiy professional rivojlanishga intilish ham kasbiy kompetensiyaning ajralmas tarkibiy qismlaridir. Shu bois, zamonaviy oliy ta’lim tizimida o‘qituvchi-talaba hamkorligi asosida kompetensiyani shakllantirish, uni tasviriy san’at kabi estetik va ijodiy yo‘nalishlarda rivojlantirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Kasbiy kompetentlik — bu shunchaki pedagogik bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lish emas, balki didaktik metodlar va ish usullarini, pedagogik munosabat ko‘nikmalarini mohirona qo‘llashdir [1]. Demak, oliy ta’limda ishlab chiqarish bilan ilmiy-amaliy bog‘liqni kuchaytirish, san’atshunoslikka asoslangan darslik va pedagogik texnologiyalarni joriy etish oliy ta’lim muassasalarida tasviriy san’at o‘qituvchilari kasbiy salohiyatini oshirishni talab etadi.

San’at ta’limi konsepsiyasi doirasida o‘qituvchining ijodiy yondashuvi va metodik tajribasi muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotchilar Abdullaev va Zikrillayeva (2025) qayd etishicha, oliy ta’limda san’at ta’limi mazmuni, ta’lim faoliyati shakllari hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali “talabalarni o‘z kasbiy sohasida estetik did, ijodkorlik va texnik malakalarni rivojlantirishga yo‘naltirish muhim ekani asoslab beriladi [2]”. Boshqacha qilib aytganda, san’atshunoslik asosida qurilgan dars mazmuni va samarali o‘qitish metodlari talabaning ijodiy salohiyatini uyg‘otadi. Shuningdek, o‘qituvchining pedagogik mahorati va fan bo‘yicha chuqur bilimiga ega bo‘lishi talabaning darsga bo‘lgan qiziqishi va o‘zini erkin ifodalashi uchun zamin yaratadi.

Oliy ta’limda talabalarning ijodiy tayyorgarligi ko‘p jihatdan o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalariga bog‘liq. Hhar bir ijodkor o‘qituvchi o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otishga, ularning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini har bir darsda rivojlantirishga intilishi kerak, chunki ta’lim va tarbiyaning muvaffaqiyati o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq. Umirov A.T. maqolasida maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda san’at orqali ijodkorlikni shakllantirish usullari ko‘rib chiqilib, o‘qituvchining didaktik uslublari talabalar ijodkorligini rag‘batlantirishga xizmat qilishi to‘g‘risida fikr yuritadi. Shu nuqtai nazardan ham oliy ta’limda ham o‘qituvchining pedagogik kompetensiyasi talabalarning ijodiy jihatdan rivojlanishini rag‘batlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili bo‘limida kasbiy kompetensiya, san’at pedagogikasi va talabalarning ijodiy va kasbiy shakllanishi bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar ko‘rib chiqildi. Makashova, P., Meirmanov, A., Zhunusbekov, Z., Makasheva, O., Mirzaliyeva, E., Ermuratova, A., & Sakenov, J. (2016) tadqiqotlarida san’at yo‘nalishida tahsil oladigan talabalar kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish modeli tavsiflangan. Ularning fikricha, bo‘lajak o‘qituvchilar «ta’lim, eksperimental, tashkiliy, ijtimoiy va tarbiyaviy faoliyat bo‘yicha professional kompetensiyalarga ega bo‘lishi» kerak. Bu kompetensiyalar talabaning ijodiy pedagogik faoliyatni erkin amalga oshirishiga xizmat qiladi. Tomashevskyi (2022) esa


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

san’at o‘qituvchisining pedagogik kompetensiyalari tarkibidagi ijodiy va texnik ko‘nikmalarga e’tibor qaratgan. Ularning aniqlashicha, «bolalar faqat ijodiy uskunalar va texnikalarga ega bo‘lgan o‘qituvchi tomonidan ta’lim olishi mumkin; shunday kompetentsiyasiz san’at asari hosil qilinishi mumkin emas» [3]. Ya’ni san’atshunoslik bo‘yicha chuqur mahorat kasb kompetensiyasining negizini tashkil etadi.

Xalqaro tadqiqotlar ham shu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi. Xie va boshqalar (2022) masofaviy ta’lim sharoitida san’at fanlari o‘qitish shakllari haqida tadqiqotida pedagogik texnologiyalar muhim ekanini ko‘rsatgan. Solomakha (2020) innovatsion texnologiyalarni san’at o‘qituvchilari tayyorlashga joriy etishni ham ta’kidlagan. Liang (2018) esa san’at o‘qituvchisining «estetik madaniyati» va «estetik kompetentsiyasi» tushunchalarini aniqlab, zamonaviy muhitda o‘qituvchilarni badiiy o‘zini anglashi va kompozitsion fikrlashga o‘rgatish lozimligini ta’kidlagan.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalari shakllanishi ko‘pincha amaliyot bilan uzviy bog‘liq. Shmelev A.N. (2008) bo‘lajak o‘qituvchi tayyorlashni «talabalar o‘z kelajak kasbiga zarur o‘quv fanlari mazmunini egallash jarayoni va shu bilan birga o‘qituvchi shaxsining kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalari rivojlanishi natijasi» deb ta’riflagan. Berdiyev D. (2023) esa tasviriy san’at pedagogikasida o‘qituvchining kompetensiyasi talabalarda STEAM interaktiv ta’limi orqali ijodiy faoliyatni kuchaytirishga xizmat qilishini qayd etadi: “STEAM ta’limini tatbiq etish orqali tasviriy san’at fanini o‘qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish usullari” mavzusida o‘tkazilgan tadqiqotda interaktiv metodlarning amaliy ahamiyati faollik bilan yoritilgan. Bundan tashqari, tadqiqotchi fanlararo integratsiya orqali talabalarning badiiy tafakkuri va konseptual fikrlashini boyitish tarafdori ekanligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv o‘qituvchining pedagogik hamda metodik kompetensiyalarini boyitish bilan birga, talabalar ilmiy-ijodiy salohiyatini oshirishga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi. Sultanov X. E. (2020) o‘z tadqiqotlarida tasviriy san’at ta’limida innovatsion texnologiyalar va klaster yondashuvini qo‘llash orqali o‘quv jarayonini samarali integratsiyalash mumkinligini ilgari suradi. Bundan tashqari, tasviriy san’at darslarida o‘zbek milliy san’atining psixologik asoslariga e’tibor qaratish va ayniqsa kompozitsiya mashg‘ulotlarida eskizlardan foydalanish orqali talabalarda badiiy tasavvurni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zarur deb bilamiz. O‘qituvchining ta’lim va tarbiya tizimidagi o‘rni ham, uning pedagogik kompetentsiyasi talabalarning badiiy va estetik rivojiga bevosita ta’sir qiladi. Bo‘lajak rassom-o‘qituvchini kasbiy tayyorlash jarayoni uzluksiz va ilmiy asoslangan bo‘lishi zarur, bunda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish umumta’lim bosqichidan boshlab oliy ta’limgacha izchil davom etishi lozim.

Bizning fikrimizcha, tasviriy san’at nafaqat ijodiy tafakkurni rivojlantiradi, balki talabalarni texnik ko‘nikmalarga ega bo‘lishga, estetik qarashlarini boyitishga va ijtimoiy hamda shaxsiy rivojlanishga undaydi. Shu bilan birga, san’at ta’lim jarayonida:

- san’at va ta’lim integratsiyasi;
- ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish;
- texnik ko‘nikmalarni o‘zlashtirish;
- kreativ fikrni kengaytirish;


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

- tarixiy va madaniy bilimlarni oshirish;
- o‘z-o‘zini baholash va motivatsiya;
- ijtimoiy ongni rivojlantirish kabi jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu asosda tasviriy san’at ta’lim dasturlariga chuqur integratsiyalashgan holda yoshlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, ularni faol, ijodiy va estetik tafakkurga ega bo‘lgan shaxs sifatida tayyorlash mumkinligini ta’kidlash joiz.

O‘qituvchining kasbiy kompetentsiyalari bir necha asosiy komponentdan iborat: fan bo‘yicha bilimlari, ijodiy mahorati, pedagogik va metodik salohiyati hamda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmasi. Norqulova D. (2024) qayd etishicha, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida «ma’lum qiyinchiliklar va ziddiyatlar mavjud» bo‘lib, ularni bartaraf etish uchun pedagog faoliyatning mohiyati va strukturasi chuqur o‘rganilishi zarur [4]. Ya’ni kompetentsiyalarni shakllantirish uchun avvalo o‘qituvchi va talabaning ijodiy ehtiyojlari va xususiyatlari, shuningdek, ta’lim-tarbiya muhitining holati hisobga olinishi kerak.

Bizning fikrimizcha, tasviriy san’at o‘qituvchisi quyidagi kompetentsiyalarni egallashi talab etiladi: «o‘z fanini a’lo darajada bilish, kasbini jon-dildan sevish, talabalarni fanga nisbatan qiziqishini uyg‘ota olish, amaliy ishlarni zamon talablaridan kelib chiqib tashkil etish, chuqur bilimga ega bo‘lish» kabi shaxsiy va kasbiy sifatlar. Ushbu kompetentsiyalar talabaning ijodiy ishiga rahbarlik qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, usta rassom o‘z san’at asarlarini yaratishda birinchi navbatda ijodkorlikni namoyish etadi, shuning uchun uning ijodiy va texnik ko‘nikmalari talabalar uchun taqlid qilinadigan namunaga aylanadi. Tasviriy san’at darslarida malakali o‘qituvchi faqat «san’at vositalari va texnikalari bo‘yicha erkin bo‘lishi — bu uning kasbiy kompetensiyasi asosidir». Agar o‘qituvchi asosiy ijodiy vositalarni mukammal bilmasa, talabalarga ham bu bo‘yicha yetarli ko‘rsatma bera olmaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchining kasbiy kompetentsiyalari talabalarning ta’lim samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. O‘tkazilgan so‘rovnomada qatnashgan talabalarning aksariyati (taxminan 85%) o‘z o‘qituvchilari bilimlari va pedagogik salohiyatini yuqori baholadi. Bu guruhga mansub talabalar turli xil ijodiy vazifalarni qulaylik bilan hal qila boshlagani, darslarda faol ishtirok etgani kuzatildi. E’tiborli jihati, yuqori baholangan o‘qituvchilar talabalarga interfaol texnologiyalar va loyiha asosida o‘rgatish uslublarini qo‘llashgan. Innovatsion yondashuvlar yordamida san’at ta’limi tarkibi boyitilganda talabalar “estetik did va ijodkorlik”ni rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

O‘qituvchi-talaba tizimida o‘zaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Talabalar kompetensiyalarini baholashda ham o‘qituvchi didaktik savodxobligi ham asosiy rol o‘ynaydi. Nurtayev (2024) o‘qituvchilar tayyorlashda Bologna jarayonining integratsion talablarini ta’kidlab, “mutaxassislarni tayyorlash mazmunini integratsiyalash va ta’limdagi hamkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishi sifatida bitiruvchilarda umumiy va maxsus, jumladan bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini san’atshunoslik asosida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni taqozo etadi [5]” deb yozadi. Bizning natijalarda ham ma’lum bo‘ldiki, o‘qituvchilarning hamkasblari bilan pedagogik tajriba almashishi va


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

talabalarga san’atshunoslik asosida mavzular taqdim etishi ularning san’atga yondoshuvini kengaytiradi.

Oliy ta’limda tasviriy san’at o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari uning pedagogik, ijodiy va texnik tayyorgarligidan iborat. Ushbu kompetensiyalar - san’at ta’limi mexanizmlarini, didaktika va metodikani chuqur o‘zlashtirish, innovatsion vositalardan foydalanish kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchining kasbiy mahorati yuqori bo‘lsa, talabalarning san’atga bo‘lgan qiziqishi va ijodiy faoliyati oshadi. Natijada, yuqori malakali o‘qituvchi dars jarayonida talabalarda ijodiy fikrlash va mustaqil ijodkorlik xulq-atvorini shakllantiradi.

Shuningdek, tadqiqot bo‘yicha qabul qilingan tavsiyalar mavjud. Birinchi navbatda, oliy ta’lim muassasalarida tasviriy san’at yo‘nalishida ta’lim beruvchi o‘qituvchilar uchun muntazam kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish kerak. San’atshunoslik asosida kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish texnologiyalarini joriy etish zarur. Bu yo‘nalishda ta’lim bloklari modullarida san’at nazariyasi va amaliyotini uyg‘unlashtirish, integratsion darsliklar yaratish foydali bo‘ladi. Masalan, tasviriy san’at darslarida rasm chizish, rangshunoslik va kompozitsiya mavzularini birlashtirgan interaktiv mashg‘ulotlar o‘tkazish mumkin.

Ikkinchidan, o‘qituvchining metodik kompetensiyasini oshirishga e’tibor qaratish lozim. Nemis va boshqa mamlakatlarda amalda qo‘llanilayotgan loyihaviy hamda interaktiv o‘qitish usullari pedagoglarga joriy qilinishi kerak. Makro va mikrodars rejalari yaratishda innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish zarur. Masalan, masofaviy yoki aralash ta’lim sharoitida san’at qoralama va rangbosmalarini onlayn baholash, virtual galereya ekskursiyalari o‘tkazish kabi usullar talabalarning ijodkorligini oshiradi.

Uchinchidan, talabalarning ijodiy kompetensiyasini baholash mezonlarini ishlab chiqish muhim. Bu borada o‘qituvchi tashabbusi bilan ijodiy portfelye, ko‘rgazmali ishlar ko‘rgazmasi va yakuniy loyihalar asosida baholash tizimi joriy etilishi mumkin. Mana shu baholash natijasida o‘qituvchining kompetensiya darajasi hamda ta’lim samaradorligi aniq ko‘rinadi. O‘qituvchining pedagogik faoliyati o‘zida kreativlikni rivojlantirish va tanqidiy fikrlashni yaratishga qaratilgan bo‘lsa, talabaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va ijodiy ko‘rsatkichlari kuchayadi.

Xulosa o‘laroq, tasviriy san’at o‘qituvchisi kasbiy kompetensiyalarini muntazam oshirib borishi ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. O‘qituvchilarni nazariy va amaliy tayyorlashdan tashqari, oliy ta’lim muassasalarida san’atga oid innovatsion strategiyalarni tatbiq etish lozim. Shu tarzda, bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy salohiyatini rivojlantirish va talabalarning ijodiy qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan kompleks yondashuv yanada samarali bo‘ladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

1. Azimov, S. S. (2023). Specific aspects of the drawing and painting classroom in the development of professional competences of future visual arts teachers. *Education and Innovative Research*, 6, 97–100.
2. Abdullaev, S. F., & Zikrillayeva, V. H. (2025). *Talabalarda badiiy-kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish tizimini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari*. Pedagogs, 80(1), 9–13.
3. Tomashevskyi, V., Digtiar, N., Chumak, L., Batiievska, T., Hnydina, O., & Malytska, O. (2022). Artistic and pedagogical competences of the fine arts teacher: An adaptation of students' needs. *Problems of Education in the 21st Century*, 83, 289–297.
4. Norqulova, D. (2024). Modeling the process of professional competence development of future teachers through portrait coloring. *Education and Innovative Research*, 1, 197–199.
5. Nurtayev, U. N. (2024). Technologies for the formation of professional competence of future teachers of fine arts. *Education and Innovative Research*, 1, 1–5.
6. Karakus, M., & Erden, M. (2008). *Art Education in a Global Context*. Routledge.
7. Makashova, P., Meirmanov, A., Zhunusbekov, Z., Makasheva, O., Mirzaliyeva, E., Ermuratova, A., & Sakenov, J. (2016). On the development of professional competence in students of creative pedagogical specialties. *International Journal of Environmental & Science Education*, 11(11), 4660–4668.
8. Umirov, U. A. (2023). Improving youth's intellectual and creative skills through the fine arts. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(6), 412–418.
9. Xie, Y., Rublevska, N., Markovych, M., Matsyshyna, Z., Volska, S., & Tiutiunnyk, I. (2022). The forms and methods of art disciplines' teaching under the conditions of distance learning. *AD ALTA: Journal of Interdisciplinary Research*, 11(2), 85–94.
10. Umida, I., & Muxtor, N. (2023). Tasviriy san'at darslarida yoshlarga o'zbek milliy tasviriy san'atni o'qitishning psixologik asoslari. In *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (Vol. 2, No. 2, pp. 204-207).
11. Имоматова , У. (2023). Ўқувчиларнинг таълим ва тарбиясида тасвирий санъат ўқитувчисининг аҳамияти. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the Topic: "Priority Areas for Ensuring the Continuity of Fine Art Education: Problems and solutions"*, *1*(01).
12. Султанов, Х. Э. (2024). Кластер усули орқали тасвирий санъат таълимини интеграциялаш имкониятлари. *Замонавий таълим / Современное образование*, *137*(4), 31–41.
13. Abduvoitovich, B. D. (2023). Steam ta'limini tatbiq etish orqali tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish usullari. *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, *2*(18), 187-193.
14. Abduvoitovich, B. D. (2023). Tasviriy san'atning fanlararo aloqalar tizimidagi o'rni. *Pedagogs jurnali*, *31*(1), 142-148.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

15. Imomatova Umida Mirpulatovna Tasviriy san'at vositasida yoshlarning kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning nazariy asoslari. (2024). *Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar*, *1*(1), 133-135.

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Imomatova Umida Mirpulatovna**, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Tasviriy san'at va dizayn kafedrasi, o'qituvchi [**Имоматова Умида Мирпулатовна**, преподаватель кафедры изобразительного искусства и дизайна Чирчикского государственного педагогического университета], [**Imomatova M. Umida**, Department of Fine Arts and Design, Chirchik State Pedagogical University, teacher]; manzil: O'zbekiston, Toshkent viloyati, Chirchiq sh. [Адрес: Узбекистан, Ташкентская область, г. Чирчик], [Address: Uzbekistan, Tashkent region, Chirchik city]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# FARMAKALOGIYA FANINI O`RGATISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNALOGIYA USULLARIDAN FOYDALANISH

© A.Z. Mehmonov[1]✉, B.A. O`lmasov[2]✉, D.M.Jalilova[1]✉
[1,2,3]Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** maqolada O‘zbekiston oliy ta’lim tizimidagi islohotlar fonida farmakologiyani o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning o‘rni tahlil qilinadi. SDTU farmakologiya kafedrasida dars jarayoniga texnologiyalarni integratsiyalash orqali ta’lim samaradorligini oshirish masalalari yoritiladi.

**MAQSAD:** farmakologiya fanini o‘qitishda imitatsion va interfaol yondashuvlar, xususan simulyatsion treninglar hamda nebulayzer misolida amaliy mashg‘ulotlarni qo‘llash orqali talabalarning farmakokompetentligini va klinik tayyorgarligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili; SDTU farmakologiya kafedrasida o‘quv jarayonini modulli-kredit tizimi, elektron platformalar (mt.sammu.uz) va simulyatsion qurilmalar bilan uyg‘unlashtirish tajribasi; nebulayzer yordamida glyukokortikoidlarni (masalan, budesonid) qo‘llash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ssenariylari va klinik keyslar.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** interfaol-uslubiy paket (keyslar, rol o‘yinlari, simulyatsiya) va nebulayzer asosidagi amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish talabalarda dori tanlovi, dozani belgilash, qo‘llash yo‘li va davomiyligini asoslash kabi kompetensiyalarni kuchaytiradi. Inhalyasion GKlarning (bronxial astma, obstruktiv bronxit va b.) klinik qo‘llanilishiga doir mini-laboratoriya mashg‘ulotlari o‘quv jarayonini amaliyotga yaqinlashtirdi; baholash mezonlari milliy normativ-huquqiy asoslar bilan uyg‘unlashtirildi.

**XULOSA:** farmakologiyani o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni simulyatsion amaliyotlar bilan birlashtirish o‘quv samaradorligini oshiradi, klinik fikrlashni rivojlantiradi va talabalarning real amaliyotga tayyorgarligini kuchaytiradi.

**Kalit so‘zlar:** farmakokompetentlik; pedagogik texnologiya; axborotli jamiyat; nebulayzer; glyukokortikoidlar; simulyatsiya; ta’lim samaradorligi.

**Iqtibos uchun**: Mehmonov.A.Z., B.A. O`lmasov, Jalilova D.M. Farmakalogiya fanini o`rgatishda zamonaviy pedagogik texnalogiya usullaridan foydalanish. // Inter education & global study. 2025. vol.3 №8. B.246–253.

# ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДОВ СОВРЕМЕННОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ ФАРМАКОЛОГИИ

© А.З. Мехмонов[1]✉, Б.А.Улмасов[2]✉, Жалилова Д.М[3]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

[1,2.,3] Самаркандский государственный медицинский университет, Самарканд, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** рассматривается роль современных педагогических технологий и интерактивных методов в преподавании фармакологии на фоне реформ высшего образования Узбекистана; анализируется опыт интеграции технологий в образовательный процесс кафедры фармакологии СГМУ.

**ЦЕЛЬ:** определить возможности повышения фармакокомпетентности и клинической готовности студентов посредством имитационно-интерактивных подходов (симуляционные тренинги, клинические кейсы) и практикумов на примере небулайзерной терапии глюкокортикоидами.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** анализ научной литературы; опыт внедрения модульно-кредитной системы, электронных платформ (mt.sammu.uz) и симуляционного оборудования; разработка сценариев практических занятий с использованием небулайзера и обсуждение клинических задач.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** комплекс интерактивных методов и отработка навыков на небулайзере усиливают компетенции студентов в выборе препарата, дозировании и путях введения, прогнозировании побочных реакций; мини-лабораторные занятия по ингаляционным ГК (бронхиальная астма, обструктивный бронхит и др.) приблизили учебный процесс к клинической практике; система оценивания согласована с национальной нормативно-правовой базой.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** интеграция современных педагогических технологий с симуляционными практиками повышает эффективность обучения фармакологии, развивает клиническое мышление и укрепляет готовность студентов к практической деятельности.

**Ключевые слова:** фармакокомпетентность; педагогическая технология; информационное общество; небулайзер; глюкокортикоиды; симуляция; эффективность обучения.

**Для цитирования**: Мехмонов.А.З., Улмасов Б.А, Жалилова Д.М. Использование методов современной педагогической технологии в преподавании фармакологии.// Inter education & global study.2025. vol.3 №8. С. 246–253.

## THE USE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGY METHODS IN TEACHING PHARMACOLOGY

© Alisher.Z. Mehmonov[1]✉, Behruz A. O`lmasov[2]✉, Dildora M. Jalilova[3]✉
[1,2,3]Samarkand State Medical University, Samarkand, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** the paper analyzes the role of modern pedagogical techn1ologies and interactive methods in pharmacology instruction against the backdrop

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

of higher-education reforms in Uzbekistan and presents the experience of integrating technology at the Department of Pharmacology, SSMU.

**AIM:** to identify how simulation-based and interactive approaches (simulation training, clinical cases) and hands-on sessions—using nebulizer-delivered glucocorticoids as a model—can enhance students' pharmacocompetence and clinical readiness.

**MATERIALS AND METHODS:** literature analysis; implementation experience with a modular-credit system, electronic platforms (mt.sammu.uz), and simulation devices; practical session scenarios employing a nebulizer and guided discussion of clinical tasks.

**DISCUSSION AND RESULTS:** a combined package of interactive methods plus nebulizer-based skills training strengthened competencies in drug selection, dosing, route and duration of administration, and adverse-effect anticipation. Mini-labs on inhaled glucocorticoids (e.g., asthma, obstructive bronchitis) brought learning closer to clinical practice; assessment criteria were aligned with national regulatory frameworks.

**CONCLUSION:** integrating modern pedagogical technologies with simulation practice improves the effectiveness of pharmacology education, cultivates clinical thinking, and reinforces students' preparedness for real-world practice.

**Keywords:** pharmacocompetence; pedagogical technology; information society; nebulizer; glucocorticoids; simulation; educational effectiveness.

**For citation**: Alisher Z. Mehmonov, Behruz.A. O`lmasov, (2025) 'The use of modern pedagogical technology methods in teaching pharmacology', Inter education & global study, vol.3 (8), pp. 246–253. (In Uzbek).

**O**'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim sifatini oshirish, mutaxassislar tayyorgarligini yaxshilash, ta'limning ilmiy-uslubiy asoslarini yangilash va zamonaviy o'qitish uslublarini joriy etishga katta e'tibor qaratmoqda. Bu borada ish beruvchilar talabi va ta'lim darajasi o'rtasidagi tafovutni kamaytirish, uzluksiz ta'limni ta'minlash hamda xorijiy tajribani o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Samarqand davlat tibbiyot universiteti farmakologiya kafedrasida esa darslarni qiziqarli va samarali o'tkazish maqsadida turli interfaol usullar keng qo'llanilmoqda. Oliy ta`lim jadal rivojlanayotgan hozirgi bosqichda farmakologiya fani tibbiy ta'lim oliy o`quv yurtlari fan modull tizimida muhim o'rin egallamoqda. Bu fan dori vositalarining organizmga kiritilishi, so`rilishi,metabalizmga uchrashi,tashilshi,taqsimlanishi,retseptorlar bilan bog`lanishi, ya'ni farmakokinetikasini va organizmga ko`rsatadidan salbiy, ijobiy ta`sirini agonistlik,antogonistlik, tolerantlik, taxifilaksiya, idiosinkraziya kabi farmakodinamikasini o'rganadi. Shuningdek ularni amaliyotda to'g'ri va samarali qo'llash bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Farmakologiyaning ahamiyati ayniqsa, Davolash ishi, Pediatriya, Farmatsiya, yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun farmakologiya fanini chuqur o'zlashtirish nihoyatda muhim. Bu ularning kelgusidagi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

kasbiy faoliyatida bemorlarga sifatli va xavfsiz dori-darmon bilan yordam berishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Farmakokompetentlik tushunchasi va uning tarkibiy qismlari. Tibbiyotda farmakokompetentlik — bu talabalar bilim va ko‘nikmalarini real klinik vaziyatlarda qo‘llay olish malakasini bildiradi. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi. Dori vositalarining to‘g‘ri tanlovi; dozalash, qo‘llash usuli va muddati; nojo‘ya ta’sirlarni oldindan aniqlash va bartaraf etish; bemorning yoshi, jinsi, fiziologik holatiga qarab individual farmakoterapiya rejasini tuzish; farmakologik bilimlarni klinik qarorlar qabul qilishda ongli ravishda qo‘llay olish.

Shu bois, farmakokompetentlik talabaning kasbiy kompetensiyasini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim metodikasi va yondashuvlar farmakologiyani o‘qitishda qo‘llanilayotgan pedagogik texnologiyalar va metodik yondashuvlar doimiy ravishda yangilanib, takomillashtirib borilishi zarur. An’anaviy ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlardan tashqari, quyidagi interaktiv usullarni qo‘llash dolzarb hisoblanadi: Klinik keyslar ,krasvordlar yechimi; rol o‘yinlari va muammoli vaziyatlar tahlili; Elektron ta’lim platformalari orqali masofaviy o‘qitish;mt.sammu.uz platformasi yordamida modull tizimidan foydalanish, simulyatsion treninglar orqali amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash, maxsus nebulayzer aparatlaridan, fizoterapiya aparatlari yordamida dori vositalarni qo`llash kabi bilimlarni chuqur egallash juda muhimdir. Metodik takomillashtirishlar orqali talabalar kasbiy malakalarini oshirish, mustaqil klinik fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, real amaliyotga tayyor holga kelish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Talabalar bilimini baholash tizimi: qonunchilik asoslari va amaliy ahamiyati.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, uning sifatini oshirish, shuningdek, zamonaviy va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta’minlash maqsadida bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, talabalarning bilimini baholash va o‘quv jarayonini takomillashtirish borasida ham muhim huquqiy asoslar yaratilgan. Qonunchilik asoslari. Talabalar bilimini baholash tizimi quyidagi asosiy hujjatlar bilan tartibga solinadi:

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni – mamlakatdagi ta’lim sohasini tartibga soluvchi asosiy hujjat bo‘lib, unda ta’lim sifati, mazmuni va tashkil etilishiga oid umumiy normalar belgilab berilgan. Prezident qarorlari: 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-60-son qarori – davlat oliy ta’lim muassasalariga akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni belgilaydi; 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-son qarori – oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish bo‘yicha qaror; 2022-yil 1-apreldagi PQ-188-son qarori – Samarqand davlat tibbiyot universitetini tashkil etish va sohada kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Vazirlik qarorlari:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi nizom” (Adliya vazirligida 2018-yil 26-sentabrda 3069-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan) – talabalar bilimini baholashda yagona mezonlarni belgilab beradi; 2018-yil 9-sentabrdagi 820-sonli buyruq – baholash


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

va nazorat tizimini amalda qo‘llashda muhim rol o‘ynaydi; O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020-yil 8-sentabrdagi 236-sonli buyrug‘i – tibbiyot va farmatsevtika yo‘nalishida ta’lim jarayonini tashkil etishning me’yoriy hujjatlarini belgilaydi. Ushbu hujjatlar asosida ishlab chiqilgan baholash tizimi: talabalar bilimini adolatli va aniq baholash, o‘quv fanini o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘qituvchilar faoliyatini tahlil qilish, ta’lim sifatini oshirish, nazorat va baholash mexanizmlarini takomillashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, Samarqand davlat tibbiyot universitetida mazkur qonuniy asoslar va normativ hujjatlarga tayangan holda bilimni baholashning zamonaviy yondashuvlari va mezonlari tatbiq qilinmoqda. Bu esa o‘quv jarayonining sifatli tashkil etilishi va natijadorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

«Texnologiya» atamasi ham qadimgi Yunonistonda paydo bo‘ldi va u ikkita so‘z - «texne» - san’at va «logos» - o‘rganishdan iborat. Ushbu davrda, bu hunarmandning predmetni tayyorlash san’atiga, ustozi rahbarligi ostida (mashqlar tufayli) o‘zining tirishqoqligi va tabiiy iqtidori orqali erishishini anglatadi. Pedagogik texnologiya - ommaviy ta’lim sharoitida maqsadga yo‘naltirilgan, boshqariladigan, rejalashtirilgan natijalar- ga kafolatga erishish mumkin bo‘lgan, qayta takrorlanadigan samarali o‘quv jarayonini yaratishga asoslanadi. Pedagogik texnologiyatamoyillarini tizimli amalga oshirish rejalashtirilgan natijalarga kafolatli erishishni ta’minlaydi, shu jumladan muammoli o‘qitish tamoyilining ishlatilishi unga tadqiqot tusini beradi, ya’ni o‘qitishda ijodiy izlanish amalga oshiriladi. Axborotli jamiyat - bu ko‘proq ishlab chiqaruvchilar, xususan, yuqori shakldagi bilimlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va tatbiq etish bilan shug‘ullanuvchi jamiyatdir.

Axborot madaniyati jamiyat a'zolarining maqsadli axborotdan foydalanishi, uni qayta ishlashi va uzatishi, zamonaviy texnik va tashkiliy vositalarni qo‘llash hamda ularning usullari va vositalarini ishlata olish qobiliyatiga ega bo‘lishi sifatida tushuniladi. Axborotli jamiyat quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi: texnik qurilmalardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish, kompyuter va axborot texnologiyalarini faoliyatida qo‘llash, axborotni turli manbalardan olish va uni samarali ishlatish bo‘yicha bilimga ega bo‘lish, axborotni tahliliy qayta ishlash asoslarini egallash, o‘z faoliyati bilan bog‘liq axborotni bilish va undan samarali foydalanishni boshqarishni tamilash. Bu ikki ilmiy tushunchani dars davomida birlashtirish dars samaradorligini taminlaydi. Hozirgi kunda tibbiyot oliy o`quv yurtlarida ham modull tizimi keng joriy qilingan bo`lib, axborot almashinish va bilimlarni yanada mustahkamlashga hizmat qilib kelmoqda. Modulli o`qitish va kredit tizimining bosqichma-bosqich joriy etilishi

O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimining zamonaviylashtirilishida strategik qadamlardan biridir. Ushbu tizim orqali ta‘lim jarayoni sifat, samaradorlik, ochiqlik va natijadorlik tamoyillari asosida tashkil etilib, talabaning har tomonlama rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratilmoqda. Bundan tashqari simulyatsion qurilmalar turli texnik aparaturalar yordamida ham dars o`tilishi olib borilmoqda. Masalan farmakologiya fanini o`rgatishda nafas tizimiga ta`sir etuvchi dori vositalar mavzusini o`tilganda nebulayzer aparati yordamida darsga yangicha yondashilmoqda. Nebulayzer — bu maxsus tibbiy aparat


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

bo‘lib, suyuq dori preparatlarini mayda tomchi zarralariga aylantirib, bemorga nafas yo‘llari orqali yuborishga yordam beradi. Bu usul ayniqsa o‘pka kasalliklari, astma, bronxit kabi kasalliklarda samarali. Nafas yo‘llari kasalliklarini davolashda ingalyatsion terapiya muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, glyukokortikoidlar (GK) — kuchli yallig‘lanishga qarshi vositalar bo‘lib, nafas yo‘llarining surunkali kasalliklarida keng qo‘llaniladi.

Nebulayzer — dori vositalarini aerozol holatga keltirib, bemorning nafas yo‘llariga chuqur yetkazib beradigan moslama bo‘lib, GKlarni mahalliy (ya’ni, joyida) qo‘llash imkonini beradi. Nebulizatsiya orqali qo‘llash uchun quyidagi GKlar keng tarqalgan: Budesonid (Pulmicort), Beclometasone, Fluticasone, Dexametazon (faqat ayrim holatlarda, shifokor nazoratida), Prednizolon (nebulayzer uchun mos shakli kam, ammo favqulodda hollarda ishlatiladi). Nebulizatsiya yo‘li bilan GKlarni qo‘llash quyidagi kasalliklarda asosli hisoblanadi: 1. Bronxial astma – yallig‘lanishni kamaytirish, tutqanoq oldini olish 2. Obstruktiv bronxit – ayniqsa bolalarda virusli yoki allergik bronxit 3. Kronik obstruktiv o‘pka kasalligi (KO‘OK) – nafasni yengillashtirish, shishishni kamaytirish 4. Larengetlar, laringotraxeit (stridor bo‘lsa) – ayniqsa bolalarda 5. Allergik reaksiyalar – og‘ir nafas yetishmovchiligi bilan kechayotgan hollarda 6. Post-COVID sindromi – ba’zan o‘pka yallig‘lanishidan so‘nggi reabilitatsiya bosqichida dozasi masalan, Budesonid (Pulmicort): Bolalar uchun: 0,25–0,5 mg kuniga 1–2 mahal, kattalar uchun: 0,5–1 mg kuniga 1–2 mahal, nebulizator orqali naCl 0,9% (fiziologik eritma) bilan aralashtirilib, 5–10 daqiqada beriladi. Har bir dori vositasi uchun doza individual bo‘lib, shifokor tavsiyasiga ko‘ra belgilanadi.

Afzalliklari mahalliy (joyida) ta’sir: tizimli yon ta’sirlar kamroq, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘pkaga yetib boradi, bolalar va qariyalar uchun qulay, tez yengillik beradi (ayniqsa, bronxial obstruksiya bo‘lsa). Ular nafas yo‘llaridagi yallig‘lanishni kamaytiradi, shish va allergik reaktsiyalarni bostiradi. Nebulayzer yordamida glyukokortikoidlarni qo‘llash tartibi: Bosqichlar: Qo‘lni yuvish — Dastlab qo‘llarni yaxshilab yuvish kerak.

Bu gigiena qoidalariga rioya qilish uchun muhim. Dori preparatini tayyorlash — Shifokor tomonidan belgilangan miqdordagi glyukokortikoid dorisini nebulayzer uchun maxsus idishga quying. Nebulayzer apparatini tayyorlash — Qurilmani elektr tarmog‘iga ulang (agar kerak bo‘lsa), idishni joylashtiring. Maska yoki nafas qabul qiluvchi naychani joylashtirish — Bemorga maskani yuziga yoki naychani og‘ziga to‘g‘ri joylashtiring. Nafas olishni boshlash — Bemorga chuqur va sekin nafas olishni o‘rgating. Bu dori tomchilarining chuqur o‘pka bo‘ylab yetib borishini ta’minlaydi.

Muolajani davom ettirish — Dori tugaguncha, odatda 5-10 daqiqa, nafas olishni davom ettiring. Nebulayzerni tozalash — Muolaja tugagach, apparat qismlarini tozalash va quritish kerak. Talabalar uchun mashq: Talabalarni guruhlarga bo‘lib, nebulayzer apparatini yig‘ish va glyukokortikoid dorisini qo‘llash amaliyoti bilan tanishtirish. Har bir talaba maska yoki naycha yordamida nafas olish mashqlarini bajarishi. Dori miqdori va muolaja vaqtini hisoblashni o‘rgatishga erishildi.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3





Farmakologiya fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va interaktiv metodlardan foydalanish talabalar klinik tafakkurini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish va kasbiy malakasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Nebulayzer apparatidan foydalanish orqali glyukokortikoidlarni o‘rganish dars jarayonlarini klinik amaliyotga yaqinlashtirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifati va baholash tizimini yaxshilashga qaratilgan huquqiy asoslar farmatsevtika va tibbiyot yo‘nalishida yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Kelgusida ushbu yondashuvlarni chuqurlashtirish va o‘quv jarayonini yanada interaktiv, amaliyotga yo‘naltirilgan shaklda tashkil etish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Atadjanova S. PEDAGOK KADRLAR TAYORLASHDA CHET TILINI O’QITISH/O’RGATISH TEXNOLOGIYALARI XUSUSIDA //Nordic_Press. – 2024. – T. 5. – №. 0005.
2. Mehmonov A. Z., Iskandarova B. B., Jalilova D. M. FARMAKALOGIYA FANINI O’RGATISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH //Inter education & global study. – 2025. – T. 3. – №. 4 (1). – C. 143-151.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

3. Avliyakulov N. X., Musayeva N. N. Pedagogik texnologiya //Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – 2012.
4. Rasulovich S. S. OLIY TA'LIMDA MODULLI O 'QISH TIZIMI JORIY ETILISHINING O 'ZIGA XOS JIHATLARI //FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2025. – T. 13. – №. 6. – C. 698-704.
5. Murodovna J. D. Study of the Information System in Uzbekistan. – 2023.
6. Jalilova D. M. et al. Allergic Rhinitis and its Treatment //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2023. – T. 4. – №. 6. – C. 576-579.
7. Murodovna, J. D., & Zayniddinovna, D. S. (2024). Allergic Rhinitis in Pregnant People and ItS Treatment. Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science, 2(5), 1-5.

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Mehmonov Alisher Zafarovich**, talaba, [**Мехмонов Алишер Зафарович**,студент], [**Mehmonov Alisher Zafarovich** student, manzil: Samarqand, Amir Temur ko'chasi, 18A, [адрес: Самарканд, ул. Амира Темура, 18A], [address: Samarkand, 18A Amir Temur street].

✉**O`lmasov Behruz Asromivich**, talaba, **Улмасов Бехруз Асромивич,** студент, **O`lmasov Behruz Asromivich,** student]; manzil: Samarqand, Amir Temur ko'chasi, 18A, [адрес: Самарканд, ул. Амира Темура, 18A], [address: Samarkand, 18A Amir Temur street].

✉**Jalilova Dildora Murot qizi**, assistent [**Жалилова Дилдора Мурот кизи,** ассистент], [**Jalilova Dildora Murot qizi,** assistant ]; manzil: Samarqand, Amir Temur ko'chasi, 18A, [адрес: Самарканд, ул. Амира Темура, 18A], [address: Samarkand, 18A Amir Temur street].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# TALABALARDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI YOSHLAR SALOMATLIGINI SAQLASHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI (UMUMIY PEDAGOGIKA FANI MISOLIDA)

© G.A. Tadjibayeva[1]✉

[1]Namangan davlat universiteti, Namangan, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** so‘nggi yillarda ekologik xavfsizlik va salomatlik dolzarb global muammo sifatida talqin etilmoqda. Talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish barqaror rivojlanish, sog‘lom turmush tarzi hamda psixofiziologik salomatlikni ta’minlashning muhim pedagogik mexanizmidir.

**MAQSAD:** umumiy pedagogika kontekstida talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish orqali yoshlar salomatligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi pedagogik tamoyillar va texnologiyalar majmuini asoslash.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** nazariy-tahliliy yondashuv; komparativ tahlil (D.W. Orrning ekologik savodxonlik konsepsiyasi va G. de Haanning barqaror rivojlanish ta’limi modeli bilan qiyoslash); empirik kuzatuv va diagnostika; interfaol metodlar (loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim, trening va refleksiv suhbatlar); modellashtirish va tizimli yondashuv.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** ekologik ong va mas’uliyatning oshishi bilan sog‘lom turmush tarziga ichki motivatsiya kuchaydi, ekologik qadriyatlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash ko‘nikmalari yuksaldi, psixologik va fiziologik salomatlikni qo‘llab-quvvatlovchi xulqiy me’yorlar mustahkamlandi. Orrning shaxsiy transformatsiyaga tayangan yondashuvi hamda de Haanning kompetensiyaviy modeli o‘zaro to‘ldiruvchi bo‘lib, ekologik identitetni amaliy ijtimoiy faoliyatga integratsiyalash imkonini beradi.

**XULOSA:** talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish — salomatlikni saqlashga qaratilgan ta’limning tizimli yo‘li. Interfaol, loyiha va kompetensiyaviy yondashuvlarning kompleks qo‘llanishi ekologik barqaror xulqni shakllantiradi va yoshlarning jismoniy-ruhiy farovonligini mustahkamlaydi.

**Kalit so‘zlar:** ekologik madaniyat, yoshlar salomatligi, pedagogik texnologiyalar, umumiy pedagogika, ekologik ta’lim, ekologik ong, innovatsion metodlar, sog‘lom turmush tarzi.

**Iqtibos uchun**: Tadjibayeva.G.A. Talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish orqali yoshlar salomatligini saqlashning pedagogik texnologiyalari (umumiy pedagogika fani misolida). // Inter education & global study. 2025. vol.3 №8. B.254–261.

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ СОХРАНЕНИЯ ЗДОРОВЬЯ МОЛОДЕЖИ ЧЕРЕЗ РАЗВИТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У УЧАЩИХСЯ (НА ПРИМЕРЕ

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

## ОБЩЕПЕДАГОГИЧЕСКОЙ НАУКИ)

© Г.И. Таджибаева[1]✉
[1]Наманганский государственный университет, Наманган, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** экологическая безопасность и здоровье — ключевые вызовы современности. Развитие экологической культуры у студентов рассматривается как педагогический механизм обеспечения устойчивого развития и укрепления психофизиологического здоровья молодёжи.

**ЦЕЛЬ:** обосновать совокупность педагогических принципов и технологий общей педагогики, направленных на сохранение здоровья молодёжи посредством формирования экологической культуры студентов.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** теоретико-аналитический обзор; сравнительный анализ (концепция экологической грамотности D.W. Orr и модель образования для устойчивого развития G. de Haan); эмпирические наблюдения и диагностика; интерактивные методы (PBL, проблемное обучение, тренинги, рефлексия); моделирование и системный подход.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** рост экологического сознания и ответственности усиливает внутреннюю мотивацию к ЗОЖ, развивает навыки сопряжения ценностей с практикой, укрепляет нормы поведения, поддерживающие здоровье. Персонально-ориентированная трансформация (Orr) и компетентностная операционализация (de Haan) взаимодополняют друг друга, переводя экологическую идентичность в социальную практику.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** комплексное применение интерактивных, проектных и компетентностных подходов формирует устойчивое экологическое поведение и способствует укреплению физического и психологического здоровья молодёжи.

**Ключевые слова:** экологическая культура, здоровье молодёжи, педагогические технологии, общая педагогика, экологическое образование, экологическое сознание, инновационные методы, здоровый образ жизни.

**Для цитирования**: Таджибаева Г.И. Педагогические технологии сохранения здоровья молодежи через развитие экологической культуры у учащихся (на примере общепедагогической науки).// Inter education & global study.2025. vol.3 №8. С.254–261.

## PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES FOR PRESERVING YOUTH HEALTH THROUGH THE DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG STUDENTS (USING THE EXAMPLE OF GENERAL PEDAGOGICAL SCIENCE)

© Gavxaroy I. Tadjibayeva[1]✉
[1]Namangan State University, Namangan, Uzbekistan

Annotation

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**INTRODUCTION:** environmental safety and health have become pressing global challenges. Developing students' ecological culture is positioned as a pedagogical mechanism for sustainable development and for strengthening youths' psycho-physiological well-being.

**AIM:** to substantiate a set of pedagogical principles and technologies within general pedagogy that preserve youth health by fostering students' ecological culture.

**MATERIALS AND METHODS:** theoretical analysis; comparative review (D.W. Orr's ecological literacy and G. de Haan's education for sustainable development); empirical observation and diagnostics; interactive methods (project-based learning, problem-based learning, trainings, reflective dialogues); modelling and systems approach.

**DISCUSSION AND RESULTS:** increases in ecological awareness and responsibility reinforced intrinsic motivation toward a healthy lifestyle, improved the alignment of values with practice, and consolidated health-supportive behavioural norms. Orr's person-centred transformation and de Haan's competence-based operationalization act complementarily, translating ecological identity into social practice.

**CONCLUSION:** a combined use of interactive, project-oriented and competence-based approaches shapes sustainable ecological behaviour and contributes to improved physical and psychological health among youth.

**Keywords:** ecological culture, youth health, pedagogical technologies, general pedagogy, environmental education, ecological consciousness, innovative methods, healthy lifestyle.

**For citation**: Gavxaroy I. Tadjibayeva. (2025) 'Pedagogical technologies for preserving youth health through the development of ecological culture among students (using the example of general pedagogical science)', Inter education & global study, vol.3 (8), pp.254–261. (In Uzbek).

**S**o'nggi o'n yilliklarda insoniyat oldida turgan global muammolardan biri — ekologik xavfsizlik va salomatlikni ta'minlash masalasidir. Atrof-muhitning degradatsiyasi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, texnogen xavf va antropogen yuklamalarning ortishi natijasida ekologik inqiroz alomatlari tobora chuqurlashmoqda. Bu esa nafaqat tabiat muvozanatini, balki insonning psixofiziologik salomatligini ham xavf ostiga qo'ymoqda. Shu nuqtai nazardan, yosh avlodning, xususan talabalar kontingentining ekologik madaniyatini rivojlantirish masalasi ijtimoiy-pedagogik dolzarb muammolardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Chunki ekologik madaniyatning rivojlanishi nafaqat barqaror taraqqiyot strategiyasining poydevorini tashkil etadi, balki yoshlarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ruhiy va jismoniy salomatligini ta'minlashning ham muhim pedagogik mexanizmlaridan biridir. Ekologik madaniyat tushunchasi insonning tabiat bilan ongli munosabati, ekologik ong, ekologik tafakkur va ekologik mas'uliyatni qamrab oluvchi ko'p qirrali kategoriya sifatida talqin qilinadi[1].

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ushbu madaniyatning shakllanishi jarayonida shaxsning atrof-muhitga munosabati, ekologik qadriyatlarni qabul qilish darajasi, tabiatni muhofaza qilish faoliyatida ishtirok etish xohishi va amaliy ekologik faoliyat ko‘nikmalari markaziy o‘rin tutadi. Bu jarayonning talabalik davrida shakllanishi esa tasodifiy emas, chunki aynan talabalik yoshi shaxsning ijtimoiy, axloqiy va kasbiy shakllanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Demak, umumiy pedagogika fanida ekologik ta’lim va tarbiyani yangicha pedagogik texnologiyalar asosida yo‘lga qo‘yish, bir tomondan, yoshlarning ekologik ongini mustahkamlasa, ikkinchi tomondan, ularning sog‘lom turmush tarziga amal qilish ehtiyojini kuchaytiradi. Pedagogika nazariyasi nuqtai nazaridan qaralganda, ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayonida ikki asosiy yo‘nalishni ajratish mumkin: birinchidan, shaxsiy ekologik ong va axloqiy munosabatni shakllantirish, ikkinchidan, ekologik amaliy faoliyatni yo‘lga qo‘yish [2].

Shu jihatdan, talabalar uchun ekologik ta’lim jarayoni oddiy nazariy bilimlarni berish bilan chegaralanib qolmasdan, balki ekologik qadriyatlarni hayotiy amaliyot bilan bog‘laydigan pedagogik texnologiyalarni qo‘llashni taqozo etadi. Bu texnologiyalar orasida interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish, trening va tadqiqotga yo‘naltirilgan ta’lim shakllari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda yoshlar salomatligi masalasi ham global miqyosda dolzarb bo‘lib bormoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, yoshlar salomatligiga salbiy ta’sir etuvchi omillar qatorida noto‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollikning yetishmasligi, stress, zararli odatlar bilan bir qatorda, atrof-muhitning ifloslanishi ham muhim o‘rin tutadi.

Shu nuqtai nazardan, ekologik madaniyat va yoshlar salomatligi o‘rtasida bevosita sabab-oqibat bog‘liqlik mavjud. Boshqacha qilib aytganda, ekologik madaniyatning yetarlicha shakllanmaganligi yoshlarning sog‘lom hayot tarzini olib borish qobiliyatini susaytiradi, ekologik xavflarga qarshi immunitetini pasaytiradi. Shuningdek, ekologik madaniyatni rivojlantirish orqali salomatlikni saqlash masalasining pedagogik jihatdan tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon uzviy ravishda ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari, ayniqsa oliy ta’lim muassasalari faoliyatiga integratsiyalashuvi lozim[3].

Talabalarga ekologik ta’lim berish jarayonida nafaqat nazariy ma’lumotlar, balki ekologik qadriyatlarni anglash, ekologik mas’uliyatni his etish va tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish amaliyotlari shakllanishi zarur. Bunda pedagogik texnologiyalarning zamonaviy shakllari, xususan, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, elektron ta’lim resurslari, masofaviy o‘quv platformalari ham muhim rol o‘ynaydi. Chunki bugungi talaba avlodi raqamli avlod sifatida ekologik muammolarni anglashda ko‘proq vizual, tezkor va interaktiv shakldagi ta’lim vositalarini qabul qilishga moyildir. Ekologik madaniyatni rivojlantirishning yana bir dolzarb jihati shundan iboratki, u shaxsning ijtimoiy javobgarlik darajasini oshiradi. Jamiyatda ekologik muammolarning ildizi ko‘p hollarda insonlarning ekologik mas’uliyatni yetarli darajada his qilmasligiga borib taqaladi[4].

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Shu sababli, talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish faqat individual salomatlikni emas, balki butun jamiyatning ekologik barqarorligini ta’minlashning pedagogik mexanizmlaridan biri sifatida ham ko‘rilishi lozim. Bu jihat umumiy pedagogika fani doirasida ekologik ta’lim va tarbiya masalalariga alohida yondashuvni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili: Ekologik madaniyatni shakllantirish va uning yoshlar salomatligini ta’minlashdagi pedagogik ahamiyati masalasi xalqaro ilmiy maydonda ham ko‘plab tadqiqotlarga sabab bo‘lgan. Xususan, ekologik ong, ekologik tarbiya va sog‘lom turmush tarzi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tahlil qilgan xorijiy olimlarning ishlari ushbu mavzuning ilmiy-nazariy asoslarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Masalan, amerikalik tadqiqotchi David W. Orr o‘zining “Ecological Literacy: Education and the Transition to a Postmodern World” nomli asarida ekologik madaniyatning zamonaviy ta’lim tizimida shakllanishi, ekologik savodxonlikning inson salomatligi va barqaror taraqqiyot bilan uzviy aloqadorligini ilmiy asoslab bergan [5]. Orr ta’lim jarayonini ekologik ongni rivojlantirishning eng muhim manbai sifatida talqin etib, uni nafaqat nazariy bilimlar majmui, balki shaxsiy mas’uliyat va hayotiy amaliyotlar majmuasi sifatida ko‘radi. Uning fikricha, ekologik savodxonlik insonning dunyoqarashini o‘zgartirib, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantiradi, bu esa oxir-oqibat jismoniy va ruhiy salomatlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Orrning yondashuvi shuni ko‘rsatadiki, ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayonida pedagogik texnologiyalar shaxsning ekologik identitetini shakllantirish, ekologik qadriyatlarni ongli ravishda qabul qilish va ularni kundalik hayot amaliyotiga tadbiq etish vositasi sifatida qaralishi zarur. Ikkinchi muhim manba sifatida nemis olimi Gerhard de Haanning ishlari e’tiborga loyiqdir[6]. U “Education for Sustainable Development” konsepsiyasini ishlab chiqishda faol ishtirok etgan bo‘lib, uning ilmiy izlanishlari ekologik ta’lim, sog‘lom turmush tarzi va barqaror rivojlanish o‘rtasidagi integrativ munosabatlarni ochib beradi. De Haan ta’lim tizimida barqaror rivojlanish kompetensiyalarini shakllantirish zarurligini ta’kidlab, ekologik madaniyatni inson hayot faoliyatining barcha jabhalariga tatbiq etish imkoniyatlarini o‘rganadi. Unga ko‘ra, yoshlar ekologik ongni rivojlantirgan taqdirdagina o‘z salomatligini ongli ravishda muhofaza qilish, sog‘lom turmush tarziga amal qilish va ekologik xavflarni bartaraf etishda faol subyekt sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

De Haanning metodologiyasi ekologik ta’limni faqat nazariy bilimlarni singdirish jarayoni emas, balki shaxsiy tajriba, faoliyatga asoslangan o‘qitish va interfaol pedagogik yondashuvlar orqali tashkil etishni taklif qiladi. Ushbu ikki olimning ilmiy qarashlarini uzviy bog‘lagan holda aytish mumkinki, ekologik madaniyatni rivojlantirish yoshlarning salomatligi uchun zarur bo‘lgan psixologik barqarorlik, fiziologik himoya va ijtimoiy javobgarlikni shakllantirishning eng muhim omillaridan biridir[7].

Orrning ekologik savodxonlik konsepsiyasi ekologik ongning shakllanishiga urg‘u berar ekan, De Haanning barqaror rivojlanish ta’limi modeli bu ongni amaliy faoliyatga integratsiyalashning metodologik mexanizmlarini taqdim etadi. Shu tariqa, ekologik ta’limning nazariy asoslari ham, uning pedagogik texnologik jihatlari ham ekologik


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

madaniyat va yoshlar salomatligi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yoritishda o‘zaro to‘ldiruvchi va uyg‘unlikka ega bo‘ladi.

Metodologik qism: Mazkur tadqiqotning metodologik asoslari umumiy pedagogika fanining nazariy konsepsiyalariga, shuningdek, ekologik ta’lim va tarbiyaning xalqaro amaliyotida shakllangan ilmiy yondashuvlarga tayangan holda belgilandi. Tadqiqotda qo‘llanilgan metodlar, avvalo, ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayonida talabalarning individual va ijtimoiy salohiyatini o‘rganish, yoshlar salomatligini pedagogik texnologiyalar orqali ta’minlash mexanizmlarini aniqlashga yo‘naltirilgan.

Shu maqsadda, birinchidan, nazariy-tahliliy metoddan keng foydalanilib, ekologik ong, ekologik madaniyat va pedagogik texnologiyalar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ilmiy adabiyotlar asosida konseptual jihatdan tahlil qilindi; ikkinchidan, komparativ metod yordamida xorijiy tajribalar, xususan D. W. Orrning ekologik savodxonlik konsepsiyasi hamda G. de Haanning barqaror rivojlanish ta’limi modeli bilan milliy ta’lim amaliyoti qiyosiy tahlil qilindi; uchinchidan, empirik kuzatuv va diagnostika metodlari orqali talabalarda ekologik qadriyatlar va sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan munosabatlari aniqlanib, ularning ekologik madaniyat darajasi baholandi; to‘rtinchidan, interfaol pedagogik metodlar – treninglar, loyiha asosida ta’lim, muammoli ta’lim hamda refleksiv suhbatlardan foydalanib, ekologik ong va ekologik mas’uliyatni rivojlantirish bo‘yicha samarali texnologiyalar ishlab chiqildi; beshinchidan, modellashtirish va tizimli yondashuv metodlari asosida ekologik madaniyatni rivojlantirish orqali yoshlar salomatligini saqlashga qaratilgan pedagogik jarayonning umumlashtirilgan modeli yaratildi. Shunday qilib, tadqiqotning metodologiyasi nazariy va empirik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish, interfaol pedagogik texnologiyalarni qo‘llash hamda xalqaro tajribani milliy sharoitda tatbiq etish tamoyillariga asoslanadi.

Natijalar: Tadqiqot natijalariga ko‘ra, talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llash orqali ularning salomatligini saqlash va mustahkamlashning kuchli omiliga aylanishi aniqlandi, chunki ekologik ong va ekologik mas’uliyatning oshishi bilan bir qatorda sog‘lom turmush tarziga nisbatan barqaror motivatsiya shakllandi, talabalarning ekologik qadriyatlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish qobiliyati yuksaldi, psixologik va fiziologik salomatlikni saqlashga yo‘naltirilgan xulqiy me’yorlar mustahkamlandi hamda ekologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha ijtimoiy javobgarlik darajasi ortdi.

Munozara: Ekologik madaniyat va uning yoshlar salomatligiga ta’siri masalasida xalqaro miqyosda turli nazariy qarashlar mavjud bo‘lib, ularning ayrimlari o‘zaro polemik xarakter kasb etadi. Xususan, amerikalik olim David W. Orr va nemis tadqiqotchisi Gerhard de Haan o‘rtasida ekologik ta’limning mazmuni va metodologik yo‘nalishlari borasida ilmiy bahslar kuzatiladi. Orr o‘z konsepsiyasida ekologik savodxonlikni shaxsiy dunyoqarashning transformatsiyasi bilan uzviy bog‘liq holda talqin etadi[8]. Uning fikricha, ekologik madaniyatni shakllantirish, avvalo, ong darajasidagi o‘zgarishlarni talab qiladi. Shaxs ekologik muammolarni faqat bilimlar majmui sifatida emas, balki kundalik faoliyatining ajralmas qismi sifatida qabul qilganida, uning salomatligi ham

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

mustahkamlanadi. Orrning nuqtai nazarida, ekologik ta’lim nazariy bilimlarga emas, balki hayotiy tajribaga, shaxsiy javobgarlik va ekologik sezgirlikni rivojlantirishga qaratilishi zarur. Shu bois u ta’lim tizimini ko‘proq axloqiy va ma’naviy asoslar bilan boyitish tarafdori bo‘lib, ekologik tarbiyaning markazida shaxsning ekologik identitetini shakllantirish jarayonini ko‘radi.

Gerhard de Haan esa bu qarashni qisman to‘ldiradi, biroq u Orrning konsepsiyasini yetarli darajada tizimli emas deb hisoblaydi. De Haan fikricha, ekologik madaniyatni rivojlantirish faqat shaxsiy ong darajasidagi o‘zgarishlar bilan chegaralanib qolmasligi, balki barqaror rivojlanish ta’limining keng ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy kontekstida ko‘rilishi lozim[9]. U “kompetensiyalarga asoslangan yondashuv”ni ilgari surib, ekologik madaniyatni amaliy faoliyat, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati, jamoaviy hamkorlik va ijtimoiy innovatsiyalar orqali shakllantirishni taqozo etadi. De Haan nazarida, ekologik savodxonlik shaxsiy qadriyatlar bilan chegaralanmaydi, balki butun jamiyatning ijtimoiy kapitaliga aylanishi zarur[10].

Shu bois u ekologik ta’limni kengroq metodologik asoslarda – interfaol o‘qitish, loyiha faoliyati, kompetensiyaviy yondashuv va tizimli modellashtirish orqali tashkil etish tarafdori. Bahs-munozaraning mohiyati shundaki, Orr shaxsiy ong va axloqiy sezgirlikni asosiy determinant sifatida ko‘rar ekan, De Haan ekologik madaniyatni tizimli ijtimoiy kompetensiyalarga tayangan holda barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan bog‘laydi. Ularning qarashlari o‘zaro zid bo‘lsa-da, aslida bir-birini to‘ldiruvchi jihatlarga ega: Orrning shaxsiy transformatsiyaga asoslangan yondashuvi ekologik sezgirlikni shakllantirishda muhim bo‘lsa, De Haanning kompetensiyaviy modeli ushbu sezgirlikni ijtimoiy amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi.

Natijada, ekologik madaniyatni rivojlantirish orqali yoshlar salomatligini saqlashning pedagogik texnologiyalari shaxsiy va ijtimoiy yondashuvlarning uyg‘unlashuvi orqali yanada samarali bo‘lishi mumkin degan ilmiy xulosa shakllanadi.

Mazkur tadqiqot doirasida amalga oshirilgan nazariy izlanishlar va metodologik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish faqatgina ekologik ong va ekologik sezgirlikni shakllantirish bilan chegaralanib qolmay, balki yoshlarning psixologik, fiziologik va ijtimoiy salomatligini ta’minlashning muhim pedagogik mexanizmlaridan biri sifatida qaralishi lozim. Chunki ekologik madaniyat insonning dunyoqarashi, hayotiy qadriyatlari va faoliyat tarziga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan integrativ fenomen bo‘lib, u sog‘lom turmush tarzi, barqaror rivojlanishga intilish va ijtimoiy javobgarlik bilan uzviy bog‘liqdir.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Shukurullo E. Ekologik madaniyatning yoshlar hayotidagi o ‘rni //" yurt faxri". – 2025. – T. 1. – №. 1.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

2. Atxamjonovna B. D., Shohbozbek E. RESPUBLIKAMIZDA MAKTABGACHA TA'LIMDA YOSHLARNING MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 221-228.
3. Almamatova Z. X., Norqo‘ziyeva S. B., Janzoqova Ch S. O‘quvchilarda ekologik tarbiyani shakllantirish //O‘zbekiston respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “biologik resurslardan samarali foydalanish, saqlash. – C. 255.
4. Abdusattarovna O. X., Shohbozbek E. IJTIMOIY FALSAFADA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 175-182.
5. Xodjayeva S. N. EKOLOGIK TARBIYA VA KONSTITUTSIYA //XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR. – 2025. – T. 1. – №. 2. – C. 319-321.
6. Diloram M., Shohbozbek E. O’ZBEKISTONDA YOSHLARNING MA’NAVIY DUNYO QARASHINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 5. – C. 207-215.
7. Xusanovich K. S. GLOBALLASHUV JARAYORIDA YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNI DOLZARB MUAMMOLARI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2025. – T. 44. – №. 5. – C. 63-74.
8. Maxliyo S., Shohbozbek E. YOSHLARNING MA'NAVIY DUNYO QARASHINI SHAKILLANTIRISDA MAKTABGACHA TA'LIMNING O’RNI //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 4. – C. 83-89.
9. To’raqulova V. MILLIY-MA’NAVIY QADRIYATLAR ASOSIDA O ‘QUVCHILARDA EKOLOGIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH //PROBLEMS AND SOLUTIONS OF SCIENTIFIC AND INNOVATIVE RESEARCH. – 2025. – T. 2. – №. 5. – C. 98-102.
10. Nozima A., Shohbozbek E. TA’LIM MUASSASALARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING BOSHQARUV STRATEGIYALARI //Global Science Review. – 2025. – T. 4. – №. 2. – C. 23-32.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Tadjibayeva Gavxaroy Ismailovna**, mustaqil tadqiqotchi, [**Таджибаева Гавхарой Исмаиловна**, независимый исследователь], [**Tadjibayeva Gavxaroy Ismailovna** independent researcher]; manzil: 160107, Bobursho‘x ko'chasi, 161-uy, [адрес: 160107, ул. Бабуршох, д. 161], [address: 161 Babursho‘kh St., 160107].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# O'QUV NATIJALARINI BAHOLASH VA CLIL YONDASHUVIDA O'QITUVCHILARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

© M.A. Tursunaliyeva [1]✉

[1]Oxangaron shahridagi 3-maktab, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** mazkur maqolada mazmun va til integratsiyalashgan o‘qitish (CLIL) yondashuvida o‘quv natijalarini baholash nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari yoritiladi. CLIL metodikasida fan mazmuni va chet tili kompetensiyasini birgalikda rivojlantirish talabi baholash jarayonini murakkablashtiradi.

**MAQSAD:** tadqiqotning asosiy maqsadi — CLIL jarayonida o‘quv natijalarini adolatli va shaffof baholash tizimini ishlab chiqish, shuningdek, o‘qituvchilarning baholash bo‘yicha kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashdir.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda nazariy manbalar tahlili, xalqaro va mahalliy tajribalarni qiyoslash, so‘rovnoma va intervyular asosida ma’lumot yig‘ish, kuzatuv va statistik tahlil metodlari qo‘llanildi. Baholashda Systemic Functional Linguistics (SFL) asosidagi funktsional til modeli ham tahlil qilindi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** natijalar shuni ko‘rsatdiki, CLIL baholashida ikki asosiy yondashuv — alohida baholash (discrete assessment) va integrallashgan baholash (integrated assessment) mavjud. Alohida baholash fanga oid bilimlarni adolatli qayd etadi, biroq til rivojlanishini ikkinchi planga suradi; integrallashgan baholash esa kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi, ammo baholash mezonlarini aniq belgilashni talab etadi. O‘zbekiston ta’lim tizimida CLILni joriy etishda milliy ta’lim standartlari, mavjud darsliklar va malaka oshirish tizimlari asosida yangi baholash mezonlarini ishlab chiqish zarurati aniqlangan.

**XULOSA:** CLIL baholash samaradorligi o‘qituvchi kompetensiyasiga, baholash vositalarining sifatiga va xalqaro tajribani mahalliy kontekstga moslashtirishga bevosita bog‘liq. Ushbu tadqiqot asosida baholash mezonlarini standartlashtirish, metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish va o‘qituvchilar uchun treninglar tashkil etish tavsiya etiladi.

**Kalit so‘zlar:** CLIL, baholash, integrallashgan baholash, alohida baholash, SFL, funksional til modeli, o‘qituvchi kompetensiyasi, ta’lim standarti.

**Iqtibos uchun**: Tursunaliyeva.M.A. O'quv natijalarini baholash va clil yondashuvida o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish imkoniyatlari. // Inter education & global study. 2025. №8. B.262–272.

# ОЦЕНКА УЧЕБНЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ И ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧИТЕЛЕЙ В ПОДХОДЕ CLIL

© М.А. Турсуналиева[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

[1]Школа №3 города Охангарон, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в статье рассматриваются теоретические основы и практические механизмы оценки учебных результатов в рамках подхода CLIL (интегрированного обучения предмету и иностранному языку). Одновременное развитие предметного содержания и иноязычной компетенции создает трудности при определении приоритетов в оценивании.

**ЦЕЛЬ:** основная цель исследования — разработать справедливую и прозрачную систему оценивания результатов в CLIL, а также определить возможности развития профессиональной компетенции учителей в данной области.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** использованы анализ научной литературы, сопоставление международного и узбекского опыта, анкетирование и интервью с учителями, наблюдение за уроками и статистическая обработка данных. Особое внимание уделено применению функциональной модели языка на основе системно-функциональной лингвистики (SFL).

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** выявлено, что в практике CLIL применяются два подхода к оцениванию: раздельная оценка содержания и языка и интегрированная оценка. Первый подход обеспечивает объективность в отношении содержания, но ограничивает развитие языковых навыков; второй способствует формированию коммуникативной компетенции, однако требует четко разработанных критериев. В условиях Узбекистана необходимо совершенствовать стандарты оценивания и разрабатывать методические пособия с учетом действующих учебников и программ повышения квалификации.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** эффективность CLIL-оценивания напрямую зависит от уровня компетентности учителя, качества оценочных инструментов и адаптации международного опыта к национальному контексту. Рекомендуется стандартизировать критерии, создать учебно-методические материалы и проводить регулярные тренинги для педагогов.

**Ключевые слова:** CLIL, оценивание, интегрированная оценка, раздельная оценка, функциональная модель языка, SFL, компетенция учителя, образовательный стандарт.

**Для цитирования**: Турсуналиева.М.А. Оценка учебных результатов и возможности развития профессиональной компетенции учителей в подходе CLIL.// Inter education & global study.2025. №8. С.262–272.

## ASSESSMENT OF LEARNING OUTCOMES AND OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF TEACHERS' PROFESSIONAL COMPETENCE IN THE CLIL APPROACH

© Muattar.A. Tursunaliyeva[1]✉
[1]School №. 3 of the city of Okhangaron, Tashkent, Uzbekistan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Annotation

**INTRODUCTION:** this article examines the theoretical foundations and practical mechanisms for assessing learning outcomes in Content and Language Integrated Learning (CLIL). Since CLIL seeks to develop both subject knowledge and foreign language competence, balancing priorities in assessment is a major challenge.

**AIM:** the study aims to develop a fair, transparent, and comprehensive assessment system for CLIL, while also identifying opportunities to enhance teachers' professional competence in assessment practices.

**MATERIALS AND METHODS:** the research employed literature analysis, comparative study of international and Uzbek practices, teacher surveys and interviews, classroom observations, and statistical data analysis. The functional language model based on Systemic Functional Linguistics (SFL) was also examined as an assessment tool.

**DISCUSSION AND RESULTS:** findings reveal two major approaches in CLIL assessment: discrete assessment of content and language, and integrated assessment. Discrete assessment ensures fairness in evaluating subject knowledge but sidelines language development, while integrated assessment fosters communicative competence but requires well-defined criteria. In Uzbekistan, introducing CLIL highlights the need to refine assessment standards, align them with state educational standards and textbooks, and provide teacher training.

**CONCLUSION:** the success of CLIL assessment depends on teacher competence, the quality of assessment tools, and the adaptation of international practices to the local context. The study recommends standardizing criteria, developing methodological guides, and organizing professional development programs to improve CLIL assessment practices.

**Keywords:** CLIL, assessment, integrated assessment, discrete assessment, functional language model, SFL, teacher competence, educational standard.

**For citation**: Muattar A. Tursunaliyeva. (2025) 'Assessment of learning outcomes and opportunities for the development of teachers' professional competence in the CLIL approach', Inter education & global study, (8), pp.262–272. (In Uzbek).

**S**o'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'qitishda sifat ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2022-yil 19-maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–226-son qarori hamda 2030-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan "Ingliz tilini o'qitishni rivojlantirish konsepsiyasi"da umumta'lim maktablarida integratsiyalashgan va kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuvlarni keng joriy etish belgilangan. Bu jarayonda mazmun va til integratsiyalashgan o'qitish (Content and Language Integrated Learning – CLIL) metodikasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u fan mazmunini o'zlashtirish jarayonida


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

chet tilida muloqot qilish, o‘z fikrini aniq va asosli ifodalash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi [1;15].

CLIL yondashuvida o‘quv natijalarini baholash masalasi murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, nafaqat o‘quvchining fanga oid bilim darajasini, balki chet tilidagi kommunikativ kompetensiyasini ham hisobga olishni talab qiladi [2;44]. Shu sababli, o‘qituvchilar oldida bir qator savollar paydo bo‘ladi: baholash jarayonida til va mazmun birgalikda hisobga olinadimi yoki ular alohida baholanadimi? Til yetarli darajada rivojlanmagan, ammo fan mazmunini yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchining natijalari qanday baholanadi? Ushbu masalalarga javob topish CLILning samarali amaliyotga aylanishida muhim omil hisoblanadi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, CLIL baholashida ikki asosiy yondashuv qo‘llaniladi: alohida baholash (discrete assessment) va integrallashgan baholash (integrated assessment) [3;52]. Birinchi yondashuvda til va mazmun natijalari mustaqil baholanadi, ikkinchisida esa ular birgalikda, o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilinadi. Har ikki usulning afzalliklari va cheklovlari mavjud bo‘lib, ularning tanlovi ko‘pincha ta’lim bosqichi, fan turi va o‘quvchining til darajasiga qarab belgilanadi.

O‘zbekiston umumta’lim maktablari amaliyotida CLILning keng joriy etilishi yangi baholash mezonlarini ishlab chiqishni, o‘qituvchilarning til va mazmunni baholash bo‘yicha metodik savodxonligini oshirishni talab etadi [4;61]. Mazkur maqola CLIL doirasida o‘quv natijalarini baholashning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini, shuningdek, o‘qituvchi kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qiladi hamda mahalliy ta’lim tizimiga mos tavsiyalarni taklif etadi.

Adabiyotlar sharhi. Mazmun va til integratsiyalashgan o‘qitish (CLIL) konsepsiyasi birinchi marta 1990-yillarda Yevropa ta’lim tizimida keng qo‘llanila boshlagan bo‘lib, bugungi kunda u chet tillarini o‘qitishda eng samarali yondashuvlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda [5;77]. Coyle, Hood va Marsh (2010) tomonidan ishlab chiqilgan “4C” modeli (Content, Communication, Cognition, Culture) CLILning nazariy asosini belgilab berdi va bu model baholash jarayonini ham qamrab oluvchi kompleks yondashuvni taklif etdi [6;21]. Modelga ko‘ra, baholash o‘quvchining fan mazmunini o‘zlashtirish darajasi bilan birga uning kommunikativ kompetensiyasini, tafakkur faoliyatini va madaniy xabardorligini ham qamrab olishi lozim.

CLIL baholashida asosiy muammolardan biri til va mazmunning o‘zaro bog‘liqligidir. Otto (2018) ta’kidlaganidek, baholash jarayonida tilning vosita sifatidagi o‘rni aniq belgilanmasa, “loyqa baholash” (muddied assessment) yuzaga kelishi mumkin [7;310]. Bu holatda o‘quvchining fanga oid bilimlari til cheklovlari sabab yetarlicha namoyon bo‘lmasligi yoki aksincha, til darajasi yuqori bo‘lgan o‘quvchi mazmun bo‘yicha zaif bo‘lsa ham yuqori baho olishi ehtimoli mavjud. Shu bois, CLILda baholashning ikki yondashuvi — alohida baholash (discrete assessment) va integrallashgan baholash (integrated assessment) — nazariy va amaliy jihatdan chuqur o‘rganilgan [8;311].

Alohida baholashda til va mazmun natijalari mustaqil baholanadi. Masalan, matematika fanida berilgan topshiriqlar ikki qismga bo‘linadi: bir qismi faqat matematik


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

bilimlarni tekshiradi, ikkinchi qismi esa ingliz tilidagi tushuntirish sifatini baholaydi. Bu usulda har bir komponentning aniq ulushi belgilangan bo‘ladi [9;272]. Integrallashgan baholashda esa o‘quvchi javobi umumiy mezonlar asosida tahlil qilinadi, bunda til va mazmun bir-biridan ajratilmaydi. Bu yondashuv o‘quvchining mazmunni chet tilida ifodalash qobiliyatini kompleks tarzda baholash imkonini beradi [10;312].

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, CLIL baholashining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchining baholash savodxonligiga (assessment literacy) bog‘liqdir [11;69]. Lo va Leung (2022) fikriga ko‘ra, CLIL o‘qituvchisi nafaqat baholash mezonlarini yaxshi bilishi, balki fan va til integratsiyasini hisobga olgan holda baholash vositalarini ishlab chiqish ko‘nikmasiga ham ega bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, til baholashda Systemic Functional Linguistics (SFL) yondashuvi asosida ishlab chiqilgan funktsional til modeli keng qo‘llaniladi [12;314]. Bu model tilni grammatik to‘g‘rilik asosida emas, balki uning ma’noni yetkazishdagi funksional samaradorligi asosida baholashni nazarda tutadi.

O‘zbekiston sharoitida CLIL baholashini joriy etishda xalqaro tajriba bilan bir qatorda, milliy ta’lim standartlari, mavjud darsliklar va baholash tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur [13;123]. Bu jarayonda o‘qituvchilar uchun maxsus metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish, malaka oshirish kurslarida CLIL baholash bo‘yicha amaliy seminarlar o‘tkazish, shuningdek, baholash vositalarini sinovdan o‘tkazish tavsiya etiladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda CLIL yondashuvida o‘quv natijalarini baholash va o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash uchun sifat (qualitative) va qisman miqdoriy (quantitative) yondashuvlar uyg‘unlashtirildi. Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi: nazariy manbalarni tahlil qilish, amaliy tajriba ma’lumotlarini yig‘ish va ularni tahlil qilish, shuningdek, natijalarni O‘zbekiston ta’lim tizimi sharoitiga moslashtirish.

Tadqiqot ishtirokchilari. Tadqiqotda 2023–2024-o‘quv yilida Toshkent shahri va viloyat umumta’lim maktablarida faoliyat yuritayotgan 48 nafar ingliz tili va fan (biologiya, geografiya, informatika) o‘qituvchilari qatnashdi. Ishtirokchilar orasida CLIL yondashuvi bo‘yicha malaka oshirish kurslarini o‘tgan va o‘tmagan o‘qituvchilar mavjud bo‘lib, bu holat baholash kompetensiyasidagi farqlarni aniqlash imkonini berdi [14;88].

Ma’lumot yig‘ish usullari. Ma’lumotlarni yig‘ishda uchta asosiy metod qo‘llanildi:

1. So‘rovnoma – o‘qituvchilarning CLIL baholashga oid bilimlari, amaliyotlari va muammolarini aniqlash uchun 25 savoldan iborat anketalar tarqatildi.

2. Yarim strukturaviy intervyu – 12 nafar o‘qituvchi bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar o‘tkazilib, baholashda uchraydigan real muammolar va ularning yechimlari bo‘yicha fikrlar yig‘ildi [15;101].

3. Dars kuzatuvi – CLIL darslari jarayonida baholashning real amaliyotini kuzatish va til hamda mazmun integratsiyasining bahoga ta’sirini tahlil qilish uchun 16 ta dars videoyozuv asosida o‘rganildi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish. Olingan ma’lumotlar tematik tahlil (thematic analysis) orqali qayta ishlanib, CLIL baholashining afzalliklari, muammolari va takomillashtirish

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

imkoniyatlari bo‘yicha asosiy mavzular ajratildi. So‘rovnoma natijalari deskriptiv statistika asosida foiz ko‘rsatkichlarda ifodalandi. Intervyu va kuzatuv natijalari esa sifat tahlili asosida guruhlarga ajratildi.

Etik masalalar. Tadqiqotda barcha ishtirokchilarning roziligi olindi, shaxsiy ma’lumotlar maxfiy saqlandi va faqat ilmiy maqsadlarda foydalanildi. Tadqiqot jarayoni O‘zbekiston Respublikasida amalda bo‘lgan ilmiy izlanishlar uchun etik me’yorlarga muvofiq tashkil etildi [16;5].

So‘rovnoma natijalari CLIL baholash amaliyotida o‘qituvchilar orasida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Jumladan, ishtirokchilarning 62 foizi baholash jarayonida til va mazmunni alohida baholash yondashuvini qo‘llashini bildirgan bo‘lsa, 25 foizi integrallashgan baholashdan foydalanishini aytdi, qolgan 13 foizi esa ikki usulni vaziyatga qarab aralashtirib qo‘llaydi [17;93].

Yarim strukturaviy intervyu natijalari shuni ko‘rsatdiki, til va mazmunni integratsiyalashgan holda baholashni qo‘llayotgan o‘qituvchilar ko‘proq kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan, ammo bu jarayonda baholash mezonlarini aniq belgilashdagi qiyinchiliklar mavjud [18;64]. Alohida baholash tarafdorlari esa, ayniqsa fanga oid murakkab tushunchalarni o‘quvchi til cheklovlari sabab to‘liq ifodalay olmaganda, adolatli baholash imkoniyatining oshishini afzal ko‘rishadi.

Dars kuzatuvi natijalari quyidagilarni aniqladi:

Integrallashgan baholash qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilar tilni faol ishlatishga intilishi ortadi, ammo mazmunni to‘liq anglash darajasi ba’zan past bo‘ladi.

Alohida baholash qo‘llanilgan holatlarda fan mazmunini tushunish ko‘rsatkichlari yuqoriroq bo‘lsa-da, til amaliyoti qisqaradi va o‘quvchilar faqat javob mazmuniga e’tibor qaratadi [19;142].

Baholash jarayonida ona tilidan strategik foydalanish (masalan, murakkab ilmiy tushunchalarni tushuntirishda) o‘quvchilarning umumiy natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

So‘rovnomadagi “Baholash vositalari yetarlimi?” savoliga 48 nafar o‘qituvchidan 37 nafari (77%) “yo‘q” deb javob bergan. Ularning fikricha, amaldagi baholash topshiriqlari CLIL metodikasi talablariga mos emas yoki faqat til qismi ustuvor bo‘lib qolgan.

Intervyularda o‘qituvchilar CLIL baholash vositalarini ishlab chiqishda quyidagi asosiy muammolarni sanab o‘tishdi:

1. Til va mazmun ulushini belgilashdagi noaniqlik.
2. O‘quvchining til darajasini hisobga olgan holda adolatli baholash me’yorini topish qiyinligi.
3. Baholash mezonlarining DTS va mahalliy darslik mazmuniga mos kelmasligi [20;75].

Ushbu natijalar CLIL baholash amaliyotida mahalliy kontekstga moslashtirilgan mezonlar, moslashtirilgan baholash vositalari va o‘qituvchilar uchun maxsus treninglar zarurligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar xalqaro ilmiy adabiyotlarda keltirilgan CLIL baholash amaliyotlari bilan solishtirilganda, O‘zbekiston umumta’lim maktablari uchun bir nechta muhim


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

o‘xshashlik va farqlarni ko‘rsatadi.

Birinchidan, til va mazmunni alohida baholash yondashuvi ko‘plab davlatlarda, ayniqsa CLIL yangi joriy etilayotgan ta’lim tizimlarida keng tarqalgan. Marsh va Frigols (2012) ta’kidlaganidek, bu usul dastlabki bosqichlarda o‘qituvchilarga aniqroq baholash imkonini beradi, chunki til va fan mazmuni uchun alohida mezonlar qo‘llaniladi [21;48]. Tadqiqotimizda ishtirok etgan o‘qituvchilarning 62 foizi ushbu yondashuvni tanlagani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, integrallashgan baholash yondashuvi esa til va mazmunning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlab, o‘quvchilarning chet tilida ilmiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Coyle, Hood va Marsh (2010) CLILning asosiy maqsadi nafaqat bilimni o‘zlashtirish, balki uni til vositasida ifodalash ekanini ta’kidlaydi [6;103]. Biroq tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mahalliy sharoitda bu usulni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilar baholash mezonlarini ishlab chiqishda qo‘shimcha metodik yordamga muhtoj.

Uchinchidan, xalqaro amaliyotda CLIL baholashida Systemic Functional Linguistics (SFL) asosidagi funktsional til modeli keng qo‘llanadi. Bu model grammatik to‘g‘rilikka emas, balki tilning mazmunni yetkazishdagi funksional imkoniyatlariga urg‘u beradi [12;315]. Tadqiqotimizda ham, o‘qituvchilar til baholashda grammatik xatolarga haddan tashqari e’tibor qaratilsa, mazmunning to‘g‘ri yetkazilish darajasi ikkinchi planga tushib qolishini qayd etishdi.

To‘rtinchidan, natijalarimiz xalqaro tadqiqotlarda ta’kidlangan ona tilidan strategik foydalanish masalasini ham tasdiqlaydi. Cenoz va Gorter (2017) CLIL darslarida ona tilidan maqsadli foydalanish o‘quvchining murakkab kontseptlarni tushunishiga yordam berishini ko‘rsatadi [22;189]. Biz kuzatgan darslarda ham, ayniqsa tabiiy fanlarda, ona tilidan qisqa izohlar berish o‘quvchilarning umumiy natijalarini oshirgan.

Beshinchidan, xalqaro tajribada CLIL baholash savodxonligini oshirish bo‘yicha muntazam treninglar, onlayn resurslar va baholash vositalari to‘plamlari mavjud bo‘lsa, mahalliy ta’lim tizimida bu jarayon endigina shakllanmoqda. Bu esa baholashning sifatiga bevosita ta’sir qilmoqda [11;73].

Ushbu muhokama shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda CLIL baholash amaliyotini rivojlantirish uchun xalqaro tajribadan olingan yondashuvlarni mahalliy ta’lim kontekstiga moslashtirish, baholash mezonlarini standartlashtirish va o‘qituvchilar uchun doimiy metodik yordam tizimini yo‘lga qo‘yish zarur. Tadqiqot jarayonida CLIL baholash vositalari sifati va o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. So‘rovnoma va intervyu ma’lumotlariga ko‘ra, baholash savodxonligi yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar dars jarayonida integrallashgan baholash yondashuvini samaraliroq qo‘llagan va o‘quvchilarning til hamda mazmun ko‘nikmalarini uyg‘un holda rivojlantirishga erishgan [11;69].

Bunday o‘qituvchilar ko‘pincha Systemic Functional Linguistics modelidan foydalangan holda baholash mezonlarini ishlab chiqadi, bunda o‘quvchining javobidagi grammatik xatolarni kontekstdagi umumiy ma’no yetkazilishidan ajratib ko‘ra oladi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

[12;314]. Masalan, tabiiy fanlar bo‘yicha yozma ishda ba’zi grammatik kamchiliklarga qaramay, ilmiy kontseptlar to‘g‘ri va aniq ifodalangan bo‘lsa, baho pasaytirilmaydi.

Aksincha, baholash bo‘yicha metodik tayyorgarligi past bo‘lgan o‘qituvchilar ko‘proq alohida baholash yondashuviga murojaat qilgan. Bu esa ba’zi hollarda til ko‘nikmalari yaxshi bo‘lmagan, ammo fan mazmunini chuqur tushungan o‘quvchilarga nisbatan adolatli baho qo‘yilishiga yordam bergan bo‘lsa-da, til rivojlanishini ikkinchi planga surib qo‘ygan [17;93].

Dars kuzatuvlari shuni ko‘rsatdiki, baholash vositalarining turfa xil va aniq mezonlarga ega bo‘lishi o‘quvchilarning CLIL jarayonidagi ishtirokini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, o‘qituvchilar til kompetensiyasi uchun alohida rubrikalar, fan mazmuni uchun esa boshqa mezonlar ishlab chiqqanda, o‘quvchilar topshiriqning har ikki jihatiga ham e’tibor berishga intiladi [19;142].

Bundan tashqari, tajribali o‘qituvchilar baholash vositalarini ishlab chiqishda ona tilidan strategik foydalanish metodini ham integratsiyalagan. Bu, ayniqsa, murakkab terminologiya va tushunchalarni o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qilgan [22;189].

Shunday qilib, CLIL baholash amaliyotida vositalarning sifati va o‘qituvchi kompetensiyasi o‘zaro mustahkam bog‘liq bo‘lib, samarali natijaga erishish uchun ular bir-birini to‘ldiruvchi omillar sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqot natijalari asosida O‘zbekiston umumta’lim maktablarida CLIL baholash amaliyotini takomillashtirish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Baholash mezonlarini standartlashtirish. Davlat ta’lim standartlari (DTS) va CLIL metodikasi talablariga mos ravishda, til va mazmunni baholash uchun yagona mezonlar ishlab chiqish zarur. Bu mezonlarda integrallashgan baholash va alohida baholash yondashuvlarining har ikkisini qo‘llash imkoniyati ko‘zda tutilishi lozim [17;93].

2. O‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari. Baholash savodxonligini oshirishga qaratilgan maxsus treninglar tashkil etish lozim. Treninglar davomida o‘qituvchilarga Systemic Functional Linguistics asosidagi baholash modellari, rubrikalar yaratish, til va mazmun ulushini belgilash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar berilishi kerak [12;314].

3. Mahalliy sharoitga mos baholash vositalari ishlab chiqish. O‘zbekiston maktablarida qo‘llanilayotgan “Guess What!” va “Prepare” darsliklari asosida CLIL baholashga moslashtirilgan topshiriqlar to‘plamlari yaratish va ularni amaliyotda sinovdan o‘tkazish zarur. Bu vositalar turli fanlar bo‘yicha til integratsiyasini qo‘llab-quvvatlashi lozim [19;142].

4. Ona tilidan strategik foydalanishni rag‘batlantirish. Murakkab ilmiy kontseptlar va terminlarni tushuntirish jarayonida ona tilidan qisqa izohlar berish o‘quvchilarning umumiy natijalarini oshirishini inobatga olib, bu yondashuvni metodik tavsiyalarga kiritish maqsadga muvofiqdir [22;189].

5. Baholash jarayonida differensial yondashuv. O‘quvchilarning til darajasi va fanga oid tayyorgarligi turlicha bo‘lganligi sababli, baholash vositalarini differensiallashtirish zarur. Masalan, bir xil mazmunni oddiy va murakkab til darajasida ifodalash imkonini

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

beruvchi topshiriqlar tayyorlash o‘quvchining real salohiyatini aniqroq namoyon etadi [11;69].

6. Monitoring va tahlil tizimini yaratish. CLIL baholash natijalarini muntazam yig‘ib, tahlil qilib borish orqali samaradorlik darajasini aniqlash va kerakli o‘zgarishlarni kiritish mumkin. Bunda statistik tahlil bilan bir qatorda o‘qituvchi va o‘quvchilar fikr-mulohazalari ham inobatga olinishi lozim [18;64]. Mazkur tavsiyalar CLIL baholash tizimini mahalliy ta’lim kontekstiga moslashtirish va uning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston umumta’lim maktablarida CLIL yondashuvi doirasida o‘quv natijalarini baholash va o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, baholash amaliyotida til va mazmun o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Tadqiqotda aniqlanganidek, o‘qituvchilar ko‘pincha alohida baholash yondashuviga murojaat qiladilar, bu esa fan mazmunini adolatli baholashga yordam beradi, biroq til rivojlanishini ikkinchi planga surib qo‘yadi. Integrallashgan baholash esa kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi, ammo baholash mezonlarini aniqlashtirish va o‘qituvchilarning baholash savodxonligini oshirishni talab qiladi.

Xalqaro tajriba bilan solishtirish shuni ko‘rsatdiki, CLIL baholashning muvaffaqiyati o‘qituvchi kompetensiyasi, baholash vositalarining sifati va ularning mahalliy ta’lim tizimiga moslashtirilishiga bevosita bog‘liqdir. Ona tilidan strategik foydalanish, funktsional til modeli asosida baholash, differensial yondashuv va standartlashtirilgan mezonlar tizimi CLIL baholash samaradorligini oshiruvchi muhim omillar sifatida qayd etildi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, O‘zbekistonda CLIL baholash tizimini takomillashtirish uchun milliy ta’lim standartlariga mos mezonlar ishlab chiqish, o‘qituvchilar uchun maxsus metodik treninglar tashkil etish, baholash vositalarini darsliklar asosida moslashtirish va muntazam monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi. Ushbu chora-tadbirlar CLIL amaliyotini yanada samarali qilishi va o‘quvchilarning ham fanga oid, ham chet tilidagi kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Marsh, D. (2002). Content and Language Integrated Learning: The European Dimension. University of Jyväskylä.
2. Mehisto, P., Marsh, D., & Frigols, M. J. (2008). Uncovering CLIL: Content and Language Integrated Learning in Bilingual and Multilingual Education. Macmillan.
3. Otto, A. (2018). Assessment in CLIL Classrooms: Towards a Framework for Language and Content Integration. CLIL Journal, 6(2), 305–322.
4. Lo, Y. Y., & Leung, C. (2022). Language Assessment in Content-Based Instruction. Springer.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

5. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press.
6. Marsh, D., & Frigols, M. J. (2012). The Teacher's Guide to CLIL. University of Córdoba Press.
7. Cenoz, J., & Gorter, D. (2017). Translanguaging in CLIL: Beyond the Monolingual Approach. TESOL Quarterly, 51(1), 181–206.
8. PQ–226-son qaror, 2022-yil 19-may. "Chet tillarini o'qitish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2023). Ingliz tilini o'qitishni rivojlantirish konsepsiyasi 2030.
10. Wigglesworth, G., & Frost, K. (2017). Assessing Bilinguals: Language and Content in CLIL Contexts. Language Testing Journal, 34(3), 311–328.
11. Dalton-Puffer, C. (2011). Content-and-Language Integrated Learning: From Practice to Principles. Annual Review of Applied Linguistics, 31, 182–204.
12. Morton, T. (2020). Integrating Language and Content in CLIL: A Practical Guide for Teachers. Oxford University Press.
13. Llinares, A., Morton, T., & Whittaker, R. (2012). The Roles of Language in CLIL. Cambridge University Press.
14. Eurydice. (2017). Key Data on Teaching Languages at School in Europe. Education, Audiovisual and Culture Executive Agency.
15. Hammond, J., & Gibbons, P. (2005). Putting Scaffolding to Work in the Classroom. English Teaching: Practice and Critique, 4(1), 8–24.
16. Lyster, R. (2007). Learning and Teaching Languages Through Content: A Counterbalanced Approach. John Benjamins.
17. Nikula, T., & Dafouz, E. (2016). Integrating Content and Language in Higher Education: An Introduction to English-Medium Policies, Methodologies and Research. AILA Review, 29, 1–12.
18. Goris, J., & De Graaff, R. (2015). Assessment of Content and Language Integrated Learning: A Review. Language Learning Journal, 43(3), 318–331.
19. Stoller, F. L. (2008). Content-Based Instruction. In N. Van Deusen-Scholl & N. Hornberger (Eds.), Encyclopedia of Language and Education (pp. 59–70). Springer.
20. Ruiz de Zarobe, Y. (2013). CLIL Implementation: From Policy-Makers to Individual Initiatives. International Journal of Bilingual Education and Bilingualism, 16(3), 231–243.
21. Ball, P., Kelly, K., & Clegg, J. (2015). Putting CLIL into Practice. Oxford University Press.
22. García, O., & Wei, L. (2014). Translanguaging: Language, Bilingualism and Education. Palgrave Macmillan.

**MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]**

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

✉**Tursunaliyeva Muattar Alisher qizi**, o'qituvchi [**Турсуналиева Муаттар Алишеровна**, преподаватель], [**Tursunaliyeva A.Muattar** teacher,]; manzil: 110300, Toshkent viloyati, OXONGORON, mikrorayon 2-son, [адрес: 110300, Ташкентская область, Ахангаран, микр-н 2-й], [address: 110300, Tashkent region, Akhangaran, micr-n 2nd]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# MAVLIDXONLIK VA MADHIYA AN'ANALARI

© S.O`. Tojiboyev [1]✉

[1]Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** Islom sivilizatsiyasida Payg'ambar (s.a.v.) shaxsiga muhabbat hilya, siyrat, shamoil, mavlid va madhiya kabi janrlarni vujudga keltirdi. Turkiston muhitida mavlidxonlik jamoaviy ruhni kuchaytiruvchi va ma'rifiy vazifani bajaruvchi amaliyot sifatida shakllandi.

**MAQSAD:** mavlidxonlik va madhiyachilikning kelib chiqishi, tarqalishi, matn-ijro kompozitsiyasi va zamonaviy ko'rinishlarini tizimli tahlil qilish; umumiy va farqli jihatlarni hamda NMM doirasidagi ahamiyatini aniqlash.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tarixiy manbalar, davriy matbuot va marosimiy amaliyotlar kontent-tahlili; mavlid/na't matnlarining kompozitsion-poetik tahlili; 27 mavlid (6 zozacha, 1 arabcha, 20 kurdcha) namunalarini solishtirma o'rganish.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** fotimiylar muhitidan boshlab (X–XII asrlar) sunniy makonga kengayish (Erbil, Muzaffar ad-Din Ko'kbo'riy) va Usmoniylar davrida rasmiylashuv; "Bid'at" haqidagi bahslar fonida mavlidning muhabbat ifodasi sifatida joizligi haqidagi qarashlarning ustuvorligi; Mavlid kompozitsiyasi: hamd–salovot–nasab–tug'ilish–mo'jizalar–ibratlar–duo; turkiy muhitda S. Chalabiy, mintaqada Barzanji hamda Xilvatiy an'analari; Tashkentdagi "Aruz" ziyofatlari, xayriya amaliyoti va jadid matbuotidagi talqinlar; Post-sovet davrida tiklanish, XXI asrda raqamli tarqalish.

**XULOSA:** mavlidxonlik va madhiyachilik diniy qadriyatlarga hurmatni, jamoaviy birdamlikni va axloqiy tarbiyani mustahkamlaydi; ular bugun ham nomoddiy madaniy merosning muhim bo'lagi bo'lib qolmoqda.

**Kalit so'zlar:** mavlid, mavlidxonlik, madhiya, na't, diniy an'ana, Markaziy Osiyo, nomoddiy madaniy meros.

**Iqtibos uchun**: Tojiboyev S.O`. Mavlidxonlik va madhiya an'analari.// Inter education & global study. 2025. vol.3 №8. B.273–281.

## ТРАДИЦИИ МАВЛИДХАНСТВА И ГИМНА

© С.У. Тожибоев[1]✉

[1] Научно-исследовательский институт культурологии и нематериального культурного наследия, Ташкент, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** любовь к Пророку (с.а.в.) сформировала жанры хилья, сират, шамоиль, маулид и мадхия; в Туркестане практика маулидханства выполняла объединяющую и воспитательную функции.

**ЦЕЛЬ:** системно описать историческое развитие и исполнительские практики маулида/мадхии; выявить сходства и различия; оценить значимость в контексте НКН.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** источниковедческий и контент-анализ историко-периодических материалов; композиционно-поэтический разбор текстов маулида и наата; сопоставительное изучение практик; корпус из 27 маулидов (6 — зоза, 1 — араб., 20 — курд.).

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** от фатимидской среды к суннитской популяризации (Эрбиль, XII в., Музаффар ад-Дин Кукбури) и османской канонизации; Нормативный дискурс: при критике как «бида’» широко принят как выражение любви к Пророку; Канон текста и исполнения (хамд–салават–родословие–рождение–чудеса–нравоучение–дуа); влияние Челеби; региональные чтения Барзанжи и «Мавлуди шариф» Хилватий; Локальные формы (традиция «Аруз»), благотворительность и освещение в прессе; Постсоветское возрождение и цифровая медиатизация.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** маулидханство и мадхия укрепляют социальную солидарность и нравственные ориентиры; их сохранение важно для политики охраны НКН.

**Ключевые слова:** маулид, маулидханство, мадхия, наат, религиозная традиция, Центральная Азия, нематериальное культурное наследие.

**Для цитирования**: Тожибоев.С.У. Традиции мавлидханства и гимна.// Inter education & global study.2025. vol.3 №8. С.273–281.

## TRADITIONS OF MAVLID KHANAT AND ANTHEM

© Sardor.O`. Tojiboyev[1]✉
[1]Scientific Research Institute of Cultural Studies and Intangible Cultural Heritage, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** devotion to the Prophet generated genres such as hilya, sīra, shamāʾil, Mawlid, and madḥiya. In Turkestan, Mawlid recitation functioned as communal and pedagogical practice.

**AIM:** to systematize historical development and performance practices of Mawlid/madḥiya, identify overlaps and differences, and assess their ICH significance.

**MATERIALS AND METHODS:** source and content-analysis of historical/periodical materials; compositional–poetic reading of Mawlid/naʿt texts; comparative review of ritual practice. Corpus: 27 Mawlid items (6 Zaza, 1 Arabic, 20 Kurdish).

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**DISCUSSION AND RESULTS:** from Fatimid origins to Sunni popularization (Erbil, 12th c., Muzaffar al-Dīn Kökböri) and Ottoman ceremonialization; Normative debate: despite bidʿa critiques, widely permitted as love for the Prophet; Canonical sequence (ḥamd–ṣalawāt–lineage–birth–miracles–ethical counsel–duʿāʾ); influence of Süleyman Çelebi; regional readings of Barzanji and Khilvatī; Local forms (Tashkent "Aruz" feasts), charity and press coverage; Post-Soviet revival and 21st-century digitization.

**CONCLUSION:** mawlid recitation and madḥiya consolidate communal cohesion and moral education; they remain vital strands of ICH.

**Keywords:** mawlid, Mawlid recitation, madḥiya, naʿt, religious tradition, Central Asia, intangible cultural heritage.

**For citation**: Sardor O`. Tojiboyev. (2025) 'Traditions of mavlid khanat and anthem', Inter education & global study, vol.3 (8), pp.273–281. (In Uzbek).

Islom davlatining barpo etilishi va rivojlanishi musulmon jamiyatlarining ma'naviy-ma'rifiy hayotida katta burilish yasadi. Insonning ma'naviy va estetik ehtiyojlari tufayli turli san'at turlari shakllanib, islomiy muhit ta'sirida boyidi. Bu jarayonda Hazrati Payg'ambar (s.a.v.)ga bo'lgan muhabbat va ulug'vor shaxsiyati islom adabiyoti hamda san'atining asosiy ilhom manbai sifatida namoyon bo'ldi. Shu asosda hilya, siyrat, shamoil, madhiya va mavlid kabi janrlar vujudga keldi.

Ilk namunasi X asrdan ma'lum bo'lgan mavlidlar musulmon jamiyatlarida katta qiziqish uyg'otgan va ko'plab tillarda yaratilib, avloddan-avlodga meros sifatida yetib kelgan. Mamlakatimizda ham ular keng targ'ib etilgan bo'lib, ba'zan diniy jihatdan bahslarga sabab bo'lsa-da, xalq orasida haqiqiy ma'naviy an'ana sifatida yashab kelmoqda. Xususan, Turkistonda mahorati baland, go'zal ovozli mavlidxonlar katta e'tibor va hurmatga sazovor bo'lgan, ba'zan esa imom-xatiblarning nufuzi ularning diniy bilimidan ko'ra mavlidxonlik mahorati bilan baholangan hollar ham qayd etilgan[1].

Mavlid mavzusi turli fan yo'nalishlarida tadqiq etilib, ilmiy ishlar, konferensiyalar va nashrlar orqali yoritib kelinmoqda. Biroq hali ham xalq orasida ijro etilayotgan ayrim namuna va meroslar ilmiy jihatdan to'liq o'rganilmagan. Ushbu dissertatsiya doirasida olib borilgan izlanishlarda yigirma yetti mavlid aniqlandi: ularning oltitasi zozacha, biri arabcha va yigirmasi kurdchadir. Bu asarlarning matn va ijro xususiyatlari tahlil qilindi hamda ilmiy iste'molga kiritildi.

Musulmon xalqlar ma'naviy hayotida mavlidxonlik va madhiyachilik an'analari diniy-ma'rifiy g'oyalarni targ'ib etish, jamoaviy ruhni mustahkamlash va axloqiy tarbiyani kuchaytirishda muhim o'rin tutadi.

Mavlid (arab. *maulud* – "tug'ilish") Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning tavalludi munosabati bilan o'tkaziladigan diniy-ma'naviy marosimiy an'anadir[2]. Hazrati Payg'ambar (s.a.v.) 571-yil Rabiul-avval oyining 12-kuni Makkada dunyoga kelgan bo'lib, ushbu sana islom olamida asrlar davomida ulug'lanib keladi.

Mavlid bayrami dastlab sahoba va avvalgi islom avlodlari tomonidan

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

nishonlanmagan. Ilk marotaba u Fotimiylar davlatida (909–1171) Misrda rasmiylashgan bo‘lib, avvaliga faqat davlat amaldorlari ishtirokida o‘tkazilgan. Keyinchalik Ali ibn Abu Tolib va Fotima (r.a.)ning tavallud kunlari ham nishonlandi. Sunniy muhitda esa mavlid 1207-yildan ommaviy ravishda nishonlana boshlab, bu tashabbus Salohiddin Ayubiy davrida Erbil hokimi Malik Muzaffar ad-Din Ko‘kbo‘riy tomonidan amalga oshirildi[3]. Keyinchalik u Makka, Madina va musulmon dunyosidagi ko‘plab hududlarda keng tarqaldi.

Mavlid davlat miqyosida rasmiy bayram sifatida ilk bor Usmoniylar davrida, sulton Murat III hukmronligida (1588-y.) joriy etildi[4].

Tarixiy manbalarda ayrim ulamolar mavlidni “bid’at” sifatida baholagan bo‘lsa-da, ko‘pchilik ulamolar uni Payg‘ambar (s.a.v.)ga bo‘lgan muhabbat ifodasi sifatida joiz deb topishgan. Bu fikrga asos sifatida: *“Men sizlar uchun otalaringizdan, farzandlaringizdan va barcha odamlardan ham azizroq bo‘lmaguncha, imon keltirgan bo‘lmaysizlar”[5]* mazmunli hadis keltirilgan. Demak, islom ta’limotiga zid bo‘lmagan holda o‘tkazilgan mavlid marosimlari joiz, deb qaralgan.

Qaysi yo‘nalishda baholanishidan qat’i nazar, mavlid asrlar davomida musulmon xalqlari orasida ommaviy an’ana sifatida saqlanib kelmoqda. Bu marosimlarda duolar o‘qilgan, bayramiy yig‘inlar o‘tkazilgan, she’riy va musiqiy uslubda Payg‘ambar (s.a.v.) tavalludiga oid voqealar so‘zlab berilgan.

Islom davlatining barpo etilishi va taraqqiyoti musulmonlarning ma’naviy-mədniy hayotida yangi bosqichni boshlab berdi. Insonning ichki go‘zallikka intilishi turli san’at turlarini vujudga keltirdi, ular esa ijtimoiy muhit ta’sirida takomil topdi. Hazrati Payg‘ambarga bo‘lgan muhabbat va ehtirom islomiy adabiyot va san’atning asosiy ilhom manbaiga aylandi. Adabiy merosda “Hilya”, “Muhammadiya”, “Siyrat”, “Shafoatnoma”, “Shamoil” va “Mavlid” kabi asarlar Payg‘ambar (s.a.v.) hayoti va fazilatlarini ulug‘lashga qaratilgan.

Mavlid janrining ilk namunalari X asrdan ma’lum bo‘lib, musulmon jamoalarida katta qiziqish bilan qabul qilingan va turli tillarda yaratilgan. Turkistonda go‘zal ovozli mavlidxonlar katta hurmatga sazovor bo‘lib, ba’zi hollarda imom-xatiblar diniy bilimiga emas, balki mavlid o‘qish mahoratiga qarab baholangani haqida ma’lumotlar uchraydi.

Mavlid marosimlari islom olamining turli mintaqalarida Rabi’ ul-avval oyining 12-kuni nishonlanib, Qur’oni karim tilovati, duo va madhiyalar bilan boyitilgan. Marosimda maxsus tarzda yaratilgan “Mavlud an-nabiy” qasidasi qiroat qilingan. Ayollar mavlidni ko‘proq yakka holda yoki kichik guruhlarda, erkaklar esa asosan jamoa tarzida ijro etganlar. Mavlidxonlik Payg‘ambar (s.a.v.)ning hayoti va ibratli fazilatlarini ulug‘lash, shu orqali jamoani ma’naviy tarbiyalash vazifasini bajargan[6]. Shu jihatdan, u islomiy marosim musiqasi tizimida diniy-ma’rifiy hamda madaniy-ma’naviy ahamiyat kasb etadi.

Mavlid marosimlari dastlab Fotimiylar davlatida (297/909 – 567/1171) paydo bo‘lib, keyinchalik Ayubiylar davrida ommaviy bayram sifatida shakllandi. XII asrda Malik Muzaffar ad-Din Ko‘kbo‘riy tashabbusi bilan sunniy muhitda keng targ‘ib etildi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Keyinchalik Usmoniylar sulolasi davrida davlat darajasida nishonlanadigan rasmiy bayramga aylandi. Shu bilan birga, ayrim ulamolar mavlidni bid'at sifatida baholagan bo'lsalar, ko'pchilik olimlar uni Payg'ambarga muhabbat ifodasi sifatida joiz deb qabul qilgan.

Markaziy Osiyoda XIX–XX asrlarda mavlidxonlik keng tarqaldi va ijtimoiy-ma'naviy hayotning ajralmas qismiga aylandi. Marosimlarda Qur'on tilovati bilan birga she'riy va nasriy matnlar qiroat qilinib, Payg'ambar va sahobalar hayoti hamda axloqiy ibratlar targ'ib etildi[7]. Mavlidxonlar jamoat oldida ma'naviy mas'uliyatni zimmasiga olib, marosim ahlini ruhiy quvvat va ta'sirli madaniy tajriba bilan ta'minladilar.

Mavlid matnlari, odatda, muayyan kompozitsiyaga ega bo'lib, "hamd" (Allohga hamd), "salovot" (Payg'ambarga durud), nasab rivoyati, tug'ilish voqeasi va mo'jizot, axloqiy ibratlar hamda duo qismlaridan tashkil topadi. Turkiy muhitda Sulaymon Chalabiyning "Vasilatun-najot" asari klassik namuna sifatida asrlar davomida qiroat qilib kelingan. Arab muhitida esa Ali al-Habshiyning "Simt ad-Durar" va Abdurrahmon ad-Dayboiyning mavlid matnlari keng tarqalgan.

Madhiya (na't) janri esa mavlid marosimlari bilan chegaralanmay, devon poeziyasining muhim qismi sifatida Payg'ambarga muhabbat va shafoat umidini ifoda etadi. Unda sunnatga ergashish g'oyalari, husnulashtirish, istiora, mubolag'a va tavassul kabi badeiy vositalar yordamida bayon etiladi. Arab adabiyotida al-Busiriyning "Qasidat al-Burda" asari bu janrning yuksak namunasi hisoblansa, chig'atoy-o'zbek adabiyotida na'tlar devon va masnaviylarda muhim o'rin egallab, Alisher Navoiy ijodida yuksak badiiy va ma'naviy mazmun bilan namoyon bo'lgan.

Mavlid marosimlarining shakllanishi o'rta asrlardagi diniy-ijtimoiy muhit va so'fiylik an'analari bilan uzviy bog'liq bo'lib, sunniy muhitda u odatda Qur'on tilovati, zikr, madhiy qo'shiqlar va ehson tartibi bilan uyg'un holda o'tgan. Ayniqsa, so'fiylik muhitida "Daloyil al-xayrot" kabi asarlarning ommaviy qiroati keng tarqalgani, hatto bu maqsadda maxsus "dalaoilxona"lar mavjud bo'lgani manbalarda qayd etilgan.

Markaziy Osiyoda mazkur an'ana ko'proq "Mavlud o'qitish" nomi bilan mashhur bo'lib, bu marosimlarda imom Ja'far Barzanjiyning "Mavlidun Nabiy" asari hamda Xilvatiyning[8] eski o'zbek yozuvi (arab imlosi)da bitilgan "Mavludi sharifi turkiy" asarlari o'qilgan. Bu tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsad mo'min-musulmonlarga Payg'ambar Muhammad Mustafo (s.a.v.)ning muborak hayotlari, tug'ilgan yillari va hayotiy ibratlari haqida ma'lumot berish, u Zotga bo'lgan muhabbat va sadoqatni yanada mustahkamlashdan iborat edi.

"Mavludi sharif" odatda Allohga hamd va Rasulullоh (s.a.v.)ga bag'ishlangan na't bilan boshlanib, so'ng mavlud o'qish va uning fazilatlari haqida fikr yuritiladi. Masalan, asarda quyidagicha ifoda etilgan:

Mavlud o'qimoq xosiyatlari
Garchi fosiq erdimu ro'yi siyoh,
Mubtaloyi fisku isyonu gunoh.
Qobiliyatdin asar ham yo'q edi,


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Fahmu donishdin xabar ham yo‘q edi.
Bir kuni piri hidoyat dastgoh,
Tolibi diydoru shaydoyi Iloh.
Shafqat aylab dedilarkim: “Ey falon,
Sanga bergumdur saodatdin nishon:
Ilginga olg‘il davotu xomani,
Qil kitobat bul saodatnomani.
Ya’ni mavludi Nabiyni nazm qil,
Ko‘yi ummatlikka emdi azm qil.
Kimki ummat bo‘lsa oni o‘qisun,
Toki bordur tanda joni, o‘qisun”[9].

Ya’ni, mavludi Nabiyni nazm qilish va uni ummat sifatida o‘qish taklif etiladi. Mavludni o‘qish musulmonning Payg‘ambar (s.a.v.)ga bo‘lgan muhabbati va ummatlik vazifasini ifodalaydi. Shuningdek, asarlarda olam yaratilmasidan oldin Muhammad (s.a.v.)ning Nuri zuhur etgani, butun koinot shu nur tufayli yaratilgani va u nurning tasbeh hamda takbir aytgani haqida ta’riflar uchraydi. Bu misralarda hatto gunohkor, ma’rifatdan uzoq inson ham mavlud o‘qish orqali mag‘firatga sazovor bo‘lishi mumkinligi ta’kidlanadi. Shu orqali mavlud marosimlari diniy ma’rifiy vazifani bajarib, keng jamoatchilik orasida ma’naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida ham xizmat qilgan.

Matbuot manbalaridan ma’lum bo‘lishicha, mahalliy musulmonlar hijriy taqvimning rabiul avval oyi 12-kuni “Mavlidun-nabiy” – Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning tug‘ilgan kunini nishonlab kelganlar. Bu borada “Al-isloh” jurnali tahririyatiga Abdul G‘ani qori tomonidan yuborilgan savol[10] (“Mavlidun-nabiy kunida yig‘ilish, dasturxon yozish, xayr-ehson va sadaqa tarqatish shariatga muvofiqmi?”)ga jurnal tahririyati “bunday yig‘ilishlar bid’ati hasana bo‘lib, xayr-ehson va sadaqa savobli amaldir” degan javobni bergan. Javobda “Fatavoi Komiliya” asariga tayanilgan bo‘lib, mazkur kunda Qur’on tilovati, xayr-ehson va sadaqa kabi amallar qilish tavsiya etilgan. Jadid matbuotida esa “bu diniy, tarixiy va milliy kun” sifatida ta’riflanib[11], musulmon jamoalar ushbu kunni muqaddas bayramlar qatorida nishonlashga chorlangan[12].

Mavlud marosimlarida na’t va qasidalar o‘qilishi, Navoiy, Fuzuliy kabi mumtoz shoirlar asarlaridan namuna keltirilishi keng tarqalgan[13]. Xususan, namanganlik ulamo Azizxo‘ja eshon madrasasining mudarrisi Xilvatiyning “Mavludi sharif” asari katta shuhrat qozongan. Bu asar Toshkentda 1908, 1911, 1912 va 1916 yillarda qayta-qayta nashr qilingani ham uning omma orasida keng o‘qilganidan dalolat beradi. Asarda Payg‘ambar (s.a.v.)ning hayoti, salavot va duolar mujassam bo‘lib[14], u xalqning diniy-ma’naviy ehtiyojini qondirishga xizmat qilgan.

Shuningdek, Toshkent shahrida “Mavlidun-nabiy” munosabati bilan “Aruz” deb atalgan an’ana mavjud bo‘lgan. Unga ko‘ra, eshonlar o‘z murid va izdoshlarini ziyofatga chaqirib, dasturxon yozganlar. Keyinchalik bu odat ommalashib, ishonlar xalqqa milliy taom, ya’ni osh tarqatganlar. XIX asr oxirlarida Toshkentda bir vaqtning o‘zida bir nechta eshonlar “Aruz” dasturxonlari uyushtirgani qayd etilgan. Xususan, 1893 yilda Hazrat

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Miyon Solih, Hazrat Miyon Fazliy, Hazrat Miyon G‘ofur kabi eshonlar ushbu marosimni o‘tkazganlar.

Turkiston davriy matbuoti nashrlarida musulmon aholining islomiy bayramlarni intizorlik bilan kutgani[15] va shodlik ila nishonlagani yoritib borilgan[16]. Shu bilan birga, ayrim maqolalarda muqaddas kunlarga nisbatan e’tiborsizlik tanqid qilingan. Masalan, “Mavlid an-nabiy”ning xalq orasida asta-sekin unutilayotgani, asosan ilmli ulamolar tomonidangina nishonlanayotgani ta’kidlangan. Shuningdek, juma kunlarida ibodat va ziyoratga bo‘lgan qiziqish pasayib borayotgani tanqid qilingan hamda ulamolarning juma xutbalari orqali jamoatni ma’naviy tarbiya qilish zarurligi aytib o‘tilgan[17].

“Daloyil al-xayrot” kabi Payg‘ambarga bag‘ishlangan salavot to‘plamlari asrlar davomida islom olamining turli hududlarida qiroat qilinib, arab, fors va turkiy muhitlarda diniy-ruhiy, ma’naviy-ma’rifiy hamda ijtimoiy birlashtiruvchi vazifani bajargan. Madhiy qiroat (madīḥ nabawī) janri musiqiy va ifodaviy jihatdan ham tadqiqot ob’ekti bo‘lib, solist-xor ijrosi, doira va maqom an’analari asosida marosimiy muhitni shakllantirgan.

Post-sovet davrida Markaziy Osiyoda diniy amaliyotlarning tiklanishi bilan birga mavlid va madhiya qiroatlari ham ommalashdi. Bu holat ijtimoiy fanlarda “islomiy qayta tiklanish” jarayoni doirasida tahlil qilingan. XXI asrga kelib esa ushbu janrlar raqamli muhitga ko‘chib, striminglar, videoqiroatlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali yangi auditoriya va taqdimot shakllariga ega bo‘lmoqda[18].

Madhiyachilik asosan Payg‘ambar va ulug‘ avliyolarni ulug‘lash, ularning hayoti va ma’naviy faoliyatini madh etishga qaratilgan she’riy hamda musiqiy ijod turi sifatida namoyon bo‘ladi. Madhiyalarda Payg‘ambarga muhabbat, din va vatanga sadoqat, axloqiy poklik mavzulari yetakchi o‘rin tutgan. Ularning she’riy matn va ohang uyg‘unligida ijro etilishi diniy marosimlar, to‘ylar, hasharlar va ommaviy yig‘ilishlarda xalq ma’naviy tarbiyasiga xizmat qilgan. Madhiyachilarning samimiy va ohangdor ijrosi keng jamoat ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

Mavlidxonlik va madhiyachilik umumiy va farqli jihatlarga ega. Ularning umumiy tomoni – diniy-ma’rifiy g‘oyalarni targ‘ib etish, ma’naviyat va axloqiy tarbiyani mustahkamlashdir. Farqi shundaki, mavlidxonlik asosan marosimiy qiroat va Payg‘ambar tavallud ayyomi bilan bog‘liq an’analarga xos bo‘lsa, madhiyachilik badiiy-ijodiy yo‘nalish sifatida keng ijro imkoniyatlariga ega. Shu bois ayrim hollarda madhiyalar mavlid marosimlarining tarkibiy qismi sifatida ham o‘qilgan.

Xulosa qilib aytganda, bu an’analar asrlar davomida xalq ma’naviy merosining muhim qismini tashkil etib keldi. Ular jamoaviy hayotda hamjihatlikni mustahkamlash, diniy qadriyatlarga hurmat uyg‘otish va axloqiy odobni shakllantirishda katta ahamiyat kasb etgan. Shu bilan birga, mavlidxonlik va madhiyachilik san’atlari nomoddiy madaniy merosning muhim ko‘rinishlari sifatida bugungi kunda ham tadqiqotchilar va ijodkorlar diqqat markazida turibdi. Qo‘lyozma manbalar, mavlid va madhiya risolalari, xalq og‘zaki ijodi hamda zamonaviy audio-vizual materiallarning tahlili mazkur janrlarning tarixiy taraqqiyoti va ijtimoiy vazifalarini chuqurroq yoritish imkonini yaratadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Halil Can, “Dinî Mûsikî Ders Notları, Mevlid”, Mûsikî Mecmuası, İstanbul 1974, Yıl; 26, Nu. 292, s. 23.
2. А.Али-заде. Исламский энциклопедический словарь. Москва: «Ансар», 2007. С. 227 – 228. (400 с.)
3. Ahmet Özel, “Mevlid”, Türkiye Diyânet Vakfı İslam Ansiklopedisi, Ankara 2004, XXIX, 475.
4. Nuri Özcan, Türk Din Mûsikîsi Ders Notları, İstanbul 2001, s. 35.
5. (Имом Бухорий, Иймон, 8).
6. Имом Барзанжий. Мавлиди шариф / Масъул муҳаррир: Шайҳ Абдулазиз Мансур; таржимон: Н.Набижон ўғли. – Тошкент, 2023. – 144 б.
7. Йўлдош Хилватий. Мавлуди шариф: диний-маърифий нашр. – Тошкент, 2024. – 144 б.
8. Mulla Yo‘ldosh To‘raboy o‘g‘li Xilvatiy 1858-yili hozirgi Namangan viloyatining Uychi tumani Jiydakapa qishlog‘ida tug‘ilgan. Namangandagi Azizxo‘ja madrasasida mudarris va bosh mudarris sifatida faoliyat yuritgan. O‘zbek va fors-tojik tillarida ijod qilgan Xilvatiy she’rlarida Bedil, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy an’analarini davom ettirgan, ularga nazira, tatabbu’ va muxammaslar bog‘lagan.
9. Йўлдош Хилватий. Мавлуди шариф: диний-маърифий нашр. – Тошкент, 2024. – 14 – 17-бетлар. (144)
10. Abdul G‘ani qori. Savol- javob // “Al-isloh” jurnali. – 1915. – № 2. – B. 93-94.
11. A.M. Миллий ва тарихий икки кун // “Садои Туркистон” газетаси. 1915 йил 15 январ.
12. Рахимджанова Н.Қ. Туркистон даврий матбуотида ислом дини ва маърифатининг долзарб масалалари (XIX аср охири – XX аср бошлари) мавзусидаги т.ф.ф.д. (PhD) дисс.. – Тошкент, 2020, 49 – 51-бетлар. (189 б.)
13. Умархўжа М.Э. Диний атамалар ва иборалар. – Тошкент.: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2016. – Б. 55.
14. Мулла Йўлдош Тўрабой ўғли Хилватий. Мавлуди шариф. – Т.: “Akademnashr”. – 2024. – 256 б.
15. O‘lka Maorif komissariati huzuridagi Turk sho‘basidan “Malud un-Nabiy” xususida e’lon: [O‘lka maktablarida 1918 yilning 13 – 16 dekabr kunlari Mavlud bayrami (Payg‘ambarimiz Muhammad Mustafo Sollalllohu alayhi vassallamning tavallud kunlari) munosabati bilan o‘qishlar to‘xtalishi haqida] // “Ishtirokiyun” gazetasi. 1918 yil 4 dekabr; Mahkamai shar’iyada: [Toshkentda Mahkamai shar’iyaning rayosat hay’atining yangidan saylash uchun saylov majlisi bo‘lgan va unda mavlud bayramini zo‘r tantana bilan o‘tkazishga qaror qilingan] // “Turkiston” gazetasi. 1922 yil 14 oktabr.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

16. Ziyoboev Abdusami. E'lon: [1919 yil 4 dekabr payshanba kuni "Malud un-Nabiy" bayrami munosabati bilan hukumat va jamoat muassasalarida xizmat qilgan musulmonlarga bir kun ta'til berilishi to'g'risida] "Ishtirokiyun" gazetasi. 1919 yil 4 dekabr; Mavlud bayrami: [1922 yil 1 noyabr chorshanba kuni mavlud bayrami munosabati bilan Samarqandning Eski shaharida bo'lgan marosim to'g'risida] // "Turkiston" gazetasi. 1922 yil 24 noyabr.
17. Рахимджанова Н.Q. Туркистон даврий матбуотида ислом дини ва маърифатининг долзарб масалалари (XIX аср охири – XX аср бошлари) мавзусидаги т.ф.ф.д. (PhD) дисс.. – Тошкент, 2020. 52-бет. (189 б.)
18. https://www.youtube.com/watch?v=2itA7C760a0

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Tojiboyev Sardor O'ktam o'g'li**, katta ilmiy xodim [**Тожибоев Сардор Уктам угли** , старший научный сотрудник], [**Sardor O. Tojiboyev,** senior researcher]; manzil: Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 30-uy, [адрес: Г. Ташкент, Шайхантахурский район, ул. Навои, д. 30], [address: Tashkent, Shaikhantakhur district, Navoi St., 30.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

© G.M. Babajanova[1]✉

Annotatsiya

**KIRISH:** maqolada kichik maktab yoshining ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni va bolaning psixik rivojlanishidagi o‘ziga xos jihatlar tahlil qilinadi.

**MAQSAD:** tadqiqotning asosiy maqsadi – kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlarini aniqlash, ularning rivojlanishini o‘rganish va ta’lim jarayonida individual yondashuvni shakllantirishdir.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda D.B. Elkonin, L.S. Vigotskiy, J. Piaje kabi olimlarning nazariyalari, shuningdek pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, o‘quvchilarning anatomik-fiziologik va psixologik rivojlanishi bo‘yicha ilmiy ma’lumotlardan foydalanildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tahlillar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich maktab davri bolaning psixik va ijtimoiy rivojlanishi uchun eng muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda bola idrok, diqqat, xotira va tafakkur kabi jarayonlarni rivojlantiradi, ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini shakllantiradi. Tadqiqot natijalari o‘qituvchilar uchun o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish ta’lim samaradorligini oshirishini tasdiqlaydi.

**XULOSA:** boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlarini o‘rganish pedagogik amaliyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali bolalarning shaxsiy barkamolligi va ijtimoiy moslashuviga erishish mumkin.

**Kalit so‘zlar:** kichik maktab yoshi, psixologik xususiyatlar, motivatsiya, diqqat, xotira, tafakkur, ijtimoiy moslashuv.

**Iqtibos uchun**: Babajanova.G.M. Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlari. // Inter education & global study. 2025. vol.3 №8. B.282–287.

# ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

© Г.М. Бабажонова[1]✉

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** рассматривается проблема психологических особенностей детей младшего школьного возраста и их значение для обучения и воспитания.

**ЦЕЛЬ:** основная цель исследования – выявить психологические особенности младших школьников и определить их роль в формировании личности и успешной адаптации в образовательном процессе.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в исследовании использован анализ психолого-педагогической литературы (Д.Б. Эльконин, Л.С. Выготский, Ж. Пиаже и др.), а также современные данные о физиологическом и психологическом развитии детей.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** результаты показали, что младший школьный возраст является ключевым этапом психического и социального развития. В этот период формируются внимание, память, мышление, воображение, развивается речь, а также социальные навыки адаптации. Правильная организация учебного процесса с учетом этих особенностей способствует повышению эффективности обучения и воспитания.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** изучение психологических особенностей детей младшего школьного возраста имеет важное значение для педагогической практики. Это позволяет направлять учебный процесс с учетом индивидуальных характеристик и формировать гармонично развитую личность.

**Ключевые слова:** младший школьный возраст, психологические особенности, мотивация, внимание, память, социальная адаптация, мышление.

**Для цитирования**: Бабажонова.Г.М. Психологические особенности детей младшего школьного возраста.// Inter education & global study.2025. vol.3 №8. С. 282–287.

## PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PRIMARY SCHOOL AGE CHILDREN

© Gulmira.M. Babajanova[1]✉

Annotation

**INTRODUCTION:** the article examines the importance of the psychological characteristics of younger schoolchildren in education and upbringing.

**AIM:** the main objective of the study is to identify the psychological features of primary school children and analyze their significance in personal development and adaptation within the learning process.

**MATERIALS AND METHODS:** the study is based on the analysis of psychological and pedagogical literature (D.B. Elkonin, L.S. Vygotsky, J. Piaget, etc.) as well as data on the anatomical, physiological, and psychological development of children.

**DISCUSSION AND RESULTS:** findings demonstrate that primary school age is a critical stage of psychological and social development. At this stage, attention, memory, thinking, imagination, and speech develop intensively, while social adaptation skills are also formed. Properly structured teaching that considers these features significantly enhances the effectiveness of the educational process.

**CONCLUSION:** investigating the psychological characteristics of children of primary school age is vital in educational psychology and pedagogical practice. It allows teachers to direct the learning process effectively, fostering the holistic development of the child and ensuring better social adaptation.

**Keywords:** primary school age, psychological characteristics, motivation, attention, memory, thinking, social adaptation.


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**For citation**: Gulmira M. Babajanova. (2025) 'Psychological characteristics of primary school age children', Inter education & global study, vol.3 (8), pp.282–287. (In Uzbek).

**P**sixologiyada - bolalar va pedagogikada asosiy o'rinlardan birini boshlang'ich maktab o'quvchilarining psixologik xususiyatlari muammosi egallaydi. Kichik maktab yoshi bolaning psixik rivojlanishida o'ta muhim davr hisoblanadi. Bu bosqichda bola o'quv faoliyatiga kirishadi, bilim olishga bo'lgan motivlari shakllanadi, ijtimoiy munosabatlari kengayadi va shaxsiy sifatlari barqarorlashib boradi. Shu bois, mazkur davrda bolaning psixologik xususiyatlarini o'rganish ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri yo'naltirish, individual yondashuvni qo'llash va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlarini bilish o'quv va tarbiya ishlarini to'g'ri qurish imkonini beradi. Shuning uchun har bir kishi bu xususiyatlarni bilishi va ularni ishda va boshlang'ich sinf bolalari bilan muloqotda hisobga olishi kerak.[ 4. ]

Kichik maktab davri 6-7 yoshdan 9-10 yoshgacha davom etadi. Uning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri, unda o'ziga xos ehtiyoj laming mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o 'z mohiyatiga ko'ra faqat muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilmay, balki o'quvchilik istagini aks ettirishdan ham iboratdir. [1.]

Kichik maktab maktab yoshi – boshlang'ich maktabning 1-4 sinflarida o'qiydigan 7-11 yoshli bolalar hisoblanib ushbu yosh chegaralari va uning psixologik xususiyatlari qabul qilingan psixologik yosh davriyligi bilan belgilanadi (D.B.Elkonin, L.S.Vigotskiy). Hozirgi vaqtda bolaning turli davrlarda aqliy rivojlanishining to'liq tasvirini beradigan yagona nazariya mavjud emas, shuning uchun boshlang'ich maktab yoshining davriyligiga ta'sir qiluvchi bir nechta nazariyalarni ko'rib chiqish mumkin. Maktabda ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil qilishda kichik maktab yoshidagi bolalaming anatomik-fiziologik xususiyatlarini, jismoniy rivojlanish darajasini, sog'ligi va qolaversa nuqsonlarini hisobga olish o 'qishning muvaffaqiyat garovidir. Boshlang'ich sinf o 'quvchisi biologik jihatdan nisbatan bir tekis taraqqiy etadi, uning bo'yi va og'irligi, o'pkasining hajmi mutanosib rivojlanadi. Biroq o'quvchining suyak tizimi (ko'krak qafasi, tos, qo'l suyaklari), umurtqa pog'onasida hali tog'aysimon to'qimalar uchraydi, bu esa mazkur tizimning yetzirli darajada takomillashib bo'lmaganligidan darak beradi. Yurak muskullari ularda tez olsadi, qon tomirlarining diametri sal kattaroq bo'ladi, miyaning oglirligi boshlang'ich sinflarda 1250-1400 grammni tashkil etadi.

L.S. Vigotskiy bolaning aqliy rivojlanishini davrlashtirishni etakchi faoliyat kontseptsiyasiga asosladi. Aqliy rivojlanishning har bir bosqichida etakchi faoliyat hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bilan birga, boshqa faoliyat turlari yo'qolmaydi - ular mavjud, lekin ular parallel ravishda mavjud va aqliy rivojlanish uchun asosiylari emas.

Z. Freyd o'zining psixoanalitik nazariyasida shaxsning rivojlanishini biologik

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

omillarning ta’siri va erta oilaviy muloqot tajribasi bilan izohladi. Bolalar aqliy rivojlanishining 5 bosqichidan o‘tadi, har bir bosqichda bolaning qiziqishlari tananing ma’lum bir qismi atrofida to‘planadi. 6-12 yosh yashirin bosqichga to‘g’ri keladi, bu davrda uning qarashlari, e’tiqodlari va dunyoqarashining "aniqlanishi" va mustahkamlanishi sodir bo‘ladi.

Kognitiv nazariyaga (Jan Piaje) ko‘ra, inson o‘zining aqliy rivojlanishida 4 ta asosiy davrni boshdan kechiradi. Aqliy rivojlanishning uchinchi davri 7 yoshdan 11 yoshgacha - aniq aqliy operatsiyalar davriga to‘g’ri keladi. Bolaning fikrlashi aniq real ob’ektlar bilan bog’liq muammolar bilan chegaralanadi.

Maktab ta’limining boshlanishi boshlang’ich maktab yoshining etakchi faoliyati sifatida o‘yin faoliyatidan o‘rganishga o‘tishni anglatadi, shuning uchun maktabga kirish bolaning hayotida eng muhim o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi, bu uning butun hayot tarzini, uning jamoadagi, oiladagi ijtimoiy mavqeini keskin o‘zgartiradi. Asosiy, etakchi faoliyat o‘rganishga aylanadi, eng muhim burch - o‘rganish, bilim olishdir. Bu bolaning tashkiliyligini, intizomini va ixtiyoriy sa’y-harakatlarini talab qiladigan jiddiy ish.

Boshlang’ich maktab yoshi - bu shaxsning sezilarli darajada shakllanish yoshi.

U kattalar va tengdoshlar bilan yangi munosabatlar, guruhlarning butun tizimiga qo‘shilish, yangi faoliyat turiga - o‘rganishga qo‘shilish bilan tavsiflanadi, bu esa o‘quvchiga bir qator jiddiy talablarni qo‘yadi.

Fikrlashning o‘ziga xos xususiyatlari . Boshlang’ich maktab yoshi asosiy aqliy jarayonlar va usullarni rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega: taqqoslash, muhim va muhim bo‘lmagan xususiyatlarni aniqlash, umumlashtirish, tushunchalarni aniqlash, oqibatlar va sabablarni aniqlash. Psixik jarayonlarning rivojlanmaganligi bolaning o‘zlashtirgan bilimlarining to‘liq bo‘lmasligiga, ba’zan esa shunchaki noto‘g’ri bo‘lishiga olib keladi. Bu o‘quv jarayoniga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi va uning samaradorligini kamaytirishi mumkin.

Yirik chet el va sobiq sovet psixologlari (J.Piaje, A.Vallon, J.Bruner, L.V.Zankov, D.B.Elkonin, P.Ya.Galperin, N.A.Menchinskaya, V.V.Davidov, A.Sh.Amonashivili, S.F.Juykov va boshqalar) tadqiqotlarining ko‘rsatishicha, oqilona tashkil qilingan ta’lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalar tafakkurini jadal sur’atlar bilan rivojlantiradi, aqliy imkoniyatlarini ertaroq ishga tushishga, ro‘yobga chiqishga yordam beradi. Chunonchi, bolalar matematik, fizik, lingvistik, politexnik tushunchalarini o‘zlashtiradilar, mustaqil ravishda uncha murakkab bo‘lmagan masalalar, misollar tuzadilar, oddiyroq mashqlarni bajara oladilar, ijodiy va mahsuldor fikr yuritishga intiladilar.[ 3.]

N.A.Menchinskaya tafakkur muammosini chuqur o'rganib, uning taraqqiyot ko‘rsatgichlarini quyidagi jihatlarini o‘rganishda ko‘radi:

1) bilimlami o‘zlashtirishning tezligi,
2) fikr yuritish jarayonining epchilligi.
3) tafakkuming mavhum hamda yaqqol jihatlarining o‘zaro aloqasi va nihoyat,
4) analitik-sintetik faoliyatning turli darajalari kabilar

Idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlari. Bolalar maktabga rivojlangan idrok


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

jarayonlari bilan keladilar (idrokning oddiy turlari shakllanadi: hajmi, shakli, rangi). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida idrokning takomillashuvi to'xtamaydi, u boshqariladigan va maqsadli jarayonga aylanadi.

Diqqatning o'ziga xos xususiyatlari. Boshlang'ich maktab o'quvchilarida beixtiyor diqqat yaxshi rivojlangan. Asta-sekin, bola diqqatni nafaqat tashqi jozibali narsalarga, balki kerakli narsalarga ham yo'naltirishni va doimiy ravishda saqlashni o'rganadi. Diqqatning rivojlanishi uning hajmining kengayishi va diqqatni turli xil harakatlar o'rtasida taqsimlash qobiliyati bilan bog'liq.

Xotiraning o'ziga xos xususiyatlari. 1-sinfda ixtiyoriy yodlashning samaradorligi ixtiyoriydan yuqori, chunki bolalarda materialni mazmunli qayta ishlash va o'z-o'zini nazorat qilishning maxsus usullari hali ishlab chiqilmagan. Ma'noli yodlash va o'z-o'zini nazorat qilish usullari shakllanar ekan, ikkinchi va uchinchi sinf o'quvchilarida ixtiyoriy xotira ixtiyoriy xotiradan ko'ra samaraliroq bo'lib chiqadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilar xotirasining mahsuldorligi ularning topshiriqning mohiyatini tushunishlariga, yodlash va takrorlashning tegishli texnika va usullarini o'zlashtirishlariga bog'liq.

Tasavvurning xususiyatlari. Tizimli o'quv faoliyati bolalarda tasavvur kabi muhim aqliy qobiliyatni rivojlantirishga yordam beradi. Maktabning boshida tasavvurning rivojlanishi qayta yaratilgan tasvirlar tafsilotlarining kambag'alligi bilan ajralib turadi. 2-sinf oxirida, keyin esa 3-sinfda tasvirlardagi xususiyat va xususiyatlarning soni sezilarli darajada oshadi.

Nutqni rivojlantirish. Maktabdagi o'quv jarayoni kichik o'quvchining ixtiyoriy, batafsil, rejalashtirilgan nutqini shakllantirishga qaratilgan. Nutqni rivojlantirish bolaning maqsadli faoliyatiga aylanadi. Yozma nutqning rivojlanishi sodir bo'ladi - og'zaki nutqdan ko'ra murakkabroq nutq shakli (grafik belgilar-harflarni zudlik bilan dekodlashni, iboralarni puxta o'ylash, fikrlarni yanada aniqroq taqdim etishni talab qiladi).

Ta'lim sharoitida bolalar hissiyotlarining umumiy tabiati ham o'zgaradi. Boshlang'ich maktab yoshida his-tuyg'ularning namoyon bo'lishida o'zini tutish va xabardorlik kuchayadi va hissiy holatlarning barqarorligi oshadi.

Alohida-alohida, 6-8 yoshda ham o'zini namoyon qilishi mumkin bo'lgan *7 yillik inqirozni* ta'kidlash kerak . L. I. Bojovich bu inqirozni "ijtimoiy I-bolaning tug'ilish davri" deb ataydi. Bu davrda insonning ijtimoiy munosabatlar olamidagi o'rnini anglash, qadriyatlarni qayta baholash (o'yin kamroq qiymatga ega bo'ladi, ta'lim faoliyati - ko'proq), xatti-harakatlarning yangi motivlari paydo bo'ladi. Kichik maktab o'quvchisi kelajakdagi harakatning oqibatlari va munosabatlar tizimidagi o'rnini ko'proq yoki kamroq darajada baholashga qodir. Kichik maktab o'quvchisi hissiy jihatdan ochiq bo'lib, asta-sekin bolalarning o'z-o'zidan yo'qoladi va hissiy holatlarning o'zini o'zi boshqarishi kuchayadi (maktab o'quvchisi o'zini yomon his qilayotganini boshqalarga ko'rsatmaslikka harakat qiladi). Inqirozning namoyon bo'lishi jilmayish, xulq-atvor, sun'iy taranglik, injiqlik, affektiv reaktsiyalar, nizolarga aylanadi. Bu barcha tashqi xususiyatlar bola inqirozdan chiqib, yangi yoshga kirganida yo'qola boshlaydi. Boshlang'ich maktab yoshi kollektivistik

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

munosabatlarni tarbiyalash uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Bir necha yillar davomida to‘g’ri tarbiyalangan holda, kichik maktab o‘quvchisi o‘zining keyingi rivojlanishi uchun jamoaviy faoliyatning muhim tajribasini to‘playdi - guruhdagi va guruhdagi faollik. Kollektivizmning rivojlanishiga bolalarning jamoat ishlarida ishtirok etishi yordam beradi. Aynan shu erda bola jamoaviy ijtimoiy faoliyatning asosiy tajribasini oladi.

Boshlang’ich maktab yoshi - bilimlarni to‘plash va o‘zlashtirish davri. Boshlang’ich maktab o‘quvchilarining alohida taklifchanligi, ta’sirchanligi, aqliy faoliyatining takrorlashga, ichki qabul qilishga yo‘naltirilganligi psixikani rivojlantirish va boyitish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi. Bu xususiyatlar, aksariyat hollarda, ularning ijobiy tomoni bo‘lib, bu yoshning boshqa yosh davrlaridan alohida farqidir.

Kichik maktab yoshidagi bolalarni psixologik xususiyatlarini o‘rganish ta’lim psixologiyasi va pedagogik amaliyotda muhim masala hisoblanadi. Ularning diqqat, xotira, tafakkur, motivatsiya va ijtimoiy-emotsional rivojlanishini o‘rganish orqali o‘qituvchilar ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil eta oladi. Shuningdek, bu tadqiqot natijalari bolalarning shaxs sifatida barkamol shakllanishi va jamiyatga moslashuviga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. G’oziyev.E.G’. Umumiy pisixologiya –T.: Sharq, 2010. – бет 459.
2. Z. T. Nishanova Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya /darslik/. - Toshkent: «Inuovatsiya-Ziyo”, 2020, 418 bet.
3. E G’oziyev. Ontogenez pslxologiyasi/darslik /.Tosbkent:”NIF MSH”, 2020, 288 bet
4. https://портал-для-родителей-алтайский-край.рф/articles/rmsh-vv/psikhologicheskie-osobennosti-detey-mladshego-shkolnogo-vozrasta/
5. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. - M.: 1999.
6. Kondrateva S.V. Pedagogicheskaya i vozrastnaya psixoloogiya. - Grodno, 1996
7. Dilmurodova, Z. (2024, June). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O ‘QUVCHILARNING PSIXOLOGIK JARAYONLARI VA XUSUSIYATLARINI SHAKLLANISHI. In Международная конференция академических наук (Vol. 3, No. 6, pp. 66-72).
8. Olimovna, R. M. (2023). BAYNALMINAL OILALARNING IJTIMOIYPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI ORGANISH IJTIMOIY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. PEDAGOGS, 48(2), 49-51.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Babajanova Gulmira Muratbayevna**,mustaqil tadqiqotchi[**Бабажонова Гулмира Муратбаевна**,независимый исследователь,], [**Babajanova Gulmira Muratbayevna** independent researcher,] .

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# TALABALAR O'ZARO EMPATIYASI VA GURUHDAGI PSIXOLOGIK IQLIMNING O'QUV MOTIVIGA TA'SIRI

© R.M. Baxtiyorov[1]✉

[1]Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: so'ngi emperik tadqiqot tahlili hamda ularning qiyosiy tahlili, xulosalari bilan tanishish mumkin.

**MAQSAD**: talabalarda o'quv motivatsiyasini shakllantirish bo'yicha empatiyaning ham ta'sirchan omillardan biri ekanligi haqida ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar berish.

**MATERIALLAR VA METODLAR**: tadqiqot jarayonida suhbat, kuzatish, content-analiz, eksperement va mavzuga daxldor bir qator emperik tadqiqotlar psixologik, ilmiy tahlil etildi. O'rganilgan ilmiy tadqiqotlar o'zaro taqqoslandi, tahlil qilindi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: talabalar o'quv faoliyatida nafaqat bo'lajak mutaxassis sifatida ma'lumotlarni o'qib-o'rganishadi, ma'lumotlarni tahlil qilishadi. Shu bilan birgalikda jamiyatda yetuk kadr sifatida shaxslararo munosabatlarda ijtimoiy sifatlarni ham o'zlashtirib, shakllantirib borishlari kasbiy kompetentsiyalarining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda texnika taraqqiyoti rivojlangan bir paytda shaxslararo munosabatlar, boshqa shaxslarni emotsiyalarini his qilish, boshqalar bilan ijtimoiy munosabat o'rnatish layoqati biroz kamaygandek go'yo.

Hammamizga ma'lumki, ijtimoiy tarmoqlar orqali shaxslar o'rtasida muloqot qilish imkoniyati kengaygani sababli shaxslararo yuzma-yuz muloqot o'rnatish keskin kamayishiga olib keldi. Bu esa o'z navbatida yosh avlodning yuzma-yuz muloqot qilish, ijtimoiy makonda o'zi uchun "begona" yoki "notanish" kimsalar bilan muloqot qilish layoqati cheklangandek.

Shaxslararo muloqot haqida ilmiy suhbat, maqola, tadqiqotlarni kuzatganimizda bugungi kunda tez-tez ijtimoiy (sotsial) intellekt, emotsional intellekt, empatiya kabi ilmiy atamalar qo'llanilayotganiga guvoh bo'lyabmiz. Ushbu maqolamizda empatiya atamasi haqida bir qator ilmiy gipotezalar, tadqiqotlarni ko'rib chiqamiz.

**XULOSA:** empatiyani oshiruvchi omillardan badiiy adabiyotlar o'qish, talabalar o'rtasia o'zaro sog'lom ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish orqali talabalarda o'quv motivlarini shakllantirishning psixologik jihatlariini tahlil qilish ta'lim sifati va samaradorligiga ijobiy ta'sir qilishi isbotlandi.

**Kalit so'zlar**: empatiya, "his qilish" konsepsiyasi, kognitiv empatiya, emotsional, (affektiv) empatiya, hamdardlik empatiyasi (g'amxo'rlik), aql nazariyasi, o'spirinlik, o'quv motivi, motivatsiya, milliy tarbiya, sotsial intellekt

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**Iqtibos uchun**: R.M. Baxtiyorov. Talabalar o'zaro empatiyasi va guruhdagi psixologik iqlimning o'quv motiviga ta'siri. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. B.288–301.

# ВЛИЯНИЕ ВЗАИМНОЙ ЭМПАТИИ СТУДЕНТОВ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО КЛИМАТА В ГРУППЕ НА УЧЕБНУЮ МОТИВАЦИЮ

© Р.М. Бахтиёров[1]✉
[1]Ташкентский государственный университет востоковедения, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: в статье вы можете ознакомиться с взаимной эмпатией студентов и влиянием психологического климата в группе на учебную мотивацию, анализом эмпирических исследований, последним эмпирическим исследовательским анализом влияния чтения книг на повышение эмпатии, а также их сравнительным анализом и выводами.

**ЦЕЛЬ**: дать научно обоснованные практические рекомендации о том, что эмпатия также является одним из влиятельных факторов формирования учебной мотивации у студентов.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в ходе исследования были психологически и научно проанализированы беседа, наблюдение, контент-анализ, эксперимент и ряд эмпирических исследований, связанных с темой. Изученные научные исследования были сопоставлены и проанализированы.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: в учебной деятельности студенты не только читают и изучают информацию как будущие специалисты, но и анализируют ее. Вместе с тем, овладение и формирование социальных качеств в межличностных отношениях в качестве зрелого кадра в обществе является одним из важных аспектов профессиональных компетенций. Сегодня, в эпоху развития технологий, кажется, что межличностные отношения, способность чувствовать эмоции других людей и устанавливать социальные связи с окружающими несколько снизились.

Всем нам известно, что расширение возможностей общения между людьми через социальные сети привело к резкому сокращению личного общения. Это, в свою очередь, ограничивает способность молодого поколения общаться лицом к лицу и взаимодействовать с "чужими" или "незнакомыми" людьми в социальном пространстве.

Наблюдая за научными дискуссиями, статьями, исследованиями о межличностном общении, мы становимся свидетелями того, что сегодня часто используются такие научные термины, как социальный интеллект, эмоциональный интеллект, эмпатия. В этой статье мы рассмотрим ряд научных гипотез и исследований, касающихся термина эмпатия.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: было доказано, что такие факторы, повышающие эмпатию, как чтение художественной литературы и развитие здоровых социальных отношений


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

между студентами, положительно влияют на качество и эффективность образования через формирование учебных мотивов у студентов.

**Ключевые слова**: эмпатия, концепция "чувствования," когнитивная эмпатия, эмоциональная (аффективная) эмпатия, эмпатия сочувствия (забота), теория разума, юность, учебный мотив, мотивация, национальное воспитание, социальный интеллект.

**Для цитирования**: Р.М. Бахтиёров. Влияние взаимной эмпатии студентов и психологического климата в группе на учебную мотивацию. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. С.288–301.

## MUTUAL EMPATHY AMONG STUDENTS AND THE INFLUENCE OF GROUP PSYCHOLOGICAL CLIMATE ON LEARNING MOTIVATION

© Rafail M. Baxtiyorov[1]✉
[1]Tashkent State University of Oriental Studies, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: this article explores the impact of mutual empathy among students and the psychological climate within a group on learning motivation. It presents an analysis of empirical research, including the latest studies on how reading books affects empathy development, along with comparative analysis and conclusions.

**AIM:** to provide scientifically grounded practical recommendations on empathy as one of the influential factors in fostering learning motivation among students.

**MATERIALS AND METHODS**: the research process involved psychological and scientific analysis of interviews, observations, content analysis, experiments, and numerous empirical studies related to the topic. The examined scientific research was compared and analyzed.

**DISCUSSION AND RESULTS**: in their educational activities, students not only read and study information as future specialists but also analyze data. Simultaneously, an important aspect of professional competencies is the acquisition and development of social qualities in interpersonal relationships as mature professionals in society. Today, with technological advancements, it seems that interpersonal relationships, the ability to sense others' emotions, and the capacity to establish social relationships with others have somewhat diminished.

As we all know, the expansion of communication opportunities between individuals through social networks has led to a sharp decrease in face-to-face interpersonal communication. This, in turn, appears to have limited the younger generation's ability to communicate face-to-face and interact with "strangers" or "unfamiliar" people in social spaces.

When observing scientific discussions, articles, and research on interpersonal communication, we witness the frequent use of scientific terms such as social intelligence, emotional intelligence, and empathy. In this article, we will examine several scientific hypotheses and studies regarding the concept of empathy.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**CONCLUSION**: It has been demonstrated that analyzing the psychological aspects of developing learning motives in students through reading fiction and fostering mutually healthy social relationships between students, as factors that increase empathy, has a positive impact on the quality and effectiveness of education.

**Keywords**: empathy, concept of "feeling," cognitive empathy, emotional (affective) empathy, compassionate empathy (care), theory of mind, adolescence, learning motive, motivation, national upbringing, social intelligence.

**For citation**: Rafail M. Baxtiyorov. (2025) 'Mutual empathy among students and the influence of group psychological climate on learning motivation', Inter education & global study, vol.3 (8), pp.288–301. (In Uzbek).

"**E**mpatiya" atamasi dastlab XX asr boshlarida nemis estetikasida paydo bo'lgan bo'lib, kuzatuvchining o'zini kuzatilayotgan jismoniy obyekt bilan aynanlashtirish qobiliyatini ifodalagan. Bu hodisani o'rganishning ikki yo'nalishini ajratish mumkin: ba'zi olimlar uni obyektni his qilish qobiliyati sifatida tushunsa, boshqalari uni ruhiyatning xususiyati deb talqin qiladi.

Empatiyani o'rganish muammosi psixologiya uchun doimo dolzarb hisoblanadi. Ilmiy muammo sifatida u inson shaxsining rivojlanishi va shakllanishi masalalari doirasiga kiradi. Uni o'rganish orqali shaxsning ma'naviy-axloqiy tomonlari xususiyatlari va mexanizmlarini sifatli tahlil qilish mumkin. Empatiya asosiy ijtimoiy his-tuyg'u sifatida insonning boshqa odamning ichki dunyosini va hissiy holatini tushunish, anglash, hamda uning his-tuyg'ulariga sherik bo'lish qobiliyati deb ta'riflanadi. Empatiya qobiliyati shaxslararo munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning bu qobiliyati qanchalik yuqori bo'lsa, u shunchalik muloqotga moyil bo'ladi va unga intiladi. Empatiya qobiliyatining rivojlanganligi mutaxassislar, ayniqsa psixolog, pedagog, tarbiyachi, menejer va shifokorlarning kasbiy faoliyati samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Psixolog uchun tushunish insonni bilish va u haqida ma'lumot olishning zaruriy unsuri sifatida namoyon bo 'ladi[1].

R. Fisher asarlarida "his qilish" konsepsiyasi taqdim etilgan bo'lib, u dastlab estetik munosabatga nisbatan qo'llanilgan. Bunda sub'yekt obyekt - atrof-muhit yoki san'at asari bilan aloqaga kirishib, o'zini shu obyektga ko'chiradi. Sub'yekt o'z hissiyotlarini obyektga "qarz beradi", o'zini uning xizmatiga bag'ishlaydi [2].

XX asr boshida T. Lipps bu muammoni san'atdan shaxslararo munosabatlar masalasiga ekstrapolyatsiya qildi. U his-tuyg'uni boshqani, shuningdek, umuman atrofdagi dunyoni anglash mexanizmi deb hisoblagan. U psixologiyaga simpatiya tarzida tushuniladigan "his qilish" tushunchasini kiritdi.

E. Titchener empatiyani narsa va vaziyatlarda, shuningdek boshqa odamning hissiyotlari va holatlarida o'zini his qilish deb tushungan. Uning fikricha, bu jarayonning mexanizmi taqlid qilishdir [2].

Yarim asrdan so'ng, empatiya tushunchasi turli modellarda kengaytirildi, ko'plab yondashuvlarda ko'rib chiqila boshlandi va ko'p ta'riflar paydo bo'ldi. Rossiya


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

psixologiyasiga "empatiya" tushunchasi 1970-yillarning boshida kirib keldi va asosan T.P. Gavrilovaning ishlarida rivojlantirildi[3].

Shaxsning guruhda egallagan va uning shaxslararo munosabatlar, xayrixohlik va antipatiya tizimidagi o‘rnini tavsiflovchi mavqei sotsiometrik maqom deb ataladi. Bu maqom mazkur guruhdagi o‘rni va roliga berilgan baholar asosida shakllanadi hamda sotsiometrik usul yordamida aniqlanadi. Ushbu maqomga empatiya ham ta’sir ko‘rsatadi, u shaxslararo munosabatlarning hissiy jihatini belgilovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

B.G.Zinchenko va V.P.Mesheryakovning “Katta psixologik lug‘at”ida empatiya 3 ta ma’noda talqin etiladi:

1) his qilish tushunchasiga sinonim bo‘lib, insonning boshqa odamlarning ichki dunyosini aqldan tashqari bilishi sifatida;

2) badiiy obyektni his qilish qobiliyatini nazarda tutuvchi estetik qobiliyat sifatida, bu estetik zavq manbai hisoblanadi;

3) insonning boshqa odamning kechinmalariga ta’sirchanligi sifatida, bu hamdardlik va boshqalar bilan birga kechirish shaklida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy, axloqiy his-tuyg‘ularning bir turi bo‘lib, uning asosida markazsizlanish mexanizmi yotadi [7, 563-bet] [4].

D.Goleman va P.Ekman empatiyaning 3 turini ajratib ko‘rsatadilar:

1) kognitiv empatiya, turli vaziyatlarda boshqa odamlarning ta’sirchan reaksiyalarini bashorat qilish qobiliyatini oshiradi, bu esa muzokaralar samaradorligini ko‘taradi (aql-idrok, taqqoslash va analogiya jarayonlarini ishga soladi);

2) emotsional (affektiv) empatiya - o‘zgalarning his-tuyg‘ularini o‘ziga ko‘chira olishni nazarda tutadi va ruhiy yaqinlashishga yordam beradi;

3) hamdardlik empatiyasi (g‘amxo‘rlik) - boshqa odamlarni tushunish, ularning his-tuyg‘ularini baham ko‘rish va ularga ochiqchasiga yordam berish qobiliyatidir[5].

Psixologiyaning gumanistik yo‘nalishida empatiya muammosini K.Rodjers ancha batafsil yoritgan bo‘lib, u empatiyani "boshqaning hayotini vaqtincha yashash, unda hukm va bahosiz qolish" deb ta’riflagan. Uning fikricha, "Empatiklik, bir tomondan, faollik va kuch, ayni paytda sezgirlikdir"[6].

Rossiya psixologiyasida empatiya tushunchasi turlicha talqin qilinadi va ko‘pincha "xayrixohlik", "sezgirlik", "boshqalar bilan birga kechirish", "hamdardlik", "ijtimoiy sezuvchanlik" kabi tushunchalar bilan almashtiriladi.T.P. Gavrilovaning nuqtayi nazariga ko‘ra, empatiya hissiy kechinmaning bir shakli bo‘lib, u insonning o‘tmish tajribasi bilan bog‘liq, bu esa uning modalligiga ta’sir qiladi. Kechinma sifatida u insonning boshqa odamlar bilan o‘zaro ta’siri vaziyatlarida paydo bo‘ladi, unda insonning qadriyatlar tizimi aks etadi[7].

A.A.Bodalevning fikriga ko‘ra, empatiyani insonning o‘zini va atrofdagi odamlarni bilish jarayoniga hamda umuman olganda, uning boshqa odamlar bilan o‘zaro ta’sirining o‘ziga xos xususiyatlariga ta’sir qiluvchi identifikatsiya, markazdan qochish va refleksiya kabi psixologik mexanizmlar bilan bir qatorda ko‘rib chiqish lozim[8].

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

A.K.Boxard empatiyani muloqot hamkoriga nisbatan yordam, iliqlik, yaqinlik va ijobiy munosabatlar yig‘indisi sifatida tushunadi. Yuqori darajadagi empatiya shaxsning axloqiy rivojlanishi yuqori ekanligini ko‘rsatadi [9].

Ye.P.Ilin empatiyani altruistik xatti-harakatlarga undovchi his sifatida ta’riflaydi. Hamdardlik qilish qobiliyatining yuqoriligi yordamga tayyorlikni bildiradi [10].

I.V.Groshev empatiyani ba’zi odamlarning ruhiy qobiliyati va hatto ehtiyoji sifatida tushunadi, bu ularning sezgi idrokini nozikroq qiladi va ayniqsa tashqi dunyoni hissiy-obrazli idrok etishni kuchaytiradi[11].

V.V.Znakovning fikricha, empatiya boshqa insonga nisbatan ijobiy munosabatda namoyon bo‘ladi, bu uning shaxsiyatining yaxlitligini tan olishni anglatadi[12]. I.M.Yusupov empatiyani psixikaning ongli va ongsiz qismlarini bog‘lovchi yaxlit hodisa sifatida ko‘rib chiqadi, uning maqsadi boshqa odamning ichki dunyosiga kirishdir[13].

Empatiyani ta’riflashga bo‘lgan yondashuvlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, empatiya - bu insonning boshqalarning kechinmalariga nisbatan sezgirligi, hamdardlik va achinish shaklida namoyon bo‘ladigan hissiy javobdir.

Xorijiy psixologiyada empatiya masalalari M.Devisning monografiyasida (1996) yoritilgan. Mahalliy psixologiyada esa M.A.Ponomareva (2006), V.I.Dolgova (2014) va boshqalarning monografiyalarida o‘z aksini topgan.

Empatiya muammosiga bag‘ishlangan bir qator dissertatsiyalar mavjud bo‘lib, ular orasida T.P.Gavrilova (1977), L.P.Strelkova (1987), L.P.Vigovskaya (1991), I.M.Yusupov (1995), T.V.Doroshenko (2007), A.E.Axmedjanova (2011), T.D.Karyagina (2013), O.Yu.Bogacheva (2014), M.V.Sizikova (2018) va boshqalarning ishlarini ta’kidlash mumkin. Ko‘rinib turibdiki, bu hodisa tadqiqot uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi.

O‘spirinlik davri shaxs rivojlanishining muhim bosqichidir. Bu davrda rivojlangan empatiya shaxslararo munosabatlarning samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi, bu esa shaxsiy (do‘stlik va muhabbat) hamda kasbiy (kursdoshlar va o‘qituvchilar bilan munosabatlar) aloqalar uchun asos bo‘lishi mumkin.

Talabalik davri o‘spirinlikning ikkinchi bosqichidan iborat bo‘lib, 17—22 (25) yoshni o‘z ichiga oladi va uzining qator betakror xususiyatlari va qarama-qarshiliklari bilan xarakterlanadi. Shu boisdan o‘spirinlik davri shaxsning ijtimoiy hamda kasbiy mavqeini anglashidan boshlanadi[14].

Rossiyada zamonaviy talabalarning empatiyasini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan empirik tadqiqotlar tahlili ularning nisbatan kam sonli ekanligini ko‘rsatdi. Ular orasida quyidagi ishlarni qayd etish mumkin.

S.N.Nikishov va I.S.Osipovlar turli ta’lim yo‘nalishlari - gumanitar va muhandislik sohalari talabalarida empatiya xususiyatlarini o‘rganishgan. Mualliflar so‘rovda qatnashganlarning aksariyati empatiyaning o‘rtacha darajasiga ega ekanligini aniqlashgan: ular o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qila oladilar, muloyimlik hissiga egadirlar, ammo shu bilan birga odamlar o‘rtasidagi munosabatlarning rivojlanishini bashorat qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Gumanitar yo‘nalish talabalari muhandislik yo‘nalishi talabalariga qaraganda yuqoriroq empatiya darajasiga ega[15].

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

V.P.Kuzmina birinchi va oxirgi kurs talabalarida empatiyani o‘rganishda talabalar muhitida empatiyaning ustunlik darajasi o‘rtacha va past ekanligini aniqladi[16].

A.R.Drozdikova-Zaripova birinchi kurs talabalari - bo‘lajak pedagoglar va psixologlarda empatiyani o‘rganib, ular past darajadagi empatik qobiliyatlarga ega degan xulosaga keldi[17]. N.V.Shutova hammualliflar bilan o‘z tadqiqotida shunga o‘xshash natijalarga erishgan[18].

**Empirik qism**

Ushbu qismda N.F.Katanov nomidagi Xakas davlat universitetining (XDU) INPO magistratura talabasi - Pavlina Yelena Vladimirovna tomonidan o’tkazilgan emperik tadqiqot tahlili keltirib o’tiladi.

Empirik tadqiqotning maqsadi: talabalarda empatiya darajasini aniqlash.

**Tadqiqotning manbasi:** N.F. Katanov nomidagi Xakas davlat universiteti. Tadqiqotda "Jismoniy tarbiya - OBJ," "Fizika / matematika," "Biologiya / kimyo," "Psixologik-pedagogik ta’lim" ta’lim yo‘nalishlari talabalari ishtirok etdi.Tadqiqot tanlanmasi stratometrik yo‘l bilan shakllantirildi, bunda stratalar quyidagilardan iborat bo‘ldi: sinaluvchilarning yoshi: yoshlik va ularning ijtimoiy mavqei - oliy o‘quv yurti talabalari.

**Tanlanma tavsifi:** 50 kishi: 18 yoshdan 20 yoshgacha bo‘lgan 36 nafar qiz va 14 nafar yigit. Aholining o‘rtacha yoshi 19,5 yosh.

Tadqiqotda "Empatiya darajasini diagnostika qilish" (I.M.Yusupov) va "Emotsional javob berish shkalasi" so‘rovnomasi (A.Megrabyan va N.Epshteyn) metodikalaridan foydalanildi.

"Empatiya darajasini diagnostika qilish" (I.M.Yusupov) metodikasi bo‘yicha biz 1-jadvalda keltirilgan natijalarni oldik.

**1-jadval**

**I.M. Yusupov tomonidan ishlab chiqilgan "Empatiya darajasini aniqlash" metodikasi asosida talabalarning empatiya darajasi ko‘rsatkichlari**

| Darajalar Miqdori % | Darajalar Miqdori % | Darajalar Miqdori % |
|---|---|---|
| **Juda yuqori** | 14 | 28 |
| **Yuqori** | 7 | 14 |
| **O‘rtacha** | 19 | 38 |
| **Past** | 10 | 20 |
| **Juda past** | 0 | 0 |

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, talabalarda empatiyaning o‘rtacha darajasi ustunlik qilmoqda (38%). Bu shuni anglatadiki, talabalarning aksariyati o‘ta ta’sirchan shaxslar toifasiga kirmaydi. Ular shaxslararo munosabatlarda shaxsiy taassurotlariga ishonishdan ko‘ra, boshqalar haqida ularning xatti-harakatlariga qarab xulosa chiqarishga ko‘proq moyildirlar. Ularga hissiy ifodalanish begona emas, ammo ko‘p hollarda o‘zlarini nazorat qila oladilar. Bu guruh talabalari muloqotda e’tiborli bo‘lib, suhbatdoshi aytganidan ham

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ko‘proq narsani tushunishga harakat qiladilar. Biroq, ularga yuqori darajadagi hissiyotlilik va samimiylik xos emas.

Shuningdek, talabalarning katta qismi, ya’ni 28 foizida empatiyaning juda yuqori darajasi aniqlandi. Bu shuni anglatadiki, ularda boshqalarga hamdardlik hissi o‘ta kuchli rivojlangan, hatto suhbatdosh biror so‘z aytishga ulgurmay turib, uning kayfiyatiga ta’sirlanib ulguradilar. Ularga yuqori darajadagi ta’sirchanlik va noziklik, hissiy qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj xosdir.

Talabalarning 14 foizida empatiyaning yuqori darajasi qayd etildi. Ular atrofdagilarning ehtiyojlari va muammolariga nisbatan sezgir, bag‘rikeng, odamlarga samimiy qiziqish bildiradi, hissiyotli, mehribon va samimiy. Voqealarni baholashda ular tahliliy xulosalardan ko‘ra, ko‘proq his-tuyg‘ulari va intuitsiyasiga ishonishadi. Shunday qilib, ko‘rib turganingizdek, I.M. Yusupov metodikasi bo‘yicha talabalarda empatiyaning o‘rtacha darajasi ustunlik qilmoqda.

**"Hissiy javob berish shkalasi"** (A. Megrabyan va N. Epshteyn) so‘rovnomasi bo‘yicha olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

**2-jadval**

**"Emotsional munosabat shkalasi" (A. Megrabyan va N. Epshteyn) so‘rovnomasi bo‘yicha talabalarda empatiya darajalarining ko‘rsatkichlari**

**"Emotsional munosabat shkalasi" so‘rovnomasi (A. Megrabyan va N. Epshteyn)**

| Darajalar | Miqdori | % |
|---|---|---|
| Yuqori | 15 | 30 |
| O‘rtacha | 20 | 40 |
| Past | 15 | 30 |

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, talabalarda empatiyaning o‘rtacha darajasi ustunlik qiladi (40%). Bu oldingi metodika bo‘yicha ko‘rsatkichlarga mos keladi va talabalarning atrofdagi odamlarga katta e’tibor qaratmasligini ko‘rsatadi. Ular odamlarni o‘zlarining sezgilari yoki shaxsiy taassurotlariga qarab emas, balki xatti-harakatlariga qarab baholaydilar. Talabalar suhbatdoshlariga yetarlicha e’tiborli bo‘lishsa-da, ulardan alohida samimiylik kutish o‘rinsiz.

Insonning atrof-muhit bilan munosabatlarini insonparvarlashtirish muammosi zamonaviy jamiyatning eng dolzarb masalalaridan biridir. Yangi qadriyatlarni qaror toptirish jarayoni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bunda eng muhimi shaxsning ma’naviy madaniyatini shakllantirishdir. Uning ajralmas qismlari hissiy yetuklik, tuyg‘ular boyligi, hamdardlik va boshqalar uchun quvonish qobiliyatidir. Bunday jarayonlarning asosiy sharti empatiya hisoblanadi. U insonlar o‘rtasida o‘zaro tushunishni o‘rnatishga, boshqalarning hissiy holatlarini idrok etishga va bir-birini yaxshiroq anglashga yordam beradi. Bu esa

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

pirovardida tajovuzkorlikni kamaytiradi va shaxslararo nizolarning oldini oladi. Shu bois empatiyani rivojlantirish shaxsiy o‘sish, ta’lim va faoliyatning turli sohalari uchun g‘oyat muhimdir. Talabalar guruhida o‘tkazilgan tadqiqot empatiyaning o‘rtacha darajasi ustunligini ko‘rsatdi. Bu natija S.N.Nikishova, I.S.Osipova va V.P.Kuzmina kabi olimlar tomonidan o‘tkazilgan o‘xshash tadqiqotlar xulosalariga mos keladi. Empatiya rivojlantirilishi mumkin bo‘lgan fazilat bo‘lgani uchun, uni takomillashtirish maqsadida zamonaviy trening dasturlarini tavsiya etish mumkin[3].

G’arbda empatiyani emperik tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu tadqiqot xulosalaridan ayrimlarini keltirib o’tamiz.

Empatiya va mutolaa

Ilmiy ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, adabiyotga sho‘ng‘ish boshqalarni tushunishimizni rivojlantirishning samarali usulidir (bu yerga qarang). "Kitob qahramonlariga nisbatan his etadigan hamdardligimiz miyamizni haqiqiy odamlarga ham xuddi shunday munosabatda bo‘lishga undaydi" (Reymond Marr, York universiteti, Toronto). Sasseks universiteti tadqiqotlari shuni aniqlagan: bolalarning matnlarga bo‘lgan hissiy munosabatlari ularning kognitiv empatiyasini shakllantirar ekan.

Badiiy adabiyot o‘qish odamlarning hamdardligi va achinish hissini oshiradi, deyishadi. Lekin, haqiqatan ham ilmiy tadqiqotlar buni tasdiqlayaptimi?

Har kuni AQShda 1,8 milliondan ortiq, Buyuk Britaniyada esa yarim millionga yaqin kitob sotiladi. Bugungi kunda mavjud bo‘lgan barcha yengil ko‘ngilochar vositalarga qaramay, ko‘pchilik hali ham kitob o‘qishni sevishi shubhasiz. Kitoblar bizga dunyo haqida ko‘p narsani o‘rgatishi, so‘z boyligimizni va yozish mahoratimizni oshirishi mumkin. Ammo badiiy adabiyot bizni yaxshiroq insonga aylantira oladimi?

Qahramonlar bizni tarixga jalb etadi. Aristotelning ta’kidlashicha, biz tragedik asarni tomosha qilganimizda ikki his-tuyg‘u ustunlik qiladi: achinish (qahramonga nisbatan) va qo‘rquv (o‘zimizga nisbatan). Beixtiyor biz o‘zimizni ular o‘rniga qo‘yamiz va ularning vaziyatlarga munosabatini o‘tmishdagi o‘z tajribamiz yoki kelajakda qanday munosabatda bo‘lishimiz mumkinligi bilan taqqoslaymiz.

Shu bilan birga, miya hikoyalardagi voqealarni anglash uchun qo‘llaydigan ayrim asab tizimi mexanizmlari haqiqiy hayotdagi vaziyatlarda ishlatiladigan mexanizmlarga o‘xshash. Masalan, "tepki" so‘zini o‘qiganimizda, miyamizning jismoniy tepish harakati bilan bog‘liq qismlari faollashadi. Qahramonning arqonni tortganini o‘qisak, miyamizning ushlash bilan bog‘liq sohasidagi faollik kuchayadi.

Syujetni kuzatib borish uchun kim nimani bilishini, ular bu haqda qanday his-tuyg‘ularni boshdan kechirayotganini va har bir qahramon boshqalar nima deb o‘ylashi mumkinligini tasavvur qilishini anglashimiz lozim. Buning uchun "aql nazariyasi" deb ataladigan ko‘nikma talab etiladi. Odamlar qahramonning fikrlari haqida o‘qiganlarida, aql nazariyasi bilan bog‘liq miya sohalari faoliyatga kirishadi.

Boshqa odamlarga kitob o‘qish orqali hamdardlik qilish tajribasi shunchalik keng tarqalganini inobatga olsak, badiiy adabiyot o‘qiydigan kishilarning ijtimoiy ko‘nikmalari


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

asosan hujjatli adabiyot o‘qiydigan yoki umuman kitob o‘qimaydigan odamlarga nisbatan yaxshiroq ekanligini isbotlash mumkindir, degan fikr tug‘ilishi tabiiy.

Bunday tadqiqotlarni o‘tkazishdagi asosiy qiyinchilik shundaki, ko‘pchiligimiz o‘qigan kitoblarimiz sonini bo‘rttirib ko‘rsatishga moyilmiz. Bu muammoni bartaraf etish uchun Outli va uning hamkasblari talabalarga badiiy va ilmiy-ommabop adabiyot mualliflarining ro‘yxatini berib, ulardan qaysi yozuvchilar haqida eshitganliklarini belgilashni so‘rashdi. Ular talabalarni yolg‘on gapirayotganliklarini aniqlash maqsadida ro‘yxatga bir nechta to‘qima ismlar kiritilgani haqida ogohlantirdilar. Ma’lum bo‘lishicha, odamlar bilgan yozuvchilar soni ularning amalda qancha kitob o‘qishini ko‘rsatuvchi ishonchli mezon ekan.

So‘ngra Outli jamoasi odamlarga "Ko‘zlardagi aql" testini o‘tkazdi. Bu testda sizga juft ko‘zlarning fotosuratlar to‘plami beriladi. Sizning vazifangiz ko‘zlar va atrofdagi terini kuzatib, insonda qanday his-tuyg‘u paydo bo‘lganini taxmin qilishdan iborat. Sizga uyatchanlik, aybdorlik, xayolparastlik yoki xavotirlanish kabi variantlarning qisqa ro‘yxati taqdim etiladi. Ifodalap juda nozik bo‘lib, bir qarashda neytral ko‘rinishi mumkin, shuning uchun bu vazifa ko‘ringanidan ham murakkabpoq. Biroq, hujjatli adabiyotga qaraganda ko‘proq badiiy adabiyot o‘qigan deb hisoblanganlar bu testda hamda shaxslararo munosabatlardagi sezgirlikni o‘lchaydigan mezonlarda yuqoriroq natijalarni ko‘rsatishdi.

Prinston ijtimoiy neyrologiya laboratoriyasida psixolog Diana Tamir badiiy adabiyotni muntazam o‘qiydigan odamlar yaxshiroq ijtimoiy idrok qobiliyatiga ega ekanligini aniqladi. Boshqacha aytganda, bunday kishilar boshqalarning fikrlari va his-tuyg‘ularini tushunishda mohirroq bo‘ladilar. Miya skanerlash usulidan foydalanib, Tamir badiiy adabiyot o‘qish jarayonida miyaning passiv rejim tarmog‘ida, xususan boshqalarning fikrlarini tasavvur qilishda ishtirok etuvchi qismlarida, faollik sezilarli darajada oshishini kuzatdi.

Roman o‘qiydigan odamlar boshqalarning his-tuyg‘ularini o‘rtachadan yaxshiroq anglaydiganday ko‘rinadi, ammo bu ularni albatta yaxshiroq insonlarga aylantirarmikan? Buni tekshirish uchun tadqiqotchilar ko‘plab psixologiya talabalari sinab ko‘rgan usulni qo‘lladilar: siz "tasodifan" bir to‘p ruchkani polga tushirib yuborasiz va keyin kim ularni yig‘ishtirishga yordam berishini kuzatasiz. Ruchkalar tushishidan oldin, ishtirokchilarga kayfiyat so‘rovnomasi berildi, unda empatiyani o‘lchash uchun savollar ham bor edi. So‘ngra ular qisqa hikoya o‘qib, hikoyani o‘qiyotganda o‘zlarini qanchalik boshqa olamga ko‘chib o‘tganday his qilganlari haqidagi savollarga javob berdilar. Qahramonlarning yorqin tasavvuriy tasviri paydo bo‘ldimi? Hikoyani tugatgach, qahramonlar haqida ko‘proq bilishni xohlashdimi?

Keyin tajriba o‘tkazuvchilar boshqa xonadan nimadir olib kelish kerakligini aytishdi va, voy, yo‘l-yo‘lakay oltita ruchka tushirib yuborishdi. Bu usul natija berdi: hikoyaga eng ko‘p berilib ketgan va qahramonlarga eng ko‘p hamdardlik bildirgan odamlar ruchkalarni terib olishga yordam berish ehtimoli yuqoriroq bo‘ldi.

Siz hikoya qahramonlariga eng ko‘p e’tibor bergan odamlar dastlab mehribonroq, ya’ni boshqalarga yordam taklif qiladigan toifadagi odamlar bo‘lganmi, deb o‘ylashingiz mumkin. Ammo tadqiqot mualliflari odamlarning empatiya ballarini hisobga olishdi va

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

shunday bo‘lsa-da, hikoyadan eng ko‘p ta’sirlangan odamlar o‘zlarini ko‘proq boshqalar manfaatini ko‘zlab ish tutishganini aniqladilar.

Albatta, tajribalar o‘z yo‘liga. Keng jamiyatga tatbiq etishdan avval, sabab-oqibat bog‘liqligiga ehtiyotkorlik bilan yondashishimiz lozim. Real hayotda dastlab ko‘proq hamdardlikka ega bo‘lgan odamlar boshqalarning ichki dunyosiga qiziqishi va bu qiziqish ularni badiiy adabiyotga chorlab qolishi ehtimoli doim mavjud. Bu oson o‘rganib bo‘lmaydigan mavzu: mukammal tadqiqot odamlarning hamdardlik darajasini o‘lchashni, ularni tasodifiy tarzda ko‘plab romanlar o‘qish yoki yillar davomida umuman hech narsa o‘qimaslikka taqsimlashni, so‘ngra romanlar o‘qish qanday ta’sir ko‘rsatganini ko‘rish uchun ularning hamdardlik darajasini qayta o‘lchashni o‘z ichiga olgan bo‘lardi.

Buning o‘rniga qisqa muddatli tadqiqotlar o‘tkazildi. Masalan, gollandiyalik olimlar talabalarga Gretsiyada bo‘lib o‘tgan tartibsizliklar va Gollandiya ozodlik kuni haqidagi gazeta maqolalarini yoki Nobel mukofoti sovrindori Joze Saramagoning "Ko‘rlik" romanining birinchi bobini o‘qishni taklif qilishdi. Bu hikoyada bir kishi svetoforda mashinasida kutayotganda to‘satdan ko‘zi ko‘r bo‘lib qoladi. Uning hamrohlari uni uyiga olib kelishadi va bir yo‘lovchi uning mashinasini uyiga olib borib qo‘yishni va’da qiladi, ammo buning o‘rniga u mashinani o‘g‘irlab ketadi. Talabalar hikoyani o‘qiganlarida, nafaqat ularning hamdardlik darajasi darhol oshadi, balki agar ular hikoyadan chuqur ta’sirlangan bo‘lsalar, bir haftadan so‘ng ularning hamdardlik ko‘rsatkichlari o‘qish tugashi bilan o‘lchanganidan ham yuqori bo‘ladi.

Albatta, bu jihatdan badiiy adabiyot yagona emas, deyish mumkin. Biz yangiliklarda ko‘rgan odamlarga ham hamdardlik bildira olamiz va umid qilamanki, buni tez-tez qilamiz. Biroq badiiy adabiyotning kamida uchta afzalligi bor. Biz jurnalistikada odatda uchramaydigan qahramonning ichki dunyosiga kirib borish imkoniyatiga ega bo‘lamiz va odamlar aytayotgan gaplarning haqiqiyligiga shubha qilmasdan, ishonchsizlikni chetga surishimiz ehtimoli yuqori. Nihoyat, romanlar bizga o‘z hayotimizda qilish qiyin bo‘lgan narsani, ya’ni qahramonning uzoq yillik hayotini kuzatish imkonini beradi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalariga ko‘ra, badiiy adabiyot o‘qish, ehtimol, odamlarni haqiqatan ham yaxshiroq xulq-atvorga undashi mumkin. Albatta, ba’zi muassasalar kitob o‘qishning ta’sirini shunchalik ahamiyatli deb hisoblaydiki, endi o‘z dasturlariga adabiyot modullarini kiritmoqdalar. Misol uchun, Irvayndagi Kaliforniya universitetining oilaviy tibbiyot kafedrasi professori Joanna Shapiro badiiy adabiyot o‘qish eng yaxshi shifokorlarni tarbiyalashga yordam berishiga qat’iy ishonadi va shu sababli tibbiyot talabalari uchun gumanitar ta’lim dasturini yaratishga boshchilik qilmoqda[19].

Empatiya to’g’risidagi ilmiy nazariya va emperik tadqiqot natijalariga ko’ra, insonlarda empatiya ijtimoiy tajriba, bilimlar tufayli namoyon bo’lishi hamda o’zgarishi mumkin ekan. Talabalalarda empatiyaning rivojlanishi o’quv motiviga ham ijobiy ta’sir ko’rsatadi degan fikrdaman. Chunki, nazariy bilimlarni o’zlashtirish, auditoriyada boshqa talabalar bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishish, o’zini ijtimoiy jihatdan komfort his qilish albatta talabani o’qishga bo’lgan motivini ijobiy tomonga o’zgarishiga olib keladi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

G'arb olimlari o'tkazgan tadqiqotlarga ko'ra badiiy adabiyot o'qish insonlarda empatiyani oshishiga olib kelar ekan. Shundan kelib chiqqan holda, xulosa qiladigan bo'lsak xalq og'zaki ijodi ham bolalarda o'ziga xos empatiyani oshishiga olib kelar ekan. Chunki yoshligimizda bizga kattalar tomonidan aytib berilgan ertaklar, hikoyalar, dostonlar ta'sirida har birimizda empatiya oshishiga olib kelgan. Ayrim paytlarda kattalar xulq-atvoriga emitatsiya qilish orqali ham amalga oshirilgan.

Bugungi fan - texnologiya rivojlangan davrda yoshlar empatiyasiga, motivatsiyasiga badiiy yoki ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan birgalikda ijtimoiy tarmoqlardagi qisqa video kontetnlar, podkastlar, turli janrdagi animelar (oxirgi yillarda yosh avlod orasida juda ommalashib bormoqda), qo'shiqlar, turli sohadagi o'sha davrdagi mashhur shaxslar (taniqli biznesmen, siyosatchi, san'atkor, diniy soha vakillari, bloger va h.k.) ta'siri oshib bormoqda.

Bo'lajak psixolog talabalar uchun empatiya kasbiy zaruriyat hisoblangani uchun bu sohada ta'lim oluvchi talabalarga ko'proq badiiy adabiyotlar mutolaa qilishlari, shaxslararo muloqot ko'nikmalarini oshishirishlari tavsiya etiladi. Talabalar o'z ustida ko'proq ishlab, ijobiy natijaga erishganlari sari, ularning o'quv motivatsiyasi oshishiga va tanlagan mutaxassisligiga bo'lgan qiziqishi ortib boradi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish talabalarning kasbiy o'sishi motivatsiyasini ularning doimiy motivlari va intilishlari to'plami sifatida aniqlashga imkon berdi, bu esa shaxsiy ehtiyojning o'sishining dinamik, uzluksiz va gumanistik yo'naltirilgan jarayonining mazmuni va yo'nalishini belgilaydi. Ichki potensialni amalga oshirish qobiliyati va shaxsiy kasbiy va shaxsiy strategiyani va hayot davomida ta'lim yo'nalishini ongli ravishda tanlash, buning natijasi bo'lajak mutaxassisning kasbiy malakasini shakllantirishning yuqori darajasidir[20].

Tadqiqotchi P.Ye. Vladimirovna ta'kidlashicha, "Talabalar suhbatdoshlariga yetarlicha e'tiborli bo'lishsa-da, ulardan alohida samimiylik kutish o'rinsiz." Talabalardan balki haqiqatdan ham alohida empatik munosabat kutish o'rinsizdir. Ammo milliy, etno psixologik xususiyatlardan olib qaralsa, empatik munosabat yoshlarimiz uchun ham shaxsiy, ham kasbiy sifatlardan biri uchun zaruriy komponentlardan biri deb qaralsa bo'ladi. Chunki milliy tarbiyaviy jihatdan ham empatiya, boshqalarni tushunish, boshqalar dardiga sherik bo'lish, daxldorlik tuyg'usini shakllantirish dolzarb masala hamda milliy sifatimizning ajralmas qismi bo'lib kelgan.

Keyingi maqolamizda o'zbek psixologlari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarni tahlilini yoritishga harakat qilamiz.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Влияние уровня развития эмпатии на статус студента в группе https://workspay.ru/work/54654/
2. Сизикова М.В. Эмпатия как личностная черта и профессиональное качество психологов-консультантов с различным стажем практической деятельности. Дисс. канд. психол. наук. – М., 2018. – 165 с.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

3. Павлина Е. В. Особенности Эмпатии у Студентов Вуза // Вестник магистратуры. 2022. №9 (132). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-empatii-u-studentov-vuza.
4. Зинченко В.П.,. Мещеряков Б.Г. Большой психологический словарь. – М.: АСТ-Москва; Прайм-Еврознак, 2009. – 867 с.
5. Гоулман Д. Эмоциональный интеллект. – М.: «Манн, Иванов Фервет», 2013. – 536 с.
6. Роджерс К. Эмпатия // Психология мотивации и эмоций / Под ред. Ю.Б. Гиппенрейтер, М.В. Фаликман. – М.: ЧеРо, 2002. – С. 428-430.
7. Гаврилова, Т.П. Эмпатия и ее особенности у детей младшего и среднего школьного возраста: Автореф. дис....канд. псих. наук. – М., 1977. – 20 с.
8. Бодалев А.А. Психология общения. Избр. психолог. труды. – М.–Воронеж, 1996. – 255 с.
9. Бохард, А. К. Эмпатия в клиент-ориентированной психотерапии: сопоставление с психоанализом и Я-психологии. // Иностранная психология. –-1993. – № 1. – С. 27-29.
10. Ильин, Е.П. Эмоции и чувства. – СПб. : Питер, 2001. – 752 с.
11. Грошев, И.В. Психофизиологические различия мужчин и женщин. М.: Изд-во Московского психолого-социального института; Воронеж, 2005. – 464 с.
12. Знаков В.В. Понимание в познании и общении. – Самара, СаиГПУ 2010. – 188 с.
13. Юсупов И.М. Психология эмпатии: теоретические и прикладные аспекты: Дисс. … д-ра психол. наук. – СПб., 1995. – 252 с.
14. Ergash G‘oziyev Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi) Pedagogika institutlari va universitetlarning talabalari uchun o‘quv qo‘llanma Toshkent «O‘qituvchi» 1994 - 178 б.
15. Никишов, С. Н. Психологические особенности эмпатии у студентов / С. Н. Никишов, И. С. Осипова. [Электронный ресурс] URL: https://cyberleninka.ru/article/n/psihologicheskie-osobennosti-empatii-u-studentov
16. Кузьмина В.П. Эмпатия в студенческом возрасте // Вестник ВятГУ, 2005. - №13. [Электронный ресурс]. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/empatiya-v-studencheskom-vozraste
17. Дроздикова-Зарипова А.Р. Исследование эмпатии у первокурсников – будущих педагогов и психологов в контексте саморазвития личности [Электронный ресурс]. URL: https://docviewer.yandex.ru/view/28078817/
18. Шутова Н.В., Ходыкина О.А. Теоретико-экспериментальное исследование развития эмпатических способностей у современных студентов // Современные научные исследования и инновации. 2016. № 4 [Электронный ресурс]. URL: https://web.snauka.ru/issues/2016/04/66958 (дата обращения: 09.08.2022).
19. Claudia Hammond Features correspondent, Does reading fiction make us better people? https://www.bbc.com/future/article/20190523-does-reading-fiction-make-us-better-people

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

20. R.M.Baxtiyorov. Talabalarda o‘quv motivatsiyasini shakllantirishning ijtimoiy–psixologik omillari. Principal issues of scientific research and modern education. Tom2 №8. B.55-66. https://doi.org/10.5281/zenodo.8045663

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Baxtiyorov Rafail Marsovich**, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, [**Бахтияров Рафаил Марсович**, старший преподаватель кафедры «Педагогика и психология», Ташкентский государственный университет востоковедения], [**Rafail M. Baxtiyorov**, Senior Lecturer, Department of Pedagogy and Psychology, Tashkent State University of Oriental Studies]; manzil: O‘zbekiston, Toshkent sh., Universitet ko‘chasi [адрес: Узбекистан, г. Ташкент, ул. Университет], [address: Uzbekistan, Tashkent city, Universitet street];

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №8

Original paper

# QAROR QABUL QILISH KO‘NIKMASINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

© S.H. Hasanova [1]✉

[1]O‘zbekiston Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** maqolada qaror qabul qilish ko‘nikmasining psixologik va pedagogik asoslari, uning shakllanish bosqichlari hamda ta’lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan. Bugungi o‘zgaruvchan va murakkab sharoitda samarali qaror qabul qilish salohiyati shaxsiy muvaffaqiyat va ijtimoiy integratsiyaning muhim omiliga aylangan.

**MAQSAD:** o‘quvchilarda qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirishga ta’sir qiluvchi psixologik jarayonlar, emotsional barqarorlik, refleksiya va metakompetensiyalarni aniqlash, shuningdek, ta’limda uni rivojlantirish usullarini asoslashdir.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda Kahneman, Damasio, Guilford, Facione, Simon kabi mutaxassislarning ilmiy qarashlari, shuningdek, problemga asoslangan o‘qitish, interaktiv metodlar, VR simulyatsiyalar va reflektiv baholash kabi pedagogik texnologiyalar tahlil qilindi. Kuzatuv, stsenariyli topshiriqlar, portfoliolar va reflektiv esse metodlari asosida qaror qabul qilish ko‘nikmasining rivojlanishiga baho berildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** qaror qabul qilish murakkab kognitiv-emotsional jarayon bo‘lib, metakognitiv monitoring, divergent fikrlash, emotsional intellekt va axloqiy pozitsiya bilan uzviy bog‘liq. Shaxsiy qadriyatlar, ilgari olingan tajriba, ijtimoiy stereotiplar va kognitiv uslub bu jarayonga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarda mustaqil qaror qabul qilishni rivojlantirish ta’lim muhitining xavfsizligi va reflektivligini talab etadi.

**XULOSA:** qaror qabul qilish ko‘nikmasi XXI asr metakompetensiyalaridan biri bo‘lib, uni rivojlantirish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy mas’uliyatni his qilishi va hayotiy vaziyatlarga ongli yondashuvini shakllantiradi. Pedagogik faoliyatda bu ko‘nikmani o‘rgatish psixologik komponentlar bilan uyg‘unlashtirilgan holda amalga oshirilishi zarur.

**Kalit so‘zlar:** qaror qabul qilish, psixologik asoslar, pedagogik yondashuv, metakompetensiyalar, emotsional intellekt, refleksiya, muammoli vaziyat, interaktiv metodlar, ta’lim texnologiyalari.

**Iqtibos uchun**: Hasanova.S.H. Qaror qabul qilish ko‘nikmasining psixologik-pedagogik asoslari. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №8. B.302-310.

## ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УМЕНИЯ ПРИНИМАТЬ РЕШЕНИЯ

© С.Х. Хасанова[1]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №8

[1]Узбекско- Финский педагогический институт, Самарканд, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в статье рассматриваются психологические и педагогические основы формирования навыков принятия решений в образовательной среде. Акцент сделан на значении этих навыков в условиях быстро меняющегося мира и необходимости их интеграции в процесс обучения.

**ЦЕЛЬ:** целью исследования является выявление психических процессов и факторов, влияющих на развитие навыков принятия решений у учащихся, а также обоснование эффективных педагогических подходов и технологий их формирования.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** использованы труды таких ученых, как Канеман, Симон, Гилфорд, Фасьоне, а также методы проблемного обучения, симуляции, рефлексивных эссе, сценарные задания, портфолио и наблюдение. Проанализированы влияния эмоций, когнитивного стиля, метапознания и социальных факторов.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** навык принятия решений включает когнитивные, аффективные и рефлексивные компоненты. Его развитие зависит от эмоциональной устойчивости, критического мышления, этических ориентаций и предыдущего опыта. Психологически безопасная и рефлексивная образовательная среда способствует лучшему усвоению данного метанавыка.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** навык принятия решений является ключевой метакомпетенцией XXI века. Его развитие обеспечивает учащимся способность к самостоятельному мышлению, ответственности и успешной социальной адаптации. Необходим комплексный психолого-педагогический подход в его формировании.

**Ключевые слова:** принятие решений, психологические основы, педагогический подход, метакомпетенции, эмоциональный интеллект, рефлексия, проблемная ситуация, интерактивные методы, образовательные технологии.

**Для цитирования**: Хасанова.С.Х. Психолого-педагогические основы умения принимать решения.// Inter education & global study.2025. vol.3 №8. С.302-310.

## PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF DECISION-MAKING SKILLS

© Sumanbar H. Hasanova[1]✉
[1]Uzbek-Finnish Pedagogical Institute, Samarkand, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** this article explores the psychological and pedagogical foundations of developing decision-making skills in students. In today's dynamic world, the ability to make effective decisions is essential for personal success and active societal participation.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №8

**AIM:** the aim of the research is to identify the key cognitive and emotional processes involved in decision-making, assess influencing factors such as emotional stability and value orientations, and present methods for cultivating these skills in educational practice.

**MATERIALS AND METHODS:** the study draws on theories by Kahneman, Simon, Guilford, Facione, and others, employing educational strategies such as problem-based learning, simulations, VR scenarios, reflective writing, and assessment through scenario-based tasks, observation protocols, and portfolios.

**DISCUSSION AND RESULTS:** decision-making is a complex process integrating metacognitive monitoring, divergent thinking, emotional regulation, and moral reasoning. Influences such as personal experience, social pressure, and thinking styles significantly affect outcomes. A safe and reflective learning environment supports students in mastering independent, conscious decision-making.

**CONCLUSION:** decision-making is a core 21st-century metacompetence. Its development requires the integration of psychological resilience, critical thinking, and ethical reflection. Teaching this skill demands a multidimensional pedagogical approach grounded in psychological principles.

**Keywords:** decision-making, psychological foundations, pedagogical approach, metacompetences, emotional intelligence, reflection, problem situations, interactive methods, educational technologies.

**For citation**: Sumanbar H. Hasanova. (2025) 'Psychological and pedagogical foundations of decision-making skills', Inter education & global study, vol.3 (8), pp. 302-310. (In Uzbek).

**Z**amonaviy ta'lim tizimi nafaqat bilim va ko'nikmalarni o'rgatish, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda to'g'ri va tezkor qaror qabul qilish salohiyatini shakllantirishni ham o'z oldiga muhim vazifa qilib qo'ygan. Hayotning har bir jabhasida, ayniqsa, tez o'zgaruvchan va murakkab sharoitlarda samarali qaror qabul qilish inson muvaffaqiyatining asosi hisoblanadi. Shu bois, qaror qabul qilish ko'nikmasining psixologik va pedagogik asoslarini chuqur o'rganish, uni ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish dolzarb masala sanaladi.

Zamonaviy ta'lim paradigmasida qaror qabul qilish (QQQ) ko'nikmasi shaxsning reflektiv fikrlashini, mustaqil tanlov qilishni va harakatlar oqibatini ilgari ko'ra olish salohiyatini bildiradi. Bu ko'nikma nafaqat rahbarlar yoki menejerlar uchun, balki har bir o'quvchi va pedagog uchun muhim ahamiyatga ega, chunki u insonni murakkab hayotiy va o'quv vaziyatlarda yo'naltiradi [Anderson, 2017].

Qaror qabul qilish ko'nikmasi muqobil tanlovlarni tahlil qilish, ehtimolliklarni baholash, ehtimoliy risklarni anglash va natijalarga javobgarlik his qilish elementlarini o'z ichiga oladi. Aynan shu sababli, bu ko'nikma XXI asr metakompetensiyalari qatoriga kiritilgan [OECD, 2021].

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №8

Psixologik asoslar: qaror qabul qilish jarayonining kognitiv modeli

Psixologiyada qaror qabul qilish kognitiv jarayon sifatida talqin qilinadi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi [Kahneman, 2011]:

1. Muammoli vaziyatni aniqlash – vaziyatda nomuvofiqlikni sezish.
2. Ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish – faktlarni aniqlash, variantlarni to‘plash.
3. Muqobil yechimlarni ishlab chiqish – mumkin bo‘lgan variantlarni ko‘rib chiqish.
4. Variantlarni baholash va ustuvorlikni belgilash – afzallik va kamchiliklarni solishtirish.
5. Qaror qabul qilish va uni amalga oshirish – tanlangan yo‘l bo‘yicha harakat qilish.
6. Natijani monitoring qilish va refleksiya – qarorning ijobiy yoki salbiy oqibatlarini tahlil qilish.

Daniel Kahneman qaror qabul qilishda “1-sistemali” (tezkor, intuitiv) va “2-sistemali” (sekin, tahliliy) fikrlashning muhimligini ta’kidlaydi [Kahneman, 2011]. Dastlabki fikrlash holati ko‘pincha noto‘g‘ri qarorlarga olib keladi, ammo refleksiya va tahlil orqali optimal yechimlarga erishish mumkin bo‘ladi.

Emotsional barqarorlik va qaror qabul qilish

Qaror qabul qilish faqat aql bilan emas, balki hissiyotlar bilan ham chambarchas bog‘liq. Emotsional barqarorlik, stressga bardoshlilik, impulslarni nazorat qilish – bu qaror qabul qilishdagi muhim psixologik faktorlar sanaladi [Damasio, 1994]. O‘quvchilar ko‘pincha emotsional stress yoki ijtimoiy bosim ostida noto‘g‘ri qarorlar qabul qiladilar. Shu bois, psixologik barqarorlikni rivojlantirish QQQ ni o‘rgatishning tarkibiy qismi bo‘lishi kerak.

Pedagogik asoslar: qaror qabul qilishni o‘rgatishning uslubiy yondashuvlari

Pedagogik nuqtai nazardan qaror qabul qilish o‘rgatiladigan ko‘nikma hisoblanadi. U quyidagi pedagogik yondashuvlar orqali rivojlantiriladi:

1. Muammoli o‘qitish (problem-based learning) – o‘quvchilarga muammoli vaziyatlar berilib, ularni o‘z yechimini topishga undash orqali [Hmelo-Silver, 2004].
2. O‘yinga asoslangan yondashuv (gamification) – qaror qabul qilish elementlari bo‘lgan rolli o‘yinlar, stsenariylar asosidagi topshiriqlar [Gee, 2007].
3. Kechiktirilgan refleksiya metodi – o‘quvchi o‘z qarorini vaqt o‘tib baholashi, xatolarini anglab yetishi.
4. Kollektiv muhokama va debatlar – turli nuqtayi nazarlarni solishtirish, qarorlar asoslanganligini baholash.

Bu yondashuvlar nafaqat qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi, balki tanqidiy fikrlash, muloqot, hamkorlik, va axloqiy pozitsiyani shakllantiradi [Brookfield, 2012].

Ta’lim psixologiyasida qaror qabul qilishga ta’sir qiluvchi omillar

O‘quvchilarning qaror qabul qilishiga quyidagi omillar kuchli ta’sir ko‘rsatadi:

Shaxsiy tajriba – ilgari qabul qilingan qarorlarning natijalari;

Ijtimoiy bosim – sinfdoshlar, oila, o‘qituvchi fikri;

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №8

Axborot hajmi va sifati – qaror asosida foydalaniladigan ma’lumotlar hajmi;

Axloqiy orientatsiya – shaxsning qadriyatlari va ichki axloqiy pozitsiyasi;

O‘quv muhitining xavfsizligi – xatoga yo‘l qo‘yishdan qo‘rqmaslik muhiti.

Shu boisdan, ta’lim muhitini ishonchli, inklyuziv va reflektiv tarzda tashkil qilish QQQ ni rivojlantirish uchun zarurdir [Niemi & Nevgi, 2014].

QQQ ni baholash va rivojlanishini monitoring qilish

Qaror qabul qilish ko‘nikmasini baholash oddiy testlar orqali amalga oshirilmaydi. U quyidagi vositalar orqali kuzatiladi:

Stsenariyli topshiriqlar – o‘quvchi muayyan vaziyatda qanday qaror qilganini yozma yoki og‘zaki shaklda ifodalaydi.

Kuzatuv protokollari – o‘qituvchi o‘quvchining qaror qabul qilishdagi fikrlash jarayonini tahlil qiladi.

Portfolio – o‘quvchining muqobil qarorlar va ularning natijalarini qayd etgan hujjatlar to‘plami.

Reflektiv esse – o‘quvchining o‘z qarorlarini nega qabul qilgani haqidagi fikrlarini yozma shaklda bayon etadi [Boud et al., 1985].

Qaror qabul qilishni rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalar

Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa, immersiv va interaktiv texnologiyalar, qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi:

VR stsenariylar – real hayotga o‘xshash vaziyatlarda qaror qilish imkonini beradi;

Simulyatsiyalar – ijtimoiy, texnologik yoki iqtisodiy muammolarni modellashtirish orqali qaror qabul qilish jarayonini mashq qilish [Radianti et al., 2020];

AI yordamida qaror daraxtlari – qaror variantlarini baholashda sun’iy intellektdan foydalanish.

Qaror qabul qilish ko‘nikmasi XXI asrning markaziy metakompetensiyalaridan biridir. U individual muvaffaqiyat, jamiyatdagi faol ishtirok va hayotiy strategik yo‘nalishlarni belgilashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu boisdan, bu ko‘nikmani ta’lim tizimida psixologik barqarorlik, kognitiv tayyorgarlik, refleksiya va axloqiy pozitsiya bilan uyg‘unlashtirgan holda shakllantirish — zamonaviy pedagogikaning ustuvor vazifasidir.

Qaror qabul qilishning psixologik mexanizmlari. Qaror qabul qilish insonning ongli faoliyati sifatida muhim kognitiv, affektiv va reflektiv jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu psixologik jarayonlar ichki psixik holat, tashqi omillar va o‘tmishdagi tajribaga asoslangan holda shakllanadi. G. Saymonning klassik modeliga ko‘ra, qaror qabul qilish bu muammoli vaziyatlarda oqilona yo‘l tanlash uchun ketma-ket bosqichlarda amalga oshadigan kognitiv faoliyatdir [Simon, 1977].

1. Muammo identifikatsiyasi – mavjud holat va kutilgan natija orasidagi tafovutni anglash. Bu bosqich qaror qabul qilish jarayonining boshlang‘ich va eng muhim elementi hisoblanadi. Muammo to‘g‘ri identifikatsiya qilinmasa, qolgan bosqichlar ham noto‘g‘ri yo‘naltiriladi. Psixologik jihatdan, bu bosqichda shaxs quyidagilarni amalga oshiradi:

Holatni umumiy baholash;

Disbalansni sezish;


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №8

O‘zining ehtiyojlari va maqsadlari bilan holatni solishtirish.

Bu bosqichda metakognitiv monitoring — ya’ni inson o‘z fikrlash jarayonini kuzatishi va nazorat qilishi — asosiy rol o‘ynaydi. Shuningdek, vaziyatdagi hissiy fon ham muammoni qanday qabul qilishga ta’sir etadi. Negativ emotsiyalar (masalan, xavotir yoki qo‘rquv) muammoni haddan ortiq murakkab deb baholashga olib kelishi mumkin [Lazarus, 1991].

2. Ma’lumot yig‘ish – muammoni hal qilish uchun zarur bo‘lgan fakt va dalillarni to‘plash. Bu bosqichda kognitiv resurslar faol harakatga kiradi: e’tibor, xotira, tafakkur. O‘rganilayotgan muammo bo‘yicha eng muhim ma’lumotlarni yig‘ish uchun shaxs:

Ma’lumot manbalarini aniqlaydi;

Ma’lumotlarni tahlil qiladi va baholaydi;

Muqobil fikrlar va dalillarni qidiradi.

Shu bosqichda o‘quvchilarga tanqidiy fikrlashni o‘rgatish, ishonchli va noaniq ma’lumotlarni ajrata olish ko‘nikmasi alohida o‘rin tutadi. Chunki noto‘g‘ri yoki yetarli bo‘lmagan ma’lumot asosida qabul qilingan qarorlar, odatda, samarasiz bo‘ladi [Facione, 2011].

3. Muqobil variantlarni ishlab chiqish – mumkin bo‘lgan yechimlar ro‘yxatini tuzish. Shaxs o‘zida mavjud bilimlar, ilgari o‘rganilgan strategiyalar va tajribalar asosida bir nechta muqobil yo‘llarni shakllantiradi. Bu bosqich ijodkorlik (kreativlik), lateral tafakkur va strategik fikrlashni talab qiladi. Psixologik nuqtai nazardan bu yerda divergent tafakkur — ya’ni bir necha yo‘l va g‘oya topa olish qobiliyati — kuchli ishlaydi [Guilford, 1967].

Ushbu bosqichni o‘quv muhitida rag‘batlantirish uchun quyidagi usullar qo‘llaniladi:

“Aqliy hujum” texnologiyasi;

“Agar ... bo‘lsa?” mashqlari;

“Rolli o‘yin” yoki stsenariyli muammolar bilan ishlash.

Har bir variant shakllanganda, shaxs ularni amalga oshirishdagi resurslar va sharoitlarni ham tahlil qiladi. Bu esa pragmatik tafakkurning shakllanishiga olib keladi [Sternberg, 1999].

4. Baholash va tanlov – har bir variantning ijobiy va salbiy jihatlarini ko‘rib chiqish. Qaror qabul qilishning markaziy bosqichi aynan baholash va tanlovdir. Bu yerda shaxs quyidagi savollarga javob topishga harakat qiladi:

Har bir yechim qanchalik real?

U qanday oqibatlarga olib keladi?

Eng maqbul, samarali va xavfsiz variant qaysi?

Psixologik jihatdan bu bosqichda:

Mantiqiy fikrlash;

Ehtimolliklar bahosi;

Riskni baholash;

Ichki ishonch va axloqiy pozitsiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu bosqichda emotsiyalar ham kuchli rol o‘ynaydi. “Emotsional intellekt” tushunchasi aynan shu yerda dolzarb bo‘ladi — ya’ni shaxs o‘z hissiyotlarini tahlil qila

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №8

oladi va ular qaroriga qanday ta’sir qilishini anglaydi [Goleman, 1995].

5. Qarorni amalga oshirish – tanlangan yo‘l bo‘yicha harakat qilish. Bu bosqich faqat intellektual emas, balki irodaviy jarayondir. Qarorni qabul qilish bilan uni real hayotga tatbiq etish orasida tafovut bo‘lishi mumkin. Shu boisdan, bu bosqichda quyidagi psixologik komponentlar muhim:

Motivatsiya;

Iroda va qat’iyat;

Mustaqillik va mas’uliyat.

O‘quvchilarda qarorni amalga oshirish ko‘nikmasini shakllantirish uchun amaliy topshiriqlar, loyiha asosida o‘qitish, rolli o‘yinlar muhim o‘rin tutadi. Bu orqali o‘quvchi “nima qilish” emas, “qanday amalga oshirish” haqida ham o‘rganadi [Kolb, 1984].

6. Natijani monitoring qilish va tahlil qilish – qarorning natijasini baholash va zarur bo‘lsa, uni qayta ko‘rib chiqish. Bu bosqich refleksiya va tahlil jarayonini o‘z ichiga oladi. Qaror qanday oqibatlarga olib keldi? Qanday xatolarga yo‘l qo‘yildi? Qanday saboqlar olindi?

Psixologik nuqtai nazardan bu bosqich quyidagilarga asoslanadi:

Metakognitiv tahlil;

Emotsional yetuklik;

Tajribaning integratsiyasi va ichki bilimga aylanishi.

Bu bosqichni pedagogik jihatdan quyidagilar bilan mustahkamlash mumkin:

Reflektiv esse va intervyular;

Portfolio yuritish;

Jamoaviy tahlil mashg‘ulotlari.

Yakuniy bosqich shaxsning o‘z qarorlariga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lishi, o‘z ustida ishlashi va o‘zgarishlarga tayyorligini shakllantiradi.

Qaror qabul qilish psixologik jihatdan murakkab, bosqichma-bosqich rivojlanadigan kognitiv, emotsional va ijtimoiy jarayonlarning integratsiyasidir. Har bir bosqichda turli psixik funksiyalar — tafakkur, e’tibor, xotira, refleksiya va emotsional barqarorlik — faol ishtirok etadi. Shu sababli, bu ko‘nikmani shakllantirishda ko‘p jihatli yondashuv zarur: muammoli o‘qitish, ijodiy mashqlar, reflektiv metodlar, emotsional salohiyatni rivojlantirish.

Bu bosqichlarni har bir o‘quvchi o‘ziga xos tarzda o‘zlashtiradi, va ularning individual farqlari ta’lim jarayonida inobatga olinishi lozim.

Psixologik omillar: Qaror qabul qilish jarayoni insonning individual psixologik xususiyatlari, psixik holati, o‘tmishdagi tajribalari va ichki qadriyatlariga chuqur bog‘liqdir. Quyida bu omillar har biri alohida ko‘rib chiqiladi:

1. Emotsional holat (qo‘rquv, ishonch, xavotir). Qaror qabul qilish jarayonida emotsiyalar markaziy rol o‘ynaydi. Psixologlar emotsional holatni qaror qabul qilishdagi “filtr” deb ataydilar. Masalan:

Qo‘rquv – shaxsni xavfsiz va riskdan yiroq variantga yo‘naltiradi, lekin bu yondashuv innovatsion yoki dadil qarorlar qabul qilishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №8

Xavotir – ehtimoliy salbiy oqibatlarni haddan ziyod baholashga olib keladi (bu holat “katastrofizatsiya” deb yuritiladi).

Ijobiy his-tuyg‘ular (ishonch, qoniqish) esa ko‘proq imkoniyatlarga ochiqlikni ta’minlaydi va muqobil variantlarni ko‘rishda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijobiy emotsiyalar kengroq e’tibor doirasini yaratadi va yaratuvchan fikrlashni rag‘batlantiradi, bu esa innovatsion qarorlar qabul qilish ehtimolini oshiradi [Fredrickson, 2001].

2. Shaxsiy qadriyatlar va ustuvorliklar. Qarorlar faqat ma’lumotga asoslanmaydi; ular shaxsning ichki qadriyatlari va ustuvorliklariga ham mos bo‘lishi kerak. Masalan:

Bir talaba “ta’lim sifati”ni eng muhim qadriyat deb bilsa, u boshqa shaharga ko‘chib ketish qarorini hech ikkilanmay qabul qiladi.

Boshqa bir kishi uchun “oila yaqinligi” ustuvor bo‘lsa, hatto yuqori stipendiya taklifi ham uni o‘zgarishga unday olmasligi mumkin.

Shaxsiy qadriyatlar – bu qarorlar filtridir. Ular muqobil variantlar ichida eng mos va ma’noli yo‘lni tanlashga yordam beradi [Schwartz, 1992].

3. Ilgari olingan tajriba va bilimlar. O‘tmishdagi muvaffaqiyatlar yoki xatoliklar shaxsning yangi vaziyatga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi. Tajriba asosidagi qarorlar:

Ko‘proq realistik bo‘ladi;

Risk darajasini aniqroq baholaydi;

Noaniq vaziyatda o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

Masalan, bir o‘qituvchi ilgari yangi pedagogik metodni muvaffaqiyatli qo‘llagan bo‘lsa, kelajakda yana eksperiment qilishga moyil bo‘ladi. Aksincha, salbiy tajriba xavfdan qochishga olib kelishi mumkin — bu holatni “avoidance bias” deb atashadi [Tversky & Kahneman, 1981].

4. Ijtimoiy stereotiplar va bosimlar. Qaror qabul qilishda shaxsning individualligi ijtimoiy ta’sir bilan kurashadi. Ayniqsa, quyidagi ijtimoiy ta’sirlar muhim rol o‘ynaydi:

Oilaviy bosim (masalan, ota-onaning kutgan yo‘nalishi);

Jamoaviy norma (muayyan guruh qaroriga qo‘shilishga bo‘lgan bosim);

Kollektiv stereotiplar (masalan, “ayollar texnika fanlarida yaxshi emas” kabi noto‘g‘ri ijtimoiy tasavvurlar).

Bunday stereotiplar shaxsning mustaqil fikr yuritishiga to‘sqinlik qiladi. Bu holat psixologiyada “konformizm” deb ataladi va ayniqsa o‘smirlik va ilk yoshlik davrida kuchli ifodalanadi [Asch, 1951].

5. Shaxsning kognitiv uslubi (analitik, intuitiv, reflektiv). Har bir insonning fikrlash uslubi turlicha bo‘ladi va bu ularning qaror qabul qilish shakliga bevosita ta’sir qiladi:

Analitik uslub – mantiqiy, ketma-ket tahlil qilishga moyil; bunday insonlar qarorni faktlarga asoslanib qabul qiladi.

Intuitiv uslub – tez, “ichki sezgi” asosida qaror qiladi; bu ko‘proq tajriba va emotsiyalarga tayanadi.

Reflektiv uslub – har bir harakatini tahlil qilib, uzoq o‘ylashga intiladi; bunday

ISSN 2992-9024 (online)
2025, №8

shaxslar ehtiyotkor va ko‘p variantlarni sinchiklab baholaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muammoli yoki stressli vaziyatlarda intuitiv qarorlar tezroq qabul qilinadi, biroq analitik yondashuvlar barqarorroq natijalarga olib keladi [Epstein, 1994].

Qaror qabul qilishga ta’sir qiluvchi psixologik omillar insonning ichki va tashqi dunyosi o‘rtasidagi muvozanatga asoslanadi. Emotsional barqarorlik, axloqiy qadriyatlar, ilgari olingan tajriba, ijtimoiy ta’sirlar va individual tafakkur uslubi — bularning barchasi qaror qabul qilish sifatini belgilaydi. Ta’lim jarayonida ushbu omillarni inobatga olgan holda o‘quvchilarda puxta va ongli qaror qabul qilish kompetensiyasini shakllantirish zarur.

Qaror qabul qilish ko‘nikmasining shakllanishi inson tafakkuri va emotsional salohiyatining uzviy qismi hisoblanadi. Ta’lim jarayonida mazkur ko‘nikmani rivojlantirish uchun psixologik-pedagogik yondashuvlarning ilmiy asosda qo‘llanilishi zarur. Ayniqsa, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, interaktiv metodlar, rolli o‘yinlar va ssenariy asosidagi mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarda mustaqil, ongli va mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyasini shakllantirish mumkin. Bu esa nafaqat ta’lim samaradorligini, balki o‘quvchilarning hayotga tayyorlik darajasini ham oshiradi. Shu nuqtai nazardan, qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirish zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Anderson A. Future-Proofing Education: Teaching Strategic Thinking and Foresight. — London: Springer, 2017.
2. Anderson A. Futures Literacy: A Key Competence for the 21st Century. – OECD Education Working Papers, 2017.
3. Anderson C. Foresight education and the development of future-oriented competencies. Futures, 2017.
4. Anderson C. The Adaptive School: A Sourcebook for Developing Collaborative Groups. – California: MiraVia, 2017.
5. Anderson L.W. Developing Thinking Skills in the Classroom. – London: Routledge, 2017.
6. Boud D., Keogh R., Walker D. Reflection: Turning Experience into Learning. – Routledge, 1985.

## MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Hasanova Sumanbar Hamroqulovna**, dotsent PhD [**Хасанова Суманбар Хамрокуловна**,доцент PhD], [**Hasanova Sumanbar Hamroqulovna** associate professor PhD]; manzil: Samarqand shahri, Spitamenshex ko‘chasi, 166-uy, [адрес: г. Самарканд, улица Спитаменшох, дом 166], [address: 166 Spitamenshokh Street, Samarkand].

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# REFLEKSIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK TRENINGLAR VA INTERAKTIV METODLARNING SAMARADORLIGI

© N.Sh. Omanova[1]✉

[1]Navoiy davlat universiteti, Navoiy, O‘zbekistan

Annotatsiya

**KIRISH**: mazkur maqolada refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishda psixologik treninglar va interaktiv metodlarning samaradorligi tahlil qilingan.

Refleksiya – shaxsning o‘zini anglash, o‘z fikr va xatti-harakatlarini tahlil qilish qobiliyati bo‘lib, uning rivojlanishi shaxsiy o‘sish, ijtimoiy moslashuv va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotda turli yoshdagi ishtirokchilar bilan olib borilgan treninglar asosida refleksiv qobiliyatlarning o‘sishi kuzatildi. Interaktiv metodlar – guruhli muhokamalar, rol o‘yinlari, “case-study” usullari orqali ishtirokchilarning faolligi, fikrlash chuqurligi va o‘z-o‘zini anglash darajasi oshgani aniqlandi. Maqola psixologik amaliyotda trening va interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligini ko‘rsatib beradi hamda ta’lim va tarbiya jarayonida ularni keng qo‘llash zarurligini asoslaydi.

**MAQSAD**: tadqiqotning asosiy maqsadi – refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishda psixologik treninglar va interaktiv metodlarning ahamiyatini ilmiy asoslash, ularning shaxsiy rivojlanish, kognitiv jarayonlar va ijtimoiy faoliyatga ijobiy ta’sirini aniqlashdir.

**MATERIALLAR VA METODLAR**: tadqiqotda psixologik trening dasturlari, interaktiv metodlar (guruhli muhokama, rol o‘yinlari, keys-stadi) hamda diagnostik testlardan foydalanildi. 100 nafar turli yoshdagi ishtirokchilar (talabalar, o‘qituvchilar va yosh mutaxassislar) tajriba-sinov jarayoniga jalb qilindi. Ma’lumotlar kuzatuv, suhbat, anketalashtirish, shuningdek, psixodiagnostik metodlar yordamida yig‘ildi. Statistik tahlilda qiyosiy tahlil va korrelyatsion metodlardan foydalanildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: olingan natijalar psixologik treninglar va interaktiv metodlar refleksiv qobiliyatlarning sezilarli darajada o‘sishiga olib kelishini ko‘rsatdi. Ishtirokchilarda o‘zini anglash darajasi, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish tezligi va emotsional intellekt rivojlanganligi qayd etildi. Guruhli ishlash natijasida ijtimoiy muloqot ko‘nikmalari, empatiya va hamkorlikdagi faoliyat samaradorligi ortdi. “Case-study” va rol o‘yinlari orqali esa talabalar va yoshlar o‘z tajribalarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa ularning refleksiv tafakkuri va metarefleksiv qobiliyatlarini rivojlantirdi.

**XULOSA:** olingan natijalar psixologik treninglar va interaktiv metodlar refleksiv qobiliyatlarning sezilarli darajada o‘sishiga olib kelishini ko‘rsatdi. Ishtirokchilarda o‘zini anglash darajasi, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish tezligi va emotsional intellekt

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

rivojlanganligi qayd etildi. Guruhli ishlash natijasida ijtimoiy muloqot ko‘nikmalari, empatiya va hamkorlikdagi faoliyat samaradorligi ortdi. “Case-study” va rol o‘yinlari orqali esa talabalar va yoshlar o‘z tajribalarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa ularning refleksiv tafakkuri va metarefleksiv qobiliyatlarini rivojlantirdi.

**Kalit so'zlar**: refleksiv yondashuv, refleksiv qobiliyatlar, psixologik treninglar, interaktiv metodlar, ta’limda innovatsiya, kognitiv rivojlanish, emotsional intellect, ijtimoiy muloqot, metarefleksiv fikrlash, talabalar faolligi, shaxsiy rivojlanish, kreativ fikrlash

**Iqtibos uchun**: Omanova N.Sh. Refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishda psixologik treninglar va interaktiv metodlarning samaradorligi. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. B.311–318.

## ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ТРЕНИНГОВ И ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В РАЗВИТИИ РЕФЛЕКСИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ

© Н.Ш. Оманова[1]✉
[1]Навоийский государственный университет, Навои, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: в данной статье анализируется эффективность психологических тренингов и интерактивных методов в развитии рефлексивных способностей. Рефлексия – это способность личности осознавать себя, анализировать собственные мысли и действия; её развитие играет важную роль в личностном росте, социальной адаптации и принятии правильных решений в проблемных ситуациях. В исследовании отмечено, что участие в различных тренингах способствует росту рефлексивных навыков у участников разного возраста. Применение интерактивных методов – групповых дискуссий, ролевых игр, кейс-стади – усилило активность, глубину мышления и уровень самосознания участников. В статье подчёркивается эффективность использования тренингов и интерактивных методов в психологической практике, а также их значимость для системы образования и воспитания.

**ЦЕЛЬ**: цель исследования – научно обосновать роль психологических тренингов и интерактивных методов в развитии рефлексивных способностей, выявить их влияние на личностное развитие, когнитивные процессы и социальную активность обучающихся.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: цель исследования – научно обосновать роль психологических тренингов и интерактивных методов в развитии рефлексивных способностей, выявить их влияние на личностное развитие, когнитивные процессы и социальную активность обучающихся.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: результаты исследования показали, что психологические тренинги и интерактивные методы значительно повышают уровень рефлексивных способностей. Участники продемонстрировали рост самосознания, улучшение навыков принятия решений в проблемных ситуациях и развитие

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

эмоционального интеллекта. Работа в группе способствовала укреплению коммуникативных умений, эмпатии и эффективности совместной деятельности. Использование кейс-стади и ролевых игр позволило участникам применять полученные знания в реальных жизненных ситуациях, что способствовало развитию рефлексивного и метарефлексивного мышления.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: результаты исследования показали, что психологические тренинги и интерактивные методы значительно повышают уровень рефлексивных способностей. Участники продемонстрировали рост самосознания, улучшение навыков принятия решений в проблемных ситуациях и развитие эмоционального интеллекта. Работа в группе способствовала укреплению коммуникативных умений, эмпатии и эффективности совместной деятельности. Использование кейс-стади и ролевых игр позволило участникам применять полученные знания в реальных жизненных ситуациях, что способствовало развитию рефлексивного и метарефлексивного мышления.

**Ключевые слова**: рефлексивный подход, рефлексивные способности, психологические тренинги, интерактивные методы, инновации в образовании, когнитивное развитие, эмоциональный интеллект, социальная коммуникация, метарефлексивное мышление, активность студентов, личностное развитие, креативное мышление.

**Для цитирования**: Оманова Н.Ш. Эффективность психологических тренингов и интерактивных методов в развитии рефлексивных способностей. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. С.311–318.

## THE EFFECTIVENESS OF PSYCHOLOGICAL TRAININGS AND INTERACTIVE

© Nuriya Sh. Omanova[1]✉
[1]Navoi State University, Navoi, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: this article analyzes the effectiveness of psychological training sessions and interactive methods in developing reflexive abilities. Reflection is the individual's capacity to be self-aware and to analyze their own thoughts and actions. Its development plays a crucial role in personal growth, social adaptation, and making the right decisions in problematic situations. The study showed that psychological training contributed to the growth of reflexive skills in participants of different ages. Interactive methods such as group discussions, role-playing, and case studies increased participants' activity, depth of thinking, and level of self-awareness. The article demonstrates the effectiveness of using training and interactive methods in psychological practice and emphasizes the need for their wide application in education and upbringing.

**AIM:** the main aim of the research is to scientifically substantiate the role of psychological trainings and interactive methods in the development of reflexive abilities,

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

and to determine their influence on personal development, cognitive processes, and students' social engagement.

**MATERIALS AND METHODS**: the study utilized psychological training programs, interactive methods (group discussions, role-playing, case studies), and diagnostic tests. A total of 100 participants of different ages (students, teachers, and young professionals) took part in the experimental process. Data was collected through observation, interviews, questionnaires, and psychodiagnostic tools. Comparative and correlational analysis methods were applied for data processing.

**DISCUSSION AND RESULTS**: the findings revealed that psychological training and interactive methods significantly enhance reflexive abilities. Participants demonstrated higher levels of self-awareness, improved decision-making skills in problematic situations, and increased emotional intelligence. Group work strengthened communication skills, empathy, and collaborative efficiency. Case studies and role-playing enabled participants to apply their knowledge in real-life situations, which further developed reflexive and meta-reflexive thinking.

**CONCLUSION**: psychological training and interactive methods are effective tools for developing reflexive abilities. Their implementation accelerates personal growth, fosters creative thinking, enhances emotional-intellectual potential, and improves students' social adaptation. Therefore, regular integration of training and interactive methods into the educational process is recommended as an important factor for increasing students' activity and improving learning effectiveness.

**Keywords**: reflexive approach, reflexive abilities, psychological training, interactive methods, educational innovation, cognitive development, emotional intelligence, social communication, meta-reflexive thinking, student activity, personal development, creative thinking.

**For citation**: Nuriya Sh. Omanova. (2025) 'The effectiveness of psychological trainings and interactive', Inter education & global study, vol.3 (8), pp.311–318. (In Uzbek).

**M**amlakatimizda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga moslashtirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprelda qabul qilingan "Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–2909-sonli qarori [1] va 2020 yilda yangi tahrirda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun [2] oliy ta'lim sohasida tub islohotlarga zamin yaratdi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar asosida olib borilayotgan tadqiqotlar ta'limning sifatini oshirish, zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlarni joriy etishga xizmat qilmoqda.

Xususan, refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirish talabaning o'z-o'zini anglash, mustaqil fikrlash va o'z faoliyatini tahlil qilish salohiyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Talabalarda ushbu ko'nikmalarni shakllantirishda psixologik treninglar va interaktiv metodlar (rol o'yinlari, munozaralar, "case-study", guruhiy tahlil va boshqalar)ning

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ahamiyati beqiyosdir. Tadqiqot aynan ushbu metodlar orqali refleksiv qobiliyatlarni qanday rivojlantirish mumkinligini, ularning samaradorlik darajasini o‘rganishga qaratilgan. Zamonaviy psixologik ta’lim mazmunini boyitishga qaratilgan ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimidagi amaliyotga bevosita tayanadi.

So‘nggi yillarda, xususan 2020-yildan boshlab refleksiv qobiliyatlar, psixologik treninglar va interaktiv metodlar orqali shaxsiy va kasbiy o‘sishni ta’minlash borasida ko‘plab xorijiy, MDH va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu izlanishlar ta’lim jarayonini insonparvarlashtirish, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni joriy etish hamda mustaqil fikrlovchi, o‘zini anglaydigan shaxsni shakllantirishga qaratilgan.

Xorijiy tadqiqotlar orasida T.F. Usheva, T.A. Jdanko va A.G. Shumovskaya (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotda refleksiv ko‘nikmalarni pedagogik faoliyatning ajralmas qismi sifatida baholab, ularni rivojlantirishda maxsus metodik yondashuvlar – treninglar, munozarali darslar, o‘z-o‘zini tahlil qilish mashqlaridan foydalanishni tavsiya etadilar. Ular fikricha, bu ko‘nikmalar o‘quvchi va talabaning o‘z-o‘zini anglash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va to‘g‘ri qaror qabul qilishiga yordam beradi [3].

A. Zak (2020) tomonidan ishlab chiqilgan “Reflexion-1” dasturi orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida metareflektiv fikrlashni shakllantirishga oid eksperimental tadqiqotlar ham muhim ahamiyatga ega. Dastur asosida olib borilgan treninglar natijasida o‘quvchilarda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, o‘z fikrini asoslab berish va reflektiv harakatlarni amalga oshirish ko‘nikmalari rivojlangani aniqlangan [4]. E. Balashov va V. Kalamazh (2020) tomonidan talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish va kognitiv refleksiya darajasini baholashga qaratilgan tadqiqot bo‘lib, unda reflektiv qobiliyatlarning kasbiy o‘sishga bevosita ta’siri empirik dalillar asosida ko‘rsatib berilgan. Mualliflar refleksiya darajasini aniqlashda diagnostik metodikalar (savolnomalar, testlar, kuzatuvlar)dan foydalanganlar [5].

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan [6] olib borilgan tadqiqotlar orasida RUDN universiteti olimalari tomonidan 2020-yilda amalga oshirilgan “Raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchilarning refleksiv qobiliyatlarini rivojlantirish” mavzusidagi tadqiqot alohida o‘ringa ega. U yerda interaktiv vositalar – onlayn treninglar, tahliliy mashqlar, “blended learning” (aralash ta’lim) orqali o‘qituvchi va talabada refleksiv fikrlashni rivojlantirish usullari yoritilgan.

N.Z. Rasulova (2022) tomonidan interaktiv metodlar (rol o‘yinlari, “case-study”, klaster usuli va boshqalar) yordamida talabalarda o‘z-o‘zini baholash, fikrlarini asoslash va o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish tajribalari yoritilgan [7].

Shuningdek, psixologiya va pedagogika sohasidagi mutaxassislar tomonidan yozilgan maqolalarda treninglar orqali shaxsiy o‘sish, refleksiya asosida o‘quv faoliyatini optimallashtirish, o‘quvchi va talabada psixologik moslashuvni ta’minlash yo‘llari izchil yoritilgan.

Tadqiqotda refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishda psixologik treninglar va interaktiv metodlarning samaradorligini aniqlash maqsadida sifat va miqdoriy yondashuvlar


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

uyg‘unlashtirildi. Metodologik jihatdan tadqiqot eksperimental usulga asoslandi, bunda ikki guruh — eksperimental va nazorat guruhi — taqqoslandi.

Eksperimental guruhda psixologik treninglar va interaktiv metodlardan foydalangan holda refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus dastur amalga oshirildi, nazorat guruhida esa an’anaviy ta’lim shakllari saqlab qolindi.

Metodologiyaning markazida refleksiv qobiliyatlarni aniq va ishonchli o‘lchash, shuningdek, treninglar jarayonida olingan natijalarni tizimli tahlil qilish uchun psixodiagnostik vositalar qo‘llanildi. Xususan, refleksiyaning kognitiv, emotsional va ijtimoiy komponentlarini o‘rganish uchun “Refleksiya darajasini aniqlash testi” (A.V. Karpov modifikatsiyasi), shuningdek, o‘z-o‘zini baholashga qaratilgan savolnomalar va strukturaviy suhbatlar ishlatildi.

Psixologik treninglarning mazmuni psixologik o‘zini anglash, metakognitiv fikrlash, hissiy va ijtimoiy refleksiyani rivojlantirishga qaratildi. Har bir mashg‘ulot interaktiv usullarga — muammoli vaziyatlarni muhokama qilish, rolli o‘yinlar, case-study, debat va guruh muhokamalari kabi metodlarga asoslandi. Ushbu yondashuv talabalarni faollikka, mustaqil fikrlashga va o‘z fikrlarini mantiqan asoslashga undadi, bu esa refleksiv qobiliyatlarning chuqurlashishiga yordam berdi.

Tadqiqot jarayonida ishtirokchilar faolligi, hissiy-ruhiy holati va o‘z-o‘zini anglash darajasi muntazam kuzatilib borildi. Bu kuzatuvlar interaktiv metodlarning psixologik ta’sirini aniqroq baholash imkonini yaratdi.

Tadqiqot natijalari psixologik treninglar va interaktiv metodlarning refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishda yuqori samaradorligini ko‘rsatdi. Eksperimental guruhda refleksiv qobiliyatlarning asosiy uchta komponenti — kognitiv (muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, o‘z fikrini asoslash), emotsional (o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish) hamda ijtimoiy (boshqalar nuqtai nazarini tushunish, empatiya) sezilarli darajada oshdi.

Quyidagi 1-jadvalda eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasidagi refleksiv qobiliyatlarning uch asosiy komponenti bo‘yicha o‘zgarishlar foizlarda taqdim etilgan:

**1-jadval**

**Refleksiv qobiliyatlarning asosiy komponentlari bo‘yicha eksperimental va nazorat guruhlarida o‘zgarishlar (foizlarda)**

| Refleksiv qobiliyat komponentlari | Eksperimental guruh (oldin) % | Eksperimental guruh (so‘ng) % | O‘sish % | Nazorat guruhi (oldin) % | Nazorat guruhi (so‘ng) % | O‘sish % |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Kognitiv | 54 | 69 | 27.8 | 55 | 56 | 1.8 |
| Emotsional | 51 | 66 | 29.4 | 52 | 53 | 1.9 |
| Ijtimoiy | 49 | 63 | 28.6 | 50 | 51 | 2.0 |

**Izoh:** Foizlarda o‘zgarishlar o‘rtacha ballardan hisoblab chiqildi.

Psixodiagnostika testlari natijasida refleksiv qobiliyatlar darajasi o‘rtacha 28% ga o‘sdi, bu esa psixologik treninglarning faol ijobiy ta’sirini aniq ko‘rsatadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

O‘z-o‘zini baholash natijalari ham o‘z fikrini erkin ifoda etish, muammolarni tahlil qilish va hissiy holatlarni boshqarish bo‘yicha sezilarli yaxshilanishlarni ta’minladi.

Shuningdek, interaktiv metodlar talabalarni faollashtirish, ijtimoiy muloqotni kuchaytirish va fikr almashishni rag‘batlantirish orqali refleksiv fikrlashni chuqurlashtirishda muhim rol o‘ynadi. Bu o‘z navbatida ularning metarefleksiv qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qildi. Quyidagi 2-jadvalda interaktiv metodlarning samaradorligi bo‘yicha eksperimental va nazorat guruhlarida kuzatilgan ijtimoiy faollik, muloqot va fikr almashish ko‘rsatkichlari taqqoslanadi.

**2-jadval**

**Eksperimental va nazorat guruhlarida interaktiv metodlarning ijtimoiy faollik va muloqotga ta’sirining o‘zgarishi (%)**

| Ko‘rsatkichlar | Eksperimental guruh (oldin) % | Eksperimental guruh (so‘ng) % | O‘sish % | Nazorat guruhi (oldin) % | Nazorat guruhi (so‘ng) % | O‘sish % |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Talabalar faolligi | 48 | 77 | 60.4 | 50 | 52 | 4.0 |
| Ijtimoiy muloqot | 45 | 75 | 66.7 | 46 | 47 | 2.2 |
| Fikr almashish (munozaralar) | 42 | 73 | 73.8 | 44 | 45 | 2.3 |

Nazorat guruhida ko‘rsatkichlardagi o‘zgarishlar minimal bo‘lib, an’anaviy ta’lim shakllarining ijtimoiy faollik va muloqotni rivojlantirishdagi samaradorligi past ekanligi yaqqol namoyon bo‘ldi. Bu esa psixologik treninglar va interaktiv metodlarning zamonaviy ta’lim jarayonlarida keng joriy etilishi zarurligini tasdiqlaydi.

Yakuniy tahlil shuni ko‘rsatadiki, psixologik treninglar va interaktiv metodlarning uyg‘un qo‘llanilishi talabalarning shaxsiy o‘sishiga, ayniqsa o‘zini anglash va boshqarish, qaror qabul qilish jarayonlarida sezilarli yordam beradi. Bu esa zamonaviy oliy ta’limda sifatli, mustaqil va kreativ fikrlovchi mutaxassislar tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqot psixologik treninglar va interaktiv metodlarning refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishdagi samaradorligini ilmiy asosda tasdiqladi. Eksperimental guruhda refleksiv qobiliyatlarning kognitiv, emotsional va ijtimoiy komponentlarida sezilarli o‘sish kuzatildi. Bu natija zamonaviy psixologik ta’lim jarayonlarida psixologik treninglar va interaktiv metodlarning muhimligini yaqqol ko‘rsatadi.

Interaktiv metodlar talabalar orasida faollikni oshirish, ijtimoiy muloqotni rivojlantirish va fikr almashishni rag‘batlantirish orqali refleksiv fikrlashning chuqurlashishiga xizmat qildi. Ushbu yondashuv talabalarning metarefleksiv qobiliyatlarini shakllantirishga yordam berib, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Nazorat guruhi bilan taqqoslaganda, an'anaviy ta'lim usullarining refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishdagi samaradorligi sezilarli darajada past ekanligi aniqlandi. Bu holat oliy ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarni — psixologik treninglar va interaktiv metodlarni — keng joriy etish zaruratini yanada mustahkamlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, psixologik treninglar va interaktiv metodlarning uyg'un qo'llanilishi nafaqat talabalarning o'zini anglash va boshqarish qobiliyatlarini oshiradi, balki ularni mustaqil fikrlash, kreativlik va ijtimoiy mas'uliyatga tayyorlaydi. Shu bois, ushbu metodlar zamonaviy ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanishi, oliy ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Kelgusida ushbu yondashuvlarni yanada takomillashtirish va ularni turli ta'lim sohalarida qo'llash samaradorligini o'rganish ilmiy tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–2909-sonli qarori. 2017 yil 20 aprel.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Yangi tahrir, 2020 yil.
3. Usheva T.F., Zhdanko T.A., Shumovskaya A.G. (2020). Development of reflexive skills in students – future teachers. *European Proceedings of Social and Behavioural Sciences*, Vol. 92.
4. Zak A. (2020). The "Reflexion 1" Program: Conditions of Intensive Formation of Metacognitive Skills in Elementary School. *Behavioral Sciences*, 10(3), 87.
5. Balashov E., Kalamazh V. (2020). Diagnostics of reflexive abilities to self-regulation and cognitive-level reflection in students. *Applied Psychology Journal*, Vol. 6, No. 3.
6. Vasbieva D.G., et al. (2020). Digital educational environment as a factor of developing teacher's professional reflection. *Redalyc*, 38(2), 35–42.
7. Rasulova N.Z. (2022). Interaktiv usullar orqali talabalar refleksiv madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi. *Society and Innovations*, 3(1), 75–80.

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Omanova Nuriya Shuhrat qizi, Navoiy davlat** universiteti **[Оманова, Нурия Шухрат кызы,** Навоийский государственный университет**], [Nuriya Sh. Omanova,** Navoi State University**];** manzil: O'zbekiston, Navoiy sh., I. Karimov ko'chasi, 54-uy, 30-xonadon [адрес: Узбекистан, ул. И. Каримова, 54-30, г. Наманган], [address: Uzbekistan, 54-30, I. Karimov st., Navoi city].

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# INTERNET QARAMLIGI ASOSIDA YUZAGA KELUVCHI “ZAMONAVIY MAUGLI SINDROMI”NING KLINIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA KORREKSIYA USULLARI

© R.B. Polvanov[1]✉

[1]Toshkent tibbiyot universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** maqolada internet qaramligi asosida yuzaga keluvchi “Zamonaviy Maugli sindromi’’ ning klinik-psixologik xususiyatlari, uning kelib chiqish sabablari va psixikaga ko‘rsatadigan ta’siri chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Ushbu sindrom shaxsning real hayotdan uzilib, virtual muhitga haddan ortiq bog‘lanishi natijasida yuzaga keladigan kompleks psixologik buzilish sifatida ko‘riladi.

**MAQSAD:** tadqiqotning asosiy maqsadi — zamonaviy Maugli sindromining klinik-psixologik xususiyatlarini aniqlash, diagnostik mezonlarini asoslash va uni bartaraf etish bo‘yicha samarali psixokorreksion usullarni ishlab chiqishdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda K. S. Young’ning Internet Addiction Test (IAT), DSM-5, ICD-11, Stroop testi, UCLA Loneliness Scale, va sotsiometrik tahlil kabi psixodiagnostik vositalar qo‘llanildi. Olingan natijalar SPSS dasturida kovariatsion va regressiya tahlili asosida qayta ishlanib, identitet diffuziyasi, affektiv labilik, ijtimoiy izolyatsiya kabi komponentlar o‘rganildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** tadqiqot zamonaviy Maugli sindromi klinik-psixologik jihatdan identitet buzilishi, kognitiv regressiya, ijtimoiy disengagement va emotsional beqarorlik bilan tavsiflanishini ko‘rsatdi. Respondentlarning 68,4 foizida real muloqotga qobiliyat pasaygani, 54,7 foizida esa kuchli ijtimoiy izolyatsiya belgilari qayd etildi. Psixokorreksiya dasturlari (KBT va psixoedukatsiya) ijobiy natija bergani aniqlangan.

**XULOSA:** internet qaramligi zamonaviy sharoitda jiddiy psixologik muammolarga olib kelmoqda. Zamonaviy Maugli sindromi diagnostikasi va korreksiyasi uchun integratsiyalashgan yondashuv muhim bo‘lib, uning bartaraf etilishi shaxsning real hayotga moslashuvini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** internet qaramligi, zamonaviy Maugli sindromi, klinik-psixologik xususiyatlar, ijtimoiy izolyatsiya, kognitiv-behavioral terapiya, psixokorreksiya, yoshlar psixologiyasi.

**Iqtibos uchun**: Polvanov R.B. Internet qaramligi asosida yuzaga keluvchi “zamonaviy maugli sindromi” ning klinik-psixologik xususiyatlari va korreksiya usullari. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №8. B.319–326.

## ИНТЕРНЕТ-ЗАВИСИМОСТЬ КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ «СОВРЕМЕННОГО СИНДРОМА МАУГЛИ»: КЛИНИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И МЕТОДЫ КОРРЕКЦИИ

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

© Р.Б. Полванов[1]✉
[1]Ташкентский медицинский университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в статье исследуются клинико-психологические особенности «Современного синдрома Маугли», формирующегося на фоне интернет-зависимости. Анализируется его влияние на психику, включая социальную изоляцию, снижение когнитивных функций и эмоциональную нестабильность.

**ЦЕЛЬ:** цель исследования — определить клинико-психологические параметры данного синдрома, обосновать диагностические критерии и разработать эффективные методы психокоррекции.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** использовались Internet Addiction Test (IAT) К. Янга, DSM-5, ICD-11, Stroop тест, шкала одиночества UCLA, социометрический анализ и клинические интервью. Данные обработаны в SPSS методами ковариационного и корреляционного анализа.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ:** установлено, что синдром проявляется через диффузию идентичности, социальную дезадаптацию, когнитивную регрессию и эмоциональную лабильность. У 68,4% испытуемых выявлено снижение навыков реального общения, у 54,7% — выраженная социальная изоляция. Программа психокоррекции (КПТ и психопросвещение) показала значительное улучшение.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** интернет-зависимость становится причиной глубоких психических нарушений. Комплексный подход к диагностике и лечению синдрома современного Маугли необходим для восстановления социальной адаптации личности.

**Ключевые слова:** интернет-зависимость, синдром современного Маугли, клинико-психологические особенности, социальная изоляция, когнитивно-поведенческая терапия, психокоррекция, психология молодежи.

**Для цитирования**: Полванов.Р.Б. Интернет-зависимость как фактор формирования «современного синдрома маугли»: клинико-психологические особенности и методы коррекции.// Inter education & global study.2025. №8. Vol.3 С.319–326.

## INTERNET ADDICTION-INDUCED “MODERN MAUGLI SYNDROME”: CLINICAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES AND CORRECTION METHODS

© Rasulbek B. Polvanov[1]✉
[1]Tashkent Medical University, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** this article examines the clinical-psychological features of the “Modern Maugl i Syndrome” that arises from internet addiction. The syndrome is characterized by social isolation, cognitive decline, and emotional instability due to excessive immersion in virtual environments.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**AIM:** the main goal is to define the clinical parameters of the syndrome, establish diagnostic criteria, and develop effective psychocorrectional strategies.

**MATERIALS AND METHODS:** the study employed K. S. Young's Internet Addiction Test (IAT), DSM-5, ICD-11, Stroop Test, UCLA Loneliness Scale, sociometric analysis, and structured interviews. Data were processed using SPSS with covariance and regression analysis to explore identity diffusion and social disengagement.

**DISCUSSION AND RESULTS:** the findings revealed that the syndrome includes identity diffusion, cognitive regression, emotional lability, and social withdrawal. 68.4% of participants showed weakened real-life communication skills, while 54.7% demonstrated high levels of social isolation. Cognitive-behavioral therapy and psychoeducational training showed notable improvement in scores.

**CONCLUSION:** internet addiction has become a serious psychological concern. An integrated approach to diagnosing and correcting Modern Maugl i Syndrome is essential for reintegrating individuals into real social life and restoring mental well-being.

**Keywords:** internet addiction, Modern Maugl i Syndrome, clinical-psychological features, social isolation, cognitive-behavioral therapy, psychocorrection, youth psychology.

**For citation**: Rasulbek B. Polvanov. (2025) 'Internet addiction-induced "modern maugli syndrome": clinical-psychological features and correction methods', Inter education & global study, Vol.3 (8), pp.319–326. (In Uzbek).

**XXI** asr boshidan boshlab axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi insoniyat hayotining barcha jabhalarini tubdan o'zgartirib yubordi, bunda internet tarmog'ining ommaviylashuvi shaxsning ijtimoiylashuv mexanizmlari, kommunikatsion modeli, axborotni qabul qilish va qayta ishlash jarayonlari hamda psixologik moslashuv tizimiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda; shundayki, virtual muhit inson uchun nafaqat ma'lumot manbai yoki muloqot vositasi, balki psixologik identitetning muhim komponentiga aylangan, natijada real va virtual olam o'rtasidagi chegaralar tobora xiralashib[1], ularning o'zaro o'rin almashishi jarayonida bir qator yangi psixologik va klinik fenomenlar yuzaga kelmoqda; shu jumladan, internet qaramligi fonida shakllanadigan va ilmiy adabiyotlarda "zamonaviy Maugli sindromi" sifatida talqin qilinayotgan murakkab psixopatologik holat shaxsning real ijtimoiy muhitdan ajralib, virtual makonga to'liq moslashuvi, real muloqot va ijtimoiy o'zaro ta'sir ko'nikmalarining degeneratsiyasi, shaxsiy identitetning diffuziyaga uchrashi hamda regressiv kognitiv va affektiv reaktsiyalar bilan namoyon bo'ladi; bu holatning ildizlari klassik Maugli sindromida bo'lgani kabi ijtimoiy deprivasiyada yotadi, biroq zamonaviy sharoitda deprivasiyaning manbai jismoniy ajralish yoki biologik yetimlik emas, balki virtual muhitning ortiqcha dominatsiyasi, real hayotdagi ijtimoiy aloqalarning sekin-asta yo'qolishi va shaxsning psixologik ehtiyojlarini faqat internet orqali qondirishga o'rganib qolishidir; ayniqsa, global tarmoqning anonimlik, cheksiz imkoniyatlar, tezkor mukofot (dopamin ajralishi orqali) va ijtimoiy ta'sir mexanizmlari yosh avlod ongida

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

mustahkamlanib, o‘smir va yoshlar guruhida real ijtimoiy muhitga integratsiya jarayonini murakkablashtiradi[2], bu esa klinik-psixologik jihatdan ijtimoiy disengagement, affektiv labilik, empatiya darajasining pasayishi, ijtimoiy qochish va o‘z-o‘zini identifikatsiyalash jarayonlarida izchillikning buzilishi kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi; shuningdek, internet qaramligining o‘zi psixologik nuqtai nazardan mustaqil nosog‘lom holat bo‘lib, u alkogolizm, qimorbozlik yoki giyohvandlik singari majburiy xatti-harakatlar sindromi doirasida ko‘rib chiqiladi, bu yerda shaxs o‘z xohishidan qat’i nazar onlayn bo‘lishga intiladi, onlayn muhitdan ajralganda esa psixologik “abstinensiya” belgilari, jumladan, bezovtalik, charchoq, emotsional beqarorlik va depressiv reaksiyalar paydo bo‘ladi; shu ma’noda, zamonaviy Maugli sindromi internet qaramligining og‘irroq, ijtimoiy-psixologik oqibatlari chuqurlashgan va shaxsning umumiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadigan shakli sifatida qaraladi.

Ilmiy manbalarda Young [3] tomonidan ishlab chiqilgan Internet Addiction Test (IAT) diagnostik vositasi qaramlik darajasini aniqlashda keng qo‘llanib kelinadi, Griffiths, Kuss va Lopez-Fernandez singari tadqiqotchilar esa turli madaniy muhitlarda internet qaramligi va unga bog‘liq psixopatologiyalarni tizimli o‘rganib, yosh avlod psixologiyasidagi transformatsiyalarni qayd etgan, ammo bevosita “zamonaviy Maugli sindromi” konsepsiyasining klinik-psixologik parametrlari, diagnostik mezonlari va korreksiya strategiyalari bo‘yicha chuqur empirik izlanishlar deyarli amalga oshirilmagan; bu esa mazkur mavzuni ilmiy jihatdan dolzarb qiladi, chunki shaxsning real ijtimoiy muhitdan uzoqlashishi, muloqot ko‘nikmalarini yo‘qotishi va virtual makonga to‘liq moslashuvi natijasida jamiyatning ijtimoiy tuzilmasida ham salbiy o‘zgarishlar sodir bo‘lishi mumkin; zamonaviy Maugli sindromining klinik-psixologik tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu holat identitet diffuziyasi (real va virtual o‘zlik o‘rtasidagi chegaralarning yo‘qolishi)[4], ijtimoiy disengagement (real aloqalardan butunlay chekinish va virtual jamoalarga to‘liq bog‘lanish), kognitiv regressiya (murakkab tafakkur operatsiyalarining qisqarishi, diqqatning pasayishi), affektiv labilik (emotsional beqarorlik, real muloqotda bezovtalik, virtual aloqada o‘zini xavfsiz his qilish) kabi komponentlardan tashkil topgan bo‘lib, ularning har biri shaxsning psixologik barqarorligi va ijtimoiy moslashuv darajasiga jiddiy zarar yetkazadi; bunday sharoitda zamonaviy Maugli sindromining diagnostikasi va korreksiyasi uchun integratsiyalashgan yondashuv zarur bo‘lib, bunda psixodiagnostik testlar (IAT, DSM-5, ICD-11), psixometrik baholash, klinik suhbat va kuzatuv metodlari uyg‘un holda qo‘llanadi, korreksiya jarayonida esa kognitiv-xulqiy terapiya, ijtimoiy ko‘nikmalarni tiklash dasturlari, guruh psixoterapiyasi, art-terapiya, real va virtual muloqot o‘rtasida muvozanatni o‘rnatishga qaratilgan psixoedukatsion treninglar muhim ahamiyat kasb etadi; ilmiy jihatdan asoslangan bunday yondashuvlar nafaqat individual shaxs darajasida, balki makroijtimoiy miqyosda ham ijobiy natijalar berishi, yoshlar o‘rtasida sog‘lom psixologik muhitni mustahkamlashi mumkin[5].

Shu bois ushbu tadqiqot internet qaramligi kontekstida zamonaviy Maugli sindromining klinik-psixologik xususiyatlarini tizimli tahlil qilish, uning diagnostik me’yorlarini aniqlash va samarali korreksiya strategiyalarini ishlab chiqish orqali nafaqat

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

psixologiya fani, balki ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy siyosat sohalarida ham amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki virtual muhitning ortiqcha dominatsiyasi shaxsning jamiyatdagi faol rolini pasaytiradi, ijtimoiy kapitalni kamaytiradi va kollektiv identitetni zaiflashtiradi; demakki, mazkur fenomenni ilmiy asoslangan holda o‘rganish va oldini olish choralarini ishlab chiqish bugungi kunda nafaqat dolzarb, balki strategik ahamiyatga ega masaladir.

Adabiyotlar tahlili: Kevin S. Young tomonidan 1996-yilda tavsiya etilgan Internet Addiction Test (IAT) kontseptsiyasi internetga qaramlikni tahlil qilish bo‘yicha eng mashhur psixometrik instrumentlardan biriga aylandi. Youngning nazariy-empirik yondashuvi shaxsning onlayn va oflayn hayotida vaqt, qiziqish va kontrol jihatlarida yuz beruvchi o‘zgarishlarni aniq texnik indikatorlar orqali tushuntiradi: masalan, doimiy internetda bo‘lish ehtiyoji, real hayotdagi majburiyatlarni unutish, onlayn bo‘lmagan paytda abstinentlik simptomlari — bezovtalik, tushkunlik va emotsional labilik.

Bu nazariya asosida yaratilgan IAT testlari global tadqiqotlarda internet qaramligi prevalensiyasini baholashda 0,3 % dan 26 % gacha natijalar berib, tahliliy xulosalarni boshqacha demografik va madaniy kontekstlar bilan solishtirish imkonini berdi. Youngning yondashuvi nosog‘lom onlayn xatti-harakatlarni klassik giyoh yoki qimor qaramligi modellariga analogiya qiladi va bu orqali fenomenni klinik miqyosda analiz qilishda namoyon qiladi. Shuningdek, Mark D. Griffiths va Christian Kuss & Lopez-Fernandez kabi olimlar tomonidan olib borilgan ishlar internet qaramligi va unga bog‘liq psixo-sotsial patologiyalarni madaniy-maydon, yosh guruhlari va shaxsiy profil asosida chuqur o‘rgandi.

Griffiths “behavioral addictions” (xulqga asoslangan qaramliklar) konseptsiyasida internetga qaramlikdagi salience (ustunlik), compulsive use (majburiy foydalanish), mood modification (kayfiyatni o‘zgarish), tolerance, withdrawal va functional impairment kabi markaziy komponentlarni belgilagan modelni ilgari surdi. Ularning tadqiqotlari ko‘rsatdiki, ushbu komponentlar an’anaviy alkogol yoki giyoh qaramligi me’yorlari bilan bir xil psixopatologik strukturalarni tashkil qiladi. Kuss & Lopez-Fernandez esa turli millatlarda internet qaramligi prevalensiyasini solishtirdi, yoshlar orasida bu holatning og‘riqli ijtimoiy ajratilish va identitet krizlari bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Ularning tahlillari epidemiologik masalalarni ijtimoiy kontekst, yosh, gender va madaniy yondashuvlar bilan kompleks tarzda yoritdi[6].

Hozirgi “zamonaviy Maugli sindromi” kontseptsiyasi esa yuqoridagi ikki nazariy-empirik yondashuvning integratsiyasi natijasida shakllanadi: Youngning IAT modeli internet qaramligini diagnostika qilishda strukturaviy asos bo‘lib xizmat qiladi, Griffiths va Kuss-Fernandez yondashuvlari esa bu qaramlikning identitet, ijtimoiy izolyatsiya, regressiv kognitiv va affektiv xususiyatlari bilan qanday kesishishini ochib beradi[7]. Shu tariqa, ikki olimning ilmiy asarlariga tayangan holda zamonaviy Maugli sindromini kliniko-psixologik jihatdan tahlil qilish uchun quyidagi struktura taklif etiladi: IAT orqali diagnostika bazasini aniqlash, keyin esa afektiv labilik, identitet diffuziyasi, ijtimoiy disengagement va kognitiv regresiya komponentlarini Griffiths uslubi bilan sintez qilish

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

orqali zamonaviy sindrom kontseptsiyasi yuzaga keladi. Bu sintez toximi O‘zbekiston yoki MDH hududida korreksiya strategiyalarini ishlab chiqishda nazariy-metodologik baza sifatida xizmat qilishi mumkin.

Metotologik qism: Ushbu tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy psixodiagnostika va klinik-psixologik tahlil vositalarining integratsiyalashgan majmuasi tashkil etib, unda internet qaramligi darajasini aniqlash uchun K. S. Young tomonidan ishlab chiqilgan Internet Addiction Test (IAT) psixometrik shkala, shaxsning klinik-psixologik profilini baholashda DSM-5 va ICD-11 diagnostik mezonlari, affektiv va kognitiv regressiyani aniqlash maqsadida Stroop testi hamda Wechsler Adult Intelligence Scale’ning modifikatsiyalangan variantlari, identitet diffuziyasi va ijtimoiy disengagement darajasini o‘lchash uchun Erikson Psixososial Rivojlanish Inventari va UCLA Loneliness Scale, shuningdek, shaxsning ijtimoiy-psixologik moslashuvini baholash uchun Rogers-Diamondning “Sotsial adaptatsiya” metodikasi qo‘llanildi, klinik suhbat va strukturalashtirilgan intervyular orqali sifat tahlillari amalga oshirildi, ijtimoiy-demografik ko‘rsatkichlar statistik jihatdan tahlil qilindi va olingan natijalar kognitiv-xulqiy terapiya hamda psixoedukatsion treninglar samaradorligini baholashda kovariatsion tahlil, Spearman korrelyatsiyasi va regressiya modellari yordamida qayta ishlanib, butun metodlar majmuasi yagona tizim sifatida zamonaviy Maugli sindromining kliniko-psixologik xususiyatlarini empirik asosda aniqlash va korreksiya strategiyalarini ishlab chiqishda qo‘llanildi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, internet qaramligi fonida rivojlanayotgan “zamonaviy Maugli sindromi” kliniko-psixologik strukturasida identitet diffuziyasi, ijtimoiy disengagement, kognitiv regressiya va affektiv labilik markaziy komponentlar sifatida namoyon bo‘lib, diagnostik o‘lchovlarda ishtirokchilarning 68,4 foizida yuqori darajadagi virtual identitet ustunligi va real muloqot ko‘nikmalarining zaiflashishi, 54,7 foizida esa kuchli ijtimoiy izolyatsiya tendensiyasi qayd etildi, Stroop testi natijalari diqqatning konsentratsiyasi va kognitiv moslashuvchanlikning sezilarli pasayganini ko‘rsatdi, UCLA Loneliness Scale bo‘yicha esa sub’ektlarning 71,2 foizi yuqori yolg‘izlik darajasiga ega bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar internetdan foydalanish chastotasi va onlayn bo‘lish davomiyligi bilan o‘rtacha kuchli ijobiy korrelyatsiya tashkil qildi, shuningdek, kognitiv-xulqiy terapiya va psixoedukatsion treninglardan iborat korreksiya dasturi qo‘llangach, IAT ballarida o‘rtacha 23,5 foizlik pasayish, affektiv barqarorlik ko‘rsatkichlarida esa 18,7 foizlik yaxshilanish kuzatilib, bu natijalar zamonaviy Maugli sindromining psixologik komponentlarini qisqartirish va shaxsning real ijtimoiy muhitga qayta integratsiyasini ta’minlashda mazkur integratsiyalashgan yondashuv samaradorligini isbotladi.

Muxokama: Internet qaramligi fonida yuzaga kelayotgan “zamonaviy Maugli sindromi”ni ilmiy izohlar orqali tahlil qilish jarayonida yetakchi xorijiy mutaxassislar — K. S. Young va M. D. Griffiths o‘rtasida ushbu fenomenning mohiyati, diagnostik chegaralari hamda klinik yondashuvlari borasida keskin nazariy munozara yuzaga kelgan. Young o‘zining klassik yondashuvida mazkur sindromni internet qaramligining murakkab subtipi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

sifatida talqin etib, uni nosog‘lom onlayn xatti-harakatlar spektriga qo‘shadi va bu holatni asosan kompulsiv foydalanish, abstinentlik simptomlari va funksional buzilishlar bilan tavsiflaydi[8]. Uning fikricha, zamonaviy Maugli sindromi mohiyatan real ijtimoiy muhitdan psixologik chekinishning natijasi bo‘lib, virtual muhitning ortiqcha dominatsiyasi bilan shaxsning ijtimoiy ko‘nikmalari regressiyaga uchraydi; bu holat klinik jihatdan majburiy xatti-harakatlar sindromi doirasida baholanib, uning diagnostikasi uchun Internet Addiction Test kabi valid vositalardan foydalanish kifoya qiladi.

Biroq Griffiths ushbu qarashni tanqidiy yondashuv bilan baholab, zamonaviy Maugli sindromini oddiy internet qaramligidan ajratish zarurligini ta’kidlaydi. Uningcha, mazkur sindromning asosiy ildizi nafaqat kompulsiv foydalanishda, balki shaxsning identitet transformatsiyasi va virtual ijtimoiy muhitga to‘liq moslashuvida yotadi; ya’ni, bu fenomenni faqat qaramlik mezonlari bilan chegaralash ilmiy jihatdan reduksionistik yondashuv hisoblanadi[9].

Griffiths empirik tadqiqotlariga tayangan holda shuni isbotlashga urinadiki, zamonaviy Maugli sindromi ijtimoiy disengagement, affektiv labilik, kognitiv regressiya va empatiya darajasining pasayishi kabi kompleks psixologik o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi va bularning barchasi birgalikda shaxsning real dunyodagi ijtimoiy funksionalligini keskin pasaytiradi. Young esa bu pozitsiyani qisman rad etib, identitet diffuziyasi va ijtimoiy disengagementni internet qaramligining rivojlangan bosqichidagi tabiiy oqibat sifatida talqin qiladi va alohida nosologik birlik sifatida ajratishga ehtiyoj yo‘qligini bildiradi[10].

Unga ko‘ra, zamonaviy Maugli sindromini alohida sindrom sifatida ko‘rib chiqish diagnostik jarayonni murakkablashtiradi va amaliy klinik ishda noaniqlik keltirib chiqaradi. Griffiths esa aksincha, uni alohida sindrom sifatida ajratish zarur, chunki bu klinik intervensiya strategiyalarini yanada maqsadli qilishga yordam beradi, deya ta’kidlaydi. Natijada, ushbu polemika shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy Maugli sindromining nazariy va klinik maqomi bo‘yicha yakdil ilmiy konsensus mavjud emas, biroq har ikkala yondashuv ham fenomenning murakkab psixologik tabiatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi va bu kelgusida yanada chuqurroq empirik tadqiqotlarni talab etadi.

Xulosa: Internet qaramligi zamonaviy sharoitda nafaqat shaxsning vaqt va diqqat resurslarini bevosita egallovchi psixologik buzilish sifatida, balki identitet diffuziyasi, ijtimoiy disengagement, kognitiv regressiya va affektiv labilik kabi kompleks psixologik o‘zgarishlarni o‘zida mujassam etuvchi “zamonaviy Maugli sindromi”ni shakllantiruvchi asosiy omil sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Ushbu sindromning klinik-psixologik xususiyatlarini aniqlash, uning diagnostik mezonlarini belgilash va empirik asoslangan korreksiya strategiyalarini ishlab chiqish orqali shaxsning real ijtimoiy muhitga qayta integratsiyasini ta’minlash mumkinligi isbotlandi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

1. Aminovna X. D. INTERNETGA QARAM SHAXSNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK PORTRETI: NAZARIY ASOSLAR //Modern education and development. – 2025. – T. 26. – №. 1. – С. 261-265.
2. Ulug'bekovna T. S., Kabilovich P. O. YOSHLAR O 'RTASIDA IJTIMOIY TARMOQQA QARAMLIK MUAMMO SIFATIDA HAMDA INTERNETGA TOBELIK DARAJASI //FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES. – 2025. – Т. 4. – №. 41. – С. 49-55.
3. Diloram M., Shohbozbek E. O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING MA'NAVIY DUNYO QARASHINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI //Global Science Review. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 207-215.
4. Nasriddinova G. INTERNET TARMOG'LARINI O'SMIRLAR TARBIYASIGA TA'SIRI //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – Т. 1. – №. 5. – С. 103-105.
5. Abdusattarovna O. X., Shohbozbek E. IJTIMOIY FALSAFADA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH //Global Science Review. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 175-182.
6. Сосновцева М. С. The impact of socialization on the psyche and development of children //СибАДИ. – 2020. – С. 364.
7. Petrova E., Gnatik E. The Transformation of the Environment in the Digital Age //5th International Conference on Contemporary Education, Social Sciences and Humanities-Philosophy of Being Human as the Core of Interdisciplinary Research (ICCESSH 2020). – Atlantis Press, 2020. – С. 131-134.
8. Таубаев Ж. Т., Мажитова А. Б. TENDENCY IN USE OF EPONYMS BASED ON MODERN LITERARY NAMES //«Абылай хан атындағы ҚазХҚжәнеӘТУ Хабаршысы Филология ғылымдары сериясы. – 2022. – Т. 65. – №. 2.
9. Atxamjonovna B. D., Shohbozbek E. RESPUBLIKAMIZDA MAKTABGACHA TA'LIMDA YOSHLARNING MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH //Global Science Review. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 221-228.
10. Steyn L., Barnard A. The coaching experience as identity work: Reflective metaphors //SA Journal of Industrial Psychology. – 2024. – Т. 50. – С. 2132.

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich**,mustaqil tadqiqotchi[**Полванов Расулбек Бахтиярович**,независимый исследователь,], [**Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich** independent researcher,]; manzil: Toshkent tibbiyot akademiyasi 100109, Toshkent, O'zbekiston, Farabi ko'chasi, 2, [адрес: Ташкентская медицинская академия 100109, Ташкент, Узбекистан, ул. Фараби, 2], [address: Tashkent Medical Academy 100109, Tashkent, Uzbekistan Farabi street 2.]

Ilmiy-nazariyvametodikjurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# MUSIQA TERAPIYA – STRESSGA BARDOSHLILIKNI RIVOJLANTIRUVCHI OMIL SIFATIDA

© N.Sh. Ruzmatova [1]✉

[1]Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH:** bugungi kunda stress va stressga bardoshlilik muammosi zamonaviy psixologiyaning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Stress inson organizmining tabiiy reaksiyasi bo‘lsa-da, uning kuchli va davomli shakllari sog‘liq hamda ijtimoiy faoliyatga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Stressni kamaytirishda musiqa terapiyasi muhim omil sifatida e’tirof etilmoqda.

**MAQSAD:** tadqiqotning asosiy maqsadi — klassik va rok musiqasining inson ruhiyati va fiziologik holatiga, xususan, arterial qon bosimiga ta’sirini empirik jihatdan o‘rganish, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash hamda stressga bardoshlilikni oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir.

**MATERIALLAR VA METODLAR**: tadqiqotda adabiyotlar tahlili, kuzatuv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va eksperiment metodlari qo‘llanildi. Beethovenning “Moonlight Sonata” (klassik) va Linkin Parkning “Papercut” (rok) asarlari asosida 26 nafar ishtirokchi bilan tajribalar o‘tkazildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR:** natijalar shuni ko‘rsatdiki, klassik musiqa tinglanganda arterial bosim pasayib, sokinlashtiruvchi ta’sir kuzatildi, rok musiqasi esa qon bosimini oshirib, fiziologik faollikni kuchaytirdi. Bu holat musiqaning ritmik va emotsional xususiyatlari bilan bog‘liq.

**XULOSA:** musiqa stressga bardoshlilikni rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib, janrga qarab inson ruhiyati va fiziologiyasiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Klassik musiqa tinchlantiruvchi, rok esa faollashtiruvchi ta’sir ko‘rsatadi. Musiqa terapiyasi psixologik maslahat va sog‘lomlashtirish amaliyotlarida keng qo‘llanishi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** stress, stressga bardoshlilik, musiqa terapiya, klassik musiqa, rok janri, qon bosimi.

**Iqtibos uchun**: Ruzmatova.N.Sh. Musiqa terapiya – stressga bardoshlilikni rivojlantiruvchi omil sifatida. // Inter education & global study. 2025. Vol.3 №8. B.327–333.

## МУЗЫКА КАК ФАКТОР, СПОСОБСТВУЮЩИЙ ТЕРАПИИ – СТРЕССОУСТОЙЧИВ

© Н.Ш. Рузматова[1]✉

[1] Институт переподготовки и повышения квалификации специалистов по физической культуре и спорту, Ташкент, Узбекистан

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ:** в современных условиях стресс и стрессоустойчивость остаются ключевыми проблемами психологии. Несмотря на адаптивную природу стресса, его чрезмерное воздействие негативно отражается на здоровье и социальной активности человека. Одним из эффективных средств снижения стресса является музыкотерапия.

**ЦЕЛЬ:** цель исследования — эмпирический анализ влияния классической и рок-музыки на психическое и физиологическое состояние человека, в частности на артериальное давление, выявление их положительных и отрицательных эффектов и разработка практических рекомендаций.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в работе использованы методы анализа литературы, наблюдения, сравнительного анализа, обобщения и эксперимента. Экспериментальная часть проведена с 26 участниками с использованием произведений Бетховена («Лунная соната») и группы Linkin Park («Papercut»).

**РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ:** установлено, что классическая музыка оказывает нормализующее и успокаивающее влияние на артериальное давление, тогда как рок-музыка чаще вызывает его повышение. Полученные данные подтверждают различное воздействие музыкальных жанров на вегетативную нервную систему.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** музыка является значимым фактором в развитии стрессоустойчивости. Классическая музыка стимулирует парасимпатическую систему, обеспечивая расслабление, а рок — симпатическую, вызывая физиологическую активизацию. Музыкотерапия может эффективно применяться в психотерапевтической и оздоровительной практике.

**Ключевые слова:** стресс, стрессоустойчивость, музыкотерапия, классическая музыка, рок-жанр, артериальное давление.

**Для цитирования**: Рузматова.Н.Ш. Музыка как фактор, способствующий терапии – стрессоустойчивости.// Inter education & global study.2025. Vol.3 №8. С.327–333.

## MUSIC AS A FACTOR CONTRIBUTING TO STRESS TOLERANCE THERAPY

© Nigina Sh. Ruzmatova[1]✉
[1]Institute of Retraining and Advanced Training of Specialists in Physical Culture and Sports, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION:** in modern society, stress and stress resilience remain central issues in psychology. Although stress is a natural adaptive response, its excessive intensity and duration negatively affect human health and social functioning. Music therapy is recognized as an effective approach to reducing stress.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**AIM:** the main aim of this study is to empirically analyze the impact of classical and rock music on human psychological and physiological states, particularly blood pressure, to identify their positive and negative effects, and to provide practical recommendations for strengthening stress resilience.

**MATERIALS AND METHODS:** the study employed literature review, observation, comparative analysis, generalization, and experimental methods. An experiment involving 26 participants was conducted using Beethoven's "Moonlight Sonata" (classical) and Linkin Park's "Papercut" (rock).

**RESULTS AND DISCUSSION:** the findings showed that classical music lowered blood pressure and had a calming effect, while rock music tended to increase blood pressure and enhance physiological activity. These effects are linked to the rhythmic and emotional characteristics of the musical genres.

**CONCLUSION:** music plays a significant role in developing stress resilience. Classical music activates the parasympathetic system, producing a calming effect, while rock stimulates the sympathetic system, leading to increased arousal. Music therapy can thus be effectively applied in psychological counseling and health promotion practices.

**Keywords:** stress, stress resilience, music therapy, classical music, rock genre, blood pressure.

**For citation**: Nigina Sh. Ruzmatova. (2025) 'Music as a factor contributing to stress tolerance therapy', Inter education & global study, Vol.3 (8), pp.327–333. (In Uzbek).

**B**ugungi globallashuv va tezkor hayot sharoitida inson ruhiyati va organizmi turli tashqi bosimlar, psixologik zo'riqish hamda stress omillariga tobora ko'proq duch kelmoqda. Psixologiya fanida stress fenomeni XX asr boshlaridan buyon chuqur o'rganilib kelinmoqda. Gans Selye (1936) stressni organizmning umumiy moslashuv sindromi sifatida ta'riflab, uni biologik hamda psixologik mexanizmlar orqali izohlab bergan. Shundan so'ng turli tadqiqotchilar stressning salomatlik, ijtimoiy faoliyat va shaxsiy rivojlanishga ta'sirini ko'rsatib o'tganlar (Lazarus & Folkman, 1984; Spielberger, 1991).

Stressning ijobiy jihatlari mavjud bo'lsa-da (masalan, qisqa muddatli faollashtiruvchi ta'siri), uning ortiqcha va davomli shakli inson ruhiyati va fiziologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqori darajadagi stress depressiya, tashvish buzilishlari, yurak-qon tomir kasalliklari, immunitetning susayishi kabi oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu bois, zamonaviy psixologiya oldida turgan asosiy vazifalardan biri – shaxsda stressga bardoshlilikni shakllantirish va uni rivojlantirish yo'llarini izlashdir.

Stressni kamaytirish usullari xilma-xil: psixoterapiya, relaksatsiya texnikalari, sport faoliyati, meditatsiya va boshqalar. So'nggi yillarda musiqa terapiyasi bu borada samarali vositalardan biri sifatida alohida e'tiborni tortmoqda. Musiqa inson hissiyotlariga bevosita ta'sir ko'rsatib, ruhiy barqarorlikni oshirish, kayfiyatni yaxshilash, fiziologik ko'rsatkichlarni (masalan, yurak urishi, qon bosimi) me'yorga keltirish xususiyatiga ega ekanligi

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

aniqlangan (Thoma et al., 2013; Koelsch, 2015).

Biroq, mavjud tadqiqotlarning aksariyati asosan musiqaning umumiy tinchlantiruvchi ta'siriga qaratilgan bo'lib, turli janrlarning (klassik, rok, pop va boshqalar) stressga bardoshlilik va fiziologik holatga ta'siri yetarlicha taqqoslab o'rganilmagan. Ayniqsa, klassik musiqa va rok musiqaning qon bosimiga bevosita ta'sirini o'rganish masalasi ochiq qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan, bizning tadqiqotimizning asosiy maqsadi – klassik va rok musiqasining inson qon bosimiga ta'sirini empirik jihatdan o'rganish, ularning salbiy va ijobiy jihatlarini aniqlash hamda stressga bardoshlilikni oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotimiz predmeti stressga bardoshlilik bo'lsada, bu masala stress muammosi bilan bevosita bog'liqligini hisobga olgan holda, dastlab stress tushunchasi bilan bog'liq qisqacha tahlillarga to'xtalish maqsadga muvofiqdir. «Stress» tushunchasining qo'llanilishi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, V.I. Petrushinning ma'lumotiga ko'ra, mazkur atama ilk marotaba 1303 yilda shoir R.Man tomonidan qo'llanilgan. Shoir atamani o'z she'rida ishlatgan va she'rda bu atama «Bu uqubat olloh tomonidan qirq yil qishni sahroda o'tagan va katta stressni boshidan kechirayotgan odamlarga yuborilgan» tarzida ifodalangan.

Stressni ilmiy atama sifatida ilk bor o'rganilishi esa kanadalik olim G. Selega tegishlidir. O'sha vaqtlarda nashr etiladigan «Nature» jurnalining 1936 yil 4 iyuldagi sonida G. Selening «Turli shikastlovchi omillar chaqiruvchi sindrom» deb nomlangan maqolasi chop etilgan va unda organizmning turli xil kasalliklarni qo'zg'atuvchi omillar ta'sirida yuzaga keladigan standart reaksiyalari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu ma'lumotlar stress haqidagi ta'limotning boshlanishiga asos bo'lgan.

Stressni fiziologik va psixologik tushunchalar sifatida turlarga ajratishga birinchi bor uringan olim R. Lazarusdir. U ilgari surgan konsepsiyadagi g'oyaga ko'ra, «Fiziologik stress real qo'zg'atuvchilar ta'sirida yuzaga keladi, psixologik stress esa mavjud vaziyatni inson o'z individual bilim va tajribalaridan kelib chiqqan holda xavfli va qiyin deb baholashi natijasida kelib chiqadi» . R. Lazarusning mazkur g 'oyasiga asosilangan holda keyingi yillarda stressni ikki turga - fiziologik stress va psixologik stressga bo'lish urf bo'ldi. Qayd etish lozimki, fiziologik stressda hamisha psixik elementlar mavjud bo'ladi va aksincha.

Stressga bardoshlilikni tadqiq etishning nazariy-uslubiy asoslari xorij va rus tadqiqotchilari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar asosida yaratilgan bo'lib, xorij tadqiqotchilari orasida stressga bardoshlilik borasida ilmiy izlanish olib borganlar qatorida bir qancha olimlarni sanab o'tish mumkin. Xususan, xorij tadqiqotchilaridan Compas B.E., Connor-Smith J., Saligman S., Thomsen A., Wadsworth S., Frydenberg E , Folkman S, Haan N, Lazarus R.S., MacCrae R., Perrez M, Thoits P kabi tadqiqotchilar hayotiy qiyin vaziyatlarda paydo bo'ladigan shaxs reaksiyalariga ta'sir etuvchi shaxs xulq-atvoridagi o'ziga xos jihatlar, xususan koping xulq, koping mexanizmlar, koping-strategiya va koping zaxiralarga tegishli jihatlami ham alohida qiziqish bilan o'rganganlar.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Tadqiqotimizda musiqa janrlarining qon bosimiga ta’sirini empirik jihatdan solishtirish maqsad qilingan. Eksperiment uchun ikki turdagi musiqa namunasi tanlab olindi: L. van Beethovenning “Moonlight Sonata” asari klassik musiqa namunasi sifatida va Linkin Park guruhining “Papercut” qo‘shig‘i rok janridagi namunaviy asar sifatida. Ushbu kompozitsiyalarni tanlashda ularning musiqiy xususiyatlari (tempi, ritmik murakkabligi, dinamik diapazoni) va tinglovchilar orasida keng tarqalganligi hisobga olindi.

Eksperiment Toshkent shahrida 26 nafar ko‘ngilli ishtirokchilar (yoshi 20 dan 35 gacha, erkak va ayollar) bilan o‘tkazildi. Tadqiqotdan oldin ishtirokchilarning fiziologik holati (arterial qon bosimi) standart elektron tonometr yordamida o‘lchandi. Ulardan 11 nafari me’yoriy qon bosimiga ega bo‘lsa, 14 nafari tadqiqot vaqtida yuqori qon bosimi ko‘rsatkichlariga ega ekanligi aniqlandi. Eksperiment jarayonida har bir ishtirokchi avval rok musiqasini, so‘ngra klassik musiqani 10 daqiqa davomida tingladi (tinglash oralig‘ida 15 daqiqalik tanaffus qoldirildi). Har bir tinglashdan so‘ng arterial bosim qayta o‘lchab borildi.

O‘tkazilgan tajriba natijalari musiqaning qon bosimiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Xususan, dastlab qon bosimi me’yorda bo‘lgan 11 nafar ishtirokchida rok musiqasi tinglagandan so‘ng arterial bosimning oshishi kuzatildi. Bu holat musiqaning yuqori tempi, intensiv ritmi va emotsional keskinligi bilan izohlanishi mumkin.

Qon bosimi yuqori bo‘lgan 14 nafar ishtirokchida esa klassik musiqa (Beethovenning “Moonlight Sonata”si) tinglangach, arterial bosim ko‘rsatkichlari pasaygani qayd etildi. Bu natija klassik musiqaning ohangdorligi, past tempi, muvozanatli ritmik tuzilishi va emotsional sokinligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, olingan natijalar musiqaning turli janrlari insonning fiziologik ko‘rsatkichlariga qarama-qarshi yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi: rok musiqasi ko‘proq simpatik nerv tizimini faollashtirsa, klassik musiqa esa parasimpatik tizimni rag‘batlantirib, organizmni tinchlantirishga yordam beradi. Bu esa musiqaning stressga bardoshlilikni shakllantirishdagi potensial ahamiyatini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, musiqaning turli janrlari insonning fiziologik ko‘rsatkichlariga, xususan, arterial qon bosimiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotimizda qo‘llanilgan Beethovenning “Moonlight Sonata” klassik asari tinglanganida yuqori qon bosimiga ega bo‘lgan sinaluvchilarda arterial bosimning pasayishi qayd etildi. Aksincha, Linkin Park guruhining “Papercut” rok janridagi qo‘shig‘i tinglanganidan so‘ng, dastlab qon bosimi me’yorida bo‘lgan ishtirokchilarda bosimning oshishi kuzatildi. Ushbu natijalar musiqaning emotsional intensivligi, ritmik tuzilishi va tempi insonning vegetativ nerv tizimi faoliyatiga bevosita ta’sir qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalari musiqani stressga bardoshlilikni rivojlantirish vositasi sifatida samarali qo‘llash mumkinligini tasdiqlaydi. Klassik musiqa parasimpatik nerv tizimini faollashtirib, tinchlantiruvchi, muvozanatlashtiruvchi ta’sir ko‘rsatsa, rok musiqasi simpatik nerv tizimini rag‘batlantirib, fiziologik faollikni oshiradi. Shu bois musiqiy janrlarni ongli


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

ravishda tanlash insonning ruhiy barqarorligini oshirishda, stressning salbiy oqibatlarini kamaytirishda va salomatlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Klassik musiqa insonning umumiy holatiga faqat ijobiy ta'sir ko'rsatadi, his-tuyg'ularni va hissiyotlarni tartibga soladi. Klassik musiqaning foydali ta'sirini isbotlash uchun keltirilgan asosiy dalil – u yurak ritmida yozilgan bo'lib, ya'ni 60-80 gerts tezlikda yaratilgan. Biroq, nima uchun faqat klassik musiqaga bunday yuqori baholar beriladi? Har qanday musiqa tinglash jarayonida butun miyaning ishlash faoliyati faollashadi, chunki miyaning turli qismlari musiqaning turli tarkibiy xususiyatlarini qayta ishlaydi. Bu holatni MRG tadqiqotlari ham tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, uning natijalaridan psixologik maslahat berish amaliyotida, shuningdek, musiqa terapiyasi dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Shu bilan birga, tadqiqot cheklovlari ham mavjud: ishtirokchilar sonining nisbatan kamligi va faqat ikki musiqa namunasi bilan cheklanish. Kelgusidagi izlanishlarda turli yosh guruhlari, turli psixologik holatlardagi shaxslar va boshqa musiqiy janrlarni qamrab olish zarur.

Umuman olganda, tadqiqot musiqaning inson fiziologik va psixologik holatiga ta'sirini tasdiqlab, uni stressga bardoshlilikni rivojlantirish vositasi sifatida keng qo'llash mumkinligini ko'rsatdi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Frydenberg E. Adolescent Coping Scale: Manual /E.Frydenberg, K.Lewis. - Melbourne: ACER press, 2003 -238
2. Folkman S. Personal control and stress and coping processes: A theoretical analysis // of Personality and Social Psychology. - 2004. Vol. 46. № 3. P. 96 – 102
3. Lazarus R.S. Psychological stress and the coping process. New YorK., 2016.- 466 p
4. Mac Crae R. Personality, coping and coping effectiveness in an adult sample / R. Mac Crae, P. Costa. // Journal of Personality. - 2006. - Vol. 54, № 2. - P. 385-405.
5. Петрушин В.И. Неврозы большого города. / В.И.Петрушин. - М.: Говорящая книга, 2004. - 368 с.
6. Compas B.E., Connor-Smith J., Saligman S., Thomsen A., W adsworthS. Coping with stress in childhood and adolescence: problems, progress and potential in theory and research. // Psychological Bulletin. - 2011. Vol. 127, № 1. P. 87-127.
7. Haan N. Coping and defense mechanisms related to personality inventories /N. Haan // J. Cons. Psychol. - 2015. - Vol. 29, № 4. - P. 373-378
8. Perrez M. Stress, Coping and Health: a situation behavior approach: theory, methods, applications / M. Perrez, M. Reicherts; Foreword by R.S. Lazarus. Seattle; Toronto; Bern: Hogret and Huber Publishers, 1992. - 233 p

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

9. Thoits P. Social support as coping assistance. // J. o f Consulting and Clinical Psychology. - 2016. Vol. 54. № 2. - P. 416-423

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Ruzmatova Nigina Shotilllo qizi**, doktorant [**Рузматова Нигина Шотилло қизи**,докторант], [**Ruzmatova Nigina Shotilllo qizi** doctoral student]; manzil: Tashkent, Shayxontoxur, Oklon ko'chasi 2, [адрес: Ташкент, Шайхантохур, улица Оклон 2], [address: Tashkent, Shaykhantokhur, Oklon street 2]

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Original paper

# TALABALARDA HAYOTIY STRATEGIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

© D.Y. Xudoyberganov [1]✉

[1]Urganch davlat pedagogika instituti, Urganch, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: ushbu maqolada talabalarda shaxsiy rivojlanish jarayonida hayotiy strategiyalarni shakllantirishning psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Insonning hayotiy maqsadlari va qadriyatlarini belgilashda ijtimoiy-madaniy muhit, individual psixologik xususiyatlar hamda ta’lim jarayonining o‘rni alohida yoritilgan. Shuningdek, talabalarda o‘zini anglash, motivatsiya, emotsional-intellektual rivojlanish, stressga qarshi turish ko‘nikmalari va qaror qabul qilish kompetensiyalarining shakllanishi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada hayotiy strategiyalarni shakllantirishning asosiy bosqichlari – maqsad qo‘yish, rejalashtirish, muammoli vaziyatlarda moslashuvchan yondashuvni qo‘llash va shaxsiy resurslardan samarali foydalanish mexanizmlari psixologik nuqtai nazardan yoritilgan.

**MAQSAD:** talabalarda hayotiy strategiyalarni shakllantirishning psixologik mexanizmlarini aniqlash, bu jarayonda motivatsiya, emotsional-intellektual rivojlanish, stressga qarshi turish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarining rolini ochib berish hamda ularni samarali shakllantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**MATERIALLAR VA METODLAR**: tadqiqot psixologik va pedagogik adabiyotlarni, ta’lim hamda yoshlar rivojlanishi bo‘yicha normativ hujjatlarni tahlil qilishga asoslangan. Talabalar o‘rtasida so‘rovnoma, suhbat va kuzatuvlar o‘tkazildi. Qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, psixologik test va keys-stadi metodlari qo‘llanildi. Shuningdek, action research elementlari yordamida talabalarning o‘zini rivojlantirish strategiyalari real ta’limiy sharoitlarda o‘rganildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: olingan natijalar talabalarning hayotiy strategiyalarini shakllantirishda ijtimoiy-madaniy omillar, oila muhiti va ta’limiy sharoitlar muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Motivatsiya va emotsional-intellektual yetuklik maqsad qo‘yish va qaror qabul qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Stressni boshqarish va o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalari rivojlangan talabalar muammoli vaziyatlarda yuqori moslashuvchanlik va barqarorlikni namoyon etdilar. Shuningdek, o‘zini anglash, moslashuvchan rejalashtirish va shaxsiy resurslardan oqilona foydalanish talabalar psixologik barqarorligini va shaxsiy muvaffaqiyatini oshirishga xizmat qilishi isbotlandi.

**XULOSA:** talabalarda hayotiy strategiyalarni shakllantirish murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u ijtimoiy-madaniy, motivatsion va kognitiv omillar uyg‘unligini talab qiladi. O‘zini anglash, motivatsiya, emotsional intellekt, stressga chidamlilik va qaror qabul qilish

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

kompetensiyalarini rivojlantirish talabalarning shaxsiy va kasbiy o‘sishi uchun zarurdir. Ta’lim muassasalari bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi, ular qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishi va talabalar psixologik barqarorligini kuchaytirishga yo‘naltirilgan dasturlarni joriy etishi lozim.

**Kalit so'zlar**: talaba, hayotiy strategiya, psixologik mexanizm, motivatsiya, emotsional-intellektual rivojlanish, stress, ijtimoiy-madaniy muhit, psixologik barqarorlik.

**Iqtibos uchun**: Xudoyberganov D.Y. Talabalarda hayotiy strategiyalarni shakllantirishning psixologik mexanizmlari. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. B.334–344.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЖИЗНЕННЫХ СТРАТЕГИЙ У СТУДЕНТОВ

© Д.Я. Худойберганов[1]✉
[1]Ургенчский государственный педагогический институт, Ургенч, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: в статье анализируются психологические механизмы формирования жизненных стратегий у студентов в процессе личностного развития. Подчеркивается роль социокультурной среды, индивидуальных психологических особенностей и образовательного процесса в определении жизненных целей и ценностей человека. Также рассматривается формирование самосознания, мотивации, эмоционально-интеллектуального развития, навыков стрессоустойчивости и компетенций принятия решений у студентов. В статье анализируются основные этапы формирования жизненных стратегий – постановка целей, планирование, применение гибкого подхода в проблемных ситуациях и механизмы эффективного использования личных ресурсов с психологической точки зрения.

**ЦЕЛЬ**: выявить психологические механизмы формирования жизненных стратегий у студентов, раскрыть роль мотивации, эмоционально-интеллектуального развития, стрессоустойчивости и навыков принятия решений в данном процессе, а также разработать научно-практические рекомендации по их эффективному формированию.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: исследование основано на анализе психологической и педагогической литературы, нормативных документов в области образования и развития молодежи, а также эмпирических данных, полученных с помощью опросов, интервью и наблюдений среди студентов. Применялись методы сравнительного анализа, контент-анализа, психологического тестирования и кейс-стади. Использовались элементы action research для изучения стратегий саморазвития студентов в реальных образовательных условиях.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: результаты показали, что формирование жизненных стратегий студентов в значительной мере зависит от социокультурных

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

факторов, семейной среды и образовательных условий. Мотивация и эмоционально-интеллектуальная зрелость имеют решающее значение в постановке целей и принятии решений. Студенты, обладающие развитыми навыками стрессоустойчивости и саморегуляции, демонстрируют более высокую адаптивность и устойчивость в проблемных ситуациях. Установлено, что развитие самосознания, гибкого планирования и рационального использования личных ресурсов способствует психологической стабильности и успешному личностному росту студентов.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**: формирование жизненных стратегий у студентов – это сложный психологический процесс, требующий интеграции социокультурных, мотивационных и когнитивных факторов. Развитие самосознания, мотивации, эмоционального интеллекта, стрессоустойчивости и компетенций принятия решений имеет ключевое значение для личностного и профессионального роста студентов. Образовательные учреждения играют важную роль в этом процессе, создавая поддерживающую среду и реализуя программы, направленные на укрепление психологической устойчивости и формирование жизненных стратегий у молодежи.

**Ключевые слова**: студент, жизненная стратегия, психологический механизм, мотивация, эмоционально-интеллектуальное развитие, стресс, социокультурная среда, психологическая устойчивость.

**Для цитирования**: Худойберганов Д.Я. Психологические механизмы формирования жизненных стратегий у студентов. // Inter education & global study. 2025. vol.3, №8. С.334–344.

## PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF FORMING LIFE STRATEGIES IN STUDENTS

© Doniyorbek Y. Xudoyberganov[1]✉
[1]Urgench State Pedagogical Institute, Urgench, Uzbekistan

Annotation

**INTRODUCTION**: this article analyzes the psychological mechanisms of forming life strategies in students in the process of personal development. The role of the socio-cultural environment, individual psychological characteristics, and the educational process in determining a person's life goals and values is highlighted. Also, the formation of self-awareness, motivation, emotional-intellectual development, stress resistance skills, and decision-making competencies in students is theoretically and practically covered. The article analyzes the main stages of forming life strategies - goal setting, planning, applying a flexible approach in problem situations, and the mechanisms of effective use of personal resources from a psychological point of view.

**AIM:** the main aim of the study is to identify the psychological mechanisms of life strategy formation in students, to reveal the role of motivation, emotional-intellectual development, stress resistance, and decision-making skills in this process, and to develop scientific-practical recommendations for their effective development.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

**MATERIALS AND METHODS**: the research is based on the analysis of psychological and pedagogical literature, normative documents on education and youth development, as well as empirical data obtained through student surveys, interviews, and observations. Methods such as comparative analysis, content analysis, psychological testing, and case studies were used. Elements of action research were also applied to examine students' self-development strategies in real educational settings.

**DISCUSSION AND RESULTS**: the research is based on the analysis of psychological and pedagogical literature, normative documents on education and youth development, as well as empirical data obtained through student surveys, interviews, and observations. Methods such as comparative analysis, content analysis, psychological testing, and case studies were used. Elements of action research were also applied to examine students' self-development strategies in real educational settings.

**CONCLUSION**: the research is based on the analysis of psychological and pedagogical literature, normative documents on education and youth development, as well as empirical data obtained through student surveys, interviews, and observations. Methods such as comparative analysis, content analysis, psychological testing, and case studies were used. Elements of action research were also applied to examine students' self-development strategies in real educational settings.

**Keywords**: student, life strategy, psychological mechanism, motivation, emotional-intellectual development, stress, socio-cultural environment, psychological stability.

**For citation**: Doniyorbek Y. Xudoyberganov. (2025) 'Psychological mechanisms of forming life strategies in students', Inter education & global study, vol.3 (8), pp.334–344. (In Uzbek).

**B**ugungi tez o'zgarayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda talaba yoshlarning hayotiy yo'lini ongli ravishda belgilashi, maqsad qo'yish va ularni bosqichma-bosqich amalga oshirishga qodir bo'lishi nafaqat individual farovonlik, balki jamiyatning intellektual salohiyati uchun ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Hayotiy strategiya — bu shunchaki "kelajak rejasi" emas, balki shaxsning qadriyatlari, motivlari, resurslari va kontekstual omillar uyg'unligida shakllanadigan, qaror qabul qilish uslubi va o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini birlashtiruvchi murakkab psixologik tizimdir. Ayniqsa talabalik davri — identifikatsiya, kasbiy yo'nalish va ijtimoiy rolni izchil shakllantirish jarayonlari kesishadigan bosqich — hayotiy strategiyalarni konstruktiv modelda pishitish uchun noyob "o'sish oynasi"ni taqdim etadi.

Talabalarning hayotiy strategiyalari odatda to'rtta yadro komponentda mujassam: motivatsion (nimaga intilaman?), kognitiv-metakognitiv (qanday fikrlayman va o'rganaman?), irodaviy-emosional (qarshilik va stressni qanday boshqaraman?), hamda ijtimoiy-instrumental (resurslarni qanday safarbar qilaman?). Ushbu komponentlar o'zaro tarmoq hosil qilib, shaxsning maqsad qo'yish, istiqbolni tasavvur qilish, rejalashtirish, muammoli vaziyatlarda moslashish va refleksiya qilish qobiliyatlarini harakatga keltiradi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Mazkur tizimning markazida esa “ma’nolilik” (hayot mazmuni, qadriyat mazmuni) va “o‘z samaradorligiga ishonch” turadi — ular strategik yo‘nalishni barqaror tutib turuvchi psixologik “tayanch nuqtalari”dir.

Oliy ta’lim muhitining o‘zi ham strategiya qurilishiga faol ta’sir ko‘rsatadi. Akademik talablardagi murakkablik, raqamli o‘qitish texnologiyalari, mustaqil ta’limning ulushi, hamkorlikdagi loyiha va amaliyotlar, shuningdek mehnat bozorining cheklov va imkoniyatlari talabaning qarorlar matritsasini shakllantiradi. Ta’lim muhitida aniq maqsad-mantiqqa ega topshiriqlar, differensial yondashuv va refleksiv tahlil amaliyoti kuchli bo‘lsa, talaba “tasodifiy reaktivlik”dan “ongli strategik faoliyat”ga ko‘chadi. Aksincha, baholashning faqat natijaga yo‘naltirilgan, jarayonni e’tibordan chetda qoldiradigan modellarida talabaning ichki motivatsiyasi susayib, qisqa muddatli taktikalarga qaramlik kuchayishi mumkin.

Shu nuqtada psixologik mexanizmlar maydonga chiqadi. O‘zini-o‘zi belgilash (autonomiya, kompetentlik, ijtimoiy bog‘liqlik ehtiyojlari) ichki motivatsiyani qo‘llab-quvvatlaydi; maqsad qo‘yishning aniq va o‘lchanadigan tamoyillari e’tiborni jamlaydi; metakognitiv monitoring va refleksiya esa xatolardan o‘rganish, yo‘l-yo‘riqni moslashtirish imkonini beradi. Emotsional o‘zini boshqarish va stressga chidamlilik resurslari (rezilyentlik) strategiyani “uzoq masofaga” olib chiqadi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tarmoqlari esa rejalarning real sharoitlarda sinovdan muvaffaqiyatli o‘tishini ta’minlaydi. Mazkur mexanizmlar birgalikda ishlaganda talaba o‘z istiqbolini “muvozanatli optimizm” bilan ko‘ra oladi: xatarlarni inkor qilmaydi, biroq ularni boshqariladigan vazifalarga ajratadi.

Talabalik davrining rivojlanish psixologiyasi ham strategiya dizaynida muhim. “Yangi paydo bo‘layotgan kattalik” bosqichiga xos xususiyat — tajriba orttirish va tanlov ko‘lamining kengligi — ko‘p yo‘llilik illuziyasini tug‘dirishi mumkin. Shuning uchun ham ustuvorlikni belgilash, “yo‘q” deyish ko‘nikmasi, vaqt va diqqatni rejalashtirish kabi irodaviy amaliy kompetensiyalar strategiyaning markaziga chiqadi. Shu bilan birga, talabaning qadriyatlar tizimi — jamiyat ehtiyojlari, oilaviy kutishlar va shaxsiy intilishlar kesishmasida — ichki murosaga kelishi zarur: qadriyatlar va maqsadlar mosligi kuchli strategik uyg‘unlikni beradi, mos kelmaslik esa ichki tanglik va prokrastinatsiyani kuchaytiradi.

Bugungi mehnat bozorida ko‘nikmalar tez “eskirishi” fonida strategik moslashuvchanlik — qayta o‘qish, ko‘nikmalarni transfer qilish, yangi rollarga ko‘chish — muhim raqobat ustunligiga aylanmoqda. Shu sababli hayotiy strategiya “bir martalik yo‘l xaritasi” emas, balki muntazam qayta ko‘rib chiqiladigan, ma’lumotlar va tajriba bilan yangilanadigan “jonli hujjat” bo‘lishi kerak. Refleksiv davriylik (oylik, semestrlik, yillik tekshiruvlar), kichik tajribalar (pilot loyihalar, qisqa amaliyotlar) va baholash indikatorlari (o‘quv, kasbiy va shaxsiy farovonlik mezonlari) strategiyaning barqarorligini oshiradi.

Mazkur tadqiqot talabalarda hayotiy strategiyalarni shakllantirishning psixologik mexanizmlarini chuqur va kontekstga sezgir tarzda ochib berish uchun aralash usullarga tayangan, aniqrog‘i tushuntiruvchi ketma-ket (explanatory sequential) dizaynda qurildi. Bunda birinchi bosqichda keng qamrovli miqdoriy ma’lumotlar yig‘ilib, mexanizmlar o‘rtasidagi strukturaviy munosabatlar modellandi; ikkinchi bosqichda kvazieksperimental

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

yondashuv orqali aniqlangan mexanizmlarning o‘quv jarayonida amaliy ta’siri sinovdan o‘tkazildi; uchinchi bosqichda esa yarim tuzilmaviy suhbatlar yordamida talabalarning sub’ektiv tajribalari, ma’no berish jarayonlari va strategik qarorlar ortidagi motivatsion-kognitiv mantik yoritildi. Dizaynning bunday ketma-ketligi miqdoriy natijalarni tushuntirishga xizmat qiluvchi sifat ma’lumotlarini joyida, real ta’limiy muhitda to‘plash imkonini berdi.

Ishtirokchilar va tanlash. Miqdoriy bosqichda ishtirokchilar O‘zbekistonning turli yo‘nalishlardagi oliy ta’lim muassasalaridan tabaqalashtirilgan tanlash (fakultet, kurs, jins va talim shakli bo‘yicha) asosida jalb qilindi. Maqsad — ijtimoiy-demografik qatlamlar bo‘yicha vakillilikni ta’minlab, mexanizmlarning barqarorligini tekshirishdir. Ushbu bosqich uchun 400–600 nafar talaba hajmidagi namuna rejalashtirildi, bu o‘lchov vositalarining faktor tuzilmasini barqaror baholash va strukturaviy tenglamalar modeli (SEM)ni ishonchli hisoblash uchun etarli statistika beradi. Kvazieksperimental bosqichda 2 ta parallel guruh (intervensiya va nazorat) shakllantirildi; har bir guruhda 60–80 nafardan ishtirokchi qatnashdi. Sifat bosqichida “maksimal farqlilikka yo‘naltirilgan tanlash” tamoyili asosida 20–30 nafar talaba bilan yarim tuzilmaviy intervyu o‘tkazildi; bunda motivatsiya profillari, akademik ko‘rsatkichlar va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi bo‘yicha turlicha tasnif vakillari qamrab olindi.

O‘lchov vositalari va moslashtirish. Hayotiy strategiyalarni operatsionallashtirish uchun mualliflik asosida ishlab chiqilgan va mahalliy madaniy-kontekstga moslashtirilgan “Hayotiy Strategiyalar Savolnomasi (HSS)” qo‘llandi. U quyidagi subshkalalarni o‘z ichiga oldi: (1) maqsad qo‘yish va istiqbolni tasavvur qilish; (2) rejalashtirish va vaqt boshqaruvi; (3) moslashuvchanlik va muammoli vaziyatlarda strategik yondashuv; (4) refleksiya va metakognitiv monitoring; (5) emotsional o‘zini boshqarish; (6) ijtimoiy resurslarni safarbar qilish. Mexanizmlarni aniqlashtirish va nazorat o‘zgaruvchilarini hisobga olish uchun keng tarqalgan validlangan konstruktlar asosidagi shkalalar ham qo‘llandi: umumiy o‘zini-samaradorlik, akademik motivatsiya (autonomiya/ichki motivatsiya ko‘rsatkichlari), rezilyentlik, metakognitiv xabardorlik va ta’limiy muhitning idrok etilgan sifat ko‘rsatkichlari. Agar mavjud lokal versiyalar topilmasa, tarjima–qayta tarjima (back-translation) va kognitiv intervyular orqali lingvistik hamda madaniy moslashtirish amalga oshirildi.

Jarayon va ma’lumot yig‘ish. Miqdoriy bosqichda so‘rovnomalar onlayn va auditoriya sharoitida o‘tkazildi; anonimlik, ixtiyoriylik va istalgan vaqtda ishtirokni to‘xtatish huquqi ta’minlandi. Javob sifatini yaxshilash uchun diqqat tekshiruv bandlari, javob vaqtining haddan tashqari qisqa/uzun bo‘lishiga filtrlash, takroriy javoblarni bartaraf etish mexanizmlari ishlatildi. Kvazieksperimental bosqichda 6–8 haftalik qisqa modul ko‘rinishida intervensiya dasturi joriy qilindi: maqsad qo‘yish va rejalashtirish bo‘yicha ustaxonalar, metakognitiv refleksiya jurnallari, stressga chidamlilik mashqlari va ijtimoiy tarmoq (peer-coaching) sessiyalari. O‘lchovlar pre-test (1-hafta), post-test (8-hafta) va kuzatuv (12-hafta) nuqtalarida olindi. Sifat bosqichidagi intervyular intervensiya yakunidan so‘ng o‘tkazildi, bu qatnashchilarning strategik xulq-atvoridagi o‘zgarishlarga ma’no berish jarayonlarini chuqurroq tushuntirishga xizmat qildi.

ISSN 2992-9024 (online)
2025, vol.3

Ma’lumotlarni tayyorlash va psixometrik tekshiruv. HSS va yordamchi shkalalarda bandlar darajasida taqsimot, etishmayotgan ma’lumotlar (MCAR/MAR tekshiruvi), outlayerlar va normalikka yaqinlik baholandi; zarur holatlarda robast usullar (MLR/bootstrapping) qo‘llandi. Ichki izchillik Cronbach alfa va McDonald omega bilan baholandi; konstruktsiya tuzilishi uchun eksplorator faktor tahlili (EFA) — parallel tahlil va oblimin rotatsiyasi; so‘ng tasdiqlovchi faktor tahlili (CFA) o‘tkazildi. O‘lchovning turli guruhlar bo‘yicha barqarorligi o‘lchov invarianti (konfigural, metriko, skalyar) orqali tekshirildi. Bitta manbali umumiy usul xatolarini kamaytirish uchun bandlarni turli shaklda taqdim etish, qaytarib kodlash, shuningdek statistik nazorat sifatida ko‘p o‘lchovli VIF va (zarur bo‘lsa) usul omili modeli baholandi.

Analitik strategiya (miqdoriy). Teoretik modelga ko‘ra, ichki motivatsiya va ma’nolilik tuyg‘usi hayotiy strategiyalarni bevosita ham, o‘zini-samaradorlik va metakognitiv monitoring orqali bilvosita ham qo‘llab-quvvatlaydi; idrok etilgan ta’limiy muhit sifati esa ushbu yo‘llarni modere qiladi. Shu sababli asosiy tahlil strukturaviy tenglamalar modellashtirish (SEM) yordamida amalga oshirildi: (a) o‘lchov modeli (CFA) tasdiqlangach, (b) vositachilik (mediation) yo‘llari uchun bootstrap (5 000 namuna) ishonch oralig‘i hisoblandi, (c) modere ta’sirlar uchun o‘zgaruvchilar markazlashtirildi va o‘zaro ta’sir terimlari kiritildi. Eksperimental bosqichda esa aralash dizaynli ANOVA yoki ANCOVA (pre-test ko‘rsatkichlarini kovariat sifatida) bilan guruh × vaqt o‘zaro ta’siri baholandi; effekt o‘lchamlari Cohen d va qisman eta-kvadratda taqdim etildi. Shuningdek, natijalarning barqarorligini tekshirish uchun robast varians baholash va sezgirlik tahlillari (muqobil model spetsifikatsiyalari, subguruhi bo‘yicha) qo‘llandi.

